

ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ

ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ
ФАЛСАФА ВА ҲУҚУҚ

ИЖТИМОЙ - СИЁСИЙ, МАЬНАВИЙ - МАЪРИФИЙ,
ФАЛСАФИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖУРНАЛ

2
2024

FALSAFA va HAQQ
ФИЛОСОФИЯ и ПРАВО
PHILOSOPHY and LAW

ФАЛСАФА ва ҲУҚУҚ

Ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий, фалсафий-хуқуқий журнал
2024/2 (№28)

Бугунги ниҳоятда мураккаб ва таҳликали давр олдимиизга янги-янги синов ва муаммоларни кўндаланг қилиб қўймоқда. Лекин ҳаёт қанчалик машаққатли бўлмасин, мамлакатимизда демократик ислоҳотларни изчил давом эттириб, халқимизни рози қилишига, тинчлик ва барқарорликни мустаҳкамлашга бор куч ва имкониятларимизни сафарбар этамиз.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев

Тахрир ҳайъати:

М.Н.Абдуллаева -
ф.ф.д., профессор

Б.Т.Тўйчиев -
ф.ф.д., профессор

Ж.С.Раматов -
ф.ф.д., профессор

Г.Т.Махмудова -
ф.ф.д., профессор

В.Р. Топилдиев -
ю.ф.д., профессор

Қ.Н.Назаров -
ф.ф.д., профессор

И.Саифназаров -
ф.ф.д., профессор

Ў.М.Абилов -
ф.ф.д., профессор

А.Ў.Ўтамуродов -
ф.ф.н., профессор

Ў.Ғ.Тилавов -
ф.ф.д., DSc

Бош мухаррир:
А.Г.Муминов -
с.ф.д., профессор

Бош мухаррир
ўринбосари:
Х.В.Соқиев

фалсафа доктори, PhD

Журналнинг ушбу сонида 2024 йил 7 сентябрда Ўзбекистон Миллий университети, ТИҶХММИ Миллий тадқиқот университети ва Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти хамкорлигида “Янги Ўзбекистоннинг баркарор тараққиёти - маънавий баркамол авлодни тарбиялаш омили” мавзууда ташкил этилган онлайн илмий-амалий семинар материаллари ҳам нашр этилган.

М у а с с и с: Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий
Университети

Тахририят манзили: 100095 Тошкент шаҳар,
Университет кўч., 4.

www.phljournal.nuu.uz

E-mail: falsafavahuquq-jurnal@nuu.uz

ISSN 2181-7294

Босишга 24.10.2024 да берилди
Бичими 60x84 Ofset қофози. “Times”
гарнитураси. Хажми 30 б.т. Нашриёт ҳисоб
табоғи 30 б.т. Адади 100 нусха.

Журнални нашрга тайёрловчилар
Қ.Назаров, А.Муминов, Х.Соқиев



МУНДАРИЖА:

Саифназаров И.	<i>Оила мустаҳкамлиги - ижтимоий давлат шакланишининг муҳим омили</i>	4
Рузиев Р.Ж.	<i>Ижара муносабатларини фуқаровий-хуқуқий тартибга солишга доир илмий-назарий ва амалий тавсиялар</i>	8
Utamuradov A.	<i>G'arb mutafakkirlari asarlarida fuqarolik jamiyatiga doir g'oyalar rivoji</i>	12
Тўраев Ш.Н.	<i>Маънавий маконни барпо этиши жамият фаровонлигининг муҳим омили</i>	16
Ўлжаева Ш	<i>Темурйлар давридаги иккинчи уйгонши феномени</i>	19
Мухамеджанова Л.	<i>Жамият тараққиётида аҳлоқий эҳтиёжларнинг назарий ва амалий таҳлили</i>	23
Ботирова Ҳ.Э	<i>Ислоҳотларнинг хуқуқий асослари</i>	29
Носиров Р.	<i>Мустақиллик йилларида шахс тарбияси масаласи</i>	32
Махаммаджанов F.	<i>Замонавий жамиятларда ижтимоий онг трансформациялашуви тенденциялари</i>	35
Куйлиев Т.	<i>Экологик таҳдиидлар табиат ва жамият ўртасидаги мувозанат масаласи</i>	38
Omonov B.N.	<i>O'zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari</i>	41
Назаров Н.Н.	<i>Спорт фалсафасининг айрим муаммолари ва истиқболлари</i>	44
Yuldashev F.A.	<i>Abu Nasr Forobiy siyosiy falsafasining nazariy tahlili</i>	48
Raxmonov A.A.	<i>Abbosiylar davrida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot</i>	51
Рустамова Н.Р.	<i>Оиласий хуқуқий жавобгарлик чораларини қўллаш: муаммолар ва ечимлар</i>	55
Нишанбаева Э.З.	<i>Ижтимоий шериклик муносабатларини мустаҳкамлашида давлат ва фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ҳамкорлиги</i>	59
Юсубов Ж.Қ.	<i>Давлат фуқаролик хизматида самарали фаолиятни йўлга қўйишининг ижтимоий-институционал омиллари</i>	63
Надирова З.П.	<i>Интиуция ва тафаккурнинг баshorematchilik функцияси</i>	67
Shermamatova M.Sh.	<i>O'zbekistonda savdoni yengillashtirishda xalqaro bojxona standartlarining ahamiyati</i>	70
Djalalova N.X.	<i>Yoshlarning estetik tafakkurini yuksalishida musiqa madaniyatidagi konsepsiylar</i>	76
Нишонбоева. Г.	<i>Фундаментал маданиятиуносликнинг ўзига хос хусусиятлари</i>	80
Джураева Н.А.	<i>Перспективы развития социально-культурного бытия Нового Узбекистана</i>	84
Мамадаминова. Б. А	<i>Экологик таълим-тарбия хусусида</i>	87
Равшанов.А.С	<i>Коррупцияга қарши кураши – етук кадрлар тайёрлаши сиёсатининг самарали воситаси</i>	90
Баҳромбеков Б.Б.	<i>Прокурорнинг айбловдан воз кечиши амалиётининг миллий қонунчиликдаги ўрни ва халқаро тажриба</i>	94
Butayeva X.Yu.	<i>Ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalarni jamiyatga adaptatsiya jarayoni xorijiy tajriba misolida</i>	100
Sherboboyev M.A.	<i>Karl Popper postpozitivizm vakili sifatida</i>	104
Исламходжаева М.А.	<i>Ответственность за преступления против молодежи по законодательству некоторых зарубежных стран.</i>	108
Тилавова. З	<i>Маданий тараққиётга эришиши омиллари ва ёшлар тарбияси</i>	112
Xojimamatov A.	<i>Globallashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarning estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni</i>	115

Boymirzaev J.B.	<i>Ichki ishlar organlarining giyohvandlik vositalariga qarshi kurashda boshqa sohaviy xizmatlar bilan hamkorligi</i>	119
Salimov B.L.	<i>Muhandislik falsafasining muhim xususiyatlari</i>	123
Akramov G.N.	<i>Ijtimoiy falsafada marginallashtirish nazariyalari: tarixiy nuqtai nazar va hozirgi holat</i>	126
Xakimova.M.A.	<i>Milliy tarbiya va ta'lim uzviyligi: ma'naviy me'ros, uslub va texanizmlar</i>	130
Каланова С.М.	<i>Социологик тадқиқотларда авлодлар алмашинуви жараёнларининг ижтимоий таҳлили</i>	133
Мажидова О.У.	<i>Ибн Сино мантиқий асарларида хукм рационал билишининг шакли сифатида</i>	137
Ахмедова. Д.Б.	<i>Новый Узбекистан: реформы в сфере образования</i>	141
Sharobiddinov Sh.Sh.	<i>Yangi O'zbekiston yoshlarini ma'naviy yuksalishida vorisiylikning ahamiyati</i>	145
Jo'raboyev Sh.T.	<i>Ta'lif muassasalarida inson huquqlarining kafolatlari: qiyosiy tahlil</i>	149
Эшбеков Д. Ш.	<i>Давлат бошқарувида замонавий парламент парламентаризм ривожи сифатида</i>	152
Касимов Н.С.	<i>Қасддан одам ўлдириши жиноятларида жабрланувчиларнинг таснифи ва жиноят содир этилишидаги роли</i>	156
Рахманбердиева Н.Б., Юнусова.Н.Ш	<i>Информационно-психологическая безопасность и массовая культура в современном глобальном процессе</i>	160
Miraxmedov J.M.	<i>Tarixiy ongning funksiyalari va uning ijtimoiy ong shakllari bilan dialektik aloqadorligi</i>	164
Мухамедов А.	<i>Юсуф Хос Ҳожибнинг давлат қурилиши концепциясининг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари</i>	167
Акилова Ў.М.	<i>Маънавий янгиланиши жараёнида инновацияларнинг роли</i>	171
Raimov E.B.	<i>Oliy ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shaklini tanlash masalalari</i>	174
Xolmurodov G.	<i>Yangi O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos xususiyatlari</i>	178
Ataqulov Q.I	<i>Globallashuv sharoitida turkiy davlatlarning mintaqaviylashuvi</i>	182
Хидиров Ф.Ш.	<i>Профилактика инспекторлари томонидан жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларни кўриб чиқши тартиби ва унга риоя этишини таъминлаш</i>	186
Ўразалиева Г.Б.	<i>Замонавий ўзбек оиласининг айрим этносоциал жиҳатлари</i>	190
Tursunova L.	<i>Zamonaviy talaba yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda musiqiy tafakkurning analitik tahlili</i>	194
Ravshanova.G.A	<i>Yuksak ma'naviyat va adolatparvarlik tamoyillarining Yangi O'zbekiston fuqarolik jamiyatni rivojlanishiga ta'siri</i>	197
Jurayev Sh.S.	<i>Abu Ali ibn Sinoning "Al-ishorat va at-tanbihot" asarining yetinchi fasli "ruhning tanadan ko 'chishi" haqida ba'zi mulohazalar</i>	200
Panjizoda H. Z.	<i>Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha xalqaro huquqiy tajriba</i>	204
Pulatov Sh.N.	<i>Qadimgi Hindistonda inson haqidagi bilimlarning paydo bo'lishi</i>	208
Yunusov X.	<i>Talaba yoshlar kasbiy shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari</i>	212
Makhmudova Kh. M.	<i>Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ'ibotning roli</i>	216
Obbosxonov A.A.	<i>Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosiy va huquqiy madaniyatini rivojlantirishning ustuvor vazifalari</i>	220
Maxsudjonov K.M.	<i>Zamonaviy kibermakon va yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish masalalari</i>	224

ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИ - ИЖТИМОЙ ДАВЛАТ ШАКЛЛANIШИНинг МУХИМ ОМИЛИ

Саифназаров И. -
ТДИУ профессори,
фалсафа фанлари доктори,

Оила - кишиларнинг никоҳ ёки қон-қариндошлик ришталари, умумий турмуш тарзи, ахлоқий масъулият ҳамда ўзаро ёрдамга асосланувчи кичик гурухиdir. Ҳар бир оила умумжамият талаблари асосида фаолият юритади. Жамият тараққиётининг ривожи эса унинг бағрида мавжуд бўлган оилаларнинг ижтимоий-иктисодий ва маънавий қиёфасининг шаклланганлик даражасига бевосита боғлиқdir. Француз ёзувчisi Виктор Гюго “Оила – жамиятнинг дури гавҳари”, - деганда минг бора ҳақ эди. Буюк татар олимни Ризоуддин ибн Фахруддин (1848-1917) XX аср бошларида аҳлоқ, одоб, оила масаласига эътибор қаратиб, ўзининг “Оила” асарида шундай деган эди: “Миллатлар шарафини юқори мартабага кўтариадиган нарса миллионлар ила саналмоқда бўлган аскарлару дунёда энг буюк ва зўр бўлган кемалар эмас, балки энг оз эътибор берадиганимиз ё бўлмаса ҳеч бир замон эътибор бермасдан келадиганимиз бўлмиш оиладир. Оила низомсиз бўлса, унинг ёмон оқибати бутун миллатга таъсир этар ва шу сабабдан фазилат ўрнига разолат, тараққиёт ўрнига тубанлик негиз кўрар. Худонинг ўзи асрасинку, агарда бир миллатга бундай ҳол рўбарў келса, у миллат китобининг сўнгги варағи очилғусидир”.

Дарҳақиқат, ҳалоллик, ростгўйлик, ор-номус, шарми-ҳаё, меҳру-оқибат, меҳнацеварлик каби барча инсоний фазилатлар энг аввало оилада шаклланади. Оила жамиятнинг бошлангич хужайраси, ўғил-қизларнинг аҳлоқи, маданий даражаси, қобилияти, ақл-заковати, фикр юритиши, ҳаёллари, мулоқоти, хулқ-атвори, эътиқоди ва илмий дунёқараши кабиларга юқори даражада тарбиявий таъсир кўрсатиш имкониятига эга бўлган муҳим омилdir.

Оила ҳақида гапирап эканмиз, оила ҳаётнинг абадийлигини, авлодларнинг давомийлигини таъминлайдиган, муқаддас урф-одатларимизни сақлайдиган, шу билан бирга келажакда қандай инсон бўлиб етишишга бевосита таъсир кўрсатадиган тарбия ўчоғи эканини тан олишимиз даркор. Шу жиҳатдан олиб қаралганда, Ўзбекистон миллий тараққиётида, инсоннинг ҳаёти ва турмушида, айниқса ёш авлоднинг камолот топишида, аҳлоқий вояга етишида оиланинг ўрни ва вазифаси муҳим эканлигини унутмаслигимиз лозим. Бу жараённинг тугал ечими оила таъсиридан ташқарида юзага келмайди.

Ўзбекистонда жамиятимизнинг муҳим бўғини саналган оиланинг ижтимоий негизини мустаҳкамлашга алоҳида эътибор қаратилгани бежиз эмас. Унга асосан миллий қадриятларимиз, никоҳ ва оила муқаддаслигини таъминлаш, ёш оилаларни моддий ва маънавий қўллаб-қувватлаш, оналик ва болаликни муҳофазалаш, оилаларда ижтимоий-маънавий муҳитни яхшилашга доир кенг қўламли ишлар амалга оширилади. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида ижтимоий ҳимоя соҳасидаги устувор вазифалар юзасидан 2024 йил 20 февраль куни ўтказилган видеоселектор йиғилишида ҳам оила мавзусига алоҳида тўхтади.

Бугунги кунда оилани мустаҳкамлашда Оила ва хотин-қизлар қўмитаси, Касаба уюшмалари федерацияси ҳамда маҳаллалардаги хотин-қизлар фаолларининг иштироки кучайиб бораётгани эътиборга молик. Улар томонидан “хонадонбай” ўрганишлар натижасида ижтимоий ёрдамга муҳтоҷ 690 мингдан зиёд оиласига манзилли ёрдам кўрсатилгани, 116 мингта нотинч оилада муҳит соғломлаштирилганини алоҳида эътироф этиш мумкин [3]. Мамлакатимизда оиланинг муҳим таянчи бўлладиган бўлгуси оналар, келажак тарбиячилари бўлмиш қизларимиз камолатига, уларнинг олий таълим олиши, замонавий касб-хунар ва технологиялар, хорижий тилларни эгаллашига катта аҳамият берилмоқда.

Оила масаласига бу қадар жиддий эътибор замирида бутун дунё оила институти инқирозига, хусусан, никоҳлар бекарорлиги, ажрашишлар сони ортиши, никоҳсиз туғилишлар кўпайиши, оилавий ҳаёт ва фарзанд тарбиясига тоқатсизлик каби муаммоларга тўқнаш келаётгани муаммоси турибди. Ижтимоий ҳаётдаги энг долзарб муаммолардан бири бу оиласардаги ажрашишлардир. Тахлилларга кўра, оилавий ажралиш кўрсаткичлари ўтган йилларга нисбатан Қорқалпоғистон Республикаси, Самарқанд, Қашқадарё, Бухоро, Тошкент, Сирдарё вилоятларида камайганлиги аниқланган бўлса, энг юқори ўсиш кўрсаткичлари Фарғона вилоятида 10,2 фоизга, Андижон вилоятида 14,9 фоизга, Хоразм вилоятида 7,4 фоизга, Тошкент шаҳрида 5,2 фоизга ортганлиги аниқланган. Никоҳдан ажралиш сабаблари ўрганилиб, таҳлил этилганда 16 фоиз ҳолатда никоҳланувчиларнинг оиласа тайёр эмаслиги, 12,3 фоиз ҳолатда фарзандсизлик, 15,0 фоиз ҳолатда 3-шахс аралашуви, 12,2 фоиз ҳолатда узок вақт бир оила бўлиб яшамаганлик, 5,9 фоиз молиявий ва моддий қийинчиликлар ҳамда 2,7 фоиз ҳолатда хиёнат сабаб бўлганлиги маълум бўлган. Шунингдек, аксарият оиласар 2,6 фоиз спиртли ичимлик ва гиёхванд моддалар истеъмоли, 1,5 фоиз тазиқ ва зўравонлик, 2,1 фоиз ҳолатда оммавий ёки хорижий маданиятнинг салбий таъсири ва бошқа сабаблар туфайли барбод бўлган. Оиласардаги ажрашишлар оқибатида 30 мингдан кўпроқ бола бугунги кунда тирик етимга айланган. Афсуски, булар аччиқ ҳақиқатлар.

Миллатнинг умумий баҳти, саодатли эртаси учун бугун харакат қилиш шарт. Бунда аввало оиласа туғилган фарзандларнинг чиройли муҳитда ўсиши, камол топиши ва улар балоғатга етганида оиласа тайёрланиши муҳим аҳамият касб этади. Шу нуқтаи назардан Президентимиз Ҳалқаро хотин-қизлар кунига бағишлиланган тантанали маросимда азиз опасингилларимизни оиласа фарзанд тарбиясига эътиборни кучайтиришга қаратилган чақириғи бежизга эмас. “Биз маънавий тарбия ишларини энди мутлақо янгича усулда олиб боришимиз керак. “Эзгулик – шиоримиз, маърифат – қуролимиз” деган ғоя асосида бу жараённи аввало оиласадан, маҳалладан бошлашимиз лозим. Зотан, ҳадиси шарифда айтилганидек, “Ота-она ўз фарзандига яхши тарбиядан бошқа мерос қолдиролмайди”.

Зеро, оилавий ажрашишларнинг сабаблари юзасидан ўтказилган фундаментал, амалий ва инновацион тадқиқотлар муаммо аксарият ҳолларда маънавий даража, психология ва тарбияга боғлиқ эканини кўрсатади. Аччиқ ҳақиқат шуки, баъзи ёшлар оила қуришга тайёр эмас. Шу билан бирга аксарият қайноналарнинг ҳам оила борасида илми, тажрибаси йўқ, ташқаридан келган бир қизга қандай муносабатда бўлишни билмайди. Яхшиям маҳалла бор, жамоатчилик бор. Ота-оналар, тегишли маҳалла фуқаролар йиғинлари вакиллари, оила ва хотин-қизлар бўлимлари бу масалага ҳамиша масъулият билан ёндашсалар муқаддас оила кўргони камроқ бузилади.

Оила кўргонинининг дарз кетишга сабаб бўлаётган оиласадан бири илмсизлик, жоҳиллик, шаръий никоҳларнинг авж олишидир. Оила кодексининг 13-моддасида белгиланганидек, никоҳ фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш органларида тузилади. Минг афсуски, кейинги пайтларда оилавий муносабатларга енгил-елпи қараш ҳолатлари кўпроқ учрамоқда. Айрим хотин-қизлар оқибатини ўйламай “шаръий никоҳ” орқали иккинчи хотин бўлиш йўлини танлашмоқда. Тасаввур қилинг, тегишли давлат идорасида қонуний қайд этилмаган никоҳдан туғилган фарзандларнинг тақдири, келажаги нима бўлади? Табиийки, давлат қонунлари бўйича улар кўпгина хуқуқлардан маҳрум бўлади, хусусан, оталикни белгилаш, туғилганлик тўғрисидаги гувоҳномани олиш, мерос хуқуқи, ўсиб улғайгандан кейин, боғчага, таълим муассасасига қабул қилиш масалаларида қанчадан-қанча муаммолар пайдо бўлади. Энг ёмони, бундай болалар руҳан мажруҳ бўлиб, турли маънавий нуқсонлар билан вояга етади.

Президентимизнинг 2023 йил 21 декабрдаги “Оиласарни мустаҳкамлаш ва хотин-қизларнинг фаоллигини ошириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори ҳам эътиборга молик. Унга мувофиқ, жорий йилнинг 1 январидан бошлаб фуқаролик ишлари бўйича туманлараро судларда оилавий низоларни кўришга ихтисослашган судьялар корпуси шакллантирилмоқда. 2024 йилнинг 1 февралидан эса тажриба тариқасида фуқаролик ишлари

бўйича Самарқанд шаҳар, Наманган туманларо ва Мирзо Улуғбек туманларо судларининг 2 нафардан судъяси оилавий низоларни кўриш бўйича ихтисослаштирган ҳолда ушбу судларда “Оила судъялари” ташкил этиляпти. “Оила судъялари”нинг ижобий томони шундаки, айнан оилавий низоларни кўради, бунга қатъий ихтисослашиб, бошқа ишларни кўришга чалғимайди, шу борадаги қонун хужжатлари, хаётий тажрибадан келиб чиқиб, бу тоифадаги ишларни муҳокама қиласди, оилавий низоларнинг келиб чиқиш сабабларини таҳлил қиласди, бунга имкон яратган шарт-шароитларни бартараф этиш чораларини кўриб боради. Бундай тажриба мамлакатимиз тарихида ҳеч қачон кузатилмаган. Айтиш жоизки, бугунги кунда ҳам қариндошлар ўртасида никоҳ, шунингдек, қизларни эрта узатиш ҳолатлари кузатилаётганлиги ва бу салбий оқибатларга олиб келаётгани ушбу масалага янада теранроқ назар ташлаш, янада масъулият билан ёндашиш лозимлигини кўрсатади.

Халқимиизда “Куш уясида кўрганини қиласди”, деган нақл бор. Ўз навбатида оилада шаклланиб келаётган ҳар бир инсон жамиятнинг асосий бўғини эканлиги, у эртага келажак пойдевори бўлиши лозимлиги, албатта, оилада сингдирилиб, уқтириб борилади. Бугун давлат сиёсати даражасига кўтарилаётган оила мезонлари – жамият мезонлари эканлиги яна бир бор исботланмоқда. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, оилани мустаҳкам ушлаб туриш, келажак авлодни бенуқсон тарбиялаш бевосита оналаримиз, аёлларимиз, хотин-қизларимизга боғлиқ эканлиги барчамизга аён. Шундай экан, биз аввало, маънан етук, ақлан соғлом, фикратиу сийратида дадиллик уфуриб турадиган, қатъият ва сабр-матонатли қизларимизни тарбия қилмоғимиз, уларни турли тўфонлардан гул каби асраб-авайламоғимиз лозим. Миллий қадриятлар асосида камол топаётган қизларимизни бевосита илмли қилиш, уларни турли соҳаларда ўқитиш, касб-хунар эгаллаши, аввало, ўзи, оиласи учун пойдевор бўлса, иккинчи томондан жамиятда соғлом фикрловчи шахсларнинг кўпайишига сабаб бўлади. Оилада ҳам, жамиятда ҳам ҳар доим эркак киши етакчи эканлигини англашган ҳолда гендер тенглик тамойили асосида етишиб чиқаётган кадрларимизнинг кўпайиши давлат ривожланишида муҳим аҳамият касб этади. Чунки биз ўз ғурурию шаънини ҳимоя қилолган Тўмарислар, ақл-заковатда тенгсиз бўлиб, дунё бошқарувида барчани бўйсундира олган Темурийлар салтанатининг асосий тиргаги, маслаҳатгўйи бўлган Бибихоним, ўз вафосию садоқати билан дунёни лол қолдирган Нодираю Увайсийлар авлодимиз. Шуни англашган ҳолда, оила ва унинг моҳияти, оиланинг ҳар томонлама равнақи ва жипслигини таъминлаш, оилаларга эътибор халкка, миллатга, келажакка эътибор эканлигини хар биримиз теран тушуниб олишимиз зарур.

Мамлакатимизда оила масаласига давлат сиёсатининг устувор вазифаси сифатида қаралади. Буни, бош қомусимиз - Ўзбекистон Республикаси Конституциясида оилага алоҳида боб ажратилганида ҳам кўриш мумкин. Жаҳонда Ўзбекистон Республикаси Конституциясидан фарқли ўлароқ кўплаб давлатлар ўз конституцияларида оила масаласига қисман ўрин ажратган бўлсада, унга алоҳида боб ажратилгани бугунги кунгача тажрибада кузатилмаган. Мазкур ёндашувнинг ўзи Конституциямизда оилага “жамиятнинг асосий бўғини” статуси ҳамда “жамият ва давлат муҳофазасида бўлиш ҳуқуқи” бежиз берилмаганини кўрсатади. Асосий Қонуннинг 77 моддасида “Давлат ва жамият етим болаларни ҳамда ота-онасининг васийлигидан маҳрум бўлган болаларни боқишини, тарбиялашни, уларнинг таълим олишини, соғлом, тўлақонли ва ҳар томонлама камол топишини таъминлайди, шу мақсадда хайрия фаолиятини рағбатлантиради”[9].

Бизни қувонтирадигани Ўзбекистонда ҳеч ким эътибордан четда эмас. Давлат Конституцияда белгиланган ижтимоий ҳимоя принципларини рўёбга чиқаряпти. Ҳар бир инсон баҳтли бўлишга ҳақли, у баҳтни орзу қиласди, баҳтга интилади. Инсонлар баҳтли бўлса, оилалар баҳтли бўлади. Оилалар баҳтли бўлса, жамият мустаҳкам бўлади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ўз келажагини қуришда, белгилашда инсонлар адашмаслиги, оила-муқаддас қўрғон эканлигини англаб етишлари, қонунда белгиланган тартибда никоҳ тузиб, оила ва жамият мустаҳкамлиги, мамлакат барқарорлигини таъминлашда ўз ҳиссаларини кўшишлари лозим. Зеро, оила ҳаётнинг абадийлигини, авлодларнинг давомийлигини таъминлайдиган, шу билан бирга, келажак насллар қандай

инсон бўлиб етишишига, жамият равнақига бевосита таъсир кўрсатадиган тарбия ўчоғи ҳисобланади. Оила мустаҳкамлиги Янги Ўзбекистонда ижтимоий давлатни шакллантиришнинг муҳим омили ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Lex.uz>docs/6445145
2. Янги Ўзбекистонда бутун ҳалқимиз қатори хотин-қизларимиз учун ҳам муносиб шароитларни яратиб бериш – энг муҳим вазифамиз бўлиб қолади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар кунига бағишлиланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://president.uz/uz/lists/view/7076>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оилаларни мустаҳкамлаш ва хотин-қизларнинг фаоллигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. “Халқ сўзи”. 21.12.2023.
4. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд: Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар — Т.: «Маънавият», 2006
5. Ижтимоий ҳимоянинг янги тизими инсон қадрини таъминлашга хизмат қиласди. <https://president.uz/uz/lists/view/7041>

РЕЗЮМЕ:

Мақолада ижтимоий ҳаётдаги энг долзарб муаммолардан бири оилалардаги ажримлар эканлиги, оила қўргонинининг дарз кетишига сабаб бўлаётган омиллар батафсил ёритилган, ота-боболаримиз эътибор қаратган оиланинг мустаҳкамлиги ғоят долзарб ва нозик масала эканлиги фалсафий таҳлил этилган.

Калит сўзлар: оила, ота-оналар, ижтимоий давлат, ижтимоий ҳимоя, жамият, оиланинг мустаҳкамлиги, авлодлар давомийлиги, урф-одатлар,

РЕЗЮМЕ:

В статье подробно поясняется, что одной из наиболее актуальных проблем общественной жизни является семейный разлад, факторы, вызывающие разрушение семейной крепости, а также философски анализируется тот факт, что прочность семьи, на которую обращали внимание наши предки, является чрезвычайно актуальным и чувствительным вопросом.

Ключевые слова: семья, социальное государство, социальная защита, общество, прочность семьи, продолжительность поколений, традиции, родители

RESUME:

The article explains in detail that one of the most urgent problems of social life is family discord, the factors causing the destruction of the family fortress, and also philosophically analyzes the fact that the strength of the family, which our ancestors paid attention to, is an extremely actual and sensitive issue.

Key words: family, social state, social protection, society, family strength, length of generations, traditions, parents

ИЖАРА МУНОСАБАТЛАРИНИ ФУҚАРОВИЙ-ХУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШГА ДОИР ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ ТАВСИЯЛАР

Рўзиев Р.Ж. –
Ўзбекистон Республикаси
Жамоат хавфсизлиги университети профессори,
юридик фанлар доктори

Амалдаги қонун хужжатларини таҳлил қилиш ва илмий-танқидий ёндашиш асосида амалдаги нормаларни такомиллаштириш, тадбиқ этиш механизми юзасидан давр талабига мос асосли таклифлар бериш ва тавсиялар ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, ижара ва унга оид шартномавий хуқуқий муносабатларни илмий жиҳатдан ўрганиш фуқаролик хуқуқий изланишлар йўналишида муҳим ўрин тутади.

Хусусан, мулк ижараси муносабатларининг барқарорлигини таъминлаш - шартномавий хуқуқий жавобгарлик масалаларини ҳар жиҳатдан атрофлича ўрганишни, бунда фуқаролик хуқуқий жавобгарлик шаклларига ва уларни такомиллаштириш муаммоларига эътибор беришни назарда тутади. Умуман, мулк ижараси билан боғлиқ ана шу долзарб муаммоларни чет эл тажрибасига ижодий ёндашган ҳолда амалиётимиз талабларидан келиб чиқиб ҳал қилишимиз керак бўлади. Бу вазифанинг тўғри ечимида эришиш учун мазкур йўналиш бўйича илмий тадқиқотлар олиб бориш, амалдаги қонунчиликни такомиллаштиришга оид таклиф-тавсиялар ишлаб чиқиш, шартномавий хуқуқий муносабатларни ривожлантириш юзасидан илмий хulosалар бериш мақсадга мувофиқдир.

Биринчидан, мулк ижараси мол-мулкни, шунингдек **мол-мулкка бўлган хуқуқни** ва табиат обьектларини бегоналаштиргмаган (унга бўлган мулк хуқукини ўзgartирмаган) ҳолда фуқаролик муомаласида самарали ишлатиш учун беришнинг восита ва усусларидан бири ҳисобланади. Ўзининг хуқуқий моҳиятига кўра, **ижара (ижара хуқуқи)** шартнома асосида бегона ашёни, шунингдек унга бўлган мулк хуқукини эгалик қилиш ва ундан фойдаланиш каби хуқуқий унсурлари орқали амалга оширишнинг кўринишларидан бири сифатида эътироф этилади. Бундай нуқтаи-назар, фуқаролик хуқуқида ижара тушунчасининг янги қирраларини очишида хизмат қиласди. Шуни инобатга олиб, ЎР ФК 34-боби ва 535-модда номланишини “Мулк ижараси” матнидан “Ижара” матнига ўзgartiriш, шунингдек 535-моддаси мазмунига қўйидаги таҳририй қўшимчани киритган ҳолда баён этилиши мақсадга мувофиқ, яъни “**Ижара шартномаси бўйича ижарага берувчи ижарага оловчига ҳақ эвазига ашёни ва (ёки) ашёга бўлган мулк хуқуқини вактинча эгалик қилиш ва фойдаланиш ёки фойдаланиш учун топшириш мажбуриятини олади**”. Бунда “мол-мулк” ва “ашё” тушунчаларини тўлиқ очиб бериш ва фуқаролик қонун хужжатларида, жумладан ЎР ФКда асосли фикрга таяниб, ҳар иккаласини тўғри ва жойида ишлатиш масаласини ҳал қилиш лозим.

Иккинчидан, юзага келган ижтимоий-иқтисодий ва хуқуқий омилларни ҳисобга олиб, мулк ижараси тўғрисидаги қонунчиликни такомиллаштириш зарурати муносабати билан ЎР ФК умумий қоидаларига таянган ва чет мамлакатлар илғор тажрибасини инобатга олган ҳолда ЎР «**Ижара тўғрисида»ги қонунини ҳам янги таҳрирда қабул қилиш таклиф этилади**». Бу ЎР Президентининг 2018 йил 8 августдаги ПФ-5505-сон Фармони билан тасдиқланган “Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепцияси” [2] ва ЎР Президентининг 2019 йил 5 апрелдаги Ф-5464-сон фармойиши билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш концепцияси” [3] вазифаларига мос келади.

Учинчидан, ҳар қандай ашёни, шунингдек ашёга бўлган мулк хуқукини ижарага олиш оқибатида ижарага оловчи эга бўладиган ижара хуқуки (эгалик қилиш ва фойдаланиш хуқуки) мулк ижараси шартномасидан келиб чиқсада, ижара хуқукини шартноманинг ўзи билан аралаштириб юбормаслик лозим. Чунки, ушбу хуқуқ ашёвий хуқуқларга хос бўлган – мулк ортидан эргашиш (ЎР ФК 549-м. 1-к.) ва ҳимоянинг мутлақлиги (ЎР ФК 232-м.) хусусиятларига эга. Буни эътиборга олиб, мулкдор (айни ҳолатда, ижарага берувчи) ижарага топширилган мол-мулкка бўлган мулк хуқукини қонун ва мулк ижараси шартномаси

доирасидагина амалга ошириши шарт. Ана шундай мулоҳазадан келиб чиқиб, ЎР ФК 546-моддаси 1-қисмига қўйидаги кўшимиchlани киритиш таклиф қилинади: “**Мулк ижараси шартномасини амал қилиш муддати давомида ижарага берувчи ижарага берилган мол-мulkни ижарага олувчининг розилигисиз тасарруф қилишга ҳақли эмас, башарти қонунда ёки шартномада бошқача ҳол назарда тутилган бўлмаса”.**

Тўртинчидан, фикримизча, ижарани тадбиркорликнинг ташкилий-хуқуқий шакли ва хусусийлаштиришнинг усули сифатида эътироф килувчи Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 14 февраль қабул қилинган ЎРҚ-907-сон “Давлат мулкини хусусийлаштириш тўғрисида”ги қонуни (19-м., 1-к., 8-б.) , Ўзбекистон Республикасининг “Ижара тўғрисида”ги қонуни (18-м.) [4], нормалари таҳририни ижара шартномавий мажбуриятларининг моҳияти ва табиатига зидлигини эътиборга олган ҳолда янги таҳrirда тайёрланаётган ЎР ФК лойиҳасида назарда тутиш лозим, деб ўйлаймиз.

Бешинчидан, ЎР ФКнинг ижара тўғрисидаги умумий қоидалари таҳлили асосида: **биринчидан**, умумий нормалар билан бир қаторда, ашёни, шунингдек унга бўлган мулк хуқуқини ҳақ эвазига ёки текинга берилишидан қатъи-назар, ашёни вактинча фойдаланишга бериш учун йўналтирилган мажбуриятларни тартибга солувчи маҳсус қоидаларни жамлайди; **иккинчидан**, ҳар қандай ижара муносабатлари ўзининг хусусиятларидан қатъий-назар, ашёни ҳақ эвазига вактинча фойдаланиш учун беришга йўналтирилганлиги сабабли хуқуқий тартибга солишининг умумий асосига эга; **учинчидан**, ижара тўғрисидаги умумий қоидалар янги норма вужудга келтирувчи аломатлар билан юкланмаган ижара муносабатларини тартибга солади.

Олтинчидан, ижара шартномасининг ҳақиқийлиги шартлари, ушбу шартнома тарафлари, уларнинг хуқуқ ва мажбуриятлари, шунингдек ижара шартномасини ўзгартириш ва бекор қилиш асослари ҳамда тартиби таҳлил этилиб, ЎР ФК ва ЎР “Ижара тўғрисида”ги қонунининг тегишли нормаларини такомиллаштириш максадида, **биринчидан**, ижара муддати, ижара ҳақининг миқдори ва уни тўлаш тартиби ҳақидаги шартларнинг муҳимлигидан келиб чиқиб, уларни ижара шартномасида белгилаш; **иккинчидан**, ЎР “Ижара тўғрисида»ги қонунининг 14-модда 1-қисмининг ижара шартномаси муддати тамом бўлганда, қайтадан тузилган шартноманинг муддатини белгилаш ҳақидаги нормасини мазмунан ЎР ФК 553-моддаси 4-қисми билан бирхиллаштириш; **учинчидан**, ижара шартномаси тарафларининг хуқуқ ва мажбуриятлари бевосита ашё билан боғлиқлиги, шунингдек назария учун аҳамиятли эканлигини ҳисобга олиб, уларни уч гурухга: а) қонунда белгиланган ва тарафлар келишувига кўра қайта тақсимланмайдиган; б) меъёрий хужжатларда назарда тутилган ва тарафлар келишувига кўра қайта тақсимланадиган; в) тарафлар келишувига кўра шартномада ифодаланадиган хуқуқ ва мажбуриятларга ажратиш; **тўртинчидан**, ижара шартномасининг муддати тамом бўлганидан кейин ижарага олувчи ашёдан фойдаланишни давом эттиrsa ва ижарага берувчи бунга эътироф билдиримаган бўлса, ижара шартномаси қайтадан эмас, балки янгитдан тузилган ҳисобланиши; **бешинчидан**, ЎР ФК 537-моддаси ҳамда ЎР “Ижара тўғрисида”ги қонунининг 3-моддасига ижара обьектини тавсифловчи барча маълумотларни тарафлар ижара шартномасида кўрсатишлари шартлиги ҳақидаги қоидани киритиш; **олтинчидан**, ЎР ФК 551-моддасида белгиланган нормалар ЎР ФК 382-моддасининг факат 2 ва 3-хатбошиларига нисбатан маҳсус қоидалар бўлиб, ушбу модданинг 1 ва 4-хатбошларига тааллуқли эмаслигини эътироф этишдан иборат.

Еттинчидан, назаримизда, ижара ҳақи пул (қатъий сумма) шаклида тўланмайдиган ва (ёки) ижарадаги ашёни келгусида сотиб олишни назарда тутувчи хуқуқий муносабатлар моҳиятига кўра аралаш шартномалар жумласига киришини эътиборга олиб, уларга нисбатан ЎР ФК 354-моддасининг 4-қисми нормалари қўлланилиши лозим. Айни пайтда, шуни ҳам таъкидлаб ўтиш ўринлики, ЎР ФК мазкур моддаси аралаш шартномаларни хуқуқий тартибга солишининг кўпгина масалаларига аниқ жавоб бермайди. Шунинг учун бундай хуқуқий муносабатларнинг батафсил тартибини ишлаб чиқиш вақти келди.

Саккизинчидан, прокат шартномаси тўғрисидаги ЎР ФК маҳсус қоидалари, умуман олганда, майший прокатга мўлжалланган бўлишига қарамай, ижара муносабатларининг анча кенг доирасини тартибга солиш учун хизмат қилиши мумкин. Ушбу қоидалар профессионал – ижарага берувчига қарама-қарши қўйилган истеъмолчи – ижарага олувчининг иқтисодий тобе ҳолатини акс эттиради. Иқтисодий тенгсизлик, ўз навбатида, прокат муносабатларини маҳсус тартибга солишни шарт қилиб қўяди. Фикримизча, профессионал – ижарага берувчи иштирокидаги бундай ижара муносабатларининг ўзига хос жиҳатини қонунда изчилроқ белгиланиши мақсадга мувофиқдир. Шу маънода, ЎР ФКда барча ижара хукукий муносабатларига нисбатан профессионал – ижарага берувчи тўғрисидаги қоидани қўллаш имкониятини белгилаб қўйиш мумкин.

Тўққизинчидан, ижара шартномасининг айрим турларини ва айрим турдаги мол-мулкни ижарага бериш шартномаларини тартибга солувчи нормалар бир-бирига зид келмаса, ўзаро бир-бирини тўлдириши, қўшиб қўлланиши мумкин. Нормалар бир-бирига зид келган тақдирда, тартибга солинаётган ижара хукукий муносабатларига кўпроқ яқин бўлган маҳсус қоидалар қўлланиши лозим. Бунда ижарага берилаётган ашёнинг тури ва унинг ўзига хос белгилари ҳисобга олинади.

Ўнинчидан, ижара бериш ва ижарага берувчига қайтариш тартибини такомиллаштириш, бино ва иншоатларни ижара муддати ҳамда ижара ҳақи миқдорини қайтадан кўриб чиқиши, ушбу қўчмас мулк жойлашган ер участкасидан фойдаланишда ижарага олувчининг хукуклари доирасини кенгайтириш зарур деб ҳисоблаймиз.

Ўн биринчидан, корхона ижара муносабатларининг субъекти эмас, балки обьекти эканлиги нуқтаи-назардан, ЎР “Ижара тўғрисида”ги қонунининг корхонани ижарага бериш шартномасини тузиш ва бажариш тартибини такомиллаштириш, корхонани ижарага бериш шартномаси бўйича ижарага берувчининг ижарага олувчи фойдасига талаб қилиш ҳукуқидан воз кечиши шартлари ва тартибини белгиловчи маҳсус қоидаларни ишлаб чиқиш зарур.

Ўн иккинчидан, ЎР ФК 587-моддасида берилган лизинг шартномаси тушунчасининг таърифига унинг муддати ва тўлови ҳақидаги шартларни киритиш йўли билан уларни муҳим шартлар сифатида ажратиб кўрсатиш мақсадга мувофиқ.

Ўн учинчидан, уй-жойни ижарага бериш шартномаси мулк ижараси шартномасининг бир тури бўлиб, ЎР ФК 35-боби иккита алоҳида бир-биридан мустақил бўлган шартномани, яъни уй-жой ижтимоий ижараси шартномаси ҳамда уй-жой тижорат ижараси шартномасини тартибга солади. ЎР ФК 601-моддасининг 1-қисмида берилган таъриф уй-жой тижорат ижараси шартномасига тааллуқли. Уй-жой ижтимоий ижара шартномасининг ўзига хос жиҳатларини инобатга олган ҳолда унга қуидагича таъриф берилиши ва уни ЎР ФК 601-моддасига қўшимча қилиб киритиш мақсадга мувофиқ, яъни: “Уй-жойни ижтимоий ижараси шартномасига биноан, бир тараф уй-жойнинг мулқдори ёки у ваколат берган шахс (ижарага берувчи) – бошқа тараф (ижарага олувчи ва унинг оила аъзолари)га ижтимоий мақсадли уй-жой фондидан доимий яшаш учун ҳақ эвазига (субсидия, кредит, бўлиб-бўлиб тўлаш асосида) ижтимоий нормага мувофиқ ярокли бўлган турар жойни эгалик қилиш ва фойдаланишга ёки факат фойдаланишга топшириш мажбуриятини олади”.

Ўн тўртинчидан, ижара шартномаси бўйича жавобгарликнинг ўзига хос хусусиятлари таҳлил этилиб, унга қуидагича таъриф берилди, яъни “ижара шартномаси бўйича жавобгарлик деганда, зиммасига юклатилган мажбуриятларини бажармаган ёки лозим даражада бажармаган тараф учун зарарни қоплаш, бой берилган фойда ва неустойкани ундириш, шунингдек шартномани муддатидан олдин бекор қилиш каби қўшимча нокулайликлар (ташвишлар) билан боғлиқ бўлган санкциялар (чоралар) тушунилади.

Маълумки, суд амалиётида ижара шартномасини бузганлик учун тарафларга нисбатан фуқаролик ҳукукий жавобгарлик чораларини аниқ белгилаш, уларнинг ижросини таъминлаш, зарарнинг миқдорини аниқлаш ва исботлаш жараёни муаммоли масалалардан бири ҳисобланади. Жавобгарлик шакллари ва уларнинг миқдорини бевосита шартномада назарда тутилиши, тегишли қонун ҳужжатларида ҳар бир ҳукуқбузарлик учун аниқ жавобгарлик

шакли ҳамда миқдорининг назарда тутилиши, заарни ундириш, етказилган заарар миқдорини объектив қоплаш принципи асосида амалга оширилиши каби шартлар ушбу масалани ҳал этишда амалий аҳамиятга эга. ЎР ФК, ЎР “Ижара тўғрисида”ги қонуни ва ЎР “Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий ҳуқуқий базаси тўғрисида”ги қонуни тегишли моддаларига мол-мулк (ашё)ни ижарага топширишдан асоссиз бош тортиш, ижарадаги мол-мулк (ашё)дан шартнома шартларига ва унинг вазифасига номувофиқ ҳолда фойдаланиш, мол-мулк (ашё)ни сақлаш ва жорий таъмирлаш мажбуриятларини бузиш каби ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарлик тўғрисида алоҳида қоидаларни киритиш масаласини ўйлаб кўриш вақти келди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси: Расмий нашр – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: “Адолат”, 2021 й. – 576 б.
2. ЎР Президентининг “Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”. 2018 йил 8 август ПФ–5505-сон Фармони.
3. ЎР Президентининг 2019 йил 5 апрель Ф–5464-сон Фармойиши “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”. КҲММБ, 06.04.2019 й., 08/19/5464/2891-сон.
4. ЎР 1991 йил 19 ноябрь қабул қилинган ЎРҚ-427-ХII-сон “Ижара тўғрисида”ги қонуни. КҲММБ, 19.03.2024 й., 03/24/922/0224-сон.

РЕЗЮМЕ:

Мақолада ижара ва унинг алоҳида турларини ҳуқуқий тартибга солиш, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси, “Ижара тўғрисида”ги ва “Лизинг тўғрисида”ги қонунлари кесимида ижара шартнома муносабатларини тартибга солиш таҳлилий қўриб чиқилган ва ижара тўғрисидаги фуқаролик қонун хужжатларини такомиллаштириш бўйича таклифлар, тавсиялар баён қилинган.

Калит сўзлар. Ижара, мол-мулк (ашё) ижараси, ижара шартномаси, ижаранинг алоҳида турлари

РЕЗЮМЕ:

В статье аналитически рассмотрено правовое регулирование аренды и отдельных её видов, а также регулирование арендных договорных отношений в контексте Гражданского кодекса, Законов “Об аренде” и “О лизинге” Республики Узбекистан и изложены предложения, рекомендации по совершенствованию гражданских законодательных актов об аренде.

Ключевые слова. Аренда, аренда имущества (вещи), договор аренды, отдельные виды аренды, аренда отдельных видов имущества

RESUME:

The article analytically examines the legal regulation of leasing and its individual types, as well as the regulation of rental contractual relations in the context of the Civil Code, the laws “On Rent” and “On leasing” of the Republic of Uzbekistan and outlines proposals and recommendations for improving civil legislation on leasing.

Key words. Rent, rental of property (things), rental agreement, certain types of rental, rental of certain types of property, rental, rental of vehicles

**G'ARB MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA FUQAROLIK JAMIYATIGA DOIR
G'oyalar rivoji**

Utamuradov A.–
O'zMU professori

Bugungi kunda "fuqarolik jamiyat" atamasi keng ma'noda tushuniladi. Ushbu institutni tushunishning ko'plab jihatlari va qirralari mavjud. Uni faylasuflar, iqtisodchilar, siyosatshunoslar, huquqshunoslar, sotsiologlar, tarixchilar turli nuqtai nazardan tahlil qiladilar. Ushbu kontseptsiyani aniqlashga yondashuvlarning juda xilma-xilligiga va uning xususiyatlarining noaniqligiga qaramay, fuqarolik mudofaasini tushunishda ijobji ma'nou ustunlik qiladi.

Fuqarolar va jamiyatning birligi g'oyasi qadimgi davrlarda paydo bo'lган. Taxminlarga ko'ra, Platon fuqarolik jamiyatini mustaqil tashkilot sifatida aniqlagan birinchi mutafakkirlardan biri bo'lган. Uning insonga tug'ilishdanoq xos bo'lган tabiiy ijtimoiy ehtiyojlar, asosiy fazilatlar: donolik, jasorat, ma'rifatli hissiy holat, ideal insoniyat jamiyatni to'g'risidagi mulohazalari, davlat hokimiyatini ob'ektiv tanqid qilish, davlat hokimiyatidan tashqari, jamiyat hayotining boshqa shakllari mavjud [1].

"Fuqarolik jamiyat" tushunchasi Aristotelning polis (koinoia politike - fuqarolik jamiyat), Tsitseronning societas civilis g'oyalari va tabiiy huquq g'oyalari bilan bog'liq [2]. Siyosat a'zosi bo'lish - bu davlatning fuqarosi bo'lish, shuning uchun uning qonunlariga muvofiқ va boshqa fuqarolarga zarar etkazmasdan yashashi va harakat qilishi shart. Shu bilan birga, Aristotel fuqarolarning jamiyatning boshqa sohalaridagi hayotini tahlil qildi: iqtisodiy, nikoh va oila, ma'naviy, axloqiy, ilmiy, diniy, bu erda ishlab chiqaruvchi kuchlar va munosabatlarning ma'lum darajasiga davlat aralashuvi shunchaki talab qilinmaydi. Shuning uchun Aristotel asarlarida davlat va fuqarolik jamiyatining ma'lum darajada ajratilishini qayd etish adolatdan bo'ladi[3].

Qadimgi Rim va Qadimgi Yunoniston donishmandlari "jamiyat" va "davlat" atamalarini bir-biridan ajratish odati bo'lмаган. Shunday qilib, Afinada siyosiy hokimiyatning asosiy organi aholining xalq yig'ini edi. Bu erda jamiyat yoki sharqiy despotizm shaklida yoki o'rta asr monarxiysi shaklida harakat qilgan davlat hokimiyatiga bo'ysundirilgan. Jamiyatning davlatdan ajralib chiqishi, ularning avtonom hodisalarga aylanishi ayirboshlash munosabatlarining vosita sifatida ustunligining o'rnatilishi davrida sodir bo'ldi. ijtimoiy organizmlar va odamlarni, shuningdek, burjua inqiloblari davrida bog'laydigan. Davlat hokimiyati zulmidan qutulib, alohida avtonom sub'ektlarni birlashtirgan jamiyat fuqarolik deb atala boshlandi. Ijtimoiy aloqalarning shakllanishi davrida faylasuf va olimlarning fuqarolik mudofaasi haqidagi qarashlari ham o'zgardi.

XVI asrning ikkinchi yarmi – XVII asr boshlarida. J. Lokk, C. Monteskye, J.-J. asarlarida. Russo, N.Machiavelli, T.Gobbes va boshqalar allaqachon tabiiy huquq va shartnomaga tamoyillariga asoslangan davlatning ayrim shakllariga fuqarolik mudofaasi muvofiqligini tushuntirishgan. Masalan, J.Lokk "mutlaq monarxiya... fuqarolik jamiyat bilan mos kelmaydi va shuning uchun umuman fuqarolik boshqaruvi shakli bo'la olmaydi" deb hisoblagan. J.Lokk liberalizm asoschisi sifatida birinchi bo'lib shaxsni davlat va jamiyatdan, erkinlikni esa boshqa qadriyatlardan ustun qo'ydi. U erkinlikni tashqaridan, eng avvalo, davlatdan aralashmaslik deb tushundi. Lokkning fikricha, odamlar o'zaro ijtimoiy shartnomaga tuzib, davlat va shaxs o'rtasidagi himoya tuzilmalarining butun ketma-ketligini tashkil etuvchi fuqarolik jamiyatini yaratadilar. Shaxs erkinligining boshlanishi, uning siyosiy mustaqilligining kafolati xususiy mulkdir [4].

Sh.Monteskyu "Qonun ruhi haqida" asarida fuqarolik huquqini tarixiy taraqqiyot natijasi deb hisoblaydi. Monteskyu fikricha, fuqarolik jamiyat, odamlar o'rtasidagi adovat jamiyatni bo'lib, u dushmanlikning oldini olish uchun davlatga aylanadi. Davlatchilik o'ziga xosdir, lekin fuqarolik jamiyatiga o'xshamaydi [5]. J.-J. Russo fuqarolik jamiyatini ijtimoiy shartnomaga yordamida davlatga aylantirilgan jamiyat sifatida qaraydi. U o'zining "Ijtimoiy shartnomaga to'g'risida" asarida xalqning absolyutizmni ag'darish va demokratik yo'l bilan saylangan hukumat hokimiyatini o'rnatish huquqini asoslaydi. Ushbu ishda J.-J. Russo siyosiy organning ma'nosini itoatkorlik va erkinlikning kombinatsiyasi ekanligini ta'kidlaydi va shu bilan fuqarolik jamiyatni kontseptsiyasini e'lon qiladi. [6].

N.Makiavelli inson ruhiyatining eng oliy ko'rinishi davlat, hayotning mazmuni va baxti esa unga xizmat qiladi, deb hisoblagan. Shu bilan birga, u qo'rquv va zo'ravonlik orqali o'z xalqini boshqarish imkoniyati va huquqiga ega bo'lgan suveren bundan suiiste'mol qilmaydi, o'z fuqarolarining mulkiy va shaxsiy huquqlarini buzmaydi, ularda nafrat uyg'otmaydi, deb hisobladi. . Shunday qilib, u insonning vazifalaridan farq qiladigan soha haqida gapiradi, ya'ni. fuqarolar urushi belgilari haqida [7].

Yana bir mutafakkir I. Kant fuqarolik jamiyatini qurilishini tushunishni sezilarli darajada chuqurlashtirdi. Fuqarolik jamiyatini talqin qilishda uning yondashuvi dialektik xarakterga ega bo'lib, u har kimning erkinligini boshqalarning erkinligi bilan uyg'unlashdirishning asosiy yo'li fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir, degan xulosaga keldi. I.Kantning fikricha, fuqaro muhofazasi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi [8]: 1) jamiyat a'zosining shaxs sifatida erkinligi; 2) sub'ekt sifatida boshqalar bilan tengligi; 3) jamiyat a'zosining fuqaro sifatidagi mustaqilligi. V.Gumboldt fuqarolik jamiyatining asosi: 1) shaxs; 2) tabiiy huquq; 3) shaxslar tomonidan yaratilgan ijtimoiy va milliy institutlar tizimi. Gegel fuqarolik mudofaasi haqidagi g'oyalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi va uni shaxsiy manfaatlar sohasi sifatida belgiladi. Bu mazmunda u din, sinflar o'rtasidagi munosabatlar, oila, ta'lim, axloq, huquq, shuningdek, qonunlardan kelib chiqadigan sub'ektlarning huquqiy munosabatlarini qo'ydi.

Gegel bir-biriga qarama-qarshi bo'lган shaxslarga alohida ahamiyat berdi. "Fuqarolik jamiyatida hamma o'zi uchun maqsad, qolganlar u uchun hech narsa emas. Ammo boshqalar bilan aloqalarsiz u o'z maqsadlariga to'liq erisha olmaydi." [9]. Gegel bir vaqtning o'zida har bir insonning manfaatlarini ifodalovchi davlat fuqarolik jamiyatidan yuqori rivojlanish darajasida, deb hisoblagan. Tashkilotlar, sinflar va fuqarolarni birlashtirgan holda, davlat jamiyatdan yuqoriga ko'tariladi, qarama-qarshi manfaatlarni yarashtiruvchi vazifasini bajaradi va qarama-qarshiliklarga echim topadi. Fuqarolik jamiyati o'ta xudbin, shu jumladan, birinchi navbatda muhtojlik bilan birlashgan xudbin shaxslar. Ularning har biri o'z maqsadlariga intilayotganligi sababli, bu jamoa turli xil baxtsiz hodisalarga duchor bo'ladi va yuqori "universallik shakli" - davlatga muhtoj. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati inson tashkilotining eng yuqori shakli sifatida alohida shaxslar va davlat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir [9].

Gegelning fuqarolik jamiyati g'oyasi uning asarlarida yoqimsiz ko'rindi. Unga kiradigan individual shaxs, "o'ziga xoslik, o'z ehtiyojlarini qondirish, tasodifiy o'zboshimchalik va sub'ektiv injiqlik, har tomonga tarqalib, o'zini zavqlanishda yo'q qiladi ... boshqa tomondan, zaruriy va tasodifiy ehtiyojlarni qondirish. cheksiz hayajonga tobe bo'lib, har tomonlama tashqi tasodif va tashqi o'zboshimchalikka bog'liq bo'lган, shuningdek, universallik kuchi bilan tasodifan cheklangan. Fuqarolik jamiyati bizga hashamatning g'ayrioddiy suratini taqdim etadi, chunki u qashshoqlik va ikkalasiga ham xos bo'lган jismoniy va ma'nnaviy tanazzul tasviri bilan. [9]. Gegelning fikricha, bu erda aniqlangan fuqaro muhofazasining kamchiliklari uni davlat davlatiga aylantirish zaruratini tushuntirishi kerak edi. Gegel xususiy mulkni fuqarolik jamiyatining boshlang'ich nuqtasi deb hisobladi. Shunga qaramay, u tarixiy taraqqiyotning hukmron kuchi fuqarolik mudofaasi emas, balki davlat deb hisobladi. Lekin har tomonlama barkamol davlatning jiddiy jihat shundaki, u fuqarolik jamiyatini eydi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashga intilmaydi.

Marks Gegelning fuqarolik jamiyatiga nisbatan davlatning ustuvorligi to'g'risidagi fikriga qo'shilmadi, shuning uchun u ikkinchisini butun insoniyat jamiyatining asosi va insonning butun hayotiy jarayonini tarixiy rivojlanishning majburlovchi kuchi deb hisobladi. U davlat ishlab chiqarish vositalariga egalik qiluvchi sinfning siyosiy hukmronlik vositasidir, deb yozgan. Shuning uchun burjua davlati, Marksning fikricha, iqtisodiy jihatdan hukmron mulkdorlar sinfi manfaatlarini amalgaloshirish va himoya qilish qurilmasidir.

Iqtisodiy jihatdan hukmron sinf manfaatlarini ifodalovchi, shu bilan mustaqil shaxslarning erkin rivojlanishini to'xtatuvchi burjua davlati fuqarolik jamiyatini haddan tashqari g'ayrat bilan boshqaradi va go'yo uni eb qo'yadi. K.Marks inson huquqlari deb ataluvchi huquqlar, fuqaroning huquqlaridan farqli ravishda, fuqarolik jamiyati a'zosining huquqlaridan boshqa narsa emasligini

yozgan. "Ma'lum bir fuqarolik jamiyatini oling va sizda ma'lum bir siyosiy tartib bor, bu faqat fuqarolik jamiyatining rasmiy ifodasidir", deb yoqgan Marks [10].

Sotsial-demokratlarning ushbu muammoga yondashishi qiziq bo'lib, u fuqarolik mudofaasining asosiy siyosatini tan olishga asoslangan. Hokimiyat munosabatlari yordamida siyosat fuqarolik jamiyati qiyofasini rivojlantiradi, uni barqarorlashtiradi, jamiyat hayotining barcha hayotini qamrab oladi. J. Shumpeter kontseptsiyasiga ko'ra, davlat fuqarolik institutlari faoliyatida ishtirok etishi, ularning har tomonlama buzg'unchi kuchga aylanmasligi va bozor jamiyatni o'ziga bo'ysundirmasligi uchun ularning faoliyatini ta'minlashi kerak. [11]. Shu munosabat bilan sotsial-demokratlar ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni majburiy davlat tomonidan tartibga solish, sug'urtani joriy etish, yashash uchun eng yuqori kafolatlar va boshqalarni ko'rib chiqdilar. Barcha variantlar bilan birga G'arbda siyosatshunoslikda fuqarolik jamiyatining ikki talqini ustun keldi. Birinchi nuqtai nazardan, u har qanday shaklda davlatga qarama-qarshi bo'lgan shaxslararo munosabatlar makonini ifodalovchi ijtimoiy kategoriya (universal) sifatida qaraldi.

Fuqarolik jamiyati insonning kundalik ehtiyojlarini qondirish muhiti sifatida shaxsiy shaxslar o'rtafigi munosabatlarning butun tarixiy majmuasini o'z ichiga oladi. Ikkinci nuqtai nazardan, fuqarolik mudofaasi G'arb sivilizatsiyasi mavjudligining tarixiy shakli, G'arb madaniyatining haqiqati sifatida taqdim etiladi. G'arb madaniyatining o'ziga xosligi uchta kuchning o'zaro ta'siri bilan belgilanadi: mustaqil shaxs, hokimiyat institutlari va fuqarolik jamiyatining o'zi. Ularning muvozanatli o'zaro ta'siri fuqarolik jamiyati, shaxs va davlatning doimiy o'sishi va rivojlanishiga ong yo'nalishida shakllantirilgan taraqqiyot g'oyasiga asoslangan edi. O'tgan asr tarixi shuni ko'rsatdiki, fuqarolik jamiyatining xususiy mulk va shaxsiy erkinlik kabi asosiy tamoyillari boshqalardan ko'ra hayotiyroq bo'lib chiqdi. Fuqarolik jamiyati va uning konstitutsiyasi jarayonlarini zamonaviy tushunishning asoslari 20-asrning birinchi yarmidagi M.Veber, P.Sorokin, T.Parsons, A.Tokvil va boshqa faylasuflar tomonidan yaratilgan.

Bizning fikrimizcha, fuqarolik jamiyati - bu oqilona va adolatli ijtimoiy munosabatlar, xalq irodasini ifoda etuvchi qonunlar bilan tartibga solingan hamda qonunlarning bekami ko'st bajarilishi ta'minlangan insonparvar demokratik huquqiy davlat mavjud bo'lgan, shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari yuksak darajada ta'minlanishi kafolatlangan jamiyatdir. Demak, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda qonun ijodkorligi, qonun ustivorligini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish nafaqat davlat organlari, balki fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Античные писатели. Словарь. СПб., 1999. 448 с.
2. Цицерон. Диалоги. М., 1966. 224 с.
3. Аристотель. Политика. Соч. в 4 т. М., 1983.
4. Локк Дж. Два трактата о правлении. Соч.: в 3 т. М., 1988. Т. 3. 312 с.
5. Монтескье Ш.Л. О духе законов. Избр. произв. М., 1955. 570 с.
6. Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре. Избр. соч. М., 1964. 416 с.
7. Макиавелли Н. Государь. М., 1990. 20 с. 8. Кант И. Собр. соч.: в 6 т. М., 1964.
8. Гегель Г.В.Ф. Соч. в 14 т. М., 1929 – 1956. Т. 7. 213 с.
9. Муминов А.Г. “Янги Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг хуқуқий асослари такомиллаштирилиши” Журнал: Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, №2, 404-413 бетлар.

REZYUME:

Maqolada G'arb mutafakkirlarining fuqarolik jamiyatiga oid g'oyalari shakllantirishi antik davr, o'rta asr va yangi davr kesimida o'rganilgan. Shuningdek, qonun ijodkorligi, qonun ustivorligini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid qarashlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qonun, fuqarolik jamiyati,adolat, ijtimoiy munosabatlar, xalq irodasi, tartib, insonparvarlik, demokratiya, huquqiy davlat, shaxs, huquq, erkinliklar, qonun.

РЕЗЮМЕ:

В статье показано формирование представлений западных мыслителей о гражданском обществе в период античности, средневековья и современности. Также были проанализированы взгляды, связанные с правотворчеством, обеспечением верховенства закона, повышением правовой культуры граждан, защитой прав и законных интересов юридических и физических лиц.

Ключевые слова: право, гражданское общество, справедливость, общественные отношения, воля народа, порядок, гуманность, демократия, правовое государство, человек, право, свободы, закон.

RESUME:

The article examines the formation of Western thinkers' ideas about civil society in the period of antiquity, the Middle Ages and modern times. Also analyzed were views related to lawmaking, ensuring the rule of law, increasing the legal culture of citizens, protecting the rights and legitimate interests of legal entities and individuals.

Keywords: law, civil society, justice, public relations, will of the people, order, humanity, democracy, rule of law, man, law, freedoms, law.

МАЊНАВИЙ МАКОННИ БАРПО ЭТИШ ЖАМИЯТ ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУХИМ ОМИЛИ

Тўраев Ш.Н. –

*Республика Мањнавият ва маърифат
маркази ҳузуриданги Ижтимоий-мањнавий
тадқиқотлар институти бўлум бошлиги,
фалсафа фанлари доктори (DSc),*

Миллий давлатчилик йўлидаги Янги Ўзбекистон жамиятини барпо этиш жараёнида миллий мағкуруни ривожлантириш мамлакат тараққиётининг муҳим омили сифатида улкан ислоҳотларни амалга оширишга асос бўлади. Ўзбекистонда янгиланаётган жамиятни барпо этиш, миллий ўзликни англаш, миллий ғурур, қобилият негизида, ўз кучи ва имкониятларини ишга солиб, миллат тараққиёти йўлида жисплашиб бир мақсад сари ҳаракат қилишга замин бўлиб хизмат қилади.

Ўзининг мустақил тараққиёт йўлига эга бўлаётган Ўзбекистон бугунги кунда жаҳон ҳамжамиятининг муносабиба тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида барча соҳалар тараққиётида ўзини намоён қилмоқда. Мустақиллик йилларида фуқаролар тинчлигини таъминлаш ва миллий келишувига эришиш қисқа муддатли сиёсий вазифалар сифатида қад тиклаган бўлса, инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини қуриш – стратегик мақсад қилиб белгиланди.

Халқимиз ва ҳукуматимиз ҳам ички, ҳам ташқи сиёсатда ўз манфаатларини аниқ-равшан белгилар экан, ташқи сиёсатда қўйидаги тамойилларни асос қилиб олди:

- ўз давлат манфаатлари устунлиги нуқтаи назаридан бутун дунё манфаатларини ҳисобга олиш. Ҳеч қандай буюк давлатнинг таъсири доирасига кирмаслик;
- инсонлар ва давлатлар ўртасидаги муносабатларда умуминсоний қадриятлар устуворлигини таъминлаш, ҳалқаро майдонда тинчлик ва хавфсизликнинг мустаҳкамланиши, зиддиятларнинг тинч йўл билан ҳал қилинишига тарафдор бўлиб қолиш. Инсон ҳуқуқлари, тажовуз қилмаслик, куч ишлатишдан воз кечиши ҳақидаги ҳалқаро ҳужжатларни тан олиб, уларга истисносиз амал қилиш;
- ташқи сиёсатда тенглик ва ўзаро манфаатлар, бошқа мамлакатлар ички ишларга аралашмаслик, тенглар ичра тенг бўлиш;
- ташқи сиёсатда очиқлик тамойилига амал қилиш, мағкуравий қарашлардан қатъий назар, ташқи сиёсатнинг ҳар қандай догма ва «изм»ларидан холи бўлиш;
- ҳалқаро ҳуқуқ нормаларини давлат ички нормаларидан устувор деб билиш;
- икки томонлама ва кўп томонлама ташқи муносабатларни ҳалқаро ташкилотлар доирасида ўзаро ишонч ва ҳамкорлик тамойиллари асосида ўрнатиш ва ривожлантириш.

Шу мањнода, Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси ўзбек ҳалқининг ҳаётини тубдан ўзгартиришга хизмат қилади. Чунки ижтимоий-иктисодий ҳаётда бозор муносабатлари, сиёсий-ҳуқуқий ҳаётда қонун устуворлиги, демократия, кўп партиявилик, мањнавий-маданий ҳаётда эса умуминсоний, миллий ва шахсий қадриятлар қарор топган бир-бирини тўлдирувчи яхлит янгича тизим пайдо бўлди. Вужудга келган ва тараққиёт сари юз тутаётган бу тизим янгича мањнодаги комил инсонни шакллантиришни тақозо қилмоқда.

Ўзбекистонда кейинги йилларда шарқона демократик тамойиллар, қадриятлар ҳалқимиз ҳаётига теран илдиз отиб кириб келмоқда. Бунинг натижаси ўлароқ, давлатимиз ҳудудида истиқомат қилувчи барча фуқароларнинг мањнавий яхлитлигини таъминлаш, ўзликдан чекинмаслик, ижтимоий адолатни қарор топтириш таъминланмоқда.

Инсониятнинг ижтимоий-тарихий тараққиётидан маълумки, ҳар қандай жамиятни мањнавиятсиз, унинг таъсири ва тараққиётизиз тасаввур қилиб бўлмайди. Бундан кўриниб турибдик, жамият тараққиётининг муҳим мезони бу мањнавиятдир. У эса, инсонсиз мавжуд бўлмаслиги, инсон эса, уни авлоддан авлодга етказувчисидир. Мањнавий камолотнинг ҳар

қандай даражасига етишиш ҳам кишиларни жамоага бирлашиб яшаб, меҳнат қилгандагина амалга ошади. Маънавият инсонга хос бетакрор моҳият, имконият баҳш этади, шунингдек у жамият аъзоларини бирлаштирувчи куч ҳамдир. Маънавият, шахснинг, инсоннинг, ҳалқнинг, миллатнинг, давлатнинг, қолаверса, жамиятнинг кучи ва қудратидир, унинг имкониятини, тараққиётини ва истиқболларини белгиловчи ички бир ижобий, руҳий омилларидир.

Ижтимоий маънавий қадриятлар ҳар бир ҳалқнинг узоқ тарихи билан чамбарчас боғлиқ бойликлари хисобланади. Ҳалқнинг ўзлиги, миллатнинг ўзини идрок этиши ана шу қадриятлари орқали кечади. Маънавий қадриятларни тиклаш миллий ўзликни англашнинг ўсишидан, ҳалқнинг маънавий сарчашмаларига, унинг илдизларига қайтишдан иборат узвий, табиий жараён хисобланади. Бинобарин, маънавият инсон ахлоқи ва одоби, билими, истеъододи, қобилияти, амалий малакаси, виждони, иймон-эътиқоди, дунёқарashi, мафкуравий қарашларининг бир-бири билан узвий боғланган, жамият тараққиётига ижобий таъсир этадиган муштарак тизимдир.

Янги Ўзбекистон тараққиётida Янги ҳаётни, янги жамиятни барпо этиш учун маънавият масаласи муҳим омил хисобланади. Бугунги ислоҳотларнинг бирламчи асосини ташкил этувчи маънавият тушунчасининг илмий, фалсафий, адабий ёки оддий тилда ифодаланадиган қўплаб таърифларни келтириш мумкин. Шулардан бири, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев, «Биз учун маънавият – инсонлар ўртасидаги ўзаро ишонч, ҳурмат ва эътибор, ҳалқ ва давлат келажагини биргаликда қуриш йўлидаги эзгу интилишлар, ибратли фазилатлар мажмуасидир. Бошқача айтганда, маънавият – жамиятдаги барча сиёсий-ижтимоий муносабатларнинг мазмуни ва сифатини белгилайдиган пойдевордир» деб таърифланган. Ана шундай қарашларни ўз ичига олган стратегиямиз обод ва фаровон ватанини барпо этишга хизмат қиласи десак муболага бўлмайди.

Дунё шиддат билан ўзгариб, барқарор тараққиёт ва ҳалқларнинг тадрижий ривожланишига раҳна соладиган турли таҳдид ва хавфлар пайдо бўлаётган бугунги кунда маънавият билан боғлиқ масалалар тобора долзарблашиб бормоқда. Бу ўз навбатида, янги уйғониш даври пойдеворини яратиш жараёнида энг ривожланган жамиятлар талабига жавоб берадиган, эркин ва хур фикрли, замонавий ва инновацион маънавий маконни шакллантириш зарурияти ниҳоятда муҳим масалага айланәтганидан далолат беради.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъбири билан айтганда, «- Янги маънавий макон. У – биз орзу килаётган Янги Ўзбекистоннинг маънавий-маърифий қиёфаси яққол акс этадиган, ҳалқимиз интилаётган ва эл-юртимиз баҳтиёр яшайдиган маърифатли жамиятдир»;

-ана шу маконда биз мамлакатимизда инсон эркин ва фаровон яшайдиган маънавий маконни барпо этишимиз;

- ҳар қандай синовларга дош бериб, бошлаган барча ислоҳотларимизни изчил давом эттиришимиз;

-Янги Ўзбекистонни баҳтли инсонлар яшайдиган маънавиятли, маърифатли жамиятга айлантиришимиз лозим.

Бугунги маънавий-мафкуравий муҳитни шунчаки тадбирлар билан яхшилашнинг имкони йўқ. Виртуал олам ҳамма ёқда ўз ҳукмронлигини кўрсатаётган ҳозирги даврда бизнинг биргина йўлимиз ёшларга кўпроқ эътибор қаратишдир. Бунда:

Биринчидан, ёшларни турли заарли, хусусан виртуал олам орқали бериладиган таҳдидлар ва ахборот хуружларидан хабардор қилиш ва ушбу мавзу билан боғлиқ чоратадбирлар сони ва сифатини кенгайтириш ва бунга ёшларни кўпроқ жалб қилиш, ахборот хизматидан фойдаланувчилар, аввало, ахборотга бўлган эҳтиёжларини мавжуд манбалардан материалларни танлаб олишда уларга методологик ёрдам кўрсатишни йўлга қўйиш.

Бунда ахборот-коммуникация технологияларидан кенг ва самарали фойдаланишга алоҳида эътибор қаратиш. Агар интернет тармоғидаги сайtlарни варақлаган фуқарода Ватан туйғуси, ўз ҳалқига нисбатан эътиқоди мустаҳкам бўлса, ҳар қандай бўхтон ва тўқималарга ишонмайди. Ана шундай мустаҳкам иммунитетга эга, иймони бақувват, ғурури баланд, сиёсий маданияти етук инсонларга ёт ғоялар таъсир ўтказа олмайди;

Иккинчидан, жамият аъзоларини ягона бош мафкура асосида ижтимоий сафарбар этиш ва бу сафарбарликка эришишда Янги Ўзбекистоннинг улуғвор мақсадларини англаш билан боғлиқ ишларни йўлга қўйиш;

Учинчидан, жамиятнинг маънавий-маърифий муҳити – асрлар давомида бутун инсоният тарихий тараққиёти давомида интилиб келаётган ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маънавий ва мафкуравий муносабатларни маҳсули эканлиги;

Тўртинчидан, Янги Ўзбекистонда янги маънавий муҳитни яратиш, мамлакат ҳамда фуқароларни келажакка даъват қиласиган, тараққиётга ундейдиган омиллардан бири тарзида юзага келиши, кишиларни бошқариш вазифасини бажараётган сиёсий партиялар, раҳбар шахслар ақл-заковати, салоҳияти ва вазифасини вижданан бажаришга ундовчи куч бўлиб хизмат қилиши;

Бешинчидан, Янги Ўзбекистонда маънавий-маърифий муҳитни яратиш асосларининг, миллий қадриятларнинг қайта тикланиши, ўзликни англаш, умуминсоний қадриятларнинг устуворлиги, миллий менталитетимизга хос хусусиятларнинг тикланиши ва ривожланиши, демократик қадриятларнинг ривожлантирилиши ҳамда инсон маънавий оламининг юксалиши учун янги ғояларни ҳаётга тадбиқ қилиш лозим.

“Янги ҳаёт учун, Янги Ўзбекистон учун!” ғоясини амалга оширишнинг асосий омили бўлган маънавият миллатни ижтимоий-сиёсий, иқтисодий бўхронлардан сақлаб қолишнинг муҳим шарти бўлиб, халқнинг тарихий жараёнларда ижтимоий тараққиётiga эришувига кафолат беради. Ўзбекистонда амалга оширилаётган миллий демократик ўзгаришлар эса халқнинг анъаналарини, ижтимоий-тарихий тараққиёт жараёнида шаклланган қадриятларни қўллаб-қувватлади, уларни миллий-маданий бойлик сифатида асрашга, улардан янги авлодни шакллантиришда унумли фойдаланишга даъват этади.

Умуман олганда, Янги Ўзбекистон тараққиётнинг асосий мақсади - Ўзбекистоннинг истиқболи ва истиқтоли ҳақида қайғуриш, ўзининг ва ўз халқининг, Ватанининг қадру-қиммати, ор-номусини англаб, уни ҳимоя қилиш, юксак ғоялар, янги фикрий кашфиётлар оғушида меҳнат қилиб, истеъоди, бор имкониятини керак бўлса, жонини юрт истиқболи, элига бахшида этиш каби буюк хислатларни шакллантиришдан иборат.

АДАБИЁТЛАР:

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 275-276.
2. Назаров Қ. Аксиология: қадриятлар фалсафаси. Т.: Файласуфлар миллий жамияти, 2011
3. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1 жилд. – Т.: Файласуфлар миллий жамияти, 2023
4. Қаҳҳарова Ш. Глобал маънавият – глобаллашувнинг гоявий асоси.-Т.,:Тафаккур, 2009
5. Муминов А.Г. ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛАГЛАРОРО ТОТУВЛИК МУҲИТИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ АЙРИМ ЖИХАТЛАРИ. XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMAT. 2024/4/24. 207-209 бетлар.

РЕЗЮМЕ:

Мақолада маънавият билан боғлиқ масалаларнинг долзарблиги ўрганилган, шунингдек, ижтимоий-тарихий тараққиёт жараёнида шаклланган қадриятларнинг ўрни ва аҳамияти таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Янги Ўзбекистон, маънавият, фалсафа, адабиёт, ишонч, ҳурмат, эътибор, халқ, давлат.

РЕЗЮМЕ:

В статье изучается актуальность вопросов связанных с духовностью, а также анализируется роль и значение ценностей сформировавшейся в развитии в социально-историческом процесссе.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, духовность, философия, литература, доверие, уважение, внимание, народ, государство.

RESUME:

The article studies the relevance of issues related to spirituality, and also analyzes the role and significance of values formed in the development of the socio-historical process.

Keywords: New Uzbekistan, spirituality, philosophy, literature, trust, respect, attention, people, state.

ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДАГИ ИККИНЧИ УЙГОНИШ ФЕНОМЕНИ

Ўлжаева Ш. -
ТИҚҲММИ – МТУ профессори,
тарих фанлари доктори.

Темурийлар даври (XIV аср охири — XVI аср бошлари) муҳим маданий Уйғониш даври бўлиб, тарихда иккинчи Уйғониш номи билан машҳур. Темур ва унинг ворислари ҳукмронлиги даврида санъат, меъморчилик, адабиёт ва фаннинг ажойиб гуллаб-яшнашининг гувоҳи бўлди. Самарқанд ва Ҳирот бу Уйғониш даврининг ўчоғи бўлди.

Бу Уйғониш даврининг назариётчиси Амир Темур турк, араб ва эронликлар тарихини чуқур билган. У тиббиёт, риёзиёт, фалакиёт, тарих, адабиёт, тилшунослик илми намояндлари, шунингдек, илоҳиёт ва дин соҳасидаги машҳур уламолар билан музокаралар ўтказган;

Амир Темур саройида уламолардан мавлоно Абдужаббор Хоразмий, мавлоно Шамсуддин Мунши, мавлоно Аблулло Лисон, мавлоно Баҳруддин Аҳмад, мавлоно Нұймонуддин Хоразмий, Ҳўжа Афзал, мавлоно Алоуддин Коший, Жалол Ҳокий ва бошқалар хизмат қиласиди;

Амир Темур давлат пойтахтига мусулмон оламининг энг машҳур ва билимдон олимуламоларини тўплашга интилган. Уларни ҳар томонлама ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилган, давлатни бошқаришда олимларнинг маслаҳатларига таянган ва улардан фойдаланган;

Амир Темур ўз даврида энг бой бўлган кутубхона ташкил қилдирган. Бу кутубхонага қадимги юнон-рим олимлари, араб дунёси, Ўрта Осиё Уйғониш даври буюк олим ва мутафаккирларининг асарлари тўпланган ва янги илмий кашфиётларни амалга оширишга қулагай шароитлар яратилган;

Улуғбек академияси ҳам Амир Темур томонидан илм-фан соҳасига қўйилган пойдеворнинг маҳсулидир;

Буюк ипак йўли, хунармандчилик, ички ва ташқи савдо нинг ривожланиши маданиятлараро, жумладан, илм-фан ўртасидаги алоқаларни ҳам ривожлантиришга, бу соҳада кенг интеграция жараёнларининг юзага келишига туртки берган;

Амир Темурнинг 27 давлатни бирлаштирган салтанатида мустаҳкам давлат бошқарув тизимиning яратилиши, адолат, тинчлик, барқарорлик ва тараққиёт учун катта имкониятларнинг мавжудлиги илм-фан равнақига ҳам муҳим таъсир қўрсатган.

Архитектура нуқтаи назаридан қаралганда маҳобатли Бибихоним масжиди, мадрасаси ва Шоҳи Зинда мажмуалари ва бошқа улуғвор иншоотлар давр Уйғонишига рамзий намуна бўлиб хизмат қиласиди. Улар давр руҳи, новаторлик муҳити инновацион услубини намойиш этади. Бадиий ютуқлар орасида миниатюра рассомлиги ва илғор хаттотлик санъатининг қайта тикланиши алоҳида ажralиб туради. Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий каби шоирлар билан адабий муҳит гуллаб-яшнаган, тарихий ва фалсафий мавзулар орқали Темурийлар даври адабиёти бойитилган.

Илмий жиҳатдан темурийлар даври астрономия соҳасидаги ютуқлар билан машҳур, хусусан, Амир Темурнинг набираси Мирзо Улуғбек даврида Самарқанддаги расадхона астрономик тадқиқотларнинг етакчи марказига айланган. Ушбу мақола Темурийлар Уйғониш даврининг ана шу жиҳатларини ўрганиб, унинг кейинги ислом санъати, меъморчилиги ва илм-фанига доимий таъсирини очиб беради.

Тахминан XIV аср охири — XVI аср бошларигача бошларигача бўлган темурийлар даври санъат, фан ва маданиятга қўшган улкан ҳиссаси билан машҳур. Кўпинча иккинчи Уйғониш даври деб аталадиган бу давр, айниқса Темур (Темур) ва унинг ворислари ҳукмронлиги даврида интеллектуал ва санъат ютуқларининг гуллаб-яшнашига гувоҳ бўлди.

1370 йилда Темур томонидан асос солинган Темурийлар империяси Ўрта Осиё ва Яқин Шарқдаги йирик давлат эди. Амир Темур ҳукмронлиги даврида империя пойтахти Самарқанд

йирик илм ва маданият марказига айланди. Амир Темур даврида сарой қошида катта кутубхона барпо этилди, Шарқнинг энг таникли олимлари саройга таклиф этилди. Амир Темурнинг набираси Улуғбек турли соҳаларда илмий изланишлар олиб бориш билан бирга астрономия соҳасига катта қизиқиши билан қаради ва унинг илмий асосларини шакллантирди.

Амир Темурнинг набираси Улуғбек Темурийлар Ренесансига катта ҳисса қўшган, Самарқандда биринчи йирик академияга асос солган ва машҳур Самарқанд расадхонасини ташкил этган. Бу расадхона ислом оламидан олимларни жалб этган ҳолда астрономик тадқиқотларнинг асосий марказига айланди. Улуғбекнинг Бухоро ва Ғиждувонда қурдирган мадрасалари ҳам замонавий университетларга ўхшаш фаолият юритган.

Самарқанддаги Улуғбек мадрасасининг иккинчи қаватида Амир Темур ва унинг ворислари томонидан тўпланган кўплаб китоблар сақланадиган йирик кутубхона мавжуд бўлган. У Мавлоно Мухаммад Ҳавофий, Қозизода Румий, Фиёзиддин Жамшид, Муиниддин Коший каби юздан ортиқ кўзга кўринган олимларнинг ва кўплаб толиби илмлар ижод қиладиган илм маскани эди. Улуғбекнинг илмий жамиятдаги бевосита иштироки, олимлар билан мулоқоти ва ўқув дастурларини ишлаб чиқишидаги ўрни унинг интеллектуал юксалишдаги фидойилигини кўрсатади.

Темурийлар Уйғониш даври ҳам мұмтоз анъаналар, илмий изланишлар ва бадиий ифодаларга янгилик қизиқиши ўйғотди.

Темурийлар Уйғониш даврининг энг кўзга кўринган жиҳатларидан бири унинг мөймочилигидир. Бу давр муҳташам биноларнинг қурилиши Шарқ тафаккури ўз ифодасини топган.

Амир Темур пойтахти Самарқанд темурийлар мөймочилигининг кўргазмасига айланди. Шаҳар ўзининг улкан гумбази ва мураккаб кошинкорлиги билан машҳур.

Бибихоним масжиди каби монументал иншоотларнинг қурилиши билан ўзгарди. Масжид Темур томонидан ислом оламидаги улуғ масжидлар улуғворлиги билан рақобатлаша оладиган тарзда қурилган.

Яна бир мөймөрий мўъжиза - Шоҳ-и-Зинда мажмуаси бўлиб, у ўзининг гўзал кошинли мозаикалари ва мақбаралари билан машҳур бўлган некрополидир. Бу қурилишлар темурийларнинг безак санъати ва мөймөрий инновацияларга бой бўлган санъатидан дарак беради.

Темурийларнинг яна бир йирик шаҳри Ҳиротда ўзига хос мөймөрий услуг пайдо бўлди. Темурнинг рафиқаси Гавҳаршодбегим томонидан қурилган Ҳирот Жума масжиди, ундаги безакли кошинлар, мураккаб ғишт ишлари, катта ҳовлилари билан ажралиб туради. Бу иншоотлар темурийлар даврининг мөймөрий дизайндаги улуғворлик ва аниқликка эътибор қаратганлигини акс эттиради.

Темурийлар Уйғониш даври тасвирий санъат, жумладан, наққошлиқ, хаттотлик ва қўлёзма ёритилишида ҳам муҳим ютуқлар билан ажралиб туради.

Бу даврда Темурийлар миниатюра санъати жонланди, анъанавий туркий-форсий бадиий услублари Марказий Осиё янги элементлари билан ўйғунлаштирилди. Темурийлар саройида ишлаган Камолиддин Беҳзод каби рассомлар батафсил ва жонли миниатюралари билан шуҳрат қозонган. Беҳзод беш достондан иборат “Хамса” қўлёзмасига ишлаган асарлари, айниқса, нағис тасвиirlари билан машҳур (Soucek, S, 2000).

Темурийлар сулоласи даврида хаттотлик ва қўлёзма санъати ривожланган. Олимлар ва рассомлар Қуръон ва бошқа муҳим матнларнинг қўлёзмаларини кўчиришда мураккаб ёзувлар ва чегара нақшларидан фойдаланишга эришди ва ҳайратомуз санъат асарларини яратишиди.

Хаттотлик санъати анъанавий ислом услубларини инновацион услублар билан ўйғунлаштириб, янги чўққиларни забт этди (Ризви, 2009).

Темурийлар даври ҳам турк-форс адабиётининг гуллаб-яшнашининг гувоҳи бўлди, шоирлар ва олимлар адабий анъаналарига таъсир кўрсатадиган муҳим асарлар яратдилар.

Абдураҳмон Жомий каби темурий шоирлар форс адабиётига катта ҳисса қўшган. Жомийнинг “Юсуф ва Зулайҳо” ва “Хафт авранг” каби асарлари ўша даврнинг бой адабий

маданиятини акс эттиради. Бу матнлар ўзининг мураккаб ҳикоялари, фалсафий мавзулари ва лирик гўзаллиги билан ажralиб туради (Гибсон, 2007).

Навоий темурийларнинг сўнгги хукмронлик йилларида (1370-1506) яшаб ижод қилган. У 1490-1501 йилларда ўзининг шоҳ асарларини яратган.

1483-1485 йиллар Навоий ўз ичига беш достонни олган “Ҳамса” асарини яратган: “Ҳайрат ул-Аброр” (“Яхши кишилариинг ҳайратланиши”), “Фарҳод ва Ширин”, “Лайли ва Мажнун”, “Сабъаи сайёр” (“Етти сайёра”), “Садди Искандарий” (“Искандар девори”). Навоийнинг “Ҳамса”си мазкур жанрда яратилган туркий тилдаги биринчи асар ҳисобланади. У – туркий тилида ҳам бу каби йирик кўламдаги асар яратилиши мумкинлигини исботлаб берди.

Алишер Навоийнинг ўзбек тилида яратган шеърий мероси асосан «Ҳазойин ул-маоний» девонига жамланган. Асар 4 қисмдан иборат. Девоннинг биринчи қисмига «Ғаройиб ус-сигар» («Болалик ғаройиботлари»), иккинчи қисмига «Наводир уш-шабоб» («Йигитлик нодиротлари»), учинчи қисмига «Бадоеъ ул-васат» («Ўрта ёш бадиалари») ва ниҳоят, тўртинчи қисмига «Фавойид ул-кибар» («Кексалик фойдалари») деган номлар берилди. «Ҳазойин ул-маоний» инсон боласининг мураккаб ва юксак тафаккури ҳамда беҳисоб ҳис-туйғулари билан боғлиқ мингларча шеър ва ўнларча шеър турларини ўз ичига олган мажмуа бўлиб, Шарқ адабиёти тарихида ноёб ҳодисадир.

Навоий форсий тилида ёзилган ўз шеърларини “Девони Фоний” номи остида жамлаган. Шунингдек, Навоий форс тилидаги қасидаларини жамлаб, “Ситтаи зарурия” (“Олти зарурият”) ва “Фусули арбаа” (“Йилнинг тўрт фасли”) номли икки тўплам яратади.

1469 йил Ҳусайн Бойқаро Ҳиротни эгаллади ва шу йили у Алишер Навоийни давлат мухрдори этиб тайинлади, 1472 йил вазирлик мансабига ўтказилади. Эгаллаган мансаби орқали у мамлакатнинг маданий ва илмий тараққиётида катта ёрдам кўрсатади. Катта мулк эгасига айланади.

Хондамирнинг қайд қилишича, 1480-йиллар давомида Алишер Навоий ўз маблағлари ҳисобидан Ҳиротда ва мамлакатнинг бошқа шаҳарларида бир неча мадраса, 40 та работ, 17 масжид, 10 хонақох, 9 ҳаммом, 9 кўпrik, 20 га яқин ҳовуз қурган ёки таъмирлассирган. Улар орасида Ҳиротдаги «Ихлосия», «Низомия» мадрасалари, «Ҳалосия» хонақохи, «Шифоия» тибгоҳи, Қуръон тиловат қилувчиларга мўлжалланган «Дорул-хуффоз» биноси, Марвдаги «Хусравия» мадрасаси, Машҳаддаги «Дорул-хуффоз» хайрия биноси ва бошқа ноёб меъморлик ёдгорликлари бор.

Адабий анъаналарни сақлаш ва ривожлантиришда кутубхоналар ва илмий муассасалар ҳал қилувчи рол ўйнади. Кеш, Самарқанд ва Ҳиротда кутубхоналарнинг ташкил этилиши адабий асарларни тўплаш ва тарқатишни осонлаштириб, ўша даврнинг интеллектуал жўшқинлигига ҳисса кўшди (Брегель, 1996).

Амир Темур (1336-1405) аввал ватани Шахрисабзда, сўнг мамлакат пойтахти Самарқандда сарой кутубхонаси ташкил қилди. Темурнинг сарой кутубхонаси учун бутун Мовароуннаҳр бўйлаб китобfuрушлардан ва шахсий кутубхона эгаларидан машҳур муаллифларнинг бежирим безатилган китоб нусхалари сотиб олинди. Кутубхонада қўлёзма кўчириш, китобларни безатиш ишларини миллий китоб санъатининг моҳир усталари олиб борганлар. Самарқандда араб, форс, турк, санскрит, юнон, лотин, арман тилидаги кўплаб бебаҳо қўлёзмалар Эрон, Туркия, Ҳиндистон, Ироқ, Арманистон каби давлатлардан, Истамбул, Бурса, Исфахон, Ҳамадон, Шероз, Бағдод, Басра, Дамашқ каби қадимий маданият ўчоғи бўлган шаҳарлардан олиб келинган эди.

Амир Темур кутубхонасидан факат сарой вакилларигина эмас, балки муайян гуруҳдаги китобхонлар ҳам фойдаланганлар. Кутубхонадаги китоблар фан соҳалари бўйича рўйхатга олинниб, сандиқларда сақланган. Бу тартиб китобларни ҳисобга олиш учун эмас, балки фойдаланиш осон бўлиши учун ҳам ўрнатилган. Темурдан сўнг унинг ноёб кутубхонаси набираси Улуғбекка (1394 – 1449) мерос бўлиб қолган.

Темурийлар давридаги илм-фан ютуқлари, хусусан, астрономия ва математика фанлари бу соҳаларнинг келажакдаги ривожланиши учун замин яратди. Улугбек каби олимларнинг фаолияти янги давргача ҳам илмий тафаккурга яхши таъсир кўрсатишда давом этди (Крамерс, 1986).

Темурийларнинг ўзига хос меъморий услуби кейинги даврларга, шу жумладан Хиндистондаги Бобурийлар империясига таъсир кўрсатди, бу ерда ўхшаш услублар қурилишларга жорий қилинди ва мослаштирилди. Мураккаб кошинлар, катта гумбазлар ва катта ҳовлилардан фойдаланиш Бобурийлар меъморчилигининг ўзига хос анъаналарига айланди (Ризви, 2009).

Темурийлар давридаги иккинчи Уйғониш даври маданият ва ақлий тараққиёт тарихидаги бетакрор ҳодисадир. Ўша даврнинг меъморчилик, санъат, адабиёт ва фанга қўшган ҳиссаси маданий тикланишнинг жонли ва динамик даврини акс эттиради. Темурийлар Уйғониш даври ўзининг улуғворлиги, аниқлиги ва ақлий изланишларига урғу бериб, бугунги кунда ҳам қадрланиб, ўрганилиб келинаётган абадий мерос қолдирди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Soucek, S. (2000). *A History of the Timurid Empire*. Cambridge University Press.
2. Rizvi, S. A. (2009). *The Timurid Renaissance: Art and Architecture of the Timurid Period*. Oxford University Press.
3. [Gibson, M. \(2007\). *Timurid Architecture and its Influence*. Harvard University Press.](#)
4. [Bregel, Y. \(1996\). *An Historical Atlas of the Islamic World*. Harvard University Press.](#)
5. [Kramers, J. H. \(1986\). *Ulugh Beg and His Astronomical Tables*. Springer.](#)

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақола Темурийлар Уйғониш даврининг ўрганиб, унинг кейинги ислом санъати, меъморчилиги ва илм-фанига доимий таъсирини таъкидлайди.

Калит сўзлар: Темурийлар даври, Темурийлар Уйғониш даври, тарих, Марказий Осиё, Самарқанд.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматривается Тимуридский Ренессанс и подчеркивается его влияние на более позднее исламское искусство, архитектуру и науку.

Ключевые слова: эпоха Тимуридов, Тимуридское Возрождение, история, Средняя Азия, Самарканд.

RESUME:

This article examines the Timurid Renaissance and highlights its lasting influence on later Islamic art, architecture, and science.

Key words: Timurid era, Timurid Renaissance, history, Central Asia, Samarkand.

ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА АҲЛОҚИЙ ЭҲТИЁЖЛАРНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ ТАҲЛИЛИ

Мухамеджанова Л. –
ЎзМУ профессори

Жамиятнинг узлуксиз ривожланиши ва тараққиётида аҳлоқий эҳтиёжлар мухим ўрин тутади. Бу эҳтиёжлар, аслида, инсониятнинг маданий ва ижтимоий тараққиётига таъсир қилувчи асосий омиллардан бири ҳисобланади. Замонавий жаҳонда глобал муаммоларнинг кўпайиши, маданий ва ижтимоий қарама-қаршиликларнинг авж олиши, экологик инқироз ва технологик тараққиётнинг тез суръатлари каби омиллар аҳлоқий эҳтиёжларга бўлган талабни янада оширади. Шу сабабли, жамиятнинг аҳлоқий асосларини мустаҳкамлаш ва аҳлоқий нормаларни ривожлантириш замонамизнинг энг долзарб вазифаларидан бирига айланмоқда.

Мазкур мақоланинг асосий мақсади жамият тараққиётининг аҳлоқий эҳтиёжлари билан боғлиқ масалаларни чукур таҳлил қилиш ва бу эҳтиёжларни қондиришнинг самарали усусларини ишлаб чиқишидир. Бунда, жамиятнинг аҳлоқий асосларини мустаҳкамлаш, аҳлоқий тарбия ва маърифатни ошириш орқали жамоатчилик фаровонлигини ва ижтимоий адолатни таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни кўриб чиқиши кўзда тутилган.

Тадқиқотда комплекс ва қиёсий таҳлил методлари кўпланилади. Бу орқали турли маданий ва ижтимоий-иқтисодий контекстларда аҳлоқий эҳтиёжларнинг ўзига хос хусусиятлари, уларнинг ривожланиш динамикаси ва жамиятдаги роли кенг миқёсда таҳлил қилинади. Шунингдек, тадқиқотда илмий адабиётлар, сўровномалар ва эксперт мулоҳазаларидан фойдаланилади, бу эса мавзуни тўлиқ ва комплекс тарзда ёритиш имконини беради. Мақолада, шунингдек, тарихий мисоллар ва замонавий тажрибалар асосида муаммоларни таҳлил қилиш ва келажакда аҳлоқий эҳтиёжларни қондириш учун амалий таклифлар ишлаб чиқиши режалаштирилган.

Жамиятнинг аҳлоқий асосларини мустаҳкамлаш ва универсал аҳлоқий қадриятларни ривожлантириш орқали биз нафақат жамоатчилик фаровонлигини оширишга, балки глобал муаммоларга ҳам жавоб беришга қодир бўламиз. Бу мақсадларга эришиш учун эса тадқиқот ва амалий ишларни бирлаштириш зарур. Мазкур мақола, ушбу йўналишдаги мухим қадамлардан бири бўлиб, жамиятда аҳлоқий эҳтиёжларни тўлиқ қондиришга қаратилган стратегияларни ишлаб чиқиши ҳисса кўшади.

Аҳлоқий эҳтиёжларнинг назарий асослари. Аҳлоқий эҳтиёжлар тушунчаси инсоният тарихи билан чамбарчас боғлиқдир. Аҳлоқий эҳтиёжларни англаш ва шакллантириш жараёни кўп асрлар давомида ривожланиб келган. Бу эҳтиёжлар дастлаб жамиятнинг асосий ижтимоий ва маданий тузилишлари шаклланниши билан пайдо бўлган. Антика даврдан бошлаб файласуфлар, жумладан, Суқрот, Афлотун ва Арасту каби олимлар аҳлоқ масалаларини мухокама қилишган. Уларнинг таълимотлари инсонларнинг аҳлоқий хулқ-атворларини ва жамиятдаги муносабатларини тартибга солишига қаратилган эди.

Аҳлоқий эҳтиёжларни таҳлил қилишда бир қанча назарий ёндашувлар мавжуддир:

Деонтологик ёндашув: Иммануил Кантнинг фикрларига асосланиб, бу ёндашув аҳлоқий ҳаракатларнинг тўғрилиги ёки нотўғрилигини ҳаракатнинг ўзига эмас, балки унинг ортидаги ниятга қараб баҳолайди.[1]

Утилитаризм: Жереми Бентем ва Жон Стюарт Милль каби файласуфларнинг қарашларига кўра, аҳлоқий ҳаракатларнинг тўғрилиги уларнинг натижалари, яъни энг кўп инсонлар учун энг катта баҳт ва камчиликка олиб келиши билан белгиланади.[2]

Фазилат этикаси: Арастунинг қарашларига кўра, аҳлоқий ҳаракатлар ва фазилатлар инсоннинг характерини шакллантиради ва унинг мақсадли ҳаёт кечириши учун зарурдир.[3]

Контрактариzm: Томас Гоббс, Жон Локк ва Жан-Жак Руссо каби муаллифлар томонидан илгари сурилган бу ёндашувга кўра, аҳлоқий қоидалар ва нормалар ижтимоий шартнома асосида, яъни жамият аъзолари ўзаро келишув натижасида шаклланади.

Замонавий ахлоқшунослиқда ахлоқий эҳтиёжларни таҳлил қилишда маданий релативизм, постмодернизм ва феминистик этика каби янги ёндашувлар пайдо бўлди. Маданий релативизм ахлоқий нормаларнинг маданий контекстга боғлиқлигини таъкидлайди. Постмодернизм эса ахлоқий абсолютизмга қарши чиқиб, ахлоқий нормаларнинг кўп қирралиги ва ўзгарувчанлигини ургулайди. Феминистик этика ахлоқий мулоҳазаларда жинсий тенгсизлик ва аёлларнинг тажрибаларини ҳисобга олишни талаб қиласди.

Ахлоқий эҳтиёжларнинг назарий асослари таҳлили кўп асрлар давомида ривожланган ахлоқий фикрларнинг кенг спектрини қамраб олади. Бу ёндашувлар инсоннинг ахлоқий ҳаракатларини, унинг ижтимоий муносабатлардаги ролини ва жамиятдаги ахлоқий эволюцияни тушунишга ёрдам беради. Улар ахлоқий эҳтиёжларни қондириш ва жамиятни яхшилаш йўлида амалий тавсиялар бериш учун зарур назарий асосларни таъминлайди.

Суқрот ахлоқий тафаккурнинг асосчиларидан бири сифатида танилган. Унинг асосий қарашларидан бири – ҳақиқий билим ахлоқий билим эканлиги ва инсон фақат яхши ва ёмонни англаган ҳолда тўғри ҳаракат қила олиши мумкинлиги эди. Суқротнинг фикрлари бўйича, ахлоқий билим, шу билан бирга, инсоннинг ўз – ўзини англашига олиб келади, бу эса энг ўқори яхшиликка – маънавий ва ахлоқий мукаммалликка эришишнинг қалитидир.

Афлотун Суқротнинг шогирди бўлиб, унинг ғояларини ривожлантирган ва уларни ўзининг идеал давлати тасаввурида акс эттирган. Афлотуннинг "Давлат" асарида ахлоқий фазилатлар, жумладан, донолик, қайсарлик, адолат ва жасорат муҳокама қилинади. Унинг қарашларига кўра, адолатли жамият индивидуал фазилатларга асосланган жамиятдир, бу эса ҳар бир инсоннинг табиий салоҳиятини рўёбга чиқаришга имкон беради. [4]

Арасту, Афлотуннинг шогирди бўлиб, унинг ғояларини кенгайтирган ва тарқатган. Арастунинг "Никомах этикаси" асарида ахлоқий фазилатлар ва баҳтли ҳаёт ҳақида фикрлар келтирилган. Унинг қарашларига кўра, фазилатли ҳаёт инсоннинг ақл ва эҳтиросларини мувозанатда сақлаш орқали эришилади. Фазилатлар, шу тарзда, орталиқ йўл сифатида кўрилади, яъни икки экстремал ҳолат – камчилик ва ортиқчалик орасидаги мувозанат. [5]

Кант ахлоқ фалсафасида деонтологик ёндашувнинг асосий намояндларидан бири ҳисобланади. Унинг "Амаллар метафизикаси" асарида ахлоқий ҳаракатларнинг тўғрилиги ҳаракатнинг натижасига эмас, балки уни бажаришга унданаган ниятга боғлиқ эканлиги таъкидланади. [6] Кантга кўра, фақат ният туфайли амаллар ахлоқий қийматга эга бўлади. Унинг энг машҳур қарашларидан бири – "Амалий ақлнинг категорик императиви", бу бўйича ҳар бир амал уни умумий қонун сифатида қабул қилишимиз мумкин бўлган ҳолда амалга оширилиши керак.

Жереми Бентемнинг Утилитаризмга Қарашлари. Жереми Бентем утилитаризмнинг асосчиларидан бири сифатида, ахлоқ ва қонунчиликнинг мақсади инсонларнинг баҳтини максимал даражада ошириш эканини таъкидлайди. Унинг энг машҳур иқтибосларидан бири унинг "Ахлоқ ва қонунчилик принциплари тўғрисида дастлабки тадқиқотлар" (An Introduction to the Principles of Morals and Legislation, 1789) асаридан келтирилади:

"Табиат инсонни баҳтга интилишга ва азобдан қочишга мажбур килган. Шу нуқтаи назардан, баҳт, бу - лаззатдан олинган кўпайтируманинг ва азобдан олинган камайтируманинг натижасидир. Жамиятнинг асосий мақсади шу кўрсаткичларни ҳар бир аъзоси учун максималлаштиришдан иборатдир." [7]

Бентемнинг бу фикрлари унинг ахлоқий ва ижтимоий фалсафасининг асосини ташкил этади, унда индивидуал ва жамоавий баҳтни ошириш учун ҳаракатлар баҳоланади.

Жон Стюарт Милль (1806-1873), Бентемнинг утилитаризм ғояларини ривожлантирган ва уларга ўзининг нуқтаи назарини қўшган. Миллнинг "Утилитаризм" (Utilitarianism, 1863) асарида у баҳтнинг сифати ва миқдори ўртасидаги фарқни ургулайди: "Лаззатнинг сифати ва миқдори ўртасида фарқ бор, ва агар икки турдаги лаззат бир хил миқдорда бўлса ҳам, улардан бири инсониятнинг ўқори сифатларига мурожаат қиласа, у афзал ҳисобланади. Демак, баҳт фақат лаззатнинг миқдори билан эмас, балки унинг сифати билан ҳам белгиланади." Милл утилитаризмни ахлоқий ва ижтимоий фалсафа сифатида ривожлантириш орқали, баҳтни

максималлаштириш мақсадида ҳаракатларнинг сифатини ҳам ҳисобга олиш кераклигини таъкидлайди. Унинг қарашлари ахлоқий ҳаракатларни баҳолашда фақатгина микдорий ўлчамлардан ташқари, сифатий мезонларни ҳам қўллаш кераклигини кўрсатиб беради. [8]

Бу файласуфларнинг ғоялари ахлоқий эҳтиёжларнинг турли аспектларини ёритади ва уларнинг замонавий жамиятда ахлоқий эҳтиёжларни тушуниш ва қондиришга қандай таъсир кўрсатиши мумкинлигини кўрсатиб беради.

Ахлоқий эҳтиёжлар – бу жамиятнинг маънавий ва ижтимоий тараққиёти учун зарур бўйлан муҳим омиллардир. Улар инсонларнинг ўзаро муносабатларини, жамоатчиликка нисбатан масъулиятини ва шахсий ҳамда ижтимоий қарорларни қабул қилиш жараёнини белгилаб беради. Ахлоқий эҳтиёжларнинг жамият тараққиётидаги роли ва аҳамияти ижобий ҳамда салбий таъсирлари билан бирга кўриб чиқилиши лозим.

Ижобий Таъсирлари: Жамиятдаги барқарорлик ва уйғунлик: Мустаҳкам ахлоқий асослар жамиятдаги барқарорлик ва уйғунликни таъминлайди. Улар инсонлар ўртасидаги ишонч ва ўзаро ҳурматни кучайтиради, бу эса ижтимоий муносабатларнинг самарали ишлашига асос яратади.

Қонун ва тартибга риоя қилиш: Ахлоқий эҳтиёжлар инсонларга қонун ва тартибга риоя қилишни ўргатади, бу эса жамиятда адолат ва тенглик принципларининг мустаҳкамланишига хизмат қиласи.

Ижтимоий масъулият ҳисси: Ахлоқий эҳтиёжлар инсонларда ижтимоий масъулият ҳиссини ривожлантиради, бу эса жамоатчилик манбаатлари йўлида ҳаракат қилишга ундейди. Натижада, ижтимоий адолат ва тенгликка эришиш имконияти ошади.

Маданий ва маънавий тараққиёт: Ахлоқий қадриятлар маданий мерос ва маънавий қадриятларни сақлаб қолишга ёрдам беради, бу эса жамиятнинг умумий маданий ва маънавий тараққиётига ижобий таъсир кўрсатади.

Салбий таъсирлари эса ахлоқий релятивизм: Ахлоқий қадриятларнинг релятивлиги (нисбийлиги) жамиятда англашилмовчиликлар ва зиддиятларни келтириб чиқариши мумкин

Турли маданий ва ижтимоий-иқтисодий контекстларда ахлоқий эҳтиёжларнинг тушунилиши ва қўлланилиши ўртасидаги фарқларни тушуниш, жамиятларнинг турлича динамик ва комплекс хусусиятларини англаш учун муҳимдир. Қуйида турли контекстларда ахлоқий эҳтиёжларнинг ўрни ва аҳамиятига оид қиёсий таҳлил келтирилади.

Индивидуалистик ва колективистик жамиятлар. Индивидуалистик жамиятларда ахлоқий эҳтиёжлар асосан шахсий эркинлик ва мустақилликка урғу беради. Бундай контекстларда ахлоқий қадриятлар шахсий танлов ва масъулиятни таъкидлайди, инсон хуқуqlari ва шахсий фаровонлик эса асосий ахлоқий мезонлар қаторига киради.

Колективистик жамиятларда эса, ахлоқий эҳтиёжлар кўпроқ жамоа манбаатлари ва уйғунликни олдинга суради. Бундай маданиятларда оила ва жамоага садоқат, жамоатчилик билан уйғунлик ва гуруҳнинг эҳтиёжларини индивидуал эҳтиёжлардан устун қўйиш муҳим қадриятлар ҳисобланади.

Индивидуалистик жамиятлар: АҚШ - Индивидуализм АҚШ маданиятининг асосий элементларидан биридир. Америка жамияти шахсий эркинлик ва мустақилликни, шунингдек, индивидуал ютуқ ва муваффақиятга интилишни юқори қадрлайди. Америкаликлар кўпинча ўз мақсадларига эришиш учун шахсий масъулиятни олишга тайёр бўладилар.

Буюк Британия - Британия ҳам индивидуалистик маданиятга эга давлатлардан бири. У ерда ҳам шахсий эркинлик ва индивидуал масъулият муҳим қадриятлар ҳисобланади. Британияликлар ўз фикрларини эркин ифода этиш ва мустақил қарорлар қабул қилишга интиладилар.

Колективистик жамиятлар: Япония - колективистик жамиятлар мисолида энг кўп тилга олинадиган мамлакатлардан бири. Японияда жамоа манбаатлари, уйғунлик ва ўзаро ёрдам каби қадриятлар алоҳида эътироф этилади. Япон жамиятида инсонлар ўзларининг жамоага қандай ҳисса қўшишлари мумкинлиги ҳақида кўпроқ ўйлайдилар.

Хитой - Хитой ҳам колективистик маданиятга эга бўлиб, бу ерда оила ва жамоа муносабатлари жуда муҳим ҳисобланади. Хитойликлар учун жамоа манбаатлари шахсий манбаатлардан устун турди, ва улар муносабатлар тармоғи ва жамоавий масъулиятни юқори қадрлайдилар.

Бу мамлакатлар маданий ўзига хосликлари ва ижтимоий-иқтисодий контекстлари орқали индивидуализм ва коллективизмнинг турлича кўринишларини намоён қиласидилар. Маданиятлараро фарқлар аҳлоқий эҳтиёжлар ва қадриятларга бўлган ёндашувларни англашда муҳим роль ўйнайди.

Ривожланган ва ривожланаётган жамиятлар. Ривожланган жамиятларда аҳлоқий эҳтиёжлар тез технологик тараққиёт, экологик масъулият ва глобал масъулият каби масалалар билан чамбарчас боғлиқ. Бундай жамиятларда инсонларнинг аҳлоқий масъулияти тобора кенгаяди, қолаверса, глобал муаммоларга ва инклюзивликка бўлган эътибор ҳам ортади.

Ривожланаётган жамиятларда эса аҳлоқий эҳтиёжлар кўпинча ижтимоий адолат, иқтисодий имкониятларга тенглик ва асосий инсоний эҳтиёжларни қондириш билан боғлиқдир. Бундай контекстларда аҳлоқий мезонлар кўпроқ ижтимоий ҳамкорлик ва ўзаро ёрдамга асосланган.

Ривожланган ва ривожланаётган жамиятларни турлича давлатлар мисолида қўриб чиқиши, иқтисодий, ижтимоий ва маданий фарқларни тушунишга ёрдам беради. Булар жамиятнинг аҳлоқий эҳтиёжларига ва муаммоларни ҳал этишга бўлган ёндашувларга таъсир кўrsатади.

Ривожланган жамиятлар: Норвегия - Норвегия, юқори даромадга эга бўлган, ижтимоий хизматлари кенг ва ривожланган инфраструктурасига эга мамлакат сифатида, ривожланган давлатларнинг яхши мисолидир. Бу давлат аҳолисининг юқори яшаш сифати, саломатлик ва таълим тизимларининг самарадорлиги билан танилган.

Швейцария - Швейцария мустақил ва юқори технологик ривожланган иқтисодиётга, шунингдек, юқори яшаш даражасига ва ижтимоий баракалиликка эга. Бу мамлакат шахсий ҳуқуқлар ва эркинликларни ҳурмат қилиш, иқтисодий барқарорлик ва экологик масъулият масалаларига юқори эътибор қаратади.

Ривожланаётган жамиятлар: Кения - Кения, сахрои Кабир ўлкасида жойлашган ва тез ривожланаётган иқтисодиётга эга бўлган Африка давлати. Бу мамлакатда ижтимоий ва экономик тараққиёт йўлида кўплаб қадамлар ташланмоқда, бироқ ҳали ҳам иқтисодий имкониятлар, саломатлик ва таълим соҳасида катта чақириқлар мавжуд.

Бангладеш - Бангладеш, жанубий осиёда жойлашган ва аҳолиси тез ўсиб бораётган мамлакат. Иқтисодий ўсишга қарамасдан, Бангладеш ҳали ҳам камбағаллик, нотенг иқтисодий имкониятлар ва табиий оғатлар каби муаммоларга дуч келмоқда. Шу билан бирга, мамлакат ижтимоий ривожланиш ва экологик барқарорликни таъминлаш йўлида муҳим қадамлар ташламоқда.

Бу мисоллар орқали кўриш мумкинки, ривожланган ва ривожланаётган жамиятларнинг аҳлоқий эҳтиёжлари ва уларни қондириш усуллари турлича. Ривожланган мамлакатларда аҳолисининг яшаш даражасини ошириш, иқтисодий барқарорликни сақлаш ва экологик муаммоларни ҳал этиш муҳим аҳамиятга эга бўлса, ривожланаётган мамлакатларда асосий эътибор иқтисодий ривожланиш, таълим ва саломатликни яхшилашга қаратилган.

Технологик тараққиёт жамиятларнинг аҳлоқий эҳтиёжларига ҳам таъсир қиласиди. Замонавий технологиялар, маълумотларнинг кенг тарқалиши ва глобал алоқалар аҳлоқий масъулиятнинг янги шаклларини юзага келтиради. Масалан, кибер хавфсизлик, шахсий маълумотларнинг махфийлиги ва сунъий интеллектнинг аҳлоқий стандартлари каби масалалар замонавий жамиятларда аҳлоқий мухокамаларнинг марказида турди.

Турли маданий ва ижтимоий-иқтисодий контекстларда аҳлоқий эҳтиёжларнинг ўрни ва аҳамиятини қиёсий таҳлил қилиш, жамиятлар ўртасидаги асосий фарқларни англашга ёрдам беради. Бу фарқлар аҳлоқий эҳтиёжларни қондиришнинг ва аҳлоқий масалаларни ҳал қилишининг турлича ёндашувларини кўrsатиб беради. Жамиятларнинг муваффақиятли

тараққиётини таъминлаш учун аҳлоқий эҳтиёжларни аниқлаш ва уларга мувофиқ ишлаш мухим аҳамиятга эга.

Тадқиқот натижалариға асосланыб, жамиятда аҳлоқий эҳтиёжларни ривожлантириш ва мустаҳкамлаш учун қуйидаги амалий таклифлар ва хulosаларни келтириш мүмкін:

Амалий таклифлар:

Таълим орқали аҳлоқий қадриятларни шакллантириш: Таълим тизимида аҳлоқий қадриятларни ва фазилатларни ўргатиши кучайтириш керак. Бу мактаб дастурларига аҳлоқий тарбия, этика ва фуқаролик жавобгарлиги мавзуларини киритишни ўз ичига олиши мүмкін.

Медиа ва ижтимоий тармоқларда аҳлоқий ёндашувларни илгари сурин: Оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқларда аҳлоқий қадриятларни тарғиб килиш ва ижобий ўрнакларни кўрсатиши орқали жамоатчилик фикрини шакллантириш.

Аҳлоқий лидерликни ривожлантириш: Жамиятнинг барча даражаларида аҳлоқий лидерликни ривожлантириш. Бу лидерлар аҳлоқий қарорлар қабул қилишда ўрнак бўлиб, бошқаларни ҳам шу каби ёндашувларни қўллашга ундаши керак.

Ижтимоий ҳамкорлик ва ёрдам программаларини кучайтириш: Жамоавий ҳамкорлик ва ёрдамга асосланган ижтимоий дастурларни яратиш ва кучайтириш, шу тариқа жамиятнинг колектив масъулиятини мустаҳкамлаш.

Қонун ва сиёsat орқали аҳлоқий нормаларни мустаҳкамлаш: Қонунчилик ва сиёsatлар орқали аҳлоқий нормаларни амалда қўллаш ва уларни жамиятдаги ҳар бир шахс учун мажбурий қилиб белгилаш.

Жамиятда аҳлоқий эҳтиёжларни ривожлантириш ва мустаҳкамлаш мураккаб ва кўп қиррали жараёндир. Бу жараён таълим, медиа, қонунчилик ва ижтимоий ташабbusлар каби кўплаб соҳаларни қамраб олади.

Аҳлоқий қадриятларнинг мустаҳкамланиши жамиятнинг барқарорлиги, уйғунлиги ва ижтимоий фаровонлиги учун зарурдир. Бу қадриятлар орқали жамият аъзолари ўзаро ҳурмат ва ишончга асосланган муносабатларни шакллантирадилар.

Амалий таклифларни ҳаётга татбиқ этиш орқали жамиятда аҳлоқий эҳтиёжларни ривожлантириш ва мустаҳкамлаш мүмкін. Бу жараёнда ҳар бир шахснинг ва институтларнинг роли мухим аҳамиятга эга.

Мазкур мақола жамият тараққиётининг аҳлоқий эҳтиёжлари ва уларнинг аҳамиятини кенг миқёсда таҳлил қилди. Турли маданий ва ижтимоий-иктисодий контекстларда аҳлоқий эҳтиёжларнинг ўзига хос хусусиятлари ва уларнинг жамият учун олиб келадиган ижобий ҳамда салбий таъсирлари кўриб чиқилди. Аҳлоқий эҳтиёжлар жамиятнинг барқарорлиги, уйғунлиги ва фаровонлиги учун зарур эканлиги таъкидланди, шунингдек, индивидуализм ва колективизм каби турлича маданий ўзига хосликлар билан ушбу эҳтиёжларнинг қандай шакллантирилиши муҳокама қилинди.

Мақола орқали, жамиятда аҳлоқий эҳтиёжларни ривожлантириш ва мустаҳкамлашнинг амалий йўллари ҳам кўрсатиб берилди. Таълим, медиа, ижтимоий ҳамкорлик ва қонунчилик каби турлича механизмлар орқали аҳлоқий қадриятларни шакллантириш ва уларни жамиятнинг ҳар бир аъзоси томонидан қабул қилинишига эришиш мумкинлиги таъкидланди.

Жамиятнинг умумий фаровонлиги ва тараққиёти учун аҳлоқий эҳтиёжларни мустаҳкамлаш ва ривожлантириш зарурдир. Бу жараён мураккаб ва доимий алоқаларни талаб қиласи, бироқ унинг натижалари жамиятнинг барча аъзолари учун ижобий таъсир кўрсатади. Мақолада келтирилган таҳлил ва амалий таклифлар, аҳлоқий эҳтиёжларни англаш ва уларга жавоб бериш борасида жамият аъзолари ва қарор қабул қилувчилар учун мухим йўналишларни белгилаб беради. Жамиятнинг мустаҳкам аҳлоқий асослари, инсонларнинг ўзаро ҳурмати ва бир-бирини қўллаб-қувватлаши, шубҳасиз, унинг тараққиёти ва фаровонлиги учун асосий шартdir.

АДАБИЁТЛАР:

- Кант, И. Метафизика действий: основы метафизики нравственности». М.: Наука, 1985.

2. Милль, Ж. С. "Утилитаризм". Санкт-Петербург: Этика. 1863.
3. Арасту. "Никомаховая этика". Тошкент: Фалсафа.
4. Бентем, Ж. "Preliminary Studies on the Principles of Ethics and Legislation". London: Law and Justice.Хофстеде, Г. 1980.
5. "Маданиятлар ва ташкилотлар: Зәхнни тушуниш". Нью-Йорк: Психология.
6. Патель, Н.. "Global Ethics: Ethical Challenges in the 21st Century." California: World Culture. 2019
7. Рашидова А Жамият ва аҳлоқ: Ўзбекистон контекстида". Тошкент: Ижтимоий Фикр. 2021
8. Смит, А. "Social Contract Theory: History and Modernity." London: Politics and Philosophy. 2007.

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақола жамият тараққиётининг аҳлоқий эҳтиёжлари масаласини кенг миқёсда муҳокама қиласиди. Жамиятнинг аҳлоқий тараққиётига қўйилган замонавий талаблар ва уларнинг инсонларнинг кундалик ҳаёти ва умумий фаровонлигига таъсири таҳлил этилади.

Калит сўзлар: жамият тараққиёти, аҳлоқий эҳтиёжлар, аҳлоқий тарбия, маданий фарқлар, ижтимоий-иқтисодий контекст, аҳлоқий қадриятлар.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматривается вопрос нравственных потребностей развития общества в широком масштабе. Анализируются современные требования к нравственному развитию общества и их влияние на повседневную жизнь и общее благосостояние людей.

Ключевые слова: развитие общества, этические потребности, нравственное воспитание, культурные различия, социально-экономический контекст, этические ценности.

RESUME:

Modern requirements for the moral development of society and their impact on everyday life and the general well-being of people are analyzed. Modern requirements for the moral development of society and their impact on everyday life and the general well-being of people are analyzed.

Keywords: society development, moral needs, moral education, cultural differences, socio-economic context, moral values.

ИСЛОХОТЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Ботирова Ҳ.Э. -
ТИҚҲММИ – МТУ доценти,
тарих фанлари бўйича
фалсафа доктори(Phd).

Мустақил Ватанимизда амалга оширилаётган кенг қўламли ислоҳотлар қишлоқ тараққиёти ва фаровонлигини ҳуқуқий таъминлашга бевосита боғлиқдир Мамлакатимизда қишлоқ аҳолиси манбаатларини янада тўлиқ таъминлашга устуворлик берилаётгандиги, нафақат, давр талаби, қолаверса, босқичма-босқич ва барқарор ривожлантиришга қаратилган ислоҳотларнинг мантикий давомидир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан амалга оширилаётган стратегияда барча соҳалар қатори қишлоқ ҳўжалигини ҳам модернизация қилиш борасида энг муҳим вазифаларни аниқ белгилаб, уларни изчил амалга ошириб бораётганимиз соҳадаги улкан муваффақиятларга асос бўлиб хизмат қилмоқда.

Қишлоқ аҳолиси учун зарур шароитлар яратиш, улар фаровонлигини таъминлаш, энг аввало, қишлоқ ҳўжалиги соҳасида амалга оширилаётган ҳуқуқий ислоҳотлар маҳсули билан узвий боғлиқ ҳисобланади. Бу ўринда, инсоннинг камолоти, унинг эркинлиги, юксак турмуш даражаси, фаравон ҳаёт ва фаол меҳнат қилиши учун зарур шарт-шароитларни яратиш каби ғоялар асосий мазмунини ташкил этадиган конституциямизнинг мустаҳкам ҳуқуқий пойдевор вазифасини ўтаганлигини таъкидлаш жоиз. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг Конституциясидаги инсон ҳуқуқ ва эркинликлари устуворлигидан келиб чиқадиган ҳуқуқий қоидалар ва унинг асосида қабул қилинган қонун ҳужжатлари жамиятимиз ижтимоий-сиёсий тизимининг қиёфасини тубдан ўзгартириш тадбиркорлик фаолиятини эркин амалга ошириш, шунингдек, қишлоқ ҳўжалигининг ташкилий-ҳуқуқий шакллари, уни бошқариш тартиби ва ҳўжалик фаолиятини амалга ошириш усусларини замон талабларига мос қайта кўриб чиқиш учун зарур имкониятлар яратади десак, муболага бўлмайди.

Қишлоқ ҳўжалигидаги иқтисодий ўзгаришларнинг самарадорлигига таъсир қилиши табиий бўлган норматив-ҳуқуқий базанинг мантикий равища қабул қилинганини қўйидаги босқичларга бўлиш орқали кузатиш мумкин:

Қишлоқ ҳўжалигидаги бозор ислоҳотларининг биринчи босқичи 1991-2000 йилларни ўз ичига олиб, уни шартли равища бошлангич босқич деб ҳам аташ мумкин. Таъкидлаш жоизки, ушбу босқичда қишлоқ ҳўжалигининг барқарорлигини таъминлаш масалалари ҳал этилди ва бозор иқтисодиётiga ўтиш асослари яратилди. Бундай асосий йўналишлар шахсий томорқаларни кенгайтириш, янги суғориладиган ерларни шахсий ҳўжаликлар ва боғ - дала ҳовли участкаларига ажратиб бериш йўли орқали аҳолини амалда ер билан таъминлашга қаратилган бўлиб, бу эса ўз навбатида қишлоқда давлатга қарашли бўлмаган сектор сезиларли даражада мустаҳкамланишига олиб келди.

Ислоҳотларнинг иккинчи босқичи (2001 йил ва ундан кейинги йиллар)нинг ўзига хос хусусиятлари эса қўйидагиларда намоён бўлади: биринчидан, қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқарувчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш. Улар учун зарур иқтисодий ва ҳуқуқий шарт-шароит яратиш, тайёрлов, қайта ишлаш корхоналари, моддий-техника ресурслари етказиб берувчилар, молия-банк муассасалари ҳамда бошқа хизмат кўрсатиши ташкилотлари фаолиятини ушбу мақсадга бўйсундириш; иккинчидан, қишлоқ ҳўжалиги соҳасидаги маҳсус ваколатли давлат органи ҳамда мазкур соҳада фаолият кўрсатувчи уюшмалар мақомини қайта кўриб чиқиш; учинчидан, фермер ҳўжаликлари эҳтиёжларига жавоб берувчи замонавий сервис инфраструктурасини ташкил этиш; тўртинчидан, қишлоқ ҳўжалигига мулкчиликнинг ижара шакллари ва шартномавий муносабатларга асосланган ҳўжалик юритиш тизимини ривожлантириш; бешинчидан, шахсий ёрдамчи, деҳқон ва фермер ҳўжаликларида чорва молларни кўпайтиришни рағбатлантириш;

олтинчидан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришда шартномавий муносабатларни такомиллаштириш; еттинчидан, хўжалик юритишнинг ширкат, фермер ва дехқон хўжаликлари ташкилий-хуқуқий шаклларини сақлаб қолиш, истиқболда асосий қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ишлаб чиқарувчи субъект бўлиб қоладиган фермер хўжаликларини ривожлантиришни устувор йўналиш сифатида белгилаш; саккизинчидан, озиқ-овқат экинлари экиладиган майдонларни оптималлаштириш ва уларни етиштиришни кўпайтириш; тўққизинчидан, иқтисодиётнинг аграр секторини янада барқарор ривожлантириш, қишлоқ қиёфасини ва қишлоқ аҳолисининг уй-жой шароитларини сифатли яхшилашга йўналтирилган кенг турдаги банк хизматларини кўрсатиш.

Бундан ташқари, 2009 йилнинг 26 январида «Қишлоқ тараққиёти ва фаравонлиги йили» Давлат дастури қабул қилинганлиги, энг асосийси, 2009 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг устувор вазифаларидан бири – қишлоқда турмуш даражасини юксалтиришга, қишлоқларимиз қиёфасини ўзгартиришга қаратилган узоқ муддатли ва бир-бири билан чамбарчас боғлиқ кенг кўламли чора-тадбирларни амалга ошириш, ижтимоий соҳа ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантиришни жадаллаштириш, мулқдорнинг, тадбиркорлик ва кичик бизнеснинг мақоми, ўрни ва аҳамиятини тубдан қайта кўриб чиқиш, фермер хўжаликлари ривожини ҳар томонлама қўллаб-куватлаш ҳамда бу борада узоқ муддатга йўналтирилган ўзаро чуқур боғланган чора-тадбирлар кенг комплексини амалга оширишнинг белгилаб олинганлиги ҳам мазкур соҳада амалга оширилаётган хуқуқий ислоҳотларни янги поғонага кўтаришга хуқуқий замин яратди десак, муболага бўлмайди.

Бугунги кунга келиб давлатимизнинг аграр соҳада эришаётган улкан ютуқлари замирида Ватанимизнинг садоқатли ирригаторларининг ҳам ўрни бекиёс. Охирги йилларда Президент Шавкат Мирзиёев раҳбарлигига амалга оширилаётган ислоҳотлар ва янгиланишлар, Давлатимиз раҳбари томонидан ишлаб чиқилган Ўзбекистонни 2017-2021 йилларда ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясини амалга ошириш натижасида улкан тараққиёт босқичига кирган мамлакатимиз ривожи ва бугунги глобаллашиб бораётган дунёдаги давр талабларига жавоб бера оладиган замонавий мутахассисларни тайёрлаш эҳтиёжи ортиб бораётгани нуқтаи назаридан ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда.

Шунингдек, мазкур соҳада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “2017-2021 йилларда ичимлик суви таъминоти ва канализация тизимларини комплекс ривожлантириш ҳамда модернизация қилиш дастури тўғрисида”ги ва 2017 йил 25 сентябрдаги “Сув объектларини муҳофаза қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорлари ҳамда 2017 йил 20 апрелдаги “Экология ва атроф мухитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони долзарб вазифаларнинг ечими бўлди.

Сув ва ердан оқилона фойдаланиш, суформа дехқончилик маданияти бизнинг заминимизда узоқ ўтмишдан бери ривож топиб келмоқда. Суфориладиган ерлардан фойдаланиш самарадорлигини оширишда қишлоқ хўжалиги экинларини суфоришнинг илфор, замонавий усулларини жорий этишнинг аҳамияти катта. Чунки республикамиздаги сув танқислиги шароитида суфоришнинг замонавий усулларини кўллаш орқалигина аҳолининг қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига тобора ўсиб бораётган табиий эҳтиёжини қондириш мумкин. Кейинги йилларда мамлакатимизнинг бир қатор ҳудудларида экинларни суфоришнинг янги технологиялари синовдан қўллашга тавсия этилмоқда.

Мамлакатимиз иқтисодиётининг муҳим тармоқларидан бири бўлган қишлоқ хўжалиги аҳолини озиқ-овқат маҳсулотларига, қайта ишлаш саноати тармоқларининг эса хом-ашёга бўлган талабини қондиради.

Аграр тармоқ юртимиз аҳолисининг салмоқли қисмини иш ўринлари билан таъминлаб келмоқда. Шу жиҳатдан, қишлоқ хўжалигини ривожлантириш масаласи республикамиз иқтисодиёти тараққиётининг устувор йўналишларидан бири сифатида эътироф этилмоқда.

Бугунги кунда давлатимиз раҳбари ташаббуси ва бевосита раҳнамолигида қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилиш бўйича кенг қамровли ишлар босқичма-босқич амалга оширилмоқда. Ишлаб чиқаришга фан-техника ютуқлари, янги техника ва илғор технологияларни жорий этиши ишлари йилдан-йилга жадаллашмоқда. Чекланган ер ва сув ресурсларидан, капитал ва меҳнат ресурсларидан фойдаланиш самарадорлиги ошмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, биз ўрганаётган муаммонинг илмий таҳлили шуни кўрсатадики, иқтисодиётимизнинг етакчи соҳаси бўлган қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга йўналтирилган сиёsatнинг натижаси, энг аввало бу соҳага ажратилган маблағларни сарфлашда, техника воситаларидан самарали фойдаланишда илғор-технологияларни қўллашда, одамларда тажрибанинг етарли даражада бўлишшлиги, уларнинг онгли муносабатда ва масъулияти бўлишига кўп жиҳатдан боғлиқдир. Айниқса одамларнинг сиёсий онги ва сиёсий маданияти ҳамда хуқуқий саводхонлик даражасининг замон талаби даражасида бўлишшлиги ўзига хос роль ўйнайди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Муминов А.Г. Ўзбекистон барқарор ривожланиш йўлида. Философия и право. 2023/ 2. 14-19-бетлар

РЕЗЮМЕ:

Мамлакатимизда қишлоқ аҳолиси манфаатларини янада тўлиқ таъминлашга устуворлик берилаётганлиги, нафақат, давр талаби, қолаверса, босқичма-босқич ва барқарор ривожлантиришга қаратилган ислоҳотларнинг мантикий давомидир.

Калит сўзлар: ислоҳотлар, қишлоқ хўжалиги, хуқуқий ислоҳотлар, заҳира, меҳнат ресурслари.

РЕЗЮМЕ:

В нашей стране приоритет отдается более полному обеспечению интересов сельского населения, не только требованию времени, но и логическому продолжению реформ, направленных на постепенное и устойчивое развитие.

Ключевые слова: реформы, сельское хозяйство, правовые реформы, резерв, трудовые ресурсы.

RESUME:

In our country, priority is given to more fully ensuring the interests of the rural population, not only the demands of the times, but also the logical continuation of reforms aimed at gradual and sustainable development.

Keywords: reforms, agriculture, legal reforms, reserve, labor resources.

МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ШАХС ТАРБИЯСИ МАСАЛАСИ

**Носиров Р. -
ToшTrU профессори,**

Дархақиқат, асрлар мобайнида халқимизга хос бўлган юксак маънавият давлатнинг ўз тарихидаги кўплаб мураккаб тақдир синовларидан ғолиб бўлиб чиқишига ёрдам бериб келди. Бугунги кунда, Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, “...ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш узлуксиз ҳаётий эҳтиёжга айланиши керак”[1].

Шунингдек, Мустақиллигимизнинг Буюк меъмори Ислом Каримовнинг тарихий хизматлари ва яратган гоялари барҳаёт, улар ҳар доим халқимизни уюштиради, бунёкорлик ишларига сафарбар этаверади. Дунёда мамлакат қўп, лекин Ўзбекистон битта. Уни жондан севиш, истиқлолимизнинг боқийлиги йўлида фидокорона меҳнат қилиш, обод ва фаровон турмушимиздан завкланиб яшаш бугунги авлод вакилларига насиб этган. Бу – бизнинг баҳтимиз, халқимизнинг баҳт-саодати, албатта.

“Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари” ғоясининг реал воқеликка айланишида муҳим омил, ҳеч шубҳасиз, таълимни ривожлантиришга эътибор бўлди, десак тўғри бўлади. Ушбу масала мустақиллик йилларида давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди. Ёшларга эътибор, уларнинг юксак интеллектуал салоҳият эгаси бўлишлари ўтмишда яшаган буюк аждодлар анъанасига садоқат рамзиdir. Мамлакатимизда қурилган таълим муассасаларининг гўзал ва маҳобатли бинолари, мактаблар турмушимизга янада чирой ва мазмун бағишилади.

Мустақиллик йилларида шахс тарбияси, унинг келажаги тўғрисида қайғуриш мустақилликни мустаҳкамлашнинг муҳим шарти сифатида қаралди. Шу сабабдан шахс маънавиятини шакллантириш масаласига мамлакатнинг келажагини таъминловчи омиллардан бири сифатида қаралди. Ўзбекистоннинг биринчи Президенти Ислом Каримов 2007 йил 30 август куни “Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли” номли маъруzasida замоннинг ўзгаришини чуқур ҳис этадиган, Ватан тақдирни учун масъулиятни тўла англайдиган, эркин фикрловчи кадрларга бўлган эҳтиёжни қондириш даврнинг энг долзарб ва ҳал қилувчи масаласига айланганини таъкидлади.

XII чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1992 йил 2 ва 3 июлда бўлиб ўтган X сессиясида биринчи Президент Ислом Каримов “Истиқлол йўли: муаммолар ва режалар” номли маъруzasida ўтмиш маданияти ва қадриятларини тиклаш, миллий онгни ўстириш каби вазифаларни халқимиз олдидаги асосий мақсад қилиб қўйди. Ушбу фикрларни 1992 йилда нашр этилган “Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли” номли асарида янада ривожлантирди. Унда мамлакатни тараққий эттиришнинг маънавий-ахлоқий негизлари илмий жиҳатдан асослаб берилди. Инсоният томонидан яратилган қадриятлар, шунингдек, асрлар давомида яратилган бебаҳо маънавий меросимизга содиклик уларнинг ичидаги энг муҳим масалалар эканлиги таъкидланди[2]. Мамлакатимизда шахс тарбияси маънавий соҳадаги энг муҳим вазифа сифатида белгиланди.

Мамлакатимизда кадрлар тайёрлашнинг таркибий қисмлари миллий моделнинг мазмун-моҳиятини ташкил этди. Кадрлар тайёрлаш соҳасидаги давлат сиёсати шахснинг интеллектуал ва маънавий-ахлоқий камолотини назарда тутадиган узлуксиз таълим тизимини ривожлантириш орқали амалга ошириладиган устувор аҳамият касб этди.

Миллий тикланиш даврида Ўзбекистонда қабул қилинган Кадрлар тайёрлаш миллий дастури янги асрнинг баркамол авлодини тарбиялаб етиштиришдек мураккаб ва олижаноб вазифаларни ҳал этишга қаратилди. Мазкур дастурдан ўрин олган режалар ўз даврида мамлакатимизда нафақат таълим-тарбия тизимини ислоҳ қилиш, балки жамиятда маърифий онгнинг шаклланиши, такомиллашуви, илмий салоҳият ва интеллектуал қадриятларнинг ривожланишига ҳам хизмат қилди.

“Маънавий жиҳатдан мукаммал ривожланган инсонни тарбиялаш, таълим ва маърифатни юксалтириш, миллий уйгониш гоясини рўёбга чиқарадиган янги авлодни вояга етказиш давлатимизнинг энг муҳим вазифаларидан бири”[3], деган ҳаётбахш сўзлар билан бошланадиган машхур рисоласида Биринчи Президентимиз “Таълим тўғрисида”ги Қонун ҳамда Миллий дастурнинг мазмун-моҳиятини аниқ, лўнда, барчага тушунарли тилда баён қилиб берди.

Ислом Каримовнинг 2007 йил 30 август куни “Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил таракқиёт йўли” номли маъruzасида янги авлод кадрларини тайёрлаш масаласига катта аҳамият берилди. Бундай кадрлар - ҳар жиҳатдан билимдон, масъулиятли ва хуқуқий-демократик жамиятни барпо этишга қодир шахслардир. Ушбу пировард мақсаддан келиб чиқиб, Республика таълим муассасаларида янги авлод кадрлари тайёрлаш янги таҳирдаги ДТСлар, модернизация қилинган ўқув дастурлари асосида амалга оширила бошланди.

Миллий тикланиш даврида муҳим ҳужжат - Мактаб таълимими ривожлантириш давлат умуммиллий дастури қабул қилинганлиги ҳам даврга хос тарихий воқеа бўлиб, у 2009 йилгача бўлган даврни қамраб олди. Унинг ижроси доирасида янги авлод кадрларини тайёрлаш учун замонавий шарт-шароитлар яратилди. Мустақилликнинг бошларида республикамиздаги мактабларнинг 60 фоиздан қўпроғи авария ҳолатида эди. Таълимни ривожлантиришга қаратилган дастурий ҳужжатларнинг жорий қилиниши натижасида умумтаълим мактабларининг замонавий бинолари янгидан қад кўтарди, мукаммал таъмирланиб, энг янги ва қулай жиҳозларга, компььютерлашган синфхоналар, мультимедия воситалари, қўргазма материаллар ҳамда лингфон хоналарига эга бўлди.

Биргина 2014 йилнинг ўзида мамлакатимизда 540 дан кўпроқ таълим ва тарбия муассасалари бутунлай янгиланди. Ушбу мақсадларга қарийб 550 миллиард сўм маблағ сарфланди.

Мустақиллик йилларида мамлакат олий таълим тизимини ислоҳ қилиш доирасида 19 та олий ўқув юртида 230 миллиард сўмлик қурилиш ва реконструкция ишлари амалга оширилди. Миллий тикланиш йилларида узлуксиз таълим соҳасини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилди. Масалан, биргина 2015 йилнинг ўзида ижтимоий соҳага давлат бюджети жами харажатларининг қарийб 60 фоизи ўйналтирилди. Бу 2014 йилга қараганда 22,5 фоизга кўп демакдир. Шу жумладан, таълим ва илм-фан соҳасини равнақ топтиришга 34,4 фоиз маблағ сарфланди.

Ўша даврга хос бўлган таълим стандартларини яратиш, жорий қилиш, замонавий дарсликлар ва алоҳида ўқув қўлланмалари ишлаб чиқиши орқали узлуксиз таълимнинг мазмунини тубдан такомиллаштириш баробарида мамлакатимизда 2009-2014 йилларда 136 та янги мусиқа ва санъат мактаби қурилди, 142 та ана шундай мактаб капитал реконструкция қилинди ва қайтадан жиҳозланди. Бундай кенг қўламдаги ишларга 634 миллиард 4 миллион сўм маблағ сарфланди. Буларнинг барчаси фарзандларимизнинг эстетик тарбиясини кучайтириш, уларнинг мусиқа ва санаътга меҳр-муҳаббатини ортириш, жаҳон санъати оламига чуқур кириб боришлигини таъминлашга қаратилди.

Кадрлар тайёрлаш миллий дастури доирасида амалга оширилган бундай улуғвор ишлар, шунингдек, 2004 йилда қабул қилинган Мактаб таълимими ривожлантириш умуммиллий дастурининг ижроси мамлакатимизда таълим ислоҳотларида бурилиш ясади. Мустақиллик йилларида келажак эгалари – фарзандларимизга чет тилларни ўргатиш бўйича кенг қамровли ишлар амалга оширилди. Шу мақсадда 2002 йилда Президентнинг маҳсус қарори қабул қилинди, унинг ижроси бўйича қилинган ишлар ўзининг самарасини бера бошлади – ушбу йўналишда “портлаш эффиқти”га эришиш ўйлида улкан қадамлар қўйилди.

“Биз, яъни халқимиз ва давлатимиз, ҳар қайси инсон, - деб ёзган эди Биринчи Президент, - ниманини ўз олдимизга мақсад қилиб қўйган бўлмайлик, қандай буюк ишларни амалга оширишга интилмайлик, барча олижаноб ҳаракатларимизнинг негизида нима туради? Бу саволга ҳаммамиз, табиийки, барча эзгу ниятларимизнинг марказида фарзандларимизни ҳам жисмоний, ҳам маънавий жиҳатдан соғлом қилиб ўстириш, уларнинг бахту саодати,

фаровон келажагини кўриш, дунёда ҳеч кимдан кам бўлмайдиган авлодни тарбиялаш орзуси туради, деб жавоб берамиз. Ҳақиқатан ҳам, ҳаётимизнинг маъно-мазмуни шундай эмасми?”[4].

Мустақиллик йилларида узлуксиз таълим тизимини янгилашнинг илк асослари яратилди. Айнан шу даврда маънавият масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилиди, ҳалқимизни маънавий юксалтириш, билимли жамият барпо этиш борасида катта ютуқлар қўлга киритилди, барча жабхаларда умуммиллий бирликка эришиш йўлида улкан қадамлар қўйилди, жамиятимизда миллий қадриятлар тикланиб, мамлакат тараққиётига салмоқли таъсир кўрсатганини яқин ўтмишга назар солиш, ижтимоий ҳаётнинг ўша пайтдаги манзарасини ҳар томонлама илмий таҳлил қилиш орқали англаш мумкин.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси // “Халқ сўзи”, 2020 йил 25 январь.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.- Т.1. – Т.:”Ўзбекистон”, 1996. – Б.76-85.
3. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.:1997. – Б.3.
4. Ислом Каримов. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. - Т.: “Ўзбекистон”, 2015. – Б.266.

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада мустақиллик йиллари ва унинг тарихий аҳамияти, истиқлолимизнинг боқийлиги, “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари” ғояси, таълим ва уни ривожлантириш масаласи ёритилган.

Калит сўзлар: Истиқлол, тарих, Миллий тикланиш, миллий юксалиш, таълим, мамлакат, давлат, сиёсат, йўналиш, ёшлар, интеллектуал, анъана, мамлакат, кадр, эҳтиёж.

РЕЗЮМЕ:

В статье освящается историческое значение, вечность идей независимости, идея «от национального возрождения к национальному росту», вопрос образования и его развитие.

Ключевые слова: Независимость, история, национальное возрождение, национальный подъем, образование, страна, государство, политика, направление, молодежь, интеллектуал, традиция, страна, кадры, потребность.

RESUME:

In this article highlighted the ears of independence and its historical significance, the immortality of our independence, the idea of "from national revival to national rise", the issue of education and its development.

Key words: Independence, history, national revival, national upsurge, education, country, state, politics, direction, youth, intellectual, tradition, country, personnel, need.

ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТЛАРДА ИЖТИМОЙ ОНГ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

*Махаммаджанов F. -
Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси
Ижтимоий ҳуқуқий медиа маркази бўлум бошлиги,
сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (Phd)*

Жаҳонда юзага келган кескин ўзгаришлар жараёнида инсоният олдида жамият сиёсий институтлари трансформациялашувининг концептуал моделларини тадқиқ этиш ҳамда ишлаб чиқиши масаласи долзарб аҳамият касб этмоқда. Демократик давлат ва фуқаролик жамияти шаклланаётган, бозор муносабатларига ўтилаётган бир даврда, жамиятнинг сиёсий институтлари фаоллигини ошириш ҳамда сиёсий тизимнинг барқарорлигини таъминлашда уларнинг трансформациялашуви жиҳатларини, омилларини концептуал жиҳатдан ўрганиш ҳар бир демократик давлатнинг сиёсий имижини белгилашда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Шу билан бирга, демократик тамойилларни муайян мамлакатда янада ривожлантириш ҳамда мустаҳкамлашнинг асосий шарти сифатида сиёсий институтлар муҳим роль ўйнамоқда. Бу жараён бевосита ҳар қандай давлат ва жамият ижтимоий-сиёсий муҳитининг динамик ривожланишига таъсир этувчи обьектлар – сиёсий институтлар трансформациялашуви жараёнининг қай йўсинда кечиши, уларнинг фаоллиги ҳамда муайян сиёсий тизим такомилидаги иштироқида нечоғлик аҳамиятини доимий равишда тадқиқ этишга бўлган эҳтиёжни янада оширади. Шу боис, сиёсий институтларнинг ташкил топиши, анъанавий жамиятлардаги ўзгариш динамикаси масаласи, замонавийлашув томон трансформацияси ҳар бир давлат ва жамият мақомига эга бўлган сиёсий обьектларнинг дикқат марказида турувчи жараёндир. Хусусан, Фаробий сиёсий институтлар жамиятдаги сиёсий тартиби мустаҳкамлашнинг негизи сифатида баҳолаб: “Қонунларни ўрганиши тўғри, билмаслик муаммоларнинг бошидир. Чунки, қонунларни билмаган ва уларга бўйсингмаганлар (қонунларни) беъмани деб аташин ҳохлаб қоладилар”. Сиёсий институтлар тизимидағи ўзгаришлар аслида бутун жамият ҳаётида ўз аксини топиши нуқтаи назаридан унинг шаклланиши ўрганиш, унинг таркибий хусусиятларини тадқиқ этиш ҳар бир даврда, айниқса, бугунги глобаллашув даврида муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ижтимоий институтларнинг ташкил топиши ва шаклланиши муаммолари доимо илмий тадқиқотларнинг дикқат марказида турган. Хусусан, сиёсий институтларнинг таркибий хусусиятларининг уларнинг келгусидаги тараққиёти билан ўзаро боғлиқлигини, заруриятини Афлотун “улар агар ўзлари буюрган нарсани жорий эта олмаса, агар бошқалар бўйсунган нарсаларга ўзи амал қилмаса, у ҳолда унинг кўрсатмалари қонуний эга бўлмайди ва унинг таъсири сусайди” – дея изоҳлаган эди. Афлотунга кўра, қонунларга риоя этишда тарбия ва машғулотлар муҳим (ижтимоий институтлар) аҳамиятга эга эканини ҳамда буни аввало сиёсий институтлар амалга оширишини кўрсатилган. Ҳар бир жамиятда сиёсий тизимнинг мустаҳкамлигига сиёсий институтлари таъсирида амалга оширилади. Шунинг учун, жамиятдаги сиёсий институтлар аввало ижтимоий институтлар доирасида, унинг таркибий қисмларидан бири сифатида шаклланади.

Институт атамаси биринчи марта ижтимоий фанларда италиялик олим Джамбаттиста Вико (1668-1744) томонидан қўлланилган. Унинг асосий кўриниши сиёсий институтлар ўзига хос тизимиға эга. Уларнинг шаклланиши аввало, институтлар фаолияти йўналиши, мақсад ва вазифаларига бориб тақалади. Тизим тушунчасининг ўзида(юнончадан бир бутунликнинг ташкил этувчи маъносини беради) бир бутун тизимнинг таркибидан бир-бирига боғлиқ ҳолда ҳамда уларни ташкил этувчи жиҳатларни ўзида мужассамлаштиради. Ҳар қандай замонавийлик жараёнига кирган мамлакат ва унинг сиёсий институтлари бу жараёнларга мослашувчанликни таъминлаб берувчи омиллар, услублар даражасига боғлиқ равища

ривожланади. Демократик тамойиллар бирон-бир жамиятда сиёсий институтлар мавжудлиги билан эмас, балки унинг фаолият механизмларига боғлиқ равища амлга оширилади.

Бу сиёсий жараён муайян давлат сиёсатининг йўналишларини аниқлашда ва механизмларини шакллантиришда бир қанча танденцияларга боғлиқ равища кечади. «Сиёсат – бу мамлакатни ким бошқаришини аниқлаш жараёнидир. Сиёсат бир оддий сабабга кўра институтлар билан боғлиқ, айниқса, инклузив сиёсий институтлар мамлакат юксалиши ва равнақига ҳисса қўшишда етакчи бўлиб қолаверади». Сиёсий модернизациялашувни жамиятнинг асосий институтларини, давлат бошқарувини такомиллаштириш, мавжудларининг фаолият принципларини янгилашга қаратилган жараён сифатида эътироф этиш мумкин.

Давлат ва жамият ҳаётининг модернизация қилишнинг яна бир хусусияти – ҳокимият бўлиниши тамойилининг мамлакат қонунчилигида белгилаб қўйилганлиги ҳамда унга амал қилиш шарт-шароитлари етарли экани билан белгиланади. Ўзбекистонда фаол фуқаролик жамияти ҳамда ҳуқуқий давлат қуришнинг асосий шартларидан бири – ҳокимият бўлиниши тамойили, унинг ривожи, эволюциясига боғлиқ бўлади.

Хусусан, Россиянинг “Левада” ижтимоий сўровномалар маркази томонидан ўтказилган сўровномада 22% респондентлар жамият тараққиёти ва инсон ҳуқуqlари химоясининг кафолати сифатида бевосита ҳокимият бўлиниши тамойилларига амал қилинишини ҳамда уларнинг дахлсизлигини белгилаганликлари бежиз эмас[1]. Ҳокимият бўлиниши тамойилини амалга ошириш ҳар қандай демократик давлатнинг муҳим сиёсий тенденцияси сифатида кўрилмоқда. Шунинг учун ҳам ҳокимият бўлиниши тамойили мамлакатнинг асосий қонунчилигида белгилаб қўйилиши мақсадга мувофиқ. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 11-модасида мамлакат сиёсий тизимида янада мустаҳкамлаш мақсадида мазкур принцип қўйидагича ифодаланган: “Ўзбекистон Республикаси давлат ҳокимиятининг тизими қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига бўлиниш принципига асосланади”. Ўзбекистонда давлат бошқарувини янги жараёнларнинг бевосита “Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида”ги Конституциявий қонун қабул қилиниши муносабати билан 2007 йил 11 апрелда киритилган қўшимча ва ўзгартишлар Ўзбекистонда кучли ҳуқуқий демократик давлатдан кучли фуқаролик жамияти сари тамойилни ўзида ифода этиши билан бошланди.

Унда давлат бошқарувини янада демократлаштириш, ҳокимиятнинг қонун чиқарувчи, ижро этувчи тармоқлари, ҳукумат ва жойлардаги давлат органлари зиммасига Конституция билан юклатилган ваколатларни амалга оширишдаги роли ва масъулиятини ошириш, шунингдек, ислоҳотларни амалга ошириш, мамлакатни янгилаш ва модернизация қилишда сиёсий партияларнинг таъсирини кучайтириш мақсади кўзланган.

Ҳар бир демократик давлатда модернизация ҳамда сиёсий институтларнинг трансформация билан боғлиқ жараён албатта амалга оширилади. Бунда ҳокимият бўлиниши ҳамда уларнинг фаолияти муайян давлатда ижтимоий муносабатларнинг тартибга солишда алоҳида эътибор талаб этади.

Фикримизча, давлат ва жамият ҳаётида ҳокимият бўлинишини амалга оширишнинг қўйидаги жиҳатлари билан ҳар бир мамлакат, хусусан, Ўзбекистон учун ҳам аҳамиятлидир:

- қонун чиқарувчи орган (парламент) фаолиятида қонун ижодкорлиги, парламент назорати каби функцияларни кучайтириш, фуқаролар билан парламент ўртасида “ўзаро алоқа” институтини жорий этиши;

- ижро этувчи ҳокимият ва унинг қуий поғоналари фаолиятини мониторинг қилиш, фаолиятда содир бўлаётган камчиликларнинг олдини олиш ва натижада маҳаллий бошқарув органлари иш самарадорлигига эришиш мумкин;

- суд ҳокимиятининг дахлсизлигини тўлиқ таъминлаш, унинг мустақиллиги фуқароларнинг манфаатларини ҳимоя этишда давлатни эмас, фуқароларни ҳимоя қилиш

тамойилининг устунлигига эришиш ҳар бир давлатда, хусусан, Ўзбекистонда ҳуқуқий давлат қуришнинг асосий механизми бўлиб хизмат қиласи.

Анъанавий жамиятларнинг замонавий жамиятлардан асосий фарқларидан бири ҳам ҳокимият бўлиниши тамойилига амал қилиниши, унинг аниқ чегарасининг мавжудлиги, шу билан бирга, ҳар бир органнинг мустакиллиги билан белгилаб қўйилган.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, жамиятдаги институтларнинг тизимидағи ўзгаришларнинг тадқиқ этишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуддир ва улар қўйилагилардан иборатдир:

Биринчидан, анъанавий жамиятнинг асосий белгиларидан бири – қадриятлар асосида шаклланган қатъий ғояларга ва унинг таъсирида барча институтларнинг мавжудлиги билан изоҳланган.

Иккинчидан, жамиятда ғоялар ўзгариши (ижтимоий онг) аввало унинг асосий сиёсий институтларнинг тизимидағи ўзгаришларда намоён бўлади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Вико Дж. Основания новой науки об общей природе наций. — М.—К.: REFL-book, ИСА, 1994. — 656 с.
2. Система // Большой Российский энциклопедический словарь. — М.: БРЭ. — 2003, с. 1437
3. Перегудов Ф. И., Тарасенко Ф. П. Введение в системный анализ. — М.: Высшая школа, 1989. С.67.

РЕЗЮМЕ:

Мақолада анъанавий ва замонавий жамиятлар ва уларда ижтимоий институтларнинг жамиятдаги ўрни ва роли ҳамда глобаллашув жараёнида замонавий жамиятларни барпо этишдаги ва бунда ижтимоий онгнинг ўзгариши тенденцияларининг аҳамияти илмий жиҳатдан ёритилган.

Калит сўзлар: трансформация, ижтимоий онг шакллари, анъанавий жамият, замонавий жамият, анъанавий жамият ижтимоий институтлари, замонавий жамият институтлари, ижтимоий қадриятлар, ижтимоий онг.

РЕЗЮМЕ:

В статье научно освещены традиционные и современные общества, место и роль в них социальных институтов, а также значение тенденций изменения общественного сознания в становлении современных обществ в процессе глобализации.

Ключевые слова: трансформация, формы общественного сознания, традиционное общество, современное общество, социальные институты традиционного общества, институты современного общества, социальные ценности, общественное сознание.

RESUME:

The article scientifically identifies traditional and modern societies and the place and role of political institutions in them, as well as their significance in the development of modern societies in the process of globalization.

Keywords: transformation, forms of social consciousness, traditional society, modern society, social institutions of traditional society, institutions of modern society, social values, public consciousness.

ЭКОЛОГИК ТАХДИДЛАР ТАБИАТ ВА ЖАМИЯТ ЎРТАСИДАГИ МУВОЗАНАТ МАСАЛАСИ

Куйлиев Т. -
ТошДАУ доценти,

Будир, энг эзгу ишлар!
 Будир, энг іўзал амаллар!
 Будир, эй яхшилик истовчи Зардўшт,
 сен сўраган нарсалар!
Авесто. Вандидод, бешинчи бўлим (21)

Маълумки, Марказий Осиёда қадимдан табиатни асрараш масаласи энг долзарб масаладан бири бўлиб ҳисобланган, Хусусан, қадимги ёзма манба Авестода ҳам Ашаванд Аҳура Мазда ушбу сўзлар билан Зардўшт жонига поклик, асропини бағишилади. Зардўшт, одамлар ўз ёзуғларидан эзгу амал, эзгу фикр ва эзгу калом билан халос бўлиши мумкинлигини англағач шод бўлди. Табиатни шу даражада асрараш энг муҳим масала ҳисобланган. Атрофимиздаги олам, яъни сув, ҳаво, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, табиат ва борлиқ мунтазам равишда турли омиллар таъсирида ўзгаришларга учрайди. Бу тарихий жараён сифатида баҳоланади. Аммо сўнгги вақтларда табиий ва антропоген омилларнинг кўлами ва таъсири кенгайиб, атроф-муҳитнинг мусаффолиги ва барқарорлигига жиддий зиён етмоқда. Натижада сайёрамизда глобал, минтақавий ва локал даражадаги экологик муаммоларлар вужудга келмоқда. бу эса дунё аҳолисини сергак тортишга мажбур қилмоқда. Ер юзида глобал иқлим ўзгариши, чучук сувнинг етишмаслиги ва ифлосланиши, табиий ресурсларнинг камайиб кетиши, ҳавонинг ифлосланиши, озон қатламининг емирилиши, океан сувининг ифлосланиши, шаҳарлашув (урбанизация), чиқиндиларнинг кўпайиши, аҳоли сонининг ошиб бориши каби экологик муаммолар бор экан, инсоният юқоридаги каби муаммоларнинг салбий таъсирларини камайтириш ва муаммони бартараф этиш масалаларида биргаликда ҳаракат қилмас экан, охироқибат кишилик жамияти заволга юз тутади. Шунингдек, ер юзида янги турдаги касалликлар, жумладан аллергия, СПИД (ОИТС), юқумли ва сурункали ўпка, ўсма, янги вируслар билан боғлик касалликлар юзага келмоқда. Инсон ҳаёти жиддий хавф остида қолмоқда. Экологик таҳдидлар табиат ва жамият ўртасидаги мувозанатнинг бузилиши натижасида юзага келмоқда. Охир-оқибат, атроф-муҳит мувозанати ва экологик муаммолар масаласи халқаро саҳнага чиқа бошлади.

Дунё халқларининг барчасига бирдай хавф соладиган атроф-муҳит муаммолари олдида халқаро ҳамжамият бирлаша бошлади. 1968 йилда бир гуруҳ фан ва маданият, маориф ва давлат арబблари халқаро жамоат ташкилоти - “Рим клуби”га бирлашиш режасини ишлаб чиқдилар. Ушбу жамоат ташкилоти ер юзининг келажақдаги ривожланиш истиқболини ўрганиш ва инсонтабиат муносабатларининг ўйғунлаштириш тоғасини илгари сурди. 1972-йилда ўзининг биринчи ҳисоботи – “Ўсиш чегаралари”ни нашр қилди. Бу атроф-муҳит муаммолари мавзусини ilk бора юқори сиёсий даражада кўрилишига сабаб бўлди [1]. Шу йилнинг ўзида Даниянинг Стокгольм шаҳрида Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг атроф-муҳит масалалари бўйича конференциясида “Барқарор ривожланиш дастури” муҳокама қилинди. Конференция якунида атроф-муҳитни мувозанатда сақлашнинг 26 тамойилдан иборат Стокгольм декларацияси қабул қилинди [2]. Шунингдек, БМТнинг Атроф-муҳит бўйича дастури – UNEP яратилди. UNEP глобал ва минтақавий миқёсдаги экологик муаммоларни ҳал қилиш учун жавобгардир, айни вақтда табиатни муҳофаза қилишни тизимли тарзда мувофиқлаштиришга ёрдам беради. Дастурнинг энг машҳур лойиҳаси қуёш энергиясини ривожлантириш дастуридир. Дастурга асосан, қуёш панелларини сотиб олиш арzon нарх белгиланиб, қўшимчасига турли имтиёзлар жорий қилинди. Лойиҳа давомида, 2007-2002 йилда БМТнинг “Барқарор ривожланиш” рукни остида Бутунжаҳон Саммити (БРБС) Жанубий Африка Республикасининг Йоханнесбург шаҳрида бўлиб ўтди. Бутунжаҳон

Йоханнесбург саммитида “Сиёсий декларация” ва “Барқарор ривожланиш бўйича олий даражада Бутунжаҳон учрашувлар қарорларини бажарилиш режаси” каби хужжатлар қабул қилинди. Ушбу хужжатда ер юзи аҳолисининг тоза ичимлик сувига ва элекстр қувватига бўлган талабини қондириш, 2015 йилга қадар инсониятнинг қашшоқлик коэффициентини тенг ярмига қадар камайтириш кўзда тутилган [7]. Саммит жаҳон ҳамжамиятининг барқарор тараққиёт йўлинин тартибга солди ва келажак режаларни белгилаб берди. 2012 йилнинг 20-22 июнида Йоханнесбургда “Барқарор ривожланиш” га бағишлиланган ҳалқаро конференция бўлиб ўтди. Унда асосан «Яшил иқтисод», “Барқарор ривожланиш” масалалари кўриб чиқилди. Ҳалқаро конференцияда қуйидаги масалаларда қарор қабул қилинди: қашшоқликни йўқотувчи, нисбатан экологик хавфсиз бўлган иқтисодиётни ривожлантириш; иқлим ўзгаришига салбий таъсир қилувчи, денгиз экотизимларини талофатловчи, океанларда балиқ ҳўжалиги юритувчи ёндошувлардан муҳофаза қилиш; шаҳарларда ободонлаштириш тадбирларини оқилона тарзда олиб бориш орқали уларда ахоли учун қулай шароит яратиш; иқтисодий ривожланишга олиб келадиган муқобил энергияни турларини кенг ишлатиш орқали углерод чиқиндиларини камайтириш ва атроф-муҳитни ифлослантиришни камайтириш; ўрмонлардан фойдаланиш бошқаруви самарадорлигини ошириш; барқарор ривожланиш ва чўлланишга олиб келувчи сув ресурсларини муҳофаза қилиш ва улардан оқилона фойдаланиш. 2015 йил БМТнинг 70 – саммитида Барқарор ривожланиш учун “2030 глобал ҳаракатлар режаси” ишлаб чиқилди. Унда кейинги ўн йилликда янада адолатли, гуллаб-яшнайдиган ва атроф-муҳитга кўпроқ ҳурмат кўрсатадиган даражага эришиш учун аниқ чора тадбирлар белгилаб олинди [8]. Режани амалга ошириш дастури ўн еттига глобал мақсадларни қамраб олади. Буларга қашшоқлик, очлик ва ижтимоий тенгизлилкка чек қўйиш, иқлим ўзгариши ва атрофмуҳитнинг ифлосланишига қарши курашиш, соғлиқни сақлаш, таълим олиш имкониятларини яхшилаш, ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш ва ривожлантириш каби масалалар киради. Экологик муаммо деганда инсоннинг табиатга кўрсатаётган таъсири билан боғлиқ ҳолда, табиатнинг инсонга акс таъсири, яъни унинг ҳаётида, иқтисодиётида, умуман олганда ҳўжалик аҳамиятига молик бўлган жараёнларда, табиий ҳодисалар билан боғлиқ ҳар қандай ҳодиса тушунилади. Масалан, иқлимининг ўзгариши ёки сув тошқини натижасида пайдо бўладиган муаммолар, ишлаб чиқариш корхоналарида вужудга келадиган баъзи бир фавқулодда вазиятлар ва ҳодисалар, баъзи бир ҳайвон турларининг бир жойдан иккинчи жойга кўчиб бориши ва ҳоказолар, экологик муаммо бўла олади.

Дарҳақиқат, 2021-2023 йилларда Жанубий Оролнинг қуриб қолган қисмини геологик жиҳатдан ўрганиш ишлари олиб борилиши ҳам алоҳида дастур сифатида қабул қилинган. Агарда ушбу мақсад инсонларнинг эҳтиёжларини қондиришни фақатгина табиатдан "топишга" йўналтираса, унда атроф табиий муҳитда жуда сезиларли даражада салбий ўзгаришлар содир бўлади. Аксинча, ушбу жамият мақсади табиатдан оқилона фойдаланишга қаратилса, унда табиатда ижобий силжишлар ҳам бўлиши мумкин. Фан ва техника юксак даражада ривожланган ҳозирги даврда инсон ва табиат ўртасидаги муносабатлар, айниқса экология ва атроф – муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш масалалари ўта муҳим, кечикириб бўлмайдиган ва ўз ечимини кутаётган муаммолага айланиб бормоқда.

Табиатни муҳофаза қилиш деганда, инсон манфаатларини кўзлаб, табиатдан оқилона фойдаланиш, уни сақлаш, қўриқлаш ва табиий бойликларини кўпайтириш йўлида амалга оширилаётган тадбирларнинг илмий асосланган мажмуаси тушунилади.

Мақолада экологик хавфни камайтириш ва бартараф этиш мақсадида жаҳон ҳамжамияти томонидан олиб борилаётган фаолиятига тўхталиб ўтилди. Мазкур муаммони ҳал қилиш юзасидан амалга оширилган тадбирларга қарамай, экологик муаммолар, айниқса табиий ресурслардай фойдаланиш билан боғлиқ муаммолар моҳияти ва кўлами бўйича ҳамон долзарб бўлиб турибди. Бугунги глобаллашув шароитида экологик муаммоларни ҳал қилишни қайсиидир ташкилот ёки ривожланган давлатларгагина тегишли деб ўйлаш мутлоқо хато. Кўпқутбли дунё тенденциясида ҳар бир мамлакат ўзидаги ва глобал миёсдаги атроф-муҳит

билин боғлиқ муаммоларни ўрганиб, уларни бартараф этишда фаол бўлиши замон талаби. Бугунги кундаги халқаро вазиятга ва экотизим ҳолатига қарайдиган бўлсак, халқаро ҳамкорликгина келажакдаги муаммоларни бартараф эта олади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Publications. [Electronic source] - URL: <https://www.clubofrome.org/publications>
2. Декларация Конференции Организации Объединенных Наций по проблемам окружающей человека среды [Электронный ресурс] - URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declarathenv.shtml
3. UNEP News Release 2007/11 [Electronic source] - URL: <https://www.webarchive.loc.gov>
4. Экологик муаммолар ва уларни ҳал этишда журналистикининг ўрни. [Электрон манба] - <http://ekolog.uz/?p=2486>
5. Барқарор тараққиёт ва табиатшунослик асослари: олий ўқув юртларининг барча таълим йўналишлари учун дарслик А. Эргашев [ва бошқ.]. — Тошкент: Baktria press, 2016. - 296 б.
6. Барқарор ривожланиш ва унинг тизимли индикаторлари: Нигматов А.Н ва бошқ. – Т.: Spectrum Media Group, 2015. Б 15.
7. Экологик муаммолар ва уларни ҳал этишда журналистикининг ўрни. [Электрон манба] - <http://ekolog.uz/?p=2486>
8. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development [Electronic source] - URL: <https://sdgs.un.org/2030agenda>
9. Ramatov J., Umarova R. Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects // AIP Conference Proceedings 2432, 030011 (2022); <https://doi.org/10.1063/5.0090845> No Access Jun 16, 2022

РЕЗЮМЕ:

Мақолада сайёрамизда экологик муаммоларнинг кўлами жуда тез кенгайиб кетаётганлиги, глобал экологик таҳдидларнинг салбий таъсири маълум бир мамлакат ёки минтақада эмас, балки бутун кишилик жамиятида акс этаётганлиги ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: Атроф-муҳит, экологик муаммолар, атроф-муҳит муаммоларининг тарихи, «Рим клуби».

РЕЗЮМЕ:

В статье отмечается, что масштабы экологических проблем на нашей планете очень быстро расширяются, что негативно воздействует не только на конкретную страну или регион, а на все человеческое общество.

Ключевые слова: Окружающая среда, экологические проблемы, история экологических проблем, «Римский клуб».

RESUME:

The article notes that the scale of environmental problems on our planet is expanding very quickly, and that the negative impact of global environmental threats affects not a specific country or region, but the entire human society.

Key words: Environment, environmental issues, history of environmental issues, Club of Rome.

O'ZBEKISTON EKOLOGIK SIYOSATINING STRATEGIK ASOSLARI

Omonov B.N. -
*Shahrisabz DPI, kafedra mudiri,
 f.f.d (DSc) dotsent*

Jahon siyosiy xaritasida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi bilan milliy ekologik siyosatni dunyo siyosatiga integratsiyalashtirish strategik vazifa bo'lib qolmoqda. Bunda milliy va mintaqaviy ekologik siyosat rivojlanishi global ekologik siyosat istiqbollarini mo'ljalga olish, milliy va umuminsoniy manfaatlarni optimal darajada muvofiqlashtiruvchi siyosiy mexanizmlarni yaratish zarur. Milliy ekologik siyosatning qonun va tartiblari, nafaqat global ekologik strategiyaning xususiy namoyon bo'lishi yoki global ekologik siyosat milliy siyosatlarning mexanistik sintezi hisoblanadi. Aksincha, ularning har qanday ko'rinishi atrof-muhit muhofazasi sohasidagi global ekologik manfaatlarga xizmat qiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat ekologik siyosatining strategik asoslari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, davlat ekologik siyosatida milliy manfaatlar ustuvor hisoblanadi. Milliy ekologik manfaatlar shakllanishi asosida ikkita yo'nalish bo'lib, bu sohadagi davlat siyosatining xarakteri ularni bir-biriga moslashtirishda namoyon bo'ladi. Birinchi yo'nalishda – davlat ekologik siyosatini determinlashtiruvchi muayyan omil ustuvorligini e'tirof etish yoki ularni mutlaqlashtirishdan iborat bo'lib, jamiyat munosabatlari tizimida iqtisodiy-siyosiy strukturası, ijtimoiy voqeligi, barqaror ekologik taraqqiyotning ustuvor ijtimoiy yo'nalishini saqlab qolish, uning asosiy strategik vazifasi qilib belgilanadi. Bu yo'nalishda davlat ekologik siyosatining ijtimoiy-mafkuraviy mazmuni, bir tomonidan, jamiyat hayotida, davlat ekologik siyosiy faoliyatida vazifalar ketma-ketligini va izchilligini ta'minlaydi. Boshqa tomonidan esa, hozirgi davrda milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan, istisnosiz, barcha davlatlar geosiyosatining ilg'or yo'nalishlari globallashib, ekologik xavfsizlikni tan olishi muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, davlat ekologik siyosati umuminsoniy va milliy manfaatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Biz avvalgi bobda ko'rsatib o'tganimizdek, o'tgan asrning so'nggi choragida jahonda avj olgan ekologik globallashuv jarayonlari yangi global ekologik makonni vujudga keltirdi. Davlat chegaralari ekologik siyosat integratsiyasi natijasida milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg'unlashuvini namoyon qilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarda pragmatizm, globallashuv jarayonining atribut sifatida, har bir davlatning o'z o'rni va rolini anglashini talab qiladigan dunyoning yangi ekologik qiyofasi shakllanmoqda.

Uchinchidan, davlat ekologik siyosatida mintaqaviy ekologik hamkorlik ustuvor ahamiyatga ega. Mustaqillikning ilk yillardan boshlab, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini mustahkamlashga doir qonuniy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan ekologik siyosat sohasidagi hamkorlik qilishning institutsional tizimini shakllantirish xalqaro munosabatlarda pragmatizm, globallashuv jarayonining atribut sifatida, har bir davlatning o'z o'rni va rolini anglashini talab qiladigan dunyoning yangi ekologik qiyofasi shakllantirildi.

Mintaqadagi ekologik siyosiy hamkorlikning umumiy maqsadi va vazifalarini belgilovchi shakllanayotgan model tabiatni muhofaza qilish faoliyatini boshqarish va nazorati sohasidagi xalqaro institutlar (masalan, Orol dengizini qutqarish xalqaro tashkiloti – ODQXT) tashkiliy-funksional tajribalarini har tomonlama o'rganish asosida yaratildi. Biroq bu model hozircha mukammallikdan yiroq bo'lib, mintaqadagi ekologik muammolarni oqilona hal qilish uchun davlatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

To'rtinchidan, davlat ekologik siyosati mamlakatni xalqaro ekologik munosabatlarning faol ishtiroychisiga aylantirishga xizmat qiladi. To'liq asos bilan aytish mumkinki, boy moddiy-teknik resurslar, intellektual salohiyat potensiali va boshqa zarur ekologik siyosat komponentlariga ega

bo‘lgan O‘zbekiston xalqaro ekologik munosabatlar talablariga tez moslashib, faol milliy ekologik siyosat olib borish imkoniyatlariga ega. Buning uchun, mamlakatdagi ekologik vaziyatni optimallashtirishning konseptual asoslarini ishlab chiqish va xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarga integratsiyalashuvini rag‘batlantiruvchi konstruktiv-ratsional doktrinasini ishlab chiqish O‘zbekistonning sivilizatsiyalashgan yangi – neoekologik modelga o‘tishida asosiy strategik shart hisoblanadi. Zero, faqat mintaqaviy va global ekologik strategik vazifalar doirasida milliy ekologik muammolarni hal qilish va bu sohada xalqaro ziddiyatlarni bartaraf qiladigan ratsional usullarni, konstruktiv vositalarni topish mumkin.

Beshinchidan, davlat ekologik siyosatini amalga oshirayotgan tashkiliy-institutsional tizim muttasil takomillashtirib boriladi. O‘zbekiston davlati milliy mustaqillikka erishgan kundan boshlab, ekologik siyosiy faoliyat asoslarini yaratishni va boshqaruv tizimini isloh qilishni – modernizatsiyalashtirishni asosiy strategik vazifalardan biri qilib kun tartibiga qo‘ydi. Bunda davlat ekologik siyosatining tashkiliy-funksional boshqaruv tizimini xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarga integratsiyalashtirish va globallashuv jarayoniga moslashtirish asosiy mezon qilib belgilandi.

Oltinchidan, Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarga xalqaro hamjamiyat e’tiborini qaratish davlat ekologik siyosatining muhim strategik asoslaridan biri sifatida qolmoqda. O‘zbekistonning ekologik xaritasi tarixiy shakllangan bo‘lib, qator ekologik tendensiyalar, jumladan, mustabid tizimda subyektiv-volyuntaristik siyosat natijasida vujudga kelgan keskin ekologik vaziyat muayyan mintaqalarda davlat ekologik siyosatining alohida yo‘nalishlarini taqozo qilmoqda. Xususan, bunday halokatli ekologik makon O‘zbekistonning Orolbo‘yi hududi hisoblanadi.

Umuman, “ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda jahon jamoatchiligi e’tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish lozim. Orol muammosi bugungi kunda chinakam keng ko‘lamli, butun sayyoramizga dahldor muammo bo‘lib qolayotganligini, uning ta’siri hozirning o‘zidayoq biologik muvozanatni buzayotganligini, bepoyon hududlarda aholining genofondiga halokatli ta’sir ko‘rsatayotganligini nazarda tutish lozim” [3, 131; 132; 133; 134]. Shuning uchun Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Olmaota Kengashi (1997 y.) Deklaratsiyasida aytilganidek, bu davlatlarning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi imkoniyatlaridan Orolbo‘yi ekologik muammolarini hal etishda keng foydalanish zarur [4, 67].

Orol dengizi qurishi natijasida vujudga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun turli davlatlarning shu sohadagi islohotchilik g‘oyalarni umumlashtirib, ilg‘or tajribalarini amalga oshirish zarur bo‘ladi. Mazkur masalalarni xalqaro hamjamiyatning e’tiborini jalb qilmasdan hal etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Orol muammosi oqibatlarini bartaraf etish masalasiga xalqaro hamjamiyat e’tiborini qaratgan edi [1, 250].

Yettingchidan, davlat ekologik siyosatining strategik asoslaridan yana biri aholi ekologik madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq. Har qanday mamlakatdagi ekologik muhitni asrab-avaylash masalalari davlat tomonidan turkum chora-tadbirlarning tizimlashtirilgan tarzda amalga oshirilishini taqozo qiladi, albatta. Biroq mazkur tadbirlarga mutanosib ravishda aholining ekologik madaniyati yuksaltirib borilmas ekan, mamlakatning ekologik xavfsizligini ta’minlab, ekologik muhitni sog‘lomlashtirib bo‘lmaydi. Ekologik madaniyatning pastligi har qanday ekologik faoliyat samarasini tushiradi, ekologik siyosatga putur etkazadi.

Keyingi yillarda bu borada davlat rahbari va hukumatning tashabbusi bilan qator ahamiyatli choralar amalga oshirildi. Davlatning oqilona ekologik siyosati sharofati bilan fuqarolarning ekologik madaniyatini shakllantirish choralariga tizimli tus berildi. Xususan, umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, oliy ta’lim maskanlarida yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan fanlarning o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. Mamlakat bo‘ylab amalga oshirilgan umumxalq hasharlari kishilarning tabiatga munosabatini o‘zgartirishga xizmat qildi. Ayniqsa, “bugungi kunda ommaviy axborot vositalari orqali mahalla, ma’naviyat, tabiatni himoya

qilish faollari tomonidan olib boriladigan targ‘ibot va tushuntirish ishlari ham ekologik madaniyatni oshirishda muhim o‘rin tutmoqda” [5].

Fuqarolarning ekologik madaniyatini yuksaltirish masalasi kelajakda ham davlat siyosatining strategik asoslaridan biri sifatida qolaveradi. Xuddi shuning uchun ham “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasida” “ekologik madaniyat va ta’limni shakllantirish – fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etgan holda, aholining uzluksiz ekologik ta’limi kompleks tizimini tashkil etish, atrof-muhit masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilishda aholining ishtirok etishi” [6] konsepsiyanı amalga oshirishda asosiy yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etildi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, mustaqillik yillarda davlat amalga oshirgan ekologik siyosatning strategik asoslari milliy manfaatlari ustuvorligi, umuminsoniy va milliy manfaatlari uyg‘unligi, mintaqaviy ekologik hamkorlik ustuvorligi, xalqaro ekologik munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanishga bo‘lgan intilish, ekologik siyosatni amalga oshirayotgan tashkiliy-institutsional tizimning muttasil takomillashtirilishi, Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarga xalqaro hamjamiyat e’tiborini qaratishga qaratilgan sa’y-harakatlar, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirish vazifalari bilan bog‘liq bo‘ldi. Mazkur strategik asoslar davlat ekologik siyosatiga yaxlitlik, tizimlilik va uzluksizlik ato qildi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Inson manfaatlari va huquqlarini ta’minalash – demokratik jamiyat asosidir.// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.- T.:O‘zbekiston, 2018. 508 b.
2. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. Tom 16. – T.: O‘zbekiston, 2008. 386 b.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. – B.131-134.
4. Алматинская Декларация.// Экологический вестник, 1997, №3. – С.67.
5. Жумаев Ф. Экологик маданият – умумбашарий маданият// nurnews.uz, 2020, 2 апрель.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф мухитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тұғрисида”// lex.uz.

REZYUME:

Maqolada davlat ekologik siyosatining strategik asoslari, ekologik munosabatlarning xalqaro ekologik standartlarga moslashtirish zaruriyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik muammo, ekologik siyosat, ekologik munosabat, ekologik madaniyat, ekologik faollik, ekologik tafakkur.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются стратегические основы государственной экологической политики, необходимость адаптации экологических отношений к международным экологическим стандартам.

Ключевые слова: экологическая проблема, экологическая политика, экологическое отношение, экологическая культура.

RESUME:

The article discusses the strategic foundations of state environmental policy and the need to adapt environmental relations to international environmental standards.

Key words: environmental problem, environmental policy, environmental attitude, environmental culture.

СПОРТ ФАЛСАФАСИННИГ АЙРИМ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ**Назаров Н.Н. -***ЎзДЖТСУ профессори*

Азал-азалдан файласуфлар борлиқ, билиш, дин, санъат, жисмоний тарбия, фан ва таълимни инсоният маданиятининг энг муҳим шакллари сифатида ўрганиш ва тушуниш устида баҳслар олиб борган, жисмоний тарбиянинг саломатлик йўлидаги ижобий натижалари ҳақида ўзларининг қарашларини билдирган бўлсаларда, маълум бир даврларда узок йиллар давомида файласуфлар қадимий маданият шаклларидан бири бўлган спортга жиддий аҳамият бермадилар.

Фақатгина XIX-асрнинг 80-90-йилларида Кубертенning спорт соҳасидаги фаолиятининг дастлабки даврида спорт ҳаракати ўзининг шаклланиши ва ривожланишининг мураккаб, зиддиятли қарама-қаршиликларга бой бўлган босқичини бошидан кечирди. Кўпгина мамлакатларда ўша йиллардан бошлаб спорт ўзининг янгидан дастлабки қадамларини ташлади. Спорт тақдирни қизғин баҳс ва мунозараларда ҳал бўлди. Дастлабки вақтларда спортнинг муҳолифлари тарафдорларидан қўра қўпроқ эди.

Кубертенning тарихий хизматлари шундан иборатки, у спорт соҳасидаги амалий фаолият билан чекланиб қолмай, спортни фалсафий, социологик, педагогик ва маданий жиҳатдан чуқур назарий идрок этиб, уни тарғиботи билан ҳам шуғулланди. Айнан шу ёндашув ва спортни тушуниш Кубертенning ғоялари ва таклифлари асосида замонавий спортнинг ривожланишига, кейинчалик спорт фалсафасининг пайдо бўлишига туртки бўладиган омилларга асос яратди. Жумладан, голландиялик тарихчи Йохан Хейзинга: (1872-1945) ўзининг “*Homo ludens*” (“ўйнайдиган одам”) классик асарида инсоният маданиятининг ўйноқи табиатининг таъсирчан концепциясини яратди ва концепциясида спортга алоҳида жой ажратди. Хейзинга “замонавий спорт жиддий масалага айланиб бормоқда ва ўз руҳини ифода этишни тўхтатиб, маданиятнинг ўйин жиҳатларидан узоқлашмоқда, деб ҳисобларди. “Бугунги жамоат ҳаётида спорт ўз чегараларидан ташқарида содир бўладиган ҳақиқий маданий жараёндан ташқари жой эгаллайди. Архаик маданиятларда мусобақалар маросим байрамларининг бир қисми эди. Улар муқаддас ҳаракатлар сифатида зарур эди.

Замонавий спортда бу алоқа бутунлай йўқолган деб таъкидлаган”. [1] Хейзинга томонидан ишлаб чиқилган инсоният маданиятининг чуқур асосларининг ўйноқи табиати спортга маълум қизиқишининг ривожланишини рағбатлантириди, лекин кўпчилик файласуфлар спортнинг инсон фаолияти тури сифатида алоҳида аҳамиятини таъкидланишига қарамай, узок вақт давомида спортнинг фалсафий жиҳатларини ўрганиши эътиборсиз қолдирдилар. Атоқли австриялик зоолог, зоопсихолог, файласуф, психолог, физиология ва медицина йўналиши бўйича Нобель мукофотини олган Конрад Лоренц (1903-1989) “спорт одамларнинг маданий ҳаётида ривожланган курашнинг маҳсус маросимлаштирилган шакли эканлигини таъкидлайди”. [2] Унинг фикрича ушбу маданий маросимдаги кураш шакли аҳамиятини ҳеч нарса билан таққослаб бўлмайдиган вазифани бажаради. Бу одамларга онгли назоратни, уларнинг инстинктив жанговар реакциялари устидан масъулиятли бошқарувни ўргатади.

Америкалик тадқиқотчи, волейболнинг (англ. Mintonette) асосчиси У. Морганнинг (1870-1942) “Спорт фалсафаси: тарихи ва ривожланиш истиқболларини концептуал шарҳи” номли асарида қайд этишича, агар анъанавий жисмоний тарбия фақат жисмоний фаоллик ва спорт бўйича тиббий-педагогик тадқиқотларга асосланган бўлса, унда янги, ривожланаётган спорт тадқиқотлари соҳаси янада шуҳратпарастликка интилади. Интеллектуал мақсадлар анъанавий тиббий ва педагогик тадқиқотларни фалсафий, тарихий ва социологик тадқиқотлар билан тўлдиради. У. Морган жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги фалсафий билимлар ва амалий илмий ютуқлар ўртасидаги мустакил чегара интизоми сифатида спорт фалсафасини шакллантириш йўлидаги бир қатор тарихий тўсикларни очиб беради. У. Морган “Фалсафа ва жисмоний тарбия фанлари замонавий антропоцентрик уйғониш давридан кейин кўп йиллар

давомида бир-биридан ажратилган ҳолда ривожланиб келмоқда”. Уларнинг умумлашуви бир-бирларини тўлдиришлари спорт тараққиётига катта хисса қўшади деб ҳисоблади.[3] Ўз навбатида файласуфлар спорт фалсафаси пайдо бўлишини бевосита иккита муҳим воқелик билан боғлиқ деб ҳисоблашади.

- **Биринчи** воқелик эски ва ўрнатилган жисмоний тарбия соҳасидан янги ўзига хос спорт тадқиқотларининг пайдо бўлишидир. Агар анъанавий жисмоний тарбия фақат жисмоний фаоллик ва спорт бўйича тиббий-педагогик тадқиқотларга асосланган бўлса, спорт тадқиқотларининг янги, ривожланаётган соҳаси - анъанавий тиббий ва педагогик тадқиқотларни фалсафий, тарихий ва социологик тадқиқотлар билан тўлдириб, янада улкан интеллектуал мақсадларни кўзлади. Илм-фан ва педагогиканинг бундай силжиши ишнинг асосий йўналишлари сифатида спортнинг маданий ва тарихий контекстларини ўрганишга имкон берди.

- **Иккинчи** ҳал қилувчи воқелик бу 1972 йилда спортни фалсафий таҳлил қилиш билан шуғулланадиган ҳалқаро илмий ташкилот яъни “Спортни ўрганиш фалсафий жамияти”, ва шу жамият қошида 1974 йилдан “Спорт фалсафаси” журналининг нашр этилиши бўлди.

Спортни назарий тушунишдаги асосий мунозаралар маълум бир жисмоний фаолият спорт билан боғлиқ бўлган одамнинг бошқа баъзи харакатли фаолият турлари билан шлуғулланишидан нимаси билан фарқланади? деган саволга жавоб излашда намоён бўлади. Спортни бошқа жисмоний фаолият турларидан ажратиб турадиган, инсон фаолиятига ҳам катта эътибор берадиган асосий хусусиятлар нималарда намоён бўлади? деган саволларга жавоб бериш спорт фалсафасининг амалий жиҳатлари бўлиб, спорт этикаси ва эстетикасининг ўта мунозарали масалалари ҳисобланади.

Спорт фалсафасининг ривожланиши тарихий, маданий, ижтимоий ва бошқа омиллар туфайли ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, тадқиқот учун муаммолар доирасини белгилайди. Спортнинг фалсафий муаммоларини асосан:

- спортнинг моҳияти ва келиб чиқиши муаммолари;
- спортнинг фалсафий ва антропологик муаммолари;
- спорт этикаси муаммолари;
- спорт эстетикаси муаммолари;
- спортнинг аксиологик муаммолари каби гурухларга бўлиб ўрганилади.

Спорт фалсафасининг муаммолари унинг функциялари, тадқиқот обьекти ва предметидан келиб чиқади. Спорт фалсафаси муаммоларининг турлари фалсафада фан сифатида ўрнатилган анъаналар ва спорт фаолияти ҳодисаларининг ўзига хос хусусиятлари билан белгиланади. Спорт фалсафасининг фаол ривожланиши туфайли жисмоний тарбия назарияси соҳасига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Бугунги кунда спортнинг аҳамияти ортиб бораётганини ҳисобга олсак, спорт аксиологияси йўналиши ҳам долзарб муаммолар мавжудлигини кўрамиз. Спортнинг жамиятдаги вазифаларини ва ўзгарувчан анъаналарини қадриятлар назарияси нуқтаи-назаридан аниқлаштириш мақсадга мувофиқдир. Спортнинг қиймати нимада? аҳолининг турли қатламлари, турли давлат ташкилотлари, тузилмалари, жамоат бирлашмалари учунми? Спортнинг қайси қадриятлари устун ва қайси бири устун эмас? Ушбу саволларга жавоб излаш ички механизmlарни, спортни ривожлантиришнинг етакчи ғояларини, унинг яқин ва узок истиқболларини аксиологик жиҳатдан тушунишда алоҳида ўрин эгаллайди.

Замонавий цивилизация атроф-муҳитни ҳам, инсон ҳаётини ташкил этишининг ижтимоий институтларини ҳам, шахснинг ўзини ҳам сезиларли даражада ўзгартирди. Жисмоний тарбия ва спорт, инсон табиатини ижтимоий шахс сифатида ўзгартириш воситаси сифатида муҳим ўрин тутади. Кейинги йилларда спортчилар ўртасида ҳам рақобат авж олиб бормоқда. Айрим нопок спортчилар ва мураббийларнинг ҳам бунга мойиллклари сезилмоқда. Мураккаб касалликларни даволашга қаратилган замонавий илм-фаннынг ютуғи, генетик терапия, юқори спорт натижаларига эришиш учун суистеъмол қилинмоқда.

Чидамлилик ва мушакларнинг кучи билан боғлиқ анъанавий спорт турларида допингдан фойдаланиш узоқ вақтдан бери муаммо бўлиб келган ва муаммо бўлиб қолмокда. Допинг ва умуман, спортга технологик аралашув муаммоси ўз-ўзидан икки позициянинг қарама-қаршилигига ўхшайди. Бир томондан, спортчи ўз олдига эркин ва онгли равишда вазифаларни қўяди, уларни ҳал қилишда инсоннинг табиий қобилияtlарини индивидуал ва аҳоли даражасида очиб бериш керак. Аммо бошқа томондан, спорт фаолияти илмий ёндашувга, усулларни ишлаб чиқишига ва воситаларни танлашга, фойдаланишга асосланади, бу эса ушбу муаммоларни максимал самарадорлик билан ҳал қилиш имконини беради.

Юқори натижали спорт мусобақалари узоқ вақтдан бери катта бизнесга айланиб улгурди. Олимпиадалар ташкилотчиларга юз миллионлаб доллар даромад олиш имконини беради. Саҳоватли, пулсиз оддий тамоша учун енгил атлетика, оғир атлетика, бокс, сузиш каби спорт турларидан ҳеч қандай йирик турнирларни ўтишини тасаввур қилиб бўлмай қолди. Спортни инсонпарварлаштириш билан боғлиқ ғоялар, ечимлар ва чора-тадбирлар тизимини амалда жорий этиш спорт фанининг энг қийин ва айни пайтда долзарб вазифасидир. Қийинчилик шундаки, спортни инсонпарварлаштиришга кўпинча унинг субъектининг инсон ўлчови чегараларини белгилаш истаги билан боғлиқ бўлган спорт фаолиятининг антропологик чегарадан ташқарига ўтиш билан боғлиқ муаммолари қарши туради. Ушбу ҳудуднинг чегараларида танага ҳам, рухга ҳам ҳаддан ташқари ва етарли бўлмаган юклар технократик анъаналарнинг ривожланишида, фаоллик кучига ишонишда, моддий алоқаларда ва шахсни инсон-машина комплексларининг заиф бўғинига айлантиришда кўринади. Технократик хусусиятлар ва тенденциялар кучли ривожлана бошлаган инсон-машина жамиятининг шаклланиши билан боғлиқ. Юқоридаги жараёнлар замонавий спорт амалиётининг асосини ташкил этади ва спорт соҳасида улар инсон ўлчовлари чегараларини енгиб ўтишга олиб келади. Спортни янада ривожлантиришнинг гуманистик анъанаси спортни ўзини-ўзи англаш ва ўз-ўзини такомиллаштириш жараёнига айлантиришга қаратилган. Спортни хавфли инсонийлаштиришнинг асосий омилларидан бири замонавий сиёсий фикрлаш маданиятида ва ижтимоий-сиёсий амалиётда устун бўлган технократизmdir. Спортни инсонпарварлаштириш унинг маданий моҳиятини ва инсонга мутаносиблигини сақлаб қолишининг ягона йўлидир.

Спорт соҳасида инсонпарварлик ва технократизм ўртасидаги қарама-қаршилик сифатида тарихий фикрлаш услублари ва амалий муносабатлар ўртасидаги боғлиқликни кўришимиз мумкин. Бугунги кунда мустақил Ўзбекистон олимлари спортни маданий-ижтимоий ҳодиса сифатида ўрганар эканлар спортда ҳам худди инсоннинг бошқа фаолият соҳаларида бўлгани каби юксак ва олижаноб мақсадлар ҳамда ғайрли, худбинларча ва паст тамойиллар ҳам ҳамиша бўлган, бор ва бундан кейин ҳам бўлишини унутмаслигимиз кераклигини таъкидлайдилар. Ана шу маънода жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги фан фалсафий антропология билан бирлашиб кетади.

Хулоса ўрнида таъкидлашимиз мумкинки, спорт фалсафасининг ирқчилик, гендер тенглик, юлдузлик касаллигига учраш, спортда допингдан фойдаланиш, зўравонлик, ҳакамликдаги нохолислик, келишилган ўйинлар каби ўз ечимини кутаётган ўрганиш обьектлари устида илмий изланишлар олиб бориш фаннинг ривожланиши учун катта имкониятлар яратади. Биргина, спорт соҳасида гендер стратегиясининг асосий мақсади ирки, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахсий ва ижтимоий мавқеидан қатъий назар хотин-қизлар ва эркакларнинг ҳақиқий тенглигини таъминлашдан иборатдир. Бирон спорт турининг Олимпия ўйинлари дастурига кириши учун катъий мезонлар ва талбларидан бири спортдаги гендер тенглик масаласи, яъни, Олимпия ўйинларига даъвогар спорт тури билан эркаклар қатори хотин-қизларнинг ҳам тенг шуғулланишидир. Яна бир муаммо Қатар Амири шайх Тамим бин Ҳамад Ал Таний *БМТ Бош Ассамблеясининг* 78-сессияси Бош ассамблеясидаги умумий мунозарада қатнашиб ирқчилик ва бутун ҳалқлар, динлар ва маданиятларга қарши гиж-гижлаш кампаниясига қарши курашиш зарурлигини таъкидлаганидек, спортда ҳам ирқчиликка қарши курашиш доимий муаммолардан бири бўлиб қолаверади. Спорт соҳасида айрим муаммолар бўлишига қарамасдан спорт психологияси,

спорт физиологияси, спорт диетологияси, спорт гигиенаси, спорт биомеханикаси, спорт тиббиёти, спорт менежменти каби йўналишларда илмий жиҳатдан катта ютуқларга эришилди.

Бугунги кунда фанлараро янги илм соҳаси бўлган спорт фалсафасини шакллантириш учун барча амалий ва назарий асослар мавжуд. Фақат вужудга келган илмий анъаналарни давом эттирган ҳолда спортнинг ижтимоий-маданий ҳодиса сифатидаги моҳиятини тадқик этиш, унинг ижтимоий муносабатлардаги аҳамиятини ва ўрнини аниқлаб бериш, спортни инсоният маданиятининг ажralmas бир қисми сифатида фалсафий жиҳатдан таҳлил қилиш талаб этилади. Спорт фалсафаси соҳасидаги тадқиқотларни муваффақиятли ҳамда сифатли бўлиши фанлараро илмий изланишларни доимий ва изчил тарзда давом эттираётган спорт ҳамда фалсафанинг спорт соҳасида илмий тадқиқотлар олиб бораётган мутахассисларининг ўз ишларини давр талаби даражасида бажаришларига боғлиқдир.

АДАБИЁТЛАР:

1. Хёйзинга Й. Homo Ludens; Статьи по истории культуры. / Пер. с гол. Д. В. Сильвестрова — М.: Прогресс — Традиция, 1997. — 416 с. ISBN 5-89493-010-3 https://ru.wikipedia.org/wiki/Homo_ludens
2. Конрад Лоренц “Агрессия, или Так называемое зло” 2027год. .353стр. переводчик Андрей Федоров <https://www.litres.ru/book/konrad-lorenc/agressiya-ili-tak-nazyvaemoe-zlo-152103>
3. William J. Morgan. The Philosophy of Sport: A Historical and Conceptual Overview and a Conjecture Regarding Its Future // Jay Coakley and Eric Dunning (eds.) Handbook of Sports Studies. London: Sage, 2003. P. 205–212.
4. Назаров Н.Н. Спорт ва соғлом ҳаёт фалсафаси. Монография. “Lesson press” нашриёти Тошкент.2020 йил.236-бет.

РЕЗЮМЕ:

Мақолада спорт инсоният маданиятининг ажralmas бир қисми сифатида фалсафий жиҳатдан таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Спорт, спорт фалсафаси, жисмоний маданият, қадриятлар, ўйин, рақобат, фаолият, соғлик.

РЕЗЮМЕ:

В статье с философской точки зрения анализируется спорт как неотъемлемая часть человеческой культуры.

Ключевые слова: Спорт, философия спорта, физическая культура, ценности, игра, соревнование, деятельность, здоровье.

RESUME:

The article analyzes sport as an integral part of human culture from a philosophical point of view.

Key words: Sports, philosophy of sports, physical culture, values, game,

ABU NASR FOROBIY SIYOSIY FALSAFASINING NAZARIY TAHLILI

*Yuldashev F.A.–
FarDU dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Abu Nasr Forobiy ilgari surgan va o'z asarlarida ko'targan barcha muammolar o'tmishga tegishli emas, uning ko'plab g'oyalari bugungi kunda ham dolzarb va tubdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan Forobiy falsafasini o'rganish dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi.

Zamonaviy jamiyatni yangilash va sog'lomlashtirish o'tmishning ma'naviy merosiga murojaat qilish zarurati bilan bog'liq ravishda ro'y beradi. Forobiy falsafasini o'rganish Yangi O'zbekistonning rivojlanishi, demokratik o'zgarishlarning kuchayishi, huquqiy, dunyoviy davlatning yaratilishi jamiyatimizda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Forobiy falsafasini, ayniqsa, uning siyosat, erkinlik, baxt, odamlar o'rtasida o'zaro yordam zarurligi haqidagi ta'limotlarini o'rganish, inson va jamiyatni intellektual va axloqiy jihatdan takomillashtirishga bo'lgan intilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mutafakkirning siyosiy etakchilik tushunchasi, fazilatli jamiyat, adolat, tenglik, tinchlikni saqlash, urushning oldini olish, adolatsiz urushlarni qoralash haqidagi g'oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, mutafakkirning falsafiy g'oyalari yosh avlodni siyosiy tarbiyalashda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Forobiy falsafasining yaratilganiga 1100 yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa-da, uning g'oyalari va qarashlari ko'p jihatdan o'z qadr-qimmatini saqlagan holda zamonaviy jamiyat uchun doimiy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Forobiyning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy merosi dunyoning turli mamlakatlari tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Forobiyning ilmiy, falsafiy va siyosiy ijodi haqida ulkan ilmiy adabiyotlar mavjud.

Forobiy hayoti, uning dunyoqarashi, falsafiy ijodi, yunon falsafasi bilan tanishishi Abdul Hasan Bayhakiyning "Tatimat Sivan-ul-hikma" (XII asr), Ibn Kiftiyning "Torix al-ulama" (XII asr), "Nigoristoni Gaffori" (XVII asr) kabi tarixchilarining asarlarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Forobiyning falsafiy va siyosiy merosi eronlik olimlar R. Dovari, F. Nozirzoda, Z. Safo, A. Halabi tomonidan batatsil o'rganilgan. R. Dovari qadimgi yunon mutafakkirlarining siyosiy nazariyasini Sharqda tarqalish jarayonini tahlil qilib, Forobiyning siyosat, nazariy va amaliy falsafa o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro bog'liqligi va farqi haqidagi qarashlari evolyutsiyasini qisqacha bayon qiladi. U "Forobiyning fuqarolik falsafasi" nomli asarida mutafakkirning siyosiy-falsafiy qarashlarini bayon qiladi [5].

R.Dovaridan farqli o'laroq, F.Nozirzoda Forobiy siyosiy falsafasini o'rganishga yanada chuqurroq yondashadi. Uning xizmatlari shundaki, u mutafakkirning siyosiy konsepsiyasini har tomonlama tahlil qiladi. Ammo uning barcha afzallikkari bilan bir qatorda kamchiliklari ham bor. Muallif Forobiy siyosiy dunyoqarashini shakllantirishda qadimgi yunon siyosiy fikrining ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Shunga qaramay, bu ish al-Forobiy siyosiy falsafasini o'rganish uchun asosiy tadqiqot ishi, deb hisoblanishi mumkin.

Forobiyning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy merosini rivojlantirishga Yevropa tadqiqotchilari ma'lum ma'noda o'z hissa qo'shganlar. Ular orasida F.Diteritsi, M.Shtaynshneyder, G. Ley, E.J.Rozental kabi olimlarning asarlari alohida e'tiborga loyiq. Chunki ular orqali G'arb dunyosi nafaqat mutafakkirning falsafiy ijodi bilan tanishdi, balki faylasufning falsafiy konsepsiysi ta'sirini ham boshdan kechirdi. G. Ley olib borgan izlanishlarda mutafakkir dunyoqarashining evolyutsiyasi jarayoni, uning aristotelizm va neoplatonizm bilan aloqasi tahlil qilingan. Forobiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tahlil qilishga alohida bob bag'ishlangan bo'lsa-da, muallifning tadqiqotida Forobiy ta'limotini baholashda kuzatilgan qarama-qarshi munosabatni ko'rishimiz mumkin [4].

Yevropalik tadqiqotchilar orasida Forobiyning falsafiy qarashlarini obyektiv baholashga urinishlariga qaramay, mutafakkirning falsafasi noto'g'ri talqin qilingan va bir tomonlama baholangan ishlarni uchratishimiz mumkin. Xususan, E.J.Rosenthalning ta'kidlashicha,

“musulmonlarning siyosiy falsafasi, ayniqsa Forobiyning bu boradagi qarashlari qadimgi yunon mutafakkirlaridan to‘liq olingan”. Tabiiyki, qadimgi yunon falsafiy siyosiy fikrining Sharq mutafakkirlariga ta’siri bo‘lgan, ammo shu asosda Forobiy siyosiy falsafasining o‘ziga xosligini inkor etmaslik kerak, chunki u yangi tarixiy davr ehtiyojlari ruhida ishlab chiqilgan hamda madaniyat va sivilizatsiyani baholashda Islom qadriyatlariga e’tiborni qaratgan.

Tadqiqotchilaridan S.N.Grigoryan, M.M.Xayrullayev, N.S.Kirabayev, G.S.Sapargaliyev, A.N.Taukelevlar Forobiyning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy merosini, mutafakkir siyosiy falsafasining uslubiy va gumanistik jihatlarini o‘rganishga katta hissa qo‘shtaganlar [6].

M.S.Burabayev va G.K.Kurmangaliyevlar faylasufning axloqiy-siyosiy qarashlarini o‘rganishgan. Mualliflar Forobiyning axloqiy va estetik tushunchalari bilan bir qatorda “fuqarolik falsafasi” tushunchasini, uning nazariy va uslubiy tamoyillarini qisqacha tahlil qildilar, sotilmaydigan davlatlar turlarini qisqacha tavsifladilar [3].

Forobiy falsafasida ijtimoiy utopiya muammosi A.A.Abdurasulov va M.K.Aripovning tadqiqot ishlarida aks etgan. Ularning asarlarida mutafakkir qarashlaridagi boshqaruv masalalari, baxt muammolari, shuningdek, ideal davlatga erishish yo‘llari va usullarini tahlil qilinadi.

Mutafakkirning umumfalsafiy va siyosiy ta’limotiga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlarda umumiy sharhlangan xarakterdagи maxsus tadqiqotlar mavjud emas va mavjud asarlar Forobiy falsafasi mazmunining to‘liqligini, uning nazariy, amaliy, madaniy va tarixiy ahamiyatini ochib bermaydi

Abu Nasr Forobiy o‘z falsafiy qarashlari doirasida jamiyat va siyosatni o‘rganishdagi yangi o‘ziga xos yo‘nalishni ishlab chiqdi. Mutafakkir siyosatni falsafiy nuqtai nazaridan, ya’ni siyosatni fan sifatida tushunishni chuqur asoslab berdi. Natijada siyosiy falsafa yaqin va O‘rta Sharqda falsafaning mustaqil tarmog‘i sifatida o‘zining ilmiy va falsafiy tasdig‘ini oldi. Forobiy siyosiy falsafasi nafaqat siyosiy muammolarni tushunishning nazariy asosi sifatida, balki siyosiy jarayonlarning tabiatni, munosabatlarning rivojlanish an’anasini tahlil qilishga qaratilgan siyosiy tushuncha sifatida ham qiziqish uyg‘otadi. Chuqur insonparvarlik va ratsionalistik xarakterga ega bo‘lgan Forobiy siyosiy konsepsiysi mutafakkirning Sharqiy va Qadimgi yunon madaniyatining falsafiy va axloqiy-siyosiy yutuqlarini ijodiy rivojlantirishi asosida shakllangan. Forobiy falsafaning mantiqiy-nazariy apparatini sezilarli darajada boyitdi va shu asosda uning siyosiy tizimini ishlab chiqdi [2].

Forobiy falsafasi idealning haqiqat bilan dialektik aloqasi va ularning qarama-qarshiligidan ifodalanadi [1]. Haqiqat bu umuminsoniy qadriyatlar prizmasi orqali tanqid qilinadigan mavjud buyruqlar va boshqaruv usullaridir. Ideal esa faylasuf o‘zining siyosiy ideallariga muvofiq ishlab chiqqan xayoliy dunyo. Forobiyning ideal dunyosi buadolat, sevgi, fazilat, o‘zaro yordam va aql-idrokka asoslangan kelishuv dunyosi; u keljakning fazilatli davlatining loyihasini ifodalaydi; mutafakkirning insoniyatning baxtli kelajagiga bo‘lgan ishchonchini aks ettiradi.

Insonparvarlik Forobiy ijodining asosiy xususiyatlaridan biridir. Mutafakkirning siyosiy falsafasida insonparvarlikning axloqiy va siyosiy jihatni ochib berilgan. Axloqiy jihat, insonparvarlik qadriyatlarini rivojlantirish mutafakkirning inson haqidagi qarashlarini koinotning eng yuqori qiymati sifatidagi ifodasidir. Faylasuf ilgari surgan va asoslagan siyosiy jihat jamiyatda munosib yashash sharoitlarini yaratish zarurligi g‘oyasini ochib beradi. Shu asosda mutafakkir axloqiy idealni siyosiy mavqedan turib isbotlashga harakat qiladi.

Forobiy siyosiy falsafasida axloq va din bir-biri bilan bog‘liq ravishda izohlanadi. Uning namoyon bo‘lishi axloqiy va siyosiy funksionallik nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Biroq, diniy qirra ehtiyyotkorlik bilan o‘z-o‘zini kuzatish va dunyodan uzoqda bo‘lgan ekstatik tasavvurlarni izlashdan uzoqdir [7].

Forobiy siyosiy falsafaning o‘ziga xos va ratsionalistik tizimini o‘rganish quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

Birinchidan, Forobiyning ijtimoiy-falsafiy va siyosiy qarashlari siyosiy maqsadga muvofiqlik prinsipi asosida aniq tarixiy sharoitlarda vujudga kelgan.

Ikkinchidan, Forobiy siyosiy falsafasi Sharq va qadimgi yunon madaniyatlarining sintezi va o‘zaro ta’siri asosida shakllangan.

Uchinchidan, Forobiy falsafiy tizimi o‘rta asrlardagi ijtimoiy fikrning eng yuqori darajasini ifodalaydi. Mutafakkir ontologiya muammolarini ko‘rib chiqishda yangi, o‘ziga xos qirralarni kiritishga muvaffaq bo‘ldi: mayjudlik, materiya, materiya va shakllarning nisbati haqidagi ta’limotga; epistemologiya, mantiq va ayniqsa fanlarni tasniflash masalalarini ishlab chiqishga erishdi.

To’rtinchidan, Abu Nasr Forobiy o‘z davri uchun siyosiy falsafa siyosati va vazifalarini, uning boshqa fanlar orasida o‘rnini tubdan yangi, chuqur talqin qildi. Siyosiy falsafa, mutafakkirning fikriga ko‘ra, siyosat to‘g‘risida bilimlarni rivojlantirishi, siyosiy bilimlarni o‘zlashtirishga va shakllantirishga yordam berishi kerak, bu siyosiy voqelik va xilma-xil munosabatlar, ularning doimiy o‘zgarishi haqida ma’lum tasavvurga yordam beradi. Faylasuf siyosat jamiyat va inson hayotida bajarishi kerak bo‘lgan rol va vazifalarini aniq va ishonchli tarzda ochib berdi.

Beshinchidan, Forobiyning siyosiy falsafasi ko‘p qirrali bo‘lib, u eng muhim siyosiy muammolarni qamrab oladi, ularni yaqin aloqada va o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqadi. Forobiy siyosiy falsafasida jamiyat va davlat muammolari juda muhim o‘rin tutadi, ularni tahlil qilishga faylasuf alohida e’tibor beradi. Forobiy insoniyat jamiyatini va davlatining paydo bo‘lishi, evolyutsiyasi, tuzilishi va harakatlantiruvchi kuchlarining sabablarini ratsionalistik tushuntirishga intiladi, uning turlarini tasniflaydi, davlat va davlat hokimiyatini boshqarishning ideal shakllarini belgilaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Yuldashev F. A. Abu Nasr Forobiyning “Fi-ma’oniya-al-aql” asarida gnoseologik masalalar. // Monografiya. T.: Tamaddun, 2012. - 136 s.

REZYUME:

Mazkur maqolada Abu Nasr Forobiy falsafiy qarashlarining nazariy tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: aqliy bilish, panteizm, siyosiy falsafa, epistemologiya, in’ikos, fazilat, siyosiy rahbar

РЕЗЮМЕ:

В данной статье представлен теоретический анализ философских взглядов Абу Насра Фараби.

Ключевые слова: познание, пантеизм, политическая философия, эпистемология, восприятие, добродетель, политический лидер

RESUME:

This article presents a theoretical analysis of the philosophical views of Abu Nasr Farabi.

Keywords: cognition, pantheism, political philosophy, epistemology, perception, virtue, political leader

ABBOSIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-SIYOSIY VA MA'NAVIY HAYOT

Raxmonov A.A. -

*TTA Termiz filiali direktori o'rribbosari,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

Abbosiylar xalifaligining (750-1258) asoschisi Abu al-Abbos (750-754) hisoblansa-da, biroq ikkinchi xalifa Mansur (754-768) uning haqiqiy rivojlantiruvchisi edi. U xalifalikni tiklanishida fuqarolarning hayoti, ularning yashash tarzi va ijtimoiy muammolarni hal etishga ko'proq e'tibor qaratdi. Xalifalarning oqilona siyosati jamiyatning gullab-yashnashiga, ijtimoiy o'zgarishlarni qaror topishiga sabab bo'ldi. Davlatni endigina idora qilishni boshlagan Abbosiylar deyarli bosqinchilik urushlari olib bormaganlar. Ularning asosiy diqqat-e'tibori xalifalikka ilgari qo'shib olingan hududlarni saqlab qolishga qaratilgan. Ilgarigi harbiy istehkomlar fuqarolik markazlariga aylandilar; yangi iqtisodiy, ma'muriy, ilmiy, madaniy muassasalar, shu jumladan, vazirliklar yaratildi. Bu muassasalarning vujudga keltirilishi xalifalikda hunarmandchilik, savdo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishning rivojlanishi, ularning nisbatan keng miqyosda o'sib borishi misli ko'rilmagan iqtisodiy o'sishga va jamiyat hayotida ayrim kishilar qo'lida boyliklarning to'planishiga olib keldi.

Abbosiylar iqtisodiy hayotni tiklash uchun qulay muhit yaratdilar. Ularning iqtisodiy tizimi xususiy mulk, shaxsiy tashabbus va erkin savdo munosabatlariiga yo'naltirilgan bozor mexanizmlariga asoslanardi. Shuningdek, tashqi savdoga alohida e'tibor qaratdilar, arab xalifaligi o'z taraqqiyotining cho'qqisiga chiqdi.

Xalifalar xuddi ilgarigidek mutlaq hokimiyatga ega edi. Ular nafaqat mamlakat hukmdori, balki diniy rahbar ham edilar. Xalifa hokimiyati merosiy bo'lgan. Ulkan davlatni yaxshiroq idora etish maqsadida uning hududi viloyatlarga bo'lingan, ularga xalifa amirlarni noib etib tayinlagan. O'z viloyatida amirlar qo'shin va amaldorlar apparatini boshqarishgan. Har bir amirning ikki o'rribbosari bor edi. Ulardan biri soliqlarni yig'ishga javobgar bo'lsa, boshqasi – qozi – bosh sudya va xalifa diniy hokimiyatining vakili edi.

Abbosiylar juda yaxshi ma'muriy boshqaruvi tizimini ishlab chiqdi. Ular vorisiylik tamoyiliga to'la amal qildilar. Xalifa mamlakatda siyosiy hokimiyatining rahbari hisoblangan. Xalifa fuqarolarni boshqarish vakolatlarini vazirga, harbiy qo'shinni qo'mondon - amirga, ma'muriyat ishlarini amilga, sud hokimiyatini qoziga topshirdi va o'zida barchasining ustidan hukm chiqarish vakolatini saqlab qoldi. Garchi bunday vakolatlar xalifaning qo'lida markazlashgan bo'lsa-da, ammo uzoq mintaqalar bilan o'zaro aloqa qilish murakkabliklar bunday markazlashtirishdan chekinishni talab etardi. Natijada viloyat hokimlariga moliya, sud va harbiy ishlarida hamda ichki xavfsizlikni ta'minlashda ma'lum vakolatlar berildi. Aloqa o'rnatish qiyinligi sababli qozi, mirshab, soliq yig'uvchi va bojxonachilar o'sha shaharning o'zidan tayinlangan. Fuqarolik ma'muriyati ishlarida vazir davlat devonini boshqargan. Hukumat boshqaruvidagi murakkabliklar tufayli davlat ishlarida qattiq tartib o'rnatilgan edi.

Abbosiylarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular shaharlar buniyod etishga ustuvor ahamiyat berishgan. Abbosiylar dastlab Kufa shahrini o'zlarining hukumat markazi sifatida tanladilar. Xalifa Mansur (753-773) tomonidan Dajla sohilida Bag'dod shahri qurildi va davlatining markazi sifatida Kufadan keyin poytaxtga aylantirildi. Xalifa Mansur uzoq vaqtidan beri yo'qolgan bu shaharni maxsus rejaga asoslangan holda buniyod etdi. Bag'dod baland devorlar bilan o'ralgan, davlat ma'muriyati, oziq-ovqat do'konlari, harbiy istehkomlar, ovqatlanish maskanlaridan iborat ulkan shahar edi. Abbosiylar davrida madaniy hayot ancha tiklandi, odamlarning hayot tarzi rivojlandi, islomiy jamiyat o'ziga xos xususiyat kasb etdi.

Bu davr Abbosiylar xalifaligining eng yorqin davri hisoblanadi. Arabiston yarimoroli ibridoivayot tarzidan chiqqan musulmonlar o'zga madaniyatlar bilan aloqa qilishdi. Garchi davlatning asl tabiatini saqlanib qolgan bo'lsa-da, lekin yangi madaniyatlar bilan aloqalar o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik odamlarga yaxshi turmush kechirishga olib keldi. Eng yuqorida juda hashamatli hayot kechiradigan xalifa oilasi a'zolari turar edi. Xalifalik saroyi haram va maxsus xizmatchilar uchun ko'plab qo'shimchalar bilan qurilgan va shaharning katta qismini egallagan edi. Musiqachilar, shoirlar, qo'shiqchilar va raqqosalarga ortiqcha mablag' sarflash saroy hayotining odatiy hodisasi bo'lgan. Xalifalikning o'ta hashamatli hayotida Abbosiylar oilasining vakillari, vazirlar va amaldorlar bor edilar. Ular alohida maqom va hashamatli hayotdan zavqlanishardi.

Bag'dodning savdo-sotiq va tijoratdagi hukmronligi halqaro ahamiyatga ega bo'lgan markaz sifatida namoyon bo'lishi arablarning oddiy ibtidoiy ijtimoiy tizimini o'zgarishiga olib keldi. Shaharlarda savdogarlar va usta hunarmandlar ko'pchilikni tashkil etardi. Mamlakat aholisining asosiy qismini tashkil etadigan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi mahalliy aholini ham uchratishimiz mumkin edi.

Abbosiylar tijorat faoliyatiga juda katta e'tibor berishgan, shuning uchun muhtasib lavozimiga taqvodor va kasbini yaxshi biladigan shaxslar tanlangan. Dastlab muhtasibning vazifalariga bozorlarni umumiy ravishda o'rganish, o'zaro munosabatlar, mahsulot tannarxi, tovar va xizmatlar sifati, tosh-tarozining to'g'riliqini nazorat qilish kirgan. Keyinchalik, jamiyatda odob-axloq qoidalarini saqlash, moliyaviy faoliyatni nazorat qilish va ustachilik faoliyatiga ruxsat berish kabi boshqa vazifalar ham kiritildi.

Bozorlarning iqtisodiy hayotdagi ahamiyatini yaxshi bilgan xalifalar bozorlar qurish uchun maxsus joylarni tanlashga va ularning infrastrukturasini yaxshilashga alohida e'tibor berishdi. Bozor joylari har xil hunarmandchilik xususiyatlariiga mos ravishda tashkil etilgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos joylashuvga ega edi.

Hukumat davlatning asosiy daromad manbai qishloq xo'jaligi sohasi ekanligini ilk davrlardayoq anglab etdi va unga katta e'tibor qaratdi. Ayniqsa, umumiy sug'orish tizimini yaxshilashga, tashlandiq erlarni o'zlashtirishga, turli toshqinlardan keyin yaroqsiz holga kelib qolgan erlarni qayta tiklashga, qishloq joylardagi yo'llarni tuzatishga katta xarajatlar sarf qilindi.

Shariatga muvofiq davlat erkin ichki savdo tamoyilini qo'llab-quvvatladi, tovar va mehnat oqimiga hech qanday cheklov qo'ymadi. Shuningdek, davlat birja faoliyatiga yoki ularning narxlariga aralashmadni, faqat ba'zi holatlarda, odatda kambag'allar manfaati uchun savdogarlar tomonidan bug'doy, un, arpa kabi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining monopollashtirilishida aralashardi. Bunday aralashuv odatda narx-navoga nisbatan qo'llanilgan. Chunki narxlar odatda siyosiy omillar, ob-havo o'zgarishi va tabiiy falokatlar tufayli o'zgarishga uchrardi, bu ayniqsa qishloq xo'jaligiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Davlat boshqaruvini yaxshilash uchun xalifalar o'z tangalarini zarb qilishgan va pochta xizmatini joriy qilishgan. Mamlakatning turli burchaklarini bog'lovchi asosiy yo'llarda "yomchi" deb ataladigan pochta qatnovlari joriy etilgan.

Xalifalikda ta'lif olish bepul bo'lgan. Davlat o'z hududida ilm-fanning barcha sohalarini taraqqiy etishini rag'batlantirgan. Aholining barcha qatlari erkin bilim olishlari mumkin edi. Ilm-fan bilan shug'ullanuvchi insonlar hurmatga sazovor kishilar hisoblangan. Shuningdek, minglab kitoblarni o'z ichiga olgan ko'plab umumiy va xususiy kutubxonalar mavjud bo'lib, ular kitob do'konlari bilan muntazam aloqani yo'lga qo'yishgan edi. Bu davrda turli tillardagi ilmiy asarlarni arab tiliga tarjima qilish kuchaydi.

Abbosiy xalifalar Horun ar-Rashid (786-809) va uning o'g'li Ma'mun (813-833) davrida ilm-mrifat taraqqiy etdi. Xalifalik markazi Bag'dodda "Bayt ul-hikma" (Donishmandlik uyi)ga asos solindi, u yirik ilmiy markazga aylandi, bu joyda o'z davrining mashhur olim-u faylasuflari, munajjim, tabib, musiqachi, me'mor va muhandislar to'plangan edi. Bu davrda arablar, forslar, nasroniylar, yahudiylar, movarounnahrlik va xurosonliklar tomonidan yunon, hind, fors, yahudiy, suryoniy va boshqa tillardagi rivoziyot, handasa, falakiyat, alkimyo, mantiq, tarix, tibbiyot fanlariga oid ilmiy-falsafiy asarlar arab tiliga tarjima qilingan.

Darhaqiqat, katta miqdordagi davlat mablag'lari ilm-fanni rivojlantirishga sarflandi. Bularning barchasi tufayli poytaxt Bag'dod dunyo bo'ylab ilm-fan markaziga aylandi. Abbosiylar hukmronligining birinchi asri davomida astronomiya va ayniqsa tabobat Bag'dodning islom

dunyosiga qo‘yilgan birinchi qadamlari bo‘lib, ular orqali yunon fani va falsafasi o‘zining g‘olibona yurishini boshladi. Bunday sharoitda sharqiy xristian olimlari tomonidan taqdim etilgan mantiq, boshqa barcha arab ilmlari orasida markaziy o‘ringa qo‘yildi.

Xalifa Ma’mun (813-833) hukmronligi yillarida ilm-fan rivojlanishiga katta e’tibor qaratdi. U mu’taziliylar ta’limotini xalifalikning rasmiy mafkurasi deb e’lon qildi. O‘zining siyosiy muxoliflari bilan ittifoqda bo‘lgan ilk islom aqidalaridagi ruhoniylarga qarshi kurashda Iroq savdogarlari va hunarmandlariga tayangan Ma’mun o‘z siyosiy faoliyatida Sharqda misli ko‘rilmagan ishni qilib, tabiatshunoslik, falsafa, astronomiya va matematika fanlarini rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib berdi.

Musulmonlarni qadimgi yunon mutafakkirlari asarlari bilan tanishtirish Suriya xristianlari orqali amalga oshirildi. Og‘ir mehnat bo‘lgan ikki tomonlama tarjima jarayoni, ya’ni yunon tilidan Suriya tiliga, undan arab tiliga qilingan ishlar avval boshda ko‘proq tabobatga, tabiiy-ilmiy asarlarga qaratilgan edi. Ammo tez orada kitobxon ziyolilar va tarjimonlarning qiziqishi falsafiy adabiyotlarni ham qamrab oldi. Bu qonuniy jarayon edi. Chunki, Sharq xalifaligi deb atalgan Bag‘dod va unga tobe bo‘lgan musulmonlashish jarayoni boshlangan o‘lkalarda savdo-sotiq va hunarmandchilik gurkirab o‘sib, ular asosida matematika, mexanika, optika, kimyo, astronomiya, jug‘rofiya, tabobat va boshqa nazariy hamda amaliy fanlarga ehtiyoj katta edi.

Arablarning Eron va Hind madaniyati bilan tanishuvni VIII asrdayoq boshlanib, tabobat va siyosiy tuzum sohalaridagi fanlarda o‘z aksini topgan edi. Abbosiylar bo‘lgan Mansur va Horun ar-Rashid hukmronligi davrida ularning ajamlik vaziri Yah’yo Barmakiy tashabbusi bilan bir qancha boshqa kitoblar ham hind tilidan arabchaga [6, 38] o‘girildi.

VIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, Qur’oni Karim va shariat qoidalariga asoslangan islomiy ilmlar rivojiana boshladi. Bu bilimlar islom dini asoslarini har tomonlama mustahkamlash va uni to‘g‘ri talqin etishga qaratilgan diniy ilmlar edi. Hadis, kalom, tafsir, mantiq va fiqh ilmida ulkan yutuqlarga erishildi. Islomiy ilmlar bo‘yicha madrasalarda dars beruvchi olimlar o‘z uslubi orqali shogirdlariga dars berar, shogirdlar esa ustozlaridan olgan ilmgaga o‘z hissalarini qo‘shib rivojlantirar edi. Ba’zan ustoz-shogird o‘rtasida ilmiy ixtiloflar muhokama qilinib, Qur’oni Karim va hadislardan keltirilgan dalillar asosida echim topilardi. Masalaga echim topishda Madina va Kufa olimlarida farq mavjud edi. Madinaliklar sunnat amallar bilan bog‘liq hadis va rivoyatlarga tayansalar, Kufaliklar o‘z tafakkur va mantig‘i orqali ixtiloflarni bartaraf etishardilari.

Abbosiylar davridagi madaniyatning ajoyib xususiyati va ahamiyatli tomoni shundaki, ilm-fanning barcha sohalarida diniy mafkuraviy cheklanganlikdan yuqori ko‘tarilib, dunyoviylik ta’minlangan. U davr olimlari islom aqidalariga mahkam bog‘lanib qolmagan, hatto rasmiy islom dogmasiga rioya qilmay, erkin fikrlash darajasiga ko‘tarilganlar. Ular inson tabiatning eng oliy mahsuli ekanini tasdiqlaydilar.

Sahobalardan ta’lim olgan islom ulamolari xalifalikning turli markazlariga borib o‘qishini davom ettirishi natijada hadis ilmi va fiqh kabi ilmiy yo‘nalishlar vujudga keldi. Abu Hanifaning ustozи Hammad tomonidan asos solingen ahli ra’y yo‘nalishi Iroqda Abu Hanifa tomonidan shakllantirilgan bo‘lsa, Abu Yusuf uning tom ma’nodagi rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi.

IX-XI asrlar musulmon fani va madaniyati tarixida katta yutuqlar va muhim ilmiy kashfiyotlar davri bo‘lganligidan, bu davrni ba’zi tadqiqotchilar Sharq fani va madaniyatining “oltin davri” deb e’tirof etadilar.

ADABIYOTLAR:

1. Ahmad Farras Oran. The Economic system under the Abbasids dynasty. London. The encyclopaedia of Islamic economics. 2009.
2. Oguз Bal. One of the milestones of Islamic economics: Abu Yusuf and his economic thought. Vol. 1. 2014. www.tujise.org.
3. Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf’s contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995.
4. Husaini S.A.Q. Arab Administration. Delhi., Idara Adbiyat, 1979.

5. Gryunebaum, G. E. fon. Klassicheskiy islam. - M.: Nauka. 1986
6. Qodirov M. Markazi Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri. –Toshkent: TDShI nashriyoti. 2009.

REZYUME:

Abu Yusuf VIII asrning so'nggi choragida yashagan islom olamidagi eng muhim shaxslaridan biridir. U islom ilm-fani ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkir bo'lib, fiqh ilmi maktablaridan biri bo'lgan hanafiylik mazhabining taraqqiy etishidagi xizmatlariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Abu Yusuf, Abbosiylar xalifaligi, qozil-quzzot, xalifalikdagi ijtimoiy-siyosiy hayat, islomiy iqtisodiy munosabatlar.

РЕЗЮМЕ:

Абу Юсуф – одна из важнейших фигур исламского мира, живший в последней четверти VIII века. Он мыслитель, внесший большой вклад в развитие исламской науки.

Ключевые слова: Абу Юсуф, Арабский халифат, кади аль-кудат, общественно-политическая жизнь в халифате, исламские экономические отношения.

RESUME:

Abu Yusuf is one of the most important figures in the Islamic world who lived in the last quarter of the 8th century. He is a thinker who made a great contribution to the development of

Keywords: Abu Yusuf, arab caliphate, qadi al-qudat, socio-political life in the caliphate, islamic economic relations.

ОИЛАВИЙ ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИК ЧОРАЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ: МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР

Рустамова Н.Р. –

*Toшкент шаҳар Чилонзор тумани
2-сонли Никоҳ уйи мудираси,
ЎзМУ эркин тадқиқотчиси*

Ўзбекистонда оилавий ҳуқуқий жавобгарликка оид қонун ҳужжатларини янгилаш ҳуқуқий нормаларни замонавий воқелик ва халқаро стандартларга мувофиқлаштирувчи комплекс ва чуқур ёндашувни талаб этади. Шу жиҳатдан ҳам никоҳ ва никоҳдан ажралиш жараёнида оилавий жавобгарлик масалалари узвий бир-бирига боғлиқлик ҳолатини юзага келтиради.

Бугунги кунда кундалик ҳаётимизда учраётган қатор муаммоли ва низоли ҳолатлар таҳлили шундан далолат берадики, Ўзбекистон Республикаси Оила кодексида никоҳдан ажралиш ва бекор қилиш масалаларига ҳам оилавий жавобгарлик мезонларини қайта кўриб чиқиш асосида зарурий ўзгартиришлар киритилиши мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Таъкидлаш жоизки, оила қонунчилигига янгилаши ва эътиборга олиниши лозим бўлган масалалар мавжуд. Жумладан, медиация ва маслаҳат, оилани сақлаб қолиш ёки ҳеч бўлмаганда келишув битимиға эришиш учун ажралишдан олдин воситачилик ва оилавий маслаҳатни болали оилалар учун мажбурий жорий этиш масаласи, алиментларни ундириш бўйича чора-тадбирларни кучайтириш, алимент тўловчиларнинг даромадлари ва мол-мулкини кузатишни замонавий технологияларидан фойдаланган ҳолда амалга ошириш, алимент миқдори етарлилиги ва алиментни ҳисоблаш тартибини қайта кўриб чиқиш ва бунда, боланинг ўсиши, улғайишини инобатга олган ҳолда ҳақиқий харажатларни акс эттиришга эришиш ва иккала ота-онанинг даромадига мутаносиб бўлиши имкониятларини ишлаб чиқиш, эрхотиннинг оила бюджетига қўшган ҳиссасини, шу жумладан, уй-рўзгор ва болаларни тарбиялаш каби молиявий бўлмаган бадалларни ҳисобга олган ҳолда никоҳ мулкини тақсимлашнинг аниқ ва шаффоф қоидаларини жорий этиш кабилар.

Шу ўринда, оиладаги зўравонлик ҳолатларида болаларни ҳимоя қилиш бўйича чора-тадбирларни кучайтириш, болаларнинг ҳаётига тааллукли масалалар бўйича фикр билдириш ҳуқуқини қонунийлаштириш ва буни суд қарорларида ҳисобга олинишини таъминлаш ҳам куннинг долзарб ҳамда ҳал этилишини кутиб турган масалалар қаторидан ҳақли равишда жой олади..

Зеро, оилавий жавобгарликка оид нормаларни такомиллаштириш юқорида санаб ўтилган оилавий муносабатларнинг тартибга солинишига оид нормаларни такомиллаштириш билан узвий боғлиқдир.

Иқтисодий жиҳатдан ривожланган давлатлар АҚШ, Германия, Буюк Британия, Франция, Испанияда ҳуқуқий анъаналар ва ҳуқуқий тизимлар таҳлили, шунингдек оила фаровонлиги учун масъулият ва жавобгарлик масалаларига катта эътибор қаратилиб, чора-тадбирлар белгиланаётганлигини кузатиш мумкин. Муайян вазиятни ҳисобга олган ҳолда суд ёки ижтимоий хизматлар томонидан белгиланадиган ушбу чора-тадбирлар қўйидагилардан иборат:

а) оиладаги моддий ёки маънавий қийинчиликларни бартараф этиш учун ёрдам кўрсатиш;

б) бола (ёки ота-она)га психологияк терапия ва бошқа маслаҳатлар беришни тавсия этиш ва, бунинг натижасида боланинг бузилган ҳуқуқлари тикланиши билан бирга оилавий ҳуқуқий жавобгарлик чораларини қўллашнинг олди олинади.

Мамлакатимизда оила масъулиятига оид қонун ҳужжатларини такомиллаштиришда ота-она масъулияти масалаларига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Ваҳоланки, ҳозирги йўналишларда оилавий аҳволидан қатъи назар, болаларни тарбиялаш ва боқишида ота-онанинг

тeng хуқуқлилиги ҳамда мажбуриятларининг таъминланишига оид чора-тадбирларга кўпроқ эътибор қаратилаётганлигини кўриш мумкин. Фикримизча, ажralиш пайтида бунданда муҳимроқ бўлган боланинг яшаш жойини аниқлаш тартиби тўғрисидаги қоидалар ва уларнинг ижросига алоҳида аҳамият бериш керак. Ана шунда боланинг манфаатлари ва хуқуқлари ҳисобга олинади.

Шунингдек, ота-оналарнинг мажбуриятларини, шу жумладан, алимент тўлаш мажбуриятларини бажаришдан бўйин товлаганлик учун мониторинг ва жавобгарликнинг янада қатъий механизмларини жорий этиш лозим. Ёлгиз ота-оналар ва қийин ҳаётий вазиятга тушиб қолган оилаларни қўллаб-қувватлаш дастурларини ишлаб чиқиши, шунингдек, таълим ва ахборот кампанияларини ўтказиш орқали ота-оналарнинг хуқуқий саводхонлигини ошириш муҳим қадам бўлади. Ушбу ўзгаришларнинг киритилиши Ўзбекистонда болалар учун янада қулай ва ҳимояланган муҳитни яратишга, оила институтини мустаҳкамлашга хизмат қиласди.

Илгор давлатлар тажрибасидан келиб чиқсан ҳолда Ўзбекистон Республикаси Оила кодексига суд томонидан ота-оналарга нисбатан профилактика чораларини тайинлаш имкониятини киритиш мақсадга мувофиқ бўлиб, уларни амалга ошириш ихтисослаштирилган маҳаллий давлат ҳокимияти органларига топширилиши мумкин.

Ота-она хуқуқларини маълум муддатга чеклаш имкониятини белгилаш таклиф этилади. Ота-она хуқуқларини маълум муддатга чеклаш мазкур чекловларни олти ойдан ортиқ бўлмаган муддатга белгилашни назарда тутади. Агар ота-онага боғлиқ бўлмаган ҳолатлар (масалан, "руҳий касаллик" ёки бошқа "сурункали касаллик") туфайли боланинг у билан яшashi унинг ҳаёти ва соғлиғига хавф түғдирса, чекланмаган муддатга рухсат этилиши мумкин. Бироқ, "сурункали касаллик" атамасининг киритилиши ота-онанинг сурункали алкоголизм ёки гиёҳвандлик билан боғлиқ бўлиши мумкинлиги ҳақидаги фикрни англатади. Ота-она хуқуқларини маълум муддатга чеклаш мазкур чекловларни олти ойдан ортиқ бўлмаган муддатга белгилашни назарда тутади.

Ота-она хуқуқларини муайян муддатга чеклаш учун асослар рўйхатини қайта кўриб чиқиши, шунингдек, ота-оналий хуқуқидан маҳрум қилиш учун мавжуд асослар рўйхатини ўзgartiriш таклиф этилади. Айрим ҳолларда ота-оналар ўз хуқуқларидан бутунлай маҳрум қилинмасдан фақат чеклаш чорасини қўллаш билан ҳам кифояланиш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 83-моддасида ота-оналий хуқуқининг чекланишига оид норма ўз аксини топган бўлиб, мазкур нормага муайян муддатга чеклаш ҳақида қоидаларни киритиш илгари сурилади. Бунда 79-моддада белгиланганлардан ташқари 83-моддада куйидаги ҳолатлар ҳам назарда тутилиши лозим:

- Агар ота-она (ёки улардан бири) боланинг ёнида бўлиб, ўз хатти-харакатлари туфайли унинг ҳаёти ва соғлиғига таҳдид солса, лекин ота-оналий хуқуқларидан тўлиқ маҳрум қилиш учун етарли асослар бўлмаса;
- Агар ота-оналар (ёки улардан бири) ота-оналий мажбуриятларидан, шу жумладан, алимент тўлашдан бош торца;
- Агар ота-оналар (улардан бири) узрсиз сабабларга кўра болани тиббий муассасадан, таълим ёки ижтимоий муассасадан олти ой ичида олишдан бош торца ва бу рад этиш белгиланган тартибда расмийлаштирилган бўлса;
- Ота-оналарга (улардан бирига) нисбатан қамоқقا олиш тарзидаги эҳтиёт чораси қўлланилса;
- Агар ота-оналар (ёки улардан бири) сурункали алкоголизм ёки гиёҳвандликка ружу қўйган бўлса.

Бундан ташқари, ота-оналардан бирининг ота-оналий хуқуқларини чеклаш тўғрисида қарор қабул қилишда суд қўйидаги саволларни ҳам кўриб чиқиши керак: а) боланинг ўзи билан бирга яшашни давом эттириши мумкинми (ёки имконсизми); б) ота-онадан (ёки улардан биридан) алимент ундириш тўғрисида.

Ота-оналардан бирининг ота-оналиктарини чеклаш масаласи ҳал қилинганда, боланинг ота-онаси билан бирга яшаши мумкинлиги (ёки мумкин эмаслиги) масаласини ҳал қилиш қийинчилик туғдириши мумкин. Чунки буни амалга оширишнинг ҳуқуқий механизми ноаниқ.

Ота-она ҳуқуқларини чеклаш ёки унинг муддатини узайтириш тўғрисидаги суд қарори суднинг ота-она ҳуқуқларини чеклаш муддатини бекор қилиш ёки узайтириш тўғрисидаги қарорига мувофиқ қабул қилинади (масалан, оиланинг ижтимоий мослашув даври). Агар суд ота-оналиктарини чеклашни бекор қилиш учун асослар йўқлигини аниқласа, ота-оналар (улардан бири) ота-оналиктарини ҳуқуқидан маҳрум қилиниши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Оила кодексига оилавий ҳуқуқий жавобгарлик турларини ва умумий қоидаларни назарда тутувчи умумий қоидани киритиш таклиф этилади.

Шу нуқтаи назардан, ота-оналиктарини ҳуқуқидан маҳрум қилиниши оилавий ҳуқуқий жавобгарликнинг чораси сифатида кўриб чиқиши лозим. Ота-оналиктарини ҳуқуқидан маҳрум этишининг олдини олиш бўйича кўп босқичли чора-тадбирлар тизимини таъминлаш зарурати юзага келади. Бунинг учун ота-она ҳуқуқларини чеклаш ота-оналиктарини ҳуқуқидан маҳрум қилишдан олдин бўлган вактинчалик чора сифатида кўриб чиқилиши керак. Васийлик ва ҳомийлик органлари чекланган ота-она ҳуқуқларига эга бўлган ота-оналарга турмуш тарзи ва хатти-харакатларини ўзgartиришда ёрдам бериш учун жавобгар бўлиши мақсадга мувофиқ.

Шу билан бирга, оилавий жавобгарлик масаласида бугунги кунда кўплаб муҳокамада турган масала бу оилавий муносабатларга аралашув ҳисобланади. Оилавий жавобгарлик масаласида қонунчиликни такомиллаштириш учун мазкур масалага эътибор қаратиш ўринли.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 31-моддасига кўра, ҳар бир инсон шахсий ҳаётининг дахлсизлиги, шахсий ва оилавий сирга эга бўлиш, ўз шаъни ва қадр-қимматини ҳимоя қилиш ҳуқуқига эга. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси 1 ва 3-моддаларида оила тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг вазифаларидан бири сифатида бирон-бир шахснинг оила масалаларига, жумладан оилавий муносабатларга аралashiшига йўл қўйилмаслиги ҳақидаги қоида мустаҳкамлаб қўйилган. Қолаверса, мазкур қоидалар 1948 йилги “Инсон ҳуқуқлари Умумжахон Декларацияси”нинг 12-моддаси ҳамда 1966 йилги “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлари тўғрисида”ги Халқаро Пактнинг 17-моддасига тўлиқ мос келади.

1950 йил 4 ноябрдаги “Европа Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Конвенциясининг 8-моддасида ҳам шахсий ва оилавий ҳаётининг ҳурмат қилиш ҳуқуқи белгиланган. Унга кўра, ҳар ким ўз шахсий ва оилавий ҳаёти дахлсизлиги ҳуқуқига эгадир. Назаримизда, Ўзбекистон Республикаси Оила кодексига оилавий муносабатларга аралашув ҳолатлари, эр ва хотин муносабатларининг ёмонлашиши, низо келтириб чиқариши ва никоҳдан ажрашиш ҳолатлари, шунингдек унданда оғир ҳолатларга олиб келиши мумкин бўлган ҳолатларни камайтириш ва уларга чек қўйиш мақсадида, маънавий ва моддий қўринишдаги заарни ундириш тўғрисидаги нормани киритиш мақсадга мувофиқ.

Бунинг учун оилавий муносабатларга аралашув мезонларини ишлаб чиқиши талаб этилади. Халқаро нормалар ва илмий адабиётларни ўрганиш шуни кўрсатадики, аралашувнинг 2 хил қўриниши мавжуд:

1. Қонуний аралашув (давлат органлари ва муҳофаза қилувчи органларнинг оила масалаларига оид ваколатлари юзасидан оилавий муносабатларга аралашуви ва қонуний чекловлар ўрнатиши);

2. Эркин тарзда аралашув – бу бир шахснинг иккинчи шахс ишларида эркин равишдаги иштироки ва бунга одатда иккинчи шахснинг розилиги бўлмаслиги ҳамда бундай аралашув қонунга (ҳуқуқга) хилоф бўлиши шарт.

Шу нуқтаи назардан, оилавий муносабатларга аралашув учун жавобгарликни маънавий ва моддий заарар ундириш қўринишида белгилаш таклиф этилади ва бунда аралашувнинг мезонларини ишлаб чиқиши эътиборга олиниши лозим.

Ўзбекистоннинг оила қонунчилигини такомиллаштириш зарурати мавжудлигини жорий ўзгаришлар жамиятнинг барқарор ва баркамол ривожланишини таъминлашнинг ажралмас таркибий қисми эканлиги билан изоҳлаш лозим. Замонавий воқеликка мослаштирилган қонунчилик барча оила аъзолари, жумладан, болалар, аёллар ва қарияларнинг хуқуqlарини самарали ҳимоя қиласди, эр ва хотин учун тенг имкониятлар ва масъулиятни таъминлайди.

Замонавий муаммолар оиласидаги низоларнинг олдини олиш ва ҳал этиш, ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш ҳамда болалар манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган чора-тадбирларни жорий этишни тақозо этмоқда. Шунингдек, ҳалқаро тажрибани ҳисобга олиш ва илғор тажрибани миллий шароитга мослаштириш ҳам муҳимдир. Оилавий низоларни ҳал этишда воситачилик ва консенсус механизмларини ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Бу эса низолар даражасини пасайтириш ва фуқароларнинг ҳаёт сифатини яхшилаш имконини беради.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Ўзбекистоннинг оила қонунчилигини такомиллаштириш нафакат фуқароларнинг ҳуқуқий ҳимоясини таъминлаш, балки жамиятнинг асосий бўғини сифатида оила институтини мустаҳкамлаш учун ҳам зарур эканлигини таъкидлаш мумкин. Бу масалани қонун чиқарувчи ҳамда жамият томонидан ҳал этилиши мамлакатимиз барқарор ривожланиши ва фаровонлигининг кафолати бўлиб хизмат қиласди.

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада ҳуқуқий жавобгарликнинг бир тури сифатида оилавий-ҳуқуқий жавобгарлик ва уни қўллашга оид баъзи муаммолар кўриб чиқилган ҳамда ечими бўйича тақлифлар, тавсиялар баён этилган.

Калит сўзлар. Оилавий-ҳуқуқий жавобгарлик, жавобгарлик даражаси, ҳимоя функцияси, никоҳни бекор қилиш, алимент тўлаш, ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум этиш, маънавий ва моддий заарни ундириш.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье в качестве самостоятельного вида правовой ответственности рассмотрена семейно-правовая ответственность и некоторые проблемы её применения, а также изложены предложения и рекомендации по их решению.

Ключевые слова. Семейно-правовая ответственность, уровень ответственности, функция защиты, расторжение брака, уплата алиментов, лишение родительских прав, моральный и материальный ущерб.

RESUME:

This article, as an independent type of legal responsibility, examines family legal responsibility and some problems of its application and outlines proposals and recommendations for solving them.

Key words. Family legal responsibility, level of responsibility, protection function, divorce , payment of alimony, deprivation of parental rights, moral and material damage.

ИЖТИМОЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ДАВЛАТ ВА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУЛариНИНГ ЎЗАРО ХАМКОРЛИГИ

Нишанбаева Э.З. -
ЎзМУ доценти,
сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори

Жамият ҳаётининг муносабиб ва эркин ривожланишини таъминлаш мақсадида жамиятнинг барча сиёсий институтларининг ўзаро муносабатлар тизимини ижтимоий шериклик асосида ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга. Бундай янги сиёсий тизимни яратиш натижасида энг мувозанатли ва ҳаётий қарорларни қабул қилишга қулай шарт-шароит яратилади. Зоро, ижтимоий шериклик фуқаролик жамиятини ривожлантириш ва қайта тиклашга, давлат ва фуқаролик жамияти институтлари билан ўзаро ҳамкорлик механизмини такомиллаштиришга ёрдам беради.

Фуқаролик жамияти ва ижтимоий шерикликнинг сиёсий-хуқуқий таҳлилига қўра, аввало давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ўртасидаги муносабатларни ижтимоий шериклик соҳасидаги қонунчилик актлари билан тартибга солиниши, яъни уларни қонун ҳужжатларининг «таъсир доираси» билан қопланиши лозим.

Шу боисдан ҳам ҳозирги даврда давлат ва фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ижтимоий шериклик тизимини ривожлантириш сиёсатини мустаҳкамлашда асосан қўйидаги муаммоларни ҳал этиш устувор аҳамият касб этади:

биринчидан, ижтимоий шерикликни самарали жорий қилиш асосида давлатнинг фуқаролик жамияти билан самарали ва конструктив муроқот механизмлари йўлга қўйиш, нодавлат нотижорат ташкилотларининг эҳтиёжлари тизимли таҳлил қилиш учун сиёсатшунослик, социология, иқтисод соҳасидаги тадқиқотлар кўламини кенгайтириш, давлат ва жамиятни янада ривожлантиришнинг муҳим масалалари бўйича ўзаро фикр алмашиш учун самарали майдонни яратиш;

иккинчидан, ижтимоий шерикликни самарали жорий қилиш орқали ижтимоий-иктисодий ривожланиш дастурларини, норматив-хуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишга нодавлат нотижорат ташкилотларини жалб қилиш даражасини юқорига олиб чиқиш, жамиятдаги барча ижтимоий-сиёсий гуруҳларнинг турли нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан ифодаланадиган манфаатларини чукур ўрганиш ҳамда инобатга олиш;

учинчидан, ижтимоий шериклик тизимини давлат органлари ва нодавлат нотижорат ташкилотлари ўртасида фуқароларнинг кенг кўламли ижтимоий муаммоларини ҳал қилиш, уларнинг, айниқса, ёшларнинг ташаббуслари ва замонавий ғояларини ҳақиқатда илгари суришга қаратилган ҳамкорликнинг самарали механизмига айлантириш;

тўртинчидан, мамлакатни социал-иктисодий, ижтимоий-сиёсий жиҳатдан янада ривожлантириш бўйича инновацион ғояларни таклиф қилувчи фаол, ўзининг ташаббусларига таяниб фаолият кўрсатадиган нодавлат нотижорат ташкилотларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш бўйича кенг кўламдаги чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқиш;

бешинчидан, ижтимоий шериклик тизимини самарали жорий қилиш асосида нодавлат нотижорат ташкилотларини рўйхатдан ўтказиш жараёнларини, уларнинг фаолияти тартибини белгиловчи қонунчилик нормаларида ортиқча бюрократик талаблар ва ғовларни бартараф этиш;

олтинчидан, ижтимоий шериклик асосида нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга қаратилган ижро этувчи ҳокимият органлари томонидан қўлланилаётган идоралараро ҳамкорлик усуллари самарадорлигини таъминлаш, давлат органлари ўртасида маълумотлар ва ахборот алмашишнинг ягона механизmlарини яратиш;

еттингидан, ижтимоий шериклик тизимини самарали жорий қилиш асосида нодавлат нотижорат ташкилотларининг моддий-техника таъминотини яхшилаш, фуқаролик жамияти институтларини қўллаб-қувватлашга давлат томонидан ажратилаётган маблағлар миқдорини ошириш мухим аҳамиятга эга.

Хозирги даврда фуқаролик институтлари ва давлат ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик хукумат ҳоҳиш-иродаси ва юзага келаётган сиёсий конъюнктурага боғлиқ бўлмайдиган барқарор тус олиши мақсадида қайд этилган мамлакатлар жамоатчилиги шериклик масалаларини қонунчилик асосида тартибга солиш талаби билан чиқмоқда. Тузилаётган битимлар давлатнинг фуқаролик сектори олдидағи кенг қамровли мажбурият сифатида кўриб чиқилгани йўқ. Шу муносабат билан хорижий эксперплар Ўзбекистоннинг ижтимоий шерикликни ривожлантириш, давлат ва учинчи сектор ўртасидаги ўзаро муносабатларни қонунчилик асосида тартибга солиш соҳасидаги тажрибасига катта қизиқиши билдирилмоқда.

Шунинг билан бир қаторда мамлакатимизда демократик қадриятлар, инсон хукуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилишнинг жаҳон тажрибасидан ўзининг янгича мазмуни билан фарқ қилувчи ижтимоий шерикликни татбиқ этишининг ўзига хос устувор йўналишлари ишлаб чиқилди ва улар ижтимоий ҳаётда манфаатлар мувозанатини таъминлашга қўмаклашмокда. Зоро, мазкур соҳага оид қонун асосида давлат бошқарув органлари айрим ваколатларининг жамоат ташкилотларига берилиши, жамоатчилик назоратини кучайтириш, ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш миллий манфаатларимизга ўйғун бўлган сиёсатнинг асосий йўналишларидан биридир.

Бугунги кунда бизнинг мамлакатимизда ҳам демократик хукуқий давлат ва фуқаролик жамиятини шакллантиришдек мақсадга эришиш жараёнида фуқаролик жамиятининг институтлари, хусусан, жамоат ташкилотларининг жамият ҳаётидаги ўрни ва ролини мустаҳкамлаш ва ошириш борасида туб ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Шу мақсадда, мустақиллик йилларида мамлакатимизда фуқаролик жамиятининг институтларининг фаолиятини тартибга солишга қаратилган ва халқаро хукуқ нормалари ҳамда демократик талабларга жавоб берадиган қонунчилик тизими яратилган бўлиб, давлатимиз томонидан бу соҳада олиб борилаётган сиёсат Конституциямизда белгиланган фуқароларнинг касаба ўюшмаларига, сиёсий партияларга ва бошқа жамоат бирлашмаларига ўюшиш хукуқлари изчил ва тўлиқ амалга оширилишини таъминлашга қаратилгандир.

Фуқаролик жамиятининг институтлари фаолиятини тартибга солувчи қонунчилик тизимида Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси мухим ўрин тутади. Конституциянинг қўпгина моддаларида ушбу институтлар фаолиятига оид бўлган конституциявий тамойил ва қоидалар мустаҳкамлаб қўйилган. Асосий Қонуннинг 12-моддасида Ўзбекистон Республикасида ижтимоий ҳаёт сиёсий институтлар, мафкуралар ва фикрларнинг хилма-хиллиги асосида ривожланиши ҳамда ҳеч қайси мафкура давлат мафкураси сифатида ўрнатилиши мумкин эмаслиги тўғрисидаги конституциявий тамойил ўзифодасини топган[2].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 12 декабрдаги “Фуқаролик жамияти институтларини ривожлантиришга қўмаклашиш борасидаги қўшимича чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарорига [3] кўра, нодавлат нотижорат ташкилотларни рўйхатга олиш, уларнинг ҳисобот топшириш тартибларини соддалаштириш, давлат органлари ва нодавлат нотижорат ташкилотлари ўзаро муносабатларининг ташкилий-хукукий механизmlарини такомиллаштириш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш назарда тутилган. Бундан ташқари, давлат божи ва нодавлат нотижорат ташкилотлар ва уларнинг рамзларини давлат рўйхатига олиш учун тўланадиган йиғмалар миқдори сезиларли даражада камайтирилди, давлат рўйхатига олиш бўйича мурожаатларнинг адлия органлари томонидан кўриб чиқиш муддати қисқартирилди.

Буларнинг барчаси мустақиллигимизнинг дастлабки йилларидаёқ, Конституциямизда фуқаролик жамияти институтлари фаолиятига доир асосий принципларнинг мустаҳкамлаб қўйилгани, уларнинг инсон хукуқ ва эркинликларини амалга оширишда самарали фаолият

юритишиларига қулай шароит яратганидан далолат беради. Ҳозирги кунда деярли барча фуқаролик жамиятининг институтлари мамлакатни демократик йўналишда ривожлантириш, муайян соҳалар юзасидан инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, давлат ҳокимияти органлари фаолияти устидан самарали назорат ўрнатиш каби масалаларга ўзларининг асосий фаолият йўналишлари сифатида қарамоқдалар.

Бинобарин, фуқаролик жамиятининг институтлари бугунги кунда жамиятни демократлаштириш ва ислоҳ қилиш жараёнининг ажралмас ва зарурий бўғинига айланиб бормоқда. Фуқаролик жамиятининг институтларига бирлашган фуқаролар эса, улар орқали ўзларининг турли хил манбаатлари ва ҳуқуқларини амалга оширишни кўзлайдилар, албатта. Бундай шароитда ушбу ташкилотлар олдига фуқароларнинг давлат ишларини амалга оширишда иштирокларини таъминлаш ҳамда уларнинг мавжуд қонунчиликка нисбатан ижобий муносабатларини шакллантириш ва шу орқали уларни шериклик муносабатлари қоидаларига оғишмай риоя қиласиган шахслар сифатида тарбиялаш каби янги вазифалар қўйилмоқда.

Аҳолининг ижтимоий онги, ижтимоий-иктисодий фаоллиги ўсган шароитларда айнан ижтимоий шериклик давлат ва фуқаролик жамияти ўртасида ўзаро ҳамкорликнинг яхлит тизимини яратиш имконини беради, уларнинг амалий мулоқотда бўлишининг ҳуқуқий кафолатларини мустаҳкамлайди. Ўз навбатида мазкур тизимни ривожлантириш ННТ ва фуқаролик жамияти бошқа институтларининг ролини кучайтириш бўйича мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ишларнинг самарадорлигини оширишга, катта ижтимоий аҳамиятга эга бўлган ижтимоий-иктисодий дастурларни ва қонун ҳужжатларини ишлаб чиқиш ҳамда амалга ошириш жараёнида аҳоли кенг қатламларининг манбаатлари ҳар томонлама ҳисобга олинишини таъминлади.

Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларининг реал мустақиллиги, улар фаолиятини моддий ҳамда молиявий кўллаб-қувватлашнинг пухта қонунчилик базаси, миллӣ инфратузилма яратилган. Бу эса ижтимоий ҳаётни демократлаштириш, давлат қурилиши, жамиятда манбаатлар мувозанатини таъминлаш ва рафбатлантириш, давлат тузилмаларининг сиёсий-ижтимоий фаолиятида ўзига хос тарози посангисига айланиш, инсон ҳуқуқ ҳамда эркинликлари, қонуний манбаатларини ҳимоя қилиш вазифасини бажаришда ННТ позициясини мустаҳкамламоқда.

Юқорида қайд этганимиздек, аксарият ҳолларда ижтимоий шериклик деганда ижтимоий-меҳнат соҳаси, яъни иш берувчи, ишчи, касаба уюшмалари ўртасидаги муносабатлар тизими тушунилган. Бунда касаба уюшмалари билан иш берувчи ўртасидаги муносабатларда ишчининг ҳуқуқ ва манбаатларини ҳимоя қилиш, иш шароитини яхшилаш каби масалаларга эътибор қаратилган. Бугунги кунда эса ижтимоий шериклик тушунчаси кенг маънони англатади. Хусусан, аҳоли турли қатламларининг ҳуқуқ, манбаат, эркинликларини ҳимоя қилиш, ижтимоий-иктисодий, ижтимоий-сиёсий, экологик муаммоларни ҳал этиш, соғлом турмуш тарзини тарғиб этиш, тарихий-маданий ёдгорликларни ҳимоя қилиш, маънавий анъаналарни ва урф-одатларни, миллӣ маданий ўзига хосликни сақлаб қолиш ва уни ривожлантириш, хайрия фаолиятини тараққий эттиришда нодавлат ташкилотлари билан давлат ташкилотларининг ўзаро ҳамкорлик муносабатларида кўриш мумкин. Шунинг билан бир қаторда фуқаролик жамияти институтларининг янада ривожланишига эришиш, амалга оширилаётган ислоҳотларнинг очиқ-ошкоралиги ва самарадорлигини таъминлашда, уларнинг ролини кучайтиришда ижтимоий шериклик мухим аҳамият касб этади.

Бугунги кунда Ўзбекистонда аҳолининг барча қатламлари манбаатини тенг ифода этиш мақсадида фуқаролик жамияти институтлари моддий-техник базасини мустаҳкамлаш ва эркин фаолият юритишилари учун асослар яратилгани натижасида мамлакатимизда фаолият олиб бораётган фуқаролик жамияти институтлари сони ҳам тобора ошиб бормоқда. Ўз навбатида, учинчи сектор, дея номланаётган ушбу тузилмаларнинг давлат идоралари фаолияти устидан таъсирчан жамоатчилик назоратини амалга оширишдаги роли ортиб бораётганини ҳам алоҳида таъкидлаш жоиз.

Шунингдек, фуқароларни иш билан таъминлаш, бандликка кўмаклашиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни янада ривожлантириш, ахолининг хуқукий билими ва маданиятини ошириш, қўп асрлик анъанавий маънавий-ахлоқий ҳамда тарихий-маданий қадриятларни тиклаш ҳамда сақлаш каби соҳаларда ижтимоий шерикликнинг амалга оширилиши ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, бугунги кунда жамиятда ижтимоий шериклик тизимини янада такомиллаштириш ва уни ҳаётга самарали татбиқ этиш бўйича давлат органлари ва фуқаролик жамиятининг институтлари ўртасидаги ҳамкорликни янада кучайтириш бу соҳадаги муносабатларни такомиллаштириш бўйича янги имконият ва шарт-шароитларини яратиш, унинг фуқаролар ҳуқуқ ва эркинларини рўёбга чиқарувчи тизим сифатидаги таъсир доирасини янада мустаҳкамлашда муҳим аҳамиятга эга. Масалага бундай ёндошув мамлакатимизда амалга оширилаётган жамиятни модернизациялаш ҳамда мамлакат ҳаётини янада демократлаштириш билан боғлиқ ислоҳотлар муваффақиятини таъминлашга олиб келади.

МАНБАЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б.8.
2. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 51-сон, 660-модда.
3. <http://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/5918-ижтимоий-шериклик---кўп-киррали-ва-самарали-институт>
4. Латипов Б.И. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ҳамкорлигини такомиллаштириш. –Б.17 .<http://dba.uz/wp-content/uploads/2019/06/Latipov-1.pdf>
5. A Muminov, O Muminov, S Norov Social partnership in uzbekistan: Журнал: Status and prospects - International Journal of Scientific and Technology ..., 2020, №2, Р. 5876-5878

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада ижтимоий шериклик муносабатларини мустаҳкамлашда давлат ва фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ҳамкорлиги, ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: давлат, давлат органлари, фуқаролик жамияти, фуқаролик жамияти институтлари, ижтимоий шериклик, ҳамкорлик.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется сотрудничество государства и институтов гражданского общества в укреплении отношений социального партнерства, его особенности.

Ключевые слова: государство, государственные органы, гражданское общество, институты гражданского общества, социальное партнерство, сотрудничество.

RESUME:

This article analyzes the mutual cooperation of state and civil society institutions in strengthening social partnership relations, and their specific features.

Key words: state, state bodies, civil society, civil society institutions, social partnership, cooperation.

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИДА САМАРАЛИ ФАОЛИЯТНИ ЙЎЛГА ҚЎЙИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИНСТИТУЦИОНАЛ ОМИЛЛАРИ

Юсубов Ж.К. -
ЎзМУ доценти,
Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори

Хар бир мамлакатнинг мустакил тараққиёт йўли ва унинг тараққий этиш истиқболи шу мамлакатда амалга ошириб келинаётган кадрлар сиёсатига бевосита боғлиқ. Давлат фуқаролик хизмати кадрлари сиёсатини самарали олиб бориш, унинг тизимини ташкил этиш вазифалари ижтимоий, сиёсий-иктисодий, маънавий-психологик омилларга кўпроқ урғу беришни тақозо этади. Давлат фуқаролик хизмати соҳасидаги кадрлар сиёсати масалага комплекс тарзда ёндашувни талаб қиласди. Мазкур муаммонинг турли жиҳатлари мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев фаолиятининг дастлабки нутқларида атрофлича тушунтириб берилган. Бу борада амалга оширилган ислоҳотлардан бири раҳбар кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимининг янгича йўлга қўйилганидир.[2.] Уларда масаланинг мазмун-моҳиятига илмий ёндашиш, бундаги муаммоларнинг барча қирраларини инобатга олиш ниҳоятда масъулиятли ва мураккаб эканига эътибор қаратилади. Ушбу соҳадаги мумаммоларнинг мураккаблиги бундай тизимни ташкил этишда намоён бўлса, иккинчидан, унга амал қилиш ва амалий самарадорлигини мустаҳкамлаш масаласи ҳисобланади.

Давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёев мазкур масалада шахсий жавобгарлик омилининг катта аҳамиятга эга эканлигини алоҳида белгилаб берган. Яъни,

Биринчи – давлат раҳбари – Президентдан бошлаб барча бўғиндаги раҳбарларнинг якуний натижалар учун шахсий жавобгарлиги.

Иккинчи – ҳамма соҳада аниқ тартиб ва қаттиқ интизомни таъминлашимиз даркор. Яна бир бор таъкидлайман, ишни биргаликда бажарамиз, натижа учун эса ҳар биримиз шахсан жавоб берамиз[3. 51-бет].

Юридик адабиётларда давлат фуқаролик хизмати мазмун-моҳиятини очиб беришга қаратилган бир неча ўзига хос хусусиятлар ҳам назарда тутилган. Жумладан, Ю.А.Дмитриев фикрича, давлат фуқаролик хизмати қўйидаги ўзига хос хусусиятларга қараб бошқа меҳнат фаолиятидан ажралиб туради:

1) давлат хизматининг профессионал фаолият эканлиги. Давлат хизмати давлат хизматчисининг асосий фаолият йўналиши ҳисобланади. Давлат хизматини ўриндошлик асосида амалга оширишга йўл қўйилмайди. Давлат хизматчилари қонун хужжатлари билан назарда тутилган тартибда бошқа ҳақ тўланадиган меҳнат фаолияти билан шуғулланишлари мумкин. Давлат хизматчилари томонидан амалга ошириладиган бошқа меҳнат фаолиятининг чекланиши давлат хизмат мажбуриятларини юқори даражада амалга оширилишини таъминлайди;

2) компетентлик. Давлат хизматчилари эгаллаб турган лавозими (mansabiga), давлат хизмат мажбуриятларини амалга оширишда, иш тажрибаси ва савияси нуқтаи назаридан мос бўлиши керак;

3) давлат хизматининг олдиндан аниқ белгиланган давлат хизмати лавозим (mansab)лари доирасида амалга оширилиши. Давлат хизматчиси деагн мақом айнан шахснинг давлат хизматидаги аниқ бир лавозим (mansab)ни эгаллаганидан сўнг юзага келади. Давлат хизмати лавозим (mansab)лари давлат томонидан норматив ҳужжатларда (давлат хизмати лавозимлари реестрида) аниқ кўрсатиб қўйилади. Айнан ман шу лавозим (mansab)ларни эгаллаш натижасида давлат-хизмат муносабатлари юзага келади. Айрим холларда давлат, аввал давлат хизматчиси мақомига эга бўлган ва ҳозирги кунда давлат хизмати лавозими (mansabinini) эгалламаган шахсларга давлат хизматчиси мақомини сақлаб қолишга имконият бериши мумкин (масалан, давлат хизматчилари захираси). Лекин давлат хизматига киришда, албаттга, давлат хизмати лавозими (mansab)га тайинланган бўлиши керак;

4) давлат хизматининг давлат органларида амалга оширилиши. Умумий қоидага кўра, давлат хизмати – бу давлат лавозими (мансаби)ни эгаллаб турган ҳолда давлат органларининг вазифаларини ва функцияларини амалга оширишга қаратилган касбий фаолиятдир. Давлат лавозими (мансаби) давлат органларида жорий этилади. Айрим ҳолларда давлат хизмати муносабатлари давлат оғанларидан ташқари бўлган давлат ташкилотларида ҳам (масалан, давлат унитар корхонаси, давлат муассасасида) намоён бўлиши мумкин. Бундан ташқари, давлат органларида фаолият кўрсатувчи барча фуқаролар ҳам давлат хизматчиси ҳисобланмайди. Ходимларнинг айримлари билан меҳнат шартномаси тузилади ва уларга нисбатан давлат хизматчиси мақоми татбиқ этилмайди;

5) давлат хизматига ҳақ тўлаш давлат бюджети ҳисобидан амалга оширилиши. Давлат аппарати ҳаражатларини қоплаш, давлат хизматчилари меҳнатига ҳақ тўлаш давлат бюджети тўғрисидаги қонунларда назарда тутилади[3.].

Шу сабабли бошқарув соҳасида самарали давлат кадрлар сиёсатини олиб бориш, давлат фуқаролик хизматчисининг нуфузи даражасини аниқлаш учун улар ахлоқий баҳоланиши ва айниқса, ходим салбий характеристерини аниқлаб бера оладиган мезонларни илмий манбалардан тўплаш таснифлаш ҳамда реал шароитда қўллаш технологияларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эгадир.

Манбаларга кўра давлат хизматининг асосий функциялари жумласига қўйидагиларни киритиш мумкин: давлат хизматини ахборот билан таъминлаш; давлат хизмати тизимининг истиқболини белгилиш; режалаштириш; ташкил этиш; фармойиш бериш; раҳбарлик қилиш; мувофиқлаштириш; контролқилиш; тартибга солиш; ҳисобга олиш функцияларидир[4. 26-28 бетлар].

Раҳбарлик лавозимларида фаолият юритаётган давлат фуқаролик хизматчиси муваффақиятга эришиши учун яхши натижада берувчи қўйидаги муносабат технологияларига доимо эътибор қартиши зарур:

1. Раҳбар одамларга нима учун ўзи билан келишишлари лозимлигини тушунтириши, ўз фикр-мулоҳазалари, хатти-харакатлари билан одамларни шундай ўйлашга ўргата олиши керак.

2. Раҳбар одамларни бирор ишга ихтиёрий йўналтиришда мазкур ишнинг натижаси қандай бўлишини аввалдан билиб, уни тушунтиришдан бошлаши лозим.

Давлат фуқаролик хизматида фаолият юритаётган кадрлар шундай иш тутиши керакки, натижада ўнта одамдан тўққизтасида унга нисбатан яхши муносабат уйғониши керак. Бунинг учун давлат фуқаролик хизмати кадрлари қўйидаги имиж талабларини ёдда тутиши керак:

- биринчидан, ҳар бир учрашувнинг ilk лаҳзаси учрашув натижасини ижобий ёки салбий ҳал этиши мумкин. Бунда раҳбарнинг кўз қараси, юз ифодаси, сўз оҳангি, муносабат рухияти, одоб-ахлоқи, ўзини тутиши, кейиниш маданияти, ташқи шакл-шамойили асосий рол ўйнайди;

- иккинчидан, инсон хулқ-атворининг иккинчи жиҳати - одамлар бошқаларнинг хатти-харакатларига доимо ижтимоий-рухий хадик, алданиб қолмаслик туйғуси билан ёндашадилар. Бошқарувчи одамларга ўз қизиқишини эмас, ўзининг одамларга қизиқишини кўрсата олиши керак. Одамлар шахснинг ўз манфаатлари билан боғлиқ равища иш олиб бораётганини тушуниб есалар унга эргашмайдилар, ундан ўзларини олиб қочадилар, аксинча, одамлар бошқарувчининг ўзлари учун ишлаётганини сезсалар унга эргашадилар.

Узоқ йиллардан бери кутилган 2022 йил 8 августда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонуни(10 боб, 64 та модда)нинг 9-боб 53-моддасига мувофиқ, давлат фуқаролик хизматчисини ижтимоий жиҳатдан химоя қилиш давлат томонидан қўйидагилар орқали таъминланиши белгилаб берилган:

- меҳнат таътили ва ижтимоий таътиллар бериш;
- хаёти ва соғлиғини мажбурий суғурта қилиш;
- хаётига, соғлиғига ва мол-мулкига етказилган заарнинг ўрнини қоплаш;
- давлат пенсия таъминоти.

Давлат фуқаролик хизматчисига қуйидаги ижтимоий ҳимоя чоралари кафолатланади:

– тиббий хизмат күрсатыш;

– ротация тартибида бошқа давлат фуқаролик хизмати лавозимиға ўтказилиши билан боғлиқ харажатларнинг, шу жумладан яшаш ва транспорт харажатларининг ўрнини қоплаш;

– хизмат уй-жойлари, хизмат транспорти билан ёки уй-жой ва транспорт харажатлари учун пулли компенсация билан қонунчиликда белгиланган ҳолларда ҳамда тартибида таъминлаш.

Давлат фуқаролик хизматчисига қонунчиликка мувофиқ бошқа ижтимоий ҳимоя чоралари ҳам қўлланилиши мумкин[1].

Кадрлар захирасидаги раҳбарликка номзодлар ҳали бошқарув лавозимини эгалламасдан аввал ўзларида раҳбарга оид сифат ва малакаларни шакллантиришига эришиш пировард натижада уларнинг орасидан замонавий талабларга жавоб бера оладиган кадрларни танлаб олишга имконият яратади. Бу ўз навбатида уларнинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, давлат ҳокимияти органларини демократик қоидалар асосида шакллантиришни назарда тутади. Ушбу принциплар рўёбга чиқиши учун, давлат фуқаролик хизматида самарали фаолиятни тўғри йўлга қўйиш учун муҳим бўлган Қонун қабул қилиниб, унинг 4-моддасига мувофиқ қуйидаги асосий тушунчалар мазмуни очиб берилган:

давлат органи - Давлат фуқаролик хизмати татбиқ қилинадиган давлат органлари ва ташкилотлари рўйхатига киритилган давлат ҳокимият ваколатларига эга бўлган ташкилий жиҳатдан алоҳида тузилма;

давлат фуқаролик хизмати - давлат фуқаролик хизматининг бир тури бўлиб, Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг давлат фуқаролик хизмати лавозимларидағи давлат органлари ваколатлари амалга оширилишини таъминлашга доир ҳақ тўланадиган касбий фаолиятини ифодалайди;

давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенцияси - давлат органининг ваколатларини лозим даражада амалга ошириш учун зарур бўлган билимлар, малакалар ва кўнкималар мажмуи;

давлат фуқаролик хизмати лавозими - давлат органининг ваколатларини амалга ошириш учун Давлат фуқаролик хизмати лавозимларининг давлат реестрига киритилган лавозим;

Давлат фуқаролик хизматчиларининг одоб-ахлоқ қоидалари - давлат фуқаролик хизматчилари томонидан риоя этилиши шарт бўлган одоб-ахлоқ нормалари мажмуи;

малака талаблари - давлат фуқаролик хизматининг муайян малака даражаси берилиши ва (ёки) давлат фуқаролик хизматининг муайян лавозимини эгаллаш учун талабгор бўлаётган номзодларга нисбатан давлат органи томонидан белгиланадиган, иш тажрибасига ва касбий компетенциясига доир талаблар[1].

Давлат фуқаролик хизмати соҳасида фаолият кўрсатувчи кадрлар учун юқори давлат органлари ва идоралари томонидан қабул қилинадиган қарорлар, ўзлари хизмат қиласидан ташкилот раҳбарлари ва кенгаши қарорлари, ташкилот бош раҳбарлари учун эса ана шу ташкилот бўйсунувчи идоралар бош раҳбарлари ва кенгаши қарорлари ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Яъни раҳбарлик ва жавобгарлик бошқарув иерархияси талаблари доирасида амалга оширилади. Бироқ, бу ишга турли тоифадаги раҳбарлар аралашмасликлари, кадрлар тўғрисидаги маълумотлар банкини тўлдиришга эса ташкилот кадрлар бўлимлари жалб этилиши ўринли бўлади.

Бизнинг амалга оширган тадқиқотларимиз асосидаги хulosamiz бўйича 5 восита давлат фуқаролик хизматидаги кадрларга нисбатан яхши таассурот уйғотиши мумкин: самимий сухбат куриш; ходим кўнглини кўтариш; ходимни ишонтира олиш; самимий танқид қила олиш; самимий мақтай олиш.

Давлат фуқаролик хизматида одамларга самарали таъсир кўрсатиш фаолиятнинг бош мақсадини ташкил этади. Бирор кишини муайян ишни қилишга ундаш ва натижаларга

эришиш учун биринчи навбатда унинг учун керакли бўлган манфаатли омил, мотив, сабаб топилиши лозимки, токи ходим у кўзланган мақсадга мувофиқ ҳаракат қилсин. Инсонни тўғри яшашга ўргатиш жараёни уни тўғри мақсадларга ундаш, бунинг учун эса бошқарувчи ҳар бир шахсда ўзи тўғрисида тўғри тасаввур уйфота олиши, тўғри намуна кўрсата олиши билан амалга оширилади. Шунинг учун ҳам раҳбар мулоқот олиб бориш малакасига эга бўлиши, одамларни дикқат билан эшлиши, кузатиши, албатта одилоналик билан ҳаракат қилиши керак.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августдаги “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ти ЎРҚ-788-сон Қонуни, <https://lex.uz/docs/6145972>.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон. 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг қундалик қоидаси бўлиши керак. –Т.: Ўзбекистон, 2017. 51-бет.
4. Э.Т.Хожиев, Г.С.Исмаилова, М.А.Рахимова. Давлат хизмати. Ўқув қўлланма. –Т.: Baktria press, 2015, 26-28 бетлар.
5. Дмитриев Ю.А. Полянский И.А. Трофимов Е.В. Административное право Российской Федерации: Учебник для юридических вузов. –Система ГАРАНТ, 2008.

РЕЗЮМЕ:

Мақолада раҳбарликнинг умумэътироф этилган айrim принциплари, раҳбарлик хусусиятига оид технологиялар ва давлат фуқаролик хизматида самарали муносабатни тўғри йўлга қўйиш юзасидан фикр-мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: кадр, давлат бошқаруви, давлат фуқаролик хизмати, раҳбар, бошқарув тизими.

РЕЗЮМЕ:

В статье изложены рассуждения о некоторых общепризнанных принципах руководства, об особенностях технологий для руководителей, правилах применения эффективного управления кадрами.

Ключевые слова: кадры, государственное управление, государственная гражданская служба, руководитель, система управления.

RESUME:

Opinions about the principles of officials recognized by the world, technologies on officials' features and making effective relationship in proper way in state service are given in this article.

Key words: personnel, public administration, state civil service, head, control system.

ИНТУИЦИЯ ВА ТАФАККУРНИНГ БАШОРАТЧИЛИК ФУНКЦИЯСИ

Надирова З.П. -
ЎзМУ докторантни,
PhD, доцент

Одатда "ички туйғу" ёки олтинчи туйғу деб аталаған интуиция билиш жараёнида сирли ва ҳаяжонли ҳодисалардан бири сифатида ўрганилади. Кундалик ҳаётда кишилар интуицияни оддий тасодиф ёки омад деб билишсада, бироқ башоратчилик қобилиятига эга бўлишда ўзига хос мунтазамлилик хусусияти устуворлик қилади, яъни олимнинг муайян соҳада мунтазам равиша тадқиқот иши олиб бориши назарда тутилади. Бундай кишилар ўз тадқиқот фаолиятида башоратчилик қобилиятига эга бўлишликлари учун интуитив сезгисига таянадилар.

Интуиция тадқиқотчи олимнинг онгли ва мантиқий фикрлашидан кейин содир бўладиган мураккаб билиш жараёнидир. Интуициянинг содир бўлиши олимнинг ўтмишдаги тажрибалари, ҳис-туйғулари ва атрофидаги содир бўлаётган воқеаларни кузатиш жараёнида фикру ҳаёли муайян муаммога қаратилгани, туртки ёки нозик сигналлар асосида, айнан мантиқий тахлилдан ташқарида рўй берадиган «инсайт»[1] кўринишидаги билишнинг юқори ҳолатидир. Бундан ташқари, интуиция кўпинча кишида тезкор қарор қабул қилишда бошқариладиган "туйғу" ёки нозик сезги сифатида намоён бўлади.

Интуиция муаммоси узоқ вақтдан бери илоҳий ёки гайритабии хусусиятлар билан боғлаб тушинилган бўлса-да, бугунги давр илмий тадқиқотлар унинг неврологик асосларини ёритиб беришда давом этмоқда. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, интуиция турли тасвир ва нақшларни тезда таниб олиш ва қўплаб сенсорли маълумотларни бирлаштириш орқали ишлайди, яъни «мия фаолиятида ўзаро нейронларнинг ассоциатив боғлиқлиги»[2], хотирада маълумотларнинг тасвир воситасида сақланиб қолиши юқоридаги фикрни асослайди. Айни пайтда интуиция олимнинг кўп йиллик тажрибаси давомида тўпланган юқори малакага эгалиги борган сари олим миясида муаммо ҳақидаги барча маълумотларни онгиз даражада қайта ишлайди, бу эса аниқ прогнозларга олиб келади.

Интуиция хар бир тадқиқотчи олимда турли кўринишларда учраши мумкин. Баъзиларда ҳис-туйғуларни кучайтиришни ва ички овозни тинглаш орқали, баъзиларда туш кўриш ҳолатида, айримларда эса ҳаёл суриш пайтида янги гоянинг кутилмагандан пайдо бўлиши олимлар ҳаётида кузатиш мумкин.

Исаак Ньютон ва тортишиш назарияси ўртасидаги боғлиқлик. Бир неча йил физика соҳада изланиш олиб борган И.Ньютон «..бир куни дўсти билан боғда ўзаро сухбатлашиб ўтирганда, нима учун олма ён томонга бурилиш ўрнига тўғридан-тўғри пастга тушиш ҳодисаси қизиқтириб қолади.»[3] У бу ҳодисанинг ҳайратланарли ҳолатининг сабабини дўстидан бот бот сўрай бошлади. Бироқ дўсти орқали олган умумий жавобга Ньютон қониқиши хиссини туймайди. Ушбу қизиқ ва ҳайратга бой ҳодиса олим миясида турли тасвирлар тарзида ўзига хос ривожлана бошлайди. Нихоят Ньютон нафақат олма, балки бутун жисмлар ерга ўзаро тортишиши мумкинлиги ҳақида янги бир фикрга келади, мазкур фикрни кенгроқ тушуниш ва тушунтириш жараёнида у ҳақиқатдан ҳам физика фанида катта бурилиш ясади, “Бутун олам тортишиш қонун”ни олиб киради.

Физика оламида сайр қилишни хўш кўрувчи Мари Кьюри Польша ва француз экспериментал олими, ўқитувчи, жамоат арбоби сифатида танилган. У Париж университетида биринчи аёл ўқитувчи бўлиб ишлай олган. Мари Кьюри ва радиоактив нур ўртасидаги боғлиқликда ҳам интуитив ҳодисани кузатиш мумкин. «Қоронғу хонада яшил-сариқ рангда ёниб турувчи ойнани бўяшда уран, газ лампаларини ёқишида торийдан фойдаланилган. Айнан Мари Кьюри уран ва торийнинг хоссаларини янги кузатишлари натижасида радиоактивлик ва иккита янги радиоактив элемент: полоний ва радий кашф этилишига эришган»[4]. 1903 йилда Мари ва унинг эри Пьер Кьюри физика бўйича Нобель мукофотига сазовор бўлишиди.

Кейинчалик Мари Кьюри полоний ва радийни кашф этгани учун ўзининг Нобель мукофотини олди.

Архимед ва сузувилилк принципининг ўзаро боғлиқлиги. Архимед ва ванна тўла сув. Бу кутилмаган кашфиёт бугунги кунда гидростатика ва аэростатиканинг ривожланишида Архимеднинг ўрни катта. Суюқлик ёки газга ботирилган ҳар қандай жисмга шу жисм сиқиб чиқарган суюқлик ёки газ оғирлигига teng гидро, аэростатик «кўтариш кучи» таъсир қилишини ифодалайди. Бу куч жисм сиртига суюқлик ёки газ томонидан таъсир қилувчи босим кучларининг teng таъсир этувчиси бўлиб, юқорига тик йўналади. Агар жисмнинг оғирлиги «кўтариш кучи»дан катта бўлса, жисм чўқади, кичик бўлса чўкмайди, teng бўлса, жисм суюқлик ёки газ ҳажмининг исталган жойида бўла олади. Бу қонун бир жинсли бўлмаган суюқлик ва газларга ҳам тааллуклидир.

Америкалик мұхандис ва электроника физиги, электротехника ва радиотехника соҳасидаги ихтирочи электротехника ривожига катта ҳисса қўшган олим Николла Тесла эди. У ўзгарувчан ток қурилмалари, кўп фазали тизимлар, синхрон генератор ва асинхрон электр моторини яратишга қўшган ҳиссаси билан машҳур бўлиб, саноат инқилобининг иккинчи босқичига эришишга имкон берди. У эфирнинг мавжудлиги назарияси тарафдори сифатида ҳам танилган - технологияда қўлланилиши мумкин бўлган материянинг маҳсус шакли сифатида эфир мавжудлигини кўрсатишга қаратилган кўплаб тажрибалари эгаси сифатида танилган.

Александр Флеминг - британиялик микробиолог. «У лизозимни топди ва биринчи Пенициллиум нотатум моғоридан пенициллинни ажратиб олди - тарихан биринчи антибиотикни кашф этди»[5]. Иккала кашфиёт ҳам 1920-йилларда содир бўлган ва асосан тасодифий эди. Флеминг бактерия солинган Петри идишига сепди ва бир неча кундан сўнг шилимшиқ суртилган жойларда бактериялар нобуд бўлганини аниқлади. Лизозим ҳақидаги биринчи мақола 1922 йилда нашр этилган.

Стив Жобс томонидан “iPhone” нинг яратилиши. Жобснинг дастлабки ҳаёли ва мақсади одамлар ўзлари учун қулай интерфейс ва тўлиқ интернет имкониятларига эга смартфонни исташлари туфайли аниқ бўлди. Бу интуитив ички овоз мобил телефон саноатида инқилоб ясади. Жобс мулоқот қилиш ва маълумотларга киришнинг янгича усувларини яратди iPhoneнинг ривожланишига туртки бўлди.

Интуициянинг ажойиб кучи инсонга соғ мантиқ ва рационалликдан кўра тезкор қарор қабул қилишда устувор аҳамиятга эга. Кишиларнинг шахсий ҳаёти ёки касбий фаолиятидан қатъий назар, интуиция инсонга яхшироқ танлов қилишга, чамалаш, тахмин қилиш ва башорат қилишга ёрдам беради.

Интуитив қобилиятни ривожлантирадиган айрим амалиётларни қўйидагича таҳлил қилиш мумкин.

а) бугунги тезкор ахборот алмашинуви ривожланаётган бир пайтда кишининг ўз оламида хотиржамликни яратса олиши, ахборотлар оқимидан ўзини чеклай олиши, ўз ўзини англаш учун ички имкониятлардан фойдаланиш;

б) кундалик ҳаётда қарорлар қабул қилишда нафақат ақлий энергия, балки интуиция, сезгиларга ишонишни шакллантириш;

в) хотира мустаҳкамлаш кўпгина муваффақиятлар калити хисоблангани боис, хотира учун асосий тил тасвирлар билан ишлашни йўлга қўйиш; тасвирлар, тасаввур ва визуализация;

г) янги ғоялар ва мақсадларни аниқлашда тасвирий ифода ва ёзишма ишларини йўлга қўйиш, тана ва ақл уйғунлигини таъминлаган ҳолда ижодий ишлар билан шуғулланиш.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, интуиция бугунги куннинг долзарб мавзусига айланиб бормоқда, сабаби ҳар дақиқа янги ахборотларнинг оқимининг кириб келиши ва ёшларда ахборот қуршовида қолиб кетиш хавфи ортмоқда. Бу эса нафақат ақлий саёзлик, балки руҳан бекарорлик ҳолатини келтириб чиқаради. Ахборот қуршовида қолган инсонда мақсаднинг аниқлиги сустлашади, тана ҳаракацизлигининг мияга салбий таъсири натижасида кўп ҳолларда муаммо ечими учун ақлий энергиядан эмас, балки тайёр интернет тармоқлари

орқали изланишга мойиллик ортади. Шу боис, илмий ижод, ижоднинг барча турлари инсонда ички интуитив қобилиятни оширишга, янги ғояларни кашф этишга, жисмонан ва ақлан меҳнат қилишга ундайди. Доимий илмий изланиш ва мантиқий ва ақлий мушоҳадалар билан банд бўлган тадқиқотчи олимда ўз соҳасига доир башоратчилик маҳорати шаклланиши, шубҳасиз.

АДАБИЁТЛАР:

1. Oxford English Dictionary Online. www.oup.com/online/freetrials
2. John Medina. Brain rules for work. Pear press. 2022. P.11.
3. Михаил Михайлович Филиппов. Исаак Ньютон. Его жизнь и научная деятельность. Изд., Public Domain 2008. С.43.
4. Николай Алов: Мария Кьюри. Подвиг длиною в жизнь. Изд., Бослен, 2013 г. С.131.
5. Alexander Fleming. Chemotherapy: Yesterday, Today and Tomorrow: The Linacre Lecture 1946

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада интуиция, унинг моҳияти, олимлар ҳаётида интуитив қобилиятларнинг ривожи, интуитив-синергетик тафаккур, унинг хусусиятлари ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: билиш, илмий билиш, интуитив билиш, илмий тафаккур.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье говорится об интуиции, ее сущности, развитии интуитивных способностей в жизни ученых, интуитивно-синергетическом мышлении и ее особенностях.

Ключевые слова: знание, научное знание, интуитивное знание, научное мышление.

RESUME:

This article talks about intuition, its essence, the development of intuitive abilities in the life of scientists, intuitive-synergistic thinking, and its features.

Key words: cognition, scientific cognition, intuitive cognition, scientific thinking.

Аннотация

O'ZBEKISTONDA SAVDONI YENGILLASHTIRISHDA XALQARO BOJXONA STANDARTLARINING AHAMIYATI

Shermatova M.Sh. -
*Bojxona instituti o'qituvchisi,
 Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Globalashuv va iqtisodiy integratsiya tufayli xalqaro bojxona tashkilotlari savdoni yengillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bojxona tartib-taomillarini soddallashtirish biznes hamjamiyatiga ham, hukumatga ham foyda keltiradi. Xalqaro hujjalarda belgilangan standartlarning milliy qonunchilikka joriy etilishi savdoni osonlashtirishga xizmat qilmoqda. 2020-yil 21-dekabrda "Bojxona tartib-taomillarini soddallashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida"gi xalqaro konvensiyaga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risidagi qonun orqali konvensiyaning ko'plab standartlari joriy etila boshlandi. Ushbu konvensiya rasman qabul qilinishidan avval ham O'zbekistonda bojxona audit, risklarni boshqarish tizimi, vakolatli xo'jalik operatori, deklaratsiyadan oldin, yagona darcha kabi ko'plab bojxona institutlari joriy etilgan. Xorijiy tajriba asosida xalqaro bojxona standartlarini joriy etish aynan Kiotoning konvensiyaga qo'shilishi va Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish chora-tadbirlarini jadallashtirishdan so'ng yangi bosqichga ko'tarildi.

M.Ansel (1981) fikricha, chet el tajribasi advokatlarga yangi g'oyalarni kashf etish, o'z davlatining huquqiy tizimini yaxshiroq bilish, boshqa tizimlar bilan solishtirish orqali uning o'ziga xos tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Xalqaro standartlar va xorijiy amaliyotning ahamiyati G.Valantiyeyus, S.Xalipov, S.Mozer va M.Qodirqulov, L.Melnikovova va S.Voronin, V.Zasko, A.Raykova, S. asarlarida qayd etilgan. Perepolkin va boshqalar. Bojxona sohasini xalqaro tajriba va standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramay, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekistonning urf-odatlariga oid tadqiqotlar kam.

Savdoni osonlashtirish va qog'ozsiz odalar zamonaviy urf-odatlar rivojlanishining belgilaridir. Savdoni osonlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni 3 toifaga bo'lish mumkin:

- amalga oshirilmagan;
- qisman amalga oshirilgan;
- to'liq amalga oshirildi.

Jahon bojxona tashkiloti (JST) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda bojxona tartib-taomillari bo'yicha jahon standarti hisoblangan JSTning qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasining Bosh ilovasining 63 foizi va maxsus ilovalarining 83 foizi bajarilgan. $(63\% + 83\%) / 2 = 73\%$ O'zbekiston hali ham qolgan standartlarni joriy etish ustida ishlar qilishga intiladi. Ayni paytda mamlakatimiz bojxona ma'muriyatida tartib va amaliyotni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning bojxona islohoti borasidagi sa'y-harakatlariga yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin bo'lgan qator xalqaro standartlar va asoslar mavjud. Jahon savdo tashkilotining (JST) bojxona bahosi to'g'risidagi bitimi, bojxona tartib-qoidalarini soddallashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasi, Jahon bojxona tashkilotining (JST) Xavfsizlik va yengillashtirish bo'yicha SAFE standartlari asosi shular jumlasidandir. Xalqaro hamkorlik tendentsiyalaridan kelib chiqib, mamlakatimiz oldida ikkita asosiy xalqaro huquqiy hujjalarni amalga oshirish turibdi. Ulardan biri O'zbekiston a'zo bo'lgan qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasi bo'lsa, ikkinchisi hali qo'shilmagan Savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitimdir.

O'zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi davlat hisoblanadi va hozirda rejada ko'zda tutilgan 108 ta chora-tadbirlarning 70 foizi bajarilgan. Bojxona islohoti O'zbekiston hukumatining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi, chunki u o'zining savdo raqobatbardoshligini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga intiladi. Ayni paytda mamlakatimiz bojxona ma'muriyatida tartib va amaliyotni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning bojxona islohoti borasidagi sa'y-harakatlariga yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin bo'lgan qator xalqaro standartlar va asoslar mavjud. Jahon savdo tashkilotining (JST) bojxona bahosi to'g'risidagi bitimi, bojxona tartib-qoidalarini soddallashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasi, Jahon bojxona tashkilotining (JST) Xavfsizlik va yengillashtirish bo'yicha SAFE standartlari asosi shular jumlasidandir. Xalqaro hamkorlik tendentsiyalaridan kelib chiqib, mamlakatimiz oldida ikkita asosiy xalqaro huquqiy hujjalarni amalga oshirish turibdi. Ulardan biri O'zbekiston a'zo bo'lgan qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasi bo'lsa, ikkinchisi hali qo'shilmagan Savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitimdir.

Ushbu maqolaning qolgan qismi quyidagicha tuzilgan. 2-bo'lim adabiyotlarni tahlil qilish jarayonini tavsiflaydi va faktlar va statistik ma'lumotlarni beradi. 3-bo'limda tadqiqot metodologiyasi, ushbu tadqiqotning xulosalari keltirilgan.

Xalqaro bojxona standartlarini shakllantirish tendentsiyasi. Xalqaro maydonda bojxona masalalarini tartibga soluvchi normalardagi birinchi mezonlarning namoyon bo'lishini ikki bosqichda o'rghanishimiz mumkin:

I. GATT va Bojxona hamkorlik kengashi doirasidagi muzokaralar va hujjatlar

II. Jahon savdo tashkiloti va Jahon bojxona tashkilotining xalqaro standartlari

S.Denisenko birinchi bojxona standartlari sifatida 1973-yil 18-mayda Yevropa Ittifoqi tomonidan Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konventsyaning (Kioto konventsiyasi bilan yangilangan) imzolanishi ta'kidladi. Evropa Ittifoqida bojxona tartiblarini uyg'unlashtirish va soddalashtirish. A.Kojankov, O.Bobrova va E.Biserovalar o'z maqolalarida JSTning Savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitimining (bundan buyon matnda JST deb yuritiladi) qabul qilinishi bojxona nazoratini xalqaro huquqiy tartibga solishni yangi bosqichga olib chiqdi, deb ta'kidladilar. Ya'ni, xalqaro bojxona standartlarini yaratish uchun asos ekanligini tan oladilar. Biroq, M.Qodirqulov va S.Mozer xalqaro standartlar deganda faqat standart normalarga ega hujjatlar emas, balki Jahon bojxona tashkiloti tomonidan qabul qilingan barcha asbob va vositalar tushunilishi kerak, deb ta'riflaydilar. S.Xalipov o'z ilmiy faoliyatida milliy bojxona qonunchiligiga tatbiq etilishi lozim bo'lgan bojxona boshqaruvidagi xalqaro standartlarni o'rghanish bilan cheklanadi. Uning fikricha, Rossiya Federatsiyasi uchun xalqaro standartlarning manbai Kioto konventsiyasi va uning Bosh ilovasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan standartlardir. Shuning uchun bojxona sohasidagi munosabatlarga oid boshqa xalqaro hujjatlarda bojxona qonunchiligining standart qoidalari mavjud emas. S.Perepolkinning fikriga ko'ra, milliy va xalqaro miqyosda mustahkamlangan "standartlar" ("xalqaro standartlar") tushunchasini og'zaki yorliqlash uchun turli atamalardan foydalanish mavjud; xalqaro bojxona huquqining «standartlari», «tamoyillari» va «normalari» atamalarini chegaralash bo'yicha qarashlarda birlik yo'q, noaniqlik ularning yuridik kuchini ko'rish va hokazo. A.Raykova xalqaro bojxona standartlari xalqaro miqyosda universal va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar doirasida yaratilgani, lekin asosan hamkorlik qiluvchi mamlakatlarning mintaqaviy tashabbuslari doirasida qo'llanilishini ta'kidladi. Xorijiy adabiyotlarga murojaat qilsak, Gediminas Valantieus "Yevropa Ittifoqida bojxonani huquqiy tartibga solish muammolari, Rossiya va Xitoy xalqaro savdosi: 2010 yildan Litvaning huquqiy tahlilida", Endryu Greynger "Bojxona va savdoning rivojlanishi: dan" kabi tadqiqotlar olib borganligini ko'ramiz. Amaliyot kontseptsiyasi", Daniel Kurzi "Yevropa Ittifoqi standartlarini xalqaro uyg'unlashtirish: rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan import va eksportga ta'siri". Shuningdek, bojxona qonunchiligining huquqiy hujjatlari davlat yoki tashkilot savdosini osonlashtirishga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida so'z yuritildi. Yuqorida fikrlarga asoslanib, biz xalqaro bojxona standartlari ushbu tadqiqot bo'yicha mustaqil o'zgaruvchi bo'lib, savdoni osonlashtirish bog'liq o'zgaruvchi bo'ladi degan xulosaga keldik.

Xalqaro bojxona standartlari aniq ifodalangan xalqaro hujjat Savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitimdir. Savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitim bojxona standartlaridan iborat bo'lib, ular ushbu standartlarni amalga oshirish darajasiga qarab baholanadi. Biz bunday standartlarni Kioto konventsiyasi, SAFE asos standartlari, Yevropa Ittifoqi standartlarida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, WCO asboblari va asboblari mavjud. Ular shartnoma va shartnomalarda belgilangan standartlarning ishlash mexanizmini belgilaydi. Bularga ko'rsatmalar, to'plamlar, qo'llanmalar, ko'rsatmalar, ma'lumotnomalar, modellar, shablonlar, tez-tez so'raladigan savollar va boshqalar kiradi. Asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar sifatida biz TFA kelishuvi va qayta ko'rib chiqilgan Kioto konventsiyasini o'rGANAMIZ.

2.3 Savdoni osonlashtirish bo'yicha kelishuv va qayta ko'rib chiqilgan Kioto konventsiyasi moderator sifatida.

2013-yilda imzolangan va 2017-yilda kuchga kirgan Savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitim (TFA) JST tashkil etilganidan buyon birinchi ko'p tomonlama bitim hisoblanadi. "Savdoni

osonlashtirish" kontseptsiyasining zamonaviy tushunchasi 2-sonli Tavsiyaga asoslanadi. 4 BMT / CEFAC "Savdoga ko'maklashish milliy organlari". Uning qoidalari ko'ra, "fasilitatsiya" xalqaro savdo operatsiyalari bilan bog'liq rasmiyatchiliklar, tartiblar, hujjatlar va operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Uning maqsadlari soddallashtirish, uyg'unlashtirish va standartlashtirishdir, shuning uchun tranzaktsiyalar avvalgidan ko'ra osonroq, tezroq va tejamkor bo'ladi. Shunday qilib, savdoni osonlashtirishning uchta asosiy elementini ajratib ko'rsatish mumkin, ular orasida:

1) soddallashtirish, ya'ni rasmiyatchiliklar, jarayonlar va protseduralardagi barcha keraksiz elementlar va takrorlanishlarni bartaraf etish jarayoni (15-qism);

2) milliy rasmiyatchiliklar, tartiblar, operatsiyalar va hujjatlarni xalqaro konvensiyalar, standartlar va amaliyotlarga muvofiqlashtirishga qaratilgan uyg'unlashtirish (17-qism);

3) Standartlashtirish, ya'ni savdoga ko'maklashishda amaliyot va protseduralar, hujjatlar va ma'lumotlar uchun xalqaro miqyosda kelishilgan formatlarni ishlab chiqish jarayoni tushuniladi (19-band). (Boris Kormych) ' Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdoni osonlashtirish bo'yicha qo'llanmasida ustunlar sifatida tilga olingan ushbu elementlar: shaffoflik, soddallashtirish, uyg'unlashtirish va standartlashtirish (Birlashgan Millatlar Tashkiloti UNECE 2012). Qavs ichidagi har bir guruh) BMTda maxsus maqomga ega: Eng kam rivojlangan davlatlar (46), dengizga chiqish imkoniyati yo'q rivojlanayotgan mamlakatlar (32) va rivojlanayotgan kichik orol davlatlari (19) (Jaime de Malo, Zakariya Sorgho, Loran Vagner, 2021). O'zbekiston dengizga chiqish imkoniyati yo'q rivojlanayotgan davlat sifatida tashqi savdoni osonlashtirish bo'yicha islohotlarni amalga oshira boshladi. R.Klark va D.Bernardning fikriga ko'ra, standartlashtirish bojaxona ma'muriyati bilan shug'ullanadigan har bir kishi uchun bashoratlilik va izchillikni ta'minlaydi. Savdoni soddallashtiradigan va engillashtiradigan ko'pgina bojaxona hujjatlari standartlarni o'z ichiga oladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz quyidagi xulosaga kelamiz:

H1 Xalqaro bojaxona standartlari savdoni osonlashtirishga ijobiy va sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

H2 JST Savdoni osonlashtirish bo'yicha kelishuv O'zbekiston bojaxona tizimiga ijobiy va sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

JST standartlari, asboblari va vositalari, jumladan, Bojaxona tartib-qoidalari soddallashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasi (RKC) TFAning uyg'unlashtirilgan tarzda amalga oshirilishini, shuningdek, TFA doirasidan tashqarida savdoni osonlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Kioto konvensiyasining yangi tuzilmasi zamonaviy bojaxona tartib-qoidalaring keng qamrovli paketini taqdim etadi, ammo uning mazmunini alohida ko'rib chiqish mumkin.

Konvensianing asosiy qismi (uni qabul qilish va boshqarish tartib-qoidalari tegishli) va Umumiyl ilova Ahdashuvchi Tomonlar uchun majburiydir va bitimning minimal talabini tashkil etadi. Bu bitim ishtirokchilari bo'lgan barcha mamlakatlarda tartiblarni uyg'unlashtirishni ta'minlash uchun zarur. Biroq, har qanday Ahdashuvchi Tomon qaysi alohida ilova yoki boblarni qabul qilishni tanlashi mumkin. Ushbu tuzilma Ahdashuvchi Tomonga majburiyatlarni moslashuvchan tanlash imkonini beradi. Ushbu moslashuvchanlik har bir ma'muriyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi, lekin yakuniy maqsadni umuman yo'qotmasdan Konvensiyaga to'liq va qat'iy rioxha qilishdir.

Tadashi Yashui JSTning qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasiga qo'shilish va uni amalga oshirishning afzalliklarini ta'kidlaydi. Uning tadqiqot natijalariga ko'ra, RKCga qo'shilish bilan bog'liq imtiyozlar quyidagilardir: Xalqaro bojaxona standartlari mavjudligini sertifikatlash, kelajakda standart ishlab chiqarishda ishtirok etish, savdo muzokaralarida afzalliklar va salohiyatni oshirish faoliyatidagi afzalliklar. RKCni amalga oshirish bilan bog'liq imtiyozlarga quyidagilar kiradi: tezroq ozod qilish va savdo xarajatlarini kamaytirish, daromadlarni oshirish, ko'proq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy raqobatbardoshlik, iqtisodiy bo'limgan imtiyozlar va boshqa bojaxona vositalari va vositalarini amalga oshirish uchun asos. S.Armellaning ta'kidlashicha, RKC sanktsiyalar tizimlarini uyg'unlashtirish xalqaro savdoning o'sishini rag'batlantirish va firibgarlikka qarshi kurashda qanday yordam berishi mumkinligini ko'rsatdi. S.Perepolkin va T.Syroidning fikriga ko'ra, Kioto konvensiyasi standartlari talablarini amalga oshirish uning kelishuv tomonlari tomonidan

passiv xatti-harakatlar orqali va faqat ular tomonidan nazarda tutilgan qonuniy taqiqlarga rioya qilish nuqtai nazaridan amalga oshirilishi kerak.

Shu yo‘nalishda biz O‘zbekistonda qayta ko‘rib chiqilgan Kioto konventsiyasini amalga oshirish bojaxona tartib-taomillarini soddalashtirishga, so‘ngra bevosita tashqi savdo o‘sishini oshirishga imkoniyat yaratishni taklif qilamiz. Shuning uchun biz quyidagi gipotezalarni taklif qilamiz:

H3 Qayta ko‘rib chiqilgan Kioto konventsiyasi O‘zbekistonda savdoni osonlashtirishning ta’sirini yumshatadi.

H4 Qayta ko‘rib chiqilgan Kioto konventsiyasiga kirish va uni amalga oshirish xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishning ta’sirini yumshatadi.

3. Metodologiya va xulosa

Ushbu tadqiqot xalqaro bojaxona standartlarining O‘zbekistonda savdoni osonlashtirishga ta’sirini o‘rganish uchun miqdoriy tadqiqot yondashuvini taqdim etadi. U xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, so‘rovlari, mamlakatlarning iqtisodiy darajasi statistikasi, bojaxona standartlarini joriy etishning qiyosiy tahlilini o‘z ichiga oladi. Asosiy ma’lumotlar sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2023 yilgi raqamli va barqaror savdoni osonlashtirish bo‘yicha Global tadqiqoti ma’lumotlari, RKC va TFA rasmiy matnlariga asoslangan qiyosiy huquqiy tahlil asoslari, Jahon Savdo Tashkiloti (JST) va Jahon Bojaxona Tashkiloti (JST) hisobotlaridan foydalanilgan.), akademik adabiyotlar va O‘zbekistondan tegishli davlat hujjatlari.

O‘zbekistonda 2015-yilda savdoni yengillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish natijalariga ko‘ra (2015-2023-yillar) O‘zbekistonda hali ko‘p Savdoni osonlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmagan. Ammo 2023 yilga kelib, faqat 4 ta chora amalga oshirilmadi: chegara nazoratini bojaxona organlariga topshiruvchi davlat organlari, dengiz yuklari manifestlarini elektron tarzda taqdim etish, savdogarning moliyalashtirishga kirishini yagona oyna osonlashtiradi, savdo moliyasini qamrab oluvchi blokcheynga asoslangan ta’midot zanjiri loyihasi bilan shug‘ullanuvchi organlar. Shuningdek, Transchegaraviy qog‘ozsiz savdo, kichik va o‘rta biznes sub’ektlari uchun savdoni osonlashtirish va rejalashtirish bosqichidagi 6 ta chora-tadbirlardan tashqari 11 guruhda 14 ta qisman amalga oshirilgan chora-tadbirlar mavjud: Savdoga ko‘maklashish milliy qo‘mitasi yoki shunga o‘xshash organ, Imtiyozli tovar kelib chiqishi to‘g‘risidagi sertifikatning elektron arizasi va chiqarilishi, Sertifikatning elektron almashinushi. kelib chiqishi, Tranzitni osonlashtirish bo‘yicha kelishuv(lar), Savdoga ko‘maklashish milliy qo‘mitasidagi kichik va o‘rta korxonalar, Savdoga ko‘maklashish milliy qo‘mitasidagi ayollar a‘zoligi yoki shunga o‘xshash organlar. Boshqacha aytganda, O‘zbekistonning savdoga ko‘maklashish balli 84,95 foiz (shaffoflik: 93,33 foiz, rasmiyatlichkeit: 87,5 foiz, institutsional tartibga solish va hamkorlik: 44,44 foiz, qog‘ozsiz savdo: 88,89 foiz, transchegaraviy qog‘ozsiz savdo: 88,89 foiz) hisoblanadi.

Xalqaro bojaxona huquqida bojaxona standartlarini aks ettiruvchi ko‘plab hujjatlar mavjud bo‘lib, ushbu tadqiqotda Qayta ko‘rib chiqilgan Kioto konventsiyasi va JST savdosini osonlashtirish to‘g‘risidagi bitim standartlari qiyosiy tadqiqot bilan cheklanadi. Bojaxona organlari faoliyatini takomillashtirish, savdo-sotiqni yengillashtirishga xizmat qiluvchi ushbu standartlarning 80 foizdan ortig‘i joriy etilgan va qisman joriy etilgan.

O‘zbekistonda bojaxona tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar:

Bojaxona kodeksini RKC bilan moslashtirish: O‘zbekiston bojaxona kodeksini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar RKC standartlariga to‘liq muvofiqlikni birinchi o‘ringa qo‘yishi kerak. Shuningdek, 2018-yilda Jahon bojaxona tashkiloti tomonidan e’lon qilingan bojxonaga oid barcha hujjatlar uchun umumiyl bo‘lgan “Xalqaro bojaxona atamalari lug‘ati” asosida Bojaxona kodeksi va milliy bojaxona qonunchiligidan boshqa hujjatlaridagi atamalarning talqinini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Shaffoflik va bashoratlilikni oshirish: O‘zbekiston savdoga oid ma’lumotlarni to‘liq onlayn nashr qilish orqali shaffoflikni yaxshilashi va samaradorlik, soddalashtirish va uyg‘unlashtirish kabi sohalarda qolgan muammolarni hal qilish orqali bashoratlilikni kuchaytirishi mumkin.

Ayniqsa, "yagona oyna savdogarning moliyalashtirishga kirishini osonlashtiradi" chora-tadbirlari bu maqsadda amalga oshirilishi mumkin. Savdo ma'lumotlarini yanada ochiq qilish va foydalanuvchilarga qulay interfeysni qayta tashkil etish osonlashtirishga yordam beradi. ERI tizimini ishlab chiqish va qo'llash: Bojxona deklaratsiyasi va hujjatlari uchun elektron ma'lumotlar almashinuvi (EDI) tizimi samarali foydalanish uchun yanada rivojlantirish va o'qitishni talab qiladi. O'zbekistonda hozirgi kunda Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (YUAIS) qo'llanilmoqda va u 25 dan ortiq dasturlardan iborat. Uni qayta ishlab chiqishda biz interfeysni yangilashni, foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratishni, bir xil vazifani bajaradigan ko'plab dasturlarni birlashtirishni va foydalanilmaydigan dasturlarni o'chirishni va statistikani saqlashni taklif qilamiz. Bojxona sohasiga tegishli boshqa standartlarni o'rganish va joriy etish. Bojxona ishini tartibga soluvchi xalqaro bojxona standartlarini o'z ichiga olgan rasmiy va norasmiy hujjatlar mavjud. Jahon bojxona tashkilotining asbob va vositalarini chuqur o'rganib chiqib, yordamchi va asosiy hujjatlar va dasturlardan standartlarni to'g'ri joriy etish qoidalariغا misollar keltirishimiz mumkin. Biz "Bojxona asboblari va asboblari" platformasini ishga tushirishni taklif qilamiz, u xalqaro va xorijiy bojxona sahifalariga havola qiladi, ularga stajyorlar, magistrantlar va malaka oshirish talabalari, shuningdek, Bojxona institutining barcha xodimlari, shuningdek, barcha normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro va mintaqaviy va milliy bojxona qonunchiligiga oid asboblar va vositalar o'zbek, rus va ingliz tillarida.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ансель М. Методологические проблемы сравнительного права // Очерки сравнительного права. – М., 1981. – С 36-87. Б.И.Эгамбердиев. Improving the activities of internal affairs bodies regarding migration processes. Dissertation. Tashkent 2021.
2. Internet source: UN Global Survey on Digital and Sustainable Trade Facilitation. 2023 <https://www.untsurvey.org/compare-economies?id=UZB&year=2023&op=1&group=17%2C22%2C24&measures=197%2C219%2C221%2C229%2C230%2C233%2C234%2C242%2C253%2C254%2C255%2C256> (Application date: 03.11.2023)
3. С.К.Балашов. Роль международных организаций в развитии таможенного сотрудничества. М., 2016. С.21. Диомулен И.И. Всемирная торговая организация. М., 1997. С.20. Internet source: <https://ui.vlsu.ru/media/files>. (Application date: 03.11.2023)
4. Convention on the Establishment of the Customs Cooperation Council, December 15, 1950. Internet source: <https://www.lex.uz/docs/2599508>. (Application date: 02.02.2021)
5. Кожанков А.Ю., Боброва О.Г., Бисерова Е.С. Международные стандарты всемирной таможенной организации и всемирной торговой организации, влияющие на правовое регулирование таможенного контроля в еаэс., С.41. Internet source: <https://mgimo.ru/upload/iblock/424/mezhunarodnye-standarty-vsemirnoj-tamozhennoj-organizacii-i-vsemirnoj-torgovoj-organizacii-vliyayushchie-na-pravovoe-regulirovanie-tamozhennogo-kontrolya-v-eaehs.pdf>. (Application date: 02.02.2021)
6. М.А.Kadyrkulov, Sergei Mozer. Improvement of instruments of customs administration: international and legal aspect. (The WCO Revised Kyoto Convention management Committee). Monograph. The State Official Educational Institution of Higher Education «RUSSIAN CUSTOMS ACADEMY». Moscow 2018. 59. Internet source: <https://customs-academy.net?p11868>. (Application date: 02.02.2021)
7. Райкова Анжелика Юрьевна. Международно-правовые аспекты упрощения и гармонизации таможенных процедур (на примере международных таможенных конвенций по Карнетам А.Т.А.). С 12. Internet source: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_003466630/. (Application date: 02.02.2021)
8. Denysenko S. I. (2015). Mizhnarodno-pravovi standarty sproshchennia ta harmonizatsii mytnykh protsedur u sferi mizhnarodnoi torhivli: dys. ... kand. yuryd. nauk: 12.00.11. Odesa, 81.

9. Халипов.С.В (2011). Проблемы соответствия законодательства Российской Федерации о таможенном деле международным стандартам в сфере таможенного регулирования avtoref. dis. kand. jurid. nauk: 12.00.10. Moskva, 24.
10. Shulha M. H. (2014). Mytne zakonodavstvo Ukrayny i mizhnarodni mytni standarty. Visnyk Natsionalnoho universytetu «Iurydychna akademiiia Ukrayny imeni Yaroslava Mudroho», No 4 (19), 220–232.
(Application date: 02.02.2021)
11. Scientific conference collections of the Higher Military Customs Institute 2003-2016. Uzbekistan.

REZYUME:

Muallif miqdoriy tadqiqot usulidan foydalangan. Shu bois muallif, birinchi navbatda, muayyan mavzu – bojxona standartlarini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro bojxona hujjalari va xorijiy mamlakatlar amaliyotini (2010-2023 yillar) tanlab oldi.

Калит сўзлар: savdoni osonlashtirish, Jahon savdo tashkiloti, uyg‘unlashtirish, bojxona tartiblari.

РЕЗЮМЕ:

Автор использовал количественный метод исследования. Поэтому, прежде всего, автором выбраны международные таможенные документы и практика зарубежных стран (в период с 2010 по 2023 годы), связанные с определенной темой – применением таможенных стандартов.

Ключевые слова: упрощение процедур торговли, Всемирная торговая организация, гармонизация, таможенные процедуры.

RESUME:

The author used a quantitative research method. Therefore, first, the author has selected international customs documents and foreign countries' practices (from 2010 to 2023) related to a certain theme – customs standards implication.

Keywords: trade facilitation, World Trade Organization, harmonization, customs procedures.

YOSHLARNING ESTETIK TAFAKKURINI YUKSALISHIDA MUSIQA MADANIYATIDAGI KONSEPSIYALAR

Djalalova N.X. –
FarDU tadqiqotchisi

Yoshlarning estetik tafakkurini yuksalishida musiqiy madaniyat katta rol o‘ynaydi. Musiqiy madaniyat estetik, psixologik, ijtimoiy va boshqa sohalar o‘zaro bog‘liq bo‘lgan juda murakkab ta’limlardan biridir. Bu murakkab ta’limning asosi esa musiqa bilan bog‘liqdir. Musiqaning qadr-qimmati odob-axloq bilan tanilgan bo‘lib, komil va go‘zallikka ko‘tariladi. Platon va Aristotel musiqaning jamoat ishlarida tarbiyaviy, o‘zgartiruvchi va tartibga soluvchi rolini tasdiqlash uchun juda ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazishgan. Antik davridayoq musiqaning munosabat, shakllanish, jarayon, harakat kabi ma’noviy kategoriyalari tasdiqlangan. Musiqa umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o‘ziga xoslik nafaqat shaxsning estetik-axloqiy ehtiyojlarini rivojlantirishda, balki yuksak axloqiy mazmunga ega musiqa qudrati doirasidagi ma’naviy madaniyatning yuksalishida ham katta ahamiyatga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etar ekanmiz, Abu Nasr Forobiyning musiqaga oid qarashlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Forobiy musiqani tarbiyaviy ilm deb ataydi va uning ahamiyati haqida shunday deydi: “Ushbu fan xulq-atvori mutanosib yoshlarni muvozanatlashtirish uchun foydalidir, mukammal bo‘lmaganlarni mukammal qiladi va muvozanati buzganlarning muvozanatini saqlaydi. Tananing sog‘lig‘i uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo‘lganda, ruh o‘ladi va tanada muammo bo‘lganda ruh azoblanadi. Shuning uchun, tanan shifo topishi uchun ruh musiqa sadolari ostida davolanadi”. Xususan, u musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo‘jizakor ta’siri haqida «Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida» asarida shunday deydi: «Bu ilm shu ma’noda foydaliki, u o‘z muvozanatini yo‘qotgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka etmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi»[6].

Musiqiy estetika muammosi musiqa san’ati rivojlanishining barcha bosqichlarida ko‘rib chiqilgan, chunki musiqiy estetikaning chuqur ildizlari qadimgi antik davrlarga borib taqaladi. Bunda esa buyuk faylasuflar: Pifagor, Platon va Aristotel tomonidan taklif qilingan musiqaning estetik va qadriyat mezonlari bilan bog‘liq bo‘lgan insonning eng muhim axloqiy fazilatlari o‘z aksini topadi. Ushbu muammoni faylasuf olimlar qadim zamonlardan beri o‘rganishga harakat qilganlar.

Buyuk musiqa faylasufi, sovet olimi A.F.Losev bo‘lib, uning ijodiy merosi musiqa falsafasi muammolari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan estetika sohasidagi ko‘plab tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. A.F.Losev butun ilmiy faoliyati davomida musiqa hodisasining har qanday jismoniy va psixofiziologik hodisalardan mustaqilligi tamoyilini qat’iy himoya qilib, musiqa insonlarda go‘zlikni his etishni, ahloqiy normativlarni rivojlantirib, estetik tafakkurni yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etishini aytib o‘tgan[7].

Ish jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning (I.A.Gerasimova, L.I.Goldin, Yu.N.Davidov, I.B.Rodnyanskaya, O.V.Larmin, L.Varadi, E.Molnar) asarlari ko‘rib chiqildi, unga ko‘ra zamonaviy badiiy jarayonning bir qator dolzarb muammolari ko‘rsatilgan. Musiqa madaniyati vositasida shaxsiyatni estetik tafakkurlarini yuksaltirish ko‘rsatadigan oz sonli asarlar (V.Korrell, D.Kuznetsova, G.G.Lekveishvili, N.Moreva, I.P.Ruppert) ishlatilgan.

Madaniyat va san’at sohasidagi islohotlarni jadal davom ettirish, madaniyat organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ijrosini ta’minalash maqsadida chora tadbirlar belgilandi. Jumladan, sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-3920-sonli qarori, 2018-yil 28-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038- sonli qarori, 2020-yil 26-mayda

“Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-sonli farmonlari qabul qilindi.

Shu bilan birgalikda 2021-yil 9-dekabrda “Madaniyat va san’atni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-36-sonli hamda 2022-yil 2- fevralda “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarorlarida ham sohaga oid dolzarb masalalar belgilangan bo‘lib, ularni amalga oshirishda soha mutasadilariga juda katta vazifalar yuklatilgan. Madaniyat va san’at sohasida juda ko‘p yillar davomida mehnat qilgan fidoyi insonlardan biri bo‘lgan siyosiy fanlar nomzodi, professor Azamat Haydarov “Har bir vazifada juda katta ezgulik va ulug‘ maqsadlar mujassam” ligini alohida ta’kidlagan[8;9].

Mavzuni tadqiq qilishda O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov[3;4;5], O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari[1;2], nutqlarida ilgari surilgan g‘oyalari, madaniyatimizni rivojlantirish va uni yosh avlodning estetik tafakkurini yuksaltirishdagi ahamiyati, shuningdek allomalarrning, olimlarning ilmiy tahlil qilish jarayonida bildirilgan konseptual va amaliy takliflari nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa – bu insonning hissiy holatiga ta’sir qiladigan tovush tarkibiy qismlarining birlashtirilgan kombinatsiyasi san’ati bo‘lib, bu tasvirlar, fikrlar va his-tuyg‘ularni etkazishga qaratilgan qat’iy chastota va vaqt ni tashkil etadigan intonatsion xarakterdagi tovush faoliyatining o‘ziga xos turidir.

Madaniyat – bu inson tomonidan yaratilgan va shu bilan birga insonni yaratadigan, insoniyat hodisasini keltirib chiqaradigan hamma narsadir. Adabiyot, san’at, falsafa – madaniyatning eng shubhasiz tarkibiy qismlaridir, chunki ular insoniyat tomonidan o‘z-o‘zini anglash va insoniyatni o‘zgartirish uchun xizmat qiladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, musiqa va madaniyat bir biri bilan bog‘liq. Musiqiy madaniyat misolida yoshlarning estetik tafakkurini yuksaltirishdagi ahamiyatini ijtimoiy –falsafiy jihatdan tadqiq qilish uchun konsepsiyalarni ko‘rib chiqdik. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki Konsepsiya o‘zi nima?

Konsepsiya (lot. conceptio — majmua, tizim) — biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar degan ma’nolarni anglatadi.

Ushbu tadqiqotimizda biz musiqiy madaniyatga oid kosepsiyalarni aniqlab, quyidagi natijalarga erishish zarurligini aniqladik.

Shaxsning estetik tafakkurini (musiqiy madaniyat orqali) bolalikdan shakllantirish lozim. Buning uchun bolani kichik yoshidan bog‘chaga berish tavsija etiladi. Bola bog‘chada har tomonlama shakllanadi, shu jumladan estetik tomonidan ham. Estetik tafakkurini shakllanishida ayniqsa bog‘cha musiqa rahbarining o‘rni kattadir. Musiqa mashg‘ulotlari, to‘garaklar, turli xil bayram ertaliklari orqali yosh shaxsda estetik tafakkur shakllana boshlaydi. Bola estetik tomonidan ushbu tadbirlarni kuzatib, bevosita ishtirok etib emotsiional zavq oladi, shakllanadi. Buning uchun esa musiqa rahbari izlanuvchan, qobiliyatli, fantaziyaga boy kadr bo‘lishi shart. U mashg‘ulotlarini, bayram ssenariylarini, to‘garak rejalarini o‘ylab, fikrlab, qiziqarli qilib tashkilishi kerak. Har bir tadbirlarida estetika, go‘zallik, ahloq-odob namunalari berilib borilishi kerak. Shundagina yosh shaxsning estetik tafakkuri shakllana boshlaydi. Lekin xozirgi paytda bunday musiq rahbarlarimiz kamayib bormoqda nazarimizda. Bog‘chalardagi musiqa mashg‘ulotlari, bayram ertaliklari xo‘jako‘rsinga o‘tkazilmoqda. Biron bir qiziqarli reja yo‘q! Bu esa albatta achinarli holat. Bola kichik yoshidan shunday tarbiyalansa u yosh avlodga aylansa tafakkuri, dunyoqarashi tor bo‘lib qolmaydimi? Buning echimi va yangiligi quyidagicha deb o‘ylaymiz:

1. Musiqa rahbari oliy ma'lumotli kadr bo‘lishi shart;
2. Musiqa rahbarining rejalarini o‘ylangan, puxta bo‘lishi kerak;
3. Musiqa rahbari tanlov asosida olinib, u rus va biron bir chet tilini bilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

4. Bayram ertaliklari ssenariylari har bir bayram tadbirlariga muvofiq ma'noli, ta'lim-tarbiyaga boy bo'lishi lozim.

O'rta maktablarga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat bo'lishi kerakligini tadqiq qildik:

- Musiqa fanini soatini ko'paytirish zarurdir. Musiqa fanini haftada ikki marta o'tish kerak. Chunki hamma bola ham musiqa maktabida o'qimaydi. Musiqa maktabiga bormaydigan bolaning estetik tafakkuri musiqa maktabiga boradigan bolaga qaraganda sustroq, dunyoqarashi torroq bo'ladi.

- Musiqa fani darsligini qayta ko'rib chiqish zarurdir.

- Maktablarda musiqa to'garaklarini san'at kollejlarini, madanyat vazirligiga qarashli oliy ta'limni bitirgan mutaxassislar olb borishsa maqsadga muvofiq bolar edi. Chunki musiqa to'garaklarini o'lib borish juda nozik masaladir. Bunga chuqr, individual bilim, qobiliyat kerakdir. Musiqa darsi bir tizimda o'tilsa, to'garaklar ma'lum bir yo'nalish uchun o'tiladi. Masalan: orkestr to'garagi, xor to'garagi, vokal solisti to'garagi, raqs to'garagi va h.z.o. Ushbu to'garaklarni o'z mutaxssisi o'tsa yoshlarning estetik tafakkuri yanada yuksaladi.

O'quvchilar tafakkurini musiqa orqali shakllantirish va yuksaltirish muammosi quyidagilarni muhim vazifa sifatida belgilaydi:

- o'quvchi-yoshlarninglarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, o'rganish, tahlil qilish va tarbiyaviy ishlarni olib borish;

- o'quvchi-yoshlarni estetik tafakkurini shakllantirish yuzasidan musiqa to'garaklari faoliyatini o'rganish;

-musiqa to'garaklari asosida o'quvchi-yoshlarning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va boshqalar.

- har bir umumta'lim maktabida sinfdan tashqari musiqa to'garaklarini amalga oshirishda mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, uning yo'nalishi, rivojlanish istiqbollari, ijtimoiy normalar, qoidalari va an'analari, moddiy-texnik holati, tadbirlar dasturi, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning maqsadi va asosiy vazifalarini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Musiqa madaniyati mustaqil Respublikamiz yoshlarni ma'naviy dunyosini boyitish, ularni go'zal narsalarning hammasidan bahramand qilish kabi ijobjiy xususiyatlarga ega. Ma'naviy g'oyasi yuksak, badiiy jozibali musiqa asarlari kishilar qalbiga tezroq yo'1 topish, estetik hissiyorliga kuchli ta'sir qilish, hayotiy voqe - hodisalarни chuqr mushohada qilishga da'vat etishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: "Musiqa-hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega!"

San'at sohasidagi Oliy ta'lim muassasalarida ham mutaxassislik fanlarini ko'paytirish,yakka tartib darslarini yo'lga qo'yish, yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab quvvatlash,ta'lim muassasalarini musiqiy cholg'ular,musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish,talaba-yoshlarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko'ra musiqa cholg'ularida kuy ijro etish mahorati to'garaklari tashkil etilish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda inson hayotidagi estetik tamoyil katta ahamiyat kasb etadi. Jamiatning jadal rivojlanishi, ijtimoiy-madaniy modernizatsiya dinamikasini saqlab qolish uchun milliy madaniyatning yuksak badiiy estetik qadriyatlari ustunlik qilishi kerak. Jamiat doimo go'zallikni anglay oladigan, qadrlay oladigan va yarata oladigan estetik jihatdan rivojlangan shaxsga muhtoj bo'ladi. Bunda esa musiqiy madaniyat katta rol o'ynaydi. Hozirgi sharoitda madaniyat olamida estetik his-tuyg'ularni boshdan kechirishga va estetik salohiyatni ro'yobga chiqarishga qodir yoshlarning estetik tafakkurini yuksaltirish muammosi dolzarb bo'lib bormoqda.

Hozirgi Yangi O'zbekiston bosqichida, ijtimoiy rivojlanishning o'zgargan sharoitida uning roli va funksiyasini tushunish, ta'llimga yangi yondashuvlarni izlash davom etmoqda. Jamiatning yangicha, zamonaviy taraqqiyoti sharoitida yoshlarni ijtimoiy tarbiyalash va har tomonlama izchil yuksaltirish dolzarb bo'lib qoldi. Ijtimoiy tarbiya jarayonida esa musiqa madaniyati katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa yoshlarning estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omildir. An'anaviy va jahon

ma'naviy asoslaridan chekinish, maqsadli pedagogik yo'riqning yo'qligi, ommaviy axborot vositalari orqali musiqani passiv idrok etis, bularning barchasi musiqiy madaniyat orqali yoshlarni estetik tafakkurlarini yuksaltirish muammosini qo'yish hamda uni falsafa, estetika, pedagogika , musiqa madaniyati fanlari orqali hal etishga urinishni dolzarb etadi. Yoshlarga e'tibor qaratilishi- bu ijtimoiy kamolotning faol shakllanish davri ekanligi bilan izohlanadi. Yoshlar hozirda sezilarli va tez rivojlanayotgan ijtimoiy guruh bo'lib, ular kelajakda jamiyat muammolarini hal qilishda ishtirok etadigan shaxslar hisoblanadi. Bu esa ularning qay darajada tarbiyalanganliklari bilan bog'liq bo'ladi. Bu holatlar musiqa madaniyati vositalarining yoshlarning ijtimoiy-estetik tafakkurlariga ta'siri muammosini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Musiqiy madaniyat yordamida yoshlarning estetik tafakkurini yuksaltirish shaxs faoliyatining turli tomonlarini va ijtimoiy yo'nalishini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan o'zaro bog'liq chora-tadbirlar majmuuni talab qiladi. Bunung uchun esa musiqa madaniyati ta'limini izchillik bilan, istiqbolli zamonaviy dasturlar va yuqori salohiyatlai kadrlar bilan amalga oshirish zarur bo'ladi. Shundagina biz dunyoqarashi keng,estetik tafakkuri yuksalgan yoshlarni tarbiyalashimiz mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat. 2008.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
5. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
6. Лосев А.Ф. Диалектика художественной формы. 1-е изд.: М., 1927.
7. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press. 2021.
8. Haydarov A. Milliy madaniyat Renessans poydevori // Yangi O'zbekiston gazetasi. – Toshkent: 2020.

REZYUME:

Ushbu maqolada yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda musiqa madaniyati konsepsiyaning ahamiyati , bu boradagi muammolar va ularning echimlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: falsafa, estetika, musiqa madaniyati, falsafa madaniyati,estetik tafakkur, yoshlar, konsepsiya.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье говорится о значении концепций музыкальной культуры в совершенствовании эстетического мышления молодежи, проблемах и их решениях.

Ключевые слова: философия, эстетика, музыкальная культура, философская культура, эстетическое мышление, молодежь, концепция.

RESUME:

This article talks about the importance of the concepts of musical culture in improving the aesthetic thinking of young people, problems in this regard and their solutions.

Key words: philosophy, aesthetics, musical culture, philosophical culture, aesthetic thinking, youth, concept.

ФУНДАМЕНТАЛ МАДАНИЯТШУНОСЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Нишонбоева Г. -
Маданиятшунослик бўйича
фалсафа докори (PhD)

Республикамиз мустакиликка эришганидан сўнг Маданиятшунослик фанига эътибор кучайтирила бошланди. Олий ўқув юртларида фан сифатида ўқитила бошланди. Маданиятшунослик Ўзбекистонда ёш фан ҳисобланади. Маданият фалсафасидан аввалги физика, биология табиат фалсафасидан, социология ва сиёсатшунослик эса ижтимоий фалсафадан қандай чиқсан бўлса, ҳудди шундай тарзда пайдо бўлган. Илм-фан ривожланишининг ягона жараёнида илмий билимларнинг тегишли тармоғи анъанавий равишда бунинг учун етарли эмпирик асос пайдо бўлганда фалсафадан айро ҳолда ажралиб чиқади. Шу муносабат билан маданиятшунослик ҳам кичик бўлимларнинг бир қатор нисбатан мустақил соҳаларига киради, улар ўз навбатида икки турга бўлинади:

1. фундаментал билимлар;
2. амалий билимлар.

Фундаментал билимда маданиятшунослик ижтимоий-маданий ҳаётнинг умумий қонуниятлари, унинг кўринишлари ва жараёнлари асосида маданий тараққиётнинг муҳим жиҳатларини аниқлаш ва маданий жараёнларни ўрганишга чақиради.

Амалий билимда маданиятшунослик жамиятнинг маданий турмуш ҳаётини ташкил этиш, технологиясини, маданият ташкилотлари фаолиятини, жамоатчилик манбаатларини, маданиятшунослик билан шуғулланиш мотивларини, бўш вақтни мазмунли ташкил этиш йўлларини ўрганади. Унинг асосий йўналиши - маданий сиёсатни ишлаб чиқиш, маданий кўнгилочар дастурларни амалга ошириш, иқтисодий ва сиёсий, шунингдек, маънавий қўллаб-куvvatлашни йўлга қўйиш лозим бўлади.

Маданият генезиси, маданият типологияси, маданиятни ўрганиш методологияси, маданият ва жамиятнинг бошқа ҳодисалари билан алоқаси, маданият мантиқий фалсафаси каби муаммоларни ўрганиш фундаментал билимларга тегишилдири. Маданиятнинг ўзига хос кўринишлари ва унинг шаклларини ўрганиш амалий билимларга алоқадордир. Санъат турлари ва шакллари, жисмоний, шунингдек, маънавий-маданият, маданиятшуносликнинг бошқа соҳалари ҳақидаги билимлар ҳам амалий хусусиятга эга. Булар қуйидагиларда намоён бўлади:

1. Фундаментал маданиятшунослик ўз ичига ижтимоий йўналишни қамраб олади. Инсонларнинг биргаликаги ҳаётий фаолияти жараёнида юзага келадиган ҳолатлар ва ҳодисаларни ўрганади. Шу билан бир қаторда шахс индивидуал ўзига хос хусусиятларга эга бўлган инсон сифатида эмас, балки, маданий ҳолатларнинг шартли функционал субъекти сифатида қаралади.

2. Маданий психология (психологик антропология) асосан маълум бир маданиятнинг ташувчиси бўлган шахсга эътиборни қаратади. Асосий диққат-эътибор ҳар қандай маданиятнинг асоси бўлган меъёрлар ва маданий қадриятларни, шунингдек, инсоннинг ушбу нормаларини ўз ичига олган жараёнларни ўрганишга қаратилган.

3. Маданий йўналиш. Маданий семантика маданий ҳодисаларни матн сифатида ўрганади. Барча ижтимоий аҳамиятга эга маълумотлар кўндаланг, сақланадиган ва узатиладиган ахборот ташувчилар тизимиридан. Бундан ташқари, матнлар нафақат оғлаки, балки, оғзаки бўлмаган, шунингдек, белги-ёзувлар ёрдамида ҳам инсон фаолиятининг ҳар қандай маҳсулотларида ифодаланиши мумкин. Жамиятдаги одамлар ўртасидаги мулоқот маданиятига асосий эътибор берилади.

4. Маданиятшунослик тарихи маданият ҳақидаги айrim тушунча ва назарияларнинг пайдо бўлиши, тараққий этиши ва механизмини ўрганади. Маданиятшунослик тарихининг маданият учун аҳамияти фалсафа тарихининг фалсафа учун қанчалик катта аҳамиятга

эгалигини ифодалайди. Ушбу билим соҳалари маданий ва фалсафий билимларнинг муҳим қисмини ташкил қиласди ва замонавий назарий конструкциялар ўзларининг тарихини фикрлар натижасига асосланади. Маданиятшунослик тарихи нафақат фаннинг мустақил тармоғи ҳисобланади, балки, ижтимоий ва психологияк антропология, маданий семантиканинг бир қисми сифатида ҳам намоён бўлади.

Ижтимоий маданиятшуносликда тадқиқот ва умумлаштиришнинг энг юқори даражаси культурология – маданий ҳодиса ва жараёнларнинг инсон мавжудлигининг маҳсус категориялари сифатида белгилайдиган қонуниятларнинг умумлашмасидир. Бу маданиятнинг умумий яхлит назарияси даражаси бўлиб, уни инсонларнинг жамоавий ҳаётининг асосий натижаси деб билади. Бу даражада культурологиянинг концептуал аппарати яратилади, маданий ҳодисаларни ўрганиш методологиясининг технологияси ишлаб чиқилади. Бундан ташқари маданият тузилиши, унинг типологияси ва динамикаси ҳақида умумий тушунчалар берилади. Маданият ва табиат цивилизацияси орасидаги муносабатлар ўрганилади, яъни асосий яхлит қилиб маданиятнинг функциялари тадқиқ қилинади.

Тадқиқотнинг иккинчи даражаси тил, ахлоқ, этник ва бошқалар каби маданий тизимлар таҳлил предмети ҳисобланади. Уларни таҳлил қилиш учун қўйидаги тадқиқот йўналишлари ишлаб чиқилади:

- синфлар, мулклар, ижтимоий групҳлар, сиёсий ва диний тузилмалар маданиятни ўрганувчи ижтимоий-маданиятшунослик;
- этнокультурология, (этнос – ҳалқ) этник хусусиятларга асосланган маданий тизимларни ўрганади;
- тарихий маданиятшунослик, ижтимоий-маданий тизимларнинг турли тарихий вариантиларини (маданиятнинг хинд-буддий типи, ислом маданияти ва бошқалар) ўрганади.

Тадқиқотнинг учинчи даражаси ҳар бир ўзига хос маданиятда такрорланадиган асосий нақшларнинг маданий шаклларини таҳлил қилиш билан боғлиқ ҳолда намоён бўлади. Бундай маданий шаклларга мисоллар турли хил стандарт вазиятларда одамларнинг онгги ва хатти-ҳаракатларнинг меъёрлари ва стереотиплари (учрашганда одамлар билан саломлашиш маданияти, бир-бири билан ўзаро мулоқотмаданияти), мос ёзувлар намуналари ва услублари (хукмрон бадиий услублар) ва бошқаларни мисол қилиш ўринли. Тадқиқотчилар маданиятнинг асосий бирлиги “хужайраси” бўлиб хизмат қиласиган маданий шакллар деб ҳисоблашади. Баъзи бир маданий шакллар бутун дунёда шунчалик кенг тарқалганки, улар “маданий универсаллар” деб аталади.

Ниҳоят тадқиқотнинг охирги даражаси бизни маданиятнинг ҳақиқий фактларини таҳлил қилишга олиб келади ва улар одатда, “артефактлар” деб юритилади. Улар маданий шаклларни амалга оширишнинг алоҳида ҳолатларини ифодалайди, улар жой ва вақтнинг ўзига хос шароитларига қараб ўзгаради. Шундай қилиб анъанавий урф-одатлар, тўй-ҳашамлар ёки бирон сабабга мўлжалланган маросимлар маданий шаклга мисол бўла олади. Демак, яшаб турган тирик инсонлар томонидан ўтказиладиган ўзига хос тадбирлар, ўйин-кулгулар, рақслар ёки дағн маросими бу – маданият артефакти дейилади. Шундай қилиб, артефактлар маълум бир ҳақиқий намунадан оммавий фойдаланиш маҳсулотидир. Бироқ, артефактларни ўрганиш жараёни аллақачон маданиятшунослик даражасидан ташқарига чиқади ва бизни маданият тарихи билан таништиради, бу эса жуда кўп турли хилдаги артефактларнинг тизимлаштирилган тавсифидир.

Тадқиқотнинг биринчи даражасида маданий психология шахсни ташувчи ва таржимон сифатида ўрганишга қаратилган маданий жараёндир. Таҳлил натижаси шахснинг умумий ижтимоий-маданий назарияси бўлиб, у маданиятда исононнинг хулқ-атвори қандай белгиланишини кўрсатади. Мазкур тартибга солиш жараёнининг бузилиш сабабларини таҳлил қиласди, маданий жиҳатдан аниқланган шахсий хусусиятларни шакллантиришнинг умумий қонуниятларини аниқлаб беради.

Тадқиқотнинг иккинчи даражасини гурухнинг ўзаро таъсири ва шахснинг ижтимоий кўпайиши психологияси деб аташ мумкин. Бу босқичда шахсни тарбиялаш назариялари ва усоллари ўрганилади. Асосий эътибор ўрганишга қаратилади:

- шахснинг жамият ҳаётига оид умумий билим ва қўникмаларини, унинг турли ижтимоий амалиёт турларини эгаллашини ижтимоийлаштириш механизмлари;
- инкультурация механизмлари - шахс ўз маданиятининг маълум бир босқичини эгаллаши, унинг меъёрлари ва қадриятларини, хулқ-автор стереотипларини ўзлаштириши, бу уни ўзи яшаётган жамиятда маданий жиҳатдан баркамол қиласди;
- шахснинг ижтимоий-маданий ўзини-ўзи аниқлаш механизмлари, шахснинг ўз-ўзини белгилаши, унинг муайян сиёсий, этник, ижтимоий ва бошқа гурухларга мансублигини аниқлайди.

Маданият культурологиянинг ушбу йўналиши маданиятнинг семантикаси ва коммуникатив функциясини белгилайди. Зоро, маданиятда содир бўладиган ҳар қандай жараён одамлар ўртасидаги доимий мулоқоизз тасаввур этиш мушкул. Шунинг учун маданиятшунослик жамиятдаги кишилар орасидаги ахборот алмасиши механизмларини табиий равишда ўрганади. Маълум бир жамиятнинг барча аъзолари учун тушунарли умумий тил нафақат сўзлар, балки бошқа белгилар тизими яъни, чизма, герблар, моддий нарсалар, маросимлар эканлигини ёдда тутишимиз лозим. Ижтимоий-маданий алоқанинг барча турдаги тилларини, уларнинг харакат механизмларини шакллантириш ва фаолият тамойилларини ўрганиш маданий семантиканинг маданий соҳадаги семантик тартиб-қоидаларнинг умумий яхлит назариясини яратади. У турли жамиятнинг ижтимоий-маданий тажрибасини тўплаш, қайд этиш ва узатиш ҳолатларини тавсифлайди. Шу билан биргаликда маданиятнинг семантик соҳасини умумий тузилишини аниқлаш, ижтимоий мулоқот жараёнлари динамикасини кузатиш, семантик объектларнинг типологиясини яратиш, тадқиқот методологиясини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Иккинчи даражадаги семантик тизимларни ўрганишга қаратилган жумладан:

- жамиятдаги одамлар ўртасидаги ўзаро маданий алоқаларни таъминлайдиган шахслараро ахборотлар алмасиши тизими. Бу оғзаки ҳодлда ёки оғзаки бўлмаган алоқа воситаларидан фойдаланиш асосида юзага келади;
- ижтимоий аҳамиятга эга бўлган маълумотларни бир вақтнинг ўзида катта миқдордаги одамларга етказишни таъминлайдиган оммавий ахборот воситалари тизими;
- Индивидуал нормалар ва унвонлар, рамзлар, тимсоллар, шунингдек, рамзий харакатлар (урф-одатлар ва маросимлар, маданий-миллий қадриятлар) мажмууни ифодаловчи ижтимоий идентификация тизими, улар ёрдамида инсонлар, нарсалар, худудлар ва бошқалар белгиланади;
- Моддий ёдгорликлар, матнлар ва бошқа шакллардаги ахборотни сақлаш ва узатиш тизими.

Учинчи босқичда семантик шакллар таҳлил қилинади. Бу ҳақда барча турдаги маданий осори-атиқалар у ёки бу даражада ҳар қандай нарсадан семантик хусусиятларга эга бўлган ва инсон кўли билан яратган хусусиятларга эга. Шу сабабли археологлар томонидан топилган лой идишнинг парчаси у ишлатилган жамият ҳакида жуда қўп маълумот бериши мумкин. Семантик шакллар – у ёки бу семантик тасвири ўзида мужассам этган нақшлар, баъзи маъноларни, гояларни ёки қадриятларни рамзий кўрсатишdir.

Юкорида таъкидлаб ўтганимиздек, амалий маданиятшуносликнинг асосий вазифаларидан бири маданий жараёнларни мақсадли бошқариш учун техно-маданий жиҳатини ўрганиш ва шакллантиришdir. Бунинг учун биринчи навбатда, маданиятнинг қайси соҳаларини бошқариш кераклигини ҳал қилиш, мақсадларини, таъсир қилиш объектларини белгилаш, қўлланиладиган таъср қилиш методлари ва воситаларини аниқлаш керак бўлади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Назаров К. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1 ва 2 жиллар –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021.
2. Назаров К. Маънавият асосий тушунчалар луғати. Тошкент.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021. -288-289 бетлар.
3. Маданият ва маданиятшунослик лугати. Моск., 2003 й
4. Грушевицкая Т.Г., Садохин А.П. Культурология. М.: ООО “Издательство Юнити-Дана, 2007 г. 117-185 ст.
5. А.А.Белик. Культура и личность. Психологическая религии: Учеб. пособие. М.: Российск. гос. гуманит. унив-т. 2001. 378 ст.
6. Г.Нишонбоева. Мустақиллик даври маданияти.–Т.:Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2023. – Б. 94.

РЕЗЮМЕ:

Мазкур мақолада тарихий тараққиёт жараёнидаги инсоният томонидан яратилган маданий қадриятлар тизимини, маданиятшуносликнинг фундаменал кўринишлари ва жараёнлари асосида маданий тараққиётнинг муҳим жиҳатларини аниқлаш ва маданий жараёнларни ўрганишга чакиради.

Калит сўзлар: маданият, маданиятшунослик, маданият назарияси, маданият тарихи, культурология, маданият артефакти.

РЕЗЮМЕ:

Данная статья призывает к выявлению важных аспектов культурного развития и изучению культурных процессов на основе системы культурных ценностей, созданной человечеством в процессе исторического развития, фундаментальных аспектов и процессов культурологии.

Ключевые слова: культура, культурология, теория культуры, история культуры, культурология, культурный артефакт.

RESUME:

This article calls for identifying important aspects of cultural development and studying cultural processes based on the system of cultural values created by humanity in the process of historical development, fundamental aspects and processes of cultural studies.

Keywords: culture, cultural studies, theory of culture, history of culture, cultural studies, cultural artifact.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО БЫТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Джураева Н.А. -
Докторант НУУз

Изучение перспектив развития социально-культурного бытия Нового Узбекистана представляет собой актуальную и важную задачу с различных точек зрения. Во-первых, культурные и социальные изменения в стране имеют непосредственное влияние на качество жизни ее граждан. Понимание того, какие изменения могут произойти в социальной сфере, поможет государству и обществу грамотно адаптироваться к новым условиям и преодолевать возникающие вызовы. Во-вторых, социально-культурное развитие является важным фактором для привлечения инвестиций и развития туризма.

Процветающая культурная сфера и разнообразная социальная жизнь могут сделать страну более привлекательной для иностранных инвесторов и туристов. Кроме того, учет местных культурных особенностей и потребностей населения важен для обеспечения устойчивого развития и поддержания социальной стабильности. Более того, изучение перспектив развития социально-культурного бытия Нового Узбекистана с точки зрения онтологии и гносеологии представляет интересную задачу, связанную с пониманием сущности и природы социокультурных процессов, а также методов и возможностей их познания. В частности, онтологический аспект позволяет рассмотреть сущность социокультурных реалий как части общего бытия общества. Это включает в себя анализ социокультурных феноменов и их взаимосвязей с другими аспектами жизни общества, такими как экономика, политика, идентичность и т. д.

Изучение онтологии социокультурных явлений помогает понять их сущность и влияние на развитие общества в целом. С точки зрения гносеологии, изучение перспектив развития социально-культурного бытия Нового Узбекистана включает в себя анализ методов и средств познания социокультурных процессов. Это включает в себя исследования, обеспечивающие понимание развития общественного сознания, механизмов формирования культурных ценностей, изменения культурных практик и т.д. Гносеологический анализ позволяет выявить эффективные методы исследования социокультурных явлений и использовать их для прогнозирования будущего развития. Таким образом, изучение перспектив развития социально-культурного бытия Нового Узбекистана с точки зрения онтологии и гносеологии представляет собой важное направление научных исследований, которое позволяет лучше понять сущность и особенности социокультурных процессов и разработать эффективные стратегии развития общества.

Сегодня, вступив в третье тысячелетие, весь мир задается вопросом о собственном будущем. Каждое государство интересуют вопросы о том, что ждет его завтра, что ему уготовано - перспективное созидательное развитие или же ухудшение положения. Видные мировые и отечественные ученые, исследователи обеспокоены будущим государства, в котором они живут. В частности, существуют различные точки зрения, теории и гипотезы относительно судьбы и путей развития мирового сообщества, а также культуры, социума Узбекистана.

В вопросе развития Узбекистана, мы считаем, необходимым подчеркнуть значимую роль синергетического подхода к созданию осмысленной парадигмы, которая станет перспективной моделью развития человека в самоорганизующемся мире. Связанные с гражданским обществом вопросы имеют важное значение в социально-синергетической парадигме, так как оно рассматривается в качестве одного из созидательных атTRACTоров онтологического бытия парадигмы. Мы считаем, что социальная синергетика является перспективным направлением при изучении общественных процессов в Узбекистане. Более того, на наш взгляд, социальная синергетика поможет провести аналитические исследования конкретных проблем общественно-исторической динамики социума. Синергетическая

интерпретация механизма возникновения системных изменений в модернирующемся узбекском социуме показывает, что сам механизм развития связан с нелинейным взаимодействием структур. Принцип перехода от порядка к хаосу и наоборот имеет, на наш взгляд, фундаментальный характер. В частности, он означает поиск обществом устойчивости и стабильности в общественном пространстве. Так, в современном социуме важную роль играют трансисторические структуры, которые рождают социальные флюктуации, а в момент бифуркации порождают акторы. Мы считаем, что социальная синергетика в данном аспекте призвана найти путь к стабильному состоянию общества.

Современный узбекский социум стремится сохранить достигнутое устойчивое равновесие и в то же время реформировать некоторые свои подсистемы, чтобы обеспечить себе продуктивное развитие. Проблематика Узбекистана в контексте глобальных процессов требует комплексного и системного исследования, учитывая сложный характер нелинейных геополитических процессов. Социальная синергетика позволяет рассмотреть проблемы глобализации и их влияния на Узбекистан в ракурсе новой, синергетической парадигмы. Сегодня наше государство обладает огромным потенциалом для реализации своих национальных интересов. Важен тот факт, что на региональном уровне возникают требующие безотлагательного решения масса проблем, поскольку известно, что проблемы могут меняться в масштабах и препятствовать позитивному развитию.

При сохранении приверженности национальным формам организации политической, экономической и социальной жизни, у нашей страны есть все основания эффективно вписаться в современную цивилизацию общества. Необходимым требованием для этого, при смене типов исторического развития парадигмы цивилизации, является умение обходить воспроизводства традиции разрыва и разрушения. Либеральные ценности должны быть усвоены на основе традиционной культурной парадигмы с ее культом семейных отношений, коллективизмом и др., что гораздо облегчит восприятие ценностных установок массовым сознанием и спасет узбекский социум от радикального разрушения привычных стереотипов мышления и поведения.

Анализ нового узбекского пути развития с точки зрения синергетического подхода позволяет рассмотреть его развитие как системный процесс, включающий в себя взаимодействие различных компонентов и подсистем. В рамках этого подхода можно выделить несколько аспектов:

- системный подход;

Узбекистан рассматривается как сложная система, состоящая из социальных, экономических, политических, культурных и экологических компонентов, которые взаимодействуют друг с другом. Синергетический анализ позволяет изучить эти компоненты и их взаимодействие, а также выявить возможные эмерджентные свойства системы.

- самоорганизация;

Синергетика подчеркивает способность системы к самоорганизации и саморазвитию. В контексте Узбекистана это может означать изучение процессов, способствующих развитию социальных институтов, экономического роста, культурного разнообразия и т. д.

- флюктуации и нелинейность;

Синергетический подход помогает понять, какие флюктуации и нелинейные эффекты могут возникать в процессе развития страны. Например, это могут быть экономические кризисы, социальные конфликты, изменения в культурной сфере и т. д.

- пороговые эффекты и точки бифуркаций;

Анализ Узбекистана с точки зрения синергетики позволяет исследовать возможные точки бифуркации и пороговые эффекты, которые могут привести к качественным изменениям в системе. Это могут быть, например, реформы в экономике, политике или образовании, которые изменят траекторию развития страны. В качестве примера, можно выделить исторический путь Узбекистана. На уровне общественной жизни в целом это отразилось на одном из принципов «узбекской модели»: государство как главный реформатор

социальных преобразований, распределитель ресурсов для экономического и общественного эволюционирования, удовлетворения потребностей социума. В целом, синергетический анализ Узбекистана помогает понять его развитие как сложный и динамичный процесс, включающий в себя множество взаимосвязанных аспектов. Этот подход позволяет выявить ключевые факторы, определяющие развитие страны, и разработать стратегии управления этим процессом с учетом его сложности и нелинейности.

В основе эффективности стратегии развития нового Узбекистана 2022-2026 лежит ее гибкость в выборе механизмов развития и реализации политической активности в отношении эффективного роста в различных сферах государственной жизни, благополучия граждан государства в длительной перспективе.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Абу Наср аль-Фараби. Историко-философские трактаты. - Алма-Ата: Наука, 1985.
2. Гаффарова Г.Г., Махмудова Г.Т., Жалалова Г.О. Ўзбекистонда ислоҳотлар жараёнини таҳлил этиш ва амалга оширишнинг концептуал-фалсафий методологияси. -Тошкент: Ношир, 2020. -224б.
3. Заров Д.И. Стратегии и перспективы развития общества и человека // Вестник СГТУ (Гуманитарные и экономические проблемы современного общества). – 2005. – №3(8). – С. 143-149.
4. Матурана У.Р., Варела Ф. Древо познания: Биологические корни человеческого понимания. -М.: Прогресс-Традиция, 2001. -223с.

РЕЗЮМЕ:

Настоящая статья представляет собой анализ перспектив развития социально-культурного бытия в новом Узбекистане. Автор рассматривает влияние политических реформ на социокультурные процессы, а также обсуждает меры, принимаемые властями для стимулирования культурного развития и сохранения национальной идентичности.

Ключевые слова: парадигма, социально-культурное бытие, Новый Узбекистан, цивилизация.

REZYUME:

Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotning rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Muallif siyosiy islohotlarning ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ta'sirini o'rganadi, shuningdek, madaniy rivojlanishni rag'batlantirish va milliy o'zlikni saqlash bo'yicha hokimiyat tomonidan ko'rilibayotgan chora-tadbirlarni muhokama qiladi.

Kalit so'zlar: paradigm, ijtimoiy-madaniy borliq, Yangi O'zbekiston, sivilizatsiya.

RESUME:

This article is an analysis of the prospects for the development of socio-cultural life in the new Uzbekistan. The author examines the impact of political reforms on sociocultural processes, and also discusses measures taken by the authorities to stimulate cultural development and preserve national identity.

Key words: paradigm, socio-cultural existence, New Uzbekistan, civilization.

ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ХУСУСИДА

Мамадаминова Б. -
ТИҚХММИ доценти

Бугунги кунга келиб юртимиизда хуқуқий билим ва маданиятга бўлган талаб ва эҳтиёж тобора ортиб бормоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидаги маъruzасида ҳам бу масалаларга тўхталиб, "...Энг муҳим масала – аҳолининг экологик маданиятини ошириш ҳақида жиддий бош қотиришимиз зарур. Албатта, бундай муаммоларни факат маъмурий йўл билан ҳал этиб бўлмайди, бунга ёш авлод қалбida она табиятга меҳр-муҳаббат, унга дахлдорлик ҳиссини тарбиялаш орқали эришиш мумкин" - деб алоҳида таъкидлаган[1.].

Шу нуқтаи назардан мамлакатимизда экологик таълим концепцияси ишлаб чиқилганлиги ва мазкур хужжатнинг қабул қилиниши аҳолининг экологик хавфсизлигини таъминлашга доир муҳим ижтимоий – маданий ва хуқуқий негизини яратилганлиги билан аҳамиятладир.

Ушбу ёндашувдан келиб чиқсан ҳолда айтиш мумкинки тарбиянинг табият-мувофиқлиги талқинида ташкил этиб инсоннинг табиий ривожланиши жараённида, боланинг ёши ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш муҳим масалалардан ҳисобланади. Шунингдек, ўқувчиларнинг диққати, хотираси, индивидуал типологик хусусияти ва фикрлаш жараёнининг ўзига хослигини ҳар тарафлама ўрганиш, табиий ва ижтимоий - атроф-муҳит бирлиги, яхлитлиги принципига мувофиқ ҳолда замонавий маданият ва маънавий қадриятларга таяниб таълим-тарбияни ташкил этиш бугунги куннинг долзарб масаласидир.

Ушбу қарашлар экологик таълим-тарбия муаммоларини фаол ривожланишига ўз таъсирини кўрсатиб, ёшларда экологик таълим ва тарбиянинг янгича қарашларини шаклланишига назарий ва амалий омил бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Экологик таълим-тарбия таҳлили шуни кўрсатадики, мактаб ўқувчиларига замонавий экологик таълим тизимини ривожлантириш учун муҳим бўлган бир қатор асосий ёндашувларни аниқлаш имконини яратиб, фан дастурига, хусусан, атроф-муҳитнинг моҳиятини ва унинг педагогик аҳамиятини, таълим тизимидағи ўрнини асослаш, атроф-муҳитнинг ҳар хил турларини ўрганиш, атроф-муҳит билан педагогик ишларни ташкил этишнинг услубий масалаларини ишлаб чиқиши, "кўрсаткичлар" ва "ўлчов бирликлари" каби масалалар жой олишини тақозо этади. Шундан келиб чиқсан ҳолда, "атроф-муҳит педагогикаси" концепциясининг тарафдорлари инсоннинг шаклланишига таъсир қилувчи табиий омилларни, қонуниятларни, ташкил этиш шаклларини ва усусларини, инсонни ижтимоий шаклланишининг бутун жараёнини доимий интеграл сифатида ўрганиш зарурлигини таъкидлаганлар.

Эътироф этиш керакки, XX асрнинг 20-йилларидағи атроф-муҳит юзасидан илгари сурилган инновацион гоялар маҳаллий ва хорижий педагогикада янада ривожланиб, экологик таълим жараёнининг хусусиятларига мос келадиган ва ҳозирги замон нуқтаи назаридан оптималлаштириш йўлларини ўзида мужассам этган бир қатор тушунчалар ва амалий моделлар учун замин бўлди десак етарли асос бор. Бунга мисол сифатида мактаб ва жамиятнинг тарбиявий саъй-ҳаракатларини бирлаштириш, уларни атроф-муҳит билан ҳар хил "иплар" билан боғланган муассасаларга айлантириш принципини амалга оширадиган "яхлит", "очик" мактаблар, ўқув муҳити ва бошқа моделлар лойиҳасини замон нуқтаи назаридан келиб чиқиб тавсия этишган. Ушбу мактабларни яратиш бўйича биринчи лойиҳалар Буюк Британия, АҚШ ва бошқа мамлакатлар амалиётидаги кенг қўлланила бошлаган. Бу мактаблар "Жамият мактаби" нинг анъанавий таълим моделидан фарқли ўлароқ, "норасмий", "очик" таълим тизими асосида ташкил этилганлиги билан ажralиб турарди. Анъанавий синфлар ўрнига - ўйин майдончалари, заллар, жамоавий ва индивидуал дарслар учун турли бурчаклар,

мослашувчан жадвал, режалар ва дастурларнинг тизимлилиги негизида ўқитувчи ва ўқувчилар фаолияти уйғунликда ташкил этилган.

Ушбу масалани ғарб мамлакатлари хусусан Германия мисолида олиб қарайдиган бўлсак ўқитувчилар томонидан ўтказилган эксперимент натижалари шуни кўрсатдики "шахар мактаб сифатида" модели мисолида амалга оширилган лойихада мактаб ўқувчилари ўртасидаги уюшган ҳамкорлик самарадорлигининг ўзига хос хусусияти шундаки, ўқувчилар ва уларнинг ўқитувчилари кўп вактларини мактабдан ташқари - музейларда, шахар саноат муассасаларида, жамоат ташкилотларида ва шахар хизматларида фаолиятини ташкил этади. Бу жараён амалиётда экологик тарбия ва таълимда муваффакиятли натижаларга эришишни таъминлаб, ижтимоий фаолликнинг ошишига олиб келади. Яъни, ўқувчиларда аниқ фаолиятни амалга ошириш, "жиддий вазиятларда", касбий, ижтимоий, маданий ва бошқа соҳаларда оқилона ҳатти-харакатларни ташкил этиш, шунингдек, ижтимоий-маданий муаммоларнинг аҳамияти ҳамда ривожланиш динамикасини яхшироқ тушунишга олиб келган.

Француз экологик таълим соҳасида олиб борилган илмий тадқиқотларда "атроф-муҳит" тизимини таълимнинг ажралмас таркибий тузилмаларидан эканлигига алоҳида эътибор қаратишган. Ўқувчиларнинг атрофи-муҳит ҳақидаги тушунча ва қарашларини маълум билимлар билан чеклаб қўймаслик учун, педагогик амалиёт нафақат маҳаллий муҳитга, балки бутун жаҳон экотизими юзасида маълумотлар билан тўйинтирилиб бориши муҳимлиги ҳақидаги қарашлар илгари сурилган. Ушбу назарий қарашларда мактабни атрофдаги дунё билан боғлиқ ҳолда болада маълум бир дунёқарашни шакллантиришнинг динамик омили деб баҳолашган. Экологик муаммолар мактаб ва мактабдан ташқари таълим фаолиятини кучайтиради, педагогик ва фуқаролик (позицияси) жиҳатлари уйғун тарзда мувофиқлашиб самарали натижаларни беради деган ғояни илгари суришган.

Экологик таълим-тарбия назариясини ишлаб чиқиши натижасида атроф-муҳит ва экологик таълимни ташкил этишда янги истиқболларни кўриб чиқишига имкон берди. Илмий жиҳатдан таҳлил этилган таълим муҳитининг ғоялари биринчи навбатда ижтимоий таълим муаммолари сифатида ривожланди ва педагогикада экотизимдан мақсадли фойдаланиш, аввалимбор табиий муҳит билан яқин алоқада очиқ педагогик тизимни яратишнинг ўзига хос тажрибаси юзага келди.

Замон талабидан келиб чиқсан ҳолда айтишимиз мумкинки, таълимни инсонпарварлаштириш бу экологик таълим маданиятни ва билимларни ўз ичига олган услубий дастурларни ишлаб чиқиши ҳамда ўқувчиларга сингдиришни тақозо этмоқда. Бунинг учун экологик таълим ва тарбия жараёнига янгича ностандарт ёндашув асосида уни ички қадр-қимматидан маҳрум қилмаган ҳолда қайта кўриб чиқиши лозим.

Бундан кўзланган мақсад – сайёрамиз аҳолисининг экологик билимини бойитиш ғоясини илгари суриш, аҳолида экологик маданиятни ривожлантириш, жамиятнинг экологик хавфсизлиги ҳақида жамоатчиликнинг хабардорлигини ошириш ҳамда ҳар бир фуқарони табиатга ҳурмат-эҳтиром руҳида тарбиялашни тарғиб этишдир.

Бу борада мамлакатимизда кенг қамровли ижтимоий –сиёсий масалалар амалга оширилаётган бўлиб, табиат, экотизим, атроф-муҳит барқарорлигини таъминлаш, аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш каби жиддий ва ҳаётий масалаларга аҳолининг барча қатламини, айниқса, ёшларни кенг жалб этиш учун барча шарт-шароитларни яратиб бериш борасида зарурий ишлар амалга оширилмоқда. Таъкидлаш лозимки, экологик таълимни амалга оширишда маълум камчиликлар сақланиб қолаётган бўлиб, хусусан, "Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 4-моддасида назарда тутилган барча турдаги таълим муассасаларида экологик таълимнинг мажбурийлигига оид талаблар етарли даражада бажармаётганлигидир. Бугунги кунда экологик муаммоларнинг тобора глобал аҳамият касб этиб бораётганини инобатга оладиган бўлсак, мамлакатимизда муҳим устувор вазифалар билан бир қаторда, атроф-муҳит муҳофазаси, экологик маданият, экологик таълим-тарбия масалаларига алоҳида эътибор бериш зарур.

АДАБИЁТЛАР:

1. Шавкат Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Конунчиллик палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан бўлган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. –Тошкент. 2017 йил 12 июль.
2. Великая дидактика / Я. А. Коменский – М.: Книга по Требованию, - 2012.
3. Эмиль или о воспитании / Руссо Ж.Ж. - М.: Педагогика, 2016.
4. Избранные педагогические сочинения в 2-х томах / Песталоцци И.Г. - М.: Педагогика. 2012.
6. Ушинский К.Д. Избранные пед. Соч. В 2-х т.т.- М, 1974.
7. "Город как школа". Проект "Интернациональная сеть производственных школ в Европе". Модель "Воспитывающий город": Социальная педагогика за рубежом. Теория и практика. - М.: Все с Межрегиональная ассоциация социальных педагогов и работников. 1991.
8. Щуркова Н.Е. Педагогические технологии: учеб., пособие для академического бакалавриата / Н.Е.Щуркова. - 3-е изд., -М.: Издательство Юрайт, 2017.
9. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. - Киев: "Радянська школа", (1974.) http://pedlib.ru/Books/1/0214/1_0214-2.shtml#book_page_top
10. Риордан Б. Познавая наш путь в будущее // Приоритеты современной педагогики: Мир - Экология - Сотрудничество: Материалы международного педагогического проекта PEACE. Центр педагогики мира / Под ред. Э.С.Соколовой, сост. В.С.Митина. - М., 1993.

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада экологик таълим-тарбиянинг умумий жиҳатлари ҳақида сўз боради. Жумладан, таълим муассасаларида экологик таълим-тарбия тўғрисидаги фикр мулоҳазалар, экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиатни асраб-авайлаш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш соҳасига оид маълумотлар ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар: экологик тарбия, хуқуқий билим ва маданият, атроф муҳит муҳофазаси, экологик таълим ва тарбия, хуқуқий билимлар.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье говорится об общих аспектах экологического образования. В частности, в образовательных учреждениях обсуждаются мнения по экологическому образованию, информации по экологии и охране окружающей среды, охране природы, рациональному использованию природных ресурсов.

Ключевые слова: экологическое образование, правовые знания и культура, охрана окружающей среды, экологическое образование и воспитание, правовые знания.

REZUME:

This article talks about the general aspects of environmental education. In particular, in educational institutions, opinions on ecological education, information on ecology and environment protection, nature conservation, rational use of natural resources are discussed.

Key words: environmental education, legal knowledge and culture, environmental protection, environmental education and training, legal knowledge.

КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ЕТУК КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ СИЁСАТИНИНГ САМАРАЛИ ВОСИТАСИ

Равшанов А. -

сиёсий фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
“ТИҚҲММИ” кафедра мудири

Бугунги кунда олий таълим муассасларида коррупция ҳолатларини сақланиб қолишининг асосий сабабларидан бири бу таълим жараёнини тартибга солиш учун жамоатчилик назоратини ўрнатилмаганлиги ҳисобланади. Олий таълим тизимида коррупцияга қарши кураш олиб бориш учун аввало бу борада хорижий тажрибаларни пухта ўрганиб чиқиши мухим аҳамият касб этади. Маълумки, хориж давлатларида коррупцияга қарши курашишнинг турли усул ва воситалари самарали қўлланилиб, бу борада ижобий натижаларга эришилган.

Жумладан, Сингапурда коррупцияга қарши кураш тизими ва антикоррупция бюросини кучайтиришга, Японияда давлат хизматчиларининг касб этикасига амал қилинишига алоҳида эътибор қаратилган бўлса, Финляндияда аҳоли менталитети ва сўз эркинлигига, АҚШ, Буюк Британия каби давлатларларда суд ҳокимияти мустакиллигига, матбуот фаоллигига, судяларнинг касб этикасига мухим аҳамият берилган. Швецияда давлат хизматчилариға юқори иш ҳақи тўлаш, коррупцияга қарши курашнинг асосий шартларидан бири ҳисобланган бўлса, Сингапур, Хитой сингари давлатларда коррупция учун ўта оғир жазо чоралари белгилаш устиворлик қилган.

Айтишимиз мумкинки, ушбу ҳолатлар коррупцияга қарши курашиш стратегиясининг фақат моддий тарафидир. Коррупцияни минимал даражада пасайтира олган давлатларда давлат ҳокимияти билан жамият коррупция масаласида аниқ келишувга эришишган, яъни улар коррупцияни жамият тартибини бузувчи ҳолат сифатида тан олишган. Ўзбекистоннинг коррупцияга қарши курашиш чора-тадбирларида айнан шу ҳолатга эътибор қаратилиши лозим, яъни фуқаролар онгига давлат хизматчилари давлат хизматидаги вазифасига қўшимча пул келтирадиган восита, аҳоли эса коррупция муаммоларини тез ҳал этадиган ечим сифатида қарашдан воз кечиш ғояси сингдирилиши лозим.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Халқ давлат идоралариға эмас, балки давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак” деган ғояси - бугунги давлат органларининг асосий мазмунини ташкил этиб бораётганлиги ҳам юртимизда коррупция иллатининг камайишига туртки бўлди. Бу эса ўз навбатида кадрлар сиёсатини янги босқичга кўтармоқда.

Шуни айтиш керакки, жамиятда ҳалол инсонлар кўпчиликни ташкил этмагунича коррупцияни енгиш учун серҳараждат ва самарасиз кураш давом этаверади. Немислар вақтга соатдек амал қиладилар, японлар ташаббусларни амалга оширишда иккиланмайдилар, турклар байроби учун ўлишга тайёр... Бу халқларнинг характеристига айланиб кетган хислатлар шу халқларнинг тарбия тизимиға сингдириб юборилган. Корейслар ҳам шу сабаб ёлғон билан яшай олмайдиган даражада тўғрилар. Биз коррупцияни бугун енгишимиз қийин. Жуда кўпчилик бирорнинг ҳаққидан кўрқмайди. Уларнинг ҳаммасини жазолаш мумкин бўлмаганидек, ҳаммасини ўзгартириб ҳам бўлмайди. Биз коррупцияни эртага енгиш учун иккита масалани бугун ҳал қилишимиз керак, яъни, тарбияни кучайтириш ва адолатли меҳнатга ҳақ тўлаш тизимини яратиш.

Барчамизга маълумки, коррупция ҳар қандай давлатда турли хил муаммоларни юзага келтирадиган, давлатни, жамиятни тараққий этишига тўсқинлик қиладиган, ижтимоий-иктисодий муаммоларни чукурлаштиришга сабаб бўладиган бир иллат сифатида эътироф этилади. Кўпгина эксперtlарни эътироф этишича, коррупция мураккаб бир ҳодиса сифатида юзага келиб, унга қарши курашиш учун ишлаб чиқилган чора-тадбирлар ҳар доим ҳам самара бермаслиги таъкидлаб ўтилган. Коррупцияга қарши курашишнинг энг самарали йўлларидан

бири ҳаракатни тизимли тарзда, тинимсиз равишида, изчил амалга оширилиши яхши натижалар беради.

Буни ечиш йўлларидан яна бири ижтимоий фикрни шакллантира олишимиз керак бўлади. Таълим соҳасида коррупциянинг ривожланишига илдиз отишига асосий сабаблардан яна бири кадрларнинг ўзига ишончи йўқлигидадир. Ҳар бир соҳанинг ўзини профессионал касб эгаси бўлади. Коррупциянинг авж ошишига яна битта сабаб ошкораликни йўқлиги эди. Хорижда ҳар бир лавозимга тайинланиш шу қадар ошкоралик элагидан ўтказиладики ҳар қандай раҳбар кадрни 20 йил олдин қылган хатолариниам журналистлар топиб кўрсатади. У кадрни шу ишга муносиб ёки муносиб эмаслиги исботланади. Шу элаклардан ўтган кадр ишга олинади. Агар профессионал юксак даражадаги етук кадр бўлмаса қанча пул таклиф қилишидан қатий назар ишга олинмайди. Биз ҳар доим коррупцияга қарши курашиб келганмиз, лекин олдини олиш бўйича деярли ҳеч қандай ишлар қилинмади десак ҳам бўлади. Биринчи навбатда коррупцияни олдини олиш керак.

Жамиятда маиший (кундалик) коррупция бор. Мактабга, боғчага, касалхонага борганимизда коррупцияга кўп дуч келамиз, нега, у ерда, сабаби алоқа (контакт) кўп у ерда ҳалқ билан мулоқот қилинади. Бу ҳолатда нима қилишимиз керак, аҳолини шу жумладан, талабаларни хуқуқий маданиятини бир кунда ўзгартириб бўлмайди. Бу муаммо билан 20 йилдан буён курашиб келмоқдамиз. Давлат хизматлари агентлиги қанчадан-қанча коррупцияни олдини олаётганини ҳаммамиз яхши биламиз. Бутун дунёда ҳаммамиз биламиз электрон хукумат деган тушунча бор. Ҳамма нарса электрон. Ҳамма нарса уйда. Қачонки шу тизимга тўлиқ ўзак коррупция шунча камаяди. Шу билан бирга аҳолимизни ҳам хуқуқий маданияти ошиб бораверади.

Коррупция жамият ривожидаги энг катта тўсиклардан биридир. Сўнгти йилларда Ўзбекистонда ҳам мазкур муаммони ҳал қилишга қаратилган бир қатор ислоҳотлар амалга оширилиши натижасида мамлакатимизнинг коррупцияга қарши курашга ихтисослашган нуфузли ҳалқаро ташкилотларнинг рейтингларида мавқеи секинлик билан бўлсада, яхшиланиб бормоқда.

Масалан, “Transparency International” ҳалқаро ташкилотининг 2023 йилги рейтингида Ўзбекистон 180 давлат орасида 121-ўринни эгаллаган бўлиб, мамлакатимизда охирги 12 ой ичида пора берган давлат хизматларидан фойдаланувчилар салмоғи 13 фоизни ташкил этган. Ҳалқаро “Rule of Law Index” сининг 2020 йилги статистик кўрсаткичларида Ўзбекистон “Коррупциянинг йўқлиги” индикатори бўйича 0.40 баллни олган. Ўтган йилларга қараганда бу соҳада умумий ўсиш 0.2 фоизни ташкил этади.

Дунё даражасида инвестицияни кириб келиши бўйича биз биламиз “Doing Business”да ҳаракатлар кетмоқда. Дунёда биз билган “Transparency international” деган катта рейтинг бор. Уни ҳар йилги рейтинги чиқарилади. “Doing Business” ҳам шунга қарайди. Америка ёки Европа биз ҳақимиздаги маълумотни давлатимизга келиб бу ердан ўрганишмайди. Улар шу маълумотлар асосида ўрганади. Инвестиция кириб келишининг энг асосий омиларидан бири, давлатда коррупциян ҳолат қандай деган савол кўриб чиқилади, ҳамда шу асосида давлатга инвестиция киритилади. Давлатга қизиқиш билдирган инвестерни ортида яна 100 та инвестер туради. Ҳаммаси бир жойдан маълумот олишади. Биздан эмас.

Масалан, АҚШда йўл-патруль хизмати ходимларини ҳолатига эътибор қарацак қизиқ нарсага гувоҳ бўламиз. Ҳайдовчига баённомани ёзади, ойнага қўяди кетади. Ҳеч қачон мулоқотга киришмайди. Уларда алоқа (контакт) қилишга рухсат йўқ. Коррупция энг минимал бўлган давлат бу Сингапурдир. Сингапур тажрибасида юзма-юз алоқа йўқ қилинган. Бу муаммога самарали ечим топиш учун бу иллатни таълим соҳасидан бутунлай йўқотиш учун керак бўлса бутун дунё тажрибасини ўрганиш керак бўлади. Бир жумла бор велосепед ихтиро қилиш керак эмас, бу ихтиро қилинган. Коррупцияга қарши курашганда шахсга қарши курашиш керак эмас. У ҳеч қачон фойда бермайди. Буни тўғри тушунишимиз керак.

Японияни таълим стандарти шуни кўрсатадики, уларда босқичма-босқич худди автомобиль ишлаб чиқариганда қарагандек қарайди. Ўқишига кириш муаммо эмас. Лекин ўқиши

муаммо, диплом олиш муаммо. Ўқиши битирганидан кейин ҳам бекор қолмайди. Японияда катта марказ мавжуд бўлиб, бир йилда 100 мингта талаба ўқиши битирса ҳаммасига иш бор[1]. Шунинг учун ҳамма жойларда танловлар қонуний бўлиши керак. Пулли танлов бўлсин. Масалан, Грузия мисолида оладиган бўлсак, давлат хизматлари агентлигига борасиз сиз у ердан ярим соатда паспорт олишингиз керак. Прейскурант[2] қилиб қўйишган. 100\$ тўланади 1 соатдан кейин паспорт тушади. Бир ойдан кейин олиш учун олайлик 10\$ тўлайсиз бир ойда паспортни олиб кетасиз. Лекин 1 соатдан кейин олмоқчи бўлсангиз 100\$ тўлайсиз[3]. Эътибор берадиган бўлсак пуллар давлатни кассасига тўланаяпти. У ҳеч кимга учрашиши керак эмас. Кимгadir мурожаат қилиши керак эмас. Мана шундай тизимни йўлга қўйсак бу коррупцияни камайтиришнинг энг самарали йўлларидан бири ҳисобланган бўлар эди.

Хозир қонунчиликда жудаям яхши амалиёт йўлга қўйилган. Ҳаммамиз биламизки, ҳар қандай қонун ҳужжати қабул қилинаётганида www.aza.uz Ўзбекистон Миллий ахборот агентлигини сайтида www.fikr.uz жамоатчилик фикрини ўрганишга ёки Вазирлар маҳкамасини www.gov.uz сайтларига қонун лойиҳалари қўйиб борилади. Халқ шу сайтларга кириб қонун лойиҳаларини, норматив ҳужжатларни ўрганиб ўзини фикр мулоҳазаларини бериб бормоқда. Бу жуда тўғри амалиёт деб ҳисоблаймиз.

Олий таълимда коррупцияга қарши курашиш борасида ижобий натижаларга эришиш учун коррупцияга қарши курашишни шакллантириш ва назорат қилиш жараёни учун масъул бўлган алоҳида ўз фаолиятини жамоатчилик асосида ташкил этувчи коллегial орган ҳисобланган - Университетнинг Коррупцияга қарши курашиш бўйича Комиссиясини фаолиятини тубдан такомиллаштириш керак.

Бундан ташқари, университет ёки институт таркибий бўлинмалари ва унинг муассасалари коррупцияга қарши курашишда амалдаги қонун ҳужжатлари тамойил ва талаблари юзасидан хабардор қилиш ва тушунтириш бўйича қўйидаги хатти-ҳаракатларни амалга оширишлари зарурлиги белгилаб қўйилиши лозим:

- университет ёки институт таркибий бўлинмалари ва муассасаларининг ходимларида коррупцияга муросасиз муносабатни шакллантириш ҳамда бу борадаги қонун ҳужжатлари билан таништириш мақсадида доимий ва тизимли семинарлар, давра суҳбатлари ва конференциялар ташкил этиш;

- коррупцияга қарши курашишда сиёсий аҳамиятга эга бўлган аудио ва видеороликлар ва бошқа турдаги ахборот маълумотларидан фойдаланган ҳолда мунтазам равишда маънавий-ахлоқий мавзудаги тадбирларни ташкил этиб бориш;

- коррупцияга оид хуқуқбузарликлар содир этилганлиги тўғрисидаги гумонлар ёки далиллар, коррупциявий хавф-хатарлар ҳақида хабар берилиши мумкин бўлган алоқа имкониятларини яратиш;

- университет ёки институт таркибий бўлинмалари ва унинг муассасалари ходимларининг меҳнат шартномалари ва лавозим йўриқномаларига коррупцияга қарши курашишга оид қоидаларни киритиш;

- тегишли респондентлар билан коррупцияга қарши курашишга қаратилган ижтимоий сўровларни ўтказиш ҳамда уларнинг фикрларини ўрганиш асосида турли хил чора-тадбирларни ишлаб чиқиш лозим.

Шу билан бирга, олий таълимда коррупцияни юзага келишига туртки берувчи турли хил сабабларни бартараф қилиш бўйича чоралар кўриш, коррупциявий ҳолатлар ҳақида хабар берган шахсларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда уларни рафбатлантириш механизмларини ишлаб чиқиш, коррупциявий ҳолатлар ҳақида хабар бериш ҳамда тизимини электронлаштиришга катта эътибор бериш лозим.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак” асари.

2. https://uza.uz/uz/posts/pedagog-xodimning-maqomi-togrisidagi-qonun-loyihasi-ishlab-chiqildi_190352
3. <https://www.transparency.org/en/cpi/2023/index/usb>
4. https://www.unipage.net/ru/bachelor_italy
5. <https://www.education-medelle.com/articles/universiteti-yuponii.html>
6. <https://georgia.in-facts.info/prices/tsenyi-v-gruzii/>

РЕЗЮМЕ:

Мазкур мақолада олий таълим муассасаларида коррупция ҳолатларини сақланиб қолишининг асосий сабаблари, олий таълим тизимида коррупцияга қарши кураш олиб бориш учун аввало хорижий тажрибаларни пухта ўрганиш масалаларига эътибор қаратилади.

Калит сўзлар: коррупция, коррупцияга қарши кураш, таълим, маънавият, етук кадр.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматриваются основные причины сохранения коррупции в высших учебных заведениях, а также вопросы тщательного изучения зарубежного опыта в целях борьбы с коррупцией в системе высшего образования.

Ключевые слова: коррупция, борьба с коррупцией, образование, духовность, зрелые кадры.

RESUME:

This article focuses on the main reasons for the persistence of corruption in higher education institutions, and on the issues of careful study of foreign experiences in order to fight against corruption in the higher education system.

Key words: corruption, fight against corruption, education, spirituality, mature staff.

ПРОКУРОРНИНГ АЙБЛОВДАН ВОЗ КЕЧИШ АМАЛИЁТИНИНГ МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИКДАГИ ЎРНИ ВА ХАЛҚАРО ТАЖРИБА

Баҳромбеков Б.Б. –
*Хуқуқни муҳофаза қилиши академияси
Коррупцияга қарши курашии
илмий-таълим маркази прокурори*

Суд мұхокамаси жиноят процессининг асосий ва марказий қисми ҳисобланади. Айнан суд жараёнида шахснинг айбдорлиги ёки айбсизлиги масаласи ҳал этилади.

Ўзбекистон Республикаси “Прокуратура тўғрисида”ги Қонунининг 2-моддасида қонун устуворлигини таъминлаш, қонунийликни мустаҳкамлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ҳамда эркинликларини, жамият ва давлатнинг қонун билан қўриқланадиган манбаатларини, Ўзбекистон Республикаси конституциявий тузумини ҳимоя қилиш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактика қилиш Ўзбекистон Республикаси прокуратура органларининг асосий вазифаларидан бири деб белгиланган.[1]

Прокурор судларда ишларни кўришда қонунда белгиланган тартибда иштирок этиши орқали фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манбаатларини таъминлашда ўз хиссасини қўшади.

Давлат айблови – бу ишнинг ҳақиқий ҳолатларини аниқлаш, жиноят содир этган шахсни айбдор деб топиш ва унга нисбатан жиноят қонунчилигига назарда тутилган муайян ҳуқуқ ва эркинликлардан маҳрум қилиш ёки уларни чеклашдан иборат мажбуров чораларини қўллаш юзасидан асосли фикр беришга қаратилган ҳаракатdir.

Прокурорнинг айбловдан воз кечиши ҳақида кўплаб етук миллий ва хорижий олимлар ўз фикрларини билдирганлар. Рус олими А.А.Тушевнинг фикрича, суд босқичидаги прокурорнинг роли бир қанча шаклларда намоён бўлади, хусусан, у давлат вакили бўлиш билан биргалиқда фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қиласи (масалан, жабрланувчи ва фуқаровий дъявогарга етказилган заарни ундирилишини сўрайди).[2]

Миллий олимлардан бири Д.Довудова таъкидлашича, прокурор судда давлатнинг вакили сифатида айбловни қувватлаб, ўзига юклатилган вазифалардан келиб чиқиб, қонунда белгиланган ваколатлар орқали суд қарорларининг қонуний, асосли ваadolатли бўлишига кўмаклашади ҳамда қонунийликни мустаҳкамлаш, қонун устуворлигини, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, жамият ва давлатнинг қонун билан қўриқланадиган манбаатларини ҳимоя қилинишини таъминлайди.[3]

Э.Галимовнинг фикрича, давлат айбловчиси факатгина шахснинг унга эълон қилинган айблов бўйича айбдорлигига ишончи комил булгандагина давлат айбловини қўллабқувватлаши керак. Судланувчининг айбсизлигига ишонч пайдо бўлган ҳолатда давлат айбловчиси давлат айбловини қўлламаслиги ва бундан воз кечиши лозим.[4]

Қонунчилик суд жараёнида прокурорнинг айбловдан воз кечиши ҳуқуқини берган. Агар шахснинг айбдорлигини тасдиқловчи далиллар етарли бўлмаса, прокурорнинг айбловдан воз кечиши жиноят ишини қонуний ва асосли якунлашнинг мухим воситаси ҳисобланади. Шу сабабли, ушбу институтнинг ҳуқуқий асослари, қонунчиликдаги мавжуд муаммолар ва уларни ҳал этиш йўлларини ўрганиш мухим аҳамият касб этади.

Прокурорнинг давлат айбловидан воз кечиши жиноят процессида мухим ҳуқуқий институт бўлиб, қонунийлик ваadolатни таъминлашда мухим аҳамиятга эга. Айбловдан воз кечиши нафақат прокурорнинг ҳуқуки, балки унинг жиноят иши бўйичаadolатли қарор қабул қилишга қаратилган вазифаси ҳамдир. Ушбу институт жиноят ишларини судда кўриш жараёнидаadolатни таъминлаш, шахснинг ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилишда алохида ўрин тутади.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексида айловдан воз кечиши механизми хукуқий жиҳатдан тартибга солинган. ЖПКнинг 409-моддасига кўра, суд муҳокамаси натижасида прокурор суд тергови маълумотлари судланувчининг айбизлигидан далолат беради деган ишончга келса, у айловдан воз кечиши ва воз кечиши сабабларини судга баён қилиши шартлиги, прокурорнинг айловдан воз кечиши суд томонидан жиноят ишини реабилитация асосларига кўра тугатишга сабаб бўлади.[5] Бу норманинг жорий этилиши суд жараёнида тортишув принципининг янада самарали амалга оширилишини таъминлайди.

Миллий қонунчиликнинг мазкур нормаси Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 30 июнда одил судловни таъминлаш ва коррупцияга қарши курашиб масалалари муҳокамасига бағишлиланган видеоселектор йиғилишида берган топшириғи асосида қабул қилинган. Унда давлат раҳбари суд муҳокамасида аниқланган далиллар асосида прокурор суднинг тугашини кутиб ўтирмасдан, ўз ташаббуси билан айловдан воз кечиши кераклигини таъкидлаган эди.[6]

Хорижий давлатларда ҳам прокурорнинг айловдан воз кечиши жиноят процессида муҳим ўрин тутади. Масалан, Россия Федерациясининг Жиноят-процессуал кодексида ҳам прокурорга суд жараёнида айловдан воз кечиши хукуқи берилган. Россия Федерацияси ЖПКнинг 246-моддасида, агар прокурор суд тергови натижаларига кўра судланувчининг айбизлигига ишонч ҳосил қиласа ёки айлов далиллар билан тасдиқланмаган бўлса, у айловдан воз кечиши мумкинлиги белгиланган.[7] Бу норманинг асосий мақсади қонунийликни таъминлаш ва шахснинг хукуқларини ҳимоя қилишдир.

Германияда ҳам прокурорнинг айловдан воз кечиши мумкинлиги қонунчиликда мустаҳкамланган. Германиянинг Жиноят-процессуал кодексига мувофиқ, агар прокурор айборлик далилларининг етарли эмаслигига ишонч ҳосил қиласа ёки қонуний асосларда айловдан воз кечиши керак деб ҳисобласа, у суд муҳокамасининг ҳар қандай босқичида айловдан воз кечиши мумкин.[8]

Янги Зелландия жиноят-процессуал Актига кўра, прокурор айрим тоифадаги жиноят ишларидан ташқари исталган жиноят иши бўйича айловдан воз кечиши институти мавжуд бўлиб, англо-саксон хукуқ оиласига тааллуқли бўлган кўплаб давлатларда шахсга нисбатан қўзғатилган жиноят иши тааллуқли бўлмаса, айловни амалга ошириш жамоат манфаатларига зарар етказса, айбизлигини кўрсатувчи яққол далил аниқланса, айбни исботлаб берувчи аниқ, тўғри ва қонуний манбадан олинган далил мавжуд бўлмаган ҳолатларда айловни қувватлаётган прокурор айловдан воз кечиши мумкин.[9]

Айловдан воз кечиши амалиётда кам учрайдиган процессуал ҳаракат бўлиб, у асосан дастлабки терговининг тўлиқ эмаслиги ёки бир ёқлама олиб борилганлиги, ЖПК нормаларининг нотўғри қўлланилганлиги билан боғлиқдир.

Прокурорнинг айловдан воз кечиши хақидаги норма Бош прокурорнинг соҳавий буйруғи билан тартибга солинган. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 27.11.2015 йилдаги “Жиноят ишлари бўйича судларда ишлар кўрилишида прокурор иштироқининг самарадорлигини янада ошириш тўғрисида”ги 126-сон буйруғи 7.4-бандида, суд муҳокамасида текширилган далиллар асосида судланувчининг айбизлигиги исботланган ва давлат айловини қувватлаётган прокурор бунга ишонч ҳосил қилган тақдирда, айловдан воз кечиши тўғрисидаги қонун талабларига сўзсиз амал қилиши кўрсатилган.

Айловдан воз кечиши ва унинг хукуқий оқибатларига оид қонунчилик нормалари жиноят процессининг муҳим қисми бўлиб, қонунийлик ва адолатни таъминлашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бироқ, қонунчиликдаги айрим муаммолар айловдан воз кечиши институтининг самарали фаолият юритишига тўқсиналиқ қиласи.

Хусусан, биринчидан жиноят-процессуал қонунчилигига айловдан воз кечишнинг хукуқий асослари кўрсатилган бўлса-да, унинг амалий қўлланилишида қонун нормалари ўртасида зиддиятлар мавжуд. ЖПКнинг 409-моддаси прокурорга айловдан воз кечиши хукуқини беради, аммо 421-моддада ишни тугатиш учун қўшимча шартлар белгиланган. Зоро, мазкур моддада агар суд мажлисида ЖПКнинг 83-моддаси ва 84-моддаси биринчи қисмининг

1, 2, 3 ва 8-бандларида назарда тутилган асослар аниқланса, суд ишни кўришни давом эттиради ҳамда 83-моддада назарда тутилган асослар бўйича оқлов ҳукми, 84-модда биринчи қисмининг 1, 2, 3 ва 8-бандларида назарда тутилган асослар бўйича эса айбдор шахсга жазо тайинламай, айлов хукми чиқариши кўрсатилган.

Бу зиддият судьяларнинг мустақиллигига ва айловдан воз кечиш жараёнига таъсир кўрсатиши мумкин. Судьялар ишни мустақил равишида ҳал этишлари керак бўлган ҳолларда прокурорнинг айловдан воз кечиш қарори уларга таъсир қилиши мумкин.

Бизнингча, қонунчиликда айловдан воз кечиш ва оқлов ҳукмини чиқариш асослари ўртасида ўзаро мантиқий алоқадорлик бўлиши лозим. Чунки, айловнинг асосий мазмуни муайян шахснинг айборлигини тасдиқлашга қаратилган бўлса, айловдан воз кечиш жиноят қонунчилигига белгиланган ижтимоий хавфли қилмишнинг тўлиқ инкор қилинишига асосланади.

Амалдаги ЖПКнинг 83-моддасида шахсни реабилитация қилиш учун асослар белгиланган бўлиб, унга кўра, иш бўйича жиноят ҳодиса юз бермаса, шахснинг қилмишида жиноят таркиби бўлмаса ёки унинг содир этилган жиноятга дахли бўлмаса гумон қилинувчи, айланувчи, судланувчи айбсиз деб топилади ва реабилитация этилади.

Шу ўринда, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 23.05.2014 йилдаги “Суд ҳукми тўғрисида”ги 7-сон қарорида шахсни ЖПКнинг 83-моддаси 2-банди билан оқлов ҳукми чиқариш учун асослар кенгайтирилганлигини таъкидлаш ўринли бўлади. Хусусан, мазкур Қарорнинг 9-бандида жиноят сифатида назарда тутилган қилмишнинг аломатлари мавжуд бўлсада, ўзининг кам аҳамиятлилиги туфайли ижтимоий хавфли бўлмаса (ЖК 36-модда); қилмиш зарурӣ мудофаа ёки охиригина зарурат ҳолатида содир этилган бўлса (ЖК 37, 38-модда); қилмиш судланувчи томонидан содир этилган бўлсада, бироқ Жиноят қонуни билан жиноят деб топилмайди (зараар ижтимоий хавфли қилмиш содир этган шахсни ушлаш вақтида етказилса (ЖК 39-модда), буйруқ ёки бошқа вазифани ижро этиш (ЖК 40-модда), касб ёки хўжалик фаолиятига боғлиқ асосли таваккалчилик (ЖК 41-модда), жисмоний ёки руҳий мажбурлаш ёхуд қўрқитиши (ЖК 411-модда); шахс жиноят содир этишдан ихтиёрий қайтганда (ЖК 26-модда) ва ҳоказо ҳолларда қилмишда жиноят таркиби бўлмаганлиги сабабли (ЖПК 83-модда 2-банди) оқлов ҳукми чиқарилиши белгиланган.

Жиноят иши судда кўрилишида Олий суд Пленумининг юкорида кўрсатилган ҳолатлари аниқланган ҳолларда прокурор шахснинг ҳаракатларида жиноят сифатида назарда тутилган қилмишнинг аломатлари мавжудлигини инобатта олиб, Жиноят кодекси 10-моддасида белгиланган жавобгарликнинг муқаррарлиги принципидан келиб чиқсан ҳолда айловдан воз кечмасдан, давлат айловини қувватлаши ва ўз фикрида айбдор шахсни жавобгарликка тортиш юзасидан таклиф бериши лозим бўлади.

Иккинчидан, айловдан воз кечилган ҳолларда жабрланувчининг манфаатлари етарли даражада ҳимояланмайди. Жабрланувчи ўзини жабрланган деб ҳисобласа-да, прокурорнинг айловдан воз кечиши унинг қонуний манфаатларини чеклаб қўйиши мумкин. Қонунчиликда жабрланувчига айловни мустақил қувватлаш ҳуқуқи берилишини таъминлайдиган аниқ нормалар мавжуд эмас.

Жабрланувчининг ҳуқуқ ва манфаатларини тўлиқ ҳимоя қилиш таъминланмаса, жиноят процессидаadolat ва қонунийликка шубҳа туғилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20-моддасига кўра, Ўзбекистон Республикаси фуқароси ва давлат бир-бирига нисбатан ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятлар билан боғлиқdir. Инсоннинг Конституция ва қонулларда мустаҳкамлаб қўйилган ҳуқуқ ва эркинликлари дахлсизdir ҳамда улардан суд қарорисиз маҳрум этишга ёки уларни чеклаб қўйишга ҳеч ким ҳақли эмас.[10]

Прокурор айловдан воз кечган ҳолатларда жабрланувчи ўз манфаатларини ҳимоя қилиш имкониятидан маҳрум бўлиши мумкин. Қонунчиликда жабрланувчига айловни мустақил равишида қувватлаш имкониятини бериш механизми мавжуд эмас ёки етарли даражада ривожланмаган. Натижада, жабрланувчи судда ўз фикрини тўлиқ ифодалаш ва

унинг манфаатларини ҳимоя қилиш имкониятидан маҳрум бўлади. Бу ҳолат жиноят ишини кўриб чиқишида одил судловни таъминлашга тўсқинлик қиласди.

Айловдан воз кечиш жабрланувчида жиноят содир этган шахс айбизиз қолиб кетиши мумкинлиги ҳақида шубҳа туғилишига сабаб бўлади. Жабрланувчи учун жиноят содир этган шахснинг жазоланиши адолатнинг тикланиши бўлса, айловдан воз кечиш бу ҳисни сусайтиради. Жабрланувчига нисбатан адолализлик содир бўлиши мумкинлиги эҳтимоли унинг суд-хукуқ тизимига бўлган ишончини сусайтириши мумкин.

Айловдан воз кечиш натижасида жиноят иши тугатилган ҳолларда, жабрланувчи ўз хукуқларини тиклаш ва зарарни қоплаш учун фуқаролик даъво қилиш имкониятидан маҳрум бўлиши мумкин. Жабрланувчининг манфаатларини ҳимоя қилиш учун қонуний асослар мавжуд бўлиши керақ, аммо айловдан воз кечилганда, бу асослар йўқотилиши мумкин.

Прокурорнинг айловдан воз кечиш қарорини қабул қилишдаги шаффофлик етишмовчилиги жабрланувчининг қонуний манфаатларига зарар етказиши мумкин. Агар прокурорнинг қарори етарли асосларсиз қабул қилинган бўлса, жабрланувчи бу қарорни адолализ деб ҳисоблаши мумкин. Шунинг учун, айловдан воз кечиш жараёнида жабрланувчига таъсир этувчи омиллар ва асослар очиқ ва шаффоф бўлиши керақ.

Мазкур муаммоларни бартараф этиш учун жабрланувчиларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш учун қонунчиликка ўзгартишлар киритиш зарур. Жабрланувчига судда айловни мустақил қувватлаш хукуки бериш механизмини жорий этиш, шунингдек жабрланувчига прокурорнинг айловдан воз кечиш қарори устидан шикоят қилиш хукуқини бериш зарур. Бу хукуқ жабрланувчининг манфаатларини ҳимоя қилиш имкониятини оширади ҳамда суд-хукуқ тизимида адолатни таъминлашга ёрдам бериши мумкин.

Шу билан бир қаторда, прокурорнинг айловдан воз кечиш қарори етарли асослар ва далиллар билан тўлиқ асосланган бўлиши керақ. Жабрланувчи ва бошқа манфаатдор томонлар учун қарорнинг асослари очиқ бўлиши, уларнинг хукуқ ва манфаатларига нисбатан адолатли ва ҳаққоний қарааш шаклланиши учун зарурдир.

Айловдан воз кечилган ҳолатларда жабрланувчиларнинг фуқаролик даъво қилиш хукуки чекланмаслиги керақ. Жабрланувчиларга зарарни қоплаш учун фуқаролик даъволарини қўзғатиш имконияти берилиши лозим.

Айловдан воз кечиш жабрланувчиларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш нуқтаи назаридан етарли даражада ривожланмаган. Қонунчиликдаги бўшлиқлар ва хукукий нормаларнинг аниқ эмаслиги жабрланувчиларнинг адолатли ҳимоясига тўсқинлик қиласди. Шундай экан, жабрланувчиларнинг манфаатларини таъминлаш учун қонунчиликни такомиллаштириш, уларга айловни қувватлаш ва шикоят қилиш хукуқини бериш, шунингдек, прокурорларнинг қарор қабул қилиш жараёнида шаффофликни ошириш зарур. Бу чора-тадбирлар жиноят процессида қонунийлик ва адолатни таъминлашга ҳисса қўшади.

Учинчидан, қонунчиликда прокурорнинг айловдан воз кечиши учун қандай асослар ва шартлар мавжудлиги тўлиқ аниқланган эмас. Жиноят-процессуал кодексда прокурорнинг айловдан воз кечишига йўл қўйиладиган ҳолатлар қўрсатилган бўлса-да, уларнинг аниқ ва аниқлаштирилган тавсифи йўқ. Масалан, “айбордорликни тасдиқловчи далиллар етарли эмас” деган тушунча юридик жиҳатдан аниқ изоҳланмаган ва бу субъектив қарор қабул қилишга олиб келиши мумкин.

Бундай ноаниқлик прокурорларнинг айловдан воз кечиши жараёнида қарор қабул қилишда субъективликка йўл қўйиши мумкин. Натижада, суд адолатини таъминлашда ёки адолализ қарорлар чиқариш эҳтимоли ортиши мумкин.

Фикримизча, прокурорнинг айловдан воз кечиши учун зарур бўлган аниқ шартлар ва асосларни қонунчиликда аниқ қўрсатиш зарур. Бу, айловдан воз кечиш жараёнида субъективликни камайтириш ва ягона стандартларга амал қилишга ёрдам беради.

Тўртинчидан, прокурорнинг айловдан воз кечиши қарори қандай қабул қилиниши, унга қандай далиллар асос бўлиши ва бу қарорнинг суд томонидан қандай баҳоланиши лозимлиги қонунчиликда аниқлаштирилмаган. Шунинг учун прокурорнинг қарори жабрланувчилар,

судьялар ва бошқа манфаатдор томонлар учун тушунарсиз бўлиши мумкин. Бу ҳолатларда жабрланувчилар ва жамоатчилик прокуратуранинг қарорига нисбатан ишончсизликка тушишлари мумкин.

Қарор қабул қилиш жараёнида шаффоффлик йўқлиги жамоатчиликнинг прокуратура органлари ва суд-хуқук тизимиға ишончини камайтиради. Бу эса давлатнинг суд-хуқук тизимининг барқарорлигига таъсир кўрсатади.

Прокурорнинг айбловдан воз кечиши тўғрисидаги қарорларини асослантириш ва уларни барча манфаатдор томонлар учун очик қилиш лозим. Бу жараёнда жабрланувчилар ва бошқа манфаатдор томонларнинг хуқуқ ва манфаатлари инобатга олингандигига ишонч ҳосил қилиш керак.

Бешинчидан, қонунчиликда прокурорнинг айбловдан воз кечиш тўғрисидаги қарор қабул қилишда қандай стандартлар ва мезонларга амал қилиш кераклиги тўғрисида аниқ кўрсатмалар йўқ. Бундай ҳолатда, прокурорлар айбловдан воз кечиш жараёнида ўзларининг шахсий қарашлари ва фикрларига асосланishi мумкин, бу эса ягона хуқуқий қоидаларга амал қилинмаслигига олиб келиши мумкин.

Айбловдан воз кечиши жараёнида ягона стандартларнинг мавжуд эмаслиги суд-хуқук амалиётида турлича ёндашувларнинг юзага келишига олиб келади ва бу холис қарор қабул қилишга салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Прокурорларнинг айбловдан воз кечиши тўғрисида қарор қабул қилишда қўллашлари керак бўлган аниқ стандартлар ва мезонларни ишлаб чиқиши зарур. Бу ҳолда, прокурорларнинг қарорлари холис, адолатли ва қонуний асосланган бўлиши таъминланади.

Прокурорнинг давлат айбловидан воз кечиши муҳим хуқуқий институт бўлиб, унинг тўғри ва адолатли қўлланилиши суд-хуқуқ тизимининг самарадорлигига таъсир қиласди. Давлат айбловчисининг айбловдан воз кечиш тўғрисидаги қарор қабул қилиш механизмининг аниқ эмаслиги жиноят процессининг адолатли ва самарали бўлишини таъминлашда жиддий тўсиқлар яратади. Шу сабабли, қонунчиликни такомиллаштириш, шаффоффликни ошириш, назорат механизмларини кучайтириш ва қарор қабул қилиш стандартларини ишлаб чиқиши орқали мазкур муаммоларни бартараф этиши зарур. Бу чоралар жиноят процессида қонунийлик, адолат ва фуқароларнинг хуқуқларини тўлиқ ҳимоя қилишга хизмат қиласди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20-моддаси
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси, 409-модда
3. <https://uza.uz/posts/odil1-sudlovni-taminlash-va-korruptsiyaga-arshi-kurash-mu-oka-30-06-2020>
4. Ўзбекистон Республикаси “Прокуратура тўғрисида”ги Қонуни (янги таҳрир). 29.08.2001 у.257-II-сон <https://www.lex.uz/ru/docs/106197>
5. Тушев А. А. Участие прокурора в уголовном процессе : учеб. пособие / А. А. Тушев. – Краснодар : КубГАУ, 2019. С 12.
6. Д.Довудова. Биринчи инстанция судларида жиноят ишларини юритишида прокурор ваколати тушунчаси, юридик табиити. Мақола. Ўзбекистон Республикаси Бош Прокуратураси Ахборотномаси. №4(40) 2019. 65-б.
7. Галимов Э.Р. Процессуальное положение государственного обвинителя в суде первой инстанции по уголовным делам Автореф. на соис. уч. степ канд. юр. наук. Челябинск, 2008, с. 7.
8. <https://uza.uz/posts/odil1-sudlovni-taminlash-va-korruptsiyaga-arshi-kurash-mu-oka-30-06-2020>
9. Россия Федерацияси Жиноят-процессуал кодекси, 246-модда
10. Германия Жиноят-процессуал кодекси, §153-параграф
11. <https://www.linkedin.com/pulse/overview-withdrawal-charges-pursuant-section-254-criminal-fuad>

12. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси, 409-модда

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада прокурорнинг жиноят ишлари бўйича давлат айловидан воз кечишининг ҳуқуқий асослари, шартлари, тартиби ва ҳуқуқий оқибатлари мухокама қилинган. Прокурорнинг айловдан воз кечиши жараёнидаги ҳуқуқий муаммолар ҳамда ушбу муаммоларни бартараф этиш бўйича аниқ таклифлар берилган.

Калит сўзлар: давлат айлови, суд, прокурор, айловдан воз кечиш, жиноят процесси.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье обсуждаются правовые основы, условия, порядок и правовые последствия отказа прокурора от государственного обвинения по уголовным делам. В процессе отказа прокурора от обвинения рассматриваются правовые проблемы, а также даются конкретные предложения по их устраниению.

Ключевые слова: государственное обвинение, суд, прокурор, отказ от обвинения, уголовный процесс.

RESUME:

This article discusses the legal basis, conditions, procedure, and legal consequences of a prosecutor's withdrawal from state prosecution in criminal cases. The legal issues that arise during the process of the prosecutor's withdrawal from prosecution are examined, along with specific proposals for their resolution.

Keywords: state prosecution, court, prosecutor, withdrawal of prosecution, criminal process.

**OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN BOLALARNI JAMIYATGA ADAPTATSIYA
JARAYONI XORIJIY TAJRIBA MISOLIDA**

Butayeva X.Yu. -

*"O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlar agentligi huzuridagi
Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqboli
kadrlarni tayyorlash instituti" tayanch doktaranti*

Bugungi kunda nafaqat iqtisodiyot, balki axloqiy qadriyatlar ham o'zgarmoqda. Natijada oilaviy-maishiy munosabatlar zaiflashdi, oilada bolalarni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda tarixiy poydevoridan mahrum bo'ldi. (Bugungi kunda axloqiy qadriyatlar o'zgarishi natijasida oilaviy-maishiy munosabatlar zaiflashib, oilada bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda tarixiy poydevoridan mahrum bo`lib bormoqda)

Shu munosabat bilan mag'rurlik, sharaf, qadr-qimmat, yaxshilik, rahm-shafqat, vatanparvarlik, o'zaro yordam va boshqalar kabi umuminsoniy qadriyatlar yo'qoladi. Ota-ona qaramog'isiz qolgan yoshlarning moslashuvi o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, uning davomida bola atrofdagi jamiyatning ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini o'rganishi kerak. Ota-ona qaramog'isiz qolgan yoshlarning moslashuvi qiyin, chunki ularning moslashuvi bir necha bosqichda (oilada, internatda, mustaqil hayotda) davom etadi.

Bola huquqlari irqi, millati, dini va boshqa maqomidan qat'i nazar, barcha bolalar huquqiga ega bo'lgan asosiy inson huquqlarini anglatadi. Ushbu huquqlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiyasiga (UNCRC) asoslangan bo'lib, unda barcha bolalar uchun universal kafolatlanishi kerak bo'lgan keng qamrovli huquqlar to'plami ko'rsatilgan.

UNCRCDA mustahkamlangan asosiy printsiplar va huquqlarga quyidagilar kiradi:

Omon qolish huquqi, bunga yashash huquqi, oziq-ovqat, boshpana va sog'liqni saqlash kabi asosiy ehtiyojlarni ta'minlash, zarar va ekspluatatsiyadan himoya qilish kiradi. Rivojlanish huquq, bolalar ta'lif olish, o'ynash, madaniy faoliyat va ularning jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhit huquqiga ega. Himoya qilish huquqi, bolalar zo'ravonlik, beparvolik, ekspluatatsiya, zo'ravonlik va kamsitishlardan himoyalanish huquqiga ega. Bunga qurolli to'qnashuvlar, qochqin maqomi yoki boshqa har qanday zaif holatlarda himoya qilish kiradi. Ishtirok etish huquqi, bolalar o'z fikrlarini bildirish, ularni jiddiy qabul qilish va hayotiga ta'sir qiladigan qarorlarda ishtirok etish huquqiga ega. Ushbu tamoyil bolalarni tinglash va ularni qiziqtirgan masalalarga jalb qilish muhimligini ta'kidlaydi. Kamsitmaslik huquqi, har bir bola ota-onasining irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa fikri, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har qanday kamsitishsiz teng munosabatda bo'lish huquqiga ega., mulk, nogironlik, tug'ilish yoki boshqa holat. Bolaning eng yaxshi manfaatlari, bolalar bilan bog'liq barcha harakatlarda bolaning manfaatlari birinchi o'rinda turadi. Ushbu tamoyil bolalarning farovonligi va rivojlanishini ta'minlash uchun qaror qabul qilish jarayonlarini birinchi o'ringa qo'yadi.

Hukumatlar, siyosatchilar, tashkilotlar va shaxslar uchun bolalar huquqlarini himoya qilishva himoya qilish juda muhimdir. Ushbu huquqlarni hurmat qilish va targ'ib qilish orqali jamiyatlar har bir bola qadr-qimmat, xavfsizlik, sevgi va tushunishda o'sishi mumkin bo'lgan muhitni yaratishi mumkin, shu bilan ularga o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solish va jamiyatning faol a'zolari bo'lish imkoniyatini beradi.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan yoshlarning moslashish jarayonlarining natijasi bolaning holati va uning atrofidagi jamiyat o'rtasidagi izchil uyg'unlik holatida bo'lishi kerak. Shu sababdan hozirgi kunda yurtimizda olib borilayotgan yoshlarga qaratilgan davlat siyosati dolzarbdir. [1,20]

Ota-ona qaramog'isiz qolgan yoshlarni jamiyatga moslashtirish hal qiluvchi va murakkab jarayon bo'lib, turli manfaatdor tomonlar, jumladan hukumat, nodavlat tashkilotlar va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Bu erda ularning muvaffaqiyatli moslashuvi uchun muhim bo'lgan ba'zi asosiy elementlar mavjud:

❖ Qo'llab-quvvatlovchi va barqaror yashash muhit: yoshlarni xavfsiz va barqaror yashash sharoitlari bilan ta'minlash ularning jamiyatga moslashishi uchun juda muhimdir. Bunga qo'llab-quvvatlovchi muhitni taklif qiladigan homiylik, guruh uylari yoki o'tish davri uy-joy dasturlari orqali erishish mumkin.

❖ Ta'lim olish va ko'nikmalarni o'rgatish: ta'lim va ko'nikmalarni o'rgatish yoshlarning o'zini o'zi ta'minlashi va jamiyatga hissa qo'shishi uchun juda muhimdir. Sifatli ta'lim, kasb-hunar ta'limi va ishga joylashtirish dasturlaridan foydalanish ularga bandlik va mustaqillik uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

❖ Ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash: ota-onas qaramog'iga ega bo'limgan ko'plab yoshlar psixologik va hissiy muammolarga duch kelishadi. Ruhiy salomatlik xizmatlari va maslahatlaridan foydalanish ularning farovonligi va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishi uchun juda muhimdir.

❖ Sog'lijni saqlashga kirish: yoshlarning sog'lijni saqlash xizmatlaridan foydalanishini ta'minlash ularning jismoniy farovonligi uchun juda muhimdir. Bunga muntazam tekshiruvlar, ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash va mavjud sog'lijni saqlash sharoitlarini boshqarish uchun resurslardan foydalanish kiradi.

❖ Jamiyat integratsiyasi va qo'llab-quvvatlashi: qo'llab-quvvatlovchi hamjamiyat tarmog'ini yaratish ota-onas qaramog'isiz qolgan yoshlar uchun muhimdir. Bu jamiyatga moslashganda yo'l-yo'riq, qo'llab-quvvatlash va resurslarni taqdim eta oladigan murabbiylar, k o'ngillilar va jamoat tashkilotlarini jalg qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

❖ Huquqiy qo'llab-quvvatlash va targ'ibot: yoshlarning huquqiy qo'llab-quvvatlash va advokatlikdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash ularning huquqlarini himoya qilish va voyaga etganida duch kelishi mumkin bo'lgan har qanday huquqiy muammolarni hal qilishda muhimdir.

Umuman olganda, ota-onas qaramog'isiz qolgan yoshlarning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishi ularning jismoniy, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradigan yaxlit yondashuvni talab qiladi, shu bilan birga ularni rivojlantirish uchun zarur yordam va resurslar bilan ta'minlaydi. [2,10]

Ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaviy bolalar uyiga joylashtirish uchun bir qancha ijtimoiy-huquqiy asoslar mavjud, jumladan:

- Bolaning eng yaxshi manfaati: bola farovonligining asosiy printsipi bolaning eng yaxshi manfaatidir. Agar bolaning manfaati ularga g'amxo'rlik, qo'llab-quvvatlash va yo'l-yo'riq olishlari mumkin bo'lgan oilaviy bolalar uyiga joylashtirilishi aniqlansa, ularo'sha erda joylashtirilishi mumkin.

- Bolalarni himoya qilish to'g'risidagi qonunlar: agar bola suiiste'mol qilish, beparvolik yoki tashlab ketish tufayli ota-onas qaramog'isiz qolsa, bolalarni himoya qilish to'g'risidagi qonunlar bolani oilaviy bolalar uyi kabi xavfsiz muhitga joylashtirishni talab qilishi mumkin.

- Vasiylik va homiylik masalalari: bolaning ota-onasi ularga g'amxo'rlik qila olmaydigan yoki xohlamagan hollarda, qonuniy vasiylik va homiylik masalalari bolani muqobil parvarish chorasi sifatida oilaviy bolalar uyiga joylashtirishi talab qilishi mumkin.

- Jamiyat farovonligi: bolani oilaviy bolalar uyiga joylashtirish, shuningdek, bolani barqaror va qo'llab-quvvatlovchi muhit bilan ta'minlash orqali jamiyat farovonligi va xavfsizligini ta'minlash zarurati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

- Sud qarorlari va qonuniy qarorlar: agar mavjud dalillar va holatlarga asoslanib, bolaning manfaati uchun qaror qilingan bo'lsa, bolani oilaviy bolalar uyiga joylashtirish uchun sud qarorlari yoki qonuniy qarorlar chiqarilishi mumkin.

Oxir oqibat, bolani oilaviy bolalar uyiga joylashtirish to'g'risidagi qaror bolaning farovonligi va himoyasini birinchi o'ringa qo'yadigan ijtimoiy-huquqiy mulohazalarning kombinatsiyasiga asoslanadi.

Ota-onas qaramog'isiz bolalarni ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash tizimi mamlakatlar o'tasida sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Yondashuv millatning Qonunchilik bazasi, ijtimoiy ta'minot siyosati, madaniy me'yorlar va mavjud resurslar bilan shakllanadi. Har bir mamlakat tizimio'ziga xos bo'lsa-da, bu sohadagi ba'zi xorijiy tajribalar keyingi rivojlanish uchun tushuncha va potentsial g'oyalarni taklif qilishi mumkin. Shvetsiya va Finlyandiya kabi ba'zi Yevropa

mamlakatlarida ota-onan qaramog'isiz bolalar keng ko'lamlar institutsiyal yordamga emas, balki birinchi variant sifatida oilaviy bolalar uylariga joylashtirilishi mumkin. Ushbu yondashuv bolalarni barqarorlik, individual parvarish va tarbiyachilar tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan oilaviy muhitga joylashtirishni birinchi o'ringa qo'yadi. [3]

Amerika qo'shma Shtatlari kabi mamlakatlar ko'pincha homiylik tizimiga tayanadilar, bu erda ota-onan qaramog'isiz bolalar tasdiqlangan homiylik ostidagi oilalarga joylashtiriladi. Ularni ijtimoiy ishchilar, yuridik mutaxassislar va boshqa qo'llab-quvvatlash xizmatlarining murakkab tarmog'i qo'llab-quvvatlaydi, ularning asosiy maqsadi bolalarni biologik oilalari bilan birlashtirish yoki asrab olish orqali doimiy joylashtirishni osonlashtirishdir.

Shu bilan birga, Keniya va Hindiston kabi mamlakatlar bolalarni o'z jamoalari ichida ushlab turish va ularga katta oila a'zolari, jamoat tashkilotlari va mahalliy resurslar tomonidan qo'llab-quvvatlashni maqsad qilib, jamoatchilikka asoslangan parvarish modellariga e'tibor qaratmoqdalar.

Ushbu misollarning barchasida ota-onan qaramog'isiz bolalarni ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash huquqiy asoslar, ijtimoiy ta'minot siyosati va jamoatchilikni jalb qilishni o'z ichiga oladi. Bu bolalarning himoyasi, rivojlanishi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ko'pincha ularning manfaatlari va uzoq muddatli barqarorligiga e'tibor qaratiladi.[4]

Ota-onan qaramog'isiz qolgan yoshlarni jamiyatga moslashtirish yo'llari quydagilarni o'ziga qamrab oladi:

1. Barqaror va qo'llab-quvvatlovchi uy-joy bilan ta'minlash: yoshlarning xavfsiz va barqaror yashash joyiga ega bo'lishini ta'minlash ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishi uchun juda muhimdir.

2. Ta'lim olish va ish o'rgatish: ta'lim va ish o'rgatish uchun imkoniyatlar yaratish yoshlarga jamiyatda rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Murabbiylik va qo'llab-quvvatlash dasturlari: yoshlarni murabbiylar va qo'llab-quvvatlash tarmoqlari bilan bog'lash, ular voyaga etganida ularga yo'l-yo'riq, dalda va amaliy maslahatlar berishi mumkin.

4. Sog'liqni saqlash va ruhiy salomatlik xizmatlaridan foydalanish: yoshlarning sog'liqni saqlash va ruhiy salomatlik xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, ularning jamiyatga moslashish qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday jismoniy yoki ruhiy salomatlik ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

5. Hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish: byudjetlashtirish, ovqat pishirish va uy xo'jaligini boshqarish kabi amaliy hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish yoshlarga mustaqil va o'zini o'zi ta'minlashga yordam beradi.

6. Huquqiy yordam va targ'ibot: huquqiy yordam va advokatlik xizmatlarini ko'rsatish yoshlarga huquqiy muammolarni hal qilishda va ularning huquqlari himoya qilinishini ta'minlashda yordam beradi.

7. Jamiyatni jalb qilishni rag'batlantirish: yoshlarni o'z jamoalarida ishtirok etishga undash ularga ijtimoiy aloqalarni o'rnatishga va tegishlilik tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi.

8. Dam olish va ijtimoiy tadbirlar uchun imkoniyatlar yaratish: dam olish va ijtimoiy tadbirlarni taklif qilish yoshlarga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga va tengdoshlari bilan ijobjiy munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi.

9. Tegishlilik tuyg'usini tarbiyalash: yoshlar o'zlarini qadrli va hurmatli his qiladigan qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhitni yaratish ularga jamiyatga tegishlilik va bog'liqlik hissini rivojlantirishga yordam beradi.

10. Maqsadlarni belgilash va kelajakni rejalashtirishni rag'batlantirish: yoshlarni maqsadlar qo'yishga va kelajak uchun rejalar tuzishga undash ularga maqsad va yo'nalish tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi.

Yetim bolalarni va ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash tizimidagi muammolar etarli mablas', malakali mutaxassislarining etishmasligi, byurokratik to'siqlar, farzandlikka olish bilan bog'liq stigma va siyosatning nomuvofiq bajarilishini o'z ichiga olishi mumkin.

Tizimni takomillashtirish uchun davlat idoralari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoalar va xalqaro tashkilotlar kabi manfaatdor tomonlar ushbu muammolarni hal qilish uchun birgalikda ishlashlari va har bir bolaning qiyin sharoitlariga qaramay gullab-yashnashi va o'z salohiyatiga erishish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlashlari kerak.

Ota-onas qaramog'isiz bolalarni ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash tizimida ushbu turli xil xorijiy tajribalarni o'rganish o'z tizimlarini takomillashtirishga intilayotgan mamlakatlar uchun foydali tushunchalar va potentsial strategiyalarni taqdim etishi mumkin. Bu muqobil parvarish variantlarini ko'rib chiqish, huquqiy himoyani kuchaytirish, ijtimoiy ta'minot xizmatlarini takomillashtirish, yuridik va ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni o'z ichiga olishi mumkin. Maqsad muhtoj bolalarga eng yaxshi yordam va g'amxo'rlik qilishdir.

ADABIYOTLAR:

1. Курбацкий И.Н. Становление и развитие института приемной семьи в России. Тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.01,
2. Беспалов Ю.Ф. Семейно-правовое положение ребенка в Российской Федерации: Монография. Владимир: ВГПУ, 2000. - 190 с.
3. Goffman E. Asylums: Essays on the social situations of mental patients and other inmates. N.Y., 1961, p. 386.
4. Клементьев В.В. Институционализация социальной защиты детей-сирот в современном российском обществе. Тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 22.00.04,

REZYUME:

Ushbu maqolada Ota-onas qaramog'isiz qolgan yoshlarni jamiyatga moslashtirishning xorijiy tajribasi va Ota-onas qaramog'isiz qolgan yoshlarni jamiyatga moslashtirish elementlari haqida gap boradi. Maqolada Shvetsiya va Finlyandiya, AQSH ning mavzu yuzasidan tajribasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ota-onas qaramog'isiz qolgan yoshlar, davlat siyosati, jamiyat, ijtimoiy yordam, huquq, imkoniyatlar.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается зарубежный опыт адаптации молодежи, оставшейся без попечения родителей, к социуму и элементы адаптации молодежи. В статье анализируется опыт Швеции и Финляндии, США по данной теме.

Ключевые слова: молодежь, оставшаяся без попечения родителей, государственная политика, общество, социальная помощь, права, возможности.

RESUME:

This article focuses on the foreign experience of adapting young people left without parental care to society and the elements of adapting young people left without parental care to society. The article analyzes the experience of Sweden and Finland, USA on the topic.

Keywords: youth left without parental care, public policy, society, social assistance, rights, opportunities.

KARL POPPER POSTPOZITIVIZM VAKILI SIFATIDA

Sherboboyev M.A. –
“ALFRAGANUS UNIVERSITY”
dotsenti v.b., PhD.

Har qanday falsafa bilan shug‘ullangan faylasuf qarashlarida borliq, uning mohiyati, bilish va undagi o‘ziga xoslik va mantiq masalasi, albatta, aks etadi. Chunki, bunga sabab har bir inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan bu uch muammo hamma uchun birdek ahamiyatli. Buni Karl Popper ijodida ham kuzatish mumkin.

K.Popper F.Bekon va R.Dekartning insonning aqlu idroki va bilish qobiliyati haqidagi qarashlarini «soxta epistemologiya» deb ataydi. Chunki insonning aqlu idroki cheklangan, u «hech narsani bilmasligini biladi», xolos. Qolganlari aqlning takabburligidir. Shuning uchun ham Popper haqiqatni talqin qilishda avtoritet bo‘lishga da’vogar har qanday ta’limotga shubha bilan qarash lozim, deb ta’kidlaydi. Buning sababi nimada? Ta’kidlash joizki, «hozirgi paytda fan falsafasi bilan shug‘ullangan ba’zi olimlar fan rivojlanishi kumulyativ (to‘plovchi) jarayon emas, degan fikrga qo‘shiladilar». [1.30-35] Fan tarixida, shu jumladan, uning ayrim sohalari tarixida ham shunday davrlar bo‘lganki, yillar davomida yig‘ilgan bilimlarni: nazariyalar, tamoyillar, asos soluvchi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish sodir bo‘lgan.

Ilmiy taxminlarning haqiqiyligini aniqlashda birinchi asosiy mezon bu D.Yum va I.Kant kabi olimlarga ma’lum bo‘lgan, taxminlarni tajriba bilan solishtirish talabi, deb hisoblanadi. Agar hissiy tajribada, emperizmda uni tasdiqlovchi obyektlarni ko‘rsatish mumkin bo‘lmasa, unda u ahamiyatsizdir, noto‘g‘ridir. XX asr G‘arbiy Yevropa falsafasida, xususan, Vena to‘garagi pozitivistlari ushbu talabni verifikasiya tamoyili deb nomlashdi: ilmiy tushunchalar, taxminlar, nazariyalarni tajriba orqali tekshirish mumkin bo‘lsa, unda ular ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tajriba ma’lumotlariga bevosita aloqador bo‘lmaydigan rivojlangan nazariy tushunchalarga nisbatan bilvosita verifikasiyanı ishlatish mumkin. Masalan, «kvark» (faraz qilingan zarracha) tushunchasiga tajriba orqali real ekvivalent (o‘xhash narsa) topib berish mumkin emas. Lekin kvark nazariyasi tajriba, eksperiment yo‘li bilan qayd etilishi mumkin bo‘lgan qator hodisalarni oldindan aytib beradi, demak, ushbu nazariyani bilvosita verifikasiya qilish mumkin.

Ratsional tanqid tamoyilini ilgari surgan Karl Popper verifikasiya tamoyili orqali har qanday mohirona qurilgan nazariyaga uni tasdiqlovchi empirik dalillar topish qiyin emas, deb hisoblaydi. Lekin haqiqiy ilmiy nazariyalar murakkabroq tekshirishlarga bardosh berishi lozim. K.Popperning fikriga ko‘ra, Vena to‘garagi a’zolari ilgari surgan verifikasiyalashtirish ilmiylikning asosiy belgisi (mezoni) bo‘lib xizmat qila olmaydi. Ilmiy nazariyalarni chegaralash (demarkasiyalash) ning asosiy belgisi bu falsifikatsiyalashtirish, ya’ni fanga tegishli bo‘lgan har qanday nazariyani rad qila olish, noto‘g‘riligini isbotlab berish mumkinligidir.

Agar nazariya uni rad qilib bo‘lmaydigan ko‘rinishda qurilgan bo‘lsa unda u ilmiy qiymatga ega emas. «Marksizm, psixoanaliz, astrologiya kabi ta’limotlarni aynan rad qilib bo‘lmasligi ular tushunchalarining noaniq bo‘lishiga sabab bo‘ladi hamda ular tarafdozları barcha faktlarni o‘z qarashlariga zid bo‘lмаган yoki qarashlarini tasdiqlovchi deb talqin qilishiga olib keladi va ularni noilmiy ta’limotga aylantiradi, deb hisoblaydi K.Popper.

«Haqiqiy fan rad etilishdan qo‘rqmasligi lozim, - deydi K.Popper: –ratsional tanqid hamda faktlar yordamida doimiy tuzatilishi ilmiy bilishning mohiyatidir». [2.241-242] Faylasuf ilmiy bilimning harakatchan konsepsiyasini tavsiya qildi: ilmiy bilim bu - taxminlar ya’ni, gipotezalar va ularning raddiyalari uzluksiz oqimidir. Ilm-fan taraqqiyoti natijasida faqat «eng kuchli nazariyalar» saqlanib qolishi lozim, lekin ular mutlaq haqiqat bo‘la olmaydi. Har qanday bilim taxminiy, nisbiy tavsifga ega, uning har qanday qismidan shubhalanish mumkin va har qanday mazmun tanqid uchun ochiq bo‘lishi lozim.

Shunisi xarakterlikni, agarda K.Popper uchun tanqidiylikning qarama-qarshiligi bo‘lmish aqidaparastlik (dogmatizm) fanni soxta fanga aylantirsa, T.Kun uchun ilmiy faoliyatning zaruriy

sharti muayyan turdag'i aqidaparastlik yaxshi tasdiqlangan va samarali qarashlar tizimiga qat'iyan mosligidir. T.Kunning nuqtayi nazariga ko'ra, «fanning uzoq muddatli tinch rivojlanishi qisqa muddatli g'aylon va fandagi inqiloblar davri bilan almashadi, bunda paradigmalar, olamning ilmiy manzarasi o'zgaradi».[3.30]

Falsifikatsiya talabining mohiyatidan Popper ta'limotining tanqidiy xususiyati kelib chiqadi. Mantiqiy pozitivistlar asosan ilmiy bilim strukturasini o'rgandilar, uning rivojlanishini tadqiq etish esa fan falsafasi muammolarini boyitdi. K.Popperning xulosasi «induksiyaga, ya'ni turli xil kuzatuvlar natijalarini umumlashtirilishiga asoslangan xulosadir. U ruhiy omil ham, kundalik hayotiy hodisa ham, ilmiy faoliyatning omili ham emas».[4.47] Fanda dalil va kuzatuvlarni tasdiqlash, induksiyaning bazisi sifatida emas, balki nazariyalarni tekshirish va inkor etish falsifikatsiyaning muqim sifatidir. Dalil va kuzatuvlar gipotezani shakllantirish uchun imkon yaratadi, lekin gipoteza ularni umumlashtirmaydi. Nazariyotchilar dalillar asosida gipotezani falsifikatsiyalashtirishga urinadilar. Chunki falsifikatsiya qiluvchi xulosa deduktiv harakterga ega.

Popper konsepsiyasini yaxshiroq tushunish uchun mantiqiy pozitivism metodologiyasidan farqli tomonlarga diqqat qaratish maqsadga muvofiqdir. Mantiqiy pozitivism hissiy bilishni mutlaqlashtiradi. K.Popper esa bilimga turli usullar bilan erishish mumkinligini e'tirof etadi. Kuzatuv, Popper fikriga ko'ra, tashqi ta'sirlarni oddiygina qayd qilish emas, balki gipoteza va nazariyalarni faol tekshirishdir, shuning uchun u nazariy farazlar bilan to'ldiriladi.

Mantiqiy pozitivistlar demarkasiya mezoni sifatida verifikasiyani, Popper esa falsifikatsiyani qabul qilgan. Unda fan va metafizika orasidagi farq aniq ifodalanmagan. K.Popper fan rivojiga metafizikaning katta ta'sir ko'rsatganini tan oladi. «Mantiqiy pozitivistlardan farqli ravishda, Popper ba'zi an'anaviy metafizik fikrlardan yiroq bo'lib, «uch olam» metafizik konsepsiyasini yaratdi».[5.74]

Mantiqiy pozitivistlar fanning asosiy usuli sifatida induksiyani, ya'ni xususiy dalillardan, yakkalikdan umumlashtirishga ko'tarilishni qabul qilar edilar. K.Popper esa, induksiya usulini rad etdi. Uning usuli sinash va adashish bo'lib, u faqat deduktiv mulohazalarga asoslangan. Mantiqiy pozitivistlar kumulyativizmni e'tirof qildilar, ya'ni ularning fikricha, bilish jarayonida har qanday keyingi qadam oldingi natijalarning umumlashtirilgan xulosasidir. K.Popper fikriga ko'ra bilimni rivojlanish modeli kumulyativ emas edi. U hech qanday bilim to'planishini tan olmaydi.

«Mantiqiy pozitivism vakillarining muxim metodologik vazifasi fan tilini tahlil qilish, ilmiylikning apriori (*lot. apriori, – oldingi*) – *tajribadan oldin va undan mustaqil ravishda olingen bilim, ya'ni oldindan ma'lum bo'lgan bilim*. Bu falsafiy atama Immanuil Kant tufayli bilim va mantiq nazariyasida ahamiyat kasb etdi. Bilim g'oyasi tafakkur faoliyatining ichki manbayi g'oyasi bilan bog'liq aprioridir. Bilimni apriori tan oladigan ta'limot apriorizm deb ataladi. Apriorning qarama-qarshi tomoni posteriori ((*lot. aposteriori – quyidagidan*) – *tajribadan olingen bilim (eksperimental bilim)*) hisoblanadi.]» standartlarini aniqlash bo'lgan. Karl Popper o'z usulining vazivasini bilimlar rivojlanishini tahlil qilishda deb biladi. Bu esa o'z navbatida fan tilidagi mantiqiy tahlilning ahamiyatini kamaytiradi. K.Popperning metodologiyasi mantiqdan «boshqa tomonga» burildi, biroq fanning tarixiy taraqqiyotini inkor etmadи.

Ratsionalizmga kelganda esa, uning tamoyillari Dekart va Leybnis davridan beri ma'lum edi. K.Popper ratsionalizmi, aql kuchiga cheksiz ishonchni namoyon etib, eski ratsionalizmdan o'zining tanqidiyligi bilan ajralib turardi. K Popper faqat ratsional dalillar tanqidiy sinovidan o'tgan narsalarga bu dalillarni rad etib bo'lmaydigan davrgacha ishonish mumkin, deb uqtirardi. Bu olamqarashning nomlanishi – «tanqidiy ratsionalizm», «tanqidiy insonparvarlik» ham aynan shundan kelib chiqqan. Bu olamqarash nuqtayi nazaridan, ilmiy bilimning asosi – obyektiv haqiqat emas, balki muayyan muammoning ratsional-tanqidiy hal etilishidir.

Ilmiy bilim dinamikasi muammolarini o'rganishda tanqidiy ratsionalizm metodologiyasini qo'llash natijasida Popper biologizatorlik ko'rinishiga ega fan rivoji konsepsiyasini ishlab chiqdi. Eng yaxshi nazariya, bu- aynan inkor etilgan xamda yangi nazariya uchun oziqlantiruvchi muhit yarata bilgan nazariyadir, deb hisoblaydi Popper ilmiy nazariyalarning haqiqatlik darajasi bilan chuqur qiziqadi va o'z kuzatishlari asosida «tanqidiy usul, sinash va adashish usuli (adashganlikni

aniqlash maqsadida qat’iy tanqidga duch keluvchi, dadil gipotezalarini ilgari surish usuli) haqiqiy ilmiy usuldir, degan xulosa beradi.

Krititsizmning o‘rinli ekanligini e’tirof etish inson qobiliyatiga nisbatan qayta murojaat qilish demakdir, u tug‘ma yoki ilm amaliyoti negizida paydo bo‘lgan qobiliyatdir. Ilmiy amaliyotda tasdiqlanadiki, krititsizm zarurati tadqiqot faoliyati davomida aniqlanadi. Kashfiyotlar ijodiy jarayon natijasi bo‘lib, u mantiqiy amallarning qo‘llanilishini talab etadi. K.Popper va uning izdoshlari Lakatos, Kun g‘oyalarining keyingi ishlanishi, takomillashishi bilim olishi (o‘zlashtirish jarayoni) ni tushuntirib berish yo‘nalishida amalga oshdi. Uning ushbu yondashuvini fallebilizm deb aytish mumkin.

Ilmiy bilishda fallebilizmning asoschisi D.Yum hisoblanadi. Uning fikricha, bizning umumiylar va zaruriy bilimlar mavjudligiga bo‘lgan ishonchimiz illyuziyadir: tajribadan kelib chiqadigan haqiqatni ya’ni, zarurat tusiga kirgandek ko‘rinayotgan haqiqatni biz adashib idrokimizning ixtiyoriy harakati natijasi deb qabul qilamiz. «Epistemologiyadagi ratsionalizm chizig‘i umumiylar va zaruriy bilimlarning mavjudligini bildiradi, muammo esa uning qanday mavjudligidadir. Kant Yumni tanqid qilar ekan, sof matematika aprior sintetik bilimlar, umumiylar va zaruriy haqiqatlardan iborat deb ta’kidlagan».[5.60]

Ta’kidlash joizki, ratsionalizm va fallibilizm o‘rtasidagi bahs, bilim olishdagisi individual-psixologik jihat va obyektivlik antik davrdayoq mavjud bo‘lgan. Xususan, Protagor fikricha, inson bilimlari barcha narsalarning me’yoridir, Sokrat esa odamlar fikridan xoli bo‘lgan bilimlar borligini ta’kidlagan. Sokratgacha eleatlar bilim va fikr (qarash) o‘rtasida aniq farq o‘rnatishgan bo‘lib, ularning manbayini his-tuyg‘ular bilan anglash jarayoni tashkil etadi, borliq idrok orqali anglanadi, deb tushunishgan.

Popper va neopozitivistlar o‘rtasida kelishmovchiligining keyingi nuqtasi falsafaga munosabat masalasi edi. Vitgenshteyn fikricha, falsafaning vazifasi nazariyalarda emas, balki amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishi kerak edi. Haqiqiy falsafaning vazifasi falsafiy bema’nilikni aniqlash hamda odamlarni mazmunli gapirishga o‘rgatishdan iboratdir.

XX asrning birinchi yarmidan boshlab falsafaning narsalar mohiyatiga oid haqiqiy muammolarni hal qilish qobiliyatiga e’tibor qaratila boshlandi. Bazi nazariyotchilar fanda hech qanday haqiqiy falsafiy muammolar yo‘qligiga ishonishdi. Agar mavjud bo‘lsa ham, bu faqat tilga oid qo‘llanish yoki so‘zlarning ma’naviy muammolari deb hisoblashdi.

Kant kabi Popper ham, «falsafa sohasida uzoq vaqtan beri babs-munozaralarni davom ettirganda, uning negizida hech qachon so‘z bilan bog‘liq muammo yo‘q, lekin har doim ham haqiqiy muammolar mavjud»[6.141] deb bildi. «Popperga ko‘ra falsafiy muammolar mavjud va ular quydagilar: kosmologiya muammosi, olamni bilish muammosi, shu jumladan, biz va bizning bilimimiz bu olamning bir qismi sifatida muammo, deydi Popper. Falsafaning vazifasi koinotni va undagi joyimizni tanqidiy ravishda aks ettirish, bilim olish imkoniyatimizni, yaxshi va yomonni farqlash qobiliyatini shakllantirishdir, deydi Popper.[6.143]

Neyrat va Karnaplar singari Vena to‘garagining faol a’zolari falsafa va bilish nazariyasini kabi tushunchalarni yo‘qotishga ham qaror qilishgan edi. Chunki ularning fikri bo‘yicha falsafaning aslida kosmologiyaga hech qanday aloqasi yo‘q edi.

K.Popperning esa fikri butunlay boshqacha bo‘lib, quydagicha yozgan edi: «olam faqat metafizik, shuning uchun falsafiy g‘oyalar kosmologiyaning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatishi tabiiy».[6.143] Falsafaning butun tarixiga sinchiklab qaraydigan bo‘lsak, uning haqiqatni izlash tarixi bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Shu sababli ham, faylasuflarning maqsadi, qiymatlarni tahlil qilish emas, deydi Popper, balki qiziqarli va asosiy haqiqatlarni izlash, haqiqiy nazariyalarni izlab topishdan iborat bo‘lishi lozim.

Neopozitivistlar bo‘lsa empirik ilm-fan yoki sof mantiqdan tashqarida bo‘lgan metodik nazariya mavjudligini rad etdilar. Tilning mantiqiy tahlili sifatida esa bilish nazariyasini taklif qilishdi. Quyidagi aniq izohni Vena kulubi vakillari beradi: «bilish ta’rifga, tilga asoslangan bo‘ladi. Shuning uchun bilimni o‘rganish tilga aylanmog‘i lozim. Shunday qilib, haqiqiy bilim nazariyasini - epistemologiya va metodologiyaning mavjudligi butkul rad etildi. Agar metodologiya, mantiq

bo‘lmasa, unda neopozitivistlarning fikriga ko‘ra, u empirik fanning bir bo‘lagi bo‘lishi kerak, masalan, olimlarning ish jarayonida xatti-harakati ilmi».[6.143] Bu fikrga asosan, tabiiy metodologiya nazariyasini yaratish g‘oyasi kelib chiqdi.

XX asrning oxiri ratsionalizm uchun u qadar yaxshi bo‘lmagan davrlardan biri bo‘ldi. K.Popperning tanqidiy ratsionalizmi ham jamiyatning bir qismi uchun o‘zining jozibadorligini yo‘qotdi. Ochiq jamiyatning assosi - qonun ustuvorligi g‘oyasi - har qanday erkin insoniy jamiyat uchun katta ahamiyat kasb etdi. K.Popperning fikriga ko‘ra, G‘arbda ochiq jamiyatlar real mavjuddir. Boshqa tomonidan, ular «barcha qachonlardir mavjud bo‘lganlardan eng yaxshi, erkin va adolatli, o‘zini o‘zi tanqid ostiga oluvchi va islohotlarning o‘zlashtiruvchisidir». Bu fikrlar yana bir bor «hozirgi vaqt va kelajak shunday chalkashib ketishi mumkinki, unda tanqid ostidagi tanqid qiluvchiga aylanadi va uning teskarisi bo‘lishi mumkin» degan qoidaning to‘g‘riligini isbotlaydi. Demak, neopozitivismni ratsional va tanqidiy bartaraf etish jarayonida foydalaniladigan metodologiyaning kuchli va bo‘sh tomonlari ustida yana bir bor atroflicha o‘ylab ko‘rish zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Философия и интеграция современного социально-гуманитарного знания (материалы круглого стола) //Вопросы философии. – №7. 2004. – С. 30-35.
2. Поппер К.Р. Логика и рост научного знания. –М.: Наука, 1983. – С. 241-242.
3. Шишков И.З. В поисках новой рациональности: философия критического разума. - М.: эдиториал УРСС, 2003. – С 50.
4. К.Поппер. Логика научного исследования. – М., 2004. – С. 47.
5. Поппер К.Р. Объективное знание. Эволюционный подход. - Перевод с английского Д. Г. Лахути. – М., 2002. – С. 74.
6. Поппер К.Р. Предположения и опровержения: Рост научного знания. – М.: ООО Издательство АСТ: ЗАО НПЛ Ермак, 2004. – С. 141.

REZYUME:

Mazkur maqolada Karl Popper ijodi va uning postpozitivizmga ko‘rsatgan ta’siri hamda zamondosh olimlar qarashlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik ilmiy bilish mantig‘i kesimida tadqiq etiladi.

Калит сўзлар: fan, pozitivism, neopozitivism, postpozitivism, falsifikatsiya, verifikatsiya, ilmiy bilish, ratsional bilish, hissiy bilish.

РУЗЮМЕ:

В данной статье исследуется связь творчества Карла Поппера с его влиянием на постпозитивизм, а также взгляды современных ученых в контексте логики научного познания.

Ключевые слова: наука, позитивизм, неопозитивизм, постпозитивизм, фальсификация, верификация, научное знание, рациональное знание, эмоциональное знание.

RESUME:

In this article, the relationship between Karl Popper's work and his influence on postpositivism, as well as the views of contemporary scientists, is studied in the context of the logic of scientific knowledge.

Keywords: science, positivism, neopositivism, postpositivism, falsification, verification, scientific knowledge, rational knowledge, emotional knowledge.

ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРОТИВ МОЛОДЕЖИ ПО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН.

Исламходжаева М.А. –
соискатель на степень *PhD ТЮУ*

Глобализация современного мира делает актуальным изучение законодательного опыта в том числе, уголовно-правового зарубежных государств. Недостаточность специальной литературы по указанной тематике затрудняет решение этой задачи. Исследование иностранного законодательства необходимо не только для ориентирования в процессах всемирной экономической, политической и культурной интеграции и унификации, но и прежде всего для совершенствования отечественного уголовного закона.

Рассматривая ответственность за преступления против молодежи по законодательству некоторых зарубежных стран, мы должны понимать, что понятие молодежи не используется многими законодательствами чаще всего рассматриваются как преступление против несовершеннолетних, но есть страны в которых это понятие используется.

К примеру, в Англии отсутвует уголовный кодекс и соответственно кодифицированное уголовное законодательство, поэтому регламентация уголовной ответственности за преступление против несовершеннолетних помимо судебных прецедентов осуществляется большим количеством нормативных актов, например:

- Законом о правосудии по делам молодежи и доказательствах по уголовным делам (*Youth Justice and Criminal Evidence Act*) 1999 года,
- Законом об уголовной юстиции и судебных службах (*Criminal Justice and Court Services Act*) 2000 года,
- Законом об уголовной юстиции (*Criminal Justice Act*) 2003 года,
- Законом о детях и подростках (*Children and Young Persons Act*) 2008 года и др.

Английское уголовное законодательство выделяет три группы несовершеннолетних: 1) малолетних (до 10 лет), 2) детей (от 10 до 14 лет) и 3) подростков (от 14 до 18 лет). Малолетние не подлежат уголовной ответственности в силу действия презумпции их уголовной недееспособности. На несовершеннолетних от 10 до 14 лет указанная презумпция также распространяется, но она является оспоримой – такие лица подлежат уголовной ответственности только в том случае, если обвинение сможет доказать, что в действиях такого лица присутствуют как *actus reus*, так и *mens rea*, а также осознание ребенком факта причинения серьезного вреда (злонамеренность).

Несовершеннолетие потерпевшего по английскому уголовному законодательству признается обстоятельством, усиливающим ответственность виновного. При этом не всегда делается оговорка о том, что лицо должно достоверно знать о возрасте лица, в отношении которого совершает деяние.

Согласно Закону о детоубийстве (*Infanticide Act*) 1938 года, убийство матерью своего ребенка (*infanticide*) в возрасте до 12 месяцев не является основанием для смягчения ответственности и приравнивается к простому убийству (*manslaughter*) либо по решению присяжных квалифицируется как тяжкое убийство (*murder*). Закон о насилии в семье, преступлении и жертвах преступлений (*Domestic Violence, Crime and Victims Act*) 2004 года предусматривает наказание до 14 лет тюремного заключения за смерть несовершеннолетнего в возрасте до 16 лет в результате незаконных действий членов его семьи.

Закон о преступлениях сексуального характера (*Sexual Offences Act*) 2003 года выделяет в отдельные составы различные посягательства на половую неприкосновенность несовершеннолетних, не достигших 13 лет. В частности, изнасилование и насильственные действия сексуального характера, совершенные в отношении таких несовершеннолетних, безальтернативно наказуемы пожизненным тюремным заключением. Указанный закон также

предусматривает строгую ответственность за преступления сексуального характера в отношении детей, совершенные в семье (familial child sex offences).

В главе 20 Уголовного кодекса Российской Федерации содержатся нормы, устанавливающие уголовную ответственность за преступления против семьи и несовершеннолетних. В систему преступлений против несовершеннолетних входят, в том числе, такие преступные деяния, как вовлечение несовершеннолетнего в совершение преступления (ст. 150 УК РФ); вовлечение несовершеннолетнего в совершение антиобщественных действий (ст. 151 УК РФ); розничная продажа несовершеннолетним алкогольной продукции (ст. 151.1 УК РФ); вовлечение несовершеннолетнего в совершение действий, представляющих опасность для жизни несовершеннолетнего (ст. 151.2 УК РФ); неисполнение обязанностей по воспитанию несовершеннолетнего (ст. 156 УК РФ); неуплата средств на содержание детей или нетрудоспособных родителей (ст. 157 УК РФ).

Содержание преступления ст.156 УК РФ заключается в ненадлежащем исполнении или неисполнении обязанностей по воспитанию несовершеннолетнего, возложенных на лицо законом, соединенные с жестоким обращением с несовершеннолетним родителем или иным лицом, на которое возложены эти обязанности, а равно педагогом или другим работником образовательного, воспитательного, лечебного либо иного учреждения, обязанного осуществлять надзор за несовершеннолетним.

Содержание преступления ст.157 УК РФ заключается в бездействии, выраженным в злостном уклонении родителя от уплаты по решению суда средств на содержание несовершеннолетних детей, а равно нетрудоспособных детей, достигших 18-летнего возраста. Таким образом, уклонение от содержания детей или родителей заключается в категорическом отказе выполнять постановление судьи о взыскании алиментов или в активных действиях, свидетельствующих о таком уклонении.

Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии 1871 года устанавливает несовершеннолетие в пределах от 14 до 18 лет. Закон ФРГ 1953 года об отправлении правосудия по делам несовершеннолетних и молодежи допускает применение к молодежи, т. е. лицам от 18 лет до 21 года, норм, относящихся к несовершеннолетним, если:

1) общая оценка личности такого лица при учете условий, которыми он окружен, указывает, что ко времени деяния по своему моральному и духовному развитию он еще подобен несовершеннолетним, или

2) по виду, обстоятельствам и мотивам деяние является правонарушением несовершеннолетнего.

Немецкий законодатель достаточно редко предусматривает несовершеннолетие потерпевшего в качестве кriminoобразующего признака. Убийство несовершеннолетнего не является квалифицированным преступлением и в отдельный состав не выделяется. К числу преступлений, в которых несовершеннолетний потерпевший выступает обязательным признаком, УК ФРГ относит: сексуальные злоупотребления в отношении опекаемых (§ 174), тяжкие сексуальные действия в отношении детей (§ 176a), сексуальные действия в отношении детей со смертельным исходом (§ 176b), пособничество сексуальным действиям малолетних (§ 180), похищение несовершеннолетних (§ 235), торговля детьми (§ 236). Возраст несовершеннолетнего потерпевшего является основанием для дифференциации ответственности за сексуальные злоупотребления в отношении детей до 14 лет (§ 176 УК ФРГ) или в отношении подростков в возрасте от 14 до 16 лет (§ 182 УК ФРГ).

К источникам уголовного права современной Франции относятся: Декларация прав и свобод человека и гражданина от 26 августа 1789 г. — важнейший документ эпохи Великой французской буржуазной революции, заложивший принципы развития законодательства, последовавшего после крушения феодализма и феодальной системы права. Декларация содержала конституционные нормы, которые явились основополагающими для конституционного развития Франции. В Декларации предусмотрены положения, напрямую связанные с уголовным законодательством.

Французский законодатель традиционно уделяет повышенное внимание интересам несовершеннолетних, обеспечивая их надлежащей уголовно-правовой охраной. В ст. 221-4 УК Франции, предусматривающим ответственность за квалифицированные виды умышленного убийства (*meurtre*), несовершеннолетие потерпевшего, не достигшего 15 лет, названо первым в числе квалифицирующих признаков. В отличие от простого убийства (ст. 221-1 УК Франции), наказуемого 30 годами уголовного заключения, квалифицированное влечет возможность применения к виновному пожизненного уголовного заключения.

Уголовный кодекс Франции предусматривает также более строгую ответственность за насильственные преступления, если они совершены в отношении несовершеннолетних, не достигших 15-летнего возраста: пыта и акты жестокости (ст. 222-3), насильственные действия, повлекшие смерть без намерения ее причинить (ст. 222-8), изнасилование (ст. 222-24), сексуальные агрессии, не являющиеся изнасилованием (ст. 222-29). В гл. VII УК Франции «О посягательствах на несовершеннолетних лиц и на семью» интересы семьи и несовершеннолетних рассматриваются отдельно как самостоятельный объект уголовно-правовой охраны.

Китай, как и любая страна, озабочен снижением количества посягательств на права семьи несовершеннолетних. В Уголовном кодексе Китайской Народной Республики не присутствует одноименной статьи «Вовлечение несовершеннолетнего в совершение преступления» однако в ст.347 УК КНР, посвященной контрабанде, продаже, транспортировке и изготовлению наркотиков, присутствует специальное пояснение, упоминающее несовершеннолетних. В Китае использование, подстрекательство несовершеннолетних к контрабанде, продаже, транспортировке и изготовлению наркотиков или продажа наркотиков несовершеннолетним - наказываются максимально суровым наказанием.

В Китае существует закон КНР «О предупреждении совершения преступлений несовершеннолетними», в котором также говорится об ответственности за вовлечение несовершеннолетних в преступления, там же поминается и «нарушение административного режима общественной безопасности».

Касаемо преступлений против семьи и несовершеннолетних, нарушением административного режима общественной безопасности в Китайской Народной Республике являются следующие случаи:

1. подстрекательства;
2. принуждения;
3. побуждения несовершеннолетних к совершению негативного поведения или незаконного и преступного поведения;
4. создание условий для совершения такого поведения у несовершеннолетних.

В случае обнаружения состава преступления органами общественной безопасности Китайской Народной Республики вводятся санкции, а виновного в преступлении ожидает уголовная ответственность.

Важнейшим правом, которое защищают анализируемые законодательства зарубежных стран, является право ребенка на получение им семейного воспитания и общения с родителями.

УК Швейцарии в ст. 219 предусматривает ответственность попечителя или воспитателя по отношению к несовершеннолетнему лицу или которые относятся к ним лицам и тем самым создает угрозу для их физического или духовного развития.

Согласно ст. 210. § 1 УК Польши «Кто вопреки обязанности заботиться о малолетнем моложе 15 лет либо о беспомощном лице в связи с его психическим или физическим состоянием покидает такое лицо, подлежит наказанию».

Анализ законодательства иностранных государств позволяет с учетом встречающихся вариантов общественно опасных посягательств на интересы несовершеннолетних с уверенностью сказать, что проблема жестокого обращения и ненадлежащего воспитания, а

также вовлечения в противоправные действия несовершеннолетних остается актуальной для каждой страны. Модернизация законов, реформирование уголовного права позволяет с уверенностью говорить о заинтересованности общества и внимании государственных органов к проблеме преступлений против молодежи. Государственный интерес в деле охраны несовершеннолетних заключается, в первую очередь, в понимании несовершеннолетнего и его семьи как блага общества, обеспечивающего прочность и стабильность государства, и поэтому подлежащего особой защите с его стороны. Таким образом, уголовно-правовая защита несовершеннолетних в своем содержании имеет в виду установление норм, санкций, ответственности, играющих роль гарантий обеспечения субъективных прав и интересов формирующейся личности.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Уголовное законодательство зарубежных стран (Англии, США, Франции, Германии, Японии). Сборник законодательных Под ред.: Козочкин И.Д. - М.: Зерцало, 1999. – С. 256.
2. Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии / Науч. ред. и вступ. статья Д.А. Шестакова; пер. с нем. Н.С. Рычковой. – СПб: Юридический центр Пресс, 2003. – С. 368–376.
3. China sees less juvenile crime, fewer school dropouts// «Синьхуа». – 2017.
4. Уголовный кодекс Швейцарии / Науч. ред., А.В. Серебренниковой. СПб.: Юрид. центр Пресс, 2002. – С. 162.
5. Уголовный кодекс Республики Польша / Науч. ред. канд. юрид. наук, доц. А.И. Лукашов, – СПб.: Юридический центр Пресс, 2001. – С. 126.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматривается ответственность за преступления против молодежи по законодательству некоторых зарубежных стран.

Ключевые слова: преступление против молодежи, ответственность за преступление против молодежи

RUZYUME:

Maqolada ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligidagi yoshlarga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik muhokama qilinadi

Kalit so'zlar: yoshlarga qarshi jinoyat, yoshlarga qarshi jinoyat uchun javobgarlik

RESUME:

The article discusses liability for crimes against youth under the laws of some foreign countries

Key words: crime against youth, responsibility for crime against youth

МАДАНИЙ ТАРАҚҚИЁТГА ЭРИШИШ ОМИЛЛАРИ ВА ЁШЛАР ТАРБИЯСИ

Тилавова З. -

*Ижтимоий маънавий тадқиқотлар
институти мустақил тадқиқотчиси*

Маълумки, инсоният тараққиётининг муҳим омиллари орасида иқтисодий, ижтимоий, сиёсий ва хукукий жабҳалар билан бирга, маданий ҳаёт мезонлари, мазкур соҳадаги фаолият йўналишлари ҳам алоҳида ўринни эгаллади.

Аксарият ривожланган мамлакатларда “маданият” тушунчаси кўпроқ дин ва ахлоқ мажмуи сифатида идрок этилади ва ушбу жабҳада мазкур омилларнинг ўрни ва роли устуворлик қиласи, деб қаралади. Бу борада инсон хукуклари ва демократия тамойилларини таъминлаш маданий соҳа ривожи учун энг муҳим асос, пойдевор бўлиб ҳисобланади.

Кейинги йиллардаги ислоҳотлар жараённида мамлакатимизда жамият тараққиётининг бошқа соҳалари қатори, халқимизнинг азалий қадриятлари, серкирра маданиятини тиклаш ва ривожлантириш масалалари давлат сиёсатининг энг муҳим, устувор йўналишларидан бирига айланди. Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида мазкур соҳани ривожлантириш белгилаб қўйилди. “Ўзбекистон – 30 стратегиясида ҳам маданий тараққиёт ва унинг ёш авлодни тарбиялашга таъсирини белгилайдиган туб ислоҳотлар ва янгиланишларни амалга оширишга алоҳида аҳамият қаратилган.

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида бу борадаги ўзгаришларнинг бошқа соҳалар қатори, маданий тараққиёт жараёнларига таъсир кўрсатиш жараёнидаги ўрни ва аҳамияти янада ортиб бормоқда. Айни пайтда, ушбу жараённинг жамият маданий тараққиёт тамойилларида акс этиши, унинг ҳар бир йўналиши ва турли соҳаларида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг аҳамияти ва амалий натижаларини изчил ўрганиш, бу билан боғлиқ масалаларни таҳлил қилиш вазифалари ҳам ниҳоятда долзарб мазмун касб этмоқда.

Жаҳон тарихи шундан далолат берадики, инсоният ривожланишининг ҳар бир янги босқичида жамиятнинг маданий соҳасига доир тараққиёт тамойилларининг янги-янги қирралари очилаверган. Мавзунинг айни шу жиҳати “Авесто” замонларидан бугунги кунларгача, машҳур алломалар, ҳозирги замон олимлари ва кўплаб мутахасисларни ўзига жалб қилиб келмоқда.

Жамиятнинг маданий ҳаёти ўз навбатида, уларнинг ҳар бирни учун умумий таянч тушунча сифатида намоён бўлади ва ушбу соҳалардаги жараёнларнинг мазмун-моҳиятига таъсир кўрсатади. Бу жиҳатдан, “Маданий тараққиёт” тушунчасида барча маданий қадриятлар ҳақидаги қарашлар, шу асосда шаклланган инсоний фазилатлар ҳамда ижтимоий жиҳатлар ўз аксини топади. Бу жиҳатдан, маданият инсонга хос эзгу хусусият ва фазилатлар мажмуаси бўлиши билан бирга, бизнингча, ҳар бир жамиятнинг ажралмас таркибий қисми, маданий қадриятлар мажмуидир.

Ушбу масалага нисбатан бундай қаралса, ҳар қандай жамият, жумладан Ўзбекистон маданий тараққиёт тамойиллари маданият, маърифат, дин ва бошқалар ҳам бу соҳадаги жараёнлар билан узвий боғлиқ эканлиги маълум бўлади. Бу қоидага кўра, у ёки бу ҳудудда ижтимоий мезонлар ўзгариши мумкин, бироқ маданий тараққиёт тамойилларининг маърифий, маданий, диний соҳалардаги узлуксизлигини таъминлаб турувчи анъанаси ўз аҳамиятини сақлаб қолаверади.

Ҳар қандай жамиятда, жумладан демократик тараққиёт тамойилларини амалга ошираётган бизнинг мамлакатда ҳам ушбу тизим учун уни ташкил этувчи маданий тараққиёт тамойилларининг турли жиҳатлари ва йўналишлари муҳим. Бу жабҳада муайян уйғунлик ва муносаблик, жамиятнинг ижтимоий тузилиши, кишилар ўртасида шаклланган ва барқарорлашган муносабатлар чамбарчас боғлиқликда амал қиласи. Бундай ўзаро боғлиқлик

миллий ва умумбашарий қадрият ҳисобланётган демократиянинг асосий маданий кучи ва имкониятларини яққол кўрсатади.

Жамиятнинг маданий ривожланиш стратегиясида муайян давр ва жамиятга хос белгилар, давлат сиёсати билан боғлиқ хилма хил хусусиятлар ва инсон камолоти билан боғлиқ турлича намоён бўладиган ижтимоий-фалсафий, маданий-маърифий жиҳатлар, ахоли, айниқса ёшларнинг руҳияти ва кайфияти ҳам муҳим ўрин эгаллайди. Бундай белгилар ва ўзига хос жиҳатлар ушбу масалаларга доир тушунчаларнинг турли хусусиятларига таъсир кўрсатадиган фалсафий тамойиллар учун умумий мезон ва таянч омиллар бўлиб ҳисобланади.

Буларнинг барчаси жамиятнинг маданий ҳаёти ва ёш авлод тарбиялашнинг ўзига хос жиҳатлари ва ижтимоий тараққиётнинг бошқа йўналишлари, соҳалари билан ўзаро боғлиқлиги, алоқадорлигини англатади. Ушбу йўналишда кўплаб мутахассислар ва тадқиқотчилар дуч келадиган масаланинг муҳимлиги жамиятнинг маданий ҳаёти фақатгина инсон онгининг ўзига хосликларига боғлиқми ёки моддий макон билан алоқадорми? деган саволга бориб тақалади.

Бу нуқтаи назардан, хозирги жадал ривожланиш даврида иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий ўзгаришлар билан бир қаторда маданий-маърифий соҳада олиб борилаётган ислоҳотлар ҳам ҳал қилувчи аҳамият эга.

Биз инсон ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатланган, фаровон ҳаёт сари, маданий юксалиш, маърифатли жамият қуриш йўлида ҳаракатдамиз. Шу мақсадда ҳар қандай синов ва қийинчиликларни четлаб ўтиб, маданий соҳадаги ислоҳотларимизни давом эттирамиз.

Аммо, барча соҳаларда бўлганидек, маданий-маърифий ишларда ҳам ечимини кутиб турган масалалар йўқ эмас. Мисол учун, улкан ўзгаришлар, янги жамиятнинг назарий асосини белгилаб берадиган миллий ғояни шакллантириш биринчи галдаги масала ҳисобланади. Чунки, жаҳон тарихидан ҳам маълумки, қайсики ҳалқ ёки миллат бир мақсад, ягона ғоя атрофида бирлашса, ўша давлат тараққиётда эришган. Лекин орамизда ҳамон маданиятнинг моҳиятини тушунмаган, унинг керак ёки керакмаслигини билолмай, миллий ғоя ҳақида мутлақо тушунчаси йўқ инсонлар ҳам бор. Баъзилар эса миллий ғоя деганда, эски тузумлардаги мафкураларни кўз олдига келтиради.

Аммо, маданият соҳасидаги ўзгаришларнинг жамиятимиз аъзоларига кўрсатадиган таъсири, янгиланишларни амалга оширишдаги аҳамияти ортиб бораётганига гувоҳ бўляпмиз.

Биз маданий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, маданият ва санъат муассасалари, ижодий уюшмалар ҳамда оммавий ахборот воситалари фаолиятини ривожлантириш йўлида ҳаракат қилмокдамиз. Маданият ва маданият соҳасида фаолият юритувчи ходимлар меҳнатини муносаб қадрлаш чоралари кўриляпти. Шуни унумаслик керакки, амалга ошириладиган ислоҳотларда юксак натижаларга эришиш, соҳанинг мақсад-моҳиятини белгилайдиган тизимли тадбирларни амалга оширишга боғлиқ.

Шуни ёдда тутиш керакки, маданий тараққиётимиз ва миллий ғоянинг асосий таянчлари баркамол авлодни тарбиялаш, илм-фанни юксалтириш, жамиятда соғлом дунёқараш ва турмуш тарзини шакллантиришдир. Бу вазифани амалга ошириш учун фарзандларимизга жуда кичиклигидан Ватанга ва оиласга садоқат, масъулият, кенг фикрлаш, билимга чанқоқлик каби инсоний фазилатларни сингдириб боришимиз зарур.

Хозирги кунда олға сурилаётган Янги Ўзбекистон ғоясини кўп миллатли элимизнинг қалбига сингдириш, уларни ушбу эзгу ғоя атрофида бирлаштириб, келажакка ишоч руҳини, бунёдкорлик, ташаббускорлик фазилатларини кучайтириш маданий соҳадаги фаолиятимизнинг бош мезонидир.

Шундай экан, аҳолимизнинг худудий, касбий ҳамда ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, маданий-маърифий тадбирлар ҳамда тарғибот-ташвиқот ишларини мутлақо янги босқичга олиб чиқиши чорасини кўриш керак.

Юқорида айтилганидек, биз глобаллашув даврида, турли хил мафкуравий таҳдидлар қуршовида яшаяпмиз. Шундай шароитда юртимиз маданий ҳаётида намоён бўлаётган

ўзгаришлар динамикасининг ривожланиш даражаси ва унинг халқимиз миллий хусусиятларига таъсири масаласига эътибор беришимиз лозим.

Жаҳонда ҳукм сураётган ижтимоий-сиёсий жараёнлар ҳамда юзага келган тарихий зарурат юртимизнинг маданий-маърифий соҳадаги бутуни ва эртасини белгилайдиган амалий фаолият дастурларини яратиш ва ҳаётга татбиқ этиш учун зарурый асослар яратмоқда.

Инсоният тарихида буюк салтанатлар таназзулига сабаб бўлган маданий инқирознинг аянчли оқибатларига мисоллар кўп. Гоясизлик, тарқоқлик, маданий қадриятларнинг топталиши давлатнинг қучсизланишига, жамиятда турли иллатларнинг авж олишига замин яратади.

Шундай ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида маданият соҳасидаги янгиланишлар жараёнининг мазмун-моҳияти, ўзига хос хусусиятларини аниқ далиллар асосида ўрганиш, ижтимоий ҳаётнинг бошқа жабҳаларида юз берадиган ислоҳотларнинг маданий-маърифий моҳиятини англаш муҳим.

Бугунга келиб маданий соҳадаги жараёнларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш, бунда Янги Ўзбекистоннинг маданий эҳтиёжларини кўзда тутиш зарурати пайдо бўлди. Шу заруратдан келиб чиқиб, ватанимизнинг яқин келажак учун мўлжалланган тамойил дастурларида маданий-маърифий соҳалардаги ислоҳотлар учун алоҳида бўлим ажратилиши мақсадга мувофиқ бўлди.

Юқорида айтилганлар ўз навбатида келгусида мамлакатимизнинг маданий-маърифий ҳаёти, турмуш тарзини ифодалайдиган ҳужжатлар мажмуи –“Ўзбекистон жамиятининг маданият кодекси”ни ишлаб чиқишина тақозо этади. Бу вазифани тез фурсатда амалга ошириб, амалий ҳаётга татбиқ этиш ҳаётий зарурият хисобланади.

Чунки бундай ахлоқ кодекси юртимизда БМТ томонидан 2022 йилда қабул қилинган ҳудди шу мазмундаги ҳужжат моҳиятига асосланган ҳолда иш юритилаётганини кўрсатади.

Шунингдек, бу борадаги меъёрий ҳужжатлар ва дастурларнинг самарадорлиги, уларнинг халқимиз орзу-интилишларига мослиги, уни таъминлашга масъул бўлган раҳбарлар ва бошқарув ходимларининг ўз мажбуриятларини сидқидил бажаришларига ҳам боғлиқдир.

Жамиятимизда рўй бераётган соҳага доир ислоҳотларнинг юқори натижалар бериши учун шарт-шароитлар мавжуд. Бу борада иқтисодий, ижтимоий, сиёсий соҳаларда бўлганидек, халқимизнинг маданий-маърифий ҳаётида ҳам жадал янгиланиш, улкан ўзгаришлар кузатилмоқда. Эндиликда фуқароларнинг тафаккур тарзи ва қарашлари янгиланиши, уларда замонавий дунёқарашни шакллантириш муҳим вазифалардан бирига айланди.

РЕЗЮМЕ:

Мақолада ёшларни маданий-ахлоқий баркамол этиб тарбиялаш, уларга гуманитар таълим-тарбия беришни сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш масалалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: таълим-тарбия, сифатли таълим, гуманитар тарбия, ёш авлод тарбияси

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируются актуальные вопросы, связанные с воспитанием духовно развитого молодого поколения и роль гуманитарного образования в этом процессе.

Ключевые слова: воспитание и образование, качественное воспитание, гуманитарное образование, воспитание молодого поколения

RESUME:

The article analyzes topical issues related to the upbringing of the spiritually developed young generation and the role of humanitarian education in this process.

Keywords: education and upbringing, quality education, humanitarian education, upbringing of the younger generation.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MUSIQIY QADRIYATLARNING ESTETIK TA'SIRCHANLIGINING O'ZGARIB BORISHI VA QADRSIZLANISHI JARAYONI

Xojimamatov A. –
FarDU o'qituvchisi

Bugungi kunda jamiyatimizda milliy musiqiy merosni asrash va musiqiy tafakkurini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy yuksalish jarayonlarida musiqa san'atiga milliy-estetik qadriyat sifatida yondashish, musiqaning an'anaviy va zamonaviy yo'naliшlarini yanada ravnaq toptirish maqsadida bir qator dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, mumtoz va zamonaviy musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, shuningdek, musiqa san'atini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda. Shu bilan birga, milliy musiqiy merosni asrashga doir ta'limiy-tarbiyaviy jarayonini ham takomillashtirish, unga yangicha yondashuvlarni olib kirish, xorij tajribasini o'rganishga qaratilgan tashkiliy-pedagogik ishlar ham olib borilmoqda. Bu orqali mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati yaratiladi.

Musiqa jamiyat ma'naviy taraqqiyotida san'atning boshqa turlariga nisbatan global ta'sir etish xususiyatiga ega. Ma'naviy yangilanish jarayonlarida musiqa san'atiga milliy-estetik qadriyat sifatida yondashish, musiqaning an'anaviy va zamonaviy yo'naliшlarini yanada ravnaq toptirish maqsadida bir qator dasturlar ishlab chiqildi. Ayniqsa, mumtoz va zamonaviy musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi, shuningdek, musiqa san'atini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy anjumanlar o'tkazildi.

Ta'kidlash lozimki, musiqaning inson estetik dunyoqarashiga ta'siri, voqyelikni estetik o'zlashtirishdagi ahamiyati, shaxsda yuksak badiiy-estetik didni shakllantirish, jamiyat a'zolarining estetik ideallarini tarbiyalash bilan bog'liq ishlarning umumnazariy masalalariga yangicha yondashuvlar shakllandı. Endilikda musiqa nafaqat san'at turi balki, u tarbiya vositasi, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi kuchga aylandi. Musiqaga shu nuqtai-nazardan qaralganda, bugungi kunda uning falsafiy mohiyatini o'rganish va estetik mazmunini tadqiq etishga bo'lgan ehtiyoj yanada ortganligini ko'rish mumkin. Bu jarayon, o'z navbatida, musiqa va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini estetikaning umumnazariy masalasi sifatida o'rganishni taqozo etadi. Bu holat:

birinchidan, bugungi kun o'zbek an'anaviy musiqa san'atining estetik xususiyatlarini falsafiy nuqtai nazarda ilmiy tahlil etish va uni zamonaviy musiqa tamoyillari asosida boyitishni talab etmoqda. Chunki, musiqa va uning estetik tabiatini ham tarbiya, ham ijtimoiy taraqqiyotni barqarorlashtiruvchi muhim vosita sifatida mafkuraviy jarayonlarning markazida turadi;

ikkinchidan, an'anaviy musiqa san'atining yoshlar estetik tarbiyasidagi ahamiyatini ilmiy o'rganish, uning jahon musiqiy merosidagi o'rnini tahlil qilish orqali milliy qadriyatlarimizning nafis va go'zal jihatlarini aks ettirishga doir qarashlarni tizimlashtirish zarurdir. Zero, hozirgi paytda o'zbek xalq an'anaviy musiqiy merosi o'zining go'zal estetik xususiyatlari bilan jahon musiqiy madaniyatida munosib o'ringa ega bo'lib bormoqda;

uchinchidan, globallashuv davrida xalq musiqasini ijob etish jarayoni va amaliyoti tubdan o'zgarib bormoqda. Biroq, uni faqat ohanglar tizimi sifatida o'rganish muammoga bir tomonlama yondashishni keltirib chiqaradi. Aslida o'zbek an'anaviy xalq musiqasi o'zida ohang, kuy va nolani uyg'unlashtirishi bilan go'zallikni namoyon ettiradi va insonga estetik zavq beradi;

to'rtinchidan, san'at turlari ichida o'zbek xalq musiqa san'ati o'ziga xos estetik shakl va mazmunga ega. Uning o'rnini boshqa san'at turlari bosolmaydi: u nodir va betakordir. U ohang birikmalari, shakl va janrlar, murakkab usullar majmuasi xalq poetik ijodiyotini, turli kuylar boyligini muayyan tartibga soladi. Shuning uchun ham u xalq estetik madaniyatining yuksak namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Musiqaning shu xususiyatini estetik mezonlar asosida tadqiq etish masalasi falsafa ilmida hanuz mavhumligicha qolmoqda;

beshinchidan, o'zbek xalq an'anaviy musiqasi hisoblangan maqomlar, marosim musiqalari, folklor qo'shiqlari o'ziga xos badiiy-estetik janr tizimidir. Ammo, sobiq sho'rolar davri

tadqiqotchilari o'zbek milliy musiqasining estetik mazmuniga va estetik faoliyat turi sifatidagi mohiyatiga bir tomonlama yondashib keldilar. Bu holat pirovardida o'zbek xalqining estetik qadriyatida bo'shliqni paydo qildi. Endilikda milliy musiqa merosimizni nafaqat tarixiy ahamiyatini balki uning estetik munosabatlardagi nazari va amaliy ahamiyatini o'rganishga ehtiyoj sezilmoqda.

Marosim madaniy hodisa sifatidagi ahamiyatli bo'lib, ijtimoiy-falsafiy hamda axloqiy-estetik jihatdan qimmatga ega hisoblanadi. "An'ana", "odat", "marosim"ni bir-biri bilan bevosita bog'liq hodisa sifatidagi konsepsiya ekanligini tahlil qiladi, shu bois an'analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim ham bo'lishi mumkin.

Marosim musiqasini xalqning estetik qadriyatiga aylangan ma'naviy hodisa hisoblanadi. Buni u quyidagicha asoslash mumkin: a) marosim tarix sinovlaridan o'tib, xalqning umummanfaatlariga mos kelgan, xalqning orzu-intilishlarini tarannum etganligi bilan muhim estetik qadriyat; b) marosim orqali inson ma'naviy olamni hissiy-emosional idrok etadi hamda voqyelikni badiiy obrazlarda namoyon qiladi; v) marosim olamni go'zallik, ulug'vorlik, uyg'unlik kabi nafosat mezonlariga asoslangan holda tasvirlash imkoniyatiga ega.

O'rta asrlarda Sharq musiqashunos olimlari tomonidan maqom yo'llarining 12 tasi mavjudligini ta'kidlab o'tilganligini qayd etib, bu maqomlar quyoshning yillik harakati yo'lida bosib o'tadigan o'n ikkita yulduzlar turkumiga qiyoslangan. Musiqa ilmiga oid tarixiy qo'lyozmalarda mazkur o'n ikkita maqomning ijro etilishiga muayyan tartib berilgan. Jumladan: Rahoviy maqomi – erta tongdan quyosh chiqqunga qadar; Husayniy maqomi – kunning birinchi yarmida, posbon almashadigan vaqtida; Rost maqomi - tush paytida; Bo'slik va Ushshoq maqomlari – kechki paytida; Navo maqomi – kechqurun; Isfaxon maqomi – ertalabgacha ijro etilishi tavsija qilingan.

O'zbek milliy musiqasining estetik funksiyalariga forig'lash, huzurbaxshlik hamda tarbiyaviylik xususiyatlar kiradi. "Forig'lash – musiqaning birlamchi estetik funksiyasi" nomli paragrafda tadqiqot muallifi musiqaning go'zalligi kuy, ohang va kompozisiyaning uyg'unligida namoyon bo'lishi, shuning uchun yaxshi musiqa qalbni poklashi, kayfiyatni ko'tarishi, insonni g'am-anduhdan, tushkunlik kayfiyatlaridan xalos etishi, nuqs va g'uborlardan forig'lashini ko'rsatib o'tgan holda, bunday holat falsafa ilmida "katarsis" ta'limoti orqali izohlanishini uqtiradi. Chunonchi, faylasuf olim Abdulla Sher Arastuning forig'lanish haqidagi ta'limotini tahlil qilib, unda mohiyatan qo'rquv yoki achinish tufayli inson qalbi salbiy hissiyotlardan forig'lanadi, natijada inson, bir tomonidan, taqdir ko'rgiliklariga xotirjam qaray boshlasa, ikkinchi tomonidan, baxtsizlik girdobiga tushganlarga o'zida hamdardlik hissini tuyadi, deydi: "Siz san'at asarini idrok etganingizdan so'ng mayda hislardan forig'lanasiz, ma'naviy jihatdan kechagiga qaraganda bir bosh yuksakka ko'tarilasiz. Arastu aytgan katarsis-forig'lanish mana shu. San'at ana shu forig'lanish vositasida insonni tarbiyalaydi. Forig'lanishning estetik mohiyati ana shunda"[1:40].

Musiqaning go'zalligi kuy, ohang va kompozisiyaning uyg'unligida namoyon bo'lishi, shuning uchun yaxshi musiqa qalbni poklashi, kayfiyatni ko'tarishi, insonni g'am-anduhdan, tushkunlik kayfiyatlaridan xalos etishi, nuqs va g'uborlardan forig'lashini ko'rsatib o'tgan holda, bunday holat falsafa ilmida "katarsis" ta'limoti orqali yoritib berish mumkin. Chunonchi, faylasuf olim Abdulla Sher Arastuning forig'lanish haqidagi ta'limotini tahlil qilib, unda mohiyatan qo'rquv yoki achinish tufayli inson qalbi salbiy hissiyotlardan forig'lanadi, natijada inson, bir tomonidan, taqdir ko'rgiliklariga xotirjam qaray boshlasa, ikkinchi tomonidan, baxtsizlik girdobiga tushganlarga o'zida hamdardlik hissini tuyadi, deydi: "Siz san'at asarini idrok etganingizdan so'ng mayda hislardan forig'lanasiz, ma'naviy jihatdan kechagiga qaraganda bir bosh yuksakka ko'tarilasiz. Arastu aytgan katarsis-forig'lanish mana shu. San'at ana shu forig'lanish vositasida insonni tarbiyalaydi. Forig'lanishning estetik mohiyati ana shunda"[1:42].

Tadqiqot doirasida Farg'ona davlat universiteti talabalari bilan sosiologik so'rovnama o'tkazilgan. So'rovnama natijalari yoshlarning o'zbek xalq musiqa san'atiga befarq munosabatda bo'lmayotganliklari, o'zlarini xohlagan musiqani tinglash va tanlash imkoniyatiga ega ekanliklaridan dalolat beradi. Xususan, "Qanday musiqalarni ko'proq tinglaysiz?" - degan savolga 1008 ta respondentdan 214 nafari (21,23 %) – o'zbek mumtoz musiqalarini, 258 nafari (55,36 %) – zamonaviy o'zbek estradasini tanlaganligi yoshlarning milliy musiqiy merosimizga befarq

emasligidan dalolat beradi. Shuningdek, yoshlarga “Musiqa tinglashga munosabatingiz?”, degan savol berilgan. Mazkur savolning o‘ziga xos muhim jihat shundaki, u bizga yoshlarning bo‘sh vaqt musiqa bilan qay tariqa yaqin ekanligini ko‘rsatib berdi. So‘rovnoma taqdim etilgan 1008 ta respondentdan 400 nafari (39,68 %) musiqani – pleyer yoki uyali telefonda tinglayman, 308 nafari (30,56 %) – Radio va TV dagi musiqa bilan kifoyalanaman, 214 nafari esa (21,23 %) – maxsus disklar sotib olaman, deb javob berishgan. Demak, aksariyat yoshlar ko‘chada, transportda yoki biror-bir yumush bajarayotgan paytda doimo musiqa bilan hamnafas ekanliklarini namoyon etdilar.

Birinchidan, musiqa – nomusiqaviy sohalarda; canoatda ishlab chiqarishda, yangi texnologiyalarda rivojlanib bormoqda va bu rivojlanish doimiydir. O‘rta asrlarda jahon dinlari o‘z g‘oyalaringin ta’sir doirasini kengaytirishda san’at omillaridan foydalangan bo‘lsalar, bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti davrida ham, bir qarashda san’atga umuman aloqasi bo‘lmagan ulkan industriyalar ham o‘z mahsulotlarini xalqqa ommalashtirishda musiqadan keng foydalanmoqdalar.

Ikkinchidan, musiqa san’ati boshqa sohalarda ko‘makchi ya’ni ommani jalb etish va idrokiga ta’sir etish vositasi bo‘lsa, bugungi kunda uning o‘zi ham ulkan industriyaga, “tovar”ga aylanib bormoqda.

Hozirgi paytda mavjud fonogramma bilan kuylash muammosini estetik va axloqiy jihatlarini alohida e’tibor qaratish lozim. San’atkor jonli ijroda har gal estetik zavq olib, ya’ni badiiy asarning yangi qirralarini ochib boraveradi. Jonli ovoz bilan kuylaganda tomashabin ham ma’lum darajada badiiy jarayon ishtirokchisiga aylanadi. Tomashabin nafaqat iste’molchi, balki badiiy ijod jarayoni ishtirokchisiga ham aylanadi. Obyekt bilan subyektni estetik xususiyatlar, estetik faoliyat, estetik anglash qamrab oladi. Obyekt subyektda nafosatni idrok etilishini ta’minlovchi hissiy va intellektual murvatlarini o‘zida mujassam etganlini bilan estetik munosabat yuzaga keltiradi. Bu o‘rinda subyekt obyektdan nafaqat tashqi nafosatni anglaydi, o‘zining ichki nafosat yoki subyektdagi nafosatni ham namoyon qiladi. Ana shu ikkinchi jihat estetik jarayonni vujudga keltirish xususiyatiga ega bo‘lgan falsafiy hodisa voqyelikni estetik anglash bilan belgilanadi. Tinglovchi qarshisida fonogramma bilan kuylanganida esa ushbu estetik jarayonlar kuzatilmaydi.

Musiqa shaxsning ijtimoiylashuvi, muayyan hodisa va holatlarini qayta tiklovchi, uning diqqatini jalb qiluvchi va boshqaruvchi, shuningdek kishilarning mehnat unumdarligini oshiruvchi xususiyatga ega. U so‘zsiz va ko‘rish imkonini bo‘lmagandagi muloqotdir. Musiqa his qilish qobiliyatni tarbiyalovchi vosita. Undan aqliy va jismoniy kuchlarning o‘zaro koordinasiya va integrasiya qilish vositasi, energiya manbai, haqiqatni yuzaga chiqaruvchi vosita, inson ongingin transformasiyasi uchun qurol sifatida foydalanish mumkin. Va nihoyat, musiqa kishilarni koinot bilan bog‘lovchi kuch hamdir. Bu ro‘yxatni davom ettirish yoki har bir bandini kengaytirish mumkin, lekin eng muhim shunchalar imkoniyatga ega bo‘lgan musiqadek ijtimoiy hodisadan inson ongi va tafakkurini yuksak darajalarga olib chiqish uchun foydalanish darkor. Hamma davrda musiqa insonlarni eng yaxshi amallarga, buyuk ishlarga yo‘naltira olgan, ayniqsa, yosh avlodni yurtiga, ona – Vataniga muhabbat ruhida tarbiyalaydigan vosita bo‘lgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, musiqa ijro etiladigan san’at hisoblanadi. U ijro jarayonidagina jonlanadi va “tilga kiradi”. Xalq musiqa estetikasi esa “bastakor – ijrochi – tinglovchi” uyg‘unligiga asoslanadi. Bu san’atning ham arxaik, ham an’anaviy, ham zamonaviy turlarida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, musiqa inson faoliyatining eng muhim sohalari bilan aloqaga kirishadi, mehnat jarayonlari va marosimlarida qatnashadi. Shu bois hozirgi davr musiqa madaniyatida ijrochilik san’ati musiqaviy ijodkorlikning nisbatan mustaqil ko‘rinishini olgan. Musiqa maishiy hayotning muhim qismi sifatida odamlarni muayyan maqsad-niyatga safarbar etadi, ularni ezgu tuyg‘u va g‘ayrat atrofida birlashtiradi.

Musiqa insonni tarbiyalash vositasi bo‘lib, unda yuksak fikr va tuyg‘ular, nafosat, dil quvonchlari, armon va orzular hosil qiladi, insonning ijodkorlik qobiliyatini oshiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, san’at garchand fandan ko‘ra o‘ziga xos usulda ko‘zda tutgan maqsadi ham bir qadar boshqacha bo‘lsa-da, ilm-fan bilan doimo uzviy bog‘liq. Chunki, muayyan san’at asari ilmiy o‘rganilayotgan falsafiy muammolarni ham qamrab oladi.

Mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirishning maqsadli yo'naltirilganligini xalqimiz estetik madaniyati, didi va tafakkurini rivojlantirishdagi yuksak madaniy hodisa sifatida baholash mumkin. Chunki, unda badiiy ijod, xususan musiqa san'ati vositasida yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalash masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. Zero, musiqa insonning faqat hursandchilik kunlarida emas, balki boshqa estetik faoliyatida ham unga kuch-quvvat, ruhiy madad beradi, hayotga, yashashga, ijodga va go'zallikdan bahramand bo'lishga chorlaydi. Bundan tashqari, haqiqiy san'at asarlari, xususan, go'zal musiqa umumbashariy tilga ega bo'lib, ular barcha xalq, elat va millatlarga tarjimonsiz badiiy-estetik zavq bag'ishlash xususiyatiga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Шер А., Ҳусанов Б., Умаров Э. Эстетика. Услубий кўлланма. – Тошкент: Университет, 2008.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007, 3-жилд.
3. Ражабов И. Мақомлар. – Тошкент: Санъат нашриёти, 2006.
4. Фалсафа. Қомусий лугат. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2004.
5. Mustafoyev B. Musiqa pedagogikasi [Matn]: Darslik. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022.

REZYUME:

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarning estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni, musiqa va meros tushunchalari borasida Sharq olimlarining qarashlari maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: musiqa, milliy meros, kuy, ohang, madaniy muhit, kompozisiya, ritm, temp, dinamika, takt o'lchovi, radi, signal.

РЕЗЮМЕ:

В статье отражен процесс изменения и девальвации эстетической эффективности музыкальных ценностей в условиях глобализации, взгляды восточных учёных на понятия музыки и наследия.

Ключевые слова: музыка, национальное достояние, мелодия, тон, культурная среда, композиция, ритм, темп, динамика, тактовый размер, радиусы, сигнал.

RESUME:

In this article, the process of changing and devaluation of the aesthetic effectiveness of musical values in the conditions of globalization, the views of Eastern scholars regarding the concepts of music and heritage are reflected in the article.

Keywords: music, national heritage, melody, tone, cultural environment, composition, rhythm, tempo, dynamics, time signature, radii, signal

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING GIYOHVANDLIK VOSITALARIGA QARSHI KURASHDA BOSHQA SOHAVIY XIZMATLAR BILAN HAMKORLIGI

Boymirzaev J.B. -

Samarqand shahri bo'yicha IIO FMB

5-son IIB NQ katta inspektor, kapitan

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Har qanday jamoaviy ish natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri, bu uning ishtirokchilari o'rtaсидаги тоғ'ри ташкил етилган ва мөхирона амалга оширилган о'заро муносабатлардир.

Har bir davlat organi boshqa tuzilmalar bilan hamkorlik qilmay turib, faqat ichki imkoniyatlari doirasida faoliyatning samaradorligini ta`minlay olmaydi. [9, b. 11]

Ichki ishlar organlari tezkor bo'limlari tomonidan giyohvandlik vositalariga qarshi kurashda boshqa sohaviy xizmatlar hamda jamoatchilik bilan hamkorlik faoliyatida o'zaro hamkorlik tushunchasini jamiyatda faoliyat yurituvchi har qanday sub'ektlarning turli sohalar nuqtai nazaridan o'zaro muvofiqligining umumiy tushunchasi asosida tushunish mumkin.

Jamiyat va davlat xavfsizligini jinoiy xurujlardan saqlash maqsadida tezkor-qidiruv bo'limlari va aholining o'zaro hamkorligi printsipial ahamiyatga ega. Ushbu o'zaro hamkorlikning shakllari va yo'nalishlari zamonaviy olimlar tomonidan jiddiy o'rganilib kelinmoqda. Ularning har biri fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam ko'rsatishida jinoyatchilikka qarshi kurashning muhim salohiyati yashiringanligini tasdiqlaydi [1, b. 36–40].

Falsafada "o'zaro ta'sir" turli ob'ektlarning bir-biriga ta'sir qilish jarayonlarini, ularning o'zaro shartliligini va holatining o'zgarishini aks ettiruvchi toifa sifatida ta'riflanadi. O'zaro ta'sir integratsiya qiluvchi omil bo'lib, uning yordamida qismlar ma'lum bir yaxlitlik turiga birlashtiriladi [2, b. 394].

Shuningdek, ko'rib chiqilayotgan maqoladagi o'zaro ta'sir - bu Ichki ishlar organlari tezkor bo'limlari tomonidan giyohvandlik vositalariga qarshi kurashda boshqa sohaviy xizmatlar hamda jamoatchilik bilan hamkorlik faoliyat jarayonini o'z navbatida, ularning o'zaro bog'liqligini, bir-biriga bog'liq bo'lgan faoliyatida namoyon bo'lishini hamda, jinoyatchilikka qarshi kurashda bir sub'ektning faoliyati o'zaro bog'liqligini, muvofiqlashtirganligini nazarda tutadi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'zaro ta'sir yuqoridagi organlarni yaxlit tizimga birlashtirishda integrallashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi, ular ishslash jarayonida dastlabki holatga nisbatan o'z holatini o'zgartiradi. Yuqoridagilarga ko'ra, o'zaro ta'sir umumiy yoki bog'liq muammolarni hal qiluvchi sub'ektlar o'rtaсидаги муносабатлarning ma'lum bir turi bo'lib, uni hamkorlik deb atash mumkin va ularning birgalikdagi yoki muvofiqlashtirilgan faoliyatida namoyon bo'ladi deb taxmin qilish mumkin. Ya'ni, o'zaro ta'sirning mohiyati sub'ektlarning o'zaro bog'lanishidir.

Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni ochish va oldini olishda tezkor qidiruv bo'limlari tomonidan sohaviy xizmatlar va jamoatchilik bilan hamkorlikning asosiy maqsadi tadqiqot predmetini tashkil etuvchi holatlarni isbotlashdir. Aytishimiz mumkinki, hamkorlik-jinoyat haqidagi ob'ektiv haqiqatni o'rganish usulidir.

Bizning fikrimizcha, bu holda o'zaro hamkorlik shakli deganda jinoyatlarni ochish va oldini olish bo'yicha yuklangan vazifalarni hal qilish uchun o'zaro ta'sir qiluvchi organlar o'rtaсидаги hamkorlik amalga oshiriladigan muayyan tashkiliy-taktik asos tushunilishi kerak.

Hamkorlik bo'yicha ko'pchilik mualliflar o'zaro bog'langan elementlarning birligini tushunadilar, ularning har biri umumiy maqsadga erishishga hissa qo'shadigan o'z funktsiyalarini bajaradi. Agar biz O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimining tezkor bo'limlarining sohaviy xizmatlar faoliyatining o'zaro hamkorligi haqida gapiradigan bo'lsak, ular muayyan hududiy ichki ishlar organlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Agar o'zaro ta'sir sub'ektlari turli bo'limlarni ifodalasa, ular jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi davlat organlarining yagona tizimining bir qismidir. Bizning fikrimizcha, tezkor bo'limlarining sohaviy xizmatlar hamda, jamoatchilik hamkorligi

giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirib, yakuniy natijalarga erishishga qaratilgan biror, mustaqil, vaqtinchalik bo'lsa-da tizimni tashkil etib, ya'ni ular muayyan dasturiy-maqsadli tuzilmani tashkil qiladi.

O'zaro hamkorlikning doimiyligi - tezkor bo'limlarning sohaviy xizmatlar hamda jamoatchilik bilan hamkorlikni oldida turgan vazifalarning barqarorligi bilan bog'liq. Tezkor-qidiruv bo'limlarning sohaviy xizmatlar hamda jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ko'rsatilgan xususiyatlari uni muayyan jarayon sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Xalqaro izohli lug'atlarda "hamkorlik" holatlarning ketma-ket o'zgarishi yoki natijaga erishish uchun ketma-ket harakatlar majmui sifatida ta'riflanadi. Hamkorlik mehnat jarayoniga nisbatan u muayyan mehnat mahsulini olish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar majmui sifatida belgilanadi [3, b. 16]. Amaliy ma'noda tezkor-qidiruv bo'limlarning sohaviy xizmatlar hamda jamoatchilik bilan o'zaro munosabatlarning mazmuni, harakatlanuvchi dinamik tizim bo'lib, uning tarkibiy qismlari jinoyatlarni ochish va oldini olishning muayyan bosqichlarida muvofiqlashtirilgan va birgalikdagi harakatlardir.

A) Hamkorlik-(birga ishlovchi, hamkasaba) 1 biror ish yumushni birga bajaruvchi, birga amalga oshiruvchi. 2 Ish faoliyatida o'zaro ko'makdosh, bamaslahatlik bilan ishlovchi.

B) Hamkorlik- 1 ish faoliyatida birga hamkor bo'lish, ayni bir ishda birlashish, uni teng bajarish. 2 Biror sohada o'zaro bog'lanib birgalikda, hamkor bo'lib ish olib borish [8, b. 309].

Shuni ta'kidlash kerakki, har qanday darajadagi sub'ektlarning o'zaro ta'siri tashkiliy ta'sirni talab qiladi, bu aniq maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan yo'naltirilgan ta'sir sifatida tushuniladi.

O'zaro hamkorlikni tashkil etish o'z mohiyatiga ko'ra boshqaruv faoliyati, to'g'rirog'i ijtimoiy boshqaruvdir. Ijtimoiy boshqaruv - bu boshqaruv sub'ektlarining ijtimoiy tizimga uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirish uchun ta'siri. Ta'sir mavjud vaziyatga qarab, tizimni tartibga solish, uni barqarorlashtirish yoki uni boshqa holatga o'tkazishga yo'naltirilishi mumkin va u odamlar faoliyatini to'g'ri tashkil etish va muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi [4, b. 8].

Shunday qilib, o'zaro hamkorlikni tashkil etishda, shuningdek, uni amalga oshirishda muhim omil - axborotni to'plash, qayta ishslash, uzatish va foydalanish jarayonidir. Binobarin, jinoyatchilikka qarshi kurash bilan shug'ullanuvchi organlarga o'zaro ma'lumot berish tizimi ularning o'zaro hamkorligini ta'minlashning zarur shartidir.

Tezkor-qidiruv bo'limlari sohaviy xizmatlar hamda jamoatchilik bilan o'zaro hamkorligining huquqiy tartibga solish nuqtai nazaridan ko'rib chiqishda ikkita muhim omilga e'tibor qaratish lozim:

Birinchidan, o'zaro hamkorlikning huquqiy bazasi hozir sezilarli darajada kengaytirildi. Bunga "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" va "Ichki ishlar organlari to'g'risida" gi qonunlar tezkor bo'limlari tomonidan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishga majbur qiladi.

Ikkinchidan, qayd etilgan qonunlar, jinoyatlarni ochish va oldini olish muammolarini hal qilishda vakolatlarini aniq chegaralaydi.

Xalqaro yuridik adabiyotlarda jinoyatchilikka qarshi kurashda subektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning turli shakllari belgilangan. Shunday qilib, huquqiy tartibga solishga qarab, o'zaro ta'sirning prosessual va prosessual bo'lmagan shakllari farqlanadi [5, b. 495].

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, huquqiy tartibga solish, amalga oshirish usullari va o'zaro ta'sir darajalariga qarab, o'zaro ta'sirning quyidagi shakllarini ajratish mumkin:

Qoidalarga muvofiq:

- prosessual;
- prosessual bo'lmagan.

Hamkorlik yo'li bilan:

- birgalikda yoki kelishilgan ish;
- axborot almashinushi.

O'zaro ta'sir darajalari bo'yicha:

- tashkiliy va boshqaruv;

- tashkiliy va taktik.

V.M. Shvankovning fikriga ko‘ra, o‘zaro ta’sirning quyidagi belgilari eng muhim sifatida ajralib turadi:

- hamkorlik;
- o‘zaro yordam;
- kuch va vositalarning hamkorligi;
- tizimning “rezolyusiya qobiliyatini” oshirish;
- uning nazorat parametrlarini kuchaytirish [6, b. 10].

“O‘zaro ta’sir” tushunchasini aniqlashning ushbu ikkala yondashuvi ham ilmiy jihatdan asoslanadi. Ammo, bizga ko‘rinib turibdiki, birinchi holda, maqsadlar, joy va vaqt nuqtai nazaridan bиргаликда yoki kelishilgan harakatlarni ko‘rsatadigan holda, asosiy e’tibor o‘zaro ta’sirning tashqi ko‘rinishiga qaratiladi, ya’ni bu shaklni tavsiflashga ustunlik beradi. Ikkinchi holda, aksincha, bu hodisaning mohiyatiga e’tibor qaratiladi, o‘zaro ta’sir yordamga asoslangan hamkorlik ekanligini ta’kidlaydi.

Professor I.Ismailov o‘z tadqiqotlarida jinoyatchillika qarshi kurash tizimdagи hamkorlikni shartli ravishda to‘rt yo‘nalishga ajratgan;

- Ichki idoraviy hamkorlik
- Idoralararo hamkorlik
- Jamoatchilik bilan hamkorlik
- Xalqaro hamkorlik [7, b. 30].

O‘zaro hamkorlik normativ-huquqiy hujjat talabi yoki tomonlardan birining tashabbusi bilan boshlanadi.

Asosiy bosqich - bu haqiqiy muvofiqlashtirilgan yoki bирgalikdagi faoliyat bosqichi.

Yakuniy bosqich - bajarilgan ishlar samaradorligini baholash va natijalarni umumlashtirish bosqichidir.

Yuqori izchillikka erishish tezkor qidiruv bo‘limlarining soxaviy xizmatlar hamda jamoatchilik bilan hamkorlik qilishdagi faoliyatni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, hatto bir turdagи jinoyatni sodir etish usullarining nihoyatda xilma-xilligi tufayli funksional-rol, kutishlarning izchilligiga faqat tashkiliy-boshqaruв darajasida erishish mumkin va tezkor-taktik darajaga oldindan erishib bo‘lmaydi. Shu sababli, o‘zaro hamkorlik qiluvchi sub’ektlar noma'lum sharoitlarda muvofiqlashtirilgan tarzda harakat qilish uchun psixologik tayorgarlikka ega bo‘lishi kerak.

Hamkorlikni shartli ravishda ikki asosiy shaklga;

- O‘zaro axborot almashish;
- Faoliyatga doir muayyan chora-tadbirlarni hamkorlikda rejalashtirish, amalga oshirish natijalarni umumlashtirish, muayyan vazifalarni bajarishga o‘zaro yordam berish va qo‘llab quvvatlashda namoyon bo‘ladigan amaliy hamkorlikka ajratgan [10, b. 13].

Shunday qilib, quyidagi xulosaga kelish mumkinligi ko‘rinadiki. O‘rganilayotgan o‘zaro ta’sir darajalari, shakllari va yo‘nalishlari o‘zlarining barcha xilma-xilligi bilan bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, umumiyligi bilan uning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Bu hamkorlik qonunlar va qonunosti hujjatlariga asoslangan hamkorlik qiluvchi tomonlarning har biri o‘ziga xos alohida vakolatlar usullar va shakllardan foydalangan holda maqsadi bo‘yicha qilingan bирgailikdagi faoliyat bo‘lib, faoliyatning asosiy yo‘nalishi jinoyat sodir etgan shaxsni topish hamda sud tomonidan unga adolatli jazo tayinlashi uchun aybdorligini ishonchli tarzda isbotlash demakdir.

ADABIYOTLAR:

1. Калягин Ю.С., Тверитинова Е.Н., Есипов А.Г. Правосознание в контексте психологии содействия граждан субъектам оперативно-розыскной деятельности // Юрид. психология. 2014. № 1
2. Новая философская энциклопедия. Т. 1 / Научно-ред. совет: В.С. Степин, А.А. Гусейнов, Г.Ю. Семигин, А.П. Огурцов. – М., 2010. – 744 с

3. Рофе А.И. Организация и нормирование труда. – М., 2014. – 224 с
4. Основы управления в органах внутренних дел: учебник / Под ред. А.П. Коренева. 4-е изд., перераб. и доп. М., 2001. 396 с. Аверьянова. Т.В., Белкин П.С., Корухов Ю.Г., Российская Е.Р. Криминалистика: учебник для вузов / Под ред. П.С.
5. Белкина. 2-е изд., перераб. и доп. – М., 2003. – 990 с.
6. Шванков В.М. Теоретические основы координации и взаимодействия в органах внутренних дел. – М., 1978. – 24 с.
7. Исмаилов И. Терроризмга қарши кураш // қонун ҳимоясида 2004 №7 Б-30.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати Т-2023, б-309.
9. Бобохонов А.А. Жамоат тартибини сақлш ва фуқаролар хавфсизлигини таъминлашда хуқуқни қилувчи органлари ўзаро ҳамкорликни жамоат тартибини сақлаш ва фуқаролар хавфсизлигини таъминлашнинг долзарб масалалари, Республика Илмий амалий конференцияси Т- 2015, б-11.
10. Асқаров А.А. Жамоат тартибини таъминлашда хуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг ҳамкорликдаги фаолиятини бошқаришни такомиллаштириш // магистирлик дисерттасияси // Т-2023, б-13.

REZYUME:

Mazkur maqolada Ichki ishlar organlari tezkor bo‘limlari tomonidan giyohvandlik vositalariga qarshi kurashda boshqa sohaviy xizmatlar hamda jamoatchilik bilan hamkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mohiyati va mazmuni yoritiladi.

Kalit so’zlar: giyohvandlik vositalari, sohaviy xizmatlar, jamoatchilik, hamkorlik turlari, shakllari, tezkor bo‘limlar.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье раскрыты характер и значение взаимодействия оперативных подразделений органов внутренних дел по борьбе с наркотическими средствами и другими отраслевыми службами и органами, осуществляющими деятельность по взаимодействию с населением.

Ключевые слова: наркотики, выездные службы, общественность, виды сотрудничества, формы, оперативные подразделения.

RESUME:

This article describes the nature and meaning of the interaction between the operative departments of the internal affairs bodies in the fight against narcotic drugs and other sectoral services and the bodies that carry out cooperation activities with the public.

Key words: drugs, field services, public, types of cooperation, forms, operational departments.

MUHANDISLIK FALSAFASINING MUHIM XUSUSIYATLARI

Salimov B.L.–
TDTrU dotsenti

Muhandislar ham boshqa kasb egalari kabi o‘qitiladi va o‘rgatiladi. O‘quv jarayonida muhandislikning bilim va ko‘nikmalari berilib, kasbiy va ijodiy faoliyatga yo‘naltiriladi. Bunda yosh avlodning zamonaviy ilmlarni egallashi muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda bo‘lajak muhandislar uchun kelajakka, kelajak talablariga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim zarur. O‘qitishda o‘tmishdan kelib chiqadigan sababni emas, balki kelajak bugundan boshlanadi, kelajakda omon qolish bugungi faoliyatga bog‘liq, degan tamoyilning ustuvorligini ta’minalash kerak. To‘g‘ri, murakkab, o‘zgaruvchan sharoitida ertangi kunning noaniqligi, jamiyat tizimidagi nomutanosiblik kabi omillar kelajakni bashorat qilishni qiyinlashtiradi. Demak, har qanday vaziyatga tez va adekvat moslasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash zarur, toki ular iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o‘zgarishlarga javob beradigan va o‘zgargan vaziyatda olingan bilim va ko‘nikmalarini ijodiy qo‘llay olishsin. Shunga alohida e’tibor qaratish kerakki, muhandislik ta’limida etuk mutaxassislarini tayyorlashda ijtimoiy-gumanitar fanlardan xabardorlik, notiqlik va fuqarolik faolligiga egalik kabi fazilatlar ham zarur bo‘ladi [1].

Muhandislik ta’limining strategiyasining rivojlanishi quyidagilarga asoslanishi kerak:

- 1) mamlakatda ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi tub islohotchilik o‘zgarishlarini tahlil qilish;
- 2) aralash iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlarini o‘rganish, mamlakatlar, mintaqaviy iqtisodiyotlarning rivojlanish yo‘nalishlari;
- 3) muhandislik maqsadlari va qadriyatlarining tizimli ko‘rinishi;
- 4) yuzaga kelayotgan professional falsafani hisobga oladigan ta’lim;
- 5) muhandislik mehnat bozorining holati va dinamikasini o‘rganish va mintaqaviy intellektual mahsulotlar, mintaqalararo, milliy, xalqaro darajada mazmunli, tarkibiy o‘zgarishlar prognozini ishlab chiqish, mamlakatning fan va madaniyati, ta’limiga oid aholi ehtiyojlarini o‘rganish.

Kishilik tafakkurining mahsuli bo‘lgan texnika va texnologiyalarni amalda qo‘llash va foydalanish muhandislik falsafasining ob’ekti bo‘lsa texnika va texnologiyalarni amalda qo‘llash va foydalanishning falsafiy jihatlari muhandislik falsafasining predmeti hisoblanadi. Bunda, muhandislik falsafasining falsafa tarkibida vujudga kelgan yangi yo‘nalish ekanligi, texnika va texnologiyalar uning tadqiqot doirasidagi masalalar ekanligini alohida ta’kidlamoq joiz.

Insoniyat tarixida davlatchilik va savdoning jadal rivojlanishi ko‘plab kichik davlatlar mudofaasi, birinchi navbatda artilleriya va istehkomlar, shuningdek, yo‘l - kommunikasiya tizimini barpo etishni, gidrotexnika qurilishi uchun zarur bo‘lgan harbiy ishlarni yaxshilashni hamda arxitektura inshootlarini takomillashtirishni rag‘batlantirdi. Shahar-davlatlarning mustaqilligini mustahkamlash va ularning mavjudligini saqlash hayotiy ahamiyat kasb eta bordi. Bularniig hammasi oxir-oqibatda kishilik jamiyatida yangi faoliyat turlarining, jumladan, muhandislik faoliyatining paydo bo‘lishiga zamin hozirladi. Davrlar o‘tishi bilan davlatlarning boyligi ortib, qurilishga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Qulay va chiroyli me’moriy tuzilmalar va turli xil mashinalarni ishlab chiqarish uchun yangi ilmiy-muhandis-maslahatchilar hamma joyda zarur bo‘la boshladi. Chunki, bu ishlarni amalga oshirish uchun oddiy hunarmandchilik mahorati endi etarli emas edi. Shuning uchun texnik vazifalarni hal etadigan muhandislar va ixtirochilar kerak edi. O‘z davrining bilimdon kishilari bo‘lgan muhandislar, mavjud muammolarni matematik va mexanik bilimlarga asoslangan hisob-kitoblarga tayangan holda hal etishgan. Agar bu bilim etarli bo‘lmasa, ular o‘z bilimlarini oshirishga va yangi bilimlarni egallishga harakat qilishgan. Bilim o‘sha davr jamiyatida juda haqiqiy kuchga aylanadi va tan olinadi. Shu tariqa, kishilik jamiyatida yangi ijtimoiy qatlam, muhandislar sinfi shakllandi. Bular o‘z-o‘zidan o‘qitilgan muhandislar edilar[2]. Ularning muhandislik ma’lumoti etarli bo‘lmasanligi sababli, dastlab oddiy qurilmalarni yasaganlar, masalan, suv va shamol tegirmonlarini o‘rnatadilar. Bu odamlar odatda arifmetika va qisman mexanikani bilishgan, ular loyihalarni chizish

va elementar hisob-kitoblarni amalga oshirishga qodir edi. Biroq, asta-sekin ular nafaqat o‘z bilim doiralarini sezilarli darajada kengaytiradilar, balki qomusiy bilim darajasiga ega bo‘lgan ilg‘or olimlarga aylanishadi va o‘sha paytdagi jamiyatda muhim o‘rin egallaydilar. O‘z atroflarida talabalarni to‘plab, ilmiy, badiiy va muhandislik maktablarini tashkil etadilar. Asrlar otishi bilan olimlar va muhandislar tomonidan muhandislikning falsafiy kontseptsiyasi yaratiladi. Ushbu falsafiy kontseptsiya bir tomonidan, muhandislik tajribasini nazariy tushunishga, ikkinchi tomonidan, muhandislik tajribasini rivojlantirishga asoslangan.

Yuqorida mulohazalardan muhandislik falsafasining maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmetini belgilab olishda quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin.

Muhandislik falsafasining maqsadi – barqaror jamiyatni shakllantirish jarayonida muhandislik faoliyatining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini ko‘rsatish.

Muhandislik falsafasining vazifalari:

- muhandislik faoliyatining vujydga kelish shart-sharoitlarini va rivojlanish bosqichlarini aniqlash;
- muhandislik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- zamonaviy jamiyatda muhandislik faoliyatining o‘rni va ahamiyatini asoslash;
- muhandisning ijtimoiy – ma’naviy qiyofasini shakllantirish;
- muhandislik faoliyatning mazmun va mohiyati, muhandislik falsafasining ilmiy tadqiqot sohasini shakllantirishdan iborat.

Muhandislik falsafasining tadqiqot ob’ekti - kishilik tafakkurining mahsuli bo‘lgan texnika va texnologiyalarini amalda qo‘llash va foydalanish hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi muhandislik faoliyati hisoblanadi.

Muhandislik falsafasining predmeti - texnika va texnologiyalarni amalda qo‘llash va foydalanishning falsafiy jihatlari hamda muhim fan sifatida muhandislik falsafasining ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir etishi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarning barchasi muhandislik tafakkurining falsafiy tushunchasi sifatida bizni muqarrar ravishda zamonaviy dunyoqarashning markaziga tortadi. Muhandislik tafakkuri jamiyatdagi ijtimoiylik modellariga, qabul qilingan tasniflarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiylik konstruksiyalariga asoslangan muhandislik tafakkurida falsafiy fanga doir o‘ziga xoslik ham mavjuddir. Muhandislik fikrlash texnologiyalari majmuasi allaqachon shakllangan hamda uzoq vaqtidan beri aniq va yashirin tarzda yangi epistemologik, semiotik uslublar bilan fan va ijtimoiy hayotning turli sohalarida mavjud bo‘lib kelmoqda. Xususan, muhandislik tafakkurining zarurligi mamlakatimizda o‘zgargan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va iqtisodiyotning ijtimoiy-texnologik rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu postindustrial jamiyatda muhandislik tafakkurining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda[3].

Hech ikkilanmasdan aytishimiz mumkinki, muhandis o‘zining zamonaviy kasbiy imidjiga muhtojdir. Muhandisning kasbiy imidjining shakllanishi bir qator omillarga bog‘liq bo‘ladi va buning uchun hal qilinishi lozim bo‘lgan quyidagi uchta vazifani o‘z ichiga oladi: fundamental gumanistik qadriyatlar asosida zamonaviy muhandisning aksiologik qiyofasining asosi bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir qator qadriyatlarni belgilash; muayyan hayotiy vaziyatlarda ilmiy ustuvorliklarining aniq afzalliklarini ko‘rsatish; muhandislik ta’limida talabalarning shaxsiy tanlovini hurmat qilish.

Muhandislik kasbiy imidjining vujudga kelishi jamiyatdagi mavjud sohalarga ham aloqadordir. Mazkur aloqadorlik, “shaxs – texnologiya – tabiat” konsepsiysi asosida shakllantiriladi. Texnik ta’limni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy muhandisning aksiologik qiyofasi o‘z tarkibiga qadriyatlar doirasini sezilarli darajada kengaytiradigan intellektual, axloqiy, kasbiy, ekzistensial xususiyatlarini qamrab oлган. Ushbu jihatlar muhandisning yaxlit shaxs va etuk mutaxassis sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Muhandislik ta’limini ilmiylashtirish bilan bir qatorda qadriyatlararo munosabatlarini o‘rganishga birdek o‘rin ajratilishi maqsadga muvofiqli. Shu o‘rinda muhandislikni kelajak ta’limi ekanligini anglab etish muhimdir. Ushbu mavzuni o‘rganishdan maqsadimiz ham muhandislik ta’limining ilmiy ahamiyatini va texnik ta’limning aksiologik ustuvorliklarini falsafiy tushunishni

aniqlashdir. Muhandislik falsafasining asoslarini ijtimoiy-falsafiy tahlili texnik ta'lim va axloqiy – me'yoriy qoidalar nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Shuningdek tizimli yondashuvlar, dialektika, sinergetika, modellashtirish va aksilogik qayta qurish tamoyillaridan foydalanish ham kutilgan natijani beradi.

Shunga alohida e'tibor qaratish kerakki muhandislik ta'limida etuk mutaxassislarini tayyorlashda ijtimoiy – gumanitar fanlardan xabardorlik, badiiy yorqinlik, notiqlik va fuqarolik faolligiga egalik kabilar ham zarur bo'ladi. Zotan insoniylik fazilatlarining mavjudligi bo'lg'usi mutaxassislarining kelgusida yuksak marralarga erishish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Chunki, faol va mustaqil bo'lмаган, jamiyat hayotida ishtirok etishni istamaydigan "o'rtacha" mutaxassislar arzimagan moddiy boylik bilan qanoatlanadi, ba'zan hatto bunga intilmaydi ham. Bundaylar mas'uliyatdan ochishadi, kasbiy rivojlanishni va martaba o'sishini xoxlashmaydi. "O'rtacha" muhandis uchun o'z ustida ishslash, yangiliklar yaratish juda og'ir ish.

ADABIYOTLAR:

1. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. MUHANDISLIK TAFAKKURINING IJTIMOIY VA FALSAFIY BILIMLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(11), November, 2023.
2. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. TEXNIKA VA TEXNOSFERA TUSHUNCHALARINING FALSAFIY MOHIYATI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(11), November, 2023.
3. Salimov, B., Madalimov, T. (2023). Transport falsafasi. Globe Edit.

REZYUME:

Maqolada muhandislik falsafasining ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, asrlar otishi bilan olimlar va muhandislar tomonidan muhandislikning falsafiy kontseptsiyasi yaratilishi, ushbu falsafiy kontseptsiya bir tomondan, muhandislik tajribasini nazariy tushunishga, ikkinchi tomondan, muhandislik tajribasini rivojlantirishga asoslanganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: muhandislik, texnika, mexanika, ob'ekt, predmet, vazifa.

РЕЗЮМЕ:

В статье описаны объект и предмет, цели и задачи инженерной философии, создание философской концепции техники учеными и инженерами на протяжении веков, а также то, что в основе этой философской концепции лежит теоретическое осмысление инженерного опыта с одной стороны, и на развитие инженерного опыта, с другой стороны.

Ключевые слова: техника, техника, механика, объект, предмет, задача.

RESUME:

The article describes the object and subject, goals and tasks of engineering philosophy, the creation of the philosophical concept of engineering by scientists and engineers over the centuries, and the fact that this philosophical concept is based on the theoretical understanding of engineering experience on the one hand, and on the development of engineering experience on the other hand.

Key words: engineering, technique, mechanics, object, subject, task.

**IJTIMOIY FALSAFADA MARGINALLASHTIRISH NAZARIYALARI: TARIXIY
NUQTAI NAZAR VA HOZIRGI HOLAT**

Akramov G‘N. -
UBS o‘qituvchisi

Marginalizatsiya-bu shaxs yoki guruhning periferik bo‘lib qolishi yoki jamiyatning asosiy tuzilmalaridan chetlashtirilishi jarayoni. Ijtimoiy falsafada bu atama turli nuqtai nazardan keng o‘rganilgan va tahlil qilingan. Marginalizatsiya nazariyalari tarkibiy tengsizliklar, ijtimoiyadolat va jamoat institutlarining kuchi to‘g‘risida muhim munozaralarni keltirib chiqaradi.

Marginalizatsiya g‘oyalari qadimiy ildizlarga ega, ammo zamonaviy ijtimoiy falsafada ular 19-asrda faol rivojlana boshladilar. Sinfiy kurashning marksistik tahlili ijtimoiy ziddiyatlarning asosi sifatida iqtisodiy marginallashuvning rolini ta‘kidladi. Emil Dyurkgeom, o‘z navbatida, marginallashuvni sotsiologik tushunishni ijtimoiy guruhlarga qo‘shilishning etishmasligi sifatida taklif qildi. XX asrda, ayniqsa tanqidiy nazariya va feminist falsafa doirasida, marginalizatsiya nazariyalari tobora murakkab va ko‘p darajali bo‘ldi. Irq, jins, jinsiy orientatsiya va boshqa toifalarga asoslangan guruhlar jamiyatda qanday marginallashganligi nuqtai nazaridan tahlil qilindi[1]. Postkolonial nazariyaning ta’siri, shuningdek, global janub kontekstida marginallashuvni chuqurroq tushunishga olib keldi.

Ijtimoiy falsafada marginallashuvni o‘rganish klassik faylasuflarning asarlarida chuqur ildizlarga ega. Masalan, Marks marginallashuvni kapitalistik tizim tomonidan ishchilar sinfining iqtisodiy ekspluatatsiyasi natijasida ko‘rib chiqdi. Uning asarlarida "proletariat" tushunchasi ishlab chiqarish vositalari va ijtimoiy hokimiyatdan mahrum bo‘lgan marginal guruhning namunasidir. Keyingi o‘n yilliklarda marginallashuv tushunchasi jamiyatdagi o‘zgarishlar va akademik nutqlarga mos ravishda rivojlandi. "Sinf", "irq", "jins" va "nogironlik" kabi tushunchalar marginallashuvni tahlil qilishda Markaziy o‘rinni egalladi. Fridrix Engels, Maks Veber, Mishel Fuko, Jak Derrida va Mishel Fuko kabi faylasuflar va sotsiologlar marginalizatsiya mexanizmlarini va uning kuch va bilim bilan bog‘liqligini tushunishga katta hissa qo‘shdilar.

20-asrda marginallashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ko‘proq fanlararo bo‘lib qoldi, shu jumladan faylasuflar, sotsiologlar, antropologlar, psixologlar va siyosatshunoslarning asarlari. Ushbu davrda "tizimli tengsizlik", "tarkibiy kamsitish" va "madaniy assimilyatsiya" kabi tushunchalar faol muhokama qilindi. Masalan, Mishel Fukoning bio-kuch va biopolitika haqidagi asarlari ijtimoiy institutlar o‘z tanalari va bilimlarini nazorat qilish orqali muayyan guruhlarni chetga surib qo‘yish usullarini ta‘kidlaydi[2].

Hozirgi vaqtida marginalizatsiya nazariyalari rivojlanib, o‘zgaruvchan ijtimoiy kontekstga moslashishda davom etmoqda. Globallashuv, texnologik innovatsiyalar va iqtisodiy tuzilishdagi o‘zgarishlar jamiyatning asosiy oqimlaridan chiqarib tashlangan shaxslar va guruhlarga yangi bosim o‘tkazmoqda. Zamonaviy tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biri bu raqamli davrda marginallashishdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanan ijtimoiy integratsiyaning asosiy omiliga aylandi va marginal guruhlar, agar ularga ushbu manbalarga kirish huquqi berilmagan bo‘lsa, yanada uzoqroq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, tadqiqotning muhim yo‘nalishi ma‘lum irqiy va etnik guruhlarning marginallashishiga olib keladigan tarkibiy irqchilik va tizimli diskriminatsiyani tahlil qilishdir. AQShdag“qora tanlilarining hayoti muhim” harakati kabi ijtimoiy harakatlar bu masalalarni faol ravishda ko‘tarmoqda va jamiyatdagi o‘zgarishlarga intilmoqda[3]. Shuningdek, inklyuziv ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohasidagi marginallashuv ta’sirini yumshatish va yanadaadolatli va teng huquqli jamiyat yaratishga qaratilgan sa‘y-harakatlarni ta‘kidlash kerak.

Zamonaviy ijtimoiy falsafa zamonaviy qiyinchiliklar va o‘zgarishlar kontekstida marginalizatsiya tushunchasini tadqiq qilish va kengaytirishda davom etmoqda. Globallashuv, texnologik innovatsiyalar, migratsiya va ekologik inqirozlar marginallashuvning yangi shakllarini yaratadi va mavjudlarini murakkablashtiradi. "Raqamli tengsizlik" va "ekologikadolatsizlik" kabi

tushunchalar ijtimoiy va ekologik marginallashuvning zamonaviy shakllarini o'rganayotgan faylasuflar uchun diqqat markaziga aylanmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy falsafa marginallashuvga qarshi kurashish va yanada inklyuziv jamiyat qurish imkoniyatlarini faol o'rganmoqda[4]. Ijtimoiy adolat, fuqarolik faolligi, madaniy plyuralizm va global birdamlik tushunchalari tarkibiy tengsizlikni kamaytirish va jamiyatning barcha a'zolarining faol ishtiroki uchun sharoit yaratish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Marginalizatsiya-bu bir guruh odamlar yoki shaxslar ijtimoiy hayotning chekkasiga aylanib, resurslar, imkoniyatlar va ijtimoiy kuchdan mahrum bo'lish jarayoni. Ushbu hodisa ko'p asrlar davomida ijtimoiy faylasuflarning e'tiborini tortdi va uni o'rganish bizning davrimizda davom etmoqda. Ushbu maqolada biz ijtimoiy falsafadagi tarixiy kontekst va zamonaviy marginalizatsiya nazariyalarini ko'rib chiqamiz. Marginalizatsiya kontseptsiya sifatida qadimiy ildizlarga ega. Qadimgi davrlarda ko'plab jamiyatlar ierarxik tizim asosida qurilgan bo'lib, unda ba'zi odamlar guruhlari ijtimoiy mavqeい va imkoniyatlaridan mahrum bo'lgan[5]. Masalan, qadimgi Rimda Hindistondagi qullar va quyi tabaqalar siyosiy hokimiyat yoki ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmasdan aniq marginallashgan.

O'rta asrlarda va erta zamonaviy davrda marginalizatsiya tushunchasi ham jamoatchilik ongida keng tarqalgan edi. O'sha kunlarda krepostnoylik, kasta tizimi va ijtimoiy kamsitishning boshqa shakllari odamlarni jamiyat chetida ushlab turardi. Biroq, ma'rifatning rivojlanishi va tenglik va inson huquqlari g'oyalarining paydo bo'lishi bilan jamiyatlar marginalizatsiya amaliyotlarini qoralay boshladilar. Bu zamonaviy dunyoda marginallashuvning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish va tushunishga qaratilgan falsafiy nazariyalarning rivojlanishiga olib keldi. Zamonaviy dunyoda marginalizatsiya dolzarb muammo bo'lib qolmoqda, garchi uning shakllari va namoyon bo'lishi har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va madaniy xususiyatlariga qarab o'zgarishi mumkin. Marginallashtirish bilan bog'liq asosiy nazariyalardan biri bu ijtimoiy istisno tushunchasidir[6]. Ushbu yondashuv odamlar yoki guruhlarning jamiyat va uning resurslari bilan aloqalarini yo'qotishiga olib keladigan jarayonlarga qaratilgan. Ijtimoiy istisno iqtisodiy holat, irqiy yoki etnik kelib chiqishi, nogironligi, jinsi yoki jinsiy orientatsiyasi tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Ijtimoiy falsafada, marginalizatsiya guruhni, shaxsni yoki jamoani asosiy jamoat resurslari, huquqlari va imkoniyatlaridan chetlashtirish yoki cheklash jarayoni va natijasini tavsiflaydi. Ushbu kontseptsiya o'nlab yillar davomida faylasuflar, sotsiologlar, siyosatshunoslar va faollarning e'tiborini tortdi. Ushbu maqolada biz marginalizatsiya nazariyalarining tarixiy ildizlarini va ularning hozirgi holatini ko'rib chiqamiz. Marginalizatsiya tushunchasi birinchi marta 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida ijtimoiy fanlarda keng qo'llanila boshlandi. Frantsuz sotsiologi Emil Dyurkgeym "anomiya" atamasini jamiyatdagi disorganizatsiya holatini tavsiflash uchun ishlatgan, bu esa shaxslarning marginallashishiga olib keladi. Uning uchun marginalizatsiya aniq me'yorlar va qadriyatlarining yo'qligi natijasida yuzaga keldi, bu esa odamlarni bo'shliq va nochorlikda qoldirdi.

19-asr oxiri va 20-asr boshlarida marksistik sotsiologyaning rivojlanishi bilan marginalizatsiya sinfiy kurash kontekstida ko'rib chiqila boshlandi. Karl Marks va Fridrix Engels kapitalizm ishchilar sinfining izolyatsiyasi va zulmiga olib keladigan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni qanday yaratishini tahlil qildilar. 20-asrda marginalizatsiya tushunchasi Robert Merton kabi sotsiologlarning asarlarida yanada rivojlandi, u "ijtimoiy begonalashish" atamasini odamlarning ko'ngli qolgan va jamiyatdan uzoqlashgan holatlarini tasvirlash uchun kiritdi[7]. Zamonaviy jamiyatda marginalizatsiya tadqiqot va munozaralarning dolzarb mavzusi bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, jamiyat qanday rivojlanayotgani, marginallashuv shakllari ham o'zgarib bormoqda.

Iqtisodiy marginalizatsiya: global kapitalizm sharoitida iqtisodiy marginalizatsiya asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Boylikni taqsimlash va resurslardan foydalanishdagi tengsizlik ma'lum guruhlar yoki mintaqalarni iqtisodiy faoliyatning chekkasida bo'lishiga olib keladi.

Ijtimoiy-madaniy marginalizatsiya: irqchilik, seksizm, gomofobiya va kamsitishning boshqa shakllari odamlarni jamiyat chetida qoldiradi. Ijtimoiy-madaniy marginalizatsiya ochiq ta'qib shaklida ham, tengsizlik va stereotiplarning yanada nozik shakllari sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Siyosiy marginalizatsiya: siyosiy hokimiyatga kirishni cheklash, tsenzura va muxolifat guruhlari va dissidentlarga qarshi repressiyalar siyosiy marginallashuvga olib kelishi mumkin.

Texnologik marginalizatsiya: hozirgi kunda texnologiya axborot, ta'lim, bandlik va boshqa asosiylar resurslardan foydalanishni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Texnologiyadan foydalana olmaslik yoki foydalana olmaslik zamonaviy jamiyatda marginallashuvga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy falsafadagi marginalizatsiya nazariyalari jamiyatdagi alohida guruhlar va shaxslarni istisno qilish va cheklash jarayonlari va mexanizmlari to'g'risida tushuncha beradi. Ijtimoiy tuzilmalar va texnologik taraqqiyotdagi o'zgarishlarga qaramay, marginalizatsiya ijtimoiy fanlarning e'tiborini va unga qarshi kurashish uchun amaliy harakatlarni talab qiladigan dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Marginalizatsiya ijtimoiy falsafadagi asosiy tushunchalardan biri bo'lib, shaxs yoki guruhni jamiyatning ijtimoiy tuzilmasidan chiqarib tashlash yoki chiqarib tashlash jarayonini aks ettiradi. Ushbu hodisa chuqur tarixiy ildizlarga va turli xil falsafiy nazariyalarda keng talqinlarga ega. Ushbu maqolada biz marginalizatsiya nazariyalarining paydo bo'lishining tarixiy kontekstini, shuningdek, ushbu hodisaning zamonaviy tushunchalarini ko'rib chiqamiz.

Marginalizatsiya tushunchasi qadimiyligi ildizlarga ega va turli madaniy va diniy an'analarda aks ettirilgan. Qadimgi yunon falsafasida biz jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etmaydigan odamni anglatuvchi "ahmoq" tushunchasini ko'ramiz. O'rta asrlarda jamiyatning huquqlari va himoyasidan mahrum bo'lgan odamni anglatuvchi "surgun" tushunchasi mavjud edi. Biroq, ijtimoiy fanlarning rivojlanishi va jamiyatni modernizatsiya qilish bilan marginalizatsiya tushunchasi yanada tizimlashtirildi. XIX asrda, masalan, Karl Marks va Fridrix Engels o'z asarlarida kapitalist tizim ta'siri ostida proletariatni iqtisodiy marginallashtirish jarayonini tasvirlashgan.

Zamonaviy ijtimoiy falsafada marginalizatsiya tushunchasi yangi jihatlar va talqinlarga ega bo'ladi. Globallashuv va texnologianing rivojlanishi bilan raqamli va axborot marginallashuvi kabi marginalizatsiyoning yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Bu shuni anglatadiki, internetga yoki texnologik resurslarga ega bo'lmanalar o'zlarini axborot jamiyatining chekkasida topadilar. Bundan tashqari, zamonaviy jamiyatda muhojirlar, qochqinlar, LGBT hamjamiyati, nogironlar va boshqalarni o'z ichiga olgan marginal guruhlar doirasi kengaymoqda. Shu munosabat bilan jamiyatning barcha a'zolari uchun ijtimoiyadolat va imkoniyatlarning tengligi to'g'risida munozaralar mavjud.

Zamonaviy marginalizatsiya falsafasining muhim yo'naliшlaridan biri bu feministik va postkolonial nazariya bo'lib, u global hokimiyat va madaniy imperializm sharoитida ayollar va mustamlaka xalqlarining marginallashuvi mexanizmlari va oqibatlarini tahlil qiladi.

Xulosa: marginalizatsiya nazariyalari ijtimoiy nomutanosibliklarni tahlil qilishda va ijtimoiyadolatga intilishda muhim rol o'ynaydi. Tarixiy sharhda ushbu g'oyalar o'zgaruvchan ijtimoiy kontekstni hisobga olgan holda klassik tushunchalardan zamonaviygacha qanday rivojlanganligi ko'rsatilgan. Tadqiqotlarning hozirgi holati shuni ko'rsatadiki, marginalizatsiya masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda vaadolatli jamiyatga erishish uchun qo'shimcha o'rganish va harakatlarni talab qiladi. Ijtimoiy falsafadagi marginalizatsiya nazariyalari murakkab ijtimoiy dinamiklarni tushunishda va yanadaadolatli va inklyuziv jamiyat yaratish strategiyasini ishlab chiqishda muhim rol o'ynashda davom etmoqda. Ushbu nazariyalarning tarixiy sharhi va hozirgi holati ularning zamonaviy dunyoda evolyutsiyasi va dolzarbligini namoyish etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Jurayev J. "G'arb olimlarining marginal shaxs va marginallik tushunchalariga oid ilmiy qarashlari." Центр научных публикаций (buxdu.uz) 29.29 (2023).
2. Алимухамедова Н.Я. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг гендер муаммолари. Журнал социальных исследований SI-1 (2021).
3. Юнусов К. "Глобаллашув даврида маргиналлик ҳодисасининг социологик таҳлили." Journal of Fundamental Studies. 2.3 (2024): 15-23.
4. Содиржонов М. Изучение проблем человеческого капитала в этносоциологических процессах. in Library 21.4 (2021): 59-69.

5. Jumayeva H. Loyihaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf ona tili ta 'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasi." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).
6. Содиржонов М. Изучение проблем человеческого капитала в этносоциологических процессах. in Library 21.4 (2021): 59-69.
7. Легенгаузен М. Современные вопросы исламской мысли. Litres, 2022.

REZYUME:

Maqolada ijtimoiy falsafada muhim o'rin egallagan marginallashtirish nazariyalari to'liq tavsiflangan. Marginalizatsianing turli o'lchovlarini, jumladan, gender, etnik va sinfiy o'lchovlarni va bu o'lchovlar ijtimoiy istisnoning murakkab tuzilmalarini shakllantirish uchun qanday o'zaro bog'lanishini o'rganadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy falsafa, marginalizatsiya, tarixiy sharh, nazariyalarning hozirgi holati, istisno va inklyuziya, tanqidiy nazariya.

РЕЗЮМЕ:

В статье описаны теории маргинализации, занимающие важное место в социальной философии. Автор исследует различные аспекты маргинализации, включая гендерные, этнические и классовые аспекты, а также то, как эти измерения переплетаются, образуя сложные структуры социального исключения.

Ключевые слова: социальная философия, маргинализация, исторический обзор, современное состояние теорий, исключение и инклузия, критическая теория.

RESUME:

The article fully describes the theories of marginalization that occupy an important place in social philosophy. Explores the different dimensions of marginalization, including gender, ethnicity and class dimensions, and how these dimensions intertwine to form complex structures of social exclusion.

Keywords: social philosophy, marginalization, historical review, current state of theories, exclusion and inclusion, critical theory.

MILLIY TARBIYA VA TA'LIM UZVIYILIGI: MA'NAVIY ME'ROS, USLUB VA MEXANIZMLAR**Xakimova M. -***TIQXMMI – MTU камта ўқитуечиси,
Siyosiy falar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Har bir millatning o'zi ulug'laydigan, hurmat qiladigan va kelajakka avaylab etkazishga harakat qiladigan ma'naviy me'rosi bor. Bu meros shu millatni kim ekanligini ko'rstib turadigan javohiridir. Shu o'rinda milliy ta'lif va tarbiyaning uyg'unligi aytib o'tilar ekan, Uchinchi Renessansni ta'minlaydigan fenomen sifatida bugunnnning yoshlari ko'z oldimizda gavdalananadi. Milliy tarbiya bu millatchilik emas balki inson o'zini kimligini anglashidir.

Respublikamizda olib borilayotgan ta'lif va tarbiya sohasidagi o'zgarishlar yoshlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylanmoqda. Bugunning yoshlari bilimli, o'tmishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash hamda ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lif-tarbiya tizimidan boshlanadi" degan g'oya asosidagi keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.[1]

Inson bor ekan unda albatta insoniylik tug'ulari bor. Bu tuyg'ular uning qalbida uni ma'lum bir millatga va mamlakatga tegishli ekanligini ifodalaydi. Shu ma'noda milliy belgilarni inson tanasida ona suti bilan kirib, jon bilan chiqadigan belgilarni deyish mumkin. Bu masalada milliylik albatta ustuvorlik qiladi. Unda umuminsoniy xususiyatlar muhim rol o'ynasa-da uning ona tili, Vatani, ona xalqi asosdir. Milliy qadriyatlar inson ijtimoiy va shaxsiy hayotida katta ahamiyatga egaligini ta'kidlagan holda milliy o'zlikni anglash uning harakat jarayoninin aks ettirishini anglamoq joiz.

Milliy tarbiya, keng ma'noda aytganda, nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar, balki butun ijtimoiy tizim, uning etakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televide niye, ommaviy axborot vositalari faoliyatini o'z ichiga oladi.

Rivojlanish jarayonlari haqida gap ketar ekan "Bugungi kunda zamонавиъи axborot maydonidagi harakarlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha bu voqeа bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi"[1]. Chinki XXI asr "Axborot asri" nomi bilan tarixga kirib keldi. XXI asr globallashuv va chegaralarning barham toppish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo'q.

Bunday sharoitda inson kapitaliga yonaltirilgan investitsiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'naliishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin.

Bugungi kunga kelib Respublikamizda yoshlarga bo'lgan munosabatning o'ziga xos yo'naliishlari vujudga keldi, davr mohiyatidan kelib chiqqan holda ularning ilmiy nazariy poydevori demokratik jamiyat talablari asosida yaratilishi, muammolar echimini topish usullari davlat siyosatining mazmunini belgilab bermoqda. Bu esa o'z o'rnida yoshlardan yanada ko'proq bilim, tafakkur, shijoatni talab etmoqda.

Bu jarayonlarni Universitetimiz yoshlari faoliyatida ham ko'rishimiz mumkin. Oliygohimizda amalga oshirilayotgan ishlar 2023-yil, 11-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 15-apreldagi "Mahalla, oila va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, madaniyat, ma'naviyat va jamoat tashkilotlari masalalari kotibiyati

to‘g‘risida”gi Nizom, 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4768-sodan Prezident Qarori, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sodan “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi (1991) Qonun, 2017 yil 2 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017 yil 18 iyuldagagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2021 yil 3 martdagagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlari tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sodan Qarorlari, “Mahallarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 92-sodan Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 muhim tashabbusida belgilangan vazifalar, Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat Kengashi Nizomi hamda tegishli vazirliklar hamda yuqori turuvchi tashkilotlarning buyruq va ko‘rsatmalari asosida tashkil etib borilmoqda.

2023-2024 o‘quv yili davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni o‘zida qamrab olgan “Yoshlar xafitaligi” loyihiilarining muntazam tashkil etib borilishi, fakultetlar o‘rtasida tashkil etilgan sport musobaqalari, iqtidorli talabalar bilan tashkil etilgan fan olimpiadalarini doimiy tarzda o‘tkazib borilishi, “Axborot va murabbiylik” darslarida berib borilgan ma’lumotlar talaba yoshlarni zamon bilan hamnafas qadam tashlayotganligini ko‘rsatib turibdi.

Talaba yoshlarni bo‘s sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish yuzasidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga asosida talaba yoshlar o‘rtasida sport, badiiy, ijodiy, kitobxonlikka oid tadbirlar tashkil etib borildi.

Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Oliy ta‘lim muassasalarida “Besh muhim tashabbus olimpiadasi”ni tashkil etish topshirig‘iga asosan Universitetda sportning futbol, voleybol, stritbol, shaxmat turlari bo‘yicha, shuningdek intellectual musobaqalar doirasida ko‘plab musobaqalar va ko‘rik-tanlovlardan tashkil etildi.

Universitetimizning Toshkent shahrida joylashgan teatrлari bilan hamkorlik doirasida talabalarimizning O‘zbek Milliy akademik teatri, Abror Hidoyatov nomidagi drama teatri, Rus akademik teatri, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri, Operetta teatri, Satira teatri kabi bir qator teatrлarga tashriflari uyuşhtirildi.

Talaba yoshlarning ma’naviy qiyofasini yuksaltirishda muzeylarning ham ahamiyati katta. O‘quv yili davomida Temuriylar tarixi davlat muzeyi, San’at muzeyi, Qurolli Kuchlar harbiy muzeyi, Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeyi, Amaliy san’at muzeyi, Birinchi Prezident Islom Karimov muzeyi, shuningdek, poytaxtimizda joylashgan turli uy-muzeylarga talabalarimizning tashrifi ularning millatimiz tarixi va moddiy madaniyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Yoshlarni keng internet makonida to‘g‘ri yonalishini tanlay bilislari bugungi kun uchun juda muhim. Ijtimoiy tarmoqlarda berib borilayotgan ma’lumotlar bilan to‘yingan fikrlar yig‘indisini muhokama qilishda munosib bilimlar taqozo etiladi. Bu borada “Internet tarmog‘idan o‘rinli foydalanish choralar”, “Talabalar ma’naviy qiyofasini to‘g‘ri shakllantirishda ta‘lim muasasasining roli”, “Ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish”, “Internetdagi ovchilar” kabi mavzularda targ‘ibot-tashviqot tadbirlari tashkil etib borildi.

Universitetimizda talaba-yoshlar orasida kitobxonlikni targ‘ib etish, kitob mutoolsiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish yuzasidan ko‘plab ishlari amalga oshirildi. Guruh murabbiylari va professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga eng ko‘p oqilayotgan kitoblar haqidagi ma’lumotlar muntazam berib borildi.

Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni mazmun-mohiyatini yoritish, turli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot Strategiyasi”ni talabalar ongiga singdirish, ularda Uchinchi Renessans shakllanishing g‘oyaviy asoslarini tushuntirib berish kabi mavzularda universitet professorlari Q.Nazarov, Z.Ismoilovalar ishtirokida seminar-treyninglar tashkil etildi.

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha Universitet professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlar o‘rtasida “Korrupsiya – milliy xavfsizlikka tahdid”, “Korrupsiya – taraqqiyot kushandası”, “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyatni universitetlarning roli”, Gumanitar fanlar kafedrasi ishtirokida “Demokratiya – jamiyat ko‘zgusi” kabi mavzularda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatalari, siyosiy partiyalar deputatlari, soha mutaxasislari bilan hamkorlikda turkum uchrashuvlar va tadbirlar tashkil etildi.

Milliy qadriyatlarimiz va an’analorimiz timsollarini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish, ularda milliy urf-odatlarimizga hurmat hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash maqsadida “Xon atlas” festivali tashkil etildi.

Xalqimizning o‘ziga xos hususiyati bo‘lgan sahovatpeshlik an’analari asosida Universitetda tahsil olayotgan 20 nafar chin etim talabalarni shartnoma pullarini homiyalar hisobidan to‘lab berilishi yuzasidan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yuqorida keltirib o‘tilgan barcha ishlar yurtimizda olib borilayotga ta’lim tarbiya sohasidagi ishlardagi uzviylik mexanizmlari sifatida baholanishi mumkin deb hisoblayman. Insonni manfaatlar boshqaradi. Lekin o’sha manfaat moddiy to‘kinlikdami yoki ma’naviy etuklikdami? Albaqtta ma’naviy etuklik ko‘proq foyda keltiradi. Ta’lim olishda barcha uchun tekin va teng imkoniyatlar yaratilgan mamlakatimizda, shunday sharoitlarga noshukrlik qilib, dangasa farzandini yolg‘onlariga ishonib o‘z o‘qituvchisini behurmat qilayotgan ota-onalar ham topiladi. Lekin ko‘pchilik ota onalar o‘zlarining farzandlari imkoniyatlarini rivojlantirishga harakat qilmoqdalar.

Shu o‘rinda bir fikrni keltirib o‘tmochiman. Xalil ibn Ahmad (r.a.) shunday deganlar: “Odamlar to‘rt xil bo‘ladi: 1. Biladigan va bilishini ham biladigan kishi. U olimdir, unga ergashinglar. 2. Biladi, lekin bilishini bilmaydigan kishi. U yuqudadir, uni uyg‘otib qo‘yinglar. 3. Bilmaydigan va bilmasligini biladigan kishi. U yo‘l qidiruvchidir, uni yo‘lga solinglar. 4. Bilmaydigan va bilmasligini ham bilmaydigan kishi. U johildir, undan qochinglar”. Ushbu fikrlar jamiyatga to‘g‘ri tadbiq etilsa yaxshi natijalarga erishamiz.

Buyuk faylasuf Suqrotning “Insoniylik – bu faqat ayrim odamlar erishadigan buyuk martabadir” – deb aytgan so‘zlar jamiyat kelajagi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashda xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

- I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent “Ma‘naviyat” 2008. 112-bet

REZYUME:

Mazkur maqolada milliy tarbiya va ta’lim uzviyligi haqida so‘z boradi. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun xalqimiz tomonidan asrlar davomida asrab kelinayotgan ma’naviy meros va milliy qadriyatlar o‘rni beqiyosligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar. milliy tarbiya, milliy qadriyatlar, ma’naviy meros, ta’lim, yoshlar ongu, Yangi O‘zbekiston, globallashuv, talaba yoshlar.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье говорится о национальном образовании и единстве образования. В целях реализации этого процесса подчеркивается важность духовного наследия и национальных ценностей, сохраняемых нашим народом на протяжении веков.

Ключевые слова. национальное образование, национальные ценности, духовное наследие, образование, молодежное сознание, Новый Узбекистан, глобализация, студенческая молодежь.

RESUME:

This article talks about national education and the unity of education. In order to implement this process, the importance of spiritual heritage and national values preserved by our people for centuries is emphasized.

Keywords: national education, national values, spiritual heritage, education, youth consciousness, New Uzbekistan, globalization, student youth.

**СОЦИОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРДА АВЛОДЛАР АЛМАШИНУВИ
ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ТАҲЛИЛИ**

Каланова С.М. -
ЎзМУ доценти
социология фанлари бўйича PhD

Социологияда кенг тарқалган ёндашувлардан бири – позитивизм, илм-фандада исботланган жамият қонуниятларини тезда аниқлаб, ижобий хулосалар чиқаришни тақазо этади. Сўнги йилларда социология соҳасида “авлодлар алмашиши ва унинг таҳлили” кенг қўлланилмоқда. Табиийки, глобаллашув жарёни дунёда Ўзбекистонда ҳам авлодлар алмашувига ўз таъсирини ўтказмоқда. Сўнги бир неча ўн йилликда авлод, авлодлар алмашинуви ҳамда қадрият, йўриқномалар, тажрибани кейинги авлодларга узатиш муаммолари маҳаллий ва ҳорижий социолог ва тарихчиларнинг 1. [С.360-371] диққатини ўзига тортиб келмоқда.

Марказий Осиё ҳудудида, авлодлар ёки авлод муаммоларини ўрганувчи тадқиқотчилар у ёки бу даражада бошқа, тилга олинмайдиган муаммонинг “изи” ёки “аломати” билан иш кўрадилар. Аниқроғи, муаммолартугуни билан: 1) етакчилик (инновациялар); 2) унинг муваффақияти, эътироф этилиши; 3) эришилган ютуқларини қувватлаш ва узатиш(репродукцияси). Бошқачақилиб айтадиган бўлсак, ўтмиш жамиятларининг ҳаттоқи тезкор модернизациялашув даври (XIX-XX аср бошлари)да ҳам тизимли камчиликлари жиддий кузатилган. Мансабга интилиш ва давр нуқтаи назаридан келиб чиқиб, каръера ҳақида ўйлашдан воз кечиши охир-оқибат авлод категорияси ва тилини шакллантиради. Натижа шу билан тугадики, ўша пайтдаги авлодларда шаклланган стереотиплар, яъни маҳаллийчиликка оид, жой ҳусусиятидан келиб чиқиб – “ўзимизникилар” ва “бегоналар”, юксалишга алоқаси бўлмаган ва тўсик бўладиган “юртдошлар”, ҳамشاҳарлар” ва шу каби белгилар шаклланди. Афсуски унинг инерцияси ахборотлашган жамият даврида ҳам ўз аҳамиятини йўқотмади. Мавжуд маконда “юртдошлар” қўлами янада торайиб, энди бир қишлоқ, маҳалла ва кўча даражасига ўтиб бораётган ҳодисалар кузатилади.

**1-жадвал. Замонавий ёшлар катта авлоддан нимаси билан фарқ қиласди
деб ўйлайсиз? (Затагача жавоб белгилашингиз мумкин)**


Тадқиқотларимиз натижаларини таҳлил қиласидиган бўлсак:

Улкан имкониятларга эга	Уларни ҳаётга муносабатлари аниқ ва оптимистик (юқори ишонч) даражада	Рухий ҳолатлари барқарор ва изчил	Ҳаётий тажрибалари заиф ва юзаки	Катталар панду-насихатларидан чарчашган ва уларни менсимайдилар	Катта авлод яшаб ўтган даврни яхши билишмайди ва қизиқишмайди	Жавоб ўйқ
Қашқадарё	40	15	2	13	3	8 2
Бухоро	52	11	6	7	2	12 2
Тошкент	54	12	12	15	6	15 5
Фарғона	46	12	5	2	5	16 0
Хоразм	47	9	14	9	8	9 3
Жами сони	239	59	39	46	24	60 12
Жами улуши	78,1%	19,3%	12,7%	15%	7,8%	19,6% 4%

Шу билан бирга респондентлар ҳозирги ёшларнинг катталар билан ўртасидаги фарқ нимада деган саволга қуидагича жавобларни олдик. 78,1% респондент фикрига қўра ҳозирги ёшлар улкан имкониятларга эга деб жавоб қайтаришган бўлишса, 19,6% респондент катта авлод яшаб ўтган даврни яхши билишмайди ва қизиқишмайди деб жавоб қайтаришган. 19,3% рўров иштирокчилари уларнинг ҳаётга муносабатлари аниқ ва оптимистик (юқори ишонч) даражада дейишган бўлишса, 15% респондент Ҳаётий тажрибалари заиф ва юзаки деб жавоб қайтаришган. 12,7% респондент Рухий ҳолатлари барқарор ва изчил деб жавоб қайтарган. Шунингдек, 7,8% респондент ёшлар катталарнинг панду-насихатларидан чарчашган ва уларни

менсимиадилар деб жавоб қайтаришган. Яна 4% респондент мазкур саволага жавоб қайтармаган.

1-расм. Замонавий ёшлар катта авлоддан нимаси билан фарқ қиласи деб ўйлайсиз? (Затгача жавоб белгилашингиз мумкин)



Авлод ёки оилавий муносабатлар тилини унификациялашнинг мажбурий ўтказилиши амалда аксилидифференциациялаш ва аксилинституциялаштиришнинг маданий механизми сифатида намоён бўлади. “Умумлаштирилган ўзга (бегона)” ёш нуқтаи назаридан тобе шахс сифатида аскриптив (инсонга ёзиладиган) коднинг қатъий доирасига киритилади. Факат шунинг эвазига авлод мавқеси эътиборга олинади, хусусиятларига нисбатан чидам ҳосил этилади ва “юқори” (онг)дан бошқарилади (шунга мувофиқ “юқори” – устун мавқе белгиланади). Шу тариқа “оталар ва болалар” зиддияти метафораси, мавзуси вужудга келади, шакланади ва фаолият юритади. Миллий маданиятга мисол бўлувчи, меъёрга айланган ўзликни англаш ғояси қарийиб барча халқларда учрайди ва у авлодлар ўртасидаги “масофа”ни деярли ҳар бир авлод ичидағи бўлинишларда ифодалайди. Масалан, ижтимоий жиҳатдан: “аълочилар”, “ботаниклар”, “манасбапарастлар”, “ватанпарварлар”, ва психологик жиҳатдан: “бошқачалар”, “инсонлар” (ҳақиқий инсон), “ҳалол кишилар (иймонли, виждонли)” ва шу кабиларга бўлинишни ифодалайди. Бошқа сўзлар билан айтганда, шу йўл билан авлодлар ўртасидаги қайсиидир бир маданий омиллар шахсий, индивидуал муваффақиятнинг ноқонунийлиги, қадрият сифатида тан олинмаслиги, оқланмаганлиги яширинилган.

Аммо бу - жамиятда ижтимоий, маданий, инсоний сифатларни яхшилашга ўйналтирилган умумий қадриятлар тизими йўқлигидан ва демак, тегишли антропологиянинг ҳам йўқлигидан далолат беради, фақатгина мослашишга, тириклигигини сақлашга интилган, муғомбир одам бор, холос. Зўрлик билан бир вақтга “тиқилган”, аммо уни “ўз даврим” дея олмайдиган бир неча авлоднинг рўёбга чиқмаган имкониятлари тўплана бошлайди. Бунда катталар обрўсизланиб боради. Катталар билан ёшлар ўртасидаги масофа гўё қисқаради: уларнинг бир-бирига узатадиган ҳеч нарсаси йўқ дейиш мумкин, аслини айтганда, уларнинг биронтасида ижобий социал тажриба йўқ, улар эътироф этилмаган, ўз салоҳиятларини рўёбга чиқармаган бўлади. 6. [С. 47-48.] Жамият ёпиқ бўлиб, дифференциацияланмаган бўлса, ундаги ўсишлар “ижтимоий нуқсон” қанчалик кўп бўлишига қарамасдан, ўта қаттиқ назорат қилинади ва оқибатда жамиятдаги ўсишга рағбат ўйқолади. Бу эса ўз навбатида авлодлар ўртасидаги ажралишлар кўринишининг олдини олади ёки шундай деб тасаввур қилинади. Лекин айни шу ҳолат социологияда “авлод муаммоси” сифатида қайд этилади.

Биринчидан, ўпирилиш жараёнида ва ундан кейинги дастлабки вактда эришиш учун аввал ёпиқ бўлган ёки чекланган имкониятлар очилади. Иккинчидан, бунда қандай бўлмасин, ҳатто беихтиёр равишда ҳамма ҳаракатга тушади, бу эса шахсий танлаш, хавф ва ҳ.к.ни йўқ қиласи. Учинчидан, бу кундалик ҳаёт асосида турган эскирган ва аскрептив алоқалар механизмини ишга солиш имкониятини беради. Бу имкониятни ишга солганлар, токи рўёбга чиқмаган инсон материалининг янги критик массаси йиғилгунга қадар, яна бир-икки авлод учун кенгроқ гурух ва қатламларнинг тақлид қилиш ёки инкор этиш эталони ва

ориентирларига айланадилар. Ёшлар категориясини ўрганадиган бўлсак авлодларавро муносабатлар тизимидағи ўзгаришларни катта тафовутда эканлигини кўришимиз мумукин.

Оилавий муносабатларда сизнинг қарашларингиз ота-онангиз (фарзандларингиз) фикр-мулоҳазалари билан қанчалик мос тушади?

	мос тушади, сабаби ота-онам давр билан ҳамнафас юрадилар	аввал мос тушарди, озир кўпинча баҳслашшиб колаяпмиз	ҳеч қачон мос тушмаган, сабаби ота-онам эскича фикрлайдилар	хар доим келишувга эришишга ҳаракат килиб яшаймиз, аммо бу юзаки	фарзандлар тарбиясида қарашларимиз турлича, бошка ҳолатларда ўхшаш	анъаналар, қадриятлар, удумлар масаласида қарашларимиз бир-бирига мос тушмайди	бошкаси	жавоб йўқ
Қашқадарё	38	8	7	0	4	0	2	1
Бухоро	41	5	2	1	2	0	6	4
Тошкент	59	1	1	3	4	1	1	0
Фаргона	45	8	0	3	1	0	0	1
Хоразм	35	4	2	2	4	0	4	6
Жами сони	218	26	12	9	15	1	13	12
Жами улуши	71,2	8,5	3,9	3	4,9	0,3	4,3	3,9

“Оилавий муносабатларда сизнинг қарашларингиз фарзандларингиз фикр-мулоҳазалари билан қанчалик мос тушади?” саволига респондентларнинг жуда катта қисми – 63,9% - мос тушади, сабаби ота-онам давр билан ҳамнафас юрадилар деб жавоб қайтаришган. 12,7% респондент авваллари мос тушарди, ҳозир кўпинча баҳслашшиб колаяпмиз дейишган бўлишса, 7,5% респондент фарзандлар тарбиясида қарашларимиз турлича, бошка ҳолатларда ўхшаш, 1,9% респондент эса, ҳеч қачон мос тушмаган, сабаби ота-онам эскича фикрлайдилар деб жавоб қайтаришган. 5,8% респондент ҳар доим келишувга эришишга ҳаракат килиб яшаймиз, аммо бу юзакидеган жавобни қайтарган. 8,2% респондент анъаналар, қадриятлар, удумлар масаласида қарашларимиз бир-бирига мос тушмайди дейишган бўлишса, 3,9% респондент мазкур саволга умуман жавоб қайтармаган.

Жароҳатли низолардан, шу жумладан, авлодлараро реал зиддият ва тўқнашувларни тан олиш, англашдан бу каби яшириниш ва қочиши стратегиялари маълумотли одамлар уюшмаси томонидан уларни мунтазам рационаллаштириш имкониятларини бир неча бор қийинлаштиради. Бу ишни институциялаш имкониятни йўққа чиқаради ва демак, бошка, нисбатан кенг аҳоли гуруҳлари томонидан бундай азобли лаҳзаларни маданиятли ўзлаштириш учун муайян воситаларни ишлаб чиқиши имкон бермайди. Улар диккат-эътибор ва мухокама доирасидан чиқариб ташланган ва гўё модернизациялаш, индустрIALIZациялаш, тезкор технологик тараққиёт йўлига кирган жамиятдаги тилга олинган муаммоларни рационаллаштиришинститутлари ўрнига, бир томондан, мумкин инновациялар жараёни, иккинчи томондан, ҳар қандай намуналарни тан олиш шакллари ва тиклаш каналлари устидан назорат қилиш институтлари кўпайтириб борилган. Бундай норматив назоратни монополлаштириш ва марказлаштириш тилга олинган танглик ва зиддиятларнинг ошиб боришига олиб келарди. Улар авлодлараро ва оилавий муносабатларда акс этар, жамиятнинг криминаллашуви ва ваҳшийлашувига сабаб бўлар, маданият соҳасидаги ҳар қандай мустақил ва масъулиятли фаолият билан шуғулланишни нолигитим шаклларда мажбурий чеклашларга (фильмлар учун “таъқиқланган токчаси”, мустақил нашрларни таъқиқлаш ва х.к.), эмиграцияга хайдаш кабиларга олиб келарди.

Ўзини рўёбга чиқара олмаган лидерликка номзодларнинг ҳам, яна бир бор элитасиз қолган омманинг ҳам тажрибаси шу тариқа авлоднинг ўзи учун ҳам, ундан кейин келаётган авлодлар учун ҳам кераксиз ёки амалга ошмайдиган, қайта тикланмайдиган бўлиб қолади. Ошкораликнинг ягона умумий тили вазифасини официоз, расмий мемуаристика тили ўташни давом эттирган(ёшларнинг хатто майший турмуш билан боғлиқ хотираларни айтиб беришга

катталарни кўндиrolмаслиги, ялпи хотиранинг йўқотилиши, ретроспектив идеаллаштириш шу билан боғлиқ). Катта авлодларда гўё кейинги авлодларга узатиш мумкин бўлган тажриба тўпланмайди. Бу каби тажрибада уни ташувчиларининг ўзи бундай тажрибанинг фарқлай оладиган вақтингчалик характеристикалари (яъни бундай мажбурий мослашиш тактикаларининг вақтингчалиги, ихтиёrsизлик модуслари, зўрлаб ўтказилиши, бу каби кечинмаларнинг, уларни унтиш ёки қадрламасликка мажбур этадиган, ўткинчилиги ва номақбуллиги) бўлиши лозим. Ўтмиш давридан кейинги тарихида кечган авлодлар алмашинувиажралишива аввалги тажрибани унтишисикиб чиқариш жараёнини қўпол қилиб айтганда қуидагича тасаввур қилиш мумкин: “боболар” (масалан, “қишлоқ” сингари) инкор этиш предметига айланган, “оталар” узатиш мумкин бўлган тажрибани орттиришмаган, боз устига, анаъанавий, маиший, кундалик тажрибадан кечишган ва шунинг учун ёшлар учун ҳам, ўзлари учун ҳам умумий ва барчани бирлаштириши мумкин бўлган янги вазиятни англашда ёшларга ёрдамчи бўла олмаганлар. Катта авлодларга хос бўлган ўз ёшига ишора қилиш бунда нафақат тенглаштирилган ҳуқук ва имтиёзларга бўлган минимал кафолатни, балки зимдан азоб берадиган, тилга олинмайдиган, фақат вақт ўтиши билан кейинги авлодга ўтадиган тажрибани (“катта бўлсанг – ўзинг тушуниб оласан, тушунмайдиган бўлсанг – демак катта бўлмайсан” қабилидаги) назарда тутади.

АДАБИЁТЛАР.

1. Коровицина Н.В. Среднее поколение в социокультурной динамике Восточной Европы во второй половине XX века. М., 1999; Савельева И.М., Полетаев А.В. Смена поколений// Савельева И.М., Полетаев А.В. История и время: В поисках утраченного. М., 1997. С.360-371.
2. Дубин Б. Старшее и младшее. Три поколения на переходе//Дружба народов.1994. № 2. С.159-170. Он же. Социальный статус, культурный капитал, ценностный выбор.
3. Орtega-и-Гасет Х. Вокруг Галилея. С. 260-261.
4. Ортеа-и-Гасет Х. Вокруг Галилея. С. 274.
5. Каланова С. Жамиятда авлодлар алмашинуви жараёнларининг социологик таҳлили. Монография.–Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. -240б. 12,6 б.т.
6. Мамардашвили М. Эстетика мышления. М., 2000. С. 47-48.

РЕЗЮМЕ:

Мақолада илмий мерос ва ҳозирги ҳолат нуқтаи назаридан авлодларнинг социологик таҳлили келтирилган. Социологияда авлодларни таҳлил қилишнинг асосий ёндашувлари кўриб чиқилади. Авлодларни ижтимоий гурухлар сифатида ўрганишнинг ахамияти янгиланади.

Калит сўзлар: авлод, авлод гурухи, авлод жамоаси

РЕЗЮМЕ:

В статье представлен социологический анализ поколений с точки зрения научного наследия и современного состояния. Рассматриваются основные подходы к анализу поколений в социологии. Актуализируется значимость изучения поколений как социальных групп.

Ключевые слова: поколение, поколенческая группа, поколенческая общность

RESUME:

The author introduces a sociological analysis of generations in the context of scientific heritage and modern situation in sociology. She considers major approaches to the analysis of generations in sociology and actualize the importance of studying generations as social groups.

Key words: generation, generation group, generation community

**ИБН СИНО МАНТИҚИЙ АСАРЛАРИДА ХУКМ РАЦИОНАЛ
БИЛИШНИНГ ШАКЛИ СИФАТИДА**

Мажидова О.У. -
ЎзМУ доценти, в.б.
фалсафа фанлари бўйича PhD

Юртимизда хукм суроётган ижтимоий жараёнларнинг халқиллашуви фан ва амалиётнинг турли жабҳаларини маърифий жунбушга келтирмоқда. Инсонларда маънавий-ахлоқий, илмий-назарий қадриятларга рағбат пайдо бўлмоқда, Тафаккурлаш маданиятини шакллантириш миллий ва умумбашарий қадриятларни ёшлар онги ва қалбига сингдиришда, авлодлар ўртасидаги маънавий ворисийликни таъминлашда, ўзлигини сақлаган ҳолда жаҳон ҳамжамиятининг фаол аъзосига айланишда ва энг асосийси инсонийликни ҳаёт тамоили деб билишда ва унга амал қилишда муҳим аҳамиятга эга. Тафаккур шакллари ва қонунларини ўрганувчи мантиқ фанининг пайдо бўлиши, такомил босқичларини ўрганиш тарихий-фалсафий жараённинг мазмун ва хусусиятларини англашда муҳим аҳамиятга эга.

Ибн Сино фалсафанинг турли соҳаларида, жумладан, мантиқ бўйича асрлар давомида тўпланган билимларни умумлаштириди. Қадимги юонон, хинд, Марказий Осиё халқлари фалсафасини чуқур ўрганди. Фалсафага қадимги илмий мероснинг бу борадаги унтуилган ютуқларини янгитдан олиб кирди. Ибн Синонинг фан олдидаги буюк хизматларидан бири шуки, у қадимги цивилизация ютуқларини ўзлаштириш билан чегараланмай, илмнинг турли соҳаларига, шу жумладан, мантиққа доир ўз таълимотини ишлаб чиқди. Натижада унинг мантиқий изланишлари, ўрта аср тафаккурини янги ғоялар билан бойитди.

XX асрда жаҳон олимлари шарқ мутафаккирлари, жумладан Ибн Сино таълимотини ўрганишга, унинг асарлари маъносининг ҳозирги даврдаги аҳамиятин очиб беришга оид монографиялар нашр этилган, илмий изланишлар олиб борилган. Жумладан, хориж олимлари К.Брокельман ва Ж.Ш.Канавати тадқиқотларида Ибн Синонинг риёзиётга оид таълимотининг моҳияти очиб берилган[1]. Н.Решарнинг “Араб мантиғининг ривожланиши” монографиясида Ибн Синонинг мантиқ фанининг ривожланишига кўшган хиссаси алоҳида эътироф этилган[2]. МДҲ хусусан, Россия шарқшунос олими А.Смирнов Ибн Сино таълимоти замонавий мантиқнинг назарий асоси эканлигини[3]. Марказий Осиё давлатларида ҳам Ибн Синонинг ижодий меросини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилган. Хусусан, тожик файласуфи М.Диноршоев Ибн Синонинг табиий илмий таълимотлари билан бир қаторда мантиқий қарашларининг моҳиятини[4] Ф.Худойдодов Аристотель ва Ибн Сино силлогистик таълимотларининг қиёсий таҳлилини[5] Қирғизистон олими К.З.Эшонқурова “Ибн Сино фалсафасида билиш муаммолари” илмий тадқиқотида билиш босқичлари тартибини ўргангандан[6]. Ўзбекистон тарихчи, файласуф, тиббиёт соҳаси олимлари Ибн Сино асарларининг замонавий фан тараққиётидаги аҳамиятини очиб беришга алоҳида эътибор қараганлар. Хусусан, академик И.М.Мўминов Ибн Синонинг онтологик ва гносеологик, В.Зоҳидов ва М.Хайруллаев ижтимоий-сиёсий қарашларининг моҳиятини тадқиқ қилган[7]. М.Аҳадова Ибн Синонинг “Китоб аш-Шифо”, “Китоб ан-нажот, “Донишнома” асарларида риёзиёт, фалакиёт ва физикага оид қарашларининг аҳамиятини асослаган[8]. М.Н.Болтаевнинг “Абу Али Ибн Сино” номли монографиясида мутафаккир фаолиятининг барча жиҳатлари ва айниқса мантиқий қарашларидаги сезги ва тасаввур, ақл ва идрок уйғунлигига оид фикрларининг аҳамиятини очиб берилган[9]. А.Имомхўжаева ва Д.Файзиҳўжаева мантиқий таълимотини тадқиқ этган[10]. Мутафаккирнинг “Донишнома” ва “Ал-ишорат ва ат-танбиҳот” асарлари тафаккур шакллари, хусусан, хукм (мулоҳаза)лар ҳақидаги илмий қарашлари анча кенг баён этган асарлари бўлиб, рационал билишдаги мантиқий-гносеологик ғоялар тарихини ўрганиш нафақат ўтмиш маданияти ва фалсафасини, балки ҳозирги даврга хос ғоявий жараёнларни тўғри тушунишга хам имкон беради.

Инсоннинг оламни инъикос этиш жараёни фақат олам воқеа – ҳодисалари тўғрисида тушунча ҳосил қилиб, тушунчаларнинг моҳиятини англаб олиш билан муайян муносабатини ҳам ўрнатиб, олам ҳақида янги билим олишга интилади. Ибн Сино фикрича, инсон рационал билишда тафаккур шакллари натижаларининг илмий аҳамиятини, ижтимоий мулоқот жараёнида фикрнинг мантикий изчилигини таъминлаш, чин фикрни хато фикрдан фарқлаш, ахборотларнинг ишончлилигини аниқлашга оид илмий тадқиқот ишларида, давлат ва нодавлат-нотижорат ташкилотларида ҳақиқий билимни ёлғон билимдан фарқлашда фойдаланиш мумкинлиги билан изоҳланади.

Тадқиқот натижалари қиёсий таҳлил, тарихийлик методларидан фойдаланилди ҳамда амалий аҳамияти шахснинг тўғри фикрлаш маҳоратини шакллантириш, ижтимоий жараёнларнинг моҳиятини англаш, чин фикрни ёлғон фикрдан фарқлашда ҳақиқий билимларни амалиётга жорий этишда намоён бўлади.

Ибн Сино ҳам ҳукмларнинг чин ёки хатолиги воқеликка таққослаш орқали аниқланади, деб ҳисоблайди[11] “Ҳукмларнинг чин ёки хатолигини аниқлаш мумкин. Баъзи фикрлар савол, илтимос, умид, таклиф, ҳайрат ва бошқаларни ифодалайди. Уларнинг чин ёки хатолигини аниқлаб бўлмайди. Фикрда бирор нарса ҳақида хабар берилгандагина буни аниқлаш мумкин бўлади. Ҳақиқатан ҳам грамматик жиҳатдан таҳлил қилганда, фақат дарак гап ҳукмни ифодалайди.

Ибн Сино ҳукмнинг таркибий қисмларини Аристотель каби мантикий эга (субъектни), мантикий кесим (Р-предикат) ва мантикий боғловчидан иборатлигини асослайди ва ҳукмни ҳам мантикий, ҳам грамматик жиҳатдан таҳлил қилган, мантикий эга асосан ном (от – грамматика) орқали ифодаланади, мантикий кесим эса ном, феъл (- грам) орқали ифодаланади. Мантикий боғловчи тасдиқ (- дир) ёки инкор (- дир эмас) маъносини билдириб, сўз туркуми орқали ифодаланмайди[12] деб таъкидлаган.

Ҳукмлар инкор этувчи қисм билан ёки усиз тузилган бўлади, инкор этувчи қисм бирор сўзга қўшилганда, шу сўз орқали қўшилган сўз инкор қилинади. Инкор қўшимчаси предикатнинг таркибида бўлади. Масалан, Зайд ўқимайди. Ҳар бир қатъий ҳукмда субъект ва предикатни бирлаштириб турувчи нарса (мантикий боғлама) мавжуд бўлади[13].

Апофантик (хабар берувчи) нутқ бизнинг ҳукмимиз сингари оддий ва қатъий эмас: “Агар Қуёш чиқсан бўлса, демак кун бошланибди”. Бу ерда бизнинг фикрларимиз орасидаги муносабат ҳақида тасдиқлаш йўли билан ҳукм қилингани: “Қуёш чиқди” ва “Кун бошланди” – иккинчиси биринчисидан келиб чиқяпти. Бизнинг “Ёки Қуёш чиқади, ёки ҳозир тун” деган ҳукмимиз икки ҳукм орасида муқобиллик муносабати бўлишини тақозо этади. Бу икки мисолдан ҳар бири ҳукм таркибида бирлик (комбинация) бор бўлиб, уларда шу муносабат, яъни апофантик қилинган муносабат ҳақида ҳукм юритилади. Шундай экан, бизнинг “Қуёш чиқди” деган ҳукмимиз “чиқди” ва “Қуёш” орасидаги муносабатни тасдиқлади. Бунга ўхшаш ҳамма ҳукмлар шартли, дейилади. Биринчи мисолга ўхшаганлари бирлаштирувчи ҳукмлар дейилади, иккинчисига ўхшаганлари ажратувчи ҳукмлар дейилади.

Нафақат шартли ҳукмлар, балки қатъийлари ҳам воқеликнинг ўзида алоқалар мавжудлиги ёки йўқлигини акс эттирувчи субъект ва предикатнинг маълум қонуний боғланишларини ифодалайди. “Предикатнинг субъектга нисбати (муносабати), – деб ёзган эди Ибн Сино, – тасдиқловчи ва инкор этувчи ҳукмлар ичida, шунингдек, уларга ўхшаб, ё ўз-ўзича зарурий мавжуд бўлади (бизнинг “Одам тирик мавжудот” ва “Одам – тирик мавжудот эмас” деган ҳукмларимиздаги “тирик мавжудот” тушунчаси каби), ё зарурий йўқ бўлади (бизнинг “Одам тошdir” ёки “Одам – тош эмас” деган ҳукмимиздаги “тош” тушунчаси каби) Шундай экан, ҳукмнинг мазмуни зарурий мазмун, имконий мазмун, ноимконий мазмун[14] кабиларда намоён бўлади. Демак, ҳукм (фикр)нинг рационал билиш шакли сифатидаги энг асосий, хусусияти шундаки, унга кўра ҳукм – алоҳида предметларнинг моҳияти ва хусусиятларини эмас, балки зарурий, доимий боғланиш ва муносабатларни ифодалайди. Улар, Ибн Сино айтганидек, бевосита кузатиш билан ҳам, мулоҳаза қилиш билан ҳам ўрганилади. Ҳукм тушунчадан муқаррар ё ҳақиқий, ё сохта (ёлғон), ё аниқ, ё ҳақиқатга яқинлиги билан фарқ

қилади. Бунинг сабаби шуки, хукм (фикр) – апофантик, қарор (хукм) чиқарувчи нутқидир. Шунинг учун, агар у нарсаларнинг қонуниятлари ва ўзаро боғлиқлигини тўғри акс эца албатта, ҳақиқий, аниқ бўлади, акс ҳолда – ҳақиқатга яқин, сохта бўлади. Тушунча бўлса, бор-йўғи, нарсанинг номини айтади, у на тасдиқ қилади, на инкор! Шунинг учун уни на ҳақиқий, на ёлғон деб бўлади[16]. Мутафаккир ҳукмлар назариясининг бошқа муаммолари билан ҳам қизиқкан, уларни тадқиқ этишда масалага ижодий ёндашган. Масалан, умумий ҳукмга умумий ҳукмларгина контрадиктор бўла олади, деб ҳисоблаган мантиқшуносларга қарама-қарши ўлароқ Ибн Сино умумий тасдиқ ҳукмлар билан жузъий инкор ҳукмлар (“Ҳамма С – В дир” ва “Баъзи С ҳар доим В эмас”), умумий инкор ҳукмлар билан жузъий тасдиқ ҳукмларнинг (“Ҳеч қандай С – В эмас” ва “Баъзи С ҳар доим В дир”) контрадиктор эканлигини ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан исботлаб берди. Ҳукмларнинг айланишини ўрганиш жараёнида Ибн Сино ўша даврда умумий инкор ҳукмлар ўзига ўхшаш ҳукмларга айланана олиши мумкин, деган илмий назариянинг хато эканлигини аниқлади: “Мантиқшунослар ўз асарларини умумий ҳукмларнинг айланишини тушунтиришдан, ўзига ўхшаш ҳукмларга айланана олишини баён қилишдан бошлашлари одат тусига кириб қолган, - деб ёзади[15].

Юқорида айтилган фикрларни хулосалаб шуни айтиш мумкинки, Ибн Синонинг ғоявий мазмuni ва илмий аҳамиятига қўра бой бўлган илмий-назарий мероси ҳамма даврларда тадқиқотчиларни ўзига жалб қилган. Мутафаккир билимларнинг чинлигини аниқлашда - верификация тамоилини қўллаб илгари сурилаётган мулоҳаза аввалдан маълум ва исботланмайдиган асосларга зид келмаса, унда улар чин, ва ишончли бўлиши ҳақидаги таълимоти эътиборга моликдир.

Ибн Синонинг Аристотель ва Форобийга нисбатан ҳукмларнинг тасниfinи анча кенг ва тўлиқ баён қилиши ўрта аср мантиқшунослигининг бу йўналишдаги муҳим натижаси бўлиб ҳисобланади. Мутафаккир инсон рақионал билиши ядросини мантиқий фикрлаб хулоса чиқариш эканлигини асослайди. Шунга кўра, тафаккур шакллари биргалиқда ҳақиқатга эришиш воситаси сифатида намоён бўлади. Ибн Синонинг тушунча нарсанинг ташки тузилиши ҳақидаги мулоҳаза юритишга,мулоҳаза эса тўғри хулоса чиқаришга асос бўлиши ҳақидаги фикрлари тафаккурнинг имкониятларидан ижобий натижаларга эришиш учун фойдаланиш зарурлигини намоён этади. Айни пайтда тўғри хулоса чиқариш учун нарсаларнинг моҳиятига оид чин мулоҳаза бўлмоғи лозимлиги бугунги кун учун ҳам аҳамият касб этади. Ибн Синонинг ҳукмлар таснифига оид таълимоти асосида тўғри фикрлаш маҳоратини шакллантириш, матн моҳиятини тушуниш, чин билимдан фойдаланиш механизмларини такомиллаштиришга оид таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш рационал билишнинг шарти сифатида аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Brockelman C. Geschichte der Arabischen Literatur, 1 , p.452-458. Berlin, 1902.; Wiedemann E. Zur Geschichte der Astrologie.“Das Weltal”,Bd. 22.1922. 121-126;
2. Решар Н. The development of Arabic logic.- Питербург, 1963. – Р.68.
3. Смирнов А. Философская мысль исламского мира. Исследования Том-1.Москва:2009. - С.531.
4. Диноршоев М. Натурфилософия Ибн Сины. Душанбе: “Дониш”,1985.
5. Худойдодов Ф. Б.Сравнительный анализ теории силлогистики Аристотеля и Ибн Сины. – Душанбе, 2017.
6. Эшонқурова К. Проблема познаний в философии Ибн Сины. Наука, новые технологии и инновации Кыргызистана. "Общественная Академия ученых Кыргызской Республики (Бишкек). Номер: 3 Год: 2017. – 214 с.
7. Муминов И.М. Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане Тошкент-1957. Зохидов В. Три титана. Т.: 1973. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. Тошкент: Фан, 1971. –2336.

8. Ахадова М.Из истории математики в Бухаре / Математика на средневековом Востоке.Тошкент, Фан, 1978. – 112с.
9. Болтаев М. Шарқнинг буюк мутафаккири. Бухоро: “Бухоро” 2006.196-Б.
10. Имамходжаева А. Ибн Сина и Аристотель: развитие логических идей. Дисс. на соиск. уч.ст.канд.наук.-Тошкент: 1990.
- 11.Файзихўжаева Д.Абу Наср Форобий ва Ибн Сино мантиқий исботлаш ҳақида.-Тошкент:- 2013.
- 12.Абу Али Абн Сина. Даниш-намэ. Избранные произведения//Душанбе,1980. Том-1.С.80.
13. Ибн Сина. Указания и наставления // Абу Али Ибн Сина. Избранные Произведения. т.1. – Душанбе.: 1980. С.420

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада буюк мутафаккир Ибн Сино мантиқий асарларида хукм рационал билишнинг шакли сифатида таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Хукм, оддий хукм, мураккаб хукм, айирувчи хукм, бирлаштирувчи хукм, шартли хукм, сифати, сони, модаллиги.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируется суждение как форма рационального познания в логических сочинениях великого мыслителя Ибн Сино.

Ключевые слова: суждение, простое суждение, сложное суждение, разделительное суждение, объединяющее суждение, условное суждение, качество, количество, модальность

RESUME:

The article analyzes judgment as a form of rational knowledge in the logical works of the great thinker Ibn Sino.

Key words: judgment, simple judgment, complex judgment, dividing judgment, combining judgment, conditional proposition, quality, quantity, modality

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: РЕФОРМЫ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Ахмедова Д.Б. -
старший преподаватель
"ТИИИМСХ" НИУ

Система образования в Узбекистане начала свое развитие с принятия Закона "Об образовании" в 1992 году, который определил основные принципы государственной политики в этой сфере. В первые годы независимости были реализованы реформы, включающие приватизацию жилья для работников образования, предоставление земельных участков для индивидуального строительства, а также льготы по коммунальным услугам. Согласно постановлению Олий Мажлиса, День учителя, 1 октября, был установлен праздничным выходным. В последующие годы была принята национальная программа по подготовке кадров, осуществлявшаяся в три этапа: подготовка правовых документов и материально-технической базы (1997-2001), улучшение качества образования (2001-2005) и завершение реализации программы, обобщение опыта (после 2005 года).

В соответствии с данным Законом Республики Узбекистан "Об образовании" было установлено девятилетнее общее среднее образование, после завершения которого учащиеся продолжали обучение в средних специальных учебных заведениях или профессиональных колледжах. Этот переход осуществлялся поэтапно. Национальная программа подготовки кадров в рамках первого этапа (1997-2001 годы) предусматривала открытие 300 новых образовательных учреждений, включая бизнес-школы и профессиональные курсы в общеобразовательных школах, а также включение новых специальностей, таких как фермер, работник налоговой и таможенной служб, аудитор и другие, в программу обучения. Начиная с 1997 года, было открыто более 1400 профессиональных колледжей и около 200 академических лицеев. Однако, несмотря на закрепление их за соответствующими организациями и вузами, на этом этапе не удалось добиться удовлетворительных результатов в сфере трудоустройства выпускников колледжей.

Позже, реформы, проведенные в 2017 году, направлены на совершенствование системы образования, однако они не принесли ожидаемых результатов. Инициатива Президента Ш. Мирзиёева о переходе к 11-летнему образованию вместо обязательного 9+3, в соответствии с мнениями родителей и учащихся, реализуется путем издания учебников и перевода общеобразовательных школ на 11-летнее обучение. При этом учтены пожелания и потребности учащихся и их родителей. Теперь, нацеленные на коренное улучшение и повышение качества среднего образования в стране, реформы в 2021 году, представляли собой создание достойных условий для учителей и обучения. В тот год из государственного бюджета страны было выделено значительное финансирование на строительство 30 новых школ и улучшение материально-технической базы 320 школ. Кроме того, были направлены значительные средства на внедрение единой системы "электронного образования".

Для кардинального повышения качества образования была проведена адаптация учебных планов и методических пособий к передовым международным стандартам, а также введение "Национальной учебной программы" в начальных классах на основе лучшего зарубежного опыта. Целью было развитие у детей аналитического и креативного мышления, без перегрузки их образовательными программами.

Шавкат Мирамонович, в своем заявлении 2021 года, также подчеркнул важность одинаково высокого качества школьного образования как в столице, так и в отдаленных селах. Для достижения этой цели была предусмотрена программа по обеспечению школ в отдаленных районах квалифицированными кадрами и повышению качества образования.

С учетом этого, введены стимулирующие меры для учителей, включая надбавки к заработной плате за работу в отдаленных районах и регионах, а также субсидии для стимулирования деятельности частных школ в регионах.

Для развития образования молодежи в стране, были открыты 10 президентских школ и 197 специализированных школ по различным направлениям. Кроме того, открываются новые современные университеты с передовыми образовательными программами, где преподают иностранные ученые и преподаватели.

Дошкольное образование является фундаментальным звеном в непрерывном процессе обучения. До достижения возраста 6-7 лет дети получают образование как в семьях, так и в децких садах и других образовательных учреждениях. Исходя из научных выводов, около 70% информации, усваиваемой человеком за всю жизнь, приходится на период до 5 лет. Поэтому децкое образование играет ключевую роль в формировании здоровых, образованных и высококвалифицированных личностей с потенциалом для будущего. С целью дальнейшего совершенствования системы дошкольного образования, укрепления материально-технической базы и расширения сети дошкольных учреждений Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев 30 сентября 2017 года подписал Указ "О коренном совершенствовании управления системой дошкольного образования". В соответствии с этим документом были созданы Министерство дошкольного образования Каракалпакстана, Главное управление дошкольного образования города Ташкента, областные управление дошкольного образования и их городские и районные отделы. К 2017 году количество дошкольных образовательных учреждений превысило пять тысяч, а к 2021 году этот показатель увеличился до 19316, преимущественно за счет государственно-частного партнерства.

В последующем году основной целью нашего государства стало обеспечение доступа к дошкольному образованию для всех детей, что отражает стремление к гармоничному развитию каждого ребенка. Правительство выразило намерение увеличить охват дошкольным образованием до 75% к концу 2023 года, что стало значительным шагом в обеспечении качественного образования для молодого поколения.

Для достижения этих целей из бюджета государства выделены значительные средства, 600 млрд сумов субсидий, для создания 2000 негосударственных децких садов, что способствует разнообразию и доступности дошкольного образования. Кроме того, доля частного сектора в данной сфере увеличилась до 25%, что также содействует расширению возможностей для родителей выбора подходящего образовательного учреждения для своих детей.

Одновременно с этим, в 2021 году запущена система бесплатной подготовки к школе для 82% детей в возрасте шести лет, что обеспечивает им необходимые навыки и знания перед поступлением в школу. Также расширено использование альтернативных форм дошкольного образования в отдаленных селах, с целью доступности образовательных услуг для всех детей независимо от места проживания.

Касательно реформ в Высшем образовании... В 1992 году указом Президента Республики Узбекистан восьми областным педагогическим институтам был присвоен статус университетов. На основе этих институтов в марте 1992 года были созданы государственные университеты в Андижане, Бухаре, Термезе, Ургенче и Карши. Параллельно были учреждены новые высшие учебные заведения, ориентированные на современные специальности, такие как Университет мировой экономики и дипломатии, Навоийский горно-металлургический институт, Военная академия, Академия внутренних дел, и другие. Студентам и аспирантам были введены специальные стипендии в 1993 году. Для подготовки квалифицированных специалистов, соответствующих современным требованиям, были открыты новые университеты и институты, взяв за основу опыт развитых стран. Эксперимент по приему в вузы на основе тестирования начался в 1992 году и в 1993 году был расширен на 19 учреждений из 46. В 1994 году был создан Государственный центр тестирования, а прием в вузы начался на тестовой основе. С 1996 года начали вводить контрактную систему оплаты за обучение в высших учебных заведениях. В результате проведенных реформ в системе образования Узбекистана были открыты филиалы нескольких зарубежных университетов,

включая Британский международный университет Вестминстера, Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова, Российский университет нефти и газа имени И.М. Губкина, Сингапурский институт развития менеджмента, и другие. В Ташкенте также функционируют филиалы Российской академии экономики имени Г.В. Плеханова и Южнокорейского университета Инха.

Коренные реформы, начатые в 2017 году в соответствии с Указом Президента от 7 февраля 2017 года о стратегии развития Узбекистана, предусматривали разработку программы совершенствования системы высшего образования на период с 2017 по 2021 годы. Эти реформы включают более семидесяти указов, постановлений и указаний от Президента и Кабинета Министров, что обозначает начало широкомасштабных изменений в системе образования. Охват выпускниками вузов за это время возрос с 9% до 25%, абитуриенты теперь имеют возможность подать заявки в пять высших учебных заведений одновременно. Также усилено участие женщин и лиц с ограниченными возможностями в высшем образовании за счет выделения дополнительных грантов и кредитов на обучение. Профессорам и преподавателям предоставлены возможности для профессионального развития за границей, а их заработка плата увеличена в 2.5 раза. 2022 год был отмечен увеличением числа государственных грантов на получение высшего образования не менее чем на 25%. Кроме того, были предприняты шаги по удвоению квоты стипендий для девушек из малообеспеченных семей, а также введению специальных стипендий для нуждающихся девушек, которые достигают высоких результатов в учебе.

Для привлечения образованной и талантливой молодежи в высшие учебные заведения введена система предоставления частным вузам государственного заказа на подготовку востребованных специалистов. Также увеличилось количество молодых людей, направляемых на обучение за рубежом по линии фонда "Эл-юрт умиди".

В рамках укрепления преемственности между учебными заведениями различных уровней передано в ведение высших учебных заведений ряда академических лицеев и техникумов.

Для улучшения качества образования и сотрудничества с ведущими зарубежными университетами, расширено сотрудничество в области подготовки кадров. Кроме того, показано намерение предоставления ведущим университетам страны права самостоятельно разрабатывать учебные планы и определять квоты приема, что способствует их автономности и решению финансовых вопросов.

Подводя итог, наше правительство серьезно заботится о развитии государства, и повышении уровня образованности в стране. Внедрение инновационных подходов, таких как обеспечение воспитанников и учащихся современными образовательными средствами и продуктами, а также поддержка школьников на различных уровнях обучения, демонстрируют стремление создать благоприятную образовательную среду для роста человека. Вместе с тем, постоянное развитие профессионализма и преданности со стороны образовательных работников играет ключевую роль в достижении высоких результатов. Таким образом, наше правительство продолжает поощрять инновации и совершенствование образовательной системы для обеспечения успешного развития нашей страны и формирования качественных кадров для будущего.

ЛИТЕРАТУРА:

- 1.Мирзиёев Ш.М. «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования». Ташкент. 2017 1.
2. Мирзиёев Ш.М. Стратегия Нового Узбекистана –Ташкент, “Ўзбекистон”, 2021.
3. Мирзиёев Ш.М. Стратегия развития нового Узбекистана. –Ташкент: Ўзбекистон 2022.
4. Закон Республики Узбекистан “Об образовании”. –Ташкент: , 2020.
- 5.Национальная программа по подготовке кадров. Ташкент, Газета.Уз <https://www.gazeta.uz/ru/2020/12/29/education/>.

6. Муминов А.Г. Ўзбекистонда таълим тизими: ҳолати ва истиқболлари. Журнал: Academic research in educational sciences, 2022, №3, 34-37 бетлар.

РЕЗЮМЕ:

Эта статья охватывает ключевые изменения, наблюдавшиеся в образовательной системе Узбекистана. Освещаются инновационные подходы к обучению, стратегии развития качества образования и инициативы, направленные на создание благоприятной образовательной среды.

Ключевые слова: реформы в сфере образования, закон “Об образовании”, “Программа подготовки кадров”.

REZYUME:

Ushbu maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida kuzatilgan asosiy o‘zgarishlar yoritilgan. Ta’limga innovatsion yondashuvlar, ta’lim sifatini oshirish strategiyalari va qulay ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan tashabbuslar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim sohasidagi islohotlar, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash dasturi”.

RESUME:

This article covers the key changes observed in the educational system of Uzbekistan. Innovative approaches to teaching, strategies for developing the quality of education and initiatives aimed at creating a favorable educational environment are highlighted.

Keywords: educational reforms, the Law “On Education”, “Personnel Training Program”.

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINI MA'NAVIY YUKSALISHIDA VORISIYLIKNING AHAMIYATI

Sharobiddinov Sh.Sh. -
NamDU tadqiqotchisi

Yoshlar har doim ijtimoiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib kelgan. O'zgarishlar juda katta tezlikda sodir bo'layotgan zamonaviy dunyoda, Vatanda ta'lism (vorislik) yoshlarning ma'naviy asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lism sohasida innovatsiyalar va zamonaviy yondashuvlarga intilayotgan yangi O'zbekiston kontekstida yoshlarning ma'naviy yuksalishida oliy ta'lism muassasalarining ahamiyatini o'rganish alohida ahamiyat kasb yetmoqda. O'zbekistonda ta'lism har doim ijtimoiy qadriyatlar tizimida muhim o'rinn tutgan. Ma'naviy rivojlanishga kuchli moyillik bilan vorislik an'anaviy ravishda yoshlarda yuqori axloqiy qadriyatlar, mas'uliyat va vatanparvarlikni shakllantirishga qaratilgan.

Zamonaviy yoshlari turli qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar – axborotning haddan tashqari yuklanishi, ijtimoiy muammolar, mafkuraviy qiyinchiliklar. Vorislik ushbu qiyinchiliklarga samarali qarshi turish, tanqidiy fikrlash va axloqiy barqarorlikni shakllantirishga yordam beradigan vorislikitalarni taqdim yetadi. Ta'lism muassasalari vorislik jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ma'naviyatni rivojlanirishga qaratilgan ta'lism dasturlariga innovatsiyalarni kiritish yoshlarga o'z tarixi, madaniyati va qadriyatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Yoshlarning ma'naviy asoslarini shakllantirishda oilaviy tarbiyaning ahamiyatini ye'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Davlat dasturlari avlodlar rishtalarini mustahkamlash orqali oilaviy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Vorislik vatanparvarlik va fuqarolik javobgarligini tarbiyalashga qaratilgan[1]. Yoshlar va mamlakat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash fuqarolik o'ziga xosligini shakllantirishga va ijtimoiy hayotda faol ishtirop yetishga yordam beradi. Doimiy rivojlanish va o'zgarishda bo'lgan zamonaviy jamiyatda yoshlarning ma'naviy tarbiysi muhim tarkibiy qismga aylanadi. Yangi O'zbekiston kontekstida yangi avlod qadriyatları va ideallarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan ta'lism-tarbiya tizimiga (vorislik) alohida ye'tibor qaratilmoqda. Yoshlarning ma'naviy yuksalishi mamlakat kelajagini belgilovchi muhim omilga aylanmoqda.

1991 yilda mamlakat mustaqilligidan so'ng, O'zbekiston turli sohalarda, shu jumladan ta'lism va tarbiya sohasida tub o'zgarishlarga duch keldi. So'nggi o'n yilliklarda boshlangan o'zgarishlar nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, balki millatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash vazifasini ham o'z ichiga oladi. Yangi O'zbekistondagi ta'lism tizimi yoshlarning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Milliy urf-odatlar va qadriyatlarni hisobga olgan holda, vorislik vatanparvarlik, fuqarolik javobgarligi va mamlakat tarixiga hurmatni rivojlantirishga qaratilgan kuchli vorislikitaga aylanadi.

Vorislikning yeng muhim vazifalaridan biri bu yoshlari o'rtasida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdir. Fuqarolikni tarbiyalashga qaratilgan dasturlar yoshlarning ijtimoiy hayotda faol ishtiropini rag'batlantiradi, o'zini o'zi tashkil yetish va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Vatanparvarlik, ma'naviy yuksalishning ajralmas qismi sifatida, o'z vataniga tegishli bo'lish tuyg'usini kuchaytiradi[2]. Tarix, urf-odatlar va madaniyatni o'rganish o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib, zamonaviylik muammolarini qabul qilishga tayyor bo'lgan yaxlit shaxslarni shakllantirishga yordam beradi. Yoshlarni madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalash vorislikning yana bir muhim jihatiga aylanmoqda[3]. Zamonaviy O'zbekiston o'z tarixi va an'analari boyligini kelajak avlodlarga saqlab qolish va yetkazishga intilmoqda. Bunga milliy til, adabiyot, san'atni o'rganish va diniy qadriyatlarni hurmat qilish kiradi.

Ta'lism tizimi nafaqat barqaror qadriyatlarni shakllantirishga, balki yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ham qaratilgan. Ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida mamlakat kelajagi uchun muhim bo'lgan o'z-o'zini

ifoda yetish va Innovatsion fikrlashni rag‘batlantiradi. Yangi O‘zbekistonning zamonaviy jamiyatni ko‘plab qiyinchiliklar va o‘zgarishlarga duch kelmoqda va yoshlarning ma’naviy yuksalishini shakllantirishda ijtimoiy ongni (vorislik) tarbiyalashning roli ayniqsa muhimdir. Yangi davr yosh avlodni tarbiyalashda yangi yondashuvlarni talab qiladi va shu nuqtai nazaridan vorislik yoshlarda qadriyatlar, axloq va vatanparvarlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy ongni tarbiyalash-bu odamning xulq-atvori, qarashlari va atrofdagi dunyoga bo‘lgan munosabatiga ta’sir qiladigan ma’lum qiymat yo’nalishlarini shakllantirish jarayoni[4]. Faol ijtimoiy-madaniy rivojlanish bosqichida bo‘lgan zamonaviy jamiyatda vorislik yoshlarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb yetadi.

Tez texnologik taraqqiyot va globallashuv sharoitida milliy o‘ziga xoslik va madaniy qadriyatlarni saqlab qolish ayniqsa muhim ahamiyat kasb yetmoqda. Vorislik yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ulari va fuqarolik javobgarligini shakllantirish uchun katalizator rolini o‘ynaydi, bu yesa ijtimoiy ruh va birlikni mustahkamlashga yordam beradi. Yoshlarni tarbiyalash dasturlari va bag‘rikenglik va fuqarolik faolligi ruhida tarbiyalash ushbu maqsadlarga yerishishda muhim rol o‘ynaydi.

Yangi O‘zbekiston ruhida tarbiyalash yoshlarning ma’naviy tuzilishiga chuqr ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi. Ushbu falsafa milliy an’analarni saqlash va hurmat qilish, jahon qadriyatlariga yaqinlashish va fuqarolik javobgarligini shakllantirish g‘oyasiga asoslanadi. Vorislik ongli qarorlar qabul qilishga va jamiyat farovonligiga hissa qo‘sishsga qodir bo‘lgan uyg‘un shaxsni yaratishga qaratilgan. Vorislikning muhim jihatni bag‘rikenglik va xilma-xillikni tushunishdir. Yangi O‘zbekiston yoshlari o‘z jamiyatlarining ko‘p qirralilagini qadrlashni, madaniy va diniy tafovutlarni hurmat qilishni o‘rganmoqda. Shu nuqtai nazaridan, ruhda tarbiya millatlararo va dinlararo nizolarning oldini olish vorislikitasi bo‘lib, yagona, yaxlit jamiyatni shakllantirishga yordam beradi.

Vorislik shuningdek, axloq va qadriyatlarga ye’tibor qaratadi. Adolat, halollik, mas’uliyat va boshqalarga hurmat tamoyillari yoshlarni tarbiyalashning ajralmas qismiga aylanadi. Ushbu axloqiy ko‘rsatmalar insonni yaxshilik vaadolat tamoyillariga asoslangan muvaffaqiyatli martaba va to‘laqonli hayot qurishga yo’naltiradi. Ruhdagi ta’lim zamonaviy texnologiyalardan chetda qolmaydi. Innovatsion o‘qitish usullari va vorislikitaridan foydalanish vorislik qadriyatlari va tamoyillarini yoshlarga yanada samarali yetkazish imkonini beradi. Yelektron resurslar, interaktiv treninglar va ijtimoiy tarmoqlar yangi avlod ma’naviy intilishlarini shakllantirish uchun platformaga aylanmoqda. Yangi O‘zbekiston yoshlaringin orqasida katta yutuqlarga qaramay, vorislik oldida bir qator qiyinchiliklar turibdi. Tashqi dunyoga ochiqlik bilan madaniy o‘ziga xoslikni saqlab qolish, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanat ulardan biridir. Biroq, bugungi kunda ruhda tarbiyalash borasidagi sa’y-harakatlar O‘zbekiston yoshlari nafaqat bilimdon, balki ma’naviy jihatdan ham boy bo‘ladigan kelajak qiyofasini shakllantirmoqda.

“Ota - ona-bu bizning kelajagimiz va biz uni bugun qurmoqdamiz.”

Tez o‘zgarishlar nafaqat texnologiya va iqtisodiyotga, balki madaniyatga ham tegishli bo‘lgan zamonaviy dunyoda kuchli jamiyatning asosi bo‘lgan ma’naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish muhimdir. Shu nuqtai nazaridan, ayniqsa kuchli shaxsni tarbiyalash yangi O‘zbekiston yoshlaringin ma’naviy yuksalishida muhim rol o‘ynaydi. Vorislik-bu zamonaviy dunyoning qiyinchiliklariga dosh bera oladigan va shu bilan birga an’anaviy qadriyatlarini saqlab turadigan uyg‘un shaxsni shakllantirishga qaratilgan ta’lim tizimi. Bu madaniy merosni hurmat qilish, ijodkorlik va aqlni rivojlantirish, shuningdek yuqori axloqiy javobgarlikni shakllantirishga asoslangan.

Yangi O‘zbekiston yoshlari kontekstida ma’naviy tarbiyaga alohida ye’tibor qaratilmoqda. Yoshlar kelajakdag‘i jamiyatning asosi sifatida nafaqat kasbiy mahorat bilan, balki ularning madaniy va tarixiy mohiyatini chuqr anglash bilan ham jihozlanishi kerak. Vorislik adolat, bag‘rikenglik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ongli qarorlar qabul qila oladigan yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Vorislikning muhim jihatlaridan biri an’anaviy qadriyatlarni zamonaviy qiyinchiliklar bilan sintez qilishdir[6]. Yoshlar o‘z xalqining tarixi va madaniyatiga hurmatni saqlab, o‘zgaruvchan dunyoga moslasha olishlari kerak. Shu nuqtai nazaridan, vorislik yangi O‘zbekiston yoshlariiga yeski an’analar va yangi imkoniyatlar o‘rtasidagi muvozanatni topishga yordam beradi.

Vorislik madaniy o‘ziga xoslikni shakllantirishga yordam beradi, bu yesa yoshlarga jamiyatdagi rolini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Bunga tarixiy meros, til, san'at va madaniyatning boshqa jihatlari to‘g‘risida xabardorlik kiradi. Bunday o‘ziga xoslik nafaqat milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlaydi, balki shaxsnинг rivojlanishiga ham hissa qo‘sadi. Vorislik konsepsiya darajasida qolmaydi; u ta’lim dasturlari, yoshlar tashkilotlari, madaniy tadbirlar va ijtimoiy loyihalar orqali amalga oshiriladi. Avlodlararo muloqot platformalarini yaratish, ijodkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantirish, an‘analarni hurmat qilish bilan birgalikda VORISLIKNI muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy tarkibiy qismidir.

Vorislik yangi O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy yuksalishida ajralmas rol o‘ynaydi, uning zamonaviy dunyoda barkamol rivojlanishini ta’minlaydi. Bu nafaqat jamiyat kelajagiga sarmoya, balki global kontekstda o‘ziga xosligini saqlab qolish qobiliyatidir.

Ta’lim, ta’lim va o‘z - o‘zini takomillashtirish yangi, zamonaviy va farovon jamiyat yaratishga intilayotgan yoshlarning ma’naviy rivojlanishining asosiy tarkibiy qismidir. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy O‘zbekistonda yosh avlodning ma’naviy yuksalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan ta’lim, ta’lim va o‘zini takomillashtirish (bos) muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy dunyoda yoshlar nafaqat bilimlarni, balki kuchli axloqiy qadriyatlarni ham talab qiladigan ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Vorislik yoshlarda zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan asosiy tamoyillar va qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Vorislik doirasida nafaqat o‘quv jarayoniga, balki axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga, bag‘rikenglikni rivojlantirishga va madaniy xilma-xillikni tushunishga ham ye’tibor qaratilmoqda. Yoshlarning ma’naviy yuksalishi jarayonida ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Ta’limga zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlar nafaqat kasbiy ko‘nikmalarini, balki chuqur aqlni shakllantirishga hissa qo‘sadigan keng dunyoqarashni rivojlantirishga imkon beradi. O‘zbekiston bilim va innovatsiyalarni rivojlantirishga intilib, yoshlarning intellektual o‘sishiga ko‘maklashuvchi zamonaviy ta’lim dasturlarini yaratishga alohida ye’tibor qaratmoqda.

O‘z – o‘zini takomillashtirish-bu shaxsiyatni turli jihatlarda rivojlantirishga qaratilgan asosiy yelement. Yoshlarni o‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘lida qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyat shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarga yerishish uchun sharoit yaratadi. Bunga tadbirdorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, yetakchilik qobiliyatlari va qiyinchiliklarni yengish qobiliyati kiradi. O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichida nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki jamiyatning ma’naviy holatini tubdan yaxshilash vazifasini ham o‘z oldiga qo‘yadi. Yangilanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida yoshlar ushbu maqsadlarga yerishishda muhim rol o‘ynaydi. Vorislik dasturlari jamiyat farovonligiga hissa qo‘sishiga qodir bo‘lgan uyg‘un shaxsni shakllantirishga qaratilgan rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylanadi.

Yangi O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy yuksalishida oliy ta’lim muassasasi ta’lim, ta’lim va o‘zini takomillashtirishga kompleks yondashuv hisoblanadi. Ushbu tarkibiy qismlarning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin, chunki ular orqali qadriyatlarni shakllanadi, aql rivojlanadi va shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarga yerishiladi. Vorislik dasturlarini muvaffaqiyatli joriy yetish va amalga oshirish ma’naviy va moddiy jihatdan barqaror rivojlanishga qodir bo‘lgan uyg‘un jamiyatni shakllantirishda yordam beradi. Zamonaviy O‘zbekistonda ruhan tarbiyalash barqaror, har tomonlama rivojlangan jamiyat barpo yetish uchun tayanchga aylanmoqda. Bu vaqt muammolariga tayyor bo‘lgan kuchli, mas‘uliyatli yoshlarni shakllantirishga hissa qo‘sadi. Vorislik tamoyillariga muvofiq rivojlanib, yosh avlod mamlakatning yorqin kelajagini quruvchiga aylanadi.

Yangi O‘zbekistondagi ta’lim tizimi yoshlarning ma’naviy yuksalishini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu vatanparvarlik, fuqarolik va madaniy merosga hurmat qadriyatlariiga asoslangan kuchli, uyg‘un jamiyat qurish strategiyasining ajralmas qismidir. Yoshlarning ijodiy salohiyati va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirib, vorislik har bir fuqaro mamlakat farovonligiga hissa qo‘sadigan kelajakni yaratishga qaratilgan. Yangi O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy yuksalishida Vatanda tarbiya hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Zamonaviy qiyinchiliklar yosh avlod shaxsiyatining uyg‘un rivojlanishini ta’minalash uchun vorislik yondashuvlarida innovatsiyalarni talab qiladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasini inobatga olgan holda, bugungi kunda vorislikga to‘g‘ri ye’tibor yertaga jamiyat farovonligining kalitidir.

ADABIYOTLAR:

1. Ruziyev A. "Milliy o‘zlikni anglashning tarixiy mezonlari." *Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya* 1.2 (2022): 64-68.
2. Raxmonova G.Sh. "Axloq-shaxs taraqqiyotining yuqori ma’naviy poydevori." *Boshqaruv va yetika qoidalari onlayn ilmiy jurnali* 2.2 (2022): 160-165.
3. Habibulaeva B. I. Prospects for forming national creative idea //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 3.

REZYUME:

Maqolada O‘zbekiston yoshlarini ma’naviy yuksaltirishning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: yangi O‘zbekiston, yoshlar, ma’naviy yuksalish, vorislik, ahamiyat, O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy rivojlanishi.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматривается важность духовного роста молодежи в Узбекистане.

Ключевые слова: новый Узбекистан, молодежь, духовный рост, преемственность, значение, духовное развитие молодежи Узбекистана.

RESUME:

The article discusses the importance of spiritual growth of the youth of Uzbekistan.

Key words: new Uzbekistan, youth, spiritual growth, continuity, meaning, spiritual development of the youth of Uzbekistan.

TA'LIM MUASSASALARIDA INSON HUQUQLARINING KAFOLATLARI: QIYOSIY TAHLIL

Jo‘rboev Sh.T. -
NamDU dotsenti v.b.

Ta’lim muassasalarida inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim jihatni hisoblanadi. Bu o‘quvchilarga ta’lim muhitida to‘liq rivojlanish, o‘rganish va o‘zaro ta’sir o‘tkazish imkonini beradigan sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Inson huquqlarining universal tamoyillariga qaramay, ularni ta’lim sohasida amalga oshirish turli mamlakatlarda farq qilishi mumkin. Ushbu maqolada biz turli mamlakatlarning ta’lim muassasalarida inson huquqlari kafolatlarini qiyosiy tahlil qilamiz, umumiy tendensiyalar va xususiyatlarni aniqlaymiz. Insonning asosiy huquqlaridan biri bu ta’lim olish huquqidir. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi va fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt kabi xalqaro hujjatlarda har kimning kamsitishsiz ta’lim olish huquqi mustahkamlangan. Biroq, ushbu huquqni amalga oshirish usullari sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim tizimlarida tenglik va kamsitishning oldini olishga ye’tibor qaratilgan. Ba’zi mamlakatlarda inklyuziv ta’limga alohida ye’tibor qaratilgan bo‘lib, u hamma, shu jumladan nogironlar uchun ta’lim olish imkoniyatini o‘z ichiga oladi. Migrantlar, qochqinlar bolalarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, jinsi, irqi, dini va boshqa xususiyatlarga qarab kamsitishlarning oldini olish ham muhim ahamiyatga yega[1]. Ta’lim muassasalari so‘z va fikr yerkinligiga hissa qo‘sishi kerak. Talabalar qasos olishdan qo‘rmasdan g‘oyalarni yerkin muhokama qilishlari, o‘z fikrlarini bildirishlari va o‘quv jarayonida ishtirok yetishlari kerak. Shu nuqtai nazardan, so‘z yerkinligi va ta’lim muassasalarida xavfsiz va hurmatli muhitni ta’minlash o‘rtasidagi muvozanat muhimdir.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan talabalarning shaxsiy hayoti va shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ta’lim muassasalari ma’lumotlarning maxfyligini ta’minlashi va talabalarga ularning ma’lumotlaridan foydalanishni nazorat qilishlari kerak. Baholash jarayonlarida baholash tizimi va shaffoflik ham inson huquqlari kafolatlarida muhim rol o‘ynaydi[2]. Baholash mezonlarini aniqlashda ochiqlik, xolislik va baholarga shikoyat qilish imkoniyati adolatli ta’lim jarayoni uchun sharoit yaratadi.

Ta’lim shaxs va jamiyat rivojlanishining asosidir. Biroq, bilim olish bilan bir qatorda, ta’lim jarayonining muhim jihatni inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishdir. Ushbu maqolada biz turli mamlakatlarning ta’lim muassasalarida inson huquqlari kafolatlarining qiyosiy tahlilini o‘tkazamiz, umumiy tendensiyalar va o‘ziga xos xususiyatlarni olib beramiz. Ta’lim barqaror rivojlanish maqsadlariga yerishish va uyg‘un ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashning asosiy omili sifatida qaraladi[3]. Ta’lim muassasalarida inson huquqlari kafolatlari ta’lim olish huquqi, fikr bildirish yerkinligi, kamsitishlardan himoya qilish va boshqalar kabi turli jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Turli mamlakatlarda kafolatlarning qiyosiy tahlili

1. Ta’lim olish huquqi:

* Rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda, rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘pincha ta’lim olish imkoniyati bilan bog‘liq muammolar mavjud. Ushbu kamchilikni bartaraf yetish uchun turli mamlakatlar tomonidan ko‘rilgan choralar tahlil qilinadi.

2. Fikrni ifoda yetish yerkinligi:

* Ta’lim muassasalarida ifoda yerkinligi darajasi ko‘rib chiqiladi. Qanday cheklovlar mavjud va ular inson huquqlari kafolatlari bilan qanday bog‘liq?

3. Diskriminatsiyadan himoya qilish:

* Ta’lim muassasalarida kamsitishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Talabalar huquqlarini muvaffaqiyatlari himoya qilish holatlari ko‘rib chiqilmoqda.

4. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ta’limning roli:

* Ta'lim muassasalari faol fuqarolarni shakllantirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qanday hissa qo'shishini o'rganadi. Turli mamlakatlardagi yondashuvlar va natijalar taqqoslanadi.

Xususiyatlar va qiyinchiliklar:

1. An'analar va madaniy xususiyatlar:

* Ta'lim muassasalarida urf-odatlar va madaniy xususiyatlarning huquq kafolatlariga ta'siri tahlil qilinadi. Qaysi jihatlar noyob qiyinchiliklar yoki imkoniyatlarni taqdim yetadi?

2. Texnologik innovatsiyalar:

* Ta'lim jarayoniga texnologiyalarni joriy yetish bilan bog'liq qiyinchiliklar va imkoniyatlar va bu inson huquqlariga qanday ta'sir qilishi ko'rib chiqiladi.

Ta'lim muassasalarida inson huquqlarini ta'minlash zamonaviy jamiyatning asosiy jihatni hisoblanadi. Ta'lim nafaqat shaxsiy rivojlanishning asosiy yelementi, balki fuqarolik jamiyatni asoslarini ham shakllantiradi. Ushbu maqola turli mamlakatlarning ta'lim muassasalarida inson huquqlari kafolatlarining qiyosiy tahlilini ko'rib chiqadi, huquqiy mexanizmlarning umumiyligi xususiyatlari va farqlarini olib beradi[4]. Xalqaro huquqda ta'limda inson huquqlarini himoya qilishga bag'ishlangan bir qator hujjatlar mavjud. Masalan, inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi (1948) va fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966) ta'lim olish imkoniyatini kamsitmaslik va ta'lim muassasalarini tanlash yerkinligini ta'kidlaydi. Ushbu hujjatlarning qoidalarini taqqoslab, milliy qonunlar va siyosatlarni ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak bo'lgan umumiyligi normalarni aniqlash mumkin.

Qiyosiy tahlil, shuningdek, ta'lim muassasalarida inson huquqlari kafolatlarida milliy xususiyatlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Masalan, ba'zi mamlakatlarda asosiy ye'tibor bepul ta'lim olish huquqiga qaratilgan bo'lsa, boshqalari ta'lim sifati va nogironlar uchun qulaylik masalalariga qaratilgan. Qiyosiy tahlil, shuningdek, ta'lim muassasalarida inson huquqlarini ta'minlashda davlat va xususiy sektorning rolini olib beradi. Turli mamlakatlarda davlat aralashuvi va tartibga solishning turli darajalari, shuningdek, huquq kafolatlarining xususiyatiga ta'sir ko'rsatadigan xususiy ta'lim muassasalarining roli mavjud. Qiyosiy tahlil, shuningdek, ta'limdagi inklyuzivlik tendensiyalarini ta'kidlash imkonini beradi[5]. Ta'kidlanishicha, nogironlarning huquqlariga ye'tibor qaratadigan mamlakatlar inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan siyosatlarni faol ishlab chiqmoqdalar. Ta'lim muassasalarida inson huquqlari kafolatlari murakkab va dinamik masaladir. Turli mamlakatlarning qiyosiy tahlili umumiyligi tamoyillar va o'ziga xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi, bu yesa inson huquqlarini himoya qilishni hisobga olgan holda ta'limni yanada muhokama qilish va takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ta'lim inson hayotining asosiy sohalaridan biri sifatida individuallikni shakllantirish, jamiyatni rivojlantirish va barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ta'lim muassasalarida inson huquqlari kafolatlari sifatli va teng huquqli ta'limni ta'minlashning ajralmas qismidir.

Dunyoning turli mamlakatlarida ta'lim sohasida inson huquqlarini kafolatlaydigan turli xil qoidalar va qonunlar mavjud. Masalan, Shimoliy Amerikada bu ta'limdagi inson huquqlari to'g'risidagi qonun, Yevropa Ittifoqida yesa Yevropa Ittifoqining asosiy huquqlari to'g'risidagi nizomdir[6]. Bolalar bog'chalaridan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan ushbu huquqlar turli xil ta'lim muassasalarini qamrab oladi. Asosiy tamoyillardan biri ta'limdagi tenglikdir. Ushbu sohadagi huquqlarning qiyosiy tahlili hamma uchun teng imkoniyatlarni taqdim yetish yondashuvlaridagi farqlarni olib beradi. Ba'zi mamlakatlar nogiron talabalar uchun imkoniyatlar tengligini ta'minlaydigan inklyuziv ta'limga ye'tibor qaratmoqdalar. Boshqalar bilim olishda ijtimoiy tengsizliklardan qochish uchun ta'lim muassasalari o'rtasida resursslarni muvozanatli taqsimlashga intilishadi.

YUNESKO, BMT va Yevropa Kengashi kabi xalqaro tashkilotlar ta'limda inson huquqlarini kafolatlash bo'yicha standartlar va tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Qiyosiy tahlil xalqaro standartlarning milliy ta'lim tizimlariga ta'sirini va ularning xalqaro standartlarga muvofiqligini aniqlashga imkon beradi. Ta'lim muassasalarida inson huquqlarining kafolatlari

murakkab va ko‘p qirrali masala bo‘lib, doimiy ye’tibor va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishni talab qiladi[7]. Qiyosiy tahlil turli mamlakatlarda huquqlarni ta’minlashning umumiyligi tendensiyalarini va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Bunday tahlil asosida ta’lim tizimini takomillashtirish va barcha talabalar uchun teng.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim muassasalarida inson huquqlari kafolatlari sifatli va adolatli ta’limni ta’minlashning muhim jihatni hisoblanadi. Bunday kafolatlarning qiyosiy tahlili ularni turli mamlakatlarda amalga oshirishdagi umumiyligi tamoyillar va farqlarni aniqlashga imkon beradi, bu yesa yanada samarali va zamonaviy ta’lim siyosatini ishlab chiqishda foydali bo‘lishi mumkin. Ta’lim sohasidagi huquqlarni ta’minlash bo‘yicha strategiya va chora-tadbirlarni ishlab chiqishda mamlakatlarning xilma-xilligini hisobga olish muhimligi ta’kidlandi. Ta’lim muassasalarida inson huquqlari kafolatlarini qiyosiy tahlil qilish turli mamlakatlarda huquqlarni himoya qilish yondashuvlarining umumiyligi tendensiyalari va farqlarini aniqlashga imkon beradi. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, ta’lim tizimini takomillashtirish va uning huquqlariga rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

REZYUME:

Maqolada inson huquqlari va yerkinliklarini ta’lim muassasalari kontekstida o‘rganildi, turli mamlakatlardagi inson huquqlarini kafolatlashning mavjud tizimlarini qiyosiy tahlil qilindi..

Kalit so‘zlar: inson huquqlarining kafolatlari, ta’lim muassasalari, talabalar huquqlari, qiyosiy tahlil, talabalar huquqlarini himoya qilish, akademik yerkinlik.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются права и свобода индивида в контексте образовательных учреждений, предоставляя сравнительный анализ существующих систем гарантирования прав человека в различных странах.

Ключевые слова: гарантии прав человека, образовательные учреждения, права студентов, сравнительный анализ, защита прав обучающихся, академическая свобода.

RESUME:

The article discusses the importance of spiritual growth of the youth of Uzbekistan and the use of continuity.

Key words: guarantees of human rights, educational institutions, students' rights, comparative analysis, protection of students' rights, academic freedom.

ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА ЗАМОНАВИЙ ПАРЛАМЕНТ ПАРЛАМЕНТАРИЗМ РИВОЖИ СИФАТИДА

Эшбеков Д. Ш. -
ЎзДЖТУ таянч докторанти

Жаҳонда парламентаризм гояси демократия қадриятлари, очиқ фуқаролик жамияти ва хуқукий давлат тушунчалари билан чамбарчас боғланган. Мамлакатимизда мустақиллик йилларида ҳалқ манфаатлари асосида фаолият юритадиган икки палатали парламент шакллантирилиб, юқори ва қўйи палаталар фаолияти институционал, функционал тизимлаштирилди. Давлат органлари ва ҳалқ ўртасидаги мулоқот механизмини шакллантиришида «парламентимиз ҳақиқий демократия мактабига, ислоҳотларниң ташаббускори ва асосий ижрочисига айланиб»[4,33] бормоқда. Икки палатали парламентниң фаолиятини тизимли такомиллаштиришга қаратилган ислоҳотларниң амалга оширилиши мамлакатимизда модернизация ва фуқаролик жамияти институтларини ривожлантириш йўлидаги зарурый фаолиятдир.

Умуман олганда "Парламент" сўзининг этимологияси турли хил, аммо маъно жиҳатидан яқинроқ тушунтиришларни топади. Бир нуқтаи назарга кўра, "парламент" атамаси кўплиқдаги иккита лотин сўзининг бирикмасидан келиб чиқсан: "париум" ("тэнг") ва "ламентум" ("шикоят", "қайғу"). Шундай қилиб, бу тэнг мақомга эга бўлган одамлар ўз шикоятларини айтиш имкониятига эга бўлган жойни англатади.

Бошқа бир нуқтаи назарга кўра, "парламент" атамаси французча "парлер" (сўзлаш) ва "мент" (фикр) сўзларидан келиб чиқсан: "фикр билдириш учун йигилган одамлар йиғилиши" деган маънони англатади.

Кўпгина мамлакатларда парламент замонавий давлатниң энг муҳим институти ҳисобланади. У турли милларнинг эга бўлиши мумкин (Англияда Парламент, Францияда Генерал штатлар, Исландияда Рикс, Испанияда Кортес, АҚШда Конгресс, Туркияда Буюк Миллат Мажлиси ва бошқалар), лекин у анъанавий равишда вакиллик, қонун чиқарувчи ва назорат функцияларини амалга оширувчи давлат органи сифатида тушунилади.

Парламентниң ўзига хослиги ва алоҳида мақоми унинг қонун чиқарувчи ва вакиллик ҳокимияти органи сифатидаги икки томонлама хуқукий табиати билан олдиндан белгиланади. Парламентниң мана шу фазилатлари унинг мақомини ҳозирги хуқукий тартибга солиш асосини ташкил этади. Ҳокимиятларниң бўлиниши назариясини қабул қилган замонавий демократик конституцияларниң аксарияти парламентта давлат ҳокимиятининг олий органлари тизимида имтиёзли мавқени беради. Биз парламентаризмни сиёсий ҳокимиятлар ўртасида ўзаро боғловчи, категория сифатида талқин қилишимиз мункун.

Америка Конституциясида: Бу билан ўрнатилган барча қонун чиқарувчи ваколатлар Кўшма Штатлар Конгрессига берилган. Шунга ўхшаш қоида Сенатда мавжуд. Бразилия Конституциясининг 44-моддасида қонун чиқарувчи ҳокимиятни Депутатлар палатаси ва Федерал Сенатдан иборат Миллий Конгресс амалга оширади. Япония Конституциясида парламентниң мақоми жуда аниқ белгилаб берилган. Парламент давлат ҳокимиятининг олий органи, шунингдек, давлатниң ягона қонун чиқарувчи органидир.

Миллатлараро даражада, БМТ билан яқин ҳамкорликда Парламент иттифоқи – демократия, парламент бирдамлиги ва уларни сайлаган ҳалқ олдида жавобгарлик асосида бирлашган дунё парламентлари ташкилоти сифатида фаолият юритади.

Бироқ, парламентта нисбатан филист (шоҳ) ларниң муносабати у қадар ижобий бўлмаслиги мумкин. Кўпгина мамлакатлар фуқаролари депутатларниң популистик ваъдалари, уларниң иштироки билан боғлиқ коррупция можаролари, қабул қилинган актлар учун ҳақиқий жавобгарликнинг йўқлиги, депутатлик даҳлсизлиги ва бошқалардан ғазабланишади.

Айниқса, демократик қадриятларни нисбатан яқында қабул қилған мамлакатларда ахолининг парламент институтларидан қаттік умидсизликка тушиши кузатилмоқда.

Профессионал ҳуқуқшунослар, шунингдек, демократик аңъаналар ўрнатилган давлатларда, мамлакатларда ҳам парламентлар фаолиятига нисбатан бир қатор танқидларни қайд этишади.

Буларга, масалан: парламентда тор ижтимоий гурӯхлар манфаатларини лобби қилиш; парламент жараёнларининг сустлиги; депутатларнинг касбий маҳоратининг йўқлиги; ваколатли қонун ижодкорлиги; қонун лойиҳаларининг асосий қисми ижро этувчи ҳокимият органлари томонидан ишлаб чиқилиши; шахсий мартаба қуриш учун депутатлик ваколатларидан фойдаланиш ва ҳоказо.

Бироқ, барча камчиликлариға қарамай, парламент ҳали ҳам катта аҳамиятга эга, чунки у ҳукумат институтлари тизимида муҳокама мавжудлигини олдиндан белгилаб беради ва ҳеч бўлмаганда ҳокимият элитаси томонидан сиёсий қарорларни қабул қилишда мухолифатнинг таъсирининг баъзи механизmlарини назарда тутади. Давлатнинг бошқа органлари ёки бугунги кунда ихтиро қилинаётган давлат аппаратига бевосита ахборот таъсир кўрсатадиган институтлар (жамоат палаталари, аҳоли билан онлайн ўзаро алоқа, маслаҳат органлари) ўз табиатига кўра ҳокимиятни бир қўлда тортиб олишга қаршилик кўрсатишга қодир эмас.

Парламентнинг давлат ҳокимиятининг қонун чиқарувчи органи сифатидаги табиати шундан иборатки, у ўз ҳокимиятини энг юқори юридик кучга эга бўлган ва энг муҳим ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар – қонунлар, ҳужжатларни қабул қилиш, ўзгартириш ва бекор қилиш йўли билан амалга оширади. Замонавий парламент қонун чиқарувчи орган сифатида тўртта хусусиятга эга.

Биринчидан, бу энг муҳим ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи ва энг юқори юридик кучга эга бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни махсус тартибда қабул қилишdir.

Иккинчидан, парламент, ижро ҳокимияти органлариға нисбатан назорат ваколатларини кенгайтириш ва унинг мутлақ ваколатларини норматив жиҳатдан мустаҳкамлаш орқали парламентнинг ваколат функцияларини кучайтириш тенденцияси кузатилмоқда.

Учинчидан, замонавий парламент эркин асосда ишлайдиган депутатлардан иборат бўлиши керак, деб ҳисобланмоқда.

Совет даврида депутатлик фаолиятини асосий иш жойидаги иш билан уйғулаштириш, вакилнинг халқ эҳтиёжидан чалғимаслиги кераклиги ҳақида фикр бор эди. Энди асосий эътибор депутатлар ўzlари бажарадиган ваколатларни чуқур ўрганиш ва бошқа меҳнат функцияларини бажариш билан чалғимаслик имкониятига эга бўлишлари, “халқ эҳтиёжларидан мустақиллик” эса сайловларнинг частотаси билан назарий жиҳатдан таъминланади.

Парламент табиатининг иккинчи компоненти шундан иборатки, у давлат ҳокимиятининг ягона вакиллик органи ҳисобланади. Вакиллик сифати деганда давлат ҳокимияти органи ва аҳоли ўртасидаги боғлиқликнинг мавжудлиги, халқ хоҳиш-иродасининг парламент томонидан қабул қилинган ҳужжатлarda акс этиши тушунилади.

Олимлар вакиллик институтларининг ривожланишининг келиб чиқишини дастлаб, қадимги Юноностон сўнгра Рим шаҳар сиёсатида, халқ йиғинлари мавжуд бўлган даврларда топадилар. Халқ вакиллиги шакллари аристократик, синфий ва малакавий вакилликдан замонавий парламентаризмгача эволюцион ривожланишни бошидан кечирди. Шунинг учун давлат қурилиши тарихи бизга давлат (шаҳар) органининг вакиллик характеристини талқин қилишнинг турли хил варианtlарини таклиф қиласди.

Бироқ, ҳозирги вақтда давлат органи вакиллигини таъминлашнинг асосий механизми умумий, эркин, teng, тўғридан-тўғри сайловлар яширин овоз бериш йўли билан ўтказилиши ҳисобланади. Бу тамойиллар давлатларнинг ички қонунчилигига ва халқаро ҳуқуқда ўзининг меъёрий шаклини топади. Шу билан бирга, конституциявийликнинг замонавий амалиётида нафақат парламент депутатлари, балки алоҳида давлат ҳокимияти органлари ҳам бевосита

аҳоли томонидан сайланади. Шунинг учун ҳуқуқ фанида уларни парламент билан бир қаторда ҳалқ вакиллик органлари сифатида ҳам кўриб чиқиш таклифлари мавжуд.

Бу нуқтаи назарга мухолифларнинг фикрича, сайланган мансабдор шахсларни ҳалқ вакиллари деб таснифлаш “ҳалқ вакиллиги” тоифасининг моҳиятини йўқотишга, турли давлат органларининг функцияларини чалкаштириб юборишга ва давлат бошқаруви тамойилларининг бузилишига олиб келади. Дарҳақиқат, фуқаролар томонидан сайланган алоҳида ҳукуматнинг ижтимоий мақсади вакиллик ва ифода этишдан иборат эмас. Фуқароларнинг ижроия, бошқарув ва мувофиқлаштирувчи фаолиятини амалга оширишда қанчалик хилма-хил манфаатлар мавжуд бўлса, улар вакиллик институтлари томонидан қабул қилинганд қонунларга асосланиши керак.

Бинобарин, замонавий муаллифлар вакиллик органи (парламент)нинг белгилари сифатида нафақат сайлов, балки қарорлар қабул қилишнинг коллегиал характеристини ва ваколатларнинг алоҳида функционал йўналишини ҳақли равишда номладилар. Шуни таъкидлаш керакки, парламент вакиллиги фуқаролик шартномасидан субъектлар доираси ва вакиллик объектининг ошкоралиги билан фарқ қиласди.

Шунингдек, замонавий парламентдаги вакиллик муносабатларини лоббичилик (**лоббизм** бу – давлат идоралари, қонунчилик, ижроия, суд ҳокимиятларининг ниқоби остида қабул қилинадиган қонун ва қарорлар ижтимоий грухларни объектив зарурати билан эмас, балки маълум бир манфаатларни кўзлаб, баъзан мансабдор шахсларни сотиб олиш йўли билан қўллаб-куватлашга қаратилган фаолият ҳисобланади) деб ҳисоблаш мумкин эмас, чунки лоббичилик тушунчасига ёндашувларнинг хилма-хиллиги билан бирга, у жамиятнинг ҳар қандай грухи манфаатларини ҳимоя қилиш билан боғлиқ, парламент эса жамият, бутун ҳалқ, (миллат) манфаатларини ифодалашга чақирилган.

Қонун чиқарувчи ҳокимият жамият манфаатларини қанчалик тўлиқ ифодалаши, уларни тегишли қонунларда акс эттириши учун жавобгардир. Шу билан бирга, парламентаризм тушунчаси парламентнинг мамлакатда расмий мавжудлиги билан эмас, балки унинг ижобий фаолияти билан боғлиқ.

“Парламентаризм” атамасининг ўзи инқилобдан олдинги муаллифларнинг асарларида, совет олимларининг асарларида, замонавий ҳуқуқшунослиқда ва хорижий адабиётларда учрайди. Бироқ, бу концепциянинг универсал таърифи ҳали ишлаб чиқилмаган.

Парламентаризм умуман олганда “режим”, “жамиятни давлат бошқаруви шакли”, “парламент бошқарув шакли”, “сиёсий тизим”, “жамиятни давлат бошқаруви тизими”, “ижтимоий қадриятларнинг маълум бир қўлами”, “сиёсий институт”, “давлат тузуми”, “тамойил”, “назарий тушунчалар, қонун хужжатлари, ҳуқуқий муносабатлар мажмуи”, “давлат ҳокимиятини вакиллик қилишнинг ғоялари ва тажрибаси мажмуи”, “парламент орқали ҳалқ ҳокимияти”, “ижтимоий-сиёсий ва мафкуравий ҳаракат” ҳисобланади.

Бироқ, эҳтимол, энг кенг тарқалган вариант парламентаризмни “давлат ҳокимиятини ташкил этишнинг маҳсус тизими” деб аташдир.

Замонавий парламент ҳокимиятнинг вакиллик ва қонун чиқарувчи органи сифатларини ўзида мужассам этган ўзига хос институтдир, деган хulosага келиш мумкин. Парламент ваколатларини амалга оширишнинг реаллиги ва самарадорлиги конституцияйи-ҳуқуқий фан томонидан таклиф этилган “парламентаризм” атамасини тавсифлаш учун мўлжалланган.

Парламентаризм ғояси нафақат назарий аҳамиятга эга, балки амалиёт учун ҳам мухимдир. Парламентаризмга ижро ҳокимияти органлари томонидан ҳокимиятни тортиб олишнинг мумкин бўлган таҳдидини минималлаштириш, ижтимоий-сиёсий соҳада мафкуравий хилма-хиллик тамойилини амалга оширишга кўмаклашишга чақирилади. Парламентаризм концепцияси қонун чиқарувчига мамлакатдаги вакиллик институтларининг ҳуқуқий ҳолатини тартибга солишнинг тўғри йўналишини белгилашда раҳбарлик қилиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Lex.uz .
2. Шавкат Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тарққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови Тошкент - «Ўзбекистон»-2017
3. Шавкат Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз Тошкент - «Ўзбекистон» - 2016
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т.: «Ўзбекистон» 2017 й. -Б.-33

РЕЗЮМЕ:

Мақолада парламент ва парламентаризм тушунчаларининг ўзаро боғлиқлиги, унинг мазмун моҳияти ўзига хослиги ва алоҳида макоми, қонун чиқарувчи ва вакиллик ҳокимияти органи сифатидаги икки томонлама хуқуқий табиати очиб берилади.

Калит сўзлар: парламент, парламентаризм, депутат, халқ вакиллиги.

РЕЗЮМЕ:

В статье раскрывается взаимозависимость понятий парламент и парламентаризм, его уникальность и особый статус, его двойственная правовая природа как органа законодательной и представительной власти.

Ключевые слова: парламент, парламентаризм, депутат, народное представительство.

RESUME:

The article reveals the interdependence of the concepts of parliament and parliamentarism, its uniqueness and special status, its dual legal nature as a body of legislative and representative power.

Key words: parliament, parliamentarism, deputy, people's representation.

ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИДА ЖАБРЛАНУВЧИЛАРНИНГ ТАСНИФИ ВА ЖИНОЯТ СОДИР ЭТИЛИШИДАГИ РОЛИ

Касимов Н.С. -

*ИИВ 2-сонли Тошкент академик лицеейи директорининг ўқув
ишилари бўйича ўринбосари,
ИИВ Академияси мустақил изланувчиси*

Жиноят жабрланувчиси - бу виктимологиянинг асосий тушунчаси. Жиноят жабрланувчининг хулқ-атвори виктимизацияси жараёнининг асосий таркибий қисмларидан бири бўлган виктимологик тадқиқотининг асосий обьектларидан биридир. Жиноят жабрланувчилари учун одил судловнинг асосий тамойиллари “жабрланувчилар” атамаси якка тартибда ёки биргаликда зарап кўрган, шу жумладан тан жароҳати ёки маънавий зарап кўрган ёки уларнинг асосий хуқуqlари сезиларли даражада бузилган шахсларни англатади. “Жабрланувчи” атамаси, тегишлича, бевосита жабрланувчининг яқин қариндошлари ёки қарамоғидаги шахсларни ўз ичига олади[1, 83].

Жиноят натижасида жисмоний, моддий ёки маънавий зарап кўрган ҳар қандай шахс (ижтимоий жамоа, ташкилот) жиноят жабрланувчиси ҳисобланади. Виктимологик тадқиқотнинг асосий обьекти, яъни жиноят жабрланувчисини етарлича тўлиқ, илмий асосланган таснифлаш, бир томондан, ушбу билим соҳасида илмий ишланмаларни янада мақсадли олиб боришга имкон беради, иккинчи томондан, обьектив равишда шахсий фазилатлари ва хулқ-атвори жиноят жабрланувчиси бўлишга кўпроқ мойил бўлган фуқароларга нисбатан профилактика чораларини режалаштириш ва амалга ошириш учун муваффақиятга эришиш имкониятини оширишdir.

Қасддан одам ўлдириш жиноятларида жабрланувчи шахсининг виктимологик хусусияти, жабрланувчи шахсининг белгилари, хусусиятлари ва ижтимоий алоқаларини маълум бир тизимлаштириш билангина илмий ва амалий аҳамиятга эга бўлади. Жиноят жабрланувчиларининг типологияси ва таснифи ана шу мақсадларга хизмат қиласи. Виктимологияга оид адабиётларда, моҳиятан, бу икки тушунча ўртасида ҳеч қандай фарқ йўқ. Шу муносабат билан Д.В.Ривманнинг ёндашуви жабрланувчилар типологиясини таснифлашнинг бир тури сифатида кўриб чиқиши таклиф қиласи. У таснифлашнинг икки даражасини белгилайди – гурухлаш ва типология. Шу билан бирга, таснифлаш ва типология масалалари криминалистик адабиётда жуда чукур ўрганилган[2, 96].

Турли муаллифларнинг асарларида қасддан одам ўлдириш жинояти жабрланувчиларини таснифлаш учун турли асослар мавжуд. Шундай қилиб, Л.В. Франк жабрланувчиларни таснифлаш учун қўйидаги схемани таклиф қиласи:

1. Жиноят белгиларига кўра, зарап етказган шахслардан, биринчи навбатда, битта умумий обьектга эга бўлган жиноятлар – жинсий жиноятлар, йўл ҳаракати ва бошқалар соҳасидаги жабрланувчилар киради.

2. Жабрланувчиларнинг жиноятчига муносабатига қараб. Бу тасниф ўз ичига иккита ижтимоий алоқаларни олади. Шахсий алоқалар, оила қўшничилик, хизмат ва дўстона муносабатлар, душманлик муносабатлари.

3. Демографик белгилари бўйича - касби, мутахассислиги, машғулоти, ёши ва бошқалар.

4. Ахлоқий-психологик хусусиятларига кўра: ишонувчанлик, тажовузкорлик, очқўзлик, беҳаёлик ва бошқалар.

5. Жабрланувчининг турли хил ноодатий асослари бўйича - хаёлий жабрланувчилар, ихтиёрий жабрланувчилар ва бошқалар[3, 29].

Шунингдек, потенциал жабрланувчиларни (ҳақиқий зарап ҳали содир бўлмаган), ҳақиқий жабрланувчиларни (аллақачон зарап кўрган), шунингдек яширин жабрланувчиларни

(хақиқий, аммо у ёки бу сабабларга кўра расмий шахслардан четда қолган) фарқлаш керак. Виктимология учун энг қизиқ нарса яширин жабрланувчилар бўлиб, улар қасдан уларга зарар етказиш фактини ошкор қилишдан қочадилар.

Нейтрал жабрланувчилар - бу шахсларнинг хулқ-атвори уларга нисбатан жиноят содир этишга ҳеч қандай сабаб бўлмаган[4, 49].

Рикошет (иккинчи даражали) жабрланувчилар жиноятлар субъектларини “жиноят жабралнувчиси тушунчаси қамраб олган обьектларнинг умумий таркибидан биринчиси фақат билвосита жиноят билан боғлик деб чиқариб ташлаш нафакат илмий, балки шунчаки ахлоқсиз кўринади. Рикошет жабрланувчилар бир хил азоб-уқубатларни бошдан кечиришади ва асосий жабрланувчилар каби бир хил психологик танглик аломатларини кўрсатадилар. Қасдан одам ўлдириш жинояти жабрланувчиларининг оила аъзолари, турмуш ўртоқлари, ота-оналари, фарзандлари жабрланувчиларининг қариндошлари бевосита моддий-маънавий ва психологик жабр кўрадиган жабрланувчилардир[5, 53].

Бизнинг фикримизча, индивидуал жабрланувчини ўрганишда, жабрланувчиларнинг типологиясидан фойдаланиш керак. Унинг ижтимоий мавқе ҳақида эмас, балки жабрланувчи - шахснинг ижтимоий тури ёки шахсияти ҳақида гапириш лозим. Шахс тури - ижтимоий ҳодисалар билан боғлик ҳолда намоён бўладиган ва шахснинг асосий характер хусусиятлари тўплами муайян мухитдан ўрганади.

Шундай қилиб, жабрланувчиларни батафсил таснифлашда, уларнинг типологик хусусиятларини тавсифлашда юқорида айтиб ўтилганидек, жабрланувчиларнинг “ахлоқий ва психологик хусусиятлари”га эътибор беради, аммо у жуда хилма-хил ҳодисалар ва психологик тоифаларни назарда тутади. Алкоголизм ва гиёҳвандлик, тажовузкорлик, қўполлик, қўрқоқлик, шафқаизлик, пассивлик, ишонувчанлик, меҳрибонлик, танқидсизлик ва бошқалар.

Олиб борган тадқиқотларимиз шуни кўрсатадики, жабрланганларнинг ярмидан кўпи (56,8%) жиноят содир этилган пайтда мастилик ҳолатида бўлган ва деярли ҳар учинчи ҳолатда жабрланувчилар спиртли ичимликлар истеъмол қилганлар билан бирга бўлганларга қарши жиноятлар содир этган. Ўтказилган тадқиқотлар, шунингдек, типологик тузилмаларда қасдан одам ўлдириш жиноятлари жабрланувчиларини мустақил типологик гурухга ажратишнинг қонунийлигини кўрсатади, чунки бундай жиноятлар учун мотивация ҳам, жиноий вазиятнинг умумий тузилиши ҳам кўпинча қотилликка энг хос бўлган вазиятлардан сезиларли даражада фарқ қиласди.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, бундай ўзига хос хусусиятларни барча жабрланганларга ва умуман, қасдан одам ўлдириш жиноятлари содир этилган турли хил вазиятларга татбиқ этиш мумкин эмас. Шу маънода, анъанавий, оддий деб аталадиган қасдан одам ўлдириш жиноятлари, шунингдек, маиший низолар, “тасодифий” қотилликларни ўз ичига олган жуда кенг кўламли вазиятларни ташкил қиласди. Ушбу вазиятларнинг барчасида жабрланувчиларнинг хатти-ҳаракатлари жуда кенг доирада ўзгариб туради - булар провокациондан мутлақо қонунийгача.

Қасдан одам ўлдириш жиноятларида жабрланувчининг хулқ-атвор мезонларини қўйидагича таснифлаш мумкин;

- хулқ-атвори жиноятчигага қарши курашишга қаратилган жабрланувчилар. Ушбу шахслар жиноятларнинг олдини олишга қаратилган ҳаракатлари туфайли жисмоний, мулкий ёки маънавий зарар кўрган. Бу жабрланувчилар, асосан, ижобий хулқ-атвори, юксак ахлоқий фазилатлари, жамоат ва хизмат бурчини вижданан бажариши билан ажralиб туради;

- қилмишлари жиноят билан сабабий боғлик бўлмаган жабрланувчилар (нейтрал хулқ).

- жабрланувчининг хатти-ҳаракати билан туфайли (салбий, ахлоқсиз, хавфли, провокацион). Ахлоқсиз хулқ-атвор деганда шахснинг бир-бирига зид бўлган мунтазам равишда такрорланадиган ҳаракатлари тушуниладиган жамиятимизда мавжуд ахлоқий меъёрлар, тамойиллар, идеаллар мазмuni.

Ю.М. Антонян жабрланувчи ва жиноят содир этган шахс ўртасидаги муносабатларнинг хусусиятига кўра, жабрланувчиларни кўйидаги гурухларга ажратади: турмуш ўртоқлар ва бирга яшовчилар; қўшни ва танишлар; жиноятчи билан бирга ишлаган ёки у билан қандайдир тарзда биргалиқдаги фаолияти билан боғланган; у билан бўш вактини ўтказган; жиноятчига яқин бўлган шахслар; ўртоқлик муносабатларида, жиноятчи билан таниш бўлган шахслар; жиноятчи талончилик ва ёки бошқа жиноятни содир этиш мақсадида кейинги хужум учун изига тушган қотил билан таниш бўлмаган шахслар; “тасодифий” жабрланувчилар[6, 54].

Бизнинг фикримизча қасдан одам ўлдириш жиноятларида жиноятчи ва жабрланувчининг ўртасидаги боғлиқлик турларини фарқлашнинг муҳим асосларидан бири бу жиноят содир этилгунга қадар жиноятчи ва жабрланувчи ўртасида мавжуд бўлган ижтимоий алоқаларнинг характеристидир. Шу муносабат билан жиноятчи билан муносабатларнинг яқинлиги, интенсивлиги ва давомийлигига қараб, жабрланувчиларни уч гурухга бўлишни таклиф қиласиз.

Биринчисига жиноятчи билан турли хил кариндошлиқ, мулкий муносабатларда, шунингдек, оила-никоҳ муносабатларида бўлган шахслар киради.

Иккинчисига - танишлар: а) яшаш жойи, туғилган жойи бўйича; б) биргалиқда ишлаш, ўқиш, ижтимоий фаолият, биргалиқда дам олиш ва ҳордик чиқариш фаолияти; в) тасодифан кўчада, клубларда, дискотекада ва ҳоказоларда учрашувлар; д) жиноий фаолиятда иштирок этиш натижасида; д) бошқа танишлар.

Учинчи гурухга жиноятчи билан таниш бўлмаган, содир этишдан олдин у билан бевосита учрашган жабрланувчилар киради.

Қасдан одам ўлдириш жинояти механизмида жабрланувчининг роли.

Жабрланувчининг жиноят механизмидағи ролини ўрганаётганда, биз доимо жиноий вазиятга мурожаат қиласиз, чунки у (жабрланувчи) айнан вазиятнинг элементи сифатида ўзини криминологик жиҳатдан намоён қиласи. Бу кўп ҳолатларга, шу жумладан жабрланувчига, жиноятчи қандай вазиятга тушиб қолиши, криминоген (жиноят содир этишга ёрдам берадиган ҳолатлар мавжуд) билан боғлиқ. Хулқ-атворда, шу жумладан жиноий, шахс ва вазиятнинг ўзаро таҳсири намоён бўлади. Жабрланувчи вазиятнинг таркибий қисми сифатида нафақат мотивларнинг келиб чиқишига, балки потенциал қотилда жиноят ҳақидаги ғоянинг пайдо бўлишига ҳам таъсир қилиши мумкин. Бу аслида зарар келтирадиган муҳитни яратиши мумкин. Жабрланувчининг хатти-ҳаракатининг кўплаб вариантлари мавжуд - энг аҳамиятизидан ҳал қилувчигача.

Жиноятчининг шахсини ва унинг қотиллик механизмидағи ролини ўрганар эканмиз, биз қисман жабрланувчининг воқеалар ривожи ва натижасига таъсир қилувчи энг муҳим элемент сифатидаги ролига тўхталиб ўтамиз. Аввало, бизнинг фикримизча, жабрланувчи ва жиноятчи ўртасидаги қотилликдан олдинги муносабатларда ифодаланган, жабрланувчининг кейинги хатти-ҳаракатларига таъсир кўрсатиши мумкин бўлган жиноятгача бўлган муҳитини тавсифлаш керак. Жиноятчи ва жабрланувчилар ўртасидаги муносабатларнинг моҳиятини таҳлил қиласи эканмиз, биз жабрланувчи ва жиноятчининг аниқ адованатга эътибор қаратиш лозим. Шундан келиб чиқиб таҳмин қилиш мумкини, қасдан одам ўлдириш жинояти “иштирокчилари” ўртасида вужудга келган муносабатларни идрок этишдаги фарқ жабрланувчининг эҳтиёқиз хулқ-атворига олиб келган ва натижада жиноят содир этилишига сабаб бўлган.

Шундай қилиб, жабрланувчи асосан қасдан одам ўлдириш жиноятини содир этишда фаол рол ўйнайди, бу нафақат жабрланувчига, балки жиноятчининг шахсий фазилатларига ҳам боғлиқ бўлган турли хил провокацион ҳаракатларда намоён бўлади. Тақдим этилган маълумотларга асосланиб, қасдан одам ўлдириш жинояти жабрланувчилари томонидан аниқ шаклдаги провокацион хатти-ҳаракатлар кўпинча намоён бўлмайди. Шу сабабли, жабрланувчининг жиноятчини қўзғатадиган бошқа хатти-ҳаракатларининг характеристи ҳақида фақат шартли равища, жиноятчининг ўзи томонидан берилган баҳога асосланиб гапириш

мумкин. Жабрланувчининг шахсий хусусиятлари ва уларни жиноятчи томонидан идрок этиш билан боғлиқ бўлган жабрланувчининг у ёки бу хатти-харакати кўп ҳолларда қасдан одам ўлдириш жиноятининг билвосита сабаби бўлиши мумкин.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, жабрланувчиларнинг аксарияти ўзларининг бўлажак қотиллари билан таниш бўлган ва улар билан турли хил муносабатларни сақлаб туришган, кўпинча бир хил ижтимоий муҳитда яшашган, яъни жинятычининг ўзи маълум бир тарзда жабрланувчининг шахсиятини идрок этган ва унинг ижобий ва салбий фазилатлар баҳо берган.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ривман Д.В .Криминальная виктимология. - М., 2002. С.83
2. Ривман Д.В. Криминальная виктимология. - М., 2002.С.96
3. Франк Л.В. Потерпевшие от преступления и проблемы советской виктимологии. - Душанбе: Ирфон, 1977. С. 29
4. Ривман Д.В.Криминальная виктимология,- М.. 2002. С. 53
5. Антонян Ю.М., Верещагин В.А., Потапов С.А., Шостакович Б.В. Серийные убийства. Криминологическое и патопсихологическое исследование. М., 1997. С. 54-63

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада содир этилаётган қасдан одам ўлдириш жиноятларидаги жабрланувчиларнинг типологияси, уларнинг жиноят содир этилишидаги роли ҳам жабрланувчиларнинг тоифалари таснифлаб чиқилган бўлиб, уларнинг айнан қасдан одам ўлдириш жиноятларидаги содир этган хатти-харакатлари муҳокама қилинган.

Калит сўзлар: қасдан одам ўлдириш, виктимлик, виктимология, внопрофилактика, жабрланувчи, жиноятчи, ҳулқ-атвор, маънавий зарап.

РЕЗЮМЕ:

В статье классифицируется типология потерпевших от умышленных преступлений, связанных с убийством, их роль в совершении преступления, категории потерпевших, рассматриваются их действия при умышленных преступлениях, связанных с убийством.

Ключевые слова: непредумышленное убийство, виктимизация, виктимология, внопрофилактика, потерпевший, преступник, поведение, моральный вред.

RESUME:

The article classifies the typology of victims of intentional crimes related to murder, their role in the commission of the crime, categories of victims, and examines their actions in intentional crimes related to murder.

Key words: manslaughter, victimization, victimology, prevention, victim, criminal, behavior, moral harm.

ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И МАССОВАЯ КУЛЬТУРА В СОВРЕМЕННОМ ГЛОБАЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Рахманбердиева Н. -
ассистент НИУ "ТИИИМСХ",
Юнусова Н. -
доцент ТГТУ

Понятие «глобализация» многогранно. В более широком плане-это перерастание национальных и региональных проблем в общемировые и формирование новой хозяйственной, социальной и природно-биологической глобальной среды. В более конкретном - это процесс трансформации экономических и хозяйственных структур в направлении становления целостной и единой мировой геоэкономической реальности. Конкретными сферами глобализации являются также научно-технические технологии, нравственно-этические ценности (глобальная этика), новые угрозы международной безопасности и стабильности (международный терроризм, транснациональная преступность, глобальное расползание оружия массового уничтожения).

Целый ряд проблем возникает в связи с процессами глобализации, ускорения потока информации. Самое плохое то, что возникают различные силы, пытающиеся расширить сферу своего влияния различными идеологическими средствами, завоевать душу и сознание людей.

Многие люди жалуются на некоторые проявления душевного неблагополучия (неврозы, депрессии, страхи, фобии и т.п.), выясняется, что их причиной часто является информация.

Компьютер – одно из важнейших достижений XX века. Современные компьютерные технологии позволяют знакомиться с мировыми культурными ценностями, пользоваться электронной почтой, получать разнообразные интересующие человека сведения. Компьютер стал в нашей жизни необходимым инструментом получения информации. Но надо научиться правильно пользоваться этим инструментом, чтобы он приносил благо, а не вред.

Возникла серьезная проблема влияния компьютеризации на психику человека, на его душевную организацию. Психологи отмечают серьезные изменения в познавательной и коммуникативной сферах личности человека, чья деятельность связана с использованием компьютера. Человек часто не в состоянии проверить достоверность получаемой информации, увлекаясь «знаковой информацией», он теряет «смысловую чувствительность», у него появляется безучастность к происходящему в мире. Психотерапевты и психологи очень обеспокоены появлением интернет-зависимости, которая уводит личность в виртуальный мир, когда человек страдает маниакальным стремлением часами бродить по киберпространству, и молодежь попадает под влияние кибертерроризма. Особенно их волнует чрезмерное увлечение компьютерными играми - компьютерная игромания, увлечение общением через Интернет – чатомания, от которых нередко трудно избавиться.

Интернет сегодня становится особым топосом, в котором происходит встреча человека с человеком, формируются новые формы социального общения. Здесь складывается особая социальная виртуальная реальность, социальное киберпространство, где человек сам себе архитектор. Сеть захватывает огромное количество субъектов. В осевой коммуникации сообщение направлено к единичному получателю, сетевой коммуникации – многим получателям. Киберпространство создают люди, которые вступают в социальные отношения и формируют особую социальную реальность. Представляется, что социальные отношения в Интернете, не смотря на свое виртуальное происхождение, столь же реальны, сколь реально наше собственное существование в сфере самых обычных отношений. Также как и в реальном социальном пространстве, в киберпространстве складываются социальные общности, в том

числе и религиозные, которые, хотя и относятся по существу к виртуальным, на практике являются обычными социальными образованиями, влияющими и на отдельного человека и на общество в целом. Таким образом, актуальность приобретает вопрос о способах формирования религиозной идентичности в Интернете.

Термин «киберпространство» ввел в употребление канадский писатель-фантаст Уильям Гибсон в 1982 году в его новелле «Сожжение Хром» («Бурнинг Чроме») в журнале Омни. Позже оно было популяризировано в «Нейроманте» («Неуромансер»).

Понятия «Интернет», «Сеть» и «Киберпространство» преимущественно используются в качестве синонимов. Киберпространство, возможно, является наиболее адекватной метафорой глобальной сети Интернет, хотя не его не следует путать с реальным Интернетом. Киберпространство в чистом виде можно определить как пространство нелокализованного электронного текста, не связанного напрямую с визуально-тактильно-звуковой симуляцией реальности.

В настоящее время наши идеологические противники, против нашей духовности, пытаются организовать информационные атаки на наших людей, особенно нашу молодежь, и оказывают серьезную угрозу и влияние в форме «массовой культуры».

Мы можем сказать что, одним из наиболее негативных аспектов процесса глобализации сегодня является массовая культура. Интерес индивида в основном обусловлен внешним и неконтролируемым потреблением. Это один из уродливых примеров «массовой культуры». Вместо того, чтобы поднимать массы к истинной культуре Запада, сама «культура» приспособливается к вкусу нации народа и трансформирует, упрощает и изменяет подлинно образованного человека, индустрия «массовой культуры» превращается в робота-человека.

В начале XX века Б.Бердяев предсказал появление популярной культуры и предсказал снижение духовных и культурных потребностей большинства обществ: «Трудно жить в реальности. Для этой цели необходимы независимая психотерапия, независимый опыт и независимое суждение. Легче жить в раковинах, поговорках и т. д. Большинство людей верят в слова и концепции, разработанные другими, и живут на опыте вампиров ». [1, с.176]

Человек, сформированный влиянием массовой культуры, живет в соответствии с новой интерпретацией понятия морали, права, нормы и отклонения, основанного на значениях самоотверженных ценностей. Демонстрация самопожертвования, эманципации и стремления к высокому уровню потребления становится своеобразным вероучением императива этой культуры и ее представителей. В Узбекистане с целью развития основ демократического правового государства и гражданского общества принята Стратегия действий, которая направлена на реализацию принципа «Интересы человека – высшая ценность» и на уровне государственной политики на повестку дня ставится вопрос персональной ответственности руководителей за обеспечение социальной справедливости. Президент Узбекистана подчеркивал, что «...главная задача – своевременно донести суть законов до нашего народа и ответственных исполнителей, правильно организовать их выполнение и обеспечить неукоснительное соблюдение закона» Кроме того: «Нашей главной задачей стало установление в нашей жизни в полном смысле справедливости, которую наш народ ставит превыше всего. Обеспечение верховенства закона и справедливости – важнейшее условие построения Нового Узбекистана»

Философское изучение принципов социальной справедливости и разработка научных выводов является актуальной задачей. Согласно Х. Ортега-и-Гассет, «общественная культура» заставит общественность отрицательно оценить антропологию. Разговор о «самом серьезном кризисе европейских народов и культур». [2, с.6]. При этом психологическая психология не соответствует своим обязательствам, а определяет конкретное поведение потребителя, то есть «поведенческое» поведение материалистических ценностей и ценностей с точки зрения потребительских отношений и обязанностей. Поэтому первый президент Республики Узбекистан Ислам Каримов заявил в своей книге «Высокая духовность - непобедимая сила»: «Естественно, под маской» массовой культуры «маски этических нарушений и насилия,

индивидуализма и эгоцентризма, богаство тысячелетних традиций и ценностей других народов, духовная основа их образа жизни и опасность их свержения». [3, с.19.]

Главная опасность массовой культуры в процессе социализации человека заключается в ощущении способности человека развивать критическое мышление во влиянии средств массовой информации, сформированных в культуре. Это явление может привести к появлению новых классов, отчасти из-за ощущения читателей и «наблюдения» людей в будущем с точки зрения собственности на «интеллектуальную собственность». Это также заканчивается обычными сходствами и одинаковым образом жизни. Сегодняшний человек опирается на многочисленные сходства и принимает их как маски или играющие роли, но они просто являются средством выражения себя как «я». [4, п.19]

В настоящее время практически не подвергается сомнению тот факт, что человек для реализации своего социального поведения в обществе нуждается в постоянном притоке информации. Постоянная информационная связь с окружающим миром, социальной средой, в которой он действует как активный социальный субъект, является одним из важнейших условий нормальной жизнедеятельности. Прекращение информационной связи может вызывать различные психические аномалии вплоть до психических заболеваний. На человека оказывают огромное влияние не только постоянный информационный контакт с окружающей социальной средой или его ощущение, но и количество, объем, содержание и структура поступающей и перерабатываемой информации. [5]

Содержание понятия "информационно-психологическая безопасность" в общем виде можно обозначить как состояние защищенности индивидуальной, групповой и общественной психологии и, соответственно, социальных субъектов различных уровней общности, масштаба, системно-структурной и функциональной организации от воздействия информационных факторов, вызывающих дисфункциональные социальные процессы. Иными словами, речь идет о таких социальных процессах, которые затрудняют или препятствуют оптимальному функционированию государственных и социальных институтов узбекского общества и человека как полноправного и свободного гражданина.

В настоящее время нет достаточно обоснованной и подробной общей классификации угроз информационно-психологической безопасности и их источников. Это связано с новизной и сложностью этой проблематики, а также с тем, что сама процедура и результат классификации зависят от тех задач, которые необходимо решить, и в связи с этим - от избираемых оснований и критериев, которые используются при классификации. Основной целью предпринятого нами анализа является выделение основных источников угроз информационно-психологической безопасности с позиций отдельного человека для определения способов и механизмов его психологической защиты. С учетом этого хотелось бы в первую очередь выделить следующие основные источники угроз информационно-психологической безопасности личности, которые можно разделить по отношению к человеку на две группы: внешние и внутренние. Общим источником внешних угроз информационно-психологической безопасности личности является та часть информационной среды общества, которая в силу различных причин не адекватно отражает окружающий человека мир. Т.е. информация, которая вводит людей в заблуждение, в мир иллюзий, не позволяет адекватно воспринимать окружающее и самого себя.

На новом этапе развития Узбекистана особое внимание уделяется социальному предпринимательству не только для получения заработка и прибыли, но и для улучшения социальной ситуации в обществе. Социальное предпринимательство – это процесс производства товаров или услуг для решения социальных проблем, в котором малые или крупные, международные или местные социальные предприятия объединяются для решения социальных проблем с использованием различных методов ведения бизнеса.

Заключение. Все это определило направленность и проблематику данной работы, в которой предпринята попытка решения следующих основных задач:

1. Определить современное понимание в процессе глобализации информационно-психологической безопасности личности.

2. Выделить угрозы информационно-психологической безопасности личности и их основные источники.

3. Показать, что массовое распространение психологических манипуляций а также массовая культура выступает как основная угроза информационно-психологической безопасности личности.

4. Показать, что психологическая защита личности является основным способом обеспечения ее информационно-психологической безопасности.

И так, духовное и нравственное воспитание молодого поколения в условиях глобализации является важным фактором развития общества. Мы живем в мире, полностью окруженном в информации. Поэтому важно, что психологическая защита личности является основным способом обеспечения ее информационно-психологической безопасности.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс: СПб.: Пер. с исп. / Х.Ортега-и-Гассет.- Москва: ООО «Издательство АСТ», 2001. С.15.(Ортега-и-Гассет Х. Демонстрацион офф масс: СПб.: Транслате фром Спаниш Х. Ортега-и-Гассет. Москов: ОАС “Публишер АСТ”, 2001, п.15).
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият. 2008.- Б.237.(И.А.
3. Эко У. Средние века уже начались/ Иностранная литература. - 1994.- Н 4.- С. 258— 267.(Еко У. Миддле агес аре бегинед/Фореигн литературе. - 1994.- Н 4.-Пп. 258-267.)
4. Проф. В. Левицкий [хттп://www.партнер-информ.де/партнер/детайл/2007/6/272/2445](http://www.партнер-информ.де/партнер/детайл/2007/6/272/2445)
5. Г. Грачев. «Информационно-психологическая безопасность личности» М.2016г.с.74.
6. Муминов А.Г. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА АХБОРОТЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ УСТУВОР ЎНАЛИШЛАРИ. Science and innovation. 2024/3. 605-611-бетлар

РЕЗЮМЕ:

Мақолада ҳозирги глобаллашув жараёнида информацион-психологик хавф-хатарни олдини олиш масаласи ва оммавий маданиятнинг мазмун-моҳияти, ёшларнинг ижтимоий ҳаётига салбий таъсири ва унинг оқибатлари кенг ёритилган.

Калит сўзлар: глобаллашув, кибермакон, ахборот, интернет, оммавий маданият, компьютер, тармоқ, психологик хуружлардан ҳимоя, мустақиллик.

РЕЗЮМЕ:

В статье раскрыта сущность и содержание информационно-психологической безопасности и массовая культура в современном глобальном процессе, а также её отрицательное влияние на социальную жизнь молодёжи и их последствие.

Ключевые слова: глобализация, киберпространство, информация, интернет, массовая культура, компьютер, сеть, психологическая безопасность, независимость.

RESUME:

The article reveals the essence and content of information and psychological security and mass culture in the modern global process, as well as the negative impact on the social life of young people and their consequences.

Key word: globalization, cyberspace, information, internet, mass culture, computer, network, psychological safety, independence.

TARIXIY ONGNING FUNKSIYALARI VA UNING IJTIMOIY ONG SHAKLLARI BILAN DIALEKTIK ALOQADORLIGI

Miraxmedov J.M. -

*QDPI dotsent v.b.,
falsafa fanlari bo'yicha PhD.*

Tarixiy ong – bu jamiyat ijtimoiy hayotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri, tartibga soluvchisidir. Shu boisdan ham akademik J.Tulenov tarixiy ong «ilgari sodir bo'lgan tarixiy voqealarni o'zida aks yettirgan turli-tuman manbalar, ashayolar avloddan avlodga meros sifatida o'tib, tariximiz, madaniyatimizning uzlusizligini ta'minlaydi», deb yozadi.

Fenomenologik yondashuv doirasida tarixiy ong quyidagicha ko'rib chiqiladi:

- ma'naviy madaniyat hodisisi;
- jamoatchilik ongingin kesimi;

• tarixiy jarayonning ma'naviy tomoni, ya'ni aks yettirish, bilish, anglash, talqin qilish, baho berish, his-tuyg'ularni ifodalash, insoniyat tarixini zamon, o'tmish va kelajak birligida sodir bo'ladigan jarayon sifatida anglash mumkin.

Fenomenologik yondashuv tarafdarlari uchun tarixiy ong - bu ijtimoiy ongning namoyon bo'lishi, jamiyat ma'naviy madaniyatining muhim tarkibiy qismi, murakkab, ko'p qirrali ma'naviy va amaliy ta'lim, shaxslarning xatti-harakatlarini ijtimoiy-madaniy tartibga solish hodisalaridan biri va guruhlar, ijtimoiy guruhlar va sinflar, yetnik guruhlar va umuman jamiyatga qaratilgan.

Strukturaviy yondashuv tarafdarlari tarixiy ongni ijtimoiy ongning tarkibiy qismlaridan biri sifatida tadqiq qiladilar. Ular din, san'at va iqtisodiyot bilan bir qatorda tadqiq qilingan. Tarixiy ong insoniyat tarixi bilan bog'liqlikni "ta'minlab", ijtimoiy hayotning muhim yelementi, tarixning o'zi uchun zaruriy shart sifatida ishlaydi. Tarixiy ong - tarix tuyg'usi – bu bizga voqealarni tarix, an'ana sifatida ko'paytirishga imkon beradi, biz qaysidir nuqtada biz o'zimizni o'z ichiga olamiz. Tarixiy ong tarixiy bilim bilan bir xildir.

Muhim (yaxlit) yondashuv tarixiy ongni ijtimoiy ongning nisbatan mustaqil shakli, zamonlar bog'liqligini, avlodlar uzlusizligini, ijtimoiy tajribani uzatishning real yehtiyojlari bilan hayotga tatbiq yetilgan yaxlit tizim sifatida qarashga asoslanadi. O'tmishni o'rganish va tushunish (hozirgi vaqtini tushunish va kelajakni bashorat qilish uchun zarur). Tarixiy ongning yetukligi mezonlari tarixiy o'tmishni tushunish, uning saboqlarini keng omma, siyosiy va hukumat rahbarlari tomonidan tanqidiy va ijodiy o'zlashtirishdir.

Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida tarixiy ongni tushunish, boshqa narsalar qatori, uning kundalik voqelik makoniga amaliy "chiqishi" bilan bog'liq. "Tarixiy ong" tushunchasini bir necha ma'noda ko'rib chiqish mumkin.

1. Tarixiy ong o'ziga xos yaxlit ma'naviy shakllanish sifatida tarixiy borliq mohiyatini yoki inson va jamiyatning tarixiyligini ularning o'zaro ta'siri va retrospeksiyasida tarixning mikrodan makro darajasiga ko'ra ifodalashidir. Atrof-muhit bilan bir qatorda ong, tarixiy ong zamonaviylikning imperativi, burilish nuqtasi oqibatlarini bartaraf yetish davridagi burilishning asosiy ma'naviy poydevori sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

2. Tarixiy ong o'ziga xos tuzilishi, mazmuni, maqsadiga yega bo'lgan mustaqil ong turi sifatida, o'z tashkil yetishning turli darajalarida tarixning tarixiy tuyg'ulari, obrazlari, qiziqishlari, xotiralari, g'oyalari, bilimlari, ma'no va ma'nolari yig'indisini qamrab oladi. Uning tashuvchilari odamlar, ijtimoiy guruhlar va jamoalar, insoniyatdir.

3. Tarixiy ong transformatsiyalar davridagi ijtimoiy taraqqiyot tamoyili sifatida. Tarixiy ongni ijtimoiy rivojlanish tamoyili sifatida ko'rib chiqish, tarixiy ongning kundalik hayotda shakllanishi va faoliyati zamonaviy inson hayotida yeng ijobiy ma'noda cheklovchi va saqlaydigan konservativ prinsipni o'rnatishga yordam berishi tufayli mumkin ko'rinadi. Shu jumladan, inson hayotining tez o'zgaruvchan, modernizatsiya sharoitida.

4. Tarixiy ong falsafiy, tarixiy va ijtimoiy-gumanitar muammo sifatida. Tarixiy ongning muammoli tabiatibir necha jihatlarga yega:

- mafkuraviy («zamonaviy-tarixiy» munosabatlar tizimidagi qadriyatlar, ye'tiqod va tamoyillar);
- gnoseologik va uslubiy (tarixiy ongning mazmuni yoki tarkibiy qismlari, uni bilish usullari);
- ijtimoiy-falsafiy va falsafiy-tarixiy, sotsiologik-tarixiy (zamonaviy shaxs tarixiy ongining holati va faoliyati, uning dinamikasi, o'rni, zamonaviy jamiyat hayotidagi o'rni, tarixiy ongning mazmuni), psixologik-tarixiy;
- falsafiy va antropologik (inson tarixiyligi hodisalari va mohiyati, tarixiy ong va inson mohiyati);
- madaniy (tarixiy madaniyat);
- axloqiy (insonning tarixiy mavjudot sifatida mayjudligining axloqiy tamoyillari).

Tarixiy ongning shakllanishi va faoliyati tarixiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan tarixiy madaniyat bilan bog'liq. "Tarixiy ong" tushunchasi mazmuni jihatidan tarixiy madaniyat tushunchasiga qaraganda kengroqdir.

"Tarixiy madaniyat" va "tarixiy ong" tushunchalari o'rtasidagi munosabatlarni tushunish kontekstida madaniyatni tushunishga bunday yondashuv ularning kognitiv maqomini aniqlash uchun yeng mos keladigan ko'rindi. Shu munosabat bilan tarixiy madaniyat deganda tarixiy sharoitda, madaniyat sohasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositalari va mexanizmlari tushunilishi kerak. Vaqt va davrlarning o'tishi mamlakatlar va xalqlar tarixiy madaniyatini (universal va mahalliy jihatlar) o'rganish katta bilim va g'oyaviy ahamiyatga yega. "Tarixiy ong" tushunchasiga nisbatan tarixiy madaniyat uning konstruksiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy madaniyat tarixiy ongning shakllanishi va faoliyatining vositasi va mexanizmidir. Tarixiy madaniyatning tarixiy hozirgi (modernlik)dagi holati, bir tomonidan, tarixiy ong muammolarining ko'rsatkichi bo'lsa, ikkinchi tomonidan, ularni bartaraf yetish vositasidir.

Shunday qilib, "tarixiy madaniyat" va "tarixiy ong" tushunchalarining qiyosiy tavsifi quyidagi fikrlarga ye'tibor qaratishga imkon beradi:

- tarixiy ongning tuzilishi va mazmuni qiziqishlar, yehtiyojlar, afzalliklar, xotiralar, bashoratlar, ideallar, qarashlar, bilimlar, baholar, nazariyalar, g'oyalar, his-tuyg'ular, tasvirlar, timsollar, shuningdek, hikoyalar, afsonalar, latifalar va qo'shiqlardan iborat. "tarixiy" (jarayon, davr, davr, fakt, voqeа, hodisa, shaxs) bilan bog'liq.
- tarixiy madaniyat o'tmishga ijobiy munosabatni shakllantiruvchi tarixiy qadriyatlar, ideallar va ma'nolarni targ'ib qilishni o'z ichiga oladi; tarixiy o'tmish haqidagi zamonaviy g'oyalarni shakllantirish, tarixiy hozirgi zamonda tarixiy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan o'yin, o'quv, mehnat, ijodiy faoliyatni nazariy va amaliy darajada tashkil yetish; tarixiy tarbiya va ta'lim; tarixiy an'analar va tarixiy meros.
- tarixiy madaniyat tarixiy rekonstruksiya, liboslar, muzeylar, urf-odatlar, tarixiy obidalar va boshqalar kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Tarixiy ongning shakllari tarixiy bilimlar, falsafiy va tarixiy qarashlar, baholar, qadriyat yo'nalishlari, ma'no va qadriyatlar, sotsiologik-tarixiy tadqiqotlar natijalaridir. , psixologik-tarixiy bilim va "tarixiy" (rasmning tarixiy janri, tarixiy roman) ning badiiy rivojlanishi; hikoyalar, afsonalar, latifalar, qo'shiqlar.
- tarixiy madaniyat va tarixiy ong darajalari: nazariy va amaliy; individual va jamoaviy; professional va maishiy (kundalik). Tarixiy madaniyat va tarixiy ong tashuvchilar: inson (individ, shaxs), ijtimoiy jamoalar, ijtimoiy guruhi, insoniyatni o'z ichiga oladi.

Tarixiy ongda "o'tmish-bugun-yerta"dan iborat ichki ziddiyat mavjudligini ye'tirof yetgan holda A.V.Guliga "tarixiy ong bu inson (ijtimoiy guruhi, jamiyat) tomonidan o'zining zamondagi o'rni, o'tmishning bugungi kun va kelajak bilan aloqadorligining o'zlashtirilishidir. Bu istiqbol uchun muhim bo'lgan o'tmishga qaratilganlidir"[3.19] ,-degan fikrni bildira

Tarixiy ongda vaqtning uchta usuli birlashtirilgan: o'tmish, hozirgi va kelajak. Tarixiy ong tamoyili avlodlar davomiyligidir. Tarixiy madaniyatda ye'tibor tarixiy o'tmish va hozirgi kunga qaratilgan, masalan, zamonaviy tarixiy madaniyat, XVIII-asr tarixiy madaniyati va boshqalar.

Tarixiy ongning strukturasini aniqlash uchun o'rganilayotgan ob'ektdagi tarkibiy qismlar (tarkibiy qismlar, yelementlar) va ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga qaratilgan tizimli yondashuvni qo'llash mantiqan to'g'ri keladi.

Shunday qilib, tarixiy ong ommaviy ongning boshqa turlari - fuqarolik, vatanparvarlik va milliy ong bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'p komponentli hodisadir.

Maqolada ijtimoiy-falsafiy tahlil quyidagi muhim xulosalarga asos bo'ldi:

Fenomenologik yondashuv tarafdorlari uchun tarixiy ong - bu ijtimoiy ongning namoyon bo'lishi, jamiyat ma'naviy madaniyatining muhim tarkibiy qismi, murakkab, ko'p qirrali ma'naviy va amaliy ta'lim, shaxslarning xatti-harakatlarini ijtimoiy-madaniy tartibga solish hodisalaridan biri va guruhlar, ijtimoiy guruhlar va sinflar, yetnik guruhlar va umuman jamiyatga qaratilgan.

Strukturaviy yondashuv tarafdorlari tarixiy ongni ijtimoiy ongning tarkibiy qismlaridan biri sifatida, va din, san'at va iqtisodiyot bilan bir qatorda tadqiq qilingan.

“Tarixiy madaniyat” va “tarixiy ong” tushunchalari o'rtasidagi munosabatlarni tushunish kontekstida madaniyatni tushunishga bunday yondashuv ularning kognitiv maqomini aniqlash uchun yeng mos keladigan ko'rindi. Shu munosabat bilan tarixiy madaniyat deganda tarixiy sharoitda, madaniyat sohasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositalari va mexanizmlari tushunilishi kerak. Vaqt va davrlarning o'tishi mamlakatlar va xalqlar tarixiy madaniyatini (universal va mahalliy jihatlar) o'rganish katta bilim va g'oyaviy ahamiyatga yega.

Tarixiy ong ko'p tuzilmali hodisa bo'lib, uning tuzilishini turli asoslar bo'yicha ajratish mumkin: tarixiy vogelikni anglash shakllari, namoyon bo'lish vaqt, ma'lum madaniyatlarga mansubligi va boshqalar. Ijtimoiy ongning alohida shakli sifatida tarixiy ongga gnoseologik yondashuvning klassik variantini uning ikki darajali tuzilishi - tarixiy vogelik bilan belgilanadigan va o'zaro bog'liq bo'lgan kundalik va ilmiy-nazariy darajalar ko'rinishidagi tuzilishi, deb hisoblaymiz. Bu darajalar bir-biri bilan dialektik bog'langan, shuning uchun ularning o'zaro ta'sirining haqiqiy mexanizmini, o'zaro ta'sirini va bir-biriga kirib borishini aniqlash, shuningdek, ularning har birining umumiyo va maxsus xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga yega.

ADABIYOTLAR:

- Левада Ю.А. Историческое сознание как социально-философская проблема. // Философские проблемы исторической науки. — М.: Наука, 1969.-С. 186-225.
- Туленов Ж., Жабборов И. Тарихий онгни ривожлантириш – давр талаби. – Тошкент: Мехнат, 2000. – Б.7.
- Гулига А.В. Историческое сознание.//Современные проблемы философии истории: тезисы докладов в межвузовской научной конференции.-Тарту, 1989.-С.16.

REZYUME:

Mazkur maqolada tarixiy ongning funksiyalari va uning ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan dialektik aloqadorligining ijtimoiy-falsafiy tahlili qiyosiy tadqiq qilingan.

Kalit so'zlari: tarixiy ong, tarix, funksiya, dialektik, ijtimoiy-falsafiy tahlil, fenomenologiya.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье осуществлен сравнительно социально-философский анализ функций исторического сознания и его диалектическая связь с другими формами общественного сознания.

Ключевые слова: историческое сознание, история, функция, диалектика, социально-философский анализ, феноменология.

RESUME:

This article is a comparative study of the functions of historical consciousness and the socio-philosophical analysis of its dialectical relationship with other forms of social consciousness.

Keywords: historical consciousness, history, function, dialectical, socio-philosophical analysis, phenomenological, structural historical, historical culture, historical memory.

ЮСУФ ХОС ҲОЖИБНИНГ ДАВЛАТ ҚУРИЛИШИ КОНЦЕПЦИЯСИННИГ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Муҳамедов А. -
“ALFRAGANUS UNIVERSITY”,
факултет декани,
фалсафа фанлари бўйича PhD, доцент

Тарихий тараққиётдан маълумки, инсоният тарихи маълум бир маънода давлатлар тарихи ҳамдир. Шу сабабдан қадими қўллётмаларда аксарият муаллифлар ҳукмдорларга нисабатан панд-насиҳат ва ўгитларини йўллашган ва шу орқали инсониятни баҳти яшашларига ишонишган. Мисол учун, Афлотуннинг “Давлат” асари, Ўрхун-Энасой ёдгорликлари, Низомулмulkнинг “Сиёсатнома” асари, Никола Макиавеллининг “Ҳукмдор” асарларида алломалар ўзларининг замондошларига ёки авлодларга мурожаат қилиб, ҳокимиятни сақлаб туриш ва бошқаришга оид қимматли маслаҳатларини берганлар. Шу билан бирга аксарият шу тоифадаги асарларда давлат ва ҳукмдор манфаатлари бирламчи ўринга чиқади ҳамда хавфсизлик ва тараққиёт парадигмаси нутай назаридан жамият манфаатлари иккинчи ўринда қолиб кетади. Бу биринчидан мана шундай фалсафий ва сиёсий аҳамиятга молик асарларни фақат ҳукмдорлар мутолаа қилиши мақсадга мувофиқлигидан келиб чиқилган бўлса, иккинчидан китоб жамиятнинг фақат элита қисминингтина ўқишига мўлжаллаб ёзилганидан бўлиши мумкин. Нима бўлғанда ҳам бугун ана шу каби асарлар инсоният фалсафий меросидан муносиб ўрин олган, ҳозирги фалсафий тафаккурнинг манбаси ва уларни тадқиқ қилишдан замон ва макон нуқтаи назаридан туриб ёндашилади.

Юсуф Ҳос Ҳожибнинг “Кутадғу билиг” асарининг бош қаҳрамонлари – Кунтуғди, Ойтўлди, Ўгдулмиш ва Ўзғурмушлар давлат амалдорлари. Бири подшоҳ, бири вазир, яна бири вазирнинг ўғли ва яна бири қаноат тимсолидир. “Булар ўртасида бўлиб ўтадиган савол-жавоб, муносаралар жараёнида авом ҳалқдан тортиб қорахонийлар салтанатининг энг олий даража ҳокими – элиггача бўлган оралиқдаги барча табақа ва тоифаларнинг ахлоқ, одоб, хатти-ҳаракат, муносабат чегаралари ҳақида баҳс боради”. Давлат ҳокимиятини бошқариш нафақат ҳалқ билан мулоқот, балки сарой аёнлари ўртасидаги муносабатларни меъёрда сақлаб туришдир. Чунки давлат бошқарувига энг катта таҳдид ташқаридан эмас, балки ичкаридаги ғанимлар ҳисобидан бўлади.

Юсуф Ҳос Ҳожиб ёзади:

Кимни давлат туғи этса баҳтиёр,
Ҳалол сиёсатни қилгай ихтиёр.
Улус узра қай бир зот дasti узун,
Феълию атвори хўб бўлгай фузун.

Ҳукмдор учун ҳалоллик ҳокимиятни сақлаб қолиш шарти бўлмоғи зарур. Чунки ушбу хислат ортида конун ва қарорларга ҳурмат ҳамда уларга сўзсиз риоя этиш, ҳалқнинг ғаму ташвиши билан яшаш ҳалолликнинг энг асосий атрибутларидир. Ҳалол раҳбар ҳалқнинг ҳақига кўз олайтирумайди, уни талон-тарож қилишдан жирканади. Ўзбекистонда ҳам давлат хизматчисининг ҳалоллиги масаласи долзарб аҳамият кассб этган. Шу маънода давлат хизматчиларига мажозий маънода ҳалоллик вакцинасини қилиш масаласи ҳам кўтарилган эди. Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек: “Ҳалоллик вакцинасини қаердан оламиз? Бу таъбир — мажозий, албатта, лекин биз шундай муҳитни яратишимиш керак”. Бу фалсафий категориянинг мазмун моҳияти ва унинг атрофида бирлашган ғоялар замирида ҳукмдор учун энг улуғ мақсад ҳалқ тинчлиги ва фаровонлиги ётади. Яъни ҳалол ҳукмдор, ҳалол қўшни, ҳалол жамоани енгиш жуда мушқул масала. Давлат ва жамият ўртасида ишонч бўлмас экан, ўзаро адоват вужудга келади, бундай давлатни қулатиб юбориш мушқул вазифага айланмай қолади. “Менинг асосий талабим – одамларни тушуниш, уларнинг қувончу ташвишлари билан яшаш, ён-атрофдаги вазиятга оддий ҳалқнинг кўзи билан қараш ва баҳо бериш, эл-улусдан ажралиб

қолмаслик керак”. Давлат ва жамият муносабатларида ўтган минг йиллар давомида ҳам ҳукмдор ва унинг аёнлари масъулияти, ҳалоллиги ва жавобгарлиги масалалари долзарб бўлиб турибди. Шунингдек, Юсуф Хос Ҳожиб тарғиб қилган концептуал фикрлардан ҳозирда ҳам фойдаланиш зарурати мавжуд.

Асардаги давлат концепцияси орасидаги муҳим ғоялардаги бири барқарорлик ғоясидир. Маълумки, инсоният тарихида юзлаб империялар барпо бўлган ва уларнинг ҳаммаси ҳам завол топган. Айримлари усмонли турклари давлати каби саккиз юз йил саҳнада турган бўлса, айримлари Амир Темур империяси каби эллик йилга бормасдан йўқ бўлиб кетган. Давлатнинг барқарорлиги нимада? Унинг фаолиятига таҳдид соловчи хавф-хатарлар қандай намоён бўлади. Асада Ойтўлди Ҳоконга давлат сифатини кўрсатади ва шундай дейди:

Ерга тўп қўйганим ҳам сири бор,
Феълу атворимга бергил эътибор.

Тўп азал бир жойда топмас ҳеч қарор,
Тўп каби давлат ҳам ўта бекарор.

Юмганим боисин айтай қўзимни,
Дедим аён айлай басир ўзимни.

Бу айём мен – давлат ҳам мисли басир,
Илашганга дарров бўламан асир.

Ҳукмдорликнинг ўзига ўзи маҳлиё бўлиши, давлат муаммоларининг туганмас эканини ёддан чиқариш ва ўз ҳокимиятининг “асири”га айланишини Юсуф хос Ҳожиб гўзал мисралар орқали ифодалаган. Аллома ҳокимиятни тўпга ўхшатади. Тўп бир жойда турмагани каби, ҳокимиятни ҳам мутассил барқарор ушлаб туриш қийин вазифа. Бунинг учун эса ҳукмдордан ҳушёрлик талаб этилади. Ҳазрати Алишер Навоий таъкидлаганидек: “Агар огоҳсан сен – шоҳсен сен, Агар шоҳсан сен – огоҳсен сен”. Шу билан бирга ҳокимият кўзи кўр одамга ўхшайди, кимга илашса қўйиб юборгиси келмайди. Яъниким, ҳокимиятдан воз кечиш мушкул вазифа. Унинг оҳанграбоси доимо ўзига жалб этади ва ўз измига бўйсундиради. Ҳокимият оҳанграбосига ром бўлган ҳукмдорнинг ғаму ташвиши ҳалқнинг муаммоси эмас, балки ўзининг шахсий роҳат фароғатидир.

Агар ҳокимиятни мустаҳкамлаш чоралари кўрилмаса, яъниким, унинг манбаи бўлган ҳалқнинг хизматида бўлмаслик, ёлғон, фитна ва зулм аралашса, албатта, бундай ҳокимият инқиrozга юз тутади.

Қувонма давлату қут билан мамнун,
Давлат маст қилмағай, эй бағри бутун!
Оқар сув, бийрон тил, қут ҳам тинч турмас,
Елдай олам кезиб қайга юз бурмас.

Юсуф Хос Ҳожибнинг давлат ҳақидаги қарашларида ҳокимиятнинг жамият олдидаги мажбуриятларини белгилаш, ҳалқнинг розилигини олиш, ҳукмдорнинг масъулияти яққол сезилиб туради. Юқоридаги концептуал фикрларда кейинчалик пайдо бўлган ижтимоий шартнома ғоясининг айрим элементлари мавжуд. Рус олим Н.Назарова томонидан таклиф этилган ижтимоий шартнома тизимининг тўртта белгиларидан бири инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилишдир. Ҳокимият ўзининг ижтимоий шартнома тизими бўйича легитмлигини таъминлаш учун ҳам фуқароларнинг эркинликларини таъминлашга интилиши шартдир. Инсон ҳуқуқлари ва эркинликларига риоя қилмаган, уни топтаган ҳукмдор эса Юсуф Хос Ҳожиб таъкидлаганидек:

Қўнимсиз давлату баҳт жафо қилар,
Шаҳдам одимлаб ҳам ногоҳ йиқилар.

Юсуф Хос Ҳожибнинг юқоридаги фикрлари қадимги рим файласуфи Цицероннинг “халқ одамларнинг ҳар қандай бирлашуви эмас, балки ўзаро келишув асосида хуқук ва манфаатлари йўлида бирлашган инсонлар гурухидир”, деган сўзларига ҳамоҳангдир. Юсуф Хос Ҳожибнинг фикрича, хукмронлик қилиш бир томонлама амалга ошириладиган иш эмас. У халқ манфаати билан уйғун бўлиши зарур. Хукмронлик қилиш динамик хусусиятга эга бўлиб, унинг субъектлари олдида доимо тўсиқлар учрайди ва ушбу тўсиқлардан ўтишнинг йўллари мавжуддир.

Аллома ҳокимиятнинг илоҳийлигига ҳам урғу беради. Юсуф Хос Ҳожиб даврига келиб ислом дини жамият ҳаётидан кенг ўрин олиб улгурган бўлса-да, ҳали бери араблашув жараёни кузатилмаган эди. Асардаги бош қаҳрамонларнинг исмлари ҳам соф туркчалиги ҳам бунинг яққол исботидир. Шу билан бирга асарда диний мотивлар етакчи ўрин эгаллайди. Объектив идеализм нуктаи назаридан бориб файласуф олим давлат бошқарувининг манбаси сифатида Худони кўрсатиб ўтади.

Худо кимга берса давлат қўш-қўллаб,
Розилик тилагай шукrona йўллаб.

Бундан бўён мен ҳам сира тинмасдан,
Не тонг, шуқр қилсан ҳеч эринмасдан.

Бу ғоя ўрта аср Европаси илоҳиётчиси Августин Аврелийнинг “Енг яхши давлат иймон ва мустаҳкам келишувга асосланган, айниқса, Худонинг яхшилигига асослангани”, деган фикрларига ҳамоҳанг келади.

Ҳокимиятнинг илоҳийлиги ғояси ҳанузгача долзарб бўлиб, яқин шарқдаги айрим мутлақ монархия давлатларида бу мафкура даражасига кўтарилигган. Дунё миқёсида ҳам тарихда деярли барча йирик сивилизатсиялардаги давлатлар илоҳийлаштирилган бўлиб, бу ўша давр учун фалсафий тарққиётнинг бир босқичи сифатида қаралиши мумкин. Мисол учун “Миср, Шумер, Хиндистон, Хитой, Крит, Бобил ва Яхудий давлатларида ҳам теологик концепциянинг элементларини кўришимиз мумкин.” Умуман олиб қараганда эса Юсуф Хос Ҳожибнинг давлат ҳақидаги теологик концепцияси ўз даври учун долзарб эди ва ҳокимиятнинг генезисини тушунтириб беришга хизмат қилган.

Асардаги фалсафий масалалардан яна бири адолатдир. Адолат инсониятнинг минг ийиллар давомида ўйлантириб келган тушунча. Барча хукмдорлар ҳам ўз хатти-ҳаракатларини адолатли эканлигига урғу беради. Барча динларда ҳам адолатлилик олқишиланади, адолатсизлик эса муқаррар жазога маҳкум экани айтиб ўтилади. Адолат нафақат давлат бошқаруви, у оила, гурух, жамоа ва жамият учун ҳам бирдай таалуқли ҳодиса. Адолат ва адолатсизлик ҳақидаги қараашлар дастлаб оиласда шаклланади. Чарлз Диккенснинг қархрамонларидан бири айтганидек, “Болаларни ким тарбияламасин, адолатсизликчалик ҳеч нарса уларга оғир ботмайди”. Асардаги опа-сингил муносабатларидағи адолатсизлик болалар дунёқарashi орқали жуда чиройли тарзда очиб берилигган. Адолатсизлик инсон катта бўлганидан кейин ҳам уни таъқиб қилаверади.

Адолат масалалари билан шуғулланган Амартия Сен томонидан тақдим этилган иллюстратсияда адолат нақадар мураккаб муаммо экани аён бўлади. Иллюстратсиянинг қисқача мазмуни шуки, уч нафар болани кўз олдингизга келтиринг. Анна, Боб, Карл. Ҳар уччаласи флейта мусиқа асбобини талашяпти. Анна уларнинг орасида ягона флейта чалишни билади ва қолганлар буни бир овоздан тасдиқлайди. Бобнинг эса биронтаям ўйинчоғи йўқ ва флейта унинг умридаги биринчи ўйнчоқдир, буниям қолганлар тасдиқлайди. Карл эса мазкур флейтани ясади ва буниям қолганлар тўлиқ тасдиқламоқда. Агар сиз мазкур болаларнинг фақат биттаси билан гаплашсангиз, унинг ҳақ экан деб ўйлашингиз табиий ҳол. Ҳар уччаласи билан мулоқотдан кейин эса жуда қийин масаланинг ечимини ҳал қилиш зарурлигини тушуниб етасиз.

Юсуф Хос Ҳожиб фалсафий меросидаги давлат ва жамият қурилиши масалаларига доир қарашлар тўлиқ ўрганилмаган бўлиб, уларни чукур таҳлил қилиш ва оммалаштириш орқали ижтимоий тараққиётга катта ҳисса қўшиш мумкин бўлади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. – Тошкент: Ўқитувчи МУ МЧЖ, 2021 йил. – Б. 10.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент, “Ўзбекистон” нашриёти. 2021 йил. – Б. 400.
3. Арипов А. “Кутадғу билиг”даги лингвомаданий бирликлар. Мадалиева Я. ва бошқ. “Кутадғу билиг”нинг бадиий тили.// Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Кутадғу билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари халқаро конференция тўплами. Тошкент, 2020. – Б. 127.
4. Арат Р.Р. Юсуф Хос Ҳожиб “Кутадғу билиг” таржимаси. ИИ нашр, Турк тарих қуруми, Турк тарих қуруми нашрёти. Анқара. 1959 йил. – Б. 135.

РЕЗЮМЕ:

Мақолада Юсуф Хос Ҳожибнинг давлат қурилиши концепциясининг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари, унинг давлат концепциясида муҳим бўғин сифатида “адолат” тушунчасини қўйиши ва алломанинг “адолат” давлатнинг асоси, ижтимоий - сиёсий жараёнларда бирламчи бўлиш кераклигини ўрганилган.

Калит сўзлар: Юсуф Хос Ҳожиб, давлат, фалсафа, жамият, адолат, халқ, хуқук, хукмрордor.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются социально-философские аспекты концепции государственного строительства Юсуфа Хоса Хаджиба, размещение им понятия «справедливость» как важного звена в концепции государства, а также идея о том, что «справедливость» должна лежать в основе изучения государства и первичность в социальных и политических процессах.

Ключевые слова: Юсуф Хаджиб, государство, философия, общество, справедливость, народ, закон, правитель.

RESUME:

In the article, the socio-philosophical aspects of Yusuf Khos Hajib's concept of state building, his placement of the concept of "justice" as an important link in the concept of the state, and the idea that "justice" should be the basis of the state and primary in social and political processes are studied.

Key words: Yusuf Khos Hajib, state, philosophy, society, justice, people, law, ruler.

МАЪНАВИЙ ЯНГИЛАНИШ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ РОЛИ

Акилова Ў. -
ТИҚҲММИ МТУ асистенти

Ўзбекистон тараққиётининг ҳозирги даврида юримизда ҳам янги ривожланиш босқичи, яни жамият янги қиёфасини яратиш даври бошланди. Бу борада кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда ушбу жараёнда жамият ҳаётининг барча соҳаларида қўплаб инновациялар ўз аксини топмоқда. Мамлакат миқёсида рақобатбардош ва ташқи олам учун очик ижтимоий-иктисодий макон - барқарор ривожланиш парадигмаларга асосланадиган Янги Ўзбекистон барпо этилмоқда. Ушбу мақсад йўлида ахолининг барча қатламлари, ҳокимиятнинг вакиллик ва ижро органлари, фуқаролик институтларининг имкониятлари ишга солинмоқда.

Ушбу жараённинг устувор йўналишлари ва ўзига хос хусусиятларини яққол намоён этадиган диалектик тамойиллар юртимизда кейинги йилларда шаклана бошлаган Инновацион ривожланиш сиёсатининг нафақат ижтимоий, иктиносий, сиёсий жабҳалар, балки маънавий-маърифий, маданий ва ижодий соҳаларга ҳам бевосита тааллуқли бўлаётганини англатади.

Мамлакатимизда замонавий инновациялар тизими шаклланиши жараёнига хос умумий қонуният ва хусусийлик шундаки, Инновацион ривожланиш сиёсатининг шаклланиши, бир томондан, давлат ва жамиятнинг янгиланиши, хуқуқий, сиёсий, бошқарув ва маъмурий соҳалардаги туб ислоҳотларга таянади, иккинчи томондан эса, ушбу жараёнда мамлакатимизнинг ўзига хос хусусиятлари, халқимизнинг менталитети, урф-одатлари, миллий ҳаёт тамойиллари ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Шу сабабдан, бугунги кунда тобора глобаллашиб бораётган дунёда, бир томондан, тадқиқотимиз бағишлиган соҳада ҳам турли-туман хуруж ва таҳдидларга қарши кураш зарурати пайдо бўлмоқда, иккинчи томондан, бундай серқирра ва мураккаб ислоҳотлар билан боғлиқ масала ва ечимларга доир вазифаларни бажариш зарурати давлат сиёсатининг муҳим талабига айланмоқда. Айни пайтда, умумсиёсий жараённинг муттасил давом этаётгани, жамият ҳаётидаги ўзгаришлар динамикасида ижобий жиҳатлар устуворлигини таъминлашга эришиш бунда барча таъсирчан омилларни мустаҳкамлашда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Дастлабки ёзма манбаларда, жумладан “Авесто”да “эзгу фикр, эзгу сўз, эзгу иш” зардуштийлик ахлоқининг асосий қоидаси бўлса, “Қуръони карим” ва “Хадис”ларда юксак маънавият инсон учун қанчалик зарурлиги юзлаб жойларда кўрсатиб ўтилади.

Буюк алломаларимиз Абу Носир Фаробий, Абу Али Ибн Сино, Ал Бухорий, Баховуддин Нақшбанд, Ахмад Яссавий, Улугбек, Алишер Навоий, жадидчилик намаёндалари Махмудхўжа Беҳбудий, Абдулла Авлоний, Абдурауф Фитрат, Чўлпон ва бошқаларининг асарларида маънавият масаласи, комил инсонни тарбиялаш ҳакида ажойиб фикрлар мавжуд.

Жадидлар ўз даврида ўқитиши технологияси, болаларга мавжуд билимларни қандай етказиш масаласи билан қизиқдилар. Халқ педагогикасига суюнган илғор зиёлилар миллий анъана ва урф – одатларимизга мос келувчи янги усул жадид мактаблари ташкил этиш ғоясини илгари сурдилар. Айни патда улар бу мактаблар рус – тузем мактабларидан фарқ қилиши зарурлигини таъкидладилар. Ўқувчининг фикрлаши, тафаккури ўз она тили орқали амалга оширилиши кераклиги, шунингдек, диний ақидалар қаторида дунёвий фанлар ҳам ўқитилиши зарурлигини уқтиридилар.

Жумладан, Абдулла Авлонийнинг “Инсонларга энг муҳим, зиёда шараф, баланд даражада берувчи ахлоқ тарбиясидур. Биз эса аввалги дарсда тарбия ила дарс орасида фарқ бор, дедук, чунки дарс олувчи – берувчи, тарбия олувчи амал қилувчи демакдур. Шунинг учун тарбия қилувчи муаллимларнинг ўзлари илмларга омил бўлиб, шогирдларга ҳам берган дарсларни амал ила чокуштириб ўргатмоқлари лозимдур”.

Ўрта аср олимлари ўз асарларида инсон фаолиятининг икки тури ҳақида фикр юритадилар. Бу меҳнат ва билиш фаолиятидир. Улар шуни таъкидлайдиларки: “билим – бу билувчининг қалбидаги билинадиган тимсолдир. Билингки, фанни ўқитиш ва ўзлаштиришсиз билим бўлмайди. Ўқитиш – бу қалбдан чиқадиган, қалб учун долзарб ички билишга асосланган эътиқод. Билимларни ўзлаштириш – бу билим шаклларини қалбдан идрок этишдир. Билингки, қалб билиш предметлари шаклларини уч томонлама қабул қиласи: Биринчидан, хис килиш орқали, иккинчидан, далиллар орқали, учиничидан, фикр юритиш ва мушоҳада қилиш орқали”.

Кайковуснинг “Қобуснома” асарида билимнинг фойдаси ҳақида қуидагича ёзилади: «Агар молсизликдан қашшоқ бўлсанг, ақлдан бой бўлмоққа сайди кўргузгилки, мол била бой бўлғондан, ақл била бой бўлғон яхшироқдир. Нейдинким, ақл била мол жам эца бўлар, аммо мол била ақл ўрганиб бўлмас. Билғил, ақл бир молдирки, уни ўғри ололмас, у ўтда ёнмас, сувда оқмас».

Мазкур йўналишдаги жараёнлар тадрижи шундан далолат берадики, ҳозирги даврда мамлакатимизда амалга оширилаётган Инновацион ривожланиш сиёсати билан боғлиқ тушунчалар ва тамойилларни самарали шакллантириш омиллари ҳаётимизнинг барча соҳаларида амалга оширилаётган янгиланишлар билан узвий алоқадорлиқда намоён бўлмоқда.

Жамиятимиздаги маънавий ўзгаришларнинг ўзига хос инъикоси бўлган ушбу жараён янги Инновацион тамойилларнинг фуқаролар бугунги маънавий дунёсига ўрнашиб ва мустаҳкамланиб бораётганидан далолат беради. Бу эса, ўз навбатида, янги инновациялар тизими хуқуқий асосларининг мустаҳкамланиши билан боғлиқ жараённи эътиборга олиш бу борадаги ислоҳотлар аҳамиятини чуқур ўрганиш зарурлигидан далолат беради. Шу муносабат билан, юртимизда бугунги сиёсий-хуқуқий воқеликни хисобга олган ҳолда, жамият янги қиёфасига мос Инновацион ривожланиш сиёсатининг хуқуқий асосларини мустаҳкамлаш бўйича кенг кўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг “Инновацион фаолият тўғрисида”ги қонунини мамлакатимизда инновацион тамойиллар тизими шаклланишининг асосий хуқуқий ҳужжати дейиш мумкин.

Давлатимиз Инновацион ривожланиш сиёсатининг хуқуқий асосларини мустаҳкамлашга хизмат қилаётган ушбу қонундан ташқари яна бошқа муҳим ҳужжатлар ҳам ушбу йўналишдаги Инновацион ривожланиш сиёсатини шакллантиришга хизмат қилаётганини бугунги ҳаётимиз яққол тасдиқлайди. Жамиятда янги инновациялар тизими шаклланиши ва бу борадаги инновациялар жараёни учун зарур ҳуқуқий омилларни яратишга хизмат қиласидиган мазкур ҳужжатлар мазмун-моҳияти соҳадаги ишлар самарасини белгилайди. Янги инновациялар тизими шаклланишини заруратга айлантираётган демократик тамойилларни жамият ҳаётига жорий этиш ислоҳотлар бош мақсади бўлгани сабабли бу жараён ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш йўлидаги янгиланишларнинг муҳим таркибий қисмига айланниб бормоқда.

Шу билан бирга, Инновацион ривожланишни бошқариш сиёсатининг муҳим омиллари бўлган ва кейинги йилларда ташкил топаётган тузилма ва институтлар демократик меъёрлар ҳамда умуминсоний андозаларга мос бўлса-да, муайян мазмун-моҳиятига кўра, улар олдига қўйилган талабларга жавоб бериш ва амалиётда ўзларини оқлашлари учун муайян вақт талаб қилинади. Шунга кўра, бу йўналишда инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари соҳасидаги республика қонунчилигини халқаро меъёрларга мувофиқлик даражасини янада ошириш билан бирга, аҳолининг бугунги кунга мос ижтимоий-сиёсий фаоллигини шакллантириш ва фаол фуқаролик позициясини намоён қилиши учун кенг имкониятлар яратишга қаратилган давлат сиёсатини янги босқич талаблари даражасига кўтариш муҳим аҳамият касб этади.

Айникса, одамларнинг демократик ислоҳотларга дахлдорлигини кучайтириш ва шакланаётган инновацияларга нисбатан муносабатни янада чуқурлаштириш учун шароит ҳозирлаш ва бунда фуқаролар ҳуқуқий маданиятни ошириш ва қонунларни хурмат қилиб яшаш имкониятларини кенгайтиришга ҳаракат қилиш зарурати мавжуд. Буларнинг барчаси, янги Ўзбекистоннинг маънавий қиёфаси ва унга мос инновациялар тизимини

шакллантиришнинг муҳим омиллари бўлиб, улар демократик ислоҳотларни чукурлаштиришга нисбатан муайян тайёргарликни талаб қиласди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021.
2. Назаров К. Жаҳон фалсафаси қомуси. –Т.: Файласуфлар жамияти, 2023.
3. Қаҳхорова Ш.Б. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. –Тошкент: Тафаккур, 2009.

РЕЗЮМЕ:

Мазкур мақолада Янги Ўзбекистон маънавий жараёнларини оптималлаштиришнинг инновацион технологиялари, Инновацион сиёсатнинг маънавий тараққиётга таъсири масалалари атрофлича ёритилган.

Калит сўзлар: маънавият, маърифат, инновация, оптималлаштириш, маънавий таҳдид, қадрият, маънавий тарбия, фуқаролик жамияти, фуқаролик позицияси.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье подробно рассмотрены вопросы инновационных технологий оптимизации духовных процессов Нового Узбекистана, влияние инновационной политики на духовное развитие.

Ключевые слова: духовность, просвещение, новаторство, оптимизация, моральная угроза, ценность, нравственное воспитание, гражданское общество, гражданская позиция

RESUME:

In this article, the issues of innovative technologies for optimizing the spiritual processes of New Uzbekistan, the impact of innovative policy on spiritual development are detailed.

Key words: spirituality, enlightenment, innovation, optimization, moral threat, value, moral education, civil society, civil position.

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLINI TANLASH MASALALARI

Raimov E.B. -

O'zMU katta o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sod Farmoniga 1-ilova "**O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lismizni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi**"ga muvofiq oliy ta'lism bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha oliy ta'lism sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lism muassasalari, shuningdek investitsiyalarni jalg qilgan holda nufuzli xorijiy oliy ta'lism muassasalari filiallari faoliyatini tashkil yetish orqali oliy ta'linda raqobat muhitini yaratish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lismizni 2030-yilgacha rivojlantirishda oliy ta'lism sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lism muassasalari, shu jumladan nufuzli xorijiy oliy ta'lism muassasalari filiallari faoliyatini tashkil yetish asosida oliy ta'lism bilan qamrov darajasining 50 foizdan yuqori bo'lishi ta'minlash, sohada raqobat muhiti yaratish natijalarga yerishish nazarda tutilmoxda.

Bundan kelib chiqadiki, 2019-yildan boshlab oliy ta'lism sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish boshlangan. Bu harakatlar ikki xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi yo'nalish bu yangi nodavlat oliy ta'lism muassasalarini tashkil qilish. Ikkinci jarayon davlat oliy ta'lism tashkilotlarini xususiylashtirish hisoblanadi.

Bu jarayonlar **Fuqarolik kodeksi**, "**Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar to'g'risida**"gi qonun, "**Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida**"gi qonun, "**Xususiy korxona to'g'risida**"gi qonun, "**Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida**"gi qonun va boshqa qonun va qonunosti hujjatlar asosida tashkil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lismizni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida [1] nodavlat oliy ta'lism tashkilotlarini tashkil qilish hamda oliy ta'lism sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish masalalari ko'zda tutilgan bo'lsa-da, mamlakatimizda nodavlat oliy ta'lism muassasalari ancha oldinroq tashkil qilina boshlagan va bu holat bevosita xorijiy investitsiya bilan bog'liq bo'lgan. Bunga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.09.2007 yildagi **PQ-691-sod** Qarori [2] bilan Toshkent shahrida tashkil qilingan **Singapur menejmentni rivojlantirish instituti**. Institutning tashkiliy huquqiy shakli mas'uliyati cheklangan jamiyatni hisoblanadi va jamiyatning 49 foiz ulushi O'zbekiston Banklar uyushmasiga, qolgan 51 foiz ulushi Singapur menejmentni rivojlantirish institutiga tegishli hisoblanadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.04.2009 yildagi PQ-1106-sod [3] qarori bilan tashkil qilingan **Turin politexnika universiteti notijorat** tashkiloti sifatida tashkil yetiladigan oliy ta'lism tashkiloti hisoblanadi. Universitetning tashkiliy-huquqiy shakli muassasa hisoblanib, uning mulkdorlari "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi" DM hisoblanadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.03.2014 yildagi PQ-2155-sod [4] qarori bilan tashkil qilingan **Inxa universiteti** muassasa hisoblanib, uning mulkdorlari (ta'sischilar) Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ (20 foiz), O'zbektelekom AJ (20 foiz), O'ZBEKNEFTGAZ AJ (20 foiz), O'ZKIMYOANOAT AJ (20 foiz) hamda boshqa 5 dona yuridik shaxs hisoblanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yildagi 130-sod qarori bilan tashkil qilingan **Akfa universiteti**. Mazkur universitetning tashkil qilinishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida**" 2017-yil 29-dekabrdagi PQ-3450-sod qarori asos qilib olingan.

Ushbu qarorning 4-bandida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi va "AKFA MEDLINE" mas'uliyati cheklangan jamiyatining Toshkent shahrida Koreya Respublikasi yetakchi oliy tibbiy ta'lif muassasalaridan birining faoliyatini tashkil yetish taklifi ma'qullangan, ya'ni yangi tashkil qilinadigan universitet Koreya Respublikasi yetakchi oliy tibbiy ta'lif muassasalaridan birining filiali bo'lishi taklif qilingan, lekin "AKFA MEDLINE" mas'uliyati cheklangan jamiyatni o'z ta'sis chiligidagi (100 fozi) yangi universitet tashkil qilgan.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.08.2019 yildagi 683-son qarori bilan tashkil qilngan **Qo'qon universiteti**. Mazkur universitet O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi hamda "Da Vinci" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (keyingi o'rnlarda Muassis deb ataladi) Qo'qon shahrida nodavlat ta'lif xizmatlarini ko'rsatuvchi Qo'qon universitetini (keyingi o'rnlarda Universitet deb ataladi) tashkil yetish to'g'risidagi taklifi asosida tashkil qilingan bo'lib, mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil qilingan.

Mazkur univeristetlar asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, boshqa manfaatdor davlat korxona va tashkilotlari va xususiy tashkilot (muassis) taklifi va O'zbekiston respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tashkil qilingan.

Oliy ta'lif jarayoniga xususiy sektorni jalg qilish jarayoni jadal rivojlanmoqda. **O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi** [6] dagi nodavlat oliy ta'lif muassasalarini sonini ko'paytirish borasidagi topshiriqlarni amalga oshirish maqsadida yildan yilga xususiy universitetlar tashkil qilish ko'paytirilmoxda. Bir tomondan oliy ta'lif sohasida universitetlar sonining oshishi, ular o'rtasida raqobatning kuchayishi mazkur sohanı rivojiga ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan mazkur soha, ayniqsa nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari sohasi huquqiy jihatdan tartibga solinmaganligi, nodavlat ta'lif tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakli, ularning javobgarligi masalasi ochiqligi fuqarolarning bu sohaga nisbatan ishonchszligiga sabab bo'lmoqda.

Oliy ta'lif tashkilotlari uchun optimal tashkiliy-huquqiy shakl tanlash uchun fuqarolik qonunchiligi mayjud barcha tijorat va tijoratchi bo'limgan tashkilotlarni huquqiy layoqati va javobgarligi masalalari bilan bir qatorda oliy ta'lifni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjalarni muhokama qilish zarur.

Subsidiar javobgarlik instituti mas'uliyati cheklangan jamiyat va aksiyadorlik jamiyatlarida ham mavjud. **"Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar to'g'risida"**gi qonunning 5-moddasiga ko'ra, jamiyatning bankrotligi ishtirokchi sifatidagi shaxsning aybi tufayli vujudga kelgan bo'lsa, jamiyatning mol-mulki yetarli bo'limgan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatları bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Shuningdek, mazkur qonunning 42-moddasiga ko'ra, agar jamiyatning ijro yetuvchi organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda jamiyat direktorining yoki kollegial ijro yetuvchi organining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'limgan taqdirda jamiyatning majburiyatları bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi. Shuningdek, **"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"**gi [8] qonunning 4-moddasiga ko'ra, agar jamiyatning bankrotligi jamiyat uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish huquqiga yega bo'lgan aksiyador sifatida ish yuritayotgan shaxsning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, jamiyatning mol-mulki yetarli bo'limgan taqdirda, mazkur aksiyadorning zimmasiga jamiyatning majburiyatları bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Mazkur qonunning 8-moddasiga ko'ra, shu'ba xo'jalik jamiyatni asosiy jamiyatning aybi bilan bankrot bo'lgan taqdirda asosiy jamiyat shu'ba xo'jalik jamiyatining majburiyatları yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi. Shuningdek, qonunning 81-moddasiga ko'ra, agar jamiyatning ijroiya organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda jamiyat direktorining yoki boshqaruv a'zolarining yoxud ishonchli boshqaruvchining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'limgan taqdirda jamiyatning majburiyatları bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi. Mazkur

holatlarda biz xo'jalik jamiyatlari ishtirokchilarining jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi cheklanganligi, lekin aybli harakatlar sodir qilganda mazkur cheklov inobatga olinmasligini ko'rishimiz mumkin.

Tijoratchi yuridik shaxslarning yana bir turi bu **unitar korxona** hisoblanadi. Unitar korxona bu o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot hisoblanadi. Javobgarlik masalasiga yuzlanadigan bo'lsak, unitar korxona o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi, unitar korxona mol-mulkining yegasi yesa korxona majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Mazkur mol-mulk yegasiga qonunchilikda belgilangan hollarda, ya'ni aybli xatti-harakati isbotlangan hollarda subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Demak, tijoratchi tashkilotlarga xos bo'lган umumiy jihatlarni yoritib o'tamiz. **Birinchidan**, tijoratchi tashkilotlarining huquqiy layoqiyati qonunchilik va ularning ta'sis hujjatlari bilan belgilanadi va odatda universal huquq layoqiyatiga yega bo'ladi. **Ikkinchidan**, tijoratchi tashkilotlar majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi. ularning ta'sischilari faqatgina aybli xatti-harakatlari isbotlansagina subsidiar javobgarlikka tortilishi mumkin.

Tijoratchi bo'lмаган yuridik shaxslarning huquqiy maqomi **Fuqarolik kodeksi**, O'zbekiston Respublikasining "**Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida**"gi Qonuni [9] va boshqa qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Tijoratchi bo'lмаган tashkilotlar qatoriga matlubot kooperativi, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, muassasalarni kiritishimiz mumkin. Tijoratchi bo'lмаган tashkilotlarni tashkil qilishdan maqsad ma'naviy yoki o'zga nomoddiy yehtiyojlarni qanoatlantirish hisoblanadi va tijoratchilikdan iborat bo'lmaydi. Ular o'z ustavlarida belgilangan maqsadlariga to'g'ri keladigan doirada tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlar mumkin. Ularning huquq layoqati ko'p hollarda maxsus huquq layoqati hisoblanadi va ustav va nizomlarda belgilangan doirada harakat qiladi.

Davlat oliy ta'lim tashkilotlarini xususiylashtirish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, "**Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida**"gi qonuning 4-moddasiga [10] muvofiq, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarning oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv yurtlari, shuningdek umumta'lim muassasalarini xususiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan amalga oshiriladi. Mazkur qonunning 6-moddasida davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllari va shartlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra, davlat korxonasini xo'jalik shirkati yoki jamiyatiga aylantirish mumkin. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, davlat tashkilotlari va korxonalarini boshqa yuridik shaxslarning turlariga aylantirish mumkin yemas.

Davlatga qarashli oliy ta'lim tashkilotlarini xususiylashtirish jarayonida ularning mol-mulki tarkibi aniqlanadi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlarini inventarizatsiyadan o'tkaziladi, korxonaning aktivlari va passivlarini baholanadi, mehnat jamoasida tushuntirish ishlari olib boriladi hamda boshqa masalalar hal yetiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, oliy ta'lim tashkiloti uchun optimal variant tanlashda yuridik shaxsning turi, uning huquq layoqiyati, majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lishi va boshqa omillar inobatga olinishi zarur. Hozirda oliy ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakli sifatida ommalashib borayotgan tijoratchi tashkilotlar (MChJ) huquqiy layoqat va javobgarlik masalasi bo'yicha tijoratchi bo'lмаган tashkilotlardan farq qiladi, ya'ni ular universal huquq layoqiyatiga yega. Tijoratchi bo'lмаган tashkilotlarning faoliyati uning ustav maqsadlari doirasida tashkil qilinishi va zid bo'lmasligini inobatga oladigan bo'lsak, oliy ta'lim tashkilotlarini muassasa tashkiliy-huquqiy shaklida qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

- Муминов А.Г. Ўзбекистонда таълим тизими: холати ва истиқболлари. Журнал: Academic research in educational sciences, 2022, №3, 34-37 бетлар

REZYUME:

Ushbu maqolada oliy ta'lim tashkilotining faoliyatini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy shaklini belgilash va uning huquqiy asoslari qonunchiligidan doirasida tahlil qilingan. Bundan tashqari oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantrish masalalari, mamlakatimizda xorijiy investitsiya bilan bog'liq bo'lgan nodavlat oliy ta'lim muassasalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiya, aksiyadorlik kompaniyasi, muassasa, mas'uliyati cheklangan jamiyat, tijoratchi tashkilot, tijoratchi bo'limgan tashkilot.

РЕЗЮМЕ:

В этой статье на базе законодательства определены организационные и правовые формы деятельности учебных заведений системы высшего образования. Кроме того, рассмотрены вопросы развития государственно-частного партнерства в высшем образовании, а также деятельность неправительственных высших учебных заведений, связанных с иностранными инвестициями.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, акционерная компания, институт, компания с ограниченной ответственностью, некоммерческая организация.

RESUME:

In this article, determination of the organizational and legal form of higher education and its legal bases is analyzed under our legislation. In addition, the issues of development of public-private partnership in higher education, the country has considered non-governmental higher education institutions related to foreign investment.

Keywords: Foreign Investment, Joint Stock Company, Institution, Limited Liability Company, non-commercial organization

**YANGI O'ZBEKISTON IJTIMOY HIMoya TIZIMINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Xolmurodov G'. -
O'zMU o'qituvchisi

“Yangi O'zbekiston-bu xalq manfaati hamma narsadan ulug‘ degan yezgu g‘oya amaliy ishlar bilan o‘z tasdig‘ini topayotgan mamlakatdir”[1].

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohatlar negizida inson va uning manfaatlari yotadi. Bundan kelib chiqadiki, aholining ijtimoiy himoyasi O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bozor munosabatlari sharoitida yeng dolzarb masalalaridan birdir. Chunki, mamlakatda olib borilayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohot va tadbirlarning hammasi inson uchundir. Shuning uchun aholining kam ta'minlangan, mehnat bozorida raqobatlasha olmaydigan qatlamini: kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, nogironlar, bolalar, talabalar, qariyalar, nogironligi bor shaxslar, boquvchisini yo'qotganlarni ijtimoiy himoya qilishni maqsad qilib qo'yadi.

Yangi O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”[2] gi, “O'zbekiston Respublikasi Aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”[3] gi, “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”[4] gi, “Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”[5] gi qonunlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va amaliyotga joriy yetildi. Mazkur qonun hujjatlari ijrosining izchil ta'minlanishi natijasida, birgina har yili davlat budgetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohalarga sarflanayotgani yurtimizda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish, aholini turmush faravonligi darajasini oshirish, ishsizlik hamda kambag'allik ko'rsatkichlarini kamaytirishga, aholimizning yertangi kunga ishonchini yanada ortishiga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tabiri bilan aytganda “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi – bu moddiy yordam ko'rsatish maqsadida aholining turli ijtimoiy-demografik va kasb guruhlari, shuningdek, davlat uchun alohida xizmat ko'rsatgan fuqarolarga taqdim yetiladigan ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsidiya (pul ko'rinishida beriladigan yordam) va imtiyozlar tizimidir.

Davlatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha islohotlarning samarali olib borilayotganligi Respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha aholining farovon hayot kechirishi uchun bir qancha qulay shart-sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Aholini har bir a'zosini turmush sharoitlarini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtiroy yetish salohiyatini yuksaltirish davlatimizning ijtimoiy siyosatini ustuvor yo'nalişlaridan hisoblanadi. Shu ma'noda, aholini ijtimoiy himoyasini ta'minlashdagi birinchi va asosiy vazifa ham insonni kamol toptirish, uning oila va jamiyatdagi o'rni hamda nufuzini ko'tarishga qaratilgan. Jamiyatning insonparvarligi mamlakat iqtisodiy salohiyatining qanchalik yuksakligi bilangina yemas, balki bu salohiyat har bir kishining farovon yashashi va har tomonlama rivojlanishi uchun yo'naltirilgani bilan ham baholanadi.

Yurtimizda aholini ijtimoiy-iqtisodiy muommolarini o'rganish, bartaraf yetishda mutloqo yangicha hamda o'ziga xos bo'lган tizim yaratildi va amaliyotga joriy yetildi.

Aholi bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni tashkil yetish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, yerkinliklari va qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan uyma-uy yurish, ijtimoiy va boshqa obyektlarni o'rganish orqali muammolarni aniqlash va hal qilish, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga palatalariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga, Hukumatga, sud, huquqni

muhofaza qilish va nazorat organlariga, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyyati organlari va boshqa davlat tashkilotlariga murojaat qilish, sektorlar faoliyatini hamda mahallalar hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi hududiy, tarmoq va davlat dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok yetish, davlat organlarining nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28 dekabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4904-sonli farmoni bilan yuridik shaxs maqomiga yega bo'limgan tuzilma xalq qabulxolari tashkil yetildi.

2021 yildan boshlab, aholini ijtimoiy himoya qilish, manzilli ijtimoiy himoyani ta'minlash hamda hududlardagi muommolarni joyida bartaraf yetishda, xonadonbay ishslash tizimini yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahallabay" ishslash tizimini amaliyatga joriy yetish va aholining tadbirdorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash choratadbirlari to'g'risida"^[7]gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra mamlakatimizda mahallalardagi xonadonlar, oilalar, aholi soni, yosh va gender tarkibi, band bo'lganlar va ishsizlar soni, tadbirdorlar soni va ularning faoliyat turi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olgan mahallaning pasportini ishlab chiqish, tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan aholiga oilaviy tadbirdorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratish hamda tadbirdorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda har tomonlama amaliy yordam ko'rsatish, mahallalarda mavjud muammolarini joyiga chiqqan holda aniqlash va tezkorlik bilan hal yetish choralarini ko'rish kabi vazifalar belgilab olindi.

Bulardan tashaqari mahallalarda isiqomat qiluvchi ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalar, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga yehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlari hamda xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf yetish, nazoratini olib borish bo'yicha "Temir daftari", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi ma'lumotlar bazasi yaratildi.

Aholini yehtiyojmand (ijtimoiy himoyaga muhtoj) guruhlari, keksalar, nogironligi bor shaxslar, og'iz ahvolga tushub qolgan shaxslarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashda davlatimiz rahbari boshchiligidagi "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Besh muhim tashabbus", "Har bir oila tadbirdor" kabi dasturlar ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq yetilmoqda.

Kam ta'minlangan oilalarni aniqlash, ularga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash shartlari hamda davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar turlari va yordamni olish uchun murojaat qiluvchilar toifalari, oluvchilar to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish amalga oshiriladigan avtomatlashtirilgan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi ishlab chiqildi.

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan belgilangan tartib asosida, bepul, imtiyozli shartlar asosida kafolatlangan yordamlar va xizmatlarni olishlari mumkin. Bularga, agar oila farzandlari davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga berilganida ota-onalarni to'lovlardan ozod yetish, maktablar o'quvchilarini ovqatlanish xarajatlaridan ozod yetish, nogiron a'zolarini protez - ortopediya buyumlari bilan ta'minlash, ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarida bepul maxsus (ambulator yoki kunduzgi) tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha yo'llanma (order) olishlari mumkin.

Yuqoridagi islohatlarni umumiylashtirgan holda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va konstitutsiyaviy xususiyatlarini yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb ye'lom qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, yeng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo'llovga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi

kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, yeng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o’sib-ulg‘ayib, yaxshi ta’lim olib, farovonlikka yerishish imkoniyati bo’lishi kerak.

Xuddi shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Prezidentimiz “Ijtimoiy davlat” tushunchasini “Ijtimoiy davlat bu, yeng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish”, - deya izohlagan va o‘z navbatida, “Biz Yangi O‘zbekistonni “Ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak”, deb ta’kidlagandilar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda zamon talablariga mos ravishda ishlab chiqilayotgan va amalgam shirilayotgan islohotlar zamirida Yangi O‘zbekistonni yangi taraqqiyot yo’liga qadam qo’yanligini biz “inson – jamiyat – davlat” g‘oyasi zamirida ko’rishimiz mumkin.

Yangi O‘zbekistonda asosiy maqsadi har bir fuqaro millati, tili va dinidan qat’i nazar uning qonuniy manfaatlari hamda farovonligi ta’minlanadigan, kelgusida yerkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish amalgam shiriladigan xalq va insonparvar davlatni yaratish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Yangi O‘zbekistonda aholini yextiyojmand guruqlarini (nogironligi bor shaxslarni, bolalarni, yoshlarni, kam ta’minlangan oilalarni), ijtimoiy himoya qilish, qo’llab-quvvatlashda olib borilayotgan ishlar Yangi O‘zbekistonni bunyod yetishning strategik maqsadlariga to’la mos keladi.

ADABIYOTLAR:

- 1.Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To’ldirilgan ikkinchi nashr. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.-416 bet.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g‘risida” qarori 21.10.2021 yildagi 654-sont.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to’g‘risida” Farmoni, 25.07.2022 yildagi PF-175-sont.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo’ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g‘risida” Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-sont
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini moddiy qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to’g‘risida” Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-58-sont.
- 6.Sh.M.Mirziyoyev. Yerkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlashtirishda barpo yetamiz.T.: “O‘zbekiston”, 2017 yil, 10.b.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahallabay” ishlash tizimini amaliyotga joriy yetish va aholining tadbirdorlik tashabbuslarini yanada qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g‘risida” qarori. 19.03.2021 yildagi 152-sont.
8. Муминов А.Г. “Empaty in modern conditions: views, factors, manifestations” Журнал: Социальных Исследований, 2021, №4, Р.13-23.

REZYUME:

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining vujudga kelishi, shakllanish jarayonlari, milliy qonunchilik asoslari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda konstitutsiyaviy xususiyatlari, davlat va fuqarolar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi kabi jihatlat yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Yangi O‘zbekiston, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi, “Mahallabay” ishlash tizimi, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье освещены такие аспекты становления системы социальной защиты населения в Новом Узбекистане, как процессы формирования, основы национального законодательства, социальные, экономические, политические и конституционные особенности, система социальных отношений между государством и гражданами.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, система социальной защиты населения, система работы “Махаллабай”, “железная тетрадь”, “Молодежная тетрадь”, “женская тетрадь”.

RESUME:

This article highlights such aspects of the formation of the social protection system in the new Uzbekistan as the formation processes, the foundations of national legislation, social, economic, political and constitutional features, the system of social relations between the state and citizens.

Key words: New Uzbekistan, social protection system, “Mahallabay” work system, “iron notebook”, “Youth notebook”, “women's notebook”.

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURKIY DAVLATLARNING
MINTAQAVIYLASHUVI**

Ataqulov Q.I. -
TKTI stajyor o'qituvchisi

Jahonning turli mintaqalarida siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar asrlar davomida shakllangan hududlar mavjud bo'lib, globallashuv davrida bunday mintaqalar yoki iqtisodiyotlar boshqa rivojlangan davlatlarga qaram bo'lib qolmasligi uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishi, ittifoqlarga birlashuv zaruriyatini vujudga keltiradi. Turkiy davlatlar tashkilotining tuzilishi va faoliyati mana shu hayotiy manfaatlarni amalga oshirish uchun harakatning natijasi desa bo'ladi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 3-noyabrda Ostonada bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida "Turkiy xalqlar birdamligini, ularning buyuk o'tmishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda yetadigan «Turkiy dunyo xartiyasi»ni ishlab chiqish zarur, deb hisoblayman", - deb takidlab o'tdi.

Turkiy davlatlar tashkiloti qadim tarixiy ildizlarga yega. U qadim yetnik kelib chiqishi bir ildizga yega qardosh xalqlar birlashmasining hozirgi zamondagi yangilangan ko'rinishidir.

Turkiy davlatlar tashkilotining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tavsiflaydigan bo'lsak, o'tgan asrning 90-yillaridan boshlangan rivojlanish bosqichlarini sanab o'tish lozim deb hisoblayman. Shu o'rinda tadqiqotchilar uch bosqichga ajratishini kuzatishimiz mumkin.

Birinchi bosqich, SSSR parchalanganidan va 1992-yilda Anqarada Ozarboyjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Turkiya va O'zbekiston prezidentlari ishtirokida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar rahbarlari sammitidan keyinoq boshlandi. Mazkur uchrashuvlar samarali bo'lgani bois prezidentlar bunday sammitlarni o'tkazish amaliyotini davom yettirdi. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi ana shunday yangi platformalardan biridir.

Ikkinchi bosqichni hamkorlik mexanizmini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish deb atash mumkin. "2009-yil 3-oktyabrda Ozarbayjonning Naxichevan shahrida tuzilgan bo'lib, dastlab unga Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston a'zo yedi. Keyingi yillarda mazkur davlatlar bilan aloqalar mustahkamlandi. Oliy va yuqori darajadagi tashriflar amalga oshirildi". Undan keyingi yillarda sohaviy hamkorlikni institutsiyalashtirish va TurkPA, Turkiy Akademiya va Turkiy tillar madaniyati va merosi jamg'armasi kabi platformalarni yaratishga muvaffaq bo'lindi. Ushbu bosqich O'zbekiston to'laqonli a'zo sifatida kirishi hisobiga tuzilmaning kengayishi bilan yakunlandi.

Prezidentimiz 2018-yil 3-sentyabr kuni Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida bo'lib o'tgan sammitda fahriy mehmon sifatida ishtirok yetdi. 2019-yil 5-oktyabrda Toshkentda Turkiy tilli davlatlar Ishbilarmonlar kengashi majlisi hamda Investitsiya forumi o'tkazildi. Aloqalar bunday faol rivojlanar yekan, buni huquqiy jihatdan mustahkamlash ham zarur yedi. 2019-yil 14-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tuzish to'g'risidagi Naxichevan bitimini ratifikatsiya qildi.

2021-yilning noyabr oyida Istanbulda bo'lib o'tgan tarixiy sammit bilan turkiy oilamiz uchun tashkilotning muhim burilish nuqtasi sifatida yodda qoladigan uchinchi bosqich boshlandi, a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlar izchillik va har tomonlama hamkorlikning yangi davriga kirdi. Sammit davomida turkiy davlatlar prezidentlari Turkiy kengash nomini "Turkiy davlatlar tashkiloti" deb o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qildi.

Turkiy davlatlar tashkiloti shakillangandan buyon umumiyligi subyektlari tomonidan tan olingan qoidalar bor va bu qoidalar har bir davlatning tashabbusi bilan to'ldirib rivojlantirib boriladi. Tashkilotning Istanbul qarorgohi va Budapeshtdagagi Yevropa ofisi bilan tashkilot a'zo va kuzatuvchi davlatlar o'rtasida iqtisodiyot, transport va bojxona, yenergetika, qishloq xo'jaligi, ta'lim, yoshlar va sport, raqamlashtirish, adliya va xavfsizlik, madaniyat, turizm, sog'liqni saqlash kabi 20 dan ortiq ko'p qirrali hamkorlik imkonini beradi. Shuningdek, Tashkilot turli loyihamalar: Turkiy davlatlarning savdo sanoat palatasi, Turkiy Investitsiya fondi, Transkaspiy temiryo'l yo'lagi, Qardosh portlar jarayoni, Sog'liqni saqlash fanlar bo'yicha kengash Zamonaviy ipak yo'li va tabarruk ziyorat

loyihalari, O'rxun jarayoni, yoshlar va sport sohalaridagi loyihalarda Turkiy davlatlar tashkiloti a'zolari va kuzatuvchilari aniq qadamlar qo'yib kelmoqda.

Tashkilotning barcha loyihalari mintaqada va undan tashqarida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni kengaytirishga qaratilgan o'zini institutsiannalashuv davrini muvaffaqiyatli yakunlagan. Turkiy davlatlar tashkiloti o'zining "Turkiy dunyo nigohi-2040" bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirib yangi davrga kirib bormoqda. Xulosa qilish mumkinki, Turkiy davlatlar tashkiloti turkiy dunyoning birlashgan kuch qudrati va qat'iyatli birdamligining hosili va ramzi bo'ldi desak bo'ladi.

Turkiy davlatlar tashkilotida Markaziy Osiyo siyosiy, iqtisodiy, geografik, tarixiy jihatdan muhim o'rinni tutadi. Tarixiy nuqtayi nazardan qarasak bu hudud Turon, Turkiston nomlari bilan atab kelingan. Bugungi kunga yetib kelguncha juda ko'p bosqichlarni bosib o'tgan, zamonning zayili bilan bir davlat hududida yashagan damlar ham, o'zaro qarama-qarshi bo'lib ziddiyatlarga borgan davrlar ham, bir tanu-bir jon bo'lib milliy davlat, madaniyat, ilm-fan uchun kurashgan davrlar ham bo'lган. Shunday yekan bugungi kun qardosh davlatlar bilan o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, geosiyosiy kuchlarga qarshi birgalikda turaolishni talab yetadi. Umuman olganda turkiy dunyoning birlashishida Markaziy Osiyodagi davlatlarning dunyoga chiqishga intilishi, boshqa geosiyosiy kuchlardan himoyalanishi, xavfsizlikni birgalikda ta'minlashi uchun harakatlari asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ya'ni, turkiy dunyoni birlashuvida Markaziy Osiyo yetnomadaniy asos hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi turkiy davlatlar integratsiyasi, bu mamlakatlarda yashayotgan xalqlar o'zlarini turkiy qardosh xalqlar deb anglashi turkiy dunyoni birlashtirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning Mazkur tashkilotga a'zoligi fonida a'zo mamlakatlar bilan turli sohalardagi hamkorlikning mustahkamlanishiga yo'l ochildi.

Bugungi globallashgan davrda hamdo'stlik doirasidagi mamlakatlar bilan tashkilotning asosiy maqsadi bo'lган, qardosh mamlakatlar o'rtasida ishonch va aloqalarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiyot, transport, yenergetika, turizm va madaniy gumanitar sohalarda hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish kabi jarayonlar kiradi.

Shu o'rinda Turkiy dunyoning birlashuviga qarshi bo'lган va bu qarshilikni yengib o'tish zarur bo'lган jabhalar haqida fikr yuritsak, jahon davlatlarining ko'pchilagini o'ziga tortgan savollar mavjud. Globallashgan dunyoda yangi tizimning shakllanishi arafasida Turkiy davlatlarning Tashkiloti doirasidagi imkoniyatlari va o'rni haqida mulohaza qilsak.

Bu mintaqaning ta'sir doirasasi Sharqiy Turkistondan to Qirimgacha bo'lган hududni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonda davlatlarning tili, madaniyati, urf-odatlari, yozuvi, mentaliteti, umumiy bo'lган ko'rinishlari almashinuvi hisobga olinadigan bo'lsa albatta bu yaxshi.

Mintaqamiz Yevropa va Janubiy sharqiy Osiyoni bog'lovchi hudud. Dunyoda tartibot o'zgargan sari Markaziy Osiyoga talab ham oshib borayapti. Turk dunyosi faqat madaniy, til va qardoshlik aloqalari bilan cheklanib qolmaydigan juda muhim va strategik mintaqasi. Turk dunyosi Tranzit imkoniyatlari va yenergiya manbalari bilan dunyoning markazida bo'lган Yevropaning yenergiya infratuzilmasini shakllantirgan, Xitoyni oziqlantirgan, Rossianing quvvat manbayi bo'lган, yosh aholisi va demografik salohiyati bilan dunyoga ta'sir qilishi mumkin bo'lган holatdagi geosiyosiy mintaqadir. Bu mintaqada hatto Sharqiy va G'arbiy mintaqalarga bo'lingan dunyoda uchinchi bir qutbni vujudga kelishi mumkin bo'lган imkoniyatlar mavjud. Albatta, buning uchun geografik jihatdan yemas, yeng avvalo ilmiy salohiyati va ishlab chiqarish jarayonlarida oldingi o'ringa chiqishi talab yetiladi.

Sovet Ittifoqi parchalanib ketgan bo'lsada, Rossiya mintaqada o'z ta'sirini saqlab kelmaqda (MDH, YOII, Ikki va ko'p tomonlama shartnomalar asosida). Rossiya mintaqadagi o'ziga yaqin siyosatchilar bilan razvedka, ta'lim tizimi va rus tili bilan mintaqadagi ta'sirini kundan kunga oshirmoqda. Ayniqsa ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo yekspulitator kuchlar tomonidan bo'linishi jarayonida Afrika Fransiyaga, Yaqin Sharq Amerikaga, Markaziy Osiyo va Kavkaz Rossiyaning ta'sir doirasida qoldi. Bu holat bir necha yillar davomida davom yetayotgan bo'lib, aholi o'rtasida assimliatsiya jarayonini ham keltirib chiqqangan yedi.

Eron Yaqin Sharq va Markaziy Osiyonibog‘lashda muhim ahamiyat kasb yesada Turkiy davlatlar bilan munosabatlarni har tomonlama yaxshilash tarafdori yemas. Shuning uchun asosan Turkiyani boshqa turkiy davlatlar bilan siyosiy va madaniy munosabatlarni yaxshilashini istamaydi. Buning asosiy sababi Yeron hududida yashaydigan turkiy xalqlarni Turkiya qo‘llab quvvatlovi fonida mustaqillika yerishish uchun harakatlari avjiga chiqishidan qo‘rqishi deb taxmin qilsak bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, mintaqada yuqorida tilga olingen kuchlarning yonida Turkiyaning ta’siri yetarli darajada kam. Xususan, oldingi davrlarda ShHT (Bir makon- bir yo‘l), YoII (Qozog‘iston va Qirg‘iziston a’zo), TransAfg‘on temir yo‘li kabi imkoniyatlarni keltirsak Turkiyaning Liderlik imkoniyati yetarli yemas. Turkiya xavfsizlik, siyosat va ta’lim sohasida jiddiy kamchiliklarga yega. Buning uchun bir qancha misollar keltirishimiz mumkin, Markaziy Osiyoga Turkiyadan keladigan tovarlardan Rossiyadan keladigan tovarlarga bojxonadagi farqlar, Rus maktablari va oliy o‘quv yurtlariga nisbatan Turk maktablari va oliygohlarining deyarli yo‘qligi, rus tili turkchaga nisbatan samaraliroq yekanligi, siyosiy va ijtimoiy hayotda Rossiyaga moyilligi yuqori bo‘lgan odamlarning soni ko‘pchilik yekanligi va boshqa bir qancha sabablarni keltirish mumkin. Bu misollar mintaqada Turkiyaning gegemonligini yemas balki tashkilotda teng huquqli subyekt sifatidagi mavqeyini mustahkamlaydi.

Mintaqaviylashuv davlatlarning integratsiya va hamkorlik jarayonlarini rivojlantirish uchun kelishuvlar asosida ixtiyoriy uyushmalarga birlashuvi nazarda tutiladi.

Ma’lum darajada uzoq vaqtlar hukmronlik qilgan davlatlarning tili va madaniyati mustamlaka xalqlarning tafakkuriga singib qolishi natijasida madaniy uyg‘unlik kasb yetadi va bu masofa uzoq bo‘lsada yaqinlikka olib keladi.

Turkiy davlatlarning birlashuvi g‘oyasi tili, madaniyati yaqin bo‘lgan, umumiylar tarixiy ildizlarga yega bo‘lgan xalqlarning zamonaviy iqtisodiy, siyosiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonlarida qayta namoyon bo‘ldi.

Turkiy davlatlar tashkiloti turkiy dunyoning birlashgan kuch qudrati va qat’iyatli birdamligining hosili va ramzi bo‘ldi desak bo‘ladi.

Dunyo yangi tartib tomon siljimoqda biz aytayotgan mintaqaning ahamiyati kundan kunga oshib bormoqda, xalqlar orasida hayajon va qo‘rquv parallel ravishda kuchayib bormoqda. Turkiy davlatlar tashkilotining maqsadlari albatta katta bu maqsadlarga yerishish uchun a’zo davlatlardan qat’iy hamkorlik va birdamlik kerak bo‘ladi.

Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi va uning faoliyati kundan kunga barqarorlik kasb yetmoqda. Davlatimizning ushbu platforma doirasidagi o‘rnii va roli o‘zaro ishonchga asoslangan bo‘lib, nafaqat mintaqaviy, balki global ahamiyatga ham yega bo‘lib bormoqda.

АДАБИЁТЛАР:

1. Мұхаммадсидиков М.М. Халқаро миңтақашунослик. Ўқув кўлланма. -Т.: «Баркамол файз медиа», 2017, 8 б.
2. Касымова Н.А. Региональная интеграция: аспекты теории. // Халқаро муносабатлар, №3, 2005, 5-13 с.
3. Ишанова Д.М. Зарождение идеологии тюркизма / Молодой ученый. -2020. №14 (304). –с. 203-206. –URL: <https://moluch.ru/archive/304/68486/>
4. Kacowicz A. Regionalization, Globalization and Nationalism // Alternatives. 1999.04.
5. <https://president.uz/oz/liss/view/5689>
6. <http://m.xabar.uz/uz/siyosat/shavkat-mirziyoyev-turkiy-davlatlar-tashkiloti>
7. <https://kun.uz/uz/news/2023/11/05/turkiy-davlatlar-tashkiloti-ham-dunyoning-bir-qutbiga-aylanadi-yekspert>
8. <https://kun.uz/uz/news/2021/12/21/tarix-bugun-va-kelgusi-rejalar-turkiy-davlatlar-tashkiloti-bosh-kotibi-bilan-suhbat>
9. <https://kun.uz/uz/news/time/samarkandda-turkij-davlatlar-sammiti>
10. <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/turkiy-dunyo-nigohi-2040>
11. <https://www.spot.uz/oz/2022/11/11/president-speech/>

12. <https://oyina.uz/uz/article/1222>
13. <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2022/11/11/01234567890-1905441>
14. https://uz.wikipedia.org/wiki/Arab_davlatlari_uyushmasi
15. https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_hamkorlik_tashkiloti
16. <https://es.wikipedia.org/wiki/Hispanidad>
17. <https://www.coe.int/en/web/portal/-/council-of-europe-and-georgian-authorities-launch-new-action-plan-for-2024-2027>

REZYUME:

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida turkiy tilli davlatlar hamkorligining rivojlanish jarayonlari, mazkur platformada mintaqaviylashuvning o'rni va ahamiyatiga berilgan ye'tiroflar aks yetgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviylashuv, mintaqaviy hamkorlik, Turkiy tilli davlatlar hamkorligi, panturkizm, Naxichevan kelishuvi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье отражены процессы развития сотрудничества тюркоязычных стран в условиях глобализации, признание роли и значения регионализации на этой платформе..

Ключевые слова: регионализация, региональное сотрудничество, сотрудничество тюркоязычных стран, пантюркизм, Нахичевансское соглашение.

RESUME:

This article reflects the development processes of the cooperation of Turkic-speaking countries in the context of globalization, the recognition of the role and importance of regionalization in this platform.

Key words: regionalization, regional cooperation, cooperation of Turkic-speaking countries, Pan-Turkism, Nakhichevan Agreement.

ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИ ТОМОНИДАН ЖИСМОНИЙ ВА ЮРИДИК ШАХСЛАРНИНГ МУРОЖААТЛАРНИ КЎРИБ ЧИҚИШ ТАРТИБИ ВА УНГА РИОЯ ЭТИШНИ ТАЪМИНЛАШ

Хидиров Ф.Ш. -

*ИИВ Малака оширии институти
катта ўқитувчиси*

Маълумки, мурожаатлар жамиятнинг кўзгуси хисобланади. Давлат бошқарувини янгилаш, мамлакатни модернизация қилиш ва юксак интеллектуал салоҳиятли жамиятни шакллантириш изчил давом этаётган бир шароитда мурожаатларни кўриб чиқиш тартибини белгиловчи қонун нормаларининг долзарблиги янада ошмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва бошқа амалдаги норматив-хуқуқий хужжатларида жисмоний ва юридик шахслар эркин ҳолда ўзлари ёки вакиллари орқали давлат органлари ва уларнинг мансабдор шахсларига мурожаат қилиш хуқуқлари (мурожаат қилиш тартиби, шакли, муддатлари) мустаҳкамланиб қўйилган. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 11 сентябрда қабул қилинган “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги қонунининг З-боби “Мурожаатларни бериш ва уларни кўриб чиқиш тартиби”га бағишлиган бўлиб, қонуннинг 20-моддасида белгиланган қўйидаги ҳолатларда мурожаатлар кўриб чиқилмаслиги акс эттирилган:

1. Аноним мурожаатлар.

2. Жисмоний ва юридик шахсларнинг вакиллари орқали берилган мурожаатлар, уларнинг ваколатини тасдиқловчи хужжатлар мавжуд бўлмаган тақдирда.

3. Қонунда белгиланган бошқа талабларга мувофиқ бўлмаган мурожаатлар.

1. *Аноним мурожаатлар* – жисмоний шахснинг фамилияси (исми, отасининг исми), унинг яшаш жойи тўғрисидаги маълумотлар, юридик шахснинг тўлиқ номи, жойлашган ери (почта манзили) тўғрисидаги маълумотлар кўрсатилмаган ёки улар ҳақида сохта маълумотлар кўрсатилган, шунингдек имзо (электрон рақамли имзо) билан тасдиқланмаган мурожаат. Аноним мурожаатлар кўриб чиқилмайди. Бу мантиқийdir. Масалан, агар мурожаатда мурожаат этувчининг яшаш жойи тўғрисидаги маълумотлар кўрсатилмаган бўлса, унга жавобни қаерга юбориш ўз-ўзидан номаълум бўлади. Мурожаатда баён этилган далилларни текшириш ёки мазкур далил бўйича хужжатларни тақдим этиш зарурати туғилса, мурожаат этувчи билан боғланиб бўлмайди. Бу мурожаат этувчининг фамилияси (исми, отасининг исми) ва имзосига ҳам тааллуқлидир, уларсиз мурожаат этувчи шахсига аниқлик киритиб бўлмайди.

Мурожаатни аноним деб эътироф этиш мурожаатлар билан ишлаш бўйича бўлинма ёки мурожаатни кўриб чиқувчи таркибий бўлинма томонидан амалга оширилади.

Мурожаат аноним деб эътироф этилганда, бу ҳақда хulosса тайёрланади. Хulosада мурожаатни аноним деб эътироф этиш учун асослар кўрсатилади. Мурожаатни аноним деб эътироф этиш тўғрисидаги хulosса мурожаатлар билан ишлаш бўйича бўлинма раҳбари ёки таркибий бўлинма раҳбари томонидан тасдиқланади.

Аноним мурожаатлар тегишли хужжатлари билан бирга алоҳида йифмажилдда сақланади, маълумот ва таҳлил учун уларнинг ҳисоби юритилади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят процессуал кодексининг 323-моддасида жисмоний ва юридик шахсларнинг жиноят ҳақидаги аноним мурожаатларига қўйидагича таъриф берилган: “Жиноят ҳақидаги имзосиз, қалбаки имзоли ёки уйдирма шахс номидан ёзилган хат, ариза ёки бошқа аноним хабарлар жиноят ишини кўзғатиш учун сабаб бўла олмайди”. Лекин истисно тариқасида жиноят содир этишига тайёрланаётган ёки содир этилган жиноятлар ҳақидаги аноним хатлар рўйхатга олинмасдан тезкор хизматларга жиноятларнинг олдини олиш ва очишда фойдаланиш учун тақдим этилади.

2. Жисмоний ва юридик шахсларнинг вакиллари орқали берилган мурожаатлар, уларнинг ваколатини тасдиқловчи ҳужжатлар мавжуд бўлмаган тақдирда. Жисмоний ва юридик шахснинг вакили мурожаат этиш вақтида ўз ваколатларини тасдиқлайдиган ҳужжатни, шунингдек ўз шахсини тасдиқловчи ҳужжатни кўрсатиши керак. Одатда жисмоний ва юридик шахсларнинг вакиллари орқали берилган мурожаатлар келиб тушганда, мурожаатлар билан ишлаш бўйича бўлинма ёки таркибий бўлинма уларнинг ваколатларини тасдиқлайдиган ҳужжатлар мавжудлигини текширади. Агар мурожаатда жисмоний ва юридик шахс вакилининг ваколатларини тасдиқлайдиган ҳужжатлар мавжуд бўлмаса, бу ҳақда мурожаатлар билан ишлаш бўйича бўлинманинг раҳбари ёки таркибий бўлинма раҳбари томонидан тасдиқланадиган хulosaga тузилади. Жисмоний ва юридик шахс вакилининг ваколатларини тасдиқлайдиган ҳужжатлар мавжуд эмаслиги тўғрисидаги хulosaga тасдиқланган пайтдан бошлаб ушбу мурожаат кўриб чиқилмайди, бу ҳақда мурожаат қилувчи ёзма равишда хабардор қилинади. Жисмоний ва юридик шахс вакилининг ваколатини тасдиқлайдиган ҳужжат ишончнома ҳисобланади. Ишончнома вакилнинг учинчи шахслар билан ҳуқукий муносабатларда бўлиши учун тайинланади. Ишончноманинг мазмунидан унинг қандай ваколатларга эга эканлиги, қандай юридик ҳаракатлар қилишга ҳақли бўлиши кўриниб туради. Бинобарин, вакил ишончно-мада кўрсатилган ваколат доирасида ҳаракат қилиб, учинчи шахс-лар билан шартнома тузган бўлса, вакил қилувчи бу шартномани бажаришдан бош торта олмайди.

Ишончнома умумий ва маҳсус турларга бўлинади.

Умумий ишончномада ҳар хил битимлар ва бошқа юридик ҳаракатлар қилиш, масалан, юридик ва жисмоний шахсларнинг филиалларини идора этиш ёки фуқарога қарашли мулкни бошқариш учун берилган ваколат кўрсатилади.

Маҳсус ишончномада бир турдаги битимларни тузиш, масалан, фермер хўжаликлари ва уларнинг аъзоларидан қишлоқ ҳўжалик маҳсулотларини харид қилиш бўйича битимлар тузиш учун ваколат белгиланади. Фақат бирон-бир битимнигина тузиш, масалан, сотиб олиб ажратиб қўйилган товарни олиш учун берилган ишончнома берганлик маҳсус ишончнома ҳисобланади. Ишончномада унинг қачон берилганлиги кўрсатилиши лозим, акс ҳолда, у ҳақиқий саналмайди. Ишончнома кўпли билан уч йил муддатга берилиши мумкин. Агар ишончномада муддат кўрсатилган бўлмаса, у берилган кундан бошлаб бир йил мобайнида ўз кучини сақлади. Берилган куни кўрсатилмаган ишончнома ҳақиқий эмас (ФК, 139-модда).

Ташкилотлар томонидан товарлар ва бошқа моддий бойликлар олиш учун бериладиган ишончномаларда уларнинг амалда бўлиш муддати, албатта, кўрсатилиши керак.

Нотариал шаклни талаб қилувчи битимларни тузиш ёхуд юри-дик шахсларга нисбатан ҳаракатларни амалга ошириш учун берил-ган ишончнома идора томонидан тасдиқланган бўлиши керак. ФКнинг 136-137-138-моддаларида назарда тутилган ҳоллар бундан мустаснодир.

Ишончномаларнинг нотариал идоралардан ташқари бошқа ташкилотлар томонидан тасдиқланиши ФКнинг 136-137-моддалари билан белгиланади. Чунончи, хат-хабарлар, шу жумладан пул ва посилкалар олиш учун бериладиган ваколатнома, иш ҳақи ҳамда меҳнат муносабатлари билан боғлиқ бўлган бошқа тўловларни, муаллиф ва ихтирочиларга бериладиган ҳақларни, пенсиялар, ёрдам пуллари ва стипендияларни, шунингдек ҳалқ банкларидан тегишли суммаларни олиш учун бериладиган ишончнома фуқаролар яшаб турган жойдаги ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан, ишлаб турган ёки ўқиб турган ташкилот томонидан, турар жойдаги уйга хизмат кўрсатувчи уй-жойдан фойдаланиш ташкилоти томонидан, даволаниб турган жойида эса – даволаниш муассасасининг маъмурияти томонидан, ҳарбий хизматчи томонидан ишончнома берилганида – тегишли ҳарбий қисм қўмондонлиги томонидан тас-диқланиши мумкин. Озодликдан маҳрум қилиш ёки қамоқда сақла-наётган шахсларга бериладиган ишончнома тегишли муассасалар бошликлари томонидан тасдиқланади.

Юридик шахс номидан бериладиган ишончнома раҳбар томонидан имзоланиб, унга ушбу юридик шахснинг муҳри босилади.

Давлат мулкига асосланган юридик шахс номидан пул ва бошқа мулкий бойликларни олиш ёки топшириши учун бериладиган ишончнома ушбу юридик шахснинг бош бухгалтери томонидан ҳам имзоланиши керак. Банқда операцияларни амалга оширишга ишончнома бериш тартиби ва унинг шакли қонун ҳужжатлари билан белгилаб қўйилади.

Вакилли шахсий ишончга боғлиқ бўлганлиги туфайли ваколат олган шахс қандай харакатларни қилишга вакил қилинган бўлса, уларни шахсан ўзи бажариши лозим. Вакил олган ваколати юза-сидан бу харакатларни бажаришни фақат ишончномада кўрсатилган ҳолларда ёки ваколат берувчининг манфаатларини қўриклиш учун маълум бир шароитлар туфайли бирорвга топширишга мажбур бўлсагина бошқа шахсга топширишга ҳақли. Ваколатнинг вакил томонидан бошқа шахсга ўтказилиши мумкинлиги назарда тутилган ишончнома нотариал идора томонидан тасдиқланиши лозим.

Жиноий жавобгарликнинг шарти сифатида ушбу қилмишлардан бирини содир этиш натижасида жиддий зиённинг келиб чиқиши белгиланган.

Кўрилаётган модданинг биринчи қисмида кўрсатилган жиноят маъмурий жавобгарлик (МЖТКнинг 43,44 ва 46-моддалари) билан содир этиш усулидан фарқ қилмайди. Жиноий ва маъмурий жавобгарлик ўртасидаги асосий фарқ қилмиш натижасида келиб чиқсан оқибатдир, яъни жиноий жавобгарликда жиддий зиён келиб чиқсан бўлиши лозим, бундай оқибат келиб чиқмаган тақдирда эса маъмурий жавобгарлик (муайян тоифадаги шахсларга нисбатан интизомий жавобгарлик) вужудга келади.

“Жиддий зиён” баҳоланадиган, кенг қамровли тушунча, шу боис уни расмий жиҳатдан фақат миқдорий кўрсаткичларда ифодалаш мумкин эмас ва у бир томонлама моддий зиёндан иборат деб қаралмаслиги лозим.

Шу нуқтаи назардан, жиддий зиённи аниқлашни хусусиятига кўра икки турга ажратиш мумкин:

- 1) моддий;
- 2) маънавий (моддий бўлмаган).

Моддий хусусиятга эга бўлган жиддий зиён ҳам тузилишига кўра иккига бўлинади:

– мулкий (аниқ келтирилган зиён ва бой берилган фойда);
– жисмоний (жисмоний зиён – ҳеч бўлмаганда битта жабрланувчининг баданига енгил ёки ўртача оғирлиқдаги шикаст етказилганлиги, ўлимнинг келиб чиқиши ва бошқалар).

Бугунги кунда мамлакатимизда “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ти Қонуни жисмоний ва юридик шахсларнинг давлат органлари ва давлат муассасаларига йўллайдиган мурожаатлари соҳасидаги муносабатларини тартибга солиш учун хизмат қилмоқда. Шунингдек мурожаатлар, уларнинг тури ва шаклидан қатъи назар, бир ҳил аҳамиятга эга эканлиги ва мурожаатни кўриб чиқиша муддат ва тартиблари бир ҳил татбик этилиши қайд этилган. Қайд этиш лозимки, қонун ҳужжатларида жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузиш учун тегишли жавобгарлик чоралари белгилаб берилган. Хусусан, Қонуннинг 28-моддасига асосан мурожаатлар тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик, худди шунингдек тухмат ва ҳақоратдан иборат мурожаат берганлик белгиланган тартибда жавобгарликка сабаб бўлади. Яна бир бор эслатиб ўтиш жоизки, Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси 43-моддаси ҳамда Жиноят кодексининг 144-моддаларига асосан жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузиш учун маъмурий ва жиноий жавобгарлик қайд этилган. Ҳақиқатан ҳам ушбу қонун мамлакатимизда жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуqlари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда уларнинг бузилишига олиб келаётган сабаблар ва шарт-шароитларни аниқлаш ва бартараф этиш механизмини янада такомиллаштиришга хизмат қиласи. Хулоса қилиб айтганда, “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ти қонун фуқароларимизнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда юридик шахсларнинг

қонуний манбаатларини ишончли ҳимоялашда мустаҳкам ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилмоқда. Зоро, ушбу қонун хужжатларини амалиётга тўғри татбик этиш, жамиятимизда қонун устуворлиги, тартиб-интизом, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашнинг муҳим омилидир.

АДАБИЁТЛАР:

1. Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 2017 йил 11 сентябрь, ЎРҚ-445-сон. [www/http://lex.uz](http://lex.uz).
2. Мирзиёев Ш.М 2017 йил 22 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. [www/http://president.uz](http://president.uz) sayti.
3. Мирзиёев Ш.М Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси [www/xttpp://uga.uz/o/politiss](http://www.xttpp://uga.uz/o/politiss).
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 7 майдаги “Давлат органларида, давлат муассасаларида ва давлат иштирокидаги ташкилотларда жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тартиби тўғрисидаги намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 341-сонли қарори. [www/http://lex.uz](http://lex.uz) sayti.
5. Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2021 йил 1 январдаги “Ички ишлар органларида жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 2-сонли бўйруғи.

РЕЗЮМЕ:

Мазкур мақоланинг асосий мақсади ички ишлар органларида жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларни кўрмасдан қолдириш тартиби хамда ички ишлар органларида жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш муддатлари ва тартиби бузилганлиги учун жавобгарлик асосларини атрофлича тушунтириб беришдан иборат.

Калит сўзлар: ички ишлар органлари, юридик шахсларнинг мурожаатлари, жавобгарлик , Ҳаракатлар стратегияси, Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.

РЕЗЮМЕ:

Основная цель настоящей статьи - подробно разъяснить порядок игнорирования обращений физических и юридических лиц в органах внутренних дел, а также основания ответственности за нарушение сроков и порядка рассмотрения обращений физических и юридических лиц.

Ключевые слова: органы внутренних дел, обращения юридических лиц, ответственность, стратегия действий, Конституция Республики Узбекистан.

RESUME:

The main purpose of this article is to explain in detail the procedure for ignoring the appeals of individuals and legal entities in the internal affairs bodies, as well as the grounds of responsibility for violation of the terms and procedure of consideration of the appeals of individuals and legal entities in the internal affairs agencies.

Key words: internal affairs bodies, appeals of legal entities, responsibility, action strategy, Constitution of the Republic of Uzbekistan.

ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ОИЛАСИННИГ АЙРИМ ЭТНОСОЦИАЛ ЖИҲАТЛАРИ

Ўразалиева Г.Б. –
ЎзМУ докторанти,
социология фанлари номзоди, доцент.

Замонавий ўзбек оиласининг этник моделларини динамикасини тадқиқ этиш ҳозирги замон ижтимоий фанлари олдига қўйилган энг долзарб муаммолардан биридир. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, бугун дунёда мураккаб ва оғир вазият, иқтисодий инқизор хукм сурмоқда. [1.1] Табиийки, бу ҳолат мамлакатимизга ҳам ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди, шу жумладан жамиятда кечеётган ҳар қандай ўзгаришлар оила институтига ҳам ўз таъсирини ўтказмоқда. Бугунги кунда оила глобаллашув даврида рўй бераётган турли хил даражадаги мураккаб ўзгаришлар ва таҳдидлар босимини бошдан кечирмоқда.

Таъкидлаш жоизки, Янги Ўзбекистон таракқиёти Стратегиясида қўрсатилганидек, [3.1] замонавий ўзбек оиласининг этник моделлари асрлар оша мавжуд бўлиб келаётган миллий қадриятларимизни ўз ичига олган бўлиб, улар ҳалқ маданияти ва анъаналарини кекса авлоддан ёш авлодларга асрар аввайлаган ҳолда етказиб бериш ва ҳимоя қилиш вазифаларини ўз ичига олади.

Бинобарин, замонавий ўзбек оиласининг ўзига хос қадриятлари, аввало, турли авлодларни боғлаб турган анъана ва урф-одатларимизнинг мустаҳкам ва қўп қиррали ворисийлик хусусиятларини миллий қадриятлар билан янада уйғунлаштириб ташки таҳдидларга нисбатан янада барқарорлигини таъминлаш масалалари мамлакатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бирини ташкил этади. [2.1]

Замонавий ўзбек оиласининг ҳарактерли хусусиятларидан бири, тезкор ўзгаришлар даврида турли хил ташки босимларга дучор бўлиб, бу ўзгаришларнинг натижалари кейинги авлод ҳаётида аста секин ўз аксини топа боришидадир. Зеро, оила ижтимоий институт сифатида глобал ривожланиш тенденцияларини бошидан кечириб, тарихан шаклланган ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий-маданий ва демографик хусусиятларни акс эттиради ва уларни келажак авлодларга қолдирган ҳолда ўз ҳалқи анъаналарининг мустаҳкам таянчи бўлиб қолади. [5.10]


“Ўзбек оиласини мустаҳкамлашда гендер тенгликнинг этно-функционал жиҳатларининг ижтимоий-фалсафий муаммолари” мавзусида ўтказилган социологик тадқиқотларимиз сўровномасида 800 та респондент иштирок этган бўлиб, респондентларимизнинг 33 % қисми ўрта, 39 % и ўрта-махсус, 22 % и олий, 5 % қисми олий, 1 % и эса илмий даражага эга бўлган шахсларни ташкил этади.

Тадқиқот натижаларига кўра, Ўзбекистон аҳолиси анъана ва урф-одатларга амал қиласи, айниқса бу борада аксарияти аёллар – 62% ташкил этиб, улар урф одатлари ва қадриятларимиз инсон учун энг зарур, деб таснифлайдилар. [9.336]

Респондентларга бугунги кундаги ўзбек оиласининг ижтимоий қиёфасини аниқлашга қаратилган баъзи саволлар билан мурожаат қилинди. Жумладан, зўравонлик турларига муносабатини аниқлаш мақсадида «Сизнинг фикрингизча аёллар кўпроқ ўз ҳаётида зўравонликнинг қайси турига дуч келадилар?» деган саволга, 182 та респондент жисмоний, 182 таси эса психолого-педагогик, 89 та респондент иқтисодий, 156 та респондент жинсий ва 196 та респондент эса бошқа турдаги зўравонликлар деган фикрни билдирганлар.

Афсуски, респондентларнинг бу жавоблари, оиласи содир бўлаётган зўравонлик қурбонларининг оғир ахволидан дарак беради. Зўравонликка лоқайдлик ёки аралашмаслик кайфияти жамиятда зўравонликка нисбатан тоқатсизлик ҳиссини янада кўпроқ шакллантириш зарурлигини кўрсатади.

Респондентларнинг аёллар тенглиги муаммолари кўпроқ қаерларда учраши тўғрисидаги саволларга жавоблари ҳам эътиборга лойик. (жадвал).



Бу ҳолат хусусан, аксарият аёлларимизнинг ролини асосан, ўчоқ посбони, уй юмушлари ва тарбия ишлари билан шуғулланувчи сифатида англашлари билан боғлиқдир. Айнан шу масалалар, айниқса ёшларга, қизларга бериладётган маълум бир эркинликларга, масалан, ўқиб билим олиш, хорижий тилларини ўзлаштириш, кино ва театрларга ташриф буюриш кабиларни намоён бўлишига салбий муносабатда бўлиш эҳтимоли билан боғлиқдир.

Шуни ҳам таъкидлаш лозимки, аёлларнинг иш жойларида гендер камситиш ҳолатлари юқори даражада сақланиб қолмоқда. Респондентларнинг фикрича, меҳнат фаолияти жараёнидаги гендер tengligидаги муаммоларнинг келиб чиқишининг асосий сабаблари ўзига ишончсизлик (43%), бир – бирини тушунмаслик (21%), моддий етишмовчиликлар (12%), анъаналар (11%) ва бошқалардан (13%) иборатдир.

Олинган натижалар шуни қўрсатади, аёллар миллий анъаналарни гендер tengligизлиги манбаи сифатида кўришга мойил эмаслар. Тахминан ҳар ўнинчи одам бу нуқтаи назарга амал қиласди. Доминант нуқтаи назардан, гендер муаммолари асосан томонлар ўртасидаги ўзаро тушунишнинг мураккаблиги билан боғлиқдир (сўровда қатнашганларнинг 64 фоизи). Бу гендер tengligини таъминлаш соҳасида амалга оширилаётган ишларни янада такомиллаштириш ва томонлар ўртасидаги гендер маданиятни ва гендер сезгириликни шакллантириш зарурлигини қўрсатмокда.

Аёллар tengligи муаммоларини келиб чиқишига нималар кўпроқ сабаб бўлиши мумкин? деган саволга респондентларнинг аксарияти маълум бир стереотиплар (327), эркаклар (187), аёлларнинг ўзлари (14) оиланинг бошқа аъзолари (87), бошқа сабаблар (85), деб жавоб беришган. Бу ерда “стереотиплар” деган жавобнинг ўзи гендер tengligи соҳасидаги муаммоларнинг ҳақиқий сабабарининг аниқ қўрсаткичи эканлиги таъкидланмоқда.

“Қандай қилиб инсон ўзини зўравонликдан ҳимоя қилиши мумкин деб ҳисоблайсиз?” деган саволга респондентлар бандликни таъминлаш билан (35%), хукуқ тартибот органларини жалб этиш йўли билан (20%), маҳалла билан (9%) оила аъзоларига шикоят қилиб (12%) ва бошқа йўллар (14%) каби фикрларни илгари суришади.

Мамлакатда гендер tengligини таъминлаш масаласи қанчалик даражада долзарб деган саволга респондентларнинг 73,6% барча хотин- қизлар учун, 40,1% юристлар учун, 26,8% интернетдаги таъқибга учраган қизлар, 23,2% кўп аёллар бу муаммони тушунмайди, 10,6% турмушга чиққан аёллар учун, 9,8% ишлайдиган аёллар учун, 8,6% кўп аёллар буни мухим деб ҳисобламаслигини ва 10,4% бошқа деган мазмундаги жавобларни беришган.

Бу саволга берилган жавоблар, бир томондан, гендер масалаларининг кўп қирралигини қўрсатса, иккинчи томондан эса, жамият учун гендер tengligини таъминлаш бўйича давлат сиёсатини амалга оширишдан барча аёллар манфаатдор эканлигидан далолат беради.

Мамлакатимизда аёллар камситилишларининг қандай турлари долзарб ҳисобланади деган саволларга берилган жавоб вариантлари муаллифга гендер муаммоларнинг рейтингини тузишга имкон берди. Булар ҳарасмент (жамоат транспортида, ўқища, ишда ва бошқа жойларда тегажоқлик қилиш) 40%, жамиятда аёллар ролини камситилиши (аёл – уй бекаси) 25%, буллинг 19%, ишда (кам маош, куйи лавозимлар ва бошқалар) 12%, бошқа хил жавоблар 4% ташкил этмоқда.

Шуниси ҳам эътиборга лойикки, бошқа социологик хизматлар ва муаллифлар томонидан ўтказилган сўровномалар ҳам ушбу масалаларга оид фикрларимизни тасдиқлайди.

Ҳалқимизда ўз қадриятлари ва ўзига хос маънавиятини шакллантириш ва юксалтиришда оила етакчи аҳамиятга эга. Маълумотларга кўра ажralишлар сони бўйича Ўзбекистон нисбатан фаровон давлатлар қаторига киради. Статистик маълумотларга кўра, мустақиллик йилларида ажralишлар сони қарийб икки марта камайган.[6.73]

Дунёда юз бераётган сиёсий, иқтисодий мафкуравий тўқнашувлар турли хил ҳалқларнинг этномаданий ривожланишига таъсирини ўтказмай қолмайди. Бундай вазиятда миллатни ҳимоя қилиш оилани асраб аввайлаш, миллий қадриятларни мустаҳкамлаш масалалари катта аҳамиятга эга бўлади.

Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, тадқиқот натижаларига кўра, ёшлар оила ва жамиятга нисбатан анчагина консерватив позицияларга риоя қилишни афзал кўрадилар. Бу омил оила доирасида шаклланган ва мустаҳкам сақланиб келаётган ижтимоийлашувнинг натижасидир.

Фарзандлар бизнинг келажагимиздир. Сўровномалар натижаларига кўра, фарзанд кўриш тўлақонли ва баҳтли оиланинг рамзиdir. Респондентларнинг 70,9 фоизи фарзандлар баҳли оила пойдевори деб тушунишади. Айни пайтда бу фикр аёллар учун муҳимроқ эканлиги аниқланиб, аёл респондентларнинг 52,1% бу фикрни таъкидласалар, эркакларнинг 41,8% тасдиқлаганлар.[7.68] Шундай қилиб, агар оилали аёллар ўз каръерасини ёки таълим олишни давом эттиришни хоҳласалар, тобора кўпроқ қийинчилик ва муаммоларга дуч келмоқдалар.

Республика “Ижтимоий фикр” маркази томонидан ўтказилган сўровномалар натижалари шуни кўрсатадики, респондентларнинг 41,2 фоизи оиладаги низоларнинг асосий сабабларини моддий қийинчиликлар, ўзаро тушунмовчиликлар, оилавий мажбуриятларни бажармаслик, оилада ўрнатилган гендер ролларининг адолатсиз тақсимланганлиги, лоқайдлик, ва турмуш ўртоқларидан бирининг спиртли ичимликларни истеъмол қилишга мойиллиги ва шу каби муаммолар билан боғлиқлигини кўрсатади. [8.1]

Жисмоний зўравонликни энг кўп тарқалган сабаблардан бири алкогол ёки гиёхванд моддаларни истеъмол қилиш (23,5%), турмуш ўртоқлар ўртасидаги тушунмовчиликлар (22,1%) ва оиладаги моддий қийинчиликлар (20,6%) кабилардир.[8.1]

Хулоса қилиб айтганда, ўтказилган социологик тадқиқот натижалари Ўзбекистонда замоновий ўзбек оиласининг этномоделига хос гендер тенгликни таъминлашнинг объектив омиллари ва субъектив шарт-шароитлари тўғрисидаги фикрлар илгари суриш имконини берди.

Бу йўналишдаги энг устувор вазифалар жумласига қўйидагиларни киритиш мумкин:

- Ўзбекистонда тинчлик, осойишталик ва фаровонликни янада мустаҳкамлашнинг муҳим шарти сифатида оилаларда соғлом маънавий муҳитни шакллантириш;
- қиз болаларни - бўлажак оналарни - жисмонан соғлом ва интеллектуал жиҳатдан юқори қилиб вояга етказиши, замонавий билим ва касб-хунарга эга бўлишларини таъминлаш, ҳаётда муносиб ўрин эгаллашлари, келажакда соғлом ва мустаҳкам оила қуришларида ҳаётга ишоч ва мустақил фикрлаш тарзини шакллантириш;
- касб-хунар коллежлари битирувчиларини, аввало қизларни ишга жойлаштириш, ўз бизнесини йўлга кўйиш иштиёқидаги ёшларга имтиёзли кредитлар, ёш оилаларга уй-жой сотиб олиш ва қуриш учун ипотека кредитлари, узок муддатли фойдаланиладиган товарлар харид қилишлари учун истеъмол кредитлари ажратиш чора-тадбирларини кенгайтириш;

- дастурий чора-тадбирларни амалга ошириш билан боғлиқ масалаларни ҳал этишда маҳаллий ҳокимият органлари билан фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, хотин-қизлар ва ёшлар бирлашмалари, фахрийлар ташкилотлари ўртасидаги ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш;

Бу вазифаларни бажаришда Ўзбекистонда 2030-йилгача гендер тенглигига эришиш стратегиясини босқичма-босқич ва мавжуд вазиятни ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши муҳим аҳамиятга эгадир.[4.1.]

АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистонда бутун халқимиз қатори хотин-қизларимиз учун ҳам муносиб шароитларни яратиб бериш – энг муҳим вазифамиз бўлиб қолади. - <https://president.uz/uz/lists/view/7076>
2. Оила ва хотин-қизларни тизимли кўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. - <https://president.uz/uz/lists/view/5049>
3. 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. - <https://drive.google.com/file/d/1rinOV-NXv4GkgzHcg191IV7iIxL5D1GK/view>
4. Ўзбекистонда 2030 йилгача гендер тенглигига эришиши стратегияси. - <https://lex.uz/ru/docs/5466673>
5. Аимбетов Н.К., Палваниязов А.Ю. Молодая семья и ее основные проблемы (на примере Республики Узбекистан). // Социология и право, 2016. - - <https://cyberleninka.ru/article/n/molodaya-semya-i-ee-osnovnye-problemy-na-primere-respublikи-uzbekistan>
6. Мамадалиева Х.Х. Брак и семья в Узбекистане // Народонаселение. — 2017. — № 4. — С. 67-77
7. Молодежь Узбекистана: вызовы и перспективы. 2020 г. - <https://www.unicef.org/узбекистан/медиа/3696/файл/РУС%20Ёутҳ%20оғ%20Узбекистан%20Чалленгес%20анд%20Проспектс%20Финал.пдф>
8. Мнение граждан о семье: установки, взаимоотношения, ориентиры. 15.05.2021 г. - <https://ijtimoifikr.uz/ru/issledovaniya/obschestvo/mnenie-grazhdan-o-seme-ustanovki-vzaimootnosheniya-orientiry.htm>
9. Сейтов А.П., Уразалиева Г.Б.“Этно-демографические особенности института семьи в Узбекистане //Постсоветские исследования. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/etno-demograficheskie-osobennosti-instituta-semi-v-uzbekistane>

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада оила институтининг энг долзарб муаммоларидан бири бўлган замонавий ўзбек оиласининг этник моделларини таҳлил этилган. Унда бугунги куннинг глобаллашув даврида мураккаб ўзгаришлар таъсиридаги ўзбек оиласининг ривожланиш хусусиятлари ва мавжуд муаммоларининг айрим жиҳатлари таҳлил этилган.

Калит сўзлар: оила, ўзбек оиласи, қадриятлар, анъаналар, этносоциал, этномодель, аёллар, гендер, гендер тенглик.

РЕЗЮМЕ:

Данная статья посвящена анализу этнических моделей современной узбекской семьи, проанализированы особенности развития узбекской семьи и существующие проблемы под влиянием сложных изменений, происходящих сегодня в мировом масштабе, в том числе и в Узбекистане.

Ключевые слова: family, Uzbek family, values, traditions, ethnosocial, ethnomodel, women, gender, gender equality

RESUME:

This article is devoted to the analysis of ethnic models of the modern Uzbek family, the features of the development of the Uzbek family and existing problems under the influence of complex changes occurring today on a global scale, including in Uzbekistan, are analyzed.

Key words: family, Uzbek family, values, traditions, ethnosocial, ethnomodel, women, gender, gender equality.

ZAMONAVIY TALABA YOSHLAR ESTETIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA MUSIQIY TAFAKKURNING ANALITIK TAHLILI

Tursunova L. –
FarDU o'qituvchisi

Tafakkur inson ongida borliqni uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayonidir. Tafakkur hissiy bilish (his etish, idrok etish) vositasida va uning chegaralaridan chiqqan holda amaliy faoliyat asosida yuzaga keladi. Tafakkur aniq bilimlar, dalillarga tayanadi, tahlil qiladi, qiyoslaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi. Tafakkur muammolarni ilmiy, falsafiy o'rganish bilan bilish nazariysi – gnoseologiya shug'ullanadi.

Musiqiy tafakkur olamni bilish, his qilish, idrok etish va uning go'zalliklaridan lazzatlanishning alohida bir shaklidir. U ham go'zallik va mukammallik qonunlari asosida yashaydi va rivojlanadi. U shu ma'noda din, fan va falsafa bilan bir qatorda turadi, insondagi insoniylikni kamol toptiradi, olam sirlarini kashf etadi [4].

Zamonaviy talaba yoshlarda estetik madaniyatni yuksaltirishda, axloqiy fazilatlarni shakllantirishda, ularning ma'naviy dunyoqarashini o'stirishda musiqiy tafakkurning analitik tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqiy tafakkur musiqiy his, musiqiy idrok asosida paydo bo'ladi va ovozli, musiqiy, badiiy obrazlarga tayanadi. Musiqiy tafakkur milliy musiqa madaniyatining o'ziga xosligi, qonuniyatlarini bilishning spesifik, intellektual jarayoni va musiqiy san'at asarini tushunishdir. Milliy musiqiy tafakkur muayyan bir millatning his-tuyg'u va kechinmalarini ifoda etadi, shuning uchun ham unga milliylik xosdir. Unda millatning butun kechmishi, tarixi, fantaziyasi, milliy ruhi, estetik didi, orzu va armonlari, quvonch va tashvishlari, dard va alamlari mujassamlashgan bo'ladi.

Milliy musiqa boshqa xalqlar san'ati bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi, biroq hech qachon u milliy zamindan ajrab, uzilib qolmaydi. O'zbek milliy musiqa san'ati mahalliy xalqlarning milliy ohanglari zaminida shakllanib kelgan. Har bir milliy madaniyat uchun ayni vaqtida umuminsoniylik xosdir, umuminsoniylik milliylik orqali namoyon bo'ladi. Musiqaning milliyligi mazkur xalqning uzoq tarixiy kechmishi, turmush va hayot tarzi, mehnat madaniyati va milliy an'analar bilan uzviy bog'langandir. O'zbek milliy musiqa san'ati xalqimiz hayotining badiiy aks-sadosi sifatida vujudga kelar ekan, unda kishilarning kayfiyati va mehnat faoliyatiga, shuningdek, ularning milliy tafakkuriga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida ma'naviyatga bo'lgan yuksak e'tiborning natijasi o'laroq, zamonaviy talaba yoshlarda estetik madaniyatni yuksaltirishda musiqiy tafakkurni shakllantirish, musiqa madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviylashtirish, uni zamon talablariga mos tarzda yuksaltirish hamda yoshlarning badiiy-musiqiy dunyoqarashini kengaytirish bilan bog'liq muammolar jamiyat ijtimoiy hayotining dolzarb masalalariga aylangan. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda zamonaviy talaba yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda musiqiy tafakkurni shakllantirishning dolzarbligini quyidagicha asoslash mumkin:

Birinchidan, O'zbekistonning yangi taraqqiyoti bosqichida ma'naviyatning ustuvorligiga tayanuvchi falsafiy konsepsiya zamonaviy talaba yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda musiqiy tafakkur va dunyoqarashning o'ziga xos o'rnnini belgilab beradi.

Ikkinchidan, musiqiy madaniyat shaxs kamolotining barcha bosqichlarida unga falsafiy, axloqiy g'oyalarni singdirishda, yuksak insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda, shu bilan birga, estetik madaniyatni yuksaltirishda muhim ruhiy-emotsional omil bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, zamonaviy talaba yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda o‘z qobiliyati, iqtidori, iste’dodi va umuman erkin ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun yetarli obyektiv, subyektiv sharoitlarni yuzaga keltiradi. Shu bois zamonaviy talaba yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirish jarayonida, jamiyat ma’naviy yangilanishida va taraqqiyotining barcha sohalarida yuz berayotgan islohotlarni uyg‘un holda tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘z navbatida, zamonaviy talaba yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirish masalasini ma’naviy taraqqiyotning tarkibiy qismi sifatida maxsus tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi [6].

Musiqiy tafakkur – musiqiy madaniyat o‘ziga xosligi, qonuniyatlarini bilishning spesifik, intellektual jarayoni va musiqiy san’at asarini tushunishdir. Musiqiy tafakkurning o‘ziga xosligi musiqiy qobiliyatning rivojlanganligiga, shuningdek, inson yashab tarbiyalanayotgan musiqiy muhit shart-sharoitiga bog‘liq. Sharq va G‘arb musiqiy madaniyatları orasidagi tafovutlarni alohida ta’kidlash kerak. Sharq musiqasi uchun monodiyaga asoslangan tafakkur: ko‘plab lad ko‘rinishlari, chorak tonli, nimchorak tonli, glissando usullarining qo‘llanilishi, ritm tuzilishining boyligi, tovushlarning notemperatsiyaviy munosabati, tembr va kuy xilma-xilligidan foydalanish bilan musiqiy tafakkurni gorizontal rivojlantirish xosdir. Yevropa musiqa madaniyati uchun esa gomofon-garmonik tafakkur: garmonik ketma-ketlik harakati mantiqi bilan bog‘liq musiqiy tafakkurni vertikal rivojlantirish xosdir [3].

Musiqiy tafakkur idrok etish asosida shakllanadi. Nima uchun musiqani hamma eshitadiyu, lekin hamma ham idrok eta olmaydi? Nima uchun yevropalik tinglovchi Sharq musiqasini, sharq tinglovchisi Yevropa musiqasini har doim to‘la tushunavermaydi? Chunki, musiqiy idrokning to‘laqonliligi, musiqiy ifoda vositalarini tushunish imkoniyati, intensivlik va musiqiy kechinma turlari har bir odamda har xil bo‘lib, o‘z xususiyatlari sababiga ega.

Bugungi zamonda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirish, yoshlarni yuksak gumanistik ideallar ruhida tarbiyalashda musiqa san’atining o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydi.

Musiqiy mazmun – idrok etilishi natijasida tafakkur darajasida anglanadi, bunda ohanglar obrazlarining ifodaviy va tasviriy imkoniyatlari muhim rol o‘ynaydi. Musiqiy tafakkur qadim zamonlardan buyon o‘rganib kelinadi. Pifagorning monoxord ustida olib borgan tajribalari jarayonida kashf etgan musiqiy ovozlarning o‘zaro munosabatlari tizimi, aytish mumkinki, musiqiy tafakkur fanining rivojini boshlab berdi. Musiqiy tafakkurning barcha turlari ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega, ya’ni ma’lum bir tarixiy davrga tegishli [7].

“Zamonaviy musiqa pedagogikasida musiqani janr tahlili asosida o‘qitishda katta tajriba to‘plangan. Musiqashunoslikda o‘rganilgan janr tasnifi deyarli barcha o‘quv dasturlarida musiqa materialini tanlash va tartibga solish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi”. “Musiqa oddiy yoki murakkab tuzilgan bo‘lishi, dag‘alroq yoki nozik, ommaviylashgan yoki o‘ziga xos bo‘lishi mumkin”. Bularning barchasi yoshlarda shakllanadigan musiqiy did darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va tinglanadigan musiqa asarlariga bildiriladigan munosabat o‘smirlar tomonidan ushbu asarlarga beriladigan baho tarzida qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Musiqiy tafakkurning rivojlanishi ilm-fanning gullab-yashnashi hamda badiiy madaniyatning gurkirab rivojlanishi bilan bir vaqtida ro‘y bergen. Ilm-fan va san’atni bir-biridan ajratish aslo mumkin emas. Ilmiy kashfiyotlarning doyasi, ilhomchisi doimo musiqiy tafakkur bo‘lgan, musiqiy tafakkur natijasida inson sezgilarini ijtimoiylashadi, fikr tiniqlashadi, butun borliqni idrok etish faollahshadi. Insondagi mehr-shafqat va hamdardlik singari insoniy fazilatlar milliy musiqiy tafakkur orqali shakllanadi va kamol topadi [2].

Musiqiy tafakkurni inson ongi va hissiyotlariga ta’sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlariga hamohang bo‘lgan protsessual – muayyan jarayonli tabiatini bilan bog‘liqdir. Mumtoz musiqa madaniyatiga oid asarlar mazmuniga badiiy g‘oyalar umumlashgan holda berilib, musiqiy obrazlarning o‘zaro munosabatlari, ya’ni taqqoslash, to‘qnashuv, rivojlanish jarayonida shakllanadi.

Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko‘ra musiqa mazmuni ham turli epik, dramatik, lirk belgilarga ega bo‘ladi [8].

Musiqa shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qadriyatlarning birligidan iborat bo‘lib, bunda mazlum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur’at, ijtimoiy fikr va kechinmalari to‘g‘risidagi umumlashmalar ifoda etiladi. Musiqiy madaniyat har bir davrning ma’naviy-ma’rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtida inson faoliyatining ko‘pgina jabhalari bilan mushtarakdir. Musiqiy tafakkurning inson axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg‘ularini rivojlantirish vositasi sifatidagi roli juda muhimdir.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent, 2017.
3. Арзиматова И.М. Эстетик маданият. – Тошкент, “Фан”, 2007.

REZYUME:

Mazkur maqolada jamiyatning yangi taraqqiyoti bosqichida yoshlar musiqa madaniyatini yuksaltirish, takomillashtirish yuzasidan bir qator tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi, musiqa madaniyati olamni bilish, his qilish, idrok yetish va uning go‘zalliklaridan lazzatlanishning alohida bir shakli yekanligi va yoshlarning musiqiy madaniyatini yuksaltirishning ob’ektiv va sub’ektiv omillari falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: musiqa, musiqa madaniyati, musiqiy meros, san’at, obyektiv va subyektiv omillar, ijrochilik san’ati, barkamol avlod, barkamol shaxs, madaniy qadriyatlar, maqom, dostonchilik, folklor

РЕЗЮМЕ:

В данной статье показано, что на этапе нового развития общества проводится системная работа по поднятию и совершенствованию музыкальной культуры молодежи, которая является особой формой восприятия и наслаждения ее красотами, а также анализируются объективные и субъективные факторы поднятия музыкальной культуры молодежи.

Ключевые слова: музыка, музыкальная культура, музыкальное наследие, искусство, объективные и субъективные факторы, исполнительское искусство, зрелое поколение, зрелая личность, культурные ценности, статус, эпос, фольклор.

RESUME:

In this article, at the stage of the new development of the society, a number of systematic works are being carried out in order to raise and improve the music culture of young people, that it is a special form of perception and enjoyment of its beauties, and the objective and subjective factors of improving the musical culture of young people are philosophically analyzed.

Key words: music, music culture, musical heritage, art, objective and subjective factors, performance art, mature generation, mature personality, cultural values, status, yepic, folklore

**YUKSAK MA'NAVIYAT VA ADOLATPARVARLIK TAMOYILLARINING YANGI
O'ZBEKİSTON FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI**

Ravshanova G. -
Faylasuflar milliy jamiyat a'zosi

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish davrida o'tish jarayonini oqilona tashkil qilishda inson manfaati asosiy o'rinda turadi. O'tish davrida amalga oshiriladigan asosiy vazifalar milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yuzaga chiqarish, uni jamiyat hayotida barqaror qilish maqsadlarini ham nazarda tutadi. Ma'lumki, yer yuzida mavjud har bir millat o'z milliy qadriyatlariiga ega. Uning har bir imkoniyatlaridan oqilona foydalanish fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kundagi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarning muhim xususiyati ham shudir.

Keyingi yillarda yurtimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsadi yo'lida hayotning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu jihatdan, milliy qadriyatlар nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri, balki demokratik, adolatl, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatı qurishning asosiy manbai hamdir. Milliy qadriyatlар o'zgarmas hodisalar emas, u jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa. Shu ma'noda biz o'z milliy qadriyatlarnimizni: a) tadrijiylik; b) sabr-toqat, maromiylik va vazminlik; v) ijtimoiy-siyosiy hayotda bosiqlik va boshqa asoslarda asrab-avaylab rivojlantirmoqdamiz.

Milliy muhit demokratik qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbasidir. Aynan milliy muhit mahalliy qadriyatlarni ustuvorligini o'z darajasiga ko'taradi va ularni g'oyaga yetkazib, umuminsoniy qadriyatlarni darajasiga olib chiqadi. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlari o'zgarishi bilan milliy qadriyatlarni ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi.

Ma'rifatli jamiyat yaratishga kirishar yekanmiz, avvalo, ta'lim tizimini takomillashtirish, bor e'tiborimizni farzadlarimizning zamonaviy ilmlarni egallab, barkamol insonlar bo'lib yetishishiga qaratish lozim. Bilim va ma'rifat yurtimiz tinchligiga rahna solmoqchi bo'layotgan g'arazli kimsalarga qarshi kurashning eng ishonchli quroolidir. Dunyo xalqlari orasiga sovuqchilik tushirib, o'zları urush olovida isinadigan yovuz kuchlarga qarshi turishda xalqning birdamligi, hushyor va ogohligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ushbu jarayonning davomiyligini ta'minlash maqsadida yaratilgan Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi hozirgi davr talabi va taqozosi, jamiyatimizning harakatlantiruvchi kuchlari va rivojlanish omillarini belgilaydigan faoliyat dasturiga aylandi.

Shu bilan birga, bu ma'naviyat sohasidagi davlat siyosatining asoslari to'g'risidagi tartib-qoidalarni, mazkur yo'naliishda inson kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun niroyatda muhim bo'lgan huquqiy normalarni konstitutsiyamizda muhrlab qo'yish imkonini ham vujudga keltirmoqda. Bugun mamlakatimizda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ygan bir davrda "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan bosh tamoyilga amal qilinmoqda. Ushbu tamoyil "inson – jamiyat – davlat" tizimi xalq uchun ishlashi lozimligini, barcha davlat organlari unga xizmat qilishi zarurligini anglatadi.

Shuningdek, mazkur tamoyil hozirgi davrda yurtimizda rivojlangan demokratik davlat va inson haq-huquqlari ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatini barpo etish bilan bog'liq siyosiy faoliyat va islohotlarning eng asosiy yo'naliishini ham ifodalaydi.

Ayni paytda bu, mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan yangilanish va o'zgarishlarning muqarrar tarzda odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borishi, fuqarolik institatlari nufuzi va mavqeining oshishi, ularga ko'proq huquqlar berilishi jarayoni bilan uzviy bog'liqligini anglatadi.

Mamlakatimizning rivojlanishida milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan birga demokratik umuminsoniy tamoyillarga asoslanishi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanib, demokratik huquq va erkinliklari Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" – deb belgilab qo'yilgan.

Har bir jamiyatning ma'naviy imkoniyatlarini, odamlarning ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Demokratik jamiyatni esa umuminsoniy prinsiplarga asoslanmay barpo etib bo'lmaydi. Umuminsoniy qadriyat tushunchasi moddiy ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi va vorislik sodir bo'lib, yangi yangi qadriyatlarning shakllanishiga o'tishdan meros bo'lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj va taraqqiyot uchun asos bo'lgan qadriyatlarni kiradi. Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni ma'naviy o'zgartirishning muhim omili hisoblanib, ularni har bir kishi o'zining boyligiga aylantirgandagina milliy tamoyillar o'z kuchini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda jamiyat hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar natijasida jahon andozalariga mos keladigan adolatparvar davlat barpo yetish uchun asos bo'layotgan zamonaviy siyosiy tizim shakllandi va bu quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

1. O'zbekistonda jamiyatning siyosiy tizimining asosiy tamoyillaridan biri shundaki, davlat hokimiyatini idora etishning Prezidentlik boshqaruvi amal qilishi bilan birga, siyosiy tuzum hokimiyatni qonunchilik, ijro va sud hokimiyatlariga taqsimlash tamoyili asosida tuzilgan. Ma'lumki, mamlakatimiz oliy hokimiyat organlari davlat rahbari va ijro hokimiyatining boshlig'i – Prezident, qonunchilik organi – Oliy Majlis, oliy ijro organi – Vazirlar Mahkamasidan iboratdir. Alovida tarmoqlarni boshqarish markazlashgan tartibda ish ko'radigan vazirliliklar, davlat qo'mitalari va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari viloyat, Toshkent shahar, shaharlar va tumanlarning xalq deputatlari kengashlari va hokimliklardan iborat. O'zbekiston tarkibiga o'zining oliy hokimiyat organlari – Jo'qorg'i Kenges va Vazirlar Kengashiga yega bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi ham kiradi.

3. Sud hokimiyati tizimi qonunchilik va ijro hokimiyatidan mustaqil ish yuritadi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sud, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi, viloyat sndlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va xo'jalik sndlari ushbu tizimning tarkibiy qismlaridir.

4. Qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat olib borish Respublika Bosh prokurori va joylardagi unga bo'ysunuvchi prokurorlarning vazifasidir. Ijtimoiy huquqiy soha, nikoh va tug'ilganlik holatlari, oldi-sotdi va meros masalalari Adliya vazirligi, notarial idoralar va FHDYo tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat doirasiga kiradi.

Hozirgi davrdagi rivojlangan davlatlarning tajribasini, xalqimizning milliy davlatchilik an'analarini aks ettirgan bunday ijtimoiy-siyosiy voqelik va uning tuzilmalari davlatning adolatli siyosat yuritishini ta'minlashni tizimli tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Shu ma'noda hozirgi davrda g'oyaviy-mafkuraviy yangilanishga ehtiyoj sezildi, u zaruratga aylandi, bu ehtiyoj va zarurat o'z navbatida tafakkur o'zgarishlariga turtki beradi. Fikrlar rang-barangligini qaror toptirish – demokratik jamiyat barpo etishning asosiy sharti bo'lganligi bois, demokratiya davlat va jamiyat qurilishi, uni idora etishning eng maqbul shakli sifatida har bir fuqaroga o'z qarashlarini, fikrini erkin ifoda etish uchun sharoit yaratadi. Fikrlar rang-barangligi ma'naviy hayotimizga jon bag'ishlaydi, uning takomillashishiga yordam beradi. Ana shu asosda hayotimiz xilma-xil fikrlar bilan boyib boradi, turli g'oyalarni o'ziga doimiy singdirish imkoniga ega bo'ladi.

Hozirgi davr nuqtai nazaridan yondashganda bu, ong va tafakkurdagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq. Chunki, avvalo ong va tafakkurda fikr, g'oyadagi o'zgarish sodir bo'ladi.

Ikkinchidan, bu aniq maqsad va vazifalarda, belgilangan rejallarda o'zining ifodasini topadi.

Uchinchidan, oldingi siyosiy tizimda amal qilgan fikr, g'oya va mafkuraviy tamoyillar yangi tizim oldiga qo'ygan maqsadlarga mos kelmaydi.

To'rtinchidan, jamiyatda yangi fikr sohasidagi yangilanishlar bir zumda amalga oshmaydi. Buning uchun ong va tafakkurda ham o'tish davri talab etiladi. Bu esa o'z navbatida, hayotning qanday tamoyillarga asoslanishi, taraqqiyot va yangi jamiyat qurilishining istiqbolini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. –Toshkent: Sharq, 2003
3. Azizzxo'jaev A.A. Mustaqil O'zbekistonda davlat qurilishining dolzarb muammolar. // Muloqot, 2018, 3-son. –b. 13.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
5. https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/manaviyat/ma'naviyat%20asoslari%20
6. Муминов А.Г. ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК МУҲИТИНИИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ. XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMAT. 2024/4/24. 207-209 бетлар.

REZYUME:

Mazkur maqolada yuksak ma'naviyat va adolatparvarlik tamoyillarining Yangi O'zbekiston fuqarolik jamiyatni taraqqiyoti ta'siri hamda ularning namoyon bo'lish xususiyatlari atroficha yoritilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyat, ma'naviyat, adolatparvarlik, gumanizm, qonun ustuvorligi, strategiya, fuqarolik jamiyatni institutlari, demokratiya.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье подробно описано влияние высокой духовности и справедливости на развитие гражданского общества Нового Узбекистана и особенности их проявления.

Ключевые слова: гражданское общество, духовность, справедливость, гуманизм, верховенство закона, стратегия, институты гражданского общества, демократия.

RESUME:

In this article, the influence of the principles of high spirituality and justice on the development of the civil society of New Uzbekistan and the features of their manifestation are detailed.

Key words: civil society, spirituality, justice, humanism, rule of law, strategy, civil society institutions, democracy.

**ABU ALI IBN SINONING “AL-ISHORAT VA AT-TANBIHOT” ASARINING YETINCHI
FASLI “RUHNING TANADAN KO‘CHISHI” HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR**

Juraev Sh.S. -
TDSHU tayanch doktoranti

Abu Ali ibn Sino o‘zining “Al-Ishorat va at-Tanbihot” asarida keltirgan yetinchi faslning في “التجريدة” (Abstraksiyalash haqida) deb nomlanishi va bu fasl orqali ruhning tanadan ko‘chishi, shuningdek, abstract borliqning xususiyatlarni yoritib bergan. Faylasuf ruhning tanadan ko‘chishi, uning butun borliq bilan aralashib ketishi borasida o‘zining “Kitob ash-Shifo”, “Mabda’ va ma’ad” nomli asarlarida ham keng izohlagan bo‘lsa-da, yakuniy asari “Al-Ishorat va at-tanbihot” asarida izoh va dalillar bilan tasniflashga tuyassar bo‘lgan. Mazkur asarning yetinchi faslini tambeh bilan boshlarkan, shunday deydi:

تأملْ كيْف ابْتَدأ الْوِجُود مِن الأَشْرَف فَالْأَشْرَف، حَتَّى انتَهَى إِلَى الْهَبْولِي.

Yuksak borliqdan pastroq darajadagi borliq shakllari qanday paydo bo‘lganligi haqida mulohaza qil.

ثُمَّ عَاد مِنَ الْأَخْسَنْ فَالْأَخْسَنْ، إِلَى الْأَشْرَف فَالْأَشْرَف، حَتَّى بَلَغَ النَّفْسَ النَّاطِقَةَ، وَ الْعُقْلَ الْمُسْتَفَادَ.

So‘ngira past darajadagi borliq shakllari yuksak darajadagi borliq shakllariga qaytadi. Bu aqlli nafs va foydali aql shakllangunga qadar davom yetadi.

وَ لَمَّا كَانَتِ النَّفْسُ النَّاطِقَةُ الَّتِي هِي مَوْضِعَةُ مَا لِلنَّصُورِ الْمُعْقُولَةِ، غَيْرَ مُنْطَبِعَةٍ فِي جَسْمٍ تَقْوُمُ بِهِ، بَلْ إِنَّمَا هِيَ ذَاثُ اللَّهِ بِالْجَسْمِ.

Aql kasb yetgan oqil nafs o‘zi tegishli bo‘lgan jasadning xohishiga tobe bo‘lmaydi. Aksincha oqil nafs badanni yezgu maqsadlariga erishish vositasiga aylantiradi.

فَاسْتَحْالَةُ الْجَسْمِ عَنْ أَنْ يَكُونَ اللَّهُ لَهَا، وَ حَفَاظَ لِلْعَلَاقَةِ مَعَهَا بِالْمَوْتِ، لَا يَضْرِرُ جَوَاهِرَهَا، بَلْ يَكُونُ بِأَقْيَأِ بِمَا هُوَ مُسْقِدُ الْوِجُودِ مِنَ الْجَوَاهِرِ الْبَاقِيَةِ.

Inson o‘lim orqali nafsga vositachi bo‘lishdan qutuladi. Ammo bu holat nafsning javhari (mohiyati) ga zarar yetkazmaydi. Aksincha aql javharlarini idrok etgan nafs boqiy mavjud bo‘lib qolaveradi [1, 242].

Bu faslda, ikkita katta mavzuni qamrab olib: 1) Oltinchi faslning oxirida ishora qilingan borliq darajalarining kelib chiqishi va yuksalishi haqidagi fikrlar izohlangan bo‘lsa; 2) Ruhning tanadan ajralgandan so‘ng borliqda davom etishini isbotlagan.

Birinchi qismda Ibn Sino shunday deydi: Borliq o‘zidan kelib chiqqan ilk boshlang‘ich va o‘z holiga qaytguvchi yakuniy nuqtasi bordir. Yaratuvchi borliq zotidan keyin borliqning boshlang‘ich darajalari, ilk aqldan boshlanib, faol aql darajasiga yetadi. Aqlning darajasiga qarab ruhning darjasи shakllanadi. Bu daraja, eng yuksak samodan yer yuziga qadar davom etishi mumkin.

Ibn Sino mazkur asarining bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan ikkita bo‘limlarini – yettinchi va sakkizinchи bo‘limlarida (”في التجربة“) (Moddadan voz kechish) va unda baxt saodatga erishish uchun oriflarga xos xususiyatlarni yoritib bergan. Materiyadan xoli ulug‘ narsalar – ruhni tanadan ajralganidan keyin saqlab qolish, substansiyalarni anglaydigan ziyolilarda aql-idrokning tasdig‘i, Xudoning hamma narsani bilishi, dunyoda tartibning sababi sifatidagi bilimi borasidagi fikrlari bayon etilganligini ko‘rish mumkin. Sakkizinchи bo‘lim baxt saodatga bag‘ishlangan bo‘lib, asosan inson qalbining jismni tark yetgandan keyingi taqdiri bilan bog‘liq. Baxning toifalari haqidagi munozaraning bir qismi sifatida, Allohning saodati (birinchi sabab) va farishtalar – samoviy aqlar va samoviy ruhlar haqida boradi. Ibn Sinoning esxatologiyasi aslida boqiylikka to‘g‘ri keladi, chunki u dunyoning oxiri va uning alomatlari, qayta tirilish va qiyomat haqidagi iymon ustunlariga aralashmasdan, qalbning vafotidan keyingi taqdiriga qaratilgan. Ibn Sinogacha bo‘lgan davrda mutakallimlarning ko‘pchiligi tana o‘lganida ruh yo‘q bo‘lib ketadi va faqat umumiy tirilish paytidagina qayta hayotga qaytadi, deb hisoblashgan. Ibn Sino esa, “Ishorat va tanbihot” asarida “... ongli ruh tananing a’zosi emas va tana tufayli mavjud bo‘lmaydi, balki tana ruhning vositasi, quroli hisoblanadi. Ruh bilan aloqaning saqlovchisi va uning vositasi bo‘lgan tananing yo‘qolishi ruhning substansiyasiga zarar yetkazmaydi, balki ruh o‘zining asosi bo‘lgan abadiy substansiyalar tufayli mavjuddir” [2. 263], - deb e’tirof etgan.

Ibn Sino inson ruhining o'lmasligi haqidagi fikrini ilgari surgan holda, islom falsafasining mashshoyuna yo'nalishi sifatida Arastu va Platon qarashlarini ham izohlaydi. Ammo, platonchilarning ruhning oldindan mavjud bo'lganligi, ruhning boshqa jismlarga ko'chishi haqidagi ta'limotiga qo'shilmaydi. Ibn Sino "Kitob ash-Shifo" asarining psixologiya bo'limida ruhning buzilmasligini, uning nomoddiyligi, jismonsizligi asosida batafsil asoslab beradi. Bu nomoddiylikning o'zi ruhiy tushunchalar orqali asos sifatida ruh maqomiga murojaat qiluvchi beshta (burhoniy) dalil va uchta oddiy dalillar bilan isbotlagan [3, 338].

Ibn Sino yashagan davrda islom dinining aqidalariga binoan tanosuh ta'limoti tanqid qilinib, tan olinmas edi. Ibn Sino "Nurlanish" (As'haviya) asarida qayta tirilish va jonni tanadan tanaga o'tish masalasini ko'taradi. Bu masalani tahlil qilish uchun Ibn Sino ma'ad tushunchasini kiritadi. Ibn Sino ma'ad tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: "Ma'ad – bu narsalar va holatlarning dastlabki joyi bo'lib, narsalar va holatlar bu joydan ajralib keyin unga yana qaytib keladi" – deydi.

Ibn Sino ma'ad tushunchasining xilma – xil ta'riflarini ko'rib chiqadi. Bu masala bo'yicha O'rta asr mualliflari o'rtasida qarama – qarshi fikrlar paydo bo'ladi. Bir qism mualliflarning fikricha, ma'ad makoniga faqat tana qaytar ekan, boshqa bir qism mualliflar fikriga binoan, ma'adga ham tana, ham jon qaytadi degan nazariya ham mavjud yedi. Ibn Sino "Mabd'a va ma'ad" asarida dunyoning yaralishi va keyingi dunyo masalariga izoh berib o'tgan. Ibn Sino, deyarli barcha asarlarida jon, ruh, mumkin bo'lgan vujud kabi masalalarga doir asarlar yozgan. Jumladan, "Hayy ibn Yaqzon", "Qush" risolasi, "ash – Shifo" ning "Illohiyot" qismi, "Nurlanish" kabi asarlarida uchratish mumkin.

Tadqiqotimiz jarayonida "Al-Ishorat va at-tanbihot" asarining mantiq bo'limidagi uchinchi faslida aynan ushbu apodiktik dalillarning birinchisiga parallel holda keltiradi va uni izohlaydi. Ya'ni qalbning o'lmasligi, unga ko'ra samoviy aqlning substansiylar tufayli vujudga kelgan va ular bilan tana yordamisiz muloqat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ruh, uning belgilangan sabablari mavjud bo'lganligi sababli, tana o'lidan keyin ham o'z mavjudligini saqlab qoladi.

Ibn Sinoning ta'kidlashicha, aqliy va axloqiy yetuk inson mustaqil fikrlash malakasiga ega bo'lmos'i darkor. Mustaqil fikrlash malakasiga ega bo'lishini xohlagan har bir kishi – mantiq, ya'ni farosat ilmini yaxshi o'zlashtirib olishi zarur deydi. Ibn Sino ruh, jon haqidagi fikrlarini yangi aflatunchilarning ruh qandaydir jismiy a'zoga ega bo'lmasdan turib ham, hissiy ashyolarni qabul qilib olishi haqidagi ta'limotlarini asossiz hisoblagan holda aytadiki, agar hissiy idrok bu a'zolarsiz ruhning o'zida kechganda, deb yozadi mutafakkir, unda bu a'zolar behuda yaratilgan bo'lib chiqardi va ulardan hech qanday foyda bo'lmas edi [4, 264].

Olim fikricha, jon yurak bilan bog'langan bo'lib, u orqali miya bilan ham birlashgan. Yurakdan chiqadigan sezgi va harakatni unga uzatib boradigan a'zo, o'z ibtidosini miyada oladi. Hissiy nervlarning boshlang'ichi miyadir. Nervlar undan kelib chiqadi: miya-nerv tizimining markazidir. Shunday qilib, hissiy bilish fiziologik asoslarga yega.

Inson ruhi oliy (mukammal) va fikriy (aqliy)dir. Insonning o'ziga xos alohida xususiyati, hayvonlardan farqli o'laroq, - majhul tushunchalarni o'zlashtirish, aql bilan yetish mumkin bo'lgan har yoqlama narsalarni bilish va oqilona xatti-harakatdir. Aql – inson ruhining oliy kuchidir. Ibn Sino aqlni ruhning majhul (abstrakt) fikrlash va umumiylarni bilishga bo'lgan qobiliyatini sifatida tushunadi, idrokni esa – ruh kuchi sifatida tassavur qiladiki, uning vositasida bilim hosil qilinadi. Farosat (ventellekt) bo'lsa – ruhning tezda noma'lumdan ma'lum narsaga, o'rta istilohni sakrab, dastlabki zamindan xulosaga va baraks, o'tishga bo'lgan qobiliyatini bildiradi.

Bir shaxsga tegishli ruhning kuchi – bu yehtimoliy aqldir. Bunga qarshi o'laroq, faol aql, ayrim shaxs ruhidan ajratilgan hamma joyda mavjud asosdir. U barcha odamlarda yagona va umumiyyidir. Nazariy aqlning natijasi – umumiylarni tushunchalardir. Ular xususiy, muayyan qiyofalar ham ularni umumlashtirishdan chalg'ish tufayli tashkil topadilar. Nazariy bilimlarni kasb yetish shakli sifatida qiyos (sillogizm), ya'ni dastlabki zamindan xulosaga o'tish maydonga chiqadi. O'zining mantiqiy nazariyasida Ibn Sino Arastudan ilgarilab ketadi. Ammo u "Birinchi muallim"ning oddiy taqlidchisi yemas yedi.

"Mantiq shunday fanki, u inson aqlida mavjud bo'lgan ma'nolardan kasb etishni xohlovchi ma'nolarga o'tish vositasi bo'lib, bu o'tishga xos bo'lgan ma'nolar qoidasi va tartib hamda

shakllarning ko‘p turlarini bilishdir, negaki, ular ham, bular ham, va hatto ularga olib bormaydigan ko‘rinishdagilar ham to‘g‘ri xulosalar chiqarishga olib keladi”. Mantiq haqiqatni yolg‘ondan, ishonchlini ehtimol tutilgandan, bilimni shubhali fikrlardan farqlash uchun zarur. Uning yordamida biz tushunchalarni aniqlaymiz, hukmlar yuritamiz. Shuning uchun mantiq bilim haqidagi fandir.

Ibn Sino yozgan asarlarining ko‘pchiligi mantiq ilmi bilan boshlanib, isbot va dalillar argumentga xos sifat tarzida izohlangan. Ibn Sinoning yunon faylasufi Aristotel asarlarini o‘qishda katta yordami tekkan buyuk faylasuf Forobiy asarlarini “ko‘prik” vazifasini o‘tadi.

Aristotel inson deb ataluvchi tirik mavjudotni, bir tomongan, “butun va bo‘linmas”, deb talqin etgan bo‘lsa, ikkinchi tomongan, unga o‘ziga o‘xshaganlar bilan yashashga mahkum etilgan “Siyosiy mahluq” sifatida qaraydi. U o‘zining “Siyosat” nomli asarida insonga quyidagicha ta’rif beradi: “...inson o‘z tabiatiga ko‘ra siyosiy mavjudotdir” [5, 2], deydi.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, Aristotel qadimgi zamон sivilizatsiyasi sharoitidayoq insonning har tomonlama kamoloti haqida fikr yuritganiga guvoh bo‘lamiz. Inson barkamolligini ifodalovchi yuksak axloqiy poklik, tashqi va ichki go‘zallik, ijtimoiy – siyosiy yetuklik kabi fazilatlarni Aristotel bir ibora bilan “kalagakatiya”, deb atagan.

Inson o‘zining barcha ichki imkoniyatlarini rivojlantirib, olamdagи eng xayrixoh, odil mavjudotga aylangandagina “kalagakatiya”ga ega bo‘ladi. Insonda bunday holat barcha xayrixohliklar (ezguliklar) sintez bo‘lib jamlangandagina vujudga keladi. Xuddi shuning uchun ham Aristotel har bir jamiyat a‘zosida bunday qobiliyat va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini izlab topish o‘ta muhim ahamiyatga egadir, deb ta’kidlaydi.

Ibn Sino ham qadimgi yunon faylasufining fikrini maqullab, “inson hech qachon tanho, yakka o‘zi yashay olmaydi. U kundalik ehtiyojlarini qondirish, turli orzu – umidlarin ro‘yobga chiqarish uchun jamoa bo‘lib yashashga intiladi, deydi. Uning fikricha, turli jamoalarga birlashgan kishilar faoliyatini oqilona boshqarib turish, jamoaning barcha a‘zolarini foydali mehnatga safarbar qiluvchi maxsus qonunlar, yo‘l – yo‘riqlar, qoidalar bo‘lishi zarur. Har qanday jamiyat, har qanday davlat odamlar faoliyatiniadolatli qonun – qoidalarga asoslanib idora yetmog‘i darkor [6, 53], - deya ta’kidlaydi.

Tadqiqotni yakunlash chog‘ida shuni ta’kidlash lozimki, Ibn Sino ta’biri bilan aytganda “Vaqt bir og‘iz bo‘lsa men uning tiliman” degan jumlalarida har bir insonning jamiyatdagi o‘rniz izohlanganligini ko‘rish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Абу Али Ибн Сино. “Ал-Ишорат ва ат-Танbihот” (Насриддин ат-Тусий шархи З-бўлим) Қоҳира 1365. – Б 336
2. Абу Али ибн Сина. Избранные а. произведения. (Ишорат ва танbihот). М.: Наука, 1980, С-418
3. Ибраҳим Т., Ефремова Н.В. Ибн-Сина (Ависенна) Ал-Ишарат wa-t-tanbihat [он метапҳисисс]. Парт фоур. *Ориенталистика*. 2019;2(2):337-374. (Ин Русс.)
4. Абу Али Ибн Сино. “Ал-Ишорат ва ат-Танbihот” (Ҳасан Маликшаҳи таржимаси ва шархи) Техран 1988. – Б 479.
5. Абу Али ибн Сино. Логика // Книга указаний и наставлений. –М., 1965. С. 106.
6. Вахабова Б.А. Рукописи произведений Ибн Сины в собрании института востоковедения АН ЎзССР. – Т.: ФАН, 1982
7. Ибн Сино Киссалар, хикоялар, ривоятлар. (тўпловчи ва таржимон А.Ирисов), 1963. Б. 108.

REZYUME:

Mazkur maqolada olim, faylasuf va tabib Abu Ali ibn Sinoning umrining so‘ngi yillarida yozgan “Al-Ishorat va at-tanbihot” asarining yetinchi fasli haqida tarjima va mulohazalar keltirildi.

Tadqiqot jarayonida ayon bo‘ldiki, mazkur bo‘lim mavhum borliq turlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ruhning tanadan ko‘chishi bayon yetilgan. Ushbu munozarani yoritish jarayonida metafizikaga oid Ibn Sinoning kitoblaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: “Al-Isharat wa at-tanbihot”, abstract, mavhum borliq, ruh, jism, substansiya, Arastu, birinchi sabab, orif, baxt va saodat, samoviy jism, nafs va foydali aql.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье представлены перевод и комментарии к седьмой главе произведения «Аль-Ишарат ва ат-Танбихат» (Указания и напоминания), написанного выдающимся философом и врачом-ученым Абу Али Ибн Синой (Авиценной).

В ходе исследования данного вопроса стало ясно, что этот раздел посвящен абстрактным типам существования и описывает миграцию души из тела. Для освещения этой дискуссии использовались книги Ибн Сины по метафизике.

Ключевые слова: «Аль-Ишарат ва ат-Танбихат», абстрактное, абстрактное существование, дух, тело, субстанция, Аристотель, первопричина, мудрец, счастье и блаженство, небесное тело, самость и полезный разум.

RESUME:

This study presents the translation and comments about the seventh chapter of the work "Al-Isharat wa al-Tanbihat" written by the preeminent philosopher and physician-scientist Abu Ali Ibn Sina (Avicenna).

Throughout the investigation of this study, it became clear that this section is dedicated to abstract types of existence and describes the migration of the soul from the body. Ibn Sina's books on metaphysics were used to cover this discussion.

Keywords: "Al-Isharat wa at-tanbihat", abstract, abstract existence, spirit, body, substance, Aristotle, the first cause, sage, happiness and bliss, heavenly body, self and useful mind.

**AYOLLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKNI OLDINI OLİSH
BO'YICHA XALQARO HUQUQIY TAJRIBA**

Panjizoda H. Z. -
"Oila va hotin qizlar ilmiy-tadqiqot instituti"
tayanch doktaranti

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik doimo mavjud bo'lgan, faqt so'nggi yigirma yil ichida xalqaro hamjamiyat muammoni ta'kidlab, muntazam ravishda aniqlay boshladи. Bu tobora muammoning negizini olib berdi va bunga qarshi qonuniy choralar ko'riliши yo'lga qo'yildi.

Ayolni ijtimoiy himoya qilish, oilani mustahkamlash bo'yicha ko'rileyotgan chora-tadbirlar sharoitida oilaviy-maishiy sohadagi jinoiy zo'ravonlik muammosi nafaqat amaliy choralar ko'rish, balki oilaviy-maishiy sohadagi zo'ravonlikka qarshi chora-tadbirlarni takomillashtirishga ham muhtoj. Ayollarning jinoiy zo'ravonligining oldini olishga bilvosita yoki bevosa qaratilgan ma'muriy, jinoiy, jinoiy-ijroiya va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari normalarining samaradorligi masalasini o'rganish qiziqish uyg'otmoqda. Ular orasida jinoiy javobgarlikka tortish, jazo tayinlash va ijro etishda jinoyat sodir etish paytida ayolning jismoniy va ruhiy holatini hisobga olishni ta'minlaydigan normalar mavjud.[1,20]

Bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni tadqiq etishga qaratilgan bir necha nazariyalar mavjud. Kelishmovchilik nazariyasiga ko'ra, zo'ravonlik kelib chiqishiga qarashlarning qarama-qarshiligi sabab bo'ladi. **Leonard Berkovisning «Zulm sabablari, oqibati va nazorat»** nomli asarida oilaning ijtimoiy va madaniy asoslariga ahamiyat berib, «Qo'pollik yanada qo'polikka, tomonlarning aggressiv harakati ikkinchi tomonning aggressiv holatini keltirib chiqarishi» ta'kidlangan. Muallif fikriga ko'ra, ushbu nazariyada ayrim shaxslarda zo'ravonlik alomatlari paydo bo'lishining sabablari ifodalangan, lekin shunday holatlar borki bundan istisno. Masalan, muloyimlik bilan, aggressivlikni namoyon qilmasdan befarqlikda ayblanish va zo'ravonlikka uchrashlari ham mumkin.

Bugungi kunda maishiy zo'ravonlikni kamaytirish borasida jahon hamjamiyati tomonidan turli mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ularning aksariyati, xalqaro huquq normalarida, shuningdek, miqdoriy va sifat standartlarida o'z ifodasini topgan. Maishiy zo'ravonlikka uchragan xotinqizlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularda maishiy zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni himoya qilishda, asosan, huquqiy, iqtisodiy va psixologik jihatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi.[2,10]

Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha xalqaro huquqiy tajriba oilaviy zo'ravonlikni global darajada hal qilishga qaratilgan turli yondashuv va mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Ushbu kontekstda bir nechta asosiy jihatlarni hisobga olish kerak:

❖ Xalqaro doiralar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti va mintaqaviy tashkilotlar kabi xalqaro tashkilotlar oiladagi zo'ravonlikning oldini olish va hal qilishga qaratilgan ramkalar va konvensiyalarni ishlab chiqdilar. BMTning ayollarga nisbatan zo'ravonlikni yo'q qilish to'g'risidagi Deklaratsiyasi, ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini yo'q qilish to'g'risidagi Konvensiya (CEDAV) va Istanbul Konvensiyasi oiladagi zo'ravonlikni hal qiluvchi xalqaro hujjatlarga misoldir.

❖ Transchegaraviy hamkorlik: oiladagi zo'ravonlikning transmilliy xususiyatini hisobga olgan holda, xalqaro huquqiy tajriba ko'plab yurisdiksiyalarni qamrab oladigan ishlarni hal qilish uchun mamlakatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu ekstraditsiya jarayonlari, ma'lumot almashish va muvofiqlashtirilgan huquqiy harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

❖ Inson huquqlari istiqboli: oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha xalqaro huquqiy harakatlar ko'pincha shaxslarning, xususan, bunday zo'ravonlikdan nomutanosib ta'sir ko'rsatadigan ayollar va bolalarning inson huquqlarini ta'kidlaydi. BMTning inson huquqlari bo'yicha Kengashi va maxsus ma'ruzachilar kabi inson huquqlari mexanizmlari oiladagi zo'ravonlik masalalarini kuzatish va hisobot berishda muhim rol o'ynaydi.

❖ Salohiyatni oshirish va o‘qitish: oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha xalqaro huquqiy tajriba yuridik mutaxassislar, huquqni muhofaza qilish idoralari va sud tizimlarining oiladagi zo‘ravonlik holatlariga samarali javob berish. salohiyatini oshirish tashabbuslarini o‘z ichiga oladi. Bu tegishli qonunlar, protseduralar va yeng yaxshi amaliyotlar bo‘yicha treningni o‘z ichiga olishi mumkin.

❖ Targ‘ibot va xabardorlik: xalqaro huquqiy harakatlar, shuningdek, targ‘ibot va xabardorlikni oshirishga qaratilgan oiladagi zo‘ravonlik shu jumladan, ijtimoiy munosabatlarni o‘zgartirish, gender tengligini targ‘ib qilish va uy ichidagi zo‘ravonlikni davom yettiradigan madaniy me’yorlarga qarshi kurash kampaniyalari.[3]

Umuman olganda, oiladagi zo‘ravonlikning xalqaro huquqiy darajada oldini olish huquqiy asoslar, inson huquqlari masalalari, transchegaraviy hamkorlik, salohiyatni oshirish va advokatlikni o‘z ichiga olgan kompleks va muvofiqlashdirilgan yondashuvni o‘z ichiga oladi.

Buyuk Britaniyada oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish va hal qilish uchun keng qamrovli Qonunchilik bazasi mavjud. Bir necha asosiy qonunlar va tashabbuslar Buyuk Britaniyada ichki zo‘ravonlik oldini olish uchun hissa qo‘shadi:

❖ Oiladagi zo‘ravonlikni oshkor qilish sxemasi (Kler Qonuni): ushbu tashabbus shaxslarga potensial qurbanlarni himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashni maqsad qilib, sheriklarining oiladagi zo‘ravonlik tarixi to‘g‘risida ma’lumot olishga imkon beradi.

❖ Oiladagi zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi buyruqlar(Dvpolar): ushbu sud qarorlari jinoyatchining jabrlanuvchi bilan 28 kungacha bog‘lanishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali oiladagi zo‘ravonlik qurbanlarini zudlik bilan himoya qilish uchun mo‘ljallangan. DVPO-ni buzish jinoyat hisoblanadi.

❖ Majburiy hibsga olish siyosati: ba’zi hollarda buyuk Britaniyadagi politsiya, agar ular oiladagi zo‘ravonlik sodir bo‘lganiga ishonish uchun asoslarga yega bo‘lsa, hibsga olishlari shart.

❖ Yuridik yordam va qo‘llab-quvvatlash xizmatlari: yuridik yordam oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirgan shaxslarga, masalan, buyruqlar yoki bolalarni tartibga solish buyruqlari kabi vositalardan foydalanishga yordam berish uchun mavjud. Qo‘llab-quvvatlash xizmatlari, shu jumladan maslahat va advokatlik ham mavjud.

❖ Ko‘p Agentlik, xavfni baholash konferensiylari (MARACs): ular politsiya, sog‘liqni saqlash mutaxassislarini va ijtimoiy xizmatlar kabi turli idoralarni birlashtirib, oiladagi zo‘ravonlik xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar uchun xavfsizlik rejalarini tuzadilar.

❖ Profilaktika choralar: buyuk Britaniya hukumati turli xil profilaktika choralarini, shu jumladan xabardorlik kampaniyalarini, ta’lim dasturlarini va politsiya xodimlari, tibbiyot xodimlari va o‘qituvchilar kabi mutaxassislarni oiladagi zo‘ravonlikni samarali tan olish va ularga javob berish uchun o‘qitishni amalga oshirdi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu huquqiy mexanizmlar huquqni muhofaza qilish, sud tizimi va jabrlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlaridagi doimiy harakatlar bilan bir qatorda buyuk Britaniyada oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish va hal qilishga qaratilgan murakkab va rivojlanayotgan asosni tashkil yetadi. Bundan tashqari, turli tashkilotlar va targ‘ibot guruhlari xabardorlikni oshirish va oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish va ularga qarshi kurashish bilan bog‘liq davlat siyosatini shakllantirish bo‘yicha ish olib boradi.

Oiladagi bosim va zo‘ravonlikni samarali hal qilish uchun huquqiy, ijtimoiy va ta’lim komponentlarini o‘z ichiga olgan keng qamrovli tizim yaratilishi kerak. Bunday tizimni yaratish bo‘yicha amaliy takliflarni beramiz:

1. Huquqiy asos va ijro:

- Oilaviy bosim va zo‘ravonlikka qaratilgan, aniq ta’riflar va huquqbazarlar uchun qattiq jazolar bilan mustahkam qonunlarni amalga oshirish

- Huquqni muhofaza qilish organlarining oiladagi bosim va zo‘ravonlik holatlarini sezgir va samarali hal qilish uchun yetarli darajada o‘qitilishini ta’minlash.

- Ishlarni samarali ko‘rib chiqish uchun sud tizimida ixtisoslashtirilgan oilaviy zo‘ravonlik sudlarini yoki maxsus bo‘linmalarni tashkil etish.

2. Qo‘llab-Quvvatlash Xizmatlari:

- Jabrlanganlar uchun qulay va maxfiy yordam xizmatlarini, shu jumladan boshpana, maslahat, yuridik yordam va tibbiy yordamni taqdim etish.

- Jinoyatchilar va qurbanlar uchun reabilitatsiya dasturlarini taklif qilish, xulq-atvor namunalarini hal qilish va terapevtik aralashuvlarni ta’minalash.

3. Xabardorlik va ta’lim:

- Oilalar ichidagi sog‘lom munosabatlар va hurmat muhimligini ta’kidlab, oilaviy bosim va zo‘ravonlikka nisbatan ijtimoiy munosabatni o‘zgartirish uchun jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalarini o‘tkazish.

- Sog‘lom munosabatlар va nizolarni hal qilish bo‘yicha ta’limni yoshligidan boshlab maktab o‘quv dasturlariga kiritish.

4. Yerta Aralashuv:

- Oilaviy bosim va zo‘ravonlik holatlarini dastlabki bosqichda, masalan, jamoatchilik bilan aloqalar va ijtimoiy xizmatlar orqali aniqlaydigan va aralashadigan dasturlarni ishlab chiqish.

- Yuqori darajadagi bosim yoki nizolarni boshdan kechirayotgan oilalarga vositachilik va nizolarni hal qilish xizmatlarini taklif etish.

5. Idoralararo Hamkorlik:

- Jabrlangan shaxslar va oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini yaratish uchun huquqni muhofaza qilish organlari, ijtimoiy xizmatlar, sog‘liqni saqlash xodimlari, ta’lim muassasalari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida muvofiqlashtirilgan sa’y-harakatlarni yo‘lga qo‘yish.

6. Madaniy Sezgirlik:

- Oilaviy bosim va zo‘ravonlikni turli xil madaniy me’yorlar doirasida hal qilish, qo‘llab-quvvatlash xizmatlari va aralashuvlari madaniy jihatdan sezgir va inklyuziv bo‘lishini ta’minalash.

7. Ma’lumotlarni yig‘ish va tadqiq qilish:

- Muammoning ko‘lamini yaxshiroq tushunish va dalillarga asoslangan siyosat va dasturlarni ishlab chiqish to‘g‘risida ma’lumot berish uchun oiladagi bosim va zo‘ravonlik to‘g‘risida keng qamrovli ma’lumotlarni to‘plang.

- Bosim va zo‘ravonlikdan aziyat chekkan oilalar uchun xavf omillarini, samarali aralashuvlarni va uzoq muddatli natijalarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

8. Imkoniyatlarni kengaytirish va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash:

- Moliyaviy jihatdan o‘z zo‘ravonlariga qaram bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish dasturlarini taqdim etish, ularga mustaqillik izlash va haqoratli vaziyatlardan qochish imkonini beradi.

Bunday tizimni yaratish oilaviy bosim va zo‘ravonlikning huquqiy, ijtimoiy va madaniy o‘lchovlarini ko‘rib chiqadigan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Bu mazmunli o‘zgarishlarni amalga oshirish va ushbu masalalardan zarar ko‘rganlarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar, jamoat rahbarlari va shaxslarni jalb qilishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR:

- Гришко Наталья Александровна. Преступное насилие, совершающееся женщинами в семейно-бытовой сфере тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.08, кандидат наук
- Зияева Холида Омонкул Қизи. Майший зўравонликка учраган хотин-қизларни ижтимоий химоялаш самарадорлигини ошириш механизmlари. 22.00.03 – Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
- “The forms of domestic violence why women don’t leave”. <https://www.synergyservices.org/get-involved/resources/The-Forms-of-Domestic-Violence--Why-Women-Dont-Leave>

REZYUME:

Ushbu maqolada ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari ko'rsatilgan. Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha xalqaro huquqiy tajriba oilaviy zo'ravonlikni global darajada hal qilishga qaratilgan turli yondashuv va mexanizmlar yoritilgan. Amerika Qo'shma Shtatlarda oiladagi zo'ravonlikning oldini olish va hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, Buyuk Britaniyada ichki zo'ravonlikni oldini olish uchun amaliy ishlar yoritilgan, hamda maqola so'ngida xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Ayollar, tazyiq, zo'ravonlik, oila, bola, huquq, ta'lim, agressivlik, maishiy zo'ravonlik, ijtimoiy himoya.

РЕЗЮМЕ:

В статье описаны случаи насилия в отношении женщин, а также международная правовая практика профилактики насилия в семье, различные подходы и механизмы, направленные на решение проблемы насилия в семье на глобальном уровне. Показаны меры по предотвращению и борьбе с домашним насилием в Соединенных Штатах Америки. Освещается практическая работа по предотвращению домашнего насилия в Великобритании, а также в конце статьи приводятся выводы и предложения.

Ключевые слова: женщины, домогательства, насилие, семья, ребенок, право, образование, агрессивность, домашнее насилие, социальная защита.

RESUME:

This article lists cases of violence against women. International legal experience in the prevention of domestic violence various approaches and mechanisms aimed at solving domestic violence on a global level. United States measures aimed at the prevention and resolution of domestic violence. Practical work to prevent domestic violence in the UK was covered, and conclusions and suggestions were made at the end of the article.

Keywords: women, harassment, abuse, Family, Child, Law, education, aggressiveness, domestic violence, social protection..

**QADIMGI HINDISTONDA INSON HAQIDAGI
BILIMLARNING PAYDO BO'LISHI**

Pulatov Sh.N. -

“ALFRAGANUS UNIVERSITY”, kafedra mudiri,
falsafa fanlari bo'yicha PhD, dotsent v.b.

Insonparvarlik g'oyalari shakllanishi uzoq o'tmishdan davom etib kelayotgan ta'limot bo'lib, bugungi kunda bu sohani o'rganish yanada muhim bo'lib bormoqda. Gumanizm so'ziga bir qancha ta'riflar berilgan. Hind mutafakkiri Tagor shunday deb ta'kidlaydi: "Insoniyatning asl mohiyati haqidagi savolni muhokama qilish uchun insonga asrlar kerak bo'lган, u hali ham aniq xulosaga kelmagan".

Hindistonning qadimgi falsafiy an'analari insonning ma'naviy tabiatiga ishongan. Inson tabiatini anglash Xudo odamda borligiga va inson bilan Xudo o'rtasida birlik mavjudligiga ishonish natijasi edi. Shuningdek, inson hayotning pirovard maqsadini karma (कर्म) va kishanlardan xalos bo'lish, shaxs va jamiyatning axloqiy rivojlanishi hamda insoniyatning asosiy birligini anglash, deb tushuntirilgan.

Vedalarga ko'ra, butun dunyo ijodiy kuchning ilohiy namoyon bo'lishidir. Mavjud bo'lган ijodiy kosmik mavjudlikning to'liq surati Rigvedaning Vedik madhiyasida to'rtta kasta bilan ifodalanadi, jumladan: Advaita ta'limoti inson qalbi va Brahmanni bir xil deb hisoblaydi. Uning so'zlariga ko'ra, xuddi shu ilohiy ruh har bir insonda mavjud.

Inson vazifasini bajarish va ilohiy rejalahtiruvchining xohishini bajarish uchun tug'iladi. O'zganbing burchi buzilishi dunyodagi muqaddas tartib buzilishiga olib keladi. Upanishadlar insonni tana, ong va o'zlik kombinatsiyasi sifatida ko'radilar. Ruh yoki shaxsning o'zligi insonning asl mohiyatini aks yettiradi. Shaxsiy johillik bilan bog'liq bo'lган yuqori men yoki Brahman, jiva yoki individual o'zlik deb ataladi. Chandogya Upanishad insonning o'ziga, inson tabiatiga yaxshi ta'rif beradi: "Yomonlikdan, qarilikdan, o'limdan, qayg'udan, ochlik va tashnalikdan xoli hamda izlanishi kerak bo'lган va tushunishga tayyor bo'lган Ruh (Atman, आत्मन)dir".

Gitada inson psixologiyasini uchta guna (गुण-usul)ga ega, deb hisoblaydi, ular - sattva (yaxshilik), rajalar (his-tuyg'ular), tamalar (zulmat, johillik yoki illyuziya). Inson tabiatini bitta gunaning ustunligi bilan belgilanadi. Amalda, bu gunalar bir-biriga bog'liq. Tamalar va rajalar hukmron bo'lган shaxslar, o'z navbatida, animistik va xudbin hayot kechirayotgan bo'lsalar, sattva hukmron bo'lган insonlar haqiqat va yezgulik yo'lidan boradilar.

Mahobharatada yer yuzida insondan yuqori mavjudot yo'qligi aytildi. Xristianlik bizga inson – dunyo yaratilishining so'nggi kunida yaratilganligini aytadi. Xuddi shu tarzda, yahudiy dinida odamning Xudo bilan munosabati ko'plab oyatlarda keltirilgan. Islomda inson kuchining buyukligiga ishonadi, inson o'zida tafakkur va hissiyotni birlashtirgan, deb hisoblaydi. Gandhi inson haqida qarashlari shakllanishida shunday diniy qarashlar ta'sirini anglaydi. Inson ham, hayvonlar ham ruhiy kuchlar aralashmasidir, shuning uchun unda hayvonot xususiyatlarining mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. U shunday dedi: "Bizning har birimiz yaxshilik va yomonlik aralashmasimiz".

Jaynizm ham, buddizm ham Vedalar hukmronligi ta'sirida vujudga kelgan. Ikkisi ham qullik va azob-uqubatlardan xalos bo'lish g'oyasini ilgari surgan. Jaynizmga ko'ra, ruhda mavjud bo'lган g'azab, mag'rurlik, oshiqlik va ochko'zlik kabi ehtiroslar qaramlikka sabab bo'ladi. Yana inson qalbi cheksizlik yoki ilohiylikka erishish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tuyg'ular johilligimizdan kelib chiqadi. Haqiqat to'g'risidagi to'g'ri bilim ozodlikka olib keladi. Buddizmga ko'ra, inson johillik va karma mahsulidir. Jaynizm singari buddizm ham azob-uqubatlar sababini johillik, deb hisoblaydi. Shuning uchun inson nirvanaga, ya'ni azob chekmaydigan holatga erishish uchun tinimsiz ishlashi kerak. Insonparvarlik Buddha va Mahatma Gandhi qarashlarida katta ahamiyat kasb yetadi. Buddha va Mahatma Gandhi boshqa davrlarda yashagan bo'lsalarda, Ahimsa yoki zo'ravonlik

qilmaslikni, tinchlik va rahmdillikni targ‘ib qilganlar, shuningdek, odamlar ruhiyatini ozod qilishga intilgan, ularni yaxshiroq va yangi hayotga nisbatan ilhomlantirgan edi.

Qadimgi Hindiston falsafasi – Hindiston hududida topilgan eng qadimgi yozma yodgorliklarga asoslanadigan antik falsafa shaklidir. Uning rivoji mutaxassis olimlar tomonidan, asosan uch bosqichga bo‘lib o‘rganiladi. 1-bosqich miloddan avvalgi XV-V-asrlarni o‘z ichiga olgan vedalar davri; 2-bosqich – V asrdan to milodiy X asrgacha – mumtoz davr; 3 bosqich – X asr o‘rtalarida keng rivoj topgan hinduviylik ta’limoti hukmronlik qilgan davrdir. Hindiston falsafiy ta’limotining rivoji o‘zining murakkab harakteri va ma’lum bir tizimga solinmaganligi bilan ham boshqa milliy falsafiy ta’limotlardan ajralib turadi.

Qadimgi hind jamiyatining hayoti haqida ilk manba deyarli to‘qqiz asr davomida (miloddan avvalgi 1500-600 yy.) tuzilgan Vedalar hisoblanadi. Shuning uchun ham hindlar tarixida miloddan avvalgi ikki ming yillik o‘rtalarigacha bo‘lgan tarixiy davr “Veda” davri deb ataladi. Ilk Vedalar adabiyoti oriyalar yaratgan og‘zaki ijod bo‘lib, avloddan avlodga “shruti” (eshitilgan) yoki “smiriti” (eslab qolgan) deb nomlangan mantralardan iboratdir. Mantralar to‘rt to‘plamdan iborat bo‘lib, “samxit” lar sifatida mavjud bo‘lgan. Keyinchalik ular asosida vedalar tuzilgan. Demak, Vedalar: 1. Samxitlar (Rigveda, Samaveda, Yajurveda, Atxarvaveda); 2. Braxmanlar (Vedaning nasriy qismi hisoblanadi); 3. Aranyaklar (tarki dunyo qiluvchi qalandarlarga taalluqli to‘plamdir); 4. Upanishadlar (“Veda”ning oxirgi qismi) ni o‘z ichiga oladi. “Veda” bu-bilinmagan narsalarni bilishdir. Mazkur Vedalar Hind halqining iqtisodiy yuksalishi va jamiyatning tarkibi, borliq to‘g‘risidagi epistemologik va esxotologik bilimlarini o‘z ichiga qamrab olgan.

“Veda” (bilim) – o‘sha davrdan qolgan muqaddas matnlar to‘plami bo‘lib, bir necha qismidan iborat. Shundan bizga Rigveda (madhiyalar, duolar to‘plami), Samaveda (qo‘schiqlar), Yajurveda (qurbanlik qilish yo’llari), va Atxarvaveda (sehrli fikrlar to‘plami) kabilar etib kelgan. Ular diniy mohiyatga ega bo‘lgan yozma matnlar bo‘lib, nafaqat o‘z davri ma’naviy hayoti haqida yozma axborot manbai, balki jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy tuzilishi, olamni bilish darajasi va boshqalar haqida ham qator ma’lumotlar beradi. Vedalarda dunyoning paydo bo‘lishi, koinot, tabiat jarayonlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, substansiya muammosi, insonda ruhning mavjudligi, dunyoning abadiyligi va individning vaqtinchaligi ifodalanadi.

Vedalarning asosiy falsafiy qismi upanishadlardir. Upanishadlar asosan diniy-falsafiy ta’limotlarga oid risolalar bo‘lib, ularda falsafiy fikr jarayonlarining turli hil ko‘rinishlari ifodalangan, falsafaning mavzu va muammolariga keng o‘rin berilgan. Undagi Karma qonuniga ko‘ra, har bir inson yer yuzidagi hatti-xarakatlari, qilmishiga yarasha taqdirlanadi. Tanosuh-jonning ko‘chib yurishi haqidagi ta’limot shu qonunga asoslangan. Upanishadlar, Hindistonda keyingi asrlarda vujudga kelgan va rivojlangan falsafiy fikrlarni tushunishda muhim rol o‘ynadi.

Hind diyoridagi turli falsafiy fikrlarning ilk kurtaklarini qadimgi hind eposi “Mahabhorat” va “Ramayana” da ham uchratish mumkin. “Mahabhorat”ning alohida bobি “Bhagavatgita”da asosan falsafiy muammolar haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Javoharlal Neruning ta’kidlashicha, “Bhagavatgita” bir necha asrlar davomida mutafakkirlar va falsafiy yo’nalishlar uchun g‘oyaviy manba bo‘lib keldi.

Olimlar ta’kidicha, Hind falsafasi G‘arb falsafasidan o‘xhashligi bo‘lmagan ko‘plab o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon yetadi. Ulardan biri shundan iboratki, falsafa va din o‘rtasidagi aniq chegara hind falsafasi uchun g‘arb falsafasi singari xarakterli emas. Afsona bilan logos, so‘z bilan ish o‘rtasidagi farq ham Hindistonda Yevropadagiga nisbatan boshqacha tarzda qo‘yilgan. G‘arb olimlarining fikricha, Hind madaniyatida falsafaning rolini tushunish uchun uning tarixiy va diniy asoslari bilan tanishish zarur bo‘ladi. Xususan, Beruniy mazkur fikrni o‘z davridayoq anglab yetgan hamda har bir falsafiy ta’limot haqida gapirishdan oldin, unga oid barcha manbalar bilan bat afsil tanishib chiqqanligini va hind falsafasining strukturasi, maqsadi, vazifasi, uning dialektik tabiatini haqidagi fikrlarni o‘zining “Hindiston” asarida bat afsil ko‘rsatgan.

Hindistonda uzoq asrlardan beri yashab kelayotgan barcha falsafiy yo’nalishlarni ikki guruhga bo‘lish odat tusiga kirgan. Veda va upanishadlarning asosiy talab va tamoyillarini o‘ziga dasturulamal

- asos deb hisoblovchi rasmiy falsafiy tizimga mimansa, vedanta, yoga, sankhya, Niyaya va vaysheshika, norasmiy falsafa tizimiga esa lokayat-charvaka, buddaviylik va jaynizm kabilar kiradi.

Memansa va vedanta Xudo g‘oyasini ulug‘lab, unda dunyoning ma’naviy asosi mujassamlashgan, deb tushunganlar. Sankhya (sanash, hisoblash) maktabi mil.av. VII-VI asrlarda shakllangan, uning asoschisi Kapila bo‘lib, asosiy asari- “Sankhya sutra” (“Sankhya hikmatlari”) bizgacha etib kelmagan. Sankhya tarafdarlarining fikricha, ruhiy javhar (purushi) bilan birga moddiy javhar (prakriti) mavjud bo‘lib, tabiatdagi barcha narsalarning asosi prakritidir. Prakriti jism, tana, hislar, empirik aqlning sababchisidir. Ruhiy javhar mustaqildir. Purushi va prakritining bir-biri bilan qo‘silishi natijasida olam paydo bo‘ladi.

Sankhyadan farqlanadigan Niyaya (mantiq) maktabi vakillari asosan mantiqiy muammolar, to‘g‘ri fikr yuritish va hodisalarni aniq ravshan bilish kabi masalalar bilan mashg‘ul bo‘lgan. Uning asoschisi mil.av. III asrda yashagan Akshapada Gotama hisoblanadi. Ko‘pkina hind tadqiqotchilar uni “Bahslashish to‘g‘risidagi fan” deb qabul qiladilar. Niyaya bilish nazariyasida sensualistik nazariya tarafdiridir. Bu falsafiy ta’limot ko‘p xollarda vaysheshikaga ergashib undan atomistik nazariyani qabul qilgan. Vaysheshika esa o‘z navbatida Niyaya tarkibida ishlab chiqilgan mantiqiy usul va vositalarni qabul qilgan. Shuning uchun hind falsafasi tarixida bu ikkala falsafiy ta’limot “nyal-vaysheshika maktabi” deb ataladi. Vaysheshika veda va upanishadlarni shaklan cheklab o‘tmagan bo‘lsa-da, o‘ziga xos falsafiy maktabdir. U “vishesha” so‘zidan olingan bo‘lib, “xususiyat” degan ma’noni anglatadi, o‘z oldiga olam asosini tashkil yetuvchi javarlarni izohlab berishni maqsad qilib qo‘yadi.

Vaysheshikaga milodning birinchi asrida yashagan Kanada asos solgan. Kanadaning “Kanada-sutra” asari bizgacha etib kelmagan. Yoga falsafa maktabiga kelsak, u an‘anaviy veda va upanishadlarning nazariy tamoyillariga tayanadi va ijtimoiy falsafiy hodisa sifatida sankhyaga yaqin turadi. Yoga asoschisi Patanjali bo‘lib undan “Yoga sutra” (“Patanjali sutra”) asari qolgan. Keyinchalik, Vyasa ismli faylasuf Patanjali asariga batafsil sharhlar yozgan. Yoganing ma’nosи “qo‘silish” bo‘lib, muayyan qonun-qoidalar dasturiga amal qilish orqali bajarilgan jismoniy harakatlar tufayli Xudo bilan birlashish, qo‘silishni bildiradi. Bu falsafiy maktab tarafdarlarining ta’kidlashicha olam hech qachon paydo qilingan yemas, u o‘zining riojlanish va o‘zgarish manbaiga egadir.

Qadimgi Hindiston falsafasining tarkibiy qismi bo‘lgan Lokayata-charvaka mil.av. VIII-II asrlarda shakllangan falsafiy oqimlardan biridir. Uning namoyondalari yaratgan asarlar bizgacha etib kelmagan. Lokayata-charvaka falsafasi vakillari, ularning qarashlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bu oqim muxoliflari asarlarida qisman saqlangan. Tadqiqotchilar orasida Lokayata-charvaka atamasi to‘g‘risida turli qarashlar mavjud. Masalan, hind faylasufi D.Chattopodxyaning ta’kidlashicha, Lokayata-halq falsafasi yoki dunyoviy falsafa ma’nosini anglatadi. Ba’zi falsafiy adabiyotlarda charvaka-to‘rt so‘z, to‘rt unsur sifatida talqin qilingan. Bu falsafiy maktab namoyondalari moddiy olam negizini to‘rt unsur tashkil yetadi, deb hisoblaganlari uchun ularga “Charvaka” nomi berilgan, deyiladi. Mazkur g‘oya tarafdarlari braxmanizm ta’limotiga qarshi chiqqanlar. Ularning ta’kidlashicha, olam to‘rt unsur-olov, havo, suv va tuproq birligidan tashkil topadi. Tarkiban inson zoti ham bu koidadan istisno emas, u tana va ruh (jon) birligidir. Toki u tirik ekan, to‘rt unsur birligini o‘zida mujassamlashtirilgan bo‘ladi. Inson yo‘qlikdan makon topar ekan, undagi olov unsuri olovga, tuproq unsuri tuproqqa, havo unsuri havoga suv unsuri suvgaga aylanadi. Insondagi sezgilar falakka ko‘tariladi. Har bir inson bir marta yashaydi. U o‘lgandan so‘ng donishmand yoki nodon bo‘ladimi, bundan qatiy nazar, qaytadan tirilmaydi, yo‘qlikdan o‘rin oladi.

ADABIYOTLAR:

1. Фалсафа Энциклопедик лугат. ЎзР ФА, И.Мўминов номидаги фалсафа ва хукук институти. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Давлат илмий нашриёти, 2010. – Б. 84.
2. Bhattacharyya N. Gandhi’s Concept of Individual and Society. Diss. ...PhD. Philosophy science. Assam, 2006. – P. 103.

3. Devi K.D. Gandhi's Understanding of Human Nature and Its Influence on his Philosophy. Diss. ...PhD. Philosophy science. Manipur, 2009. – P. 12.
4. Валиев, Л. А., & Раматов, Ж. С. (2023). АУРОБИНДО ГХОШНИНГ ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРИДА ИНСОН МАСАЛАСИНИНГ ТАХЛИЛИ. Ориентал ренессанс: Инновативе, едусатионал, натурал сисиенсес, 3(6), 1058-1063.

REZYUME:

Sharqda ham, G‘arbda ham hozirgi insoniyatga ta’sir ko‘ratayotgan va u uchun kurashayotgan ta’limotlardan biri bu Gumanizmdur. Gumanizm insonni olamning markazida va hamma narsaning o‘lchovi deb hisoblaydi. Bu insonning o‘ziga xos imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan dastur bo‘lib, inson farovonligi va baxt-saodatini rivojlantirishga qaratilgan ta’limotdir.

Kalit so‘zlar: Hindiston, Inson, gumanizm, insonparvarlik, veda, upanishada, sankhya, bilim, tafakkur.

РЕЗЮМЕ:

Гуманизм на Востоке, так и на Западе считает человека центром мира и мерой всего. Это программа, направленная на реализацию уникального потенциала человека, и это учение, направленное на развитие человеческого благополучия и счастья.

Ключевые слова: Индия, Человек, гуманизм, гуманизм, Веды, Упанишады, Санкхья, знание, мышление.

RESUME:

Humanism is one of the teachings that influences and fights for modern humanities both in the East and in the West. Humanism considers man to be the center of the world and the measure of everything. It is a program aimed at realizing the unique potential of man and a teaching aimed at developing human well-being and happiness.

Key words: India, human, humanism, humanism, vedas, upanishads, sankhya, knowledge, thinking.

TALABA YOSHLAR KASBIY SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

***Yunusov X. –
TDTU erkin tadqiqotchisi***

Kasb tanlash muammosi keng tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi, uning ijtimoiy-falsafiy va sotsiopsixologik asoslarini o'rganish, topish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev 2024 yilning 5 fevral kunidagi "2024 yilda ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirishlishi lozim bo'lgan ustivor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi" da "Professional va Oliy ta'limda kasbiy ko'nikmalarini belgilash va ularni baholash bo'yicha yangi tizim joriy etiliishi" haqida so'z yuritib ushbu islohatlaring zamirida bakalavriat tizimida bilim olayotgan o'ynlab talaba yo'nalishlar mehnat bozori talablariga javob bermasligi aytib o'tib, professional va oliy ta'limda kasbiy ko'nikmalarini belgilash va ularni baholash bo'yicha yangi tizim joriy etilib, ish beruvchilarda katta ehtiyoj, talabalarda esa salohiyat va xohish borligi, shuning uchun kollej-texnikumlar va oliygochlarni ish beruvchilar bilan uzviy bog'laydigan tizim yaratilishini ta'kidlab, Oliy ta'lim tizimi zamonaviy konstruktur, texnolog, arxitektor, muhandis, energetik kabi yehtiyoj yuqori kasblar bo'yicha mutaxassislar taylorlaydigan muhit olib kirishga mas'ul bo'ylishini ta'kidlab o'tdi.

Kasbni tanlash boshda stixiyali kechishi, yillar davomida, har kuni takrorlangan faoliyat turi sifatida, umr mazmuniga aylanishi mumkin. Anglangan kasb kishini mulohazali, fikrlovchi, umri va hunari haqida tajribalar to'plagan shaxsga aylantiradi. K.Yung "fikrovchi tip" to'g'risida gapirganida ushbu jihatning professiogrammga kirishini nazarda tutgan. "Sezuvchi tip" va "his qiluvchi tip" larga badiiy ijod ahli, ayniqsa yozuvchi, kompozitor, akter, musavvirlarni kiritish mumkin. Ulardagi nozik his-tuyg'ular yon-atrofni, hodisalarni alohida psixologik mexanizmlar bilan anglashga imkon beradi. Shunday his-tuyg'ularga ega kishilar o'z kasbida betakror narsalar yaratadi, boshqalar sezmag'an, his qilmagan hodisalarni payqaydi, tasvirlaydi, kuylaydi. Sezish, his qilish barcha kishilarga xos, demak, ular kasbiy shakllanishida faqat ratsionalga tayanib qolmaydi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, professiogramma besh tipga bo'linadi: 1) "Inson - Inson" tipidagi kasb;

- 2) "Inson - Texnika" tipidagi kasb;
- 3) "Inson - Belgi" tipidagi kasb;
- 4) "Inson Badiiy obraz" tipidagi kasb;

5) "Inson - Tabiat" tipidagi kasb. "Inson - Inson" modelidagi kasbga tarbiya, boshqarish, yuridik va madaniy xizmatlar ko'rsatish sohalariga oid kasblar, faoliyat turlari kiradi. Ularda inson omili, insonlarning bir birlari bilan muloqotlari, ijtimoiy funksiyalarini boshqa sub'ektlar orqali bajarishi, ong, tasavvur, dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan faoliyat xususiyatlari muhim o'rinda turadi. Professiogrammda inson omiliga qaratilgan jihatlar, shaxsning intellektual va psixologik potensialidan foydalanish imkoniyatlari, bu imkoniyatlarning ijtimoiy mehnatga, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish jarayonlariga ta'siri nazarda tutiladi va pirovard maqsad sifatida qaraladi. "Inson - Inson" modelidagi kasbda faqat ma'naviy boyliklar emas, mehnat faoliyatining pirovard natijasi sifatida moddiy boyliklar yaratilishi ham nazarda tutiladi. Masalan, moddiy boyliklar yaratishga qaratilgan ishlab chiqarish jarayoni inson omilisiz, boshqarish jarayonisiz amalga oshirilmaydi. "Inson - Texnika" modelidagi kasblar, faoliyat turlari axborotlashish va mexanizatsiyalashish davrining natijasi hisoblanadi. Keyingi asrlarda ro'y bergan ilmiy texnologik o'zgarishlar, ko'l mehnatining mexanizatsiyalashishi va avtomatlashishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga turli, yangi- yangi kasblarni, faoliyat turlarini olib kirdi. Bugun ushbu modelidagi kasblar ayniqsa yoshlarni o'ziga, intellektual mehnat jarayonlariga jalb etmoqda. Masalan, keyingi yuz yil ichida ilmiy- texnik inqolob ta'sirida har yili yangi 1 700 dan ziyod kasb- kor, faoliyat turlari paydo bo'lmoqda, ularning aksariyati texnika, texnologik jarayonlar va kompyuterlashish, robotlashish bilan bog'liqdir. "Inson - Belgi" va "Inson - badiiy obraz" tipidagi kasb modellariga simvollar, obrazlar, belgilar va ramzlar bilan ishlovchi mutaxassisliklar kiradi. Yozuvchilar,

musavvirlar, badiiy-estetik faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar, alohida faoliyat turlari egalari sifatida, ijtimoiy hayotda alohida o‘rin tutadi.

Erkin badiiy-estetik ijod mazkur kasbni maftunkor qiladi. Shuning uchun ham madaniyat, san‘at va badiiy- estetik ijod yo‘nalishidagi o‘quv yurtlariga hujjat topshiruvchi yoshlar, abituriyentlar soni beligilangan kvotadan 10 - 12 marta yuqorida. Biz uchun muhim tomoni shundaki, ushbu yo‘nalishdagi o‘quv yurtlari talaba yoshlarning ijtimoiy-gumanitar fanlarga bo‘lgan qiziqishlari boshqa talabalarnikidan keskin farq qiladi, ular ijtimoiy muammolarni anglash va tushuntirib berishda mustaqil fikrlashga moyildirlar. Ular ijod falsafasi va sotsiologiyasini asosiy fan, bilim sohasi sifatida qabul qiladilar va ijodiy izlanishlarida ularning tavsiyalariga tayanadilar. “Inson - Tabiat” modelidagi kasblarga tabiat ne‘matlaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi, moddiy ne‘matlar va boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyat turlari kiradi. Bunday kasb, faoliyat turlarini egallash asosan boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va marketing talablarini, xullas, mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat asoslarini bilishni taqozo qiladi. Bu esa qurilish, arxitektura, transport, geologiya, yekologiya sohalariga mo‘ljallangan o‘quv yurtlarida ta’lim olishni talab qiladi. Yuqorida modellar bir birini to‘ldirib ham keladi. ularni sof holda uchratish qiyin. Shunga qaramay, kasbiy shakllanish jarayonlarini aniqroq tasavvur yetish uchun ularga murojaat etish, amaliy tajribalarni umamlashtirish va talaba yoshlarni qiziqishlarini yo‘naltirishda muhimdir. Shaxsga u yoki bu mehnat turi, uning ichki xususiyatlari va alohidaligi, professiogrammi bilan tanishish imkonini beradi. Ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar rang- barang, mehnat bozori yangi-yangi faoliyat turlari bilan boyib borayotgan hozirgi davrda yoshlarga kasb tanlash oson emas. Shuning uchun prfessiogrammni tanlashda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur bo‘ladi: 1. Kasblar haqida ko‘proq ma’lumotlarga, bilimlarga ega bo‘lish; 2. Qiziqishingizni aniqlab olish; 3. U yoki bu kasbga oid bilim va ko‘nikmalarni qaysi o‘quv yurtidan olish mumkinligini bilish; 4. Kasb tanlashda asosiy faoliyatdan tashqari yana boshqa kasb zahirasini shakllantirish; 5. Kasbga oid ma’lum bir boshlang‘ich ko‘nikma va tasavvurlarga ega bo‘lish.

Umumiy xususiyatga ega bo‘lgan ushbu professiogrammaga oid talablar talaba yoshlarda har doim ham amal qilavermaydi. Bu o‘rinda talaba yoshlari, etnomadaniy tajribalar va oilaviy steretiplarga ergashib kasbiy shakllanishni tanlashi kuzatiladi. Masalan, “Mazkur o‘quv yurtini tanlashingizga asosan nimalar ta’sir etgan?” degan savolimizga olgan javoblarimiz quyidagicha bo‘ldi.

Chizmada keltirilgan javoblar ko‘rsatadiki, talaba yoshlari o‘zi kirgan o‘quv yurtini tanlashiga turli etnomadaniy, sotsial va psixologik omillar ta’sir etgan. Texnika yo‘nalishidagi o‘quv yurtlari talabalari qiziqishlariga asosan “mutaxassislar bilan uchrashuvlar”(24%) ta’sir etgan. Ikkinci o‘rinda (8%) “maktab”, keyin “ ota-onam” degan javob (7%) turadi. Agar ushbu javobdan kelib chiqsak, yoshlarimizning ilmiy-texnik bilimlarga, texnika ijodiga qiziqishining yuqori emasligi boisini anglaymiz. Davlatimiz texnika universitetlariga har yili qabul kvotalarini oshirib borayapti, biroq ularga kiruvchi yoshlari kam, kvotalarning 25-30% ga yaqini deyarli bajarilmay qoladi. Axborot texnologiyalar yo‘nalishidagi o‘quv yurtlari talaba yoshlarning qiziqishlariga asosan “maktab” (9%) ta’sir etadi. Undan keyin “ ota- onam “ (4 %) va “ijtimoiy fikr” (4 %) degan javob keladi. Keyingi yillarda axborot texnologiyalariga oid bilimlarga, kasbga qiziqish keskin oshdi, yoshlari ularni chuqurroq o‘rganishga intilishadi. Bu ijobjiy hol, albatta. Bu ijobjiy hol, albatta. Biroq respondentlarimiz axborot texnologiyaga bo‘lgan qiziqishlariga asosan kimlar ta’sir qilgani haqida aniqroq tasavvurga ega emas, chamasi, ular buni o‘zlarining shaxsiy qiziqishi natijasi, deb biladi. Iqtisodiyot (16%), tibbiyot (28%), pedagogika “(18%), yuridik yo‘nalishdagi o‘quv yurtlari talaba yoshlari qiziqishlariga “(18 %) asosan ota-onalari, oilaviy etnomadaniy muhit ta’sir qilganini bildiradilar. Ta’sir etgan tadbirlar yo‘nalishlari turlicha ko‘rsatkich beradi. Masalan, tibbiyot o‘quv yurtlari talabalari qiziqishiga “ijtimoiy fikr” (38%), “OAV” (21%), “do’stlarim” (42%), yuridik sohadagi talabalar qiziqishiga “madaniy -ommaviy tadbirlar” (20%), “OAV” (20%), “ ota-onam” (18 %), chet tillar sohasidagi yo‘nalishdagi o‘quv yurtlari talabalariga “madaniy-ommaviy tadbirlar” (33 %), “OAV” (23%), maxsus targ‘ibotlar (19%) ni tashkil kabilr kiradi. Ma’lum bo‘ladiki, talaba

yoshlarning u yoki bu o'quv dargohini, kasbni tanlashida asosan ota-onasiga ijtimoiy fikr, madaniy - ommaviy tadbirlar, OAV ko'proq ta'sir qiladi

"Mustaqil o'zim tanladim" deb javob berganlar ichida tibbiyot(38%) sohasini tanlagan talabalar etakchi o'rinda turadi, ulardan keyin pedagogika (20%), iqtisodiyot (17 %), va yuridik soha talabalari (12%) keladi. Bu raqamlar talaba yoshlar o'z taqdirini, kasbiy shakllanishini mustaqil hal etishga moyil, o'rni kelganida ular bu borada tashabbus ko'rsatib, oilaviy stereotiplarni buzishga, ularga o'z qarashlarini, tasavvurlarini olib kirishga intilishadi. Bugun yoshlarimiz demokratiya imkoniyatlaridan foydalanishdan manfaatdor, ular bor kuchlarini ana shu huquqiy qadriyatlarni qaror toptirishga, o'zining psixologik va sotsial "men"ini namoyon yetishga intilishadi. Bu ijobjiy hol, albatta. Professiogramma har bir kasbning o'ziga xosligini, kadrning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ulushini va daxldorligini, mas'ulligini va vazifalarini, boshqarish tizimidagi mavqeini va o'rmini belgilab beradigan davlat tomonidan o'rnatilgan tafsivlar majmuidir. Har bir kadr ana shu professiogrammasiga muvofiq faoliyat yuritadi, o'zining vakolat chegaralarida harakat qiladi. Bu talablar bo'lg'usi kadrler, ya'ni kasbiy shakllanishga kirishgan talaba yoshlarga ham taalluqli mezonlar, dasturamaldir. Shuning uchun maxsus o'quv yurtlarida bo'lg'usi mutaxassislar kasbiga oid bilimlar, talablar va normalar bilan tanishti riladi, ular bu bordagi nazariy bilimlarini imtihon, sinovlar tarzida isbot etishadi.

Bugun amaliyotda davlat tomonidan ishlab chiqilgan va maxsus idoralar tomonidan ma'qullangan professiogrammalar mavjud. Masalan, madaniyat muassalarida faoliyat yurituchi klub xodimlari professiogrammasi, ijtimoiy xodim professiogrammasi, xizmatlar sohalaridagi xodimlar professiogrammasi, ta'lif tarbiya sohasidagi kadrler professiogrammasi, mahalliy boshqaruv xodimlarining professiogrammasi, shifokorlar professiogrammasi. Ushbu manbalar va adabiyotlarni tahlil qilish ko'rsatadiki, kadrler tayyorlash ana shu normativlar va talablarga muvofiq amalgaga oshiriladi. Biroq ijtimoiy hayot bir joyda turmaydi. Mehnat bozori tinmay kengayish, unda yangi-yangi mehnat resurslarini paydo bo'lish xususiyatiga ega. Shunday ekan, bu professiogrammalar tuzishga o'z talablarini qo'yadi. Goho shunday bo'ladiki, professiogramma real hayot talablariga javob bermay qoladi, o'n, yigirma, hatto ellik yil avval tuzilgan professiogramma hozirgi davrga to'g'ri kelmay qoladi. Bunday paytda professiogrammani qayta ishslash, to'ldirish va mutaxassislarining kasbga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishga oid yangi qoidalar kiriilishi zarur bo'ladi. Ming afsuski, professiogramma tuzish amaliyotdan, davr talablaridan orqada qolmoqda. Masalan, keyingi yillarda har bir sohada marketolog va menejer, bolalar stamotologi, injener dispatcher, injener temir yo'lchi, oshpaz sinovchi, ofitsiant, sahna bezatuvchi, prodyusser, yuk tashuvchi, katta ofitsiant kabi ko'plab kasb egalari, faoliyat turlari paydo bo'ldi, ammo ularning professiorammasi ishlab chiqilmagan. Natijada oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan kadrler o'z kasbi, faoliyati bo'yicha aniq tasavvurlarga ega bo'lmay, goho eski, rasman e'tirof etilmagan, shunchaki og'zaki aytildigan tartiblar va qoidalar bilan hayotga yo'l oladi. Huquqiy davlatda har bir kasb egasi mutaxassis o'z huquq va erkinliklarini, kasbiy burchlarini yaxshi bilishi talab qilinadi. Bu nafaqat uning o'zi uchun, shuningdek, kasbiy vazifalarini bajarayotganda yuzaga keladigan anglashilmovchilik va nizolarniadolatli, qonunlar doirasida hal yetish uchun ham zarurdir.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев 2024 йилнинг 5 февраль кунидаги "2024 йилда таълим, соғлиқни сақлаш, рақамлаштириш, маданият ва спорт соҳаларида амалга оширишилиши лозим бўлган устувор вазифалар юзасидан видеоселектор йиғилиши", <https://yuz.uz/a/uz/95276>.
2. Козловская С.Н. Профессиограмма социального работника. Учебное пособие.-Москва: РГСУ. 2011.
3. Жильцов В. Техника составления профессиограммы: Методическое пособие. - Москва: АО "Лицсовет", 2017.

REZYUME:

Har bir ongli kishi hayot, umr mazmuni, tiriklik, faoliyat haqida fikr yuritadi, o‘zining ma’lum bir stereotiplarini, xatti- harakatlari modellarini, psixologik ustanovkalarini shakllantiradi.

Kalit so‘zlari: differensial belgilar, taddiqot mantig‘i, sotsiopsixologik asoslar, tipologik xususiyatlar, intravert va yekstravert, psixologik funksiyalar, stereotiplar

РЕЗЮМЕ:

Каждый сознательный человек задумывается о смысле жизни, жизненной силе, деятельности, формирует определенные стереотипы, модели поведения, психологические предположения.

Ключевые слова: дифференциальные признаки, логика исследования, социально-психологические основы, типологические особенности, интроверт и экстраверт, психологические функции, стереотипы.

RESUME:

Every conscious person thinks about life, the meaning of life, vitality, activity, and forms certain stereotypes, behavior patterns, and psychological assumptions. Vocational training is not just a need, it is a fundamental aspect of human life.

Key words: differential features, logic of research, socio-psychological foundations, typological features, introvert and extrovert, psychological functions, stereotypes.

**JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI
YUKSALTIRISHDA HUQUQIY TARG'IBOTNING ROLI**

Mahmudova X. M. -
BuxDU o'qituvchisi

Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Huquqiy targibot fuqarolarni davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan so'nggi o'zgarishlardan xabardor qilish ijtimoiy fikrni yanada sog'lomlashtirish, jamiyatda ijtimoiy axborot xavfsizligini ta'minlash va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga muhim o'rinn tutadi. Bu borada huquqiy targ'ibot orqali mamlakat hayoti va rivoji uchun qabul qilinayotgan eng so'ngi qonunlar, qarorlar va barcha sohadagi normativ huququiy hujjatlarning tub mohiyati va ahamiyatini aholiga tushuntirish va bu orqali fuqarolarning qonunchilikda o'z fikr mulohazalari va fikrlarini shuningdek, takliflarini bildirishlari uchun, o'zlarining huquq va erkinliklarini yanada yaxshiroq bilishlari va foydalanishlari uchun shart-sharoit yaratib berishligi bilan ahamiyatlidir. O'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining aholi o'rtasida olib borilayotgan seminar treninglar, sayyor qabullar, turli boshqa keng qamrovli huquqqiy tadbirlari orqali xalq bilan to'g'ridan - to'g'ri muloqat qilishga va barcha sohadagi normativ huququiy hujjatlarning tub mohiyati va ahamiyatini aholiga tushuntirish orqali keng targ'ib qilib kelmoqda. Bu esa jamiyatda huquqqiy ong va huquqiy madaniyatni o'sishida sezilarli ta'sir qiladi, albatta.

O'zbekiston jamiyatida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishdagi tadqiq etishda analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, gramatik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Huquqiy ong darajasi jamiyat a'zolarining huquqiy ma'lumotlariga ham bog'liqdir. Shunga ko'yra, fuqarolarning huquqiy madaniyat darajasini ko'ytarishga ko'ymak beradigan huquqiy axborot tizimini tashkil qilishning ahamiyati katta. Huquqiy madaniyatning darajasiga qarab, huquqiy ong 3 turga ajratiladi: oddiy, ilmiy va kasbiy.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni bilan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shgan davlat organlari va tashkilotlar xodimlarini rag'batlantirish maqsadida "Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochisi" ko'krak nishoni ta'sis etilganligi buning yaqqol dalilidir. Ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan "Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochisi" ko'krak nishoni to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida 2019-yil 22-martdagi 240-son qarori qabul qilinib, ushbu nizom tasdiqlandi.

Nizomga ko'ra, ko'krak nishoni bilan jamiyatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shgan davlat organlari va tashkilotlar xodimlari aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko'rsatgan xizmatlari uchun taqdirlanadilar.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 15-avgustda qabul qilinib, Senat tomonidan 2017-yil 24-avgustda ma'qullangan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi Qonun ham aynan jamiyatda huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida qabul qilingan. Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlashning asosiy prinsiplari huquqiy axborotni tarqatish hamda undan foydalanishni ta'minlashning oshkoraliqi, ochiqligi, o'z vaqtidaligi, huquqiy axborotni izlash va olish erkinligidan qay tartibda foydalanish to'g'risida barcha qoidalar belgilangan.[6]

Huquqiy axborot - normativ-huquqiy hujjatlarning, ularga oid rasmiy sharhlarning, normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish tartibi to'g'risidagi tushuntirishlarning, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonun hujjatlari qo'llanilishi masalalari bo'yicha qarorlarining matnlari, shuningdek sud amaliyotini umumlashtirish materiallaridir.

Huquqiy axborotdan foydalanish - huquqiy axborotni erkin olish va undan foydalanish imkoniyati; huquqiy axborotni tarqatish - nomuayyan doiradagi shaxslarni huquqiy axborot bilan tanishtirishga qaratilgan harakatlardir.

Shuningdek, ushbu Qonunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi ekanligi va huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirishligi to'g'risida belgilangan.

Shu bilan birga, Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, tashkilotlar, mahally davlat hokimiyat organlari, axborot kutubxona muassasalari, ta'lim muassasalari, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolar o'z vakolatlari doirasida: huquqiy axborotni belgilangan tartibda tarqatadi, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlarni yuborish, e'lon qilish, o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirish orqali tarqatadi; o'zi qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini hamda zarur bo'lgan taqdirda, ularga doir axborot-tahliliy materiallarni yuborish va rasmiy e'lon qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yo'llaydi. Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash tartibi, huquqiy axborotni tarqatish usullari quyidagicha belgilangan: normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini yuborish; normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy e'lon qilish; normativ-huquqiy hujjatlarni norasmiy e'lon qilish; huquqiy targ'ibotni amalga oshirish; jismoniy va yuridik shaxslarga ularning so'rovlariga ko'ra huquqiy axborot taqdim etish va boshqalar... Normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy targ'ibot yo'lli bilan tarqatish barcha davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari ham huquqiy targ'ibotni amalga oshirishi mumkin. [7]

Huquqiy targ'ibot quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari va muloqotlar o'tkazish;

ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan teleko'rsatuvalar va radioeshittirishlarni tashkil etish, bosma va elektron ommaviy axborot vositalariga maqolalar va huquqiy-axborot materiallarini joylashtirish orqali;

sharhlar, risolalar, plakatlar, bukletlar va flayerlar tarqatish;

ijtimoiy reklamalar (videolavhalar, infografikalar va boshqalar) hamda targ'ibotning qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan bosha turlari orqali.

Davlat organlari va tashkilotlarning huquqiy targ'ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish Huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha davlat organlari ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengash hamda uning hududiy komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining tarkibida kiruvchi barcha davlat va nodavlat Oliy ta'lif muassalarining Yurisprudensiya ta'lif yo'naliishi talabalaridan ixtiyoriy "Huquq targ'ibotchilari" klubini tashkil etib, dasturini ishlab chiqib, dastur doirasida faol a'zolari tomonidan qonunchilikdagi yangiliklar va normativ huquqiy hujjatlarning tub mohiyati va ahamiyati keng targ'ib qilish taklifini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu esa jamiyatda huquqqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlanishida, fuqarolarning jamiyatdag'i o'zgarishlarga va qonunchilikdagi yangiliklarga befarq bo'lmadan faol bo'lishlarida oz bo'lsada o'z hissasini qo'shishiga ishonaman. Shuningdek, yaqin kelajakda "Huquq targ'ibotchilari" klubi jamiyat uchun eng kerakli, salohiyatli, huquqiy bilimi va saviyasi, tajribasi yuqori bo'lgan kadrlarni tayyorlashda ham ahamiyatli bo'ladi.

"Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish - demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!". Shunday ekan, qonunlarning samarali ishlashi uchun fuqarolarning huquqiy ongini, huquqiy madaniyatini, huquqiy mafkurasini yuksaltirish juda muhim. Aholining barcha tabaqalari, ayniqsa yosh avlodning huquqiy bilim saviyasini yuqori darajaga ko'tarish bilan biz qonun

buzilishlari,adolatsizliklar , jinoyatlarning oldini olgan bo‘lamiz. Zero, har bir fuqaro iqtisodiy va siyosiy islohotlar jadal o‘tkazilayotgan hozirgi davrda qaerda ishlamasin, xizmat qilmasin, o‘qimasin, har qadamda huquqiy bilimga ehtiyoj sezishi tayin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish - demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!”. Shunday ekan, qonunlarning samarali ishlashi uchun fuqarolarning huquqiy ongini, huquqiy madaniyatini, huquqiy mafkurasini yuksaltirish eng muhim vazifadir. Aholining barcha tabaqalari, ayniqsa yosh avlodning huquqiy bilim saviyasini yuqori darajaga ko‘tarish bilan biz qonun buzilishlari, adolatsizliklar, jinoyatlarning hamda korrupsiyaning oldini olgan bo‘lamiz. Zero, har bir fuqaro iqtisodiy va siyosiy islohotlar jadal o‘tkazilayotgan hozirgi davrda qayerda ishlaotgan bo‘lsa ham, yoki xizmat qilayotgan bo‘lsa ham, ta’lim olayotgan bo‘lsa ham, har qadamda huquqiy bilimga ega bo‘lishi kerakligi zamon talabidir.

2023-yil 10-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka etkazish va tushuntirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3271-IV/KQ-520-IV-sonli Qo‘shma qarori qabul qilndi va ilovaga muvofiq yil davomida Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish va tushuntirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar Dasturiga muvofiq mas‘ul bo‘lgan barcha davlat organlari, vazirliklar, tashkilot, korxona, muassasa va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Joylarda “Xalq Konstitutsiyasi bilan xalqchil davlat sari!” hamda “Mening Konstitutsiyam!” shiorlari ostida hududlarda yangilangan Konstitutsiya targ‘iboti bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini tashkil etildi.

Yoshlarga o‘z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini o‘rgatishga qaratilgan “Street law” (Ko‘cha huquqi - oddiy huquq) loyihasi doirasida ta’lim muassasalarida yangi tahrirdagi Konstitutsiyani tushuntirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlari tashkil etilib, samarali amalga oshirildi.

Yoshlar o‘rtasida “Konstitutsiya bilimdoni” onlays tanlovlari, Davlat xizmatchilari o‘rtasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini bilasizmi?” mavzusida test sinovlari, o‘quv muassasalarida “Konstitutsiya olimpiadaları” o‘tkazildi. Bu tadbirlar Ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borildi. Bunday tadbirlar fuqarolar faolligini oshirib, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga katta hissa qo‘sadi.

ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-249352>
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1997-yil 29-avgustdagagi 466-I-sonli jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son [Farmoni](#)
4. Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “Huquqiy targ‘ibot ishlari a’lochisi” ko‘krak nishoni to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 22-martdagagi 240-son [qarori](#)
5. Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 15-avgustda qabul qilinib, Senat tomonidan 2017-yil 24-avgustda ma’qullangan “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minalash to‘g‘risida”gi Qonuni
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli farmoni
7. <https://buxdu.uz/yangiliklar/2863/>

REZYUME:

Ushbu maqola jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksalishida huquqiy targ‘ibotning roli va ahamiyatining muhim jihatlari hamda bunga yaratib berilayotgan shart sharoitlar, jamiyatdagi huquqiy ongning bugungi holati o‘rganilib, qayd yetilgan muammoni hal yetish yo‘llari taklif yetilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy targ‘ibot, Adliya vazirligi, nuquqiy axborot, normativ-huquqiy hujjatlar, inson huquqlari, Yangi O‘zbekiston strategiyasi

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматриваются важные аспекты роли и значения правовой пропаганды в развитии правосознания и правовой культуры в обществе, а также созданные для этого условия, современное состояние правосознания в обществе и пути решения отмеченных проблем.

Ключевые слова: правосознание, правовая культура, правовая пропаганда, Министерство юстиции, правовая информация, правовые документы, права человека, стратегия Нового Узбекистана.

RESUME:

This article examines the important aspects of the role and importance of legal propaganda in the development of legal consciousness and legal culture in society, as well as the conditions created for this, the current state of legal consciousness in society, and ways to solve the noted problem are proposed.

Key words: legal consciousness, legal culture, legal propaganda, Ministry of Justice, legal information, legal documents, human rights, New Uzbekistan strategy

**YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSIY VA HUQUQIY MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR VAZIFALARI**

Obbosxonov A.A. -
O'zMU tadqiqotchisi

Yoshlarning o'z-xohish irodasini erkin namoyon etishi, bilimi, intelektual salohiyati, hayotiy tajribasi, huquqiy savodxonligi va o'z huquqlarini himoya qilishi ularning jamiyatdagi mavqeini belgilab berishning, muhim omilidir. Yoshlarga oid institutsional tuzilmalar mamlakatimizda amalgalashirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohatlat jarayonlaari bilan bog'liq ravishda mustahkamlanib bormoqda. Davlatamiz bu jarayonlarda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular salohiyatining yorqin namoyon bo'lishi uchun shart-sharoitlarni yaratmoqda. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlartirish ma'naviy va mafkuraviy qadriyatlar uyg'unligida amalgalashirishni davr taqozo qilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi xech qachon bo'lmaydi. Chunki qalbi, miyasi, ongu tafakkuri xech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan tuxtamaydi. Demak, unga ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l qo'ymasligimiz kerak."

2023-yilning 11-aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida yoshlar siyosati sohasidagi ishlarni natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini tashkil qiladi. Mehnat bozoriga har yili 600 ming yoshlar kirib kelayotgan bo'lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga etadi. Shu bois yoshlarga sifatli ta'lim berish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ishlarni mahallada tashkil etish bo'yicha vertikal boshqaruva tizimi yaratildi. 9 ming 500 ta mahallaga fidoyi va tashabbuskor yoshlar yetakchilari tayinlandi. Bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash amalga oshirildi. Shu bois yoshlarga sifatli ta'lim berish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ishlarni mahallada tashkil etish bo'yicha vertikal boshqaruva tizimi yaratildi. 9 ming 500 ta mahallaga fidoyi va tashabbuskor yoshlar yetakchilari tayinlandi. Bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash yo'lga qo'yildi.

Videoselektor yig'ilishida ma'naviy targ'ibotning qamrovi va ta'sirchanligi pastligi, yoshlarning qiziqishlari inobatga olinmayotgani ko'rsatib o'tildi.

Shu bois Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatini takomillashtirish, yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilib, ularga sog'lom fikr beradigan manbalarni ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Umuman, bu sohadagi davlat siyosatini samarali tashkil etishga qaratilgan "Yangi O'zbekiston yoshlari" dasturini ishlab chiqish, qonunchilikni o'zgartirish vazifalari belgilandi.

Prezidentimiz yoshlar bilan ishlash barcha rahbarlarning, keng jamoatchilikning, butun jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi ekanini ta'kidladi.

Tadqiqotchilar O'zbekistonda shakllangan siyosiy madaniyatning quyidagi umumiy xususiyatlari mavjud, deb ko'rsatishadi:

- Alohibda olingan shaxs manfaatlarining davlat va jamiyat an'analariga hamohangligi;
- Ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat va jamiyatning halq qiluvchi ahamiyatga molik roli e'tirof etilishi;
- Hokimiyatga hurmat bilan munosabatda bo'lish an'anasing mavjudligi rahbarlarning ma'naviy qiyofasiga yuksak talab qo'yish;
- Parlament va boshqa vakillik organlarining ijtimoiy hatotdagi roliga e'tiborli munosabatning mavjudligi;
- Deyarli siyosiy partiylar vakillariga xos bo'lgan xislat- o'z g'oy va tamoyillarning to'g'riligiga qat'iy ishonch.

“Shaxs-davlat-jamiyat tizimida manfaatlarni uyg‘unlashtirish nafaqat siyosiy jarayonlarni ratsional boshqarish ehtiyojidan, shu bilan birga, sharqona axlob-odob va demokratiya talablaridan ham kelib chiqadi. Demokratik taraqqiyotning manfaatlar rang-barangligi kengaygan sharoitda ularni mutanosiblashtirish, utg‘unlashtirish siyosiy faoliyatning bosh vazivasiga aylanadi. Alovida olingan har bir shaxs va guruhning maanfatlarini rad etmagan holda, ularni sintezlash vas hu tariqa uyg‘unlikka erishish-g‘oyat murakkab vazifa, ammo bu vazifanihal etishni ratsional usulini topmay fuqarolik jamiyatni va demokratik huquqiy davlat qurib bo‘lmaydi”.

Ijtimoiy faollik kishilarning xususiy extiyojlarini qondirish maqsadi bilan bog‘liq xatti-harakat bo‘lsada, uni ratsional tashkil qilish kerak. Jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga qaratilgan faoliyat destruktiv, betartib, o‘zboshimchalik ifodasi bo‘lishi mumkin emas. Uyushtirilganlik va ratsionallik har qanday ijtimoiy-siyosiy faoliyatning xususiyati sifatida ixtiyoriy, ommaviy xatti harakatlarni sotsium manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bunday tashkilotchilik funksiyasini fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari yoki nodavlat tashkilotlari bajaradi “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish” tamoyili ham ana shu uyushgan yoki tashkil etilhan fuqarolik institutlari orqali amalga oshiriladi.

Yoshlarning Mahalla ma’naviy-madaniy hayotini tashkil etish va boshqarishda ishtirok qilish ularda ijtimoiy faollikni shakllantiradi, undagi o‘zining ijodiy tashkilotchilik qobiliyatini o‘stiradi. Aholi bilan muloqot esa kishilarda munosabatlarni mustahkamlaydi, bir-biriga yordam berish, ahil bo‘lib yashash, kommunitar turmush tarzining afzalligini tuyish imkonini beradi.

Milliy o‘zlikni anglash ijtimoiy rivojlanishning obyektiv sharoitlarida shakllanadi va rivojlanadi. Vatanga sadoqat milliy o‘zlikning anglasgning shakllanishi va rivojlanishi uchun muattan zami n yaratadi va u siyosiy madaniyatda o‘z ifodasini topadi. Agar xalqlarning mental xususiyatlaridan kelib chiqib fikr yuritadigan bo‘lsak, bizga malumki, o‘zbek xalqi g‘ururi, oriyati, ma’naviyati baland xalq hisoblanadi. Bu hech shubhasiz, katta boylik Ajodolarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo‘qotib qo‘ysak, kelgusi avlodlar bizni also kechirmaydi.

Bugungi kundagi siyosiy madaniyat va milliy o‘zlikni anglashning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bunda har qanday ijobjiy omil faqat salbiy omilning nisbati sifatidagina mavjud bo‘lishini unutmashlik kerak. Milliy o‘zlikni anglash o‘zining betakrorligi va o‘ziga xosligi bilan ximoya qilar ekan, agar u millatchilikni ozgina bo‘lsa ham himoya qilsa va unda o‘zining salbiy ziddini ko‘rmasa, amalda rivojiana olmaydi. Yangi milliy tuzulmalarning vujudga kelishi bilan hisoblashishni istamaydigan kuchlar ham, milliy omillarni targ‘ib qiluvchi, boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni uzuvchi kuchlar ham teng darajada xavflidir. Shaxsda milliy o‘zlikni anglash hissining shakllanishi va rivojlanishi obyektiv jaraon bo‘lib, u sirtdan ta’sirlarga bo‘ysunmaydi.

Bizning fikrimizcha, siyosiy madaniyat o‘zini o‘zi tartibga soluvchi mexanizm sifatida amal qilinishi ikki darajada rivojlanishi mumkin: birinchi -milliy birlikning o‘zgarayotgan vaziyatga moslashivuni nazarda tutuvchi moslashish darajasida; ikkinchi-milliy tuzilmalar faoliyatining u yoki bu jihatlari faol tus olishidan iborat bo‘lgan moslashish darajasida.

Shaxsning siyosiy madaniyati darajasining madaniy yuksalishini ta’minlovchi milliy uyg‘onishda ma’rifa va vatanparvarlik ulkan ro‘l o‘ynaydi. Aynan shu omillar uning poklanishiga, soxta ideallar va g‘oyaviy illyuziyalardan xalos bo‘lishiga ko‘maklashishi, halollik, ezmuli va haqiqatning qaror topishiga imkoniyat yaratish mumkin Ma‘rifat va vatanparvarlikdan xalqni kamsitgan va kamsituvchi hamma narsaga chuqur nafrat shakkalrini topish va targ‘ib qilishgina emas, balki ezmulik va oliyjanoblik urug‘ini sochuvchi hamma narsani ulug‘lashni ham kutish o‘rinli bo‘ladi

Tajriba milliy omillarni tushunmaslik, ularni e’tiborga olmaslik yoki ularga loqaydlik, milliy hayotning barcha sohalarini yangilash asoslari haqidagi dogmatic fikrlash uslubi, ushbu jarayonda mavjud jiddiyatlarga e’tiborsizlik, milliy va vatanparvarlik asoslarining rivojlanishi yo‘lida sun‘iy to‘siqlar yaratish milliy rivojlanish uchungina emas, balki umuminsoniy qadriyatlar taraqqiyoti uchun ham zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Siyosiy madaniyat, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar yaxlit hodisa-inson ma’naviy dunyosining muhim omillaridir. Tahlil bu erda o‘rganilmagan jihatlar hali

bisyor ekanligini ko'rsatadi. Siyosiy madaniyat, milliy o'zlilni anglash va vatanparvarlikning rivojlanishi bilan bog'liq real vaziyatdan kelib chiqib a) milliy rivojlanish jarayoning demokratiyalashuvi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, siyosiy madaniyat, milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik sohasidan barcha oh'riqlar chiqib ketishiga to'sqinlik qilmaslik; b) moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'zaro ayiraboshlash, ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish shakllari va usullari doirasining kengayishi uchun zamin yaratish muhimdir.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda yoshlari soni (14 – 30 yoshdagi) 9 million 685 ming 564 nafarni tashkil etgan.

«Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tomonidan o'tkazilganyoshlar qay darajada o'z huquqlarini biladi degan ijtimoiy so'rovnoma Yoshlar orasida o'z huquqini bilmaydiganlar 36,5 foizni, huquqlarining aksariyatini biladiganlar 50,6 foizni tashkil etadi. Faqtgina 1,7 foizi yoshlarga o'z haq-huquqlari xususida to'liq ma'lumotga ega. Mazkur statistik ma'luotlar «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tomonidan «Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, jinoyatga moyil yoshlarni aniqlash» mavzusida o'tkazilgan tadqiqot natijalari sifatida taqdim etildi. Tadqiqot davomida yoshlarning huquqiy savodxonlik, jinoyatchilik haqidagi tasavvurlari so'rovnoma asosida tahlil qilindi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, yoshlarning 41,3 foizi huquq haqidagi bilimlarini ommaviy axborot vositalaridan, 38,5 foizi o'qituvchi va ustozlaridan, 35,1 foizi huquq fani o'qitilishi davomida beriladigan ma'lumotlardan oladi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 72,4 foizi ba'zi hollarda o'z huquqini bilmasligini his qilishini ko'rsatib o'tgan. «Jinoyat qilishga moyil bo'lgan yoshlarning asosiy xususiyati nima?» degan savolga 47 foiz respondent ko'p vaqtini ko'chada o'tkazish, 42,1 foizi alkogol va giyohvand moddalarni iste'mol qilish, 34,9 foizi agressivlikni asosiy xususiyat sifatida qayd etgan. Shuningdek, tadqiqot davomida huquqiy savodxonlikning pastligiga sabablar ham sanab o'tilgan. Yoshlarda huquqiy bilimning etarli emasligiga tadqiqot ishtirokchilarinng 43,9 foizi shaxsiy qiziqishning yo'qligini, 22,8 foizi huquqiy tarbiya tizimining nomukammaligini, 14,2 foizi yoshlarni huquqiy ma'lumotlar bilan ta'minlash tizimining samarasiz ekanligini sabab sifatida ko'rsatib o'tgan.

“Yoshlar daftari”ga 396 mingdan ziyod yoshlarni kiritilib, 278 ming nafari yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 70 ming nafardan ortiq yoshga 430 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi. Yoshlar etakchilari tavsiyasi bilan 44 mig nafar talabaga 130 milliard so'm kantrakt pullari to'lab berildi va 257 ming nafariga 3,2 trillion so'mlik imtiyozli ta'lim kreditlari ajratildi.

Shu bilan birga, 2023-yilning o'tgan davri mobaynida yoshlari va sport sohasiga oid jami 25ta normativ-huquqiy hujjat (O'zbekiston Respublikasining qonuni-1 ta, Prezident farmoni-1 ta va qarori-7 ta Vazirlar mahkamasi qarori-11 ta va farmoyishi-3 ta hamda idoraviy normativ huquqiy-hujjat-2 ta) qabul qilindi Xulosa qilib aytganda jamiyatga yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun yoshlarni siyosiy va huquqiy madaniyatlarini shakllantirish muhim omillardan biri bo'lib, ijtimoiy faollikni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida siyosiy-huquqiy bilimlarni talab etadi. Faqt siyosiy-huquqiy bilimga va madaniyatga ega shaxsgina jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda faol qatnashadi, ijtimoiy faollikni o'zining fuqarolik burchi deb bilad. Yoshlarda milliy o'zlikni anglash kabi tushunchalarini paydo qilish uchun moddiy va madaniy meroslarni chuqur o'rganish ham talab etilmoqda. Bu fazilarlarni uyg'un ravishda shakllantirishni va rivojlantirishni O'zbekistonda uchinchi Renesans poydevorini yaratish asosiy mezonlardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. III. Мирзиёевнинг Янги Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент Ўзбекистон, 2021-йил 274-бет.
2. Президент Ш.Мирзиёев раислигига 2023-йил 11-апрел куни ёшлиар сиёсати соҳасидаги ишлар натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши.
3. Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги тўғрисидаги хужжатлар. -Т,1991; Мустақиллик тарихи- Тошкент: Шарқ; 2000;
4. Отамуродов С. Ёшлиар сиёсий маданиятини ривожлантириш омиллари. Тошкент “Ўзбекистон” 2015

5. Муминов А.Г. “Ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитишида Президент Ш. Мирзиёвнинг “Янги Ўзбекистон стратегияси” асаридан фойдаланиш”. Журнал: Academic research in educational sciences, 2022, №3, 70-76 бетлар

REZYUME:

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini rivojlantirishning ustuvor vazifalari, shuningdek yoshlarda vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, daxldorlik hislarini shakllantirish masalalarini tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: siyosiy ong, siyosiy madaniyat, jamiyat, qadriyat, huquqiy madaniyat, fuqaroviylar, daxldorlik, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются приоритетные задачи развития правовой и политической культуры молодежи Нового Узбекистана, а также вопросы формирования патриотизма, национальной идентичности и чувства принадлежности среди молодежи.

Ключевые слова: политическое сознание, политическая культура, общество, ценности, правовая культура, гражданственность, вовлеченность, осознание национальной идентичности, патриотизм.

RESUME:

This article analyzes the priority tasks of developing the legal and political culture of young people in New Uzbekistan, as well as the issues of forming patriotism, national identity, and sense of belonging among young people.

Key words: political consciousness, political culture, society, value, legal culture, civic consciousness, involvement, awareness of national identity, patriotism.

**ZAMONAVIY KIBERMAKON VA YOSHLARDA AXBOROT ISTE'MOLI
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

Maxsudjonov K.M. -

Qarshi xalqaro universiteti

*“Yoshlar masalalari va ma’naviy-
ma’rifiy ishlar boshqarmasi” boshlig‘i*

Bugungi kunda axborot almashinuvi jarayonlari tobora globallashib borayotgan bir paytda iste'molda juda ommalashib borayotgan terminlardan biri kibermakon tushunchasi bo'lmoqda.

Aslida, kibermakon tushunchasi birinchi marta o'tgan asrnинг 90-yillarida g'arb yozuvchisi Uilyam Gibsonning fantastik asarlarida foydalaniqgan. Hozirga kelib esa kibermakon (kibernetik makon) keng ma'noda Internet tarmoqlari orqali ma'lum bo'lgan axborot resurslari olami(virtual borliq)ni anglatuvchi tushuncha sifatida keng qo'llanilmoqda.

Ma'lumki, keyingi o'n yilliklar mobaynida ijtimoiy hayotimizning turli tarmoqlariga zamонавиy axborot texnologiyalarining shiddat bilan kirib kelishi barchamiz uchun axborot almashinuv imkoniyatlarini kengaytirish borasida ulkan qulayliklarni yaratdi. Jumladan, barcha sohalarda kompyuter texnikasidan foydalanishning ommaviy tus olayotganligi, Internet tarmoqlari xizmatidan foydalanish kundalik hayotimizning zaruriy sohalaridan biriga aylanib borayotganligi, elektron pochta, faks, uyali telefonlar kabi vositalar har kungi turmushimizning ajralmas unsurlari sifatida o'rin egallayotganligi kishilarning turmush darajasini yuksaltirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot muammolarini hal qilishda juda muhim ahamiyat kasb etayotgan o'ziga xos kibermakon taraqqiyotiga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlardir. Xususan, yoshlar ta'limi va tarbiyasida, ularning ongi va dunyoqarashini shakllantirishda hozirgi kunda vujudga kelgan ushbu makondan foydalanishning ahamiyati kun sayin ortib borayotganligini alohida ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda kibermakonda tobora kengayib borayotgan Internet tarmoqlari orqali turli ma'lumotlarni olish yoki uzatish vositasida yoshlar o'zlarining bilimlarini chiqurlashtirish va boyitish, ma'naviy ehtiyojlarini yanada kengroq va to'laroq qondirish imkoniyatlariga ega bo'lismoqda. Natijada internet xizmatlaridan foydalanishga nisbatan ehtiyojning shiddat bilan ortib borayotganligi oqibatida bu jarayonlar tobora globallashib boryapti.

Oxirgi yarim asr mobaynida axborot uzatish jarayonlarining 300 ming marta tezlashganligi, narxining esa ming barobar arzonlashganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Sayyoramiz uzra g'oyat ulkan axborot makoni – xalqaro internet tarmog'ining yuzaga kelishi veb-sahifaga joylashtirilgan istalgan ma'lumotning butun dunyo bo'ylab yashin tezligida tarqalishiga imkon yaratmoqda. Turli geopolitik maqsadlar uchun kurashayotgan kuchlar uchun esa endilikda kuch ishlashidan ko'ra kishilarning qalbi va ongini egallash biror bir xalq yoki mamlakatni zabit etishning eng qulay vositasiga aylanmoqda, deyish mumkin.

Kezi kelganda shuni ham alohida ta'kidlash zarurki, kibermakondagi ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashinuv jarayonlarida faqat salbiy jihatlarni ko'rish mutlaqo to'g'ri emas. Chunki internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanishning turmush tarziga aylanib borayotganligi tufayli, xususan, yoshlarimizning intellektual salohiyati tezkor ravishda yuksalib bormoqda, virtual borliq orqali kerakli ma'lumotlarni juda tez qo'lga kiritmoqdalar va bu bilan jahon miqyosida ro'y berayotgan barcha yangiliklardan tezkor xabardor bo'lismoqda.

Mutaxassislarining kuzatishlariga qaraganda, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish 2007 yilning oxirlaridan boshlab juda keng tarqala boshladi. Dunyoda ro'y berayotgan voqeа va hodisalar haqidagi xabarlarni juda katta tezlikda va ayni paytda o'ta jozibador tarzda tarqatish kabi xususiyatlari zamонавиy kibermakonda ijtimoiy tarmoqlarning tez ommalashib ketishining asosiy sababchisi bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Eng e'tiborlisi, ushbu tarmoqlar odamlarga o'z istak va xohishlari, talab va orzularini hech bir chegarasiz, odob-axloq meyorlariga rioya qilmasdan ifoda etish imkonini yaratib berdi.

Natijada ijtimoiy tarmoqlar ko‘p hollarda an’anaviy ommaviy axborot vositalari o‘rnini egallab, internet orqali ma’lumotlar, suratlar va videolarni jo‘natishning qulay vositasiga aylanib qoldi. Bu esa o‘z navbatida aholining doimo yangilikka o‘ch qatlami bo‘lgan yoshlarning ko‘p vaqtlarini virtual borliqda o‘tkazishiga olib kela boshladi. Tadqiqotlar ham ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning aksariyat ko‘pchiligi yoshlar ekanligini yaqqol tasdiqlamoqda. Buning sababi ham oddiy, u ham bo‘lsa, yoshlar yangiliklarga o‘ch bo‘lgan aholining asosiy qatlamini tashkil qilishidir. Oqibatda “Odnoklassniki”, “Facebook”, “V kontakte”, “Twitter”, “Moy mir” kabi tarmoqlardan foydalanish keyingi yillarda yoshlar o‘rtasida juda ommalashdi.

Biroq bu jarayonning ayrim yoshlarimiz tarbiyasida ko‘plab salbiy oqibatlarga olib kelayotganligi keng jamoatchilik ongida jiddiy tashvish tug‘dirmoqda. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida yoshlarimizda internetmaniya ruhi va kayfiyati ortib borayotganligi, ular virtual olamda keragidan ortiq darajadagi vaqtini o‘tkazayotganligi, ko‘p hollarda esa bu ularda aggressiv ruhiyatni yuzaga keltirayotganligiga sabab bo‘lmoqda. Mutaxassislar fikricha esa, 1 soat boshni noto‘g‘ri holatda turishi umurtqa pog‘onasida tuz to‘planishi, uni noto‘g‘ri rivojlanishga olib keladi. Xususan, britaniyalik biolog olim Arik Sigman fikriga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqdan haddan tashqari ko‘p foydalanish, real olamda odamlar bilan muloqotga kirishishning keskin kamayib ketishi inson sog‘ligi uchun katta zarar keltiradi.

Bu, albatta, masalaning tibbiy-salomatlik bilan bog‘liq tomoni. Biroq uning yanada xavfli tomoni ma’naviy jihatdan keltiradigan zarari va salbiy xavflari bilan bevosita bog‘liqliki, bunga zinhor befarq qarab bo‘lmaydi. Bularga yoshlarimiz tomonidan turli g‘arb “ommaviy madaniyat” mahsulotlariga berilish, ko‘plab axloqsiz narsalarni ko‘rish uchun behuda vaqtlarini sarflashayotganligi, ayrim jangari filmlarga nibatan qiziqishlarinig ortib borayotganligi kabilar kiradi. Xuddi shu bois taniqli jamiyatshunos olim Sherri Terkl o‘zining “Birgalikdagi yolg‘izlik” kitobida: “Ijtimoiy tarmoqlardagi suhabatlar insoniylikni barbod qilayotgan ahmoqlikning yangi shaklidir”, deya ta’rif bergen edi [2;129].

Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalayotgan tahdidlaridan yana biri – ularning ta’sirida ko‘pgina tinch-totuv oilalarining barbod bo‘lib ketayotganligidir. Xalqimiz uchun esa qadim-qadimdan oila muqaddas hisoblanadi. Har birimiz muayyan oilada tug‘ilish bilan birga ushbu muqaddas makonda qaror topadigan tartib-qoidalar ta’sirida ulg‘ayib voyaga yetganmiz. Ota-onaga cheksiz hurmat, ayol zotini qadrlash, qarindosh-urug‘larga nisbatan muruvvatli bo‘lish, qo‘niqo‘shnilar bilan mehr-oqibatli bo‘lish singari qadriyatlar millatimiz mentalitetining muqaddas jihatlaridir.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan aksariyat axborotlar esa yoshlarimiz ongidagi ana shu tushuncha va tasavvurlarni, aytish mumkinki, xiralashtirmoqda. Hattoki, ayrim hollarda ularni ota-onalarga qarshi qilib qo‘yish, yengil-yelpi hayot kechirishga o‘ch, vahshiylik holatlardan cho‘chimaydigan, aksincha, ulardan zavqlanadigan, o‘zgalarga nisbatan bemehr bo‘lib voyaga yetishi uchungina xizmat qilayotganligi barchamizga ayon bo‘lib bormoqda. Natijada ko‘pgina o‘g‘il-qizlar turmush qiyinchiliklariga bechidam, hayot sinovlariga bardoshsiz bo‘lib o‘sishmoqda, yengil hayot ketidan quvib, oilalar buzilishi ortib bormoqda. Bular esa o‘z navbatida bugungi kunda yoshlarimizda virtual makon imkoniyatlaridan maqsadli va oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biriga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Aslida, kibermakonning yuzaga kelishi dunyo va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tezkor qo‘llash natijasida texnika va texnologiyalarni yuksakroq bosqichga olib chiqish va pirovard oqibatda butun insoniyatni ushbu yutuqlardan bahramand qilish hisoblanadi uchun zarur bo‘lgan muhim ma’lumotlarni tezkor ravishda yetkazib berish maqsadlari bilan bevosita bog‘liq. Bugungi kunga kelib internet orqali muloqot qilish yer yuzida shu qadar ommalashib ketdiki, u ayniqsa, yoshlarning es-hushini xuddi ohangrabodek o‘ziga jalb qilib olgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Biroq ko‘pgina yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqlarga kirar ekan, afsuski, undagi imkoniyatlardan maqsadli foydalanish zarurligi to‘g‘risida durustroq bosh qotirib ko‘rish o‘rniga yengil-yelpi hayot tarziga oid ma’lumotlarning oshnosiga aylanib qolayotganligi kuzatilmoxda. Joylardagi internet-

kafelar asosan yoshlar bilan tirband bo‘layotganligi ham odatiy holga aylanib bormoqda. Mazkur hollarni kuzatish esa, ko‘p hollarda ularning turli ko‘ngilochar o‘yinlar o‘ynash, jangari filmlarni tomosha qilish, behayo suratlarni tomosha qilish kabilar bilan mashg‘ul bo‘lishayotganligini ko‘rsatmoqda.

Internet orqali muloqot amalda hech qanday kuch sarflamay turib, qarshilik va cheklovlargacha kelmasdan ommaning ongiga ta’sir ko‘rsatish orqali boshqalarni o‘zining nog‘orasiga o‘ynata oladigan eng ta’sirchan kuchga aylanib qoldi. Natijada ijtimoiy tarmoqlar bir-birini hech qachon ko‘rmagan bekorchi kimsalar to‘dasini shakllantiradigan, jamoatchilikdan, o‘zligidan ayrilgan, buzg‘unchi buyurtmachi g‘animlar nog‘orasiga o‘ynaydigan vositachi sifatida tinmay faollahmoqda. Turli xil yo‘llar yordamida haqiqat bilan yolg‘on o‘rtasidagi farqni payqashdan kishilarni mahrum qilish uchun harakat qilmoqda. Tajribasiz, hali oq-qoranı ajrata olmaydigan o‘quvchi esa kiber do‘sstariga barcha sirlarini, shaxsiy hayoti, o‘y-kechinmalarini oshkor qilmoqda. Natijada shirin aldonlar, soxta mulozamatlar kun sayin kuchayib, uni internetsiz yashay olmaydigan o‘ysiz, oqibatsiz kimsalarga aylantirib qo‘ymoqda.

Biroq hech qachon unutmaslik lozimki, yoshlarni doimo avaylab parvarish qilinayotgan niholga qiyoslash mumkin. Yosh nihol esa yaqin kelajakda o‘sib, ulg‘ayib meva beradigan daraxtga aylanishi uchun muntazam ravishda mehr bilan parvarishni, turli shamolu-bo‘ronlarning, qahraton qishning sovuqlari-yu, jazirama yoz issiq iqlimining tafti ta’siridan ehtiyoitlab o‘stirishni talab qiladi.

Ayni paytda shuni ham alohida ta‘kidlash zarurki, axborot almashinuv jarayonlarining globallashuvi bevosita yoshlarimiz tarbiyasi bilan ham bevosita aloqador bo‘lgan mamlakatimizdagidiniy-siyosiy vaziyatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada aynan kibermakon sabab keng tarqalayotgan turli diniy fundamentalizm va aqidaparastlik qarashlari bilan yo‘g‘rilgan yot va zararli g‘oyalari yurtdoshlarimiz ongini zaharlash, ularni yo‘ldan ozdirish maqsadida faoliyat ko‘rsatayotgan ayrim destruktiv kuchlar jamiyat barqarorligi va osoyishtaligi uchun hamon ma’lum darajada tashvish tug‘dirmoqda. Bu esa aholi orasida olib borilayotgan diniy vaziyatni sog‘lomlashtirish va barqarorlashtirish maqsadidagi hatti-harakatlarga xalaqit bermoqda.

Ijtimoiy vaziyatni o‘rganish shundan dalolat beradiki, muayyan toifadagi aholi orasida, jumladan, yoshlarimiz orasida ham diniy e’tiqod va qadriyatlarga nisbatan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu hol aholining deyarli barcha qatlamlari orasida diniy fonning quyuqlashib borayotganligi, dinga berilish darajasi kuchliligicha qolayotganligi, juma namozlariga borayotgan barcha toifadagi kishilarning ko‘pligi, ular orasida, ayniqla, maktab yoshidagilar, talabalarning mavjudligi, ayollar o‘rtasida dinga berilish, jamoat joylarida diniy libosda yurish hollari uchrab turganligi, qolaversa, qizlarni erta turmushga berish, zamonaviy to‘ylar o‘tkazish o‘rniga diniy to‘y-marosimlar o‘tkazishga berilish ko‘payib borayotganligi, otinoyilarning ta’sir doirasi kengligi va ularning aksariyati maxsus diniy ma’lumotga ega emasligi, shar’iy nikohlarning mavjudligi, yashirin ravishda bunday nikohlarning o‘qilayotganligi va ularni amalda nazorat qilinmayotganligi kabilarni sanab o‘tish mumkin.

Ko‘rilayotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan aholi gavjum to‘planadigan yoki o‘tib qaytadigan joylarda (masalan, jome masjidlari atrofi, bozorlar, savdo rastalari va b.) turli axborot tarqatish vositalari, jumladan, turli adabiyotlar, audio va video tasmalar, DVD disklar kabilar bilan savdo qilish hollari ko‘payib bormoqda. Ularning nazorat qilinishi, sotilayotgan mahsulotlarning mazmun-mohiyati va sifatining amaldagi talablar va qonunlarga javob berishi tegishli ekspertiza guruhlari tomonidan o‘rganilganda ularning orasida diniy targ‘ibot-tashviqot uchun mo‘ljallangan materillar ham uchrayotganligi tashvishli hol bo‘lib qolmoqda. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur manbalar orasida tegishli tartibda ekspertizadan o‘tkazilmaganlari ham uchramoqda. Shu o‘rinda uyali aloqa vositalari orqali video va audiomateriallarning tarqalishi alohida xavfga ega ekanligini ta‘kidlash ham o‘rinlidir. Zero, ko‘p hollarda yoshlar orasida ushbu materiallardan ularning mazmun-mohiyatini yaxshi anglab yetmasdan foydalanish hollari ro‘y bermoqda.

Albatta, ushbu o‘rinda bunday diniy vaziyatni sog‘lomlashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ko‘lami tobora kengayib borayotganligi, ularga jalb etilayotgan ishtirokchilar sonini ko‘paytirish, o‘tkazilayotgan tadbirlarning samaradorligini oshirish

usul va vositalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirish uchun jiddiy harakat qilinayotganligini ham alohida qayd etib o'tmaslik mumkin emas. Biroq shu bilan birga aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish va o'tkazish borasidagi bunday tadbirlar asosan uyushgan auditoriyalar bilan o'tkazilayotganligi, natijada ularning ishtirokchilari hamma vaqt bir xil toifadagi kishilar bo'lib qolayotganligi, ya'ni oliv o'quv yurtlarining talabalarini, məktəb və kollejlarning o'quvchilari, qolaversa, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari kabilardan iborat bo'lib qolayotganligini alohida ta'kidlash o'rindidir.

O'quv dargohlaridagi mashg'ulotlar chog'ida o'quvchilarning jome masjidlariga juma namozlariga ketib qolish hollari hamon davom etyapti yoki tirikchilik bahonasida bozorlarda aravacha sudrab yurgan yoki oldi-sotdi ishlariiga berilib ketayotgan o'quvchi yoshlarni ma'naviy barkamol insonlar sifatida voyaga yetayotganiga hech kim kafolat bera olmaydi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, kibermakonda kuzatilayotgan informatsion jarayonlar yoshlarimiz tarbiyasida axborot iste'moli bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos madaniyatni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu boradagi ishlarni tashkil etish uchun esa, bizningcha, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlariga tayanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi: "Bugungi shiddatli, murakkab zamon shuni ko'rsatmoqdaki, bu borada faqat ta'limtarbiya tizimining o'zi mavjud ma'naviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisholmaymiz. Chunki hozirgi kunda bolalarimizni ota-onasi, bog'cha, məktəb yoki institut emas, aksariyat hollarda qo'lidagi telefon "tarbiyalamoqda" [1;284].

Binobarin, aholining barcha qatlamlari orasida, xususan, mahallalardagi uyushmagan yoshlar, ta'lim muassasalaridagi o'quvchi-talabalar o'rtasida ta'sirchan usul va vositalar yordamida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish, mazkur tadbirlarga salohiyatli mutaxassislarini keng jalg qilish nazarda tutilishi lozim. Shuningdek, zarur axborot madaniyatini shakllanirish maqsadida yoshlar uchun qiziqarli va foydali ma'lumotlardan iborat bo'lgan maxsus saytlarni yaratish, ayni paytda qo'poruvchilik xarakteridagi ma'lumotlarga qarshi bo'lgan, ularni fosh etishga yo'naltirilgan ma'lumotlarni kiritishga ham e'tiborni kuchaytirish davrning dolzarb talabidir.

ADABIYOTLAR:

- Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. 284-b.
- Muhammad Amin Yaxyo. Internetdagagi tahdidlardan himoya. Toshkent, "Mavarounnahr", 2016.
- Муминов А.Г. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА АХБОРОТЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ. Science and innovation. 2024/3. 605-611-бетлар

REZYUME:

Maqolada "kibermakon" tushunchasining ilmiy muomalaga kirib kelishi, uning shakllanish bosqichlari o'rganilgan, shuningdek internet tarmoqlari xizmatidan foydalanish kundalik hayotimizning zaruriy sohalaridan biriga aylanib borayotganligi tahlil kilingan.

Kalit so'zlar: Kibermakon, globallashuv, axborot, internet tarmoqlari, Facebook, Instagram, V kontakte, Telegram.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируется внедрение понятия «киберпространство» в научное поле, этапы его становления, а также и то, что использование интернет-сервисов становится одной из необходимых частей нашей повседневной жизни.

Ключевые слова: Киберпространство, глобализация, информация, Facebook, Instagram, V kontakte, Telegram.

RESUME:

In the article, the introduction of the concept of "cyberspace" into the scientific field, the stages of its historical formation, and the fact that the use of Internet services is becoming one of the necessary areas of our daily life are analyzed.

Key words: Cyberspace, globalization, information, internet networks, facebook, instagram, V kontakte, telegram.